O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

M. E. ZUFAROVA

UMUMIY PSIXOLOGIYA

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining
o‘qituvchi va o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma

O‘ZBEKISTON FAYLASUFLARI
MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2010

88
Z98
Zufarova, M.E.
Umumiy psixologiya: o‘rta maxsus, litsey va kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘qituvchi va o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma/ M.E. Zufarova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 304 b.

BBK 88ya722

Mazkur o‘quv qo‘llanmada psixologiya fanining muammolari, tuzilishi, tamoyillari, psixik rivojlanishi qonuniyatlari, psixik jarayon va individual xususiyatlar, ularning asab tizimi, har bir psixik hayot sohasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan.

O‘quv qo‘llanma kasb-hunar va pedagogika kolleji, akademik litsey talabalariga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:
N. Erkaboyeva – pedagogika fanlari doktori,

G. Fozilova – kasb-hunar va pedagogika kolleji direktori,
M. Umarova – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9943-319-96-7

© «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.

Ushbu o‘quv qo‘llanma psixologiya fanining asosiy muammolarini o‘z ichiga olib, u kasb-hunar va pedagogika kolleji, akademik litsey o‘quvchilari va o‘qituvchilariga mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanma 5 bo‘limdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida «Psixologiyaga kirish» masalalari, ya’ni psixologiya fanining predmeti, vazifalari, tarmoqlari, metodlari, miya va psixika, psixika va ong masalalari yoritib berilgan.

Ikkinchi qism «Shaxs va faoliyat»ga bag‘ishlangan. Unda shaxs haqida tushuncha, shaxs ehtiyojlari, motiv va qiziqishlar, guruh va jamoa faoliyatining psixologik tahlili asos qilib olingan.

Uchinchi qism «Shaxsning psixik jarayonlari» bo‘lib, unda sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq, xayol va diqqatning muhim masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

To‘rtinchi qismda «Shaxsning hissiy va emotsional jarayonlari» hissiyot va irodaga xos bo‘lgan xususiyatlar bayon qilingan.

Beshinchi qism «Shaxsning individual xususiyatlari»ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda qobiliyat, xarakter, temperamentga xos bo‘lgan materiallar bayon qilingan.

Mavzular O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan dastur va DTS talablari asosida tuzilgan.

BIRINCHI QISM
PSIXOLOGIYANING UMUMIY MASALALARI

I BOB.
PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI

«Psixologiya» so‘zi grekcha «psyuxe» (jon, ruh) va «logos» (so‘z, ilm) so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma’nosi «jon, ruh ilmi» demakdir.

Psixologiya – tabiiy va ijtimoiy fan sifatida voqelikning alohida sohasi bo‘lgan psixika hayot sohasini o‘rganadi.

Inson ijtimoiy zotdir, shuning uchun uning psixik xislatlari ijtimoiy hayot sharoitining hal qiluvchi ta’siri ostida tashkil topadi. Insonning psixikasi, ongi uning jamiyatdagi hayoti va faoliyati sharoiti bilan bog‘liq holda taraqqiy etadi. Shuning uchun ham ijtimoiy fandir. Uning tabiiy fan ekanligi shundaki, tabiatdagi rang-barang narsa va hodisalar materiyaning turli shakllaridir. Materiya doim harakatda va rivojlanishda bo‘lib, turli-tuman xususiyatlarga egadir. Materiya abadiy mavjuddir, u faqat bir shakldan ikkinchi shaklga aylanishi mumkin. Materiya o‘z taraqqiyotining maxsus yuqori bosqichida (tirik organizmlarning asab tizimi hamda miyaga ega bo‘lgan holda) psixik sifatlar kasb etgan. «Psixik jarayonlar», «psixik holatlar», «xususiyatlar» haqidagi fikrlar keyinchalik hayot jarayonining o‘zgarishi, rivojlanishida asta-sekinlik bilan yuzaga kelgan.

Psixologiya tabiiy va ijtimoiy fan sifatida hayvonot dunyosida va odamlarda psixikaning paydo bo‘lishi, uning xususiyatlari, rivojlanishi va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadigan fandir. Demak, psixika nima?

Biz tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni sezamiz, idrok qilamiz, xotirada olib qolamiz, tasavvur va xayol qilamiz, fikr yuritamiz va h.k. Bularni biz bir og‘iz so‘z bilan «psixika» deb ataymiz. Psixika miyaning xususiyati bo‘lib, bu xususiyat tevarak-atrofdagi olamni aks ettirishdan iborat, ya’ni obyektiv ravishda mavjud narsalar va hodisalarni aks ettiradi.

Odam tevarak-atrofdagi olamni ko‘zguda aks ettirish emas, balki faol aks ettiradi, ya’ni tevarak-atrofdagi voqelikni faoliyat jarayonida, tabiat va atrofdagilarga ta’sir ko‘rsatish jarayonida bilib oladi. Ana shu jarayonda odamda sezgi, idrok sodir bo‘ladi. Ular odamning sezgi a’zolari orqali miyasiga ta’sir ko‘rsatib, ongida aks etgan narsa va hodisalarning, xususiyatlarning aksidir.

Psixika yuksak darajada tashkil topgan miyaning xossasidir. Hayvon va odamlarga xos bo‘lgan asab tizimi yuksak darajada tashkil topgan materiyadir. Psixikaning bevosita moddiy asosi odamning bosh miyasidir. Odam psixikasi, ongi bosh miya funksiyasidir.

Psixika, ong materiya taraqqiyotining faqat yuksak bosqichlarida

paydo bo‘ladi. Materiya taraqqiy etib borgan sari turli xossalar, qonuniyatlar – mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va boshqa xossalar paydo bo‘ladi.

Organik olam taraqqiyotining eng yuksak boshqichidagina materiyaning psixika deb ataladigan jarayonlari, ya’ni, sezgi, idrok, xotira, tafakkur deb ataladigan alohida xossalari vujudga keladi. Psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning obyektiv voqelikni aks ettirishdan iborat bo‘lgan alohida xossasidir.

II. HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING VAZIFALARI, TARMOQLARI VA METODLARI

1. Hozirgi zamon psixologiyasining vazifalari

Hozirgi zamon psixologiyasi oldida mustaqilligimizni mustahkamlash bilan bog‘liq bo‘lgan ulkan va mas’uliyatli vazifalar turadi. Psixologiyani jiddiy o‘rganishga har bir kishi o‘zini ham kuchli, ham zaif tomonlarini, o‘z imkoniyatlarini, o‘zining ijobiy sifatlarini yanada yaxshilash, nuqsonlarini yo‘qota olish kabi vazifalarni o‘z oldiga qo‘ya bilmog‘i lozim. Bu esa psixologiya fanini o‘rganishning inson uchun qay darajada muhimligini ko‘rsatadi. Psixologiya fani oldida ham nazariy, ham amaliy vazifalar turadi.

Uning nazariy vazifalariga:

– psixik hodisalarning paydo bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish;

– uning mexanizmlari va qonuniyatlarini ilmiy jihatdan yoritib berish;

– psixik jarayonlarni fiziologik jarayonlar bilan birga talqin qilish;

– psixik hodisalarni hayotda, amaliyotda, turli faoliyatlar jarayonida paydo bo‘lishi omillarini o‘rganish;

– intellekt (zehn, aql, idrok), abstrakt tafakkur qilish qobiliyatini shakllanishini tezlatish muammosini hal qilish;

– insonda «mudrab yotgan layoqatlarni qobiliyat darajasida shakllanishini ilmiy asoslab berish»;

– yangicha fikrlash, ya’ni yangicha tafakkur qilishning psixologik masalalarini yoritib berish. Shuningdek, aqliy taraqqiyotga, kasb-hunar o‘rganishga, yosh va individual xususiyatlarni o‘rganish, ijodiy faoliyat, badiiy ijodiyot, mehnatda ijodning paydo bo‘lishi, axborot vositalari va pedagogik texnologiyaning bilim egallashga ta’sirini o‘rganish, ta’lim jarayonini takomillashtirish va uni hayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

Psixologiyaning amaliy vazifalari psixologik bilimlarni keng jamoatchilik ommasiga yetkazib berishdan iboratdir. Hozirgi sharoitda ota-onalar, tarbiyachilar bola tarbiyasida psixolog-pedagoglarning psixologik bilimlariga muhtojdirlar. Turli yoshdagi bolalarning yoshlik va individual

farqlarini ajratish, ularga individual munosabatda bo‘lish, iqtidorli bolalar bilan ishlash, yakka bola tarbiyasi, tarbiyasi qiyin bolalarga o‘zaro munosabat, turli yot oqimlarga kirib ketuvchilar bilan ishlash, sust o‘zlashtiruvchi bolalar bilan ishlash, psixik rivojlanishida orqada qolgan, psixik taraqqiyoti tutilib qolgan yoki rivojlanishida kamchiligi bo‘lgan bolalar bilan ishlash kabi masalalarda ruhiy taraqqiyot qonunlariga doir psixologik bilimlardan keng jamoatchilikni, ota-onalar, mahalla faollarini bahramand qilishdan iboratdir.

Jamoatchilikni psixologik bilimlardan xabardor qilish, (ro‘znoma va oynoma) gazeta va jurnallarda maqolalar chop etish, radio va teleko‘rsatuvlarda turli eshittirishlar tashkil qilish, ota-onalar bilan suhbatlashish, shahar va viloyatlarda ota-onalar universitetlarini uyushtirish va uning ishini faollashtirish, mahallalarda bola tarbiyasi haqida ma’ruza, davra suhbatlarini uyushtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish jamiyatimiz taraqqiyotida, komil insonni shakllantirishda, sog‘lom turmush tarzini barpo qilishda muhim rol o‘ynaydi.

2. Psixologiya fanining tamoyillari va tuzilishi

Psixologiya fani psixik hodisalarni ilmiy jihatdan o‘rganishda quyidagi tamoyillarga suyanadi.

Determinizm tamoyili. Bu tamoyilga binoan psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi. Yashash sharoitining o‘zgarishi bilan psixika ham o‘zgaradi. Inson tug‘ilgandan keyin qanday sharoitda yashasa, unga yashash muhiti qanday ta’sir qilsa, qanday ta’lim-tarbiya olsa u shu sharoit, muhitda shakllanadi, uning ongi ham shu muhit ta’sirida rivojlanadi. Chunki, inson ongining paydo bo‘lishi, shakllari va taraqqiyoti hayot uchun zarur bo‘lgan moddiy narsalar ishlab chiqarish usullari taraqqiyotining qonunlari bilan belgilanadi. Shuningdek, ijtimoiy tarixiy xarakterga ega ekanligini tushunish inson ongining ijtimoiy turmushga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Insonning yashagan muhiti uning ongini qanday rivojlanishiga ta’sir qiladi. U shu muhitda shakllanadi.

Ong va faoliyatning birligi tamoyili. Bu tamoyilga binoan ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi ham emas, aynan bir narsa ham emas, ular bir butunlikni tashkil qiladi. Inson faoliyat ko‘rsatar ekan uning mazmunini, motivlarini, qanday bajarish kerakligini ongida rejalashtiradi va ular yordamida tevarak-atrofni qurshab olgan muhit bilan munosabatga kirishadi.

Ong va faoliyatning birligi tamoyili psixologlarning faoliyatni o‘rganish orqali xatti-harakatlardan ko‘zlangan maqsadga muvaffaqiyatli erishishini ta’minlovchi ichki psixologik mexanizmlarni, ya’ni psixikaning obyektiv qonuniyatlarini ochishlariga imkon beradi.

Psixika va ongning faoliyatda taraqqiy etishi tamoyili. Bu tamoyilga binoan psixika va ong faoliyatda rivojlanadi va u faoliyat natijasidir. Insonning psixik taraqqiyoti o‘yin, o‘qish va mehnat faoliyati bilan bog‘liqdir. Bu faoliyatlarsiz psixik taraqqiyotni tasavvur qilish mumkin emas. Masalan: bola o‘yin orqali o‘zaro munosabatlarga kirishadi, nutqni egallaydi, narsa va hodisalarni idrok qiladi, xotirasida saqlaydi, tasavvur qiladi, fikr yuritadi, xayol qiladi. O‘yinda xarakter shakllanadi. O‘z-o‘zini anglaydi. Faoliyat jarayonida ota-bobolarining ijtimoiy tajribalarini o‘rganadi. Bu esa taraqqiyotning faqat insongagina xos bo‘lgan maxsus shakli sifatida yuz beradi. Bola ta’lim jarayonida psixik taraqqiyotning yakka shakllarini mustaqil, faol fikr yuritish, mavhum fikrlash kabilarni egallaydi. Bu esa uning ongini yana ham rivojlanishiga olib keladi. Demak, ong faoliyatda namoyon bo‘lib, faoliyatda tarkib topadi. Psixika va ong taraqqiyot mahsuli va faoliyat natijasi ekanligini hamma ota-onalar, tarbiyachi va o‘qituvchilar bilishlari lozim.

Psixikaning faoliyatda rivojlanishi tamoyili uni klassifikatsiya qilish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan psixologiya sohalarining mazmuni va vazifasiga qarab uni klassifikatsiya qilish va tuzilishini aniqlash mumkin.

Hozirgi zamon psixologiyasi quyidagicha klassifikatsiya va tuzilishga ega:

I. Aniq faoliyatning psixologik tomoni.

II. Taraqqiyotning psixologik tomoni.

III. Insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatining psixologik tomoni.

I. Psixologiyaning aniq turdagi inson faoliyati psixik muammolarni o‘rganuvchi bir qator sohalarni o‘z ichiga oladi.

1. Mehnat psixologiyasi (mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, uni ilmiy tashkil qilishning psixologik tomonini o‘rganadi).

2. Muhandislik psixologiyasi (mashina bilan inson o‘rtasidagi vazifalarni taqsimlash, muvofiqlashtirish, avtomatlashtirish jarayonini o‘rganadi).

3. Pedagogik psixologiya (ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi psixologiyasi muammolarini o‘rganadi).

4. Tibbiyot (meditsina) psixologiyasi (bemorning xulq-atvori va shifokorning faoliyatini o‘rganadi).

Shuningdek, psixik hodisalar bilan miyadagi fiziologik tuzilmalarni o‘rganadigan neyropsixologiya, psixik faoliyatga ta’sir qiluvchi dorivor moddalarni o‘rganadigan psixoformakologiya, davolashga ta’sir etuvchi vositalarni o‘rganuvchi psixoterapiya, inson sog‘lig‘ini ta’minlash uchun turli tadbirlarni ishlab chiquvchi psixoprofilaktika psixologiyasi ham shular jumlasidandir.

5. Yuridik psixologiya: sud ishi psixologiyasi (jinoyatni ochish), kriminal psixologiya (jinoyat motivlarini aniqlash), penitensiar yoki axloq tuzatish mehnati psixologiyasi kabilar kiradi.

6. Harbiy psixologiya (jangovor harakatlarni o‘rganuvchi psixologiya).

7. Sport psixologiyasi (sportchilar shaxsini o‘rganadi).

8. Savdo psixologiyasi (sotuvchi va xaridorlarning o‘zaro munosabatlari psixikasini o‘rganadi).

9. Ilmiy ijodning psixologiyasi (ijod qiluvchi shaxsning faoliyatini o‘rganadi).

Inson faoliyati turli-tumandir. Hozirgi kunda har bir faoliyatning psixologiyasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

II. Taraqqiyotning psixologik tomoni. Taraqqiyotning xususiyatlarini asos qilib olib, uni o‘rganadigan psixologiya turlari ajratiladi.

Bular: 1. Bolalar psixologiyasi.

2. Yoshlar psixologiyasi.

3. O‘smirlar psixologiyasi.

4. O‘spirin yoshlar psixologiyasi.

5. Katta yoshli kishilar psixologiyasi.

6. Geranto psixologiya (qariyalar psixologiyasi).

7. Maxsus (anomal taraqqiyot) psixologiya.

Shuningdek, bunga patopsixologiya (psixik taraqqiyoti normadan oqqan) oligofreno (miyaning tug‘ma kamchiliklari bilan bog‘liqligini o‘rganadi), Surdopsixologiya (karlar), tiflopsixologiya (ko‘r yoki xira ko‘radigan kishilar psixologiyasi) kabilar kiradi.

8. Qiyosiy (psixik hayotning nasliy shakllarini tekshiradi) psixologiya. Bunga zoopsixologiya (tur, jins, oilaga mansub hayvonlar psixikasini o‘rganadigan fan), etologiya (hayvonlar xatti-harakatining tug‘ma mexanizmini o‘rganadigan fan) kabilar kiradi.

III. Insonni jamiyatga bo‘lgan munosabatining psixologik tomoniga mansub bo‘lgan psixologiyalar faoliyat va taraqqiyotda yuz beruvchi psixik hodisalarni o‘z ichiga oladi. Bunga:

1. Jamoada odamlarni o‘zaro munosabatlarini va unda yuzaga keladigan psixik hodisalarni o‘rganadigan ijtimoiy psixologiya, din psixologiyasi ham (diniy tasavvurlar, hissiyotlarning kelib chiqishi, diniy jazava (zikr)larni o‘rganish bu psixologiyaning ajralmas qismidir.

2. Inson shaxsining individual psixologik yoki differensial (farq) xususiyatlarini o‘rganadigan shaxs (yoki differensial) psixologiyasi.

3. Shaxsning kasbga bog‘liq qobiliyatlarini, kasbga yaroqli ekanini aniqlovchi xarakterologiya, individual psixologik ayirmalar tipologiyasi, professiografiya.

4. Umumiy psixologiya. Bu psixologiya psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini, tadqiqot usullarini, psixologiya fani asoslab bergan tamoyillarni, psixologiya faniga kirib kelgan asosiy ilmiy tushunchalarni xarakterlab beradi. U psixik jarayonlar (bilish jarayoni, iroda, hissiyot, psixologik holatlar) va xususiyatlarni shaxs ongi faoliyatida rivojlanadi degan tamoyil asosida o‘rganadi.

III. PSIXIK HODISALARNING KLASSIFIKATSIYASI

Psixik hayot turli-tuman hodisalarda namoyon bo‘ladi. Psixik hayot hodisalarida psixik jarayonlar, psixik mahsullar va psixik holatlar ajratiladi.

Psixik jarayon – psixik hodisaning qonuniy, ketma-ket o‘zgarishi, uning bir stadiya yoki fazodan ikkinchi stadiya yoki fazoga o‘tishidir.

Psixik mahsullar – psixik jarayonlarning natijasidir. Bularga sezgi va idroklarning obrazlari, tasavvurlar, muhokamalar, tushunchalar shaklidagi subyektiv psixik mas’ullar kiradi.

Yoqimli va yoqimsiz tuyg‘ular, tinchlik-farog‘at, hayajonlanish va ma’yuslanish, uyg‘oqlik va uyqu holatlari, dadillik va taraddudlanib qolish holatlarini boshdan kechirish psixik holatlarga kiradi.

Xilma-xil psixik hodisalarni: bilish, emotsional soha (hissiyot sohasi) va iroda sohasi deb uchga bo‘lish qadimdan bor. Odam ongi faoliyatida zohir bo‘ladigan ana shu turlar psixik funksiyalar deb ataladi.

Bilish hodisalari boshqacha aqliy, intellektual jarayonlar deb ataladi. Sezgilar, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq – bilish jarayonlaridir.

S e z g i l a r – muayyan paytda sezgi organlarimizga: ko‘ruv, eshituv, tuyish, hid bilish va boshqa shu kabi organlarimizga ta’sir etib turgan narsalardagi ayrim xossalarning aks etishidir. Masalan, qizil, oqni, shirin, achchiqni, og‘ir, yengilni sezamiz.

I d r o k – tevarak-atrofimizdagi narsalarning yaxlit holda aks etishidir. Masalan, uy, gul, nutq, musiqa va boshqa shu kabilarni idrok etamiz. Narsalar sezgilar asosida idrok etiladi. Sezgi va idrok – tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalar hamda ulardagi xilma-xil xossalarning miyamizdagi obrazlaridir.

X o t i r a. Narsa va hodisalar hamda ulardagi xossalarning sezgi va idrok orqali hosil bo‘lgan obrazlari nom-nishonsiz yo‘qolib ketmaydi – ular miyamizda o‘rnashib, saqlanib qoladi va qulay sharoitda yana esimizga tushadi. Ilgari idrok etilgan narsalarning esimizga tushirilgan obrazlari tasavvurlar deb ataladi. Sezgi va idrok kabi, ko‘nglimizdan kechgan fikr, hislarimiz va qilgan ishlarimiz ham miyaga o‘rnashib, saqlanib qoladi va yana esimizga tushadi. Idrok etilgan va ko‘ngildan kechgan narsalarning miyamizga o‘rnashib (esimizda qolib), saqlanishi va yana esimizga tushishidan iborat bo‘lgan ana shu psixik faoliyat xotira deb ataladi.

X a y o l. Narsa va hodisalarning idrok orqali miyamizda hosil bo‘ladigan obrazlardan tashqari, o‘zimiz bevosita idrok etmagan narsalar haqidagi tasavvurlar ham miyamizdan katta joy oladi. Masalan, ibtidoiy odamning hayot sharoiti haqidagi tasavvurlarimiz, Marsdagi hayot haqidagi tasavvurimiz va shunga o‘xshashlar ana shundaydir. Bu tasavvurlar xotiramizda bor tasavvurlar asosida xayolda (fantaziyada) hosil bo‘ladi.

T a f a k k u r . Idrok va tasavvurlarimizda aks etadigan narsa tafakkurda taqqoslanadi, tahlil qilinadi va umumiylashtiriladi. Tafakkur – voqelikning umumiylashtirilgan bevosita va eng to‘liq hamda eng aniq intihosidir. Tafakkur jarayonlaridagi fikrlar – muhokama va tushunchalar tushuniladi va vujudga keladi. Odam fikrlash faoliyati tufayli voqelikni idrok va tasavvurlaridagiga qaraganda aniqroq, to‘laroq va chuqurroq bilib oladi.

N u t q. Tafakkur nutqqa chambarchas bog‘liq. Fikrlarimiz – nutq yordami bilan shakllanadi va ifodalanadi. Kishilar nutq vositasida aloqa qilar ekanlar, fikrlarini bir-birlari bilan o‘rtoqlashadilar; odamning hissiyoti va intilishlari ham nutqda o‘z ifodasini topadi. Nutq – kishilarning til vositasi bilan aloqa qilish usulidir.

D i q q a t. Yuqorida ko‘rsatilgan psixik jarayonlarning hammasi odamda diqqat mavjud bo‘lgandagina yuzaga chiqadi. Diqqat – ongimizning o‘zimiz idrok etayotgan, tasavvur qilayotgan, fikr yuritilayotgan va aytayotgan narsamizga qaratish, bir nuqtaga to‘plash demakdir. Diqqat o‘ziga xos alohida bilish jarayoni emas, balki bilish jarayonlarining faol borishi va sifatli bo‘lishi uchun zarurdir, xolos.

Ba’zi psixologlar (masalan, G. A. Fortunatov) diqqatni psixik holatlarga qo‘shadilar. Ammo, diqqat ong faolligining o‘ziga xos alohida bir ko‘rinishi ekanligini keyinroq yaqqol anglaniladi. Shu sababli diqqatni iroda sohasiga ham qo‘shish mumkin.

Odamning idrok qilayotgan, tasavvur etayotgan, fikr yuritayotgan narsasiga va qilayotgan ishiga nisbatan ko‘nglidan kechayotgan har xil yoqimli va yoqimsiz, xush yoki noxush tuyg‘ular emotsional sohaga (yoki hissiyot sohasiga) kiradi.

Biz dilimizda xush yoki noxush tuyg‘uni, do‘stlik, vatanga muhabbatni, urush olovini yoquvchilarga qarshi g‘azabni his qilamiz. Odamning emotsional tuyg‘ulari doimo uning ehtiyoj va manfaatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Odamning idrok qilayotgan, tasavvur etayotgan va fikr yuritayotgan narsasiga va qilayotgan ishiga ijobiy yoki salbiy munosabati hissiyotda o‘z ifodasini topadi.

Emotsiyalar ham jarayon, ham holat bo‘ladi.

Psixik faoliyatning yuksak ko‘rinishi, ya’ni niyatimizga (oldindan o‘ylagan maqsadimizga) yetmoq uchun shu maqsadga erishish yo‘llari va vositalarini qamrab olib, shuningdek, uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf qilishda g‘ayrat ko‘rsatib qilinadigan faoliyat iroda sohasiga kiradi.

Ixtiyoriy (iroda bilan bo‘ladigan) faoliyatni ixtiyorsiz (irodadan tashqari bo‘ladigan) faoliyatdan ajratish kerak. Ixtiyorsiz faoliyat hayotimizdan tashqari va anglab, bilib g‘ayrat ko‘rsatmasdan turib yuzaga chiqadi. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz faoliyat diqqat-e’tiborda va ish-harakatda ko‘rinadi. Shu sababli ixtiyorsiz diqqat bilan ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz harakatlar bilan ixtiyoriy (iroda bilan bo‘ladigan) harakatlar farq qilinadi.

Psixologik hodisalar subyektiv kechinmalar aks etiladigan narsa va hodisalarning miyamizdagi obrazlari shaklida ro‘y beradi. Ammo, barcha subyektiv psixik hodisalar sirtda, organizmimizning xilma-xil o‘zgarish va harakatida: mimika, imo-ishora, nutq pantomimikada o‘z ifodasini topadi.

Odamning psixik hayoti organizm harakatlarida o‘z ifodasini topadi, shu harakatlar yig‘indisi esa xulq-atvor deb ataladi.

Psixika bir butun yaxlit bir narsadir. Psixikaning bu birligi va yaxlitligiga sabab avvalo shuki, bosh miya faoliyati bir butun va yaxlitdir.

Psixik hayotning hamma tomonlari: aql, his va iroda shaxsning faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shaxs olamni biladi, shaxs turli hislarni dildan kechiradi va shu shaxs ish-harakat qiladi.

Psixik faoliyatning barcha ayrim turlari yagona ong funksiyasi — shaxsning funksiyasidir.

Psixologlarning ko‘pchiligi **psixik funksiyalar** termini o‘rniga **psixik jarayonlar** terminini ishlatadi.

Ammo psixik funksiyalar terminidan foydalangan ma’qulroq. Funksiya tushunchasining mazmuni kengroq. Bu tushuncha psixik jarayonni ham, psixik holatni ham, faollikni ham, ish-harakatni ham o‘z ichiga oladi. Funksiya qanday bo‘lmasin yaxlit bir narsaning qismi emas, balki namoyon bo‘lishi, amal qilishi demakdir. Shuning uchun sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq, diqqat, hislar, iroda — psixika qismlari emas, o‘zaro yonma-yon ro‘y beruvchi jarayonlar emas, balki bir butun ongning funksiyalari — bir butun shaxsning funksiyalaridir.

IV. PSIXOLOGIYANING AHAMIYATI

Boshqa fanlarni o‘rganish kabi, psixologiyani o‘rganishning ham, avvalo, bilish, ma’lumot olish uchun ahamiyati bor. Biz psixologiyani o‘rganib, voqelikning g‘oyat katta va sifat jihatdan o‘ziga xos sohasi — psixik hayot sohasi haqida bilim olamiz. Psixika qanday kelib chiqqan, hayvonot dunyosida psixik hayot shakllari qanday taraqqiy etgan, odam psixikasi tarixan qanday rivojlangan, har bir odam tug‘ilish paytidan tortib uning ongi qaysi shart-sharoitlarga qarab taraqqiy etadi, xarakter qanday vujudga keladi, odamning qobiliyatlari qanday shakllanadi — psixologning ilmiy tadqiqotlari ana shu savollarimizga javob beradi.

Odam tevarak-atrofdagi dunyoni qanday idrok etadi, u qanday esida qoldiradi, qanday esga tushiradi va fikr yuritadi, u qanday hislarni

ko‘nglidan kechiradi, odam tevarak-atrofdagi dunyoni o‘z ehtiyojlariga moslashtirib, yangi moddiy va ma’naviy boyliklarni vujudga keltirib, qanday ish ko‘radi – psixologiyani o‘rganish bilan ana shu masalalarni bilib olamiz.

Psixologiyani o‘rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o‘stirishga yordam beradi. Odam aqlini o‘stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko‘nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to‘g‘ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o‘z fikrlarini nutqda to‘g‘ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to‘g‘ri tushuna bilishda ham o‘z ifodasini topadi. Albatta, har bir fan bilan shug‘ullanish odamni kamolga yetkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o‘rin tutadi. Odam psixologiyani o‘rganar ekan, avvalo o‘z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e’tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o‘z aql-idrokining ko‘proq o‘sishiga yordam beradi.

Psixik hayot hodisalari haqidagi ilmiy bilimlarni egallash shaxs dunyoqarashining shakllanishida katta ahamiyatga egadir.

Psixologiyani bilish, psixikani chinakamiga ilmiy asosda tushunish kishilar ongidagi har xil diniy taassub va xurofotlarga qarshi kurashda juda kuchli qurol bo‘lib xizmat qiladi.

Odam psixologiyani o‘rganar ekan, o‘zidagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini bila oladigan bo‘lib qoladi. Bu bilim esa boshqa kishilarni va o‘zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Psixologiyaning bilish, ma’lumot olish ahamiyati shulardan iboratdir.

Shu bilan birga psixologiya (jumladan, psixologiya metodlari) kishilar amaliy faoliyatining har xil turlarida – ta’lim-tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, tibbiyot, sud-huquqshunoslik, harbiy-mudofaa, san’at va boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga egadir.

Pedagogik faoliyatga, ya’ni yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashda psixologiyaning ahamiyati, ayniqsa, katta.

Pedagog o‘quvchilarga biron materialni tushuntirar ekan, shu materialni bolalar qanday o‘zlashtirayotganini – ko‘ruvchilar qanday idrok etayotganini, eslab qolayotganini, fikrlayotganini, ularda diqqat-e’tibor, hissiyot qanday namoyon bo‘layotganini, bolalarning yosh xususiyatlariga qarab bu jarayonlar qanday ro‘y berayotganini bilish lozim.

Hozirgi paytda ishlab chiqarish, ishlab chiqarish ta’limi va mehnatni tashkil etishning har xil turlarida psixologiyadan keng foydalanilmoqda. Ishning har bir turi, har bir kasb odamdan tegishli bilim va mahorat talab qilish bilan birga maxsus psixologik sifatlarni ham talab qiladi. Shu sababli, ixtisosga qarab murakkab va mas’uliyatli mehnat operatsiyalarini bajarishga to‘g‘ri keladigan kishilar maxsus psixologik tekshirish-

dan o‘tkaziladi. Masalan, dastlabki kosmonavtlarni tanlashda talabgorlar xotirasi juda yaxshi, fahmi o‘tkir, diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko‘chira oladigan, aniq uyg‘un harakatlarni tez bajara oladigan kishilarni ajratib olish maqsadida tekshirib ko‘rildi.

Korxonalar va boshqa xo‘jalik, madaniy va ma’muriy muassasalarining hamda tashkilotlarning rahbarlari kadrlarni tanlay bilishi, ularni joy-joyiga qo‘ya bilishi, ularga rahbarlik qila olishi kerak. Buning uchun esa ularning qobiliyatlari, xarakteri, mehnatga munosabati va boshqa shu kabilarning farqiga bora bilishi kerak.

Psixologiya tibbiyot bilan qadimdan bog‘lanib keladi. Kasalliklar orasida psixik kasalliklar bo‘ladi. Bunday kasalliklarni ham, asosan, psixologik vositalar bilan davolashga to‘g‘ri keladi. Shifokor psixik kasalliklarni yaxshiroq ajrata bilmoq uchun odamning normal psixologiyasini ham bilishi kerak. Boshqa kasalliklarni, ayniqsa, nerv kasalliklarini davolashda ham shifokor bemorning ruhiy holatini bila olishi va kasallikning borishiga ruhiy holatning ta’sirini nazarda tutishi lozim. Shifokor bemorga psixik ta’sir ko‘rsatish vositalarini, ishontirish, maslahat berish va boshqa shu kabilarning ahamiyatini bilishi kerak.

Psixologiya sud ishida ham muhim rol o‘ynaydi. Sud xodimi ayblanuvchining ruhiy holatini, guvohlarning so‘roqda aytgan gaplarini psixologik jihatidan tahlil qila bilishi kerak. Kishilar biron ayb, jinoyat qilganlarida nima niyat bilan shunday qilganliklarini sud xodimi fahmlay bilishi kerak. Aybdorlarning individual xususiyatlarini ham bilib olishga to‘g‘ri keladi. Bularning hammasida ustalik bilan ish ko‘rmoq uchun odamning psixikasini bilish, psixologiyani o‘rganish kerak.

Psixologiyaning san’atdagi ahamiyatini ham ko‘rsatib o‘tmoq kerak. Har bir san’atkor (artist, musiqachi, rassom va shunga o‘xshashlar) kishilarga — tomoshabinlarga, tinglovchilarga o‘z ijodi bilan ta’sir ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘yadi. Buning uchun esa odamning qanday idrok qilishini, qanday fikrlashini va qanday his qilishini bilmoq kerak. San’at arbobi obraz yaratish ustida ishlaydi, shu obrazning biror badiiy vosita bilan gavdalantiradi. Buning uchun san’atkor obrazni qanday elementlardan qay tariqa yaratilishini bilishi kerak. U ijodiy faoliyat psixologiyasini bilishi shart.

Psixologiyani bilish kundalik turmush uchun ham foydali. Har kim doimo boshqa kishilar o‘rtasida bo‘ladi, muayyan munosabatlar — tanish-bilishlik, oshna-do‘stlik va boshqa shu kabilar tufayli boshqa kishilar bilan aloqa qiladi. Har birimizga boshqa kishilarning xarakter, havas, kayfiyatlarini bilib olishga, kishilarning bir-biridan farqlay bilishga va ularga ta’sir ko‘rsatishga to‘g‘ri keladi.

Bu yerda shuni aytish kerakki, odamzod faoliyatining turli sohalarida psixologik bilimlarning amalda qo‘llanish psixik hayot hodisalari, uni qonuniyatlari haqidagi bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish va oy-

dinlashtirish uchun ham ko‘p material beradi va shu bilan psixologiyaning nazariy sohalarini boyitadi.

Psixologiyaning ilmiy bilish va amaliy ahamiyati shundan ham ko‘rinadiki, psixologiyaning tarixiy taraqqiyotida bir qancha maxsus tarmoqlar ajralib chiqdi. Psixologiyaning bu tarmoqlari hozirgi vaqtda mustaqil fanlar darajasiga ko‘tarildi.

Psixologiyaning shu tarmoqlaridan bir qismi ko‘proq nazariy xarakterda bo‘lsa, ikkinchisi ko‘proq amaliy xarakterdadir.

V. PSIXOLOGIYA METODLARI

Psixologiyada tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil va murakkab hodisalardir. Bu hodisalar qanday metodlar bilan, ya’ni qaysi yo‘llar bilan, qanday usullar bilan tekshiriladi, degan savol tug‘iladi.

Psixologiyada chinakam ilmiy bilimga ega bo‘lmoq uchun psixikani tekshirish metodlarini bilish va shu metodlardan foydalana bilish kerak. Har bir pedagog kishilar psixikasini tekshirish uchun loaqal eng oddiy usullarni bilishi lozim.

Har bir fan kabi psixologiya ham psixik (ruhiy) hayot hodisalarini chinakamiga ilmiy asosda bilib olish uchun quyidagi talablarga amal qilish lozim:

Tekshiriladigan har bir psixik hodisaga boshqa hodisalar bilan bog‘langan deb qaralishi zarur. Masalan, psixik hodisani uning nerv-fiziologik asosdan ajratib o‘rganish yaramaydi, xotirani tafakkur, diqqat va umuman shaxsdan ajratib o‘rganish yaramaydi va hokazo.

Har bir psixik hodisa va umuman shaxs vujudga kelish, taraqqiy etish va o‘zgarish jarayonida ko‘zdan kechirilishi zarur. Shuning uchun, masalan, bolalar va o‘smirlar psixikasining taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, voyaga yetgan odam psixikasini yetarlicha yaxshi bilib bo‘lmaydi.

Psixik hayot hodisalarini ularni taraqqiyot jarayonida o‘rganganda miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishini va bir sifat holatining ikkinchi sifat holatiga o‘tishini ko‘zdan kechirmoq kerak. Masalan, odam psixikasining taraqqiy etishini o‘rgana turib, bilim olish va to‘plash jarayonida odamning bilish qobiliyatlari: xotirasi, tafakkuri va nutqi, mushohadakorligi sifat jihatidan o‘zgarishni ko‘rsatib bersa bo‘ladi. Odam ongi uning tarixiy taraqqiyotida shakllanadi. Hozirgi mustaqillik sharoitida milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlash, yangicha tafakkur qilish va dunyoqarashni shakllantirish milliy mafkura va milliy g‘oyaning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Odamning tevarak-atrofdagi voqelikni bilishi kuzatishdan, tajribadan boshlanadi. Shu sababli, ilmiy psixologiya ham o‘z mavzuini o‘rganishni tajribadan, psixik hayot faktlarini aniqlash, tasvir etish va tahlil qilishdan boshlashi lozim. So‘ngra, aniqlangan va tahlil qilingan faktlar asosida,

psixik hayot qonuniyatlarini ochib, tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarilishi lozim.

Har bir fandagi kabi psixologiyada ham tajriba, kuzatish va eksperiment shaklida qo‘llaniladi. Kuzatish va eksperimentdan tashqari, ilmiy tekshirishning boshqa maxsus metodlari: suhbat metodi, biografiya metodi, solishtirma tarixiy metod va boshqa metodlar ham qo‘llaniladi.

Jamoatchilikni psixologik bilimlardan xabardor qilish, (ro‘znoma va oynoma) gazeta va jurnallarda maqolalar chop etish, radio va teleko‘rsatuvlarda turli eshittirishlar tashkil qilish, ota-onalar bilan suhbatlashish, shahar va viloyatlarda ota-onalar universitetlarini uyushtirish va uning ishini faollashtirish, mahallalarda bola tarbiyasi haqida ma’ruza, davra suhbatlarini uyushtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish jamiyatimiz taraqqiyotida, komil insonni shakllantirishda, sog‘lom turmush tarzini barpo qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Kuzatish metodi

Psixik hodisalar hayotda, ya’ni tabiiy sharoitda, odamning turli-tuman faoliyatida qanday ko‘rinishda voqe bo‘lsa, o‘sha ko‘rinishda kuzatish metodining yordami bilan o‘rganiladi.

Tashqi kuzatish

Psixik hayot hodisalarini o‘rganishda avvalo tashqi kuzatish metodi tatbiq etiladi.

Kuzatishning asosiy xususiyati shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayotni sezgi organlarimiz bevosita seza oladigan, o‘zimiz bevosita idrok qila oladigan faktlari aniqlanadi va tasvirlanadi. Kishining psixik hayotida: mimika, imo-ishora, nutq, turli harakatlar va umuman kishining butun xatti-harakati va faoliyatini bevosita kuzatish mumkin.

Psixik jarayonlar bilan bevosita bog‘langan ba’zi bir fiziologik hodisalar yuzning o‘zgarishi, nafas olish, qon aylanish va shu kabilarning o‘zgarishi ham tashqaridan kuzatilsa bo‘ladi. Kuzatish ma’lumotlarini so‘zlar bilan tasvir etish bilan kifoyalanib qolmay, balki ko‘rsatma vositalari, suratga olish, kinoga olish, tovushni yozib olish va shu kabi yo‘llar bilan ham qayd qilish mumkin.

Masalan, bolalar nutqini o‘sib borishini kuzatish yo‘li bilan tekshira olamiz. Bunda bolaning so‘z boyligi qanday qilib sekin-asta orta borishini, nutqning fonetik tomonini, grammatik tuzilishini shu bola qanday bilib olayotganini qayd qilsa bo‘ladi.

Odamning tevarak-atrofdagi voqelikni o‘zgartirish va yangidan ko‘rishida duch kelgan to‘sqinlikni va qiyinchilikni yengish uchun uning qanday zo‘r iroda bilan sabr-matonat ko‘rsatishini ham kuzatish yo‘li bilan ko‘zdan kechirsak va tekshirsak bo‘ladi.

Psixik hayot hodisalarini o‘rganayotganda psixologning o‘z-o‘zini kuzatish metodiga ham murojaat qilib turishiga to‘g‘ri keladi.

O‘z-o‘zini kuzatish

Nomidan ko‘rinib turibdiki, tadqiqotchi o‘z-o‘zini kuzatish bilan o‘zidagi psixik hodisalarni tekshiradi. Bu holda tadqiqotchi psixik jarayonlar va holatlarning ichki tomoni – odamning subyektiv kechinmalari qanday ro‘y bersa, ularni shu holida tasvir etish va aniqlab olishga intiladi. Psixolog o‘z tadqiqotlarida tekshirilgan kishilarning o‘z-o‘zini kuzatib olgan ma’lumotlariga ham asoslanadi.

Psixologiya vujudga kela boshlagan V asrdan tortib to bizning eramizgacha va XIX asrning deyarli oxirigacha o‘z-o‘zini kuzatish metodi yoki introspektiv metod ruhiy hayot hodisalarini bilishning birdan-bir metodi bo‘lib keldi, desa bo‘ladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘z-o‘zini kuzatish metodiga tanqidiy ko‘z bilan qaraladigan bo‘lib qoldi. Bu metodning bir qancha kamchiliklari borligi ma’lum bo‘ldi. O‘z-o‘zini kuzatishda tadqiqotchi ham, tekshiriladigan ham tekshiruvchi obyektga bo‘linib qolishi bu metodning eng muhim kamchiligi ekanligi ko‘rsatildi. Holbuki, normal kishilar shaxsining amalda bunday «bo‘linib ketishi» mumkin emas. O‘z-o‘zini kuzatishda psixik hodisalarni (masalan, shodlik yoki qayg‘u hissini, tafakkur jarayonini) ham boshdan kechirish, ham shu hodisalarni o‘rganish juda qiyin ekanligi, ba’zan esa butunlay mumkin bo‘lmasligi ko‘rsatib o‘tildi. O‘z-o‘zini kuzatish metodining cheklanganligini ham uning kamchiligi deb bilish kerak. Psixolog o‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan faqat o‘z psixikasini o‘rganadi-da, axir. Shunday bo‘lgach, odam psixikasi haqidagi fan faqat psixologlarning o‘z psixologiyasiga aylanib ketadi. Bunday psixologiya madaniy taraqqiyot jihatidan yuksak darajada turgan, o‘z ixtisosiga ko‘ra o‘zini-o‘zi kuzata oladigan va o‘zini-o‘zi muhokama qila oladigan kishilar psixikasi haqidagina bilim beradi. Ammo madaniy taraqqiyotning pastroq bosqichida turgan kishilar psixikasi haqidagi ta’limot ham, bolalar psixikasi haqidagi ta’limot ham psixologiyaga qo‘shilishi kerak. Madaniy taraqqiyotning pastroq bosqichida turgan kishilar va bolalar esa fan nuqtayi nazaridan o‘z-o‘zini kuzata olmasligi tabiiy. Demak, o‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan odam psixik taraqqiyotining turli bosqichlari haqida bilim olib bo‘lmaydi.

Nihoyat, o‘z-o‘zini kuzatish metodining yana bir katta kamchiligi shuki, bu yo‘l bilan olingan ma’lumotlar psixik hayot hodisalarini turli yo‘sinda bir tomonlama, subyektiv talqin qilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, odamning xarakterini tekshirayotgan psixologning o‘zi egoist bo‘lsa, o‘z-o‘zini kuzatish natijalaridan, egoizm – har qanday xarakterning muhim belgisidir, deb xulosa chiqarishi mumkin. Dunyoda saxiy,

oliyjanob xarakterli kishilar borligini bunday psixolog faqat o‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan bila olmaydi. Zohiran ko‘rinadigan narsa bu yerda Haqiqat bo‘lib tuyulishi, yakka hodisa umumiy hodisa bo‘lib tuyulishi mumkin. Holbuki, har qanday ilmiy bilim obyektiv va chin bilim bo‘lishi kerak.

O‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan subyektiv ravishda ko‘ngildan kechadigan faktlarni aniqlash, tasvirlash mumkin, ammo ularni har tomonlama tushuntirish mumkin emas. Psixik hodisani tushuntirish – uning sababini, nerv-fiziologik asosini topish va odam yashaydigan ijtimoiy sharoit bilan bog‘langanligini aniqlash demakdir, bularning hammasi esa o‘z-o‘zini kuzatish doirasidan tashqaridadir. Fanning vazifasi faktlarni tasvir etishdangina iborat emas, balki asosan shu faktlarni tushuntirish, ularning qonuniyatlarini kashf etishdan iborat. Obyektiv metoddan foydalangandagina bunga erishish mumkin.

Ammo, o‘z-o‘zini kuzatish metodining yuqorida aytilgan kamchiliklari bu metodni psixologiyada keraksiz, g‘ayriilmiy metod deb butunlay rad etishga asos bo‘lmasligi kerak, albatta. Bu kamchilik va qiyinchiliklarning hammasi ham o‘z-o‘zini kuzatishda uchrashi mumkin, lekin ular hamisha, o‘z-o‘zini kuzatishning har qandayida bo‘lavermaydi. Avvalo, odam o‘z-o‘zini kuzatish obyekti bo‘lolmaydi, degan da’voni asossiz deb bilish kerak. Odam ongi taraqqiy etgan bo‘lsa, ma’lum psixik jarayonlarni baravariga boshdan kechirishi ham, kuzatishi ham mumkin, odamning xususiyati ham shundan iborat. Odam kuzatish bilangina cheklanib qolmay, psixik jarayonlarga ta’sir o‘tkazishi, turli psixik jarayonlarni yuzaga chiqarishi, o‘zgartirishi, kuchaytirishi va to‘xtatishi mumkin. Bu har kimga yaxshi ma’lum bo‘lgan faktdir.

Har qanday ishda uchraydigan qiyinchiliklar kabi o‘z-o‘zini kuzatishda uchraydigan qiyinchiliklar ham hamisha bartaraf qilib bo‘lmaydigan qiyinchiliklar emas, albatta. Kuchli emotsional holatlardagina o‘z-o‘zini kuzatish mumkin bo‘lmay qolishi mumkin. Bundan tashqari, psixik hayot hodisalarini dastlab boshdan kechirish paytidagina o‘rganish shart emas, ularni esga tushirib, ko‘ngildan kechirish ham mumkin. Ko‘pincha hozir boshdan kechayotgan hodisalar emas, balki ilgarigi hodisalar o‘z-o‘zini kuzatish obyekti bo‘ladi. Bo‘lib o‘tgan hodisalar dastlabki paytdagiday to‘la va ravshan gavdalanmaydi, albatta. Uzil-kesil xulosa chiqarganda buni hisobga olish shart.

O‘z-o‘zini kuzatish metodini ilmiy asosda tatbiq etmoq uchun maxsus tayyorgarlik kerak, albatta. Ilmiy tadqiqotlardan birontasini ham maxsus tayyorgarliksiz olib borish umuman mumkin emas.

Psixologiya o‘z-o‘zini kuzatish metodidan yagona metod sifatida foydalansa va psixik hayotning subyektiv hodisalari ularning tashqi ifodalaridan, ularga asos bo‘ladigan nerv-fiziologik jarayonlardan alohida,

odamning faoliyatida alohida ko‘zdan kechiriladigan bo‘lsa, faqat shundagina o‘z-o‘zini kuzatish metodida bir tomonlama xulosa chiqarish va subyektivizm ro‘y berishi mumkin.

Tashqi va ichki kuzatishning birligi

Lekin odam psixikasini faqat o‘z-o‘zini kuzatish metodi bilan o‘rganib bo‘lmasa, faqat tashqi kuzatish yo‘li bilan, ya’ni o‘z-o‘zini kuzatish ma’lumotlari bilan bog‘lanmasligi ham mumkin emas. O‘z-o‘zini kuzatish metodining ahamiyatini tamomila inkor qilish – odamning yuksak darajadagi bilish qobiliyatiga, ijodiy qobiliyatiga, ongiga ishonmaslik demakdir. Boshqa kishilarni kuzatishning xususiyati shundaki, tadqiqotchi shu kishilar xulq-atvorining tashqi ko‘rinishlarini idrok etar ekan, ko‘nglidan kechayotgan hislarini bir qadar biladi. Shu sababli psixolog tashqaridan kuzatish yo‘li bilan va o‘z-o‘zini kuzatish ma’lumotlariga tayanib, odamning turli xatti-harakatlarini tasvir etish bilangina kifoyalanib qolmay, balki umuman psixik hayot hodisalari haqida, ularning tashqi va ichki (subyektiv) ko‘rinishlari haqida xulosalar ham chiqarishi mumkin. Tadqiqotchi psixolog kishilar bilan muomala qilishda turmush tajribasiga va ilmiy tekshirish ishlarida yetarli amaliyotga ega bo‘lganida psixik hayotning tashqi ko‘rinishlarini kuzatar ekan, psixik jarayonlarning subyektiv suratda qanday kechishini ham ozmi-ko‘pmi ocha oladi. Masalan, tafakkurni kuzatish yo‘li bilan tekshirganimizda ko‘z, yuz muskullaridagi xilma-xil harakatlarni va yuzning o‘zgarishini qayd qilibgina qolmay, balki, shu bilan birga, shu tafakkur jarayonlari qanday zabt va qanday tezlik bilan ro‘y berishini ham bir qadar bila olamiz. Modomiki, tafakkur jarayonlari tashqi muhitda o‘z ifodasini topar ekan, tafakkurning mazmunini bila olamiz, tafakkur jarayoni qay shaklda ro‘y berayotganini, masala qanday kelib chiqayotgani, masalani yechish jarayoni qanday borayotganini ham kuzata olamiz.

Kuzatish metodi psixik hodisalarni faqat tasvir etish imkonini berish bilangina cheklanib qolmay, balki shu hodisalarni tushuntirish, ya’ni ularning tevarak-atrofdagi muayyan tarbiyaga, odamning faoliyat xarakteriga, organizmning umumiy ahvoliga va nerv sistemasining ishlash xususiyatlariga bog‘liq ekanligini ochib tashlash imkonini ham beradi.

Odamzod faoliyatining har xil turlarida psixikani tekshirish uchun kuzatish metodidan foydalaniladi. Kuzatish yordami bilan bolalar psixikasi ham ularning o‘yin, o‘qish va mehnat faoliyatida bemalol tekshirib o‘rganiladi. Pedagog ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini tekshirib o‘rganishda ana shu metoddan foydalanadi.

Kishilarning psixik sifatlari: tashabbuskorligi, ijodiy tafakkur jarayoni, yangilikni bayon qilishi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga yetish yo‘lida

sabr-matonat ko‘rsatishlari kuzatish yo‘li bilan tekshirib o‘rganiladi. Fabrika-zavod sexlarida va boshqa sohalarda ishlayotgan kishilarda biz shunday sifatlar namoyon bo‘lishini ko‘ramiz.

Psixologiyada kuzatish metodi odam hayoti va faoliyatining odatdagi sharoitidagina emas, balki shu bilan birga klinika sharoitida psixikaning kasallik oqibatida o‘zgarganligini tekshirishda ham qo‘llaniladi. Ayni vaqtda kasallikni tekshirish uchungina emas, shu bilan birga odamning normal ahvolidagi psixik hodisalarni yaxshiroq tushunib olish uchun ham klinik kuzatish ma’lumotlaridan foydalaniladi.

Eksperiment metodi

Kuzatish metodining ijobiy tomoni shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayot faktlari ularning tabiiy sur’atda ro‘y berishida va o‘zgarishida o‘rganiladi, ya’ni haqiqatda, kishilarning kundalik turmushida qanday ro‘y bersa, o‘shanday holida tekshiriladi.

Ammo bu metoddan foydalanganda ba’zi bir o‘ng‘aysizlik va qiyinchiliklarni uchratishga to‘g‘ri keladi, masalan, bu yerda tadqiqotchi psixologning tekshirishi uchun qaysi psixik hodisalarning yuzaga chiqishi kerak bo‘lsa, o‘sha hodisalar yuzaga chiqqan kishilarni qidirishga yoki biron kishida, ba’zan psixologning o‘zida shu hodisalarning yuzaga chiqishini kutib turishga to‘g‘ri keladi. Eksperiment metodidan foydalanganda bu o‘ng‘aysizlik va qiyinchiliklar barham topadi yoki kamayadi. Psixologiyada eksperimentning ikki turi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment tafovut qilinadi.

Laboratoriya eksperimenti. Laboratoriya eksperimentining mohiyati shundaki, tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo‘lsa o‘sha vaqtda ataylab vujudga keltiradi. Bunda tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo‘ladigan boshqa psixik hodisalar kompleksidan ajratib olinishi mumkin. Tekshiriladigan psixik hodisalar eksperiment davomida o‘zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir sur’atda bog‘lanishi, kuch, tezlik, hajm va boshqa shu kabi jihatlari o‘lchab ko‘rilishi mumkin.

Bu yerda muayyan bir psixik hodisani vujudga keltirgan sharoit sun’iy yo‘l bilan o‘zgartirilishi, psixik hodisa davom etadigan sharoit o‘zgartirilishi mumkin. Shuning uchun ham psixik hodisalarning qonuniyatlari metodi bilan tekshirishda yaxshiroq ochiladi.

Eksperimental tadqiqotlar o‘tkazishda maxsus metodik materiallar — narsa, rasm va so‘zlar, shuningdek, maxsus asboblar (masalan, 1-rasmdagi xronoskop) qo‘llaniladi. Tekshiriladigan hodisalar shu material va asboblar yordami bilan vujudga keltiriladi, shuningdek, psixik hodisalarning tezligi, kuchi, hajmi va shu kabilar qayd qilinadi. Texnika juda taraqqiy etgan hozirgi zamonda psixologik tadqiqotlar uchun

(ayniqsa, mehnat psixologiyasi sohasida) elektron asboblar va kibernetik metodlar, masalan, modellashtirish usuli qo‘llanilmoqda. Eksperimental tadqiqotlar asosan maxsus laboratoriya va institutlarda o‘tkaziladi. Ayrim psixik hodisalarni mukammal va aniq o‘rganish maqsadida psixologiyaga doir ilmiy tekshirish muassasalarida maxsus binolar, masalan, tovushni va yorug‘likni o‘tkazmaydigan kabinetlar, yorug‘lik ta’sirini o‘zgartirishga moslangan kabinetlar va shunga o‘xshash xonalar quriladi.



1-rasm. *Xronoskop.*

Yosh psixologiyasi bilan pedagogik psixologiyaga doir masalalar yuzasidan ko‘pgina eksperimental tadqiqotlar, odatda, bolalar bog‘chalari va maktablarda o‘tkaziladi. Bu tadqiqotlarda bolalar o‘rganiladi.

Xotira jarayonlarini tekshirishda qo‘llaniladigan quyidagi usul laboratoriya eksperimentiga misol bo‘la oladi: eksperiment qilayotgan kishi tekshirilayotgan kishining oldida o‘n ikki so‘z qilib beradi. Tekshirilayotgan kishi ana shu eshitgan so‘zlarini belgilangan vaqtdan keyin aytadi. Ana shu so‘zlarning qanchalik to‘liq, aniq va tez aytib berilishi tekshirish natijalaridan bilinadi. Xuddi shunday eksperimentlar qilib, so‘zlarni, raqamlarni yoki qanday bo‘lmasin boshqa materialni yodlash tezligi, esda nechog‘li mahkam saqlash, unutish tezligi va shu kabilarni aniqlash mumkin.

Eksperimental metodni birinchi marta fiziolog Veber (1795–1878) va fizik Fexner (1801–1887), sezgilarni tekshirishda qo‘llanilgan eksperimental tadqiqot usullarini Vilgelm Vundt (1832–1920) mukammal ishlab chiqqan. 1879-yilda V. Vundt Leypsig universiteti huzurida eksperimental psixologiya bo‘yicha birinchi laboratoriyani ochgan. XIX asrning oxirida Rossiyada eksperimental psixologiya bo‘yicha bir qancha laboratoriyalar vujudga keltirildi. Tokarskiy – Moskvada, Bexterev – Qozonda, N. N. Lange – Odessada shunday laboratoriya ochishgan. 1911-yilda Moskva universiteti huzurida professor Chelpanov rahbarligi ostida eksperimental psixologiya instituti ochildi. Maxsus qurilgan binoga joylashtirilgan va yaxshi jihozlangan bu institut hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasi Pedagogika fanlari akademiyasi sistemasiga kiradi. Toshkentda birinchi laboratoriya P. I. Ivanov rahbarligida TDPU da tashkil etildi.

Endilikda texnika taraqqiy etishi munosabati bilan laboratoriya eksperimenti tekshirilayotgan psixik hodisalarga aloqador bo‘lgan fiziologik jarayonlarni, masalan, yurak va qon tomirlari, ichki sekretsiya bezlari faoliyatidagi o‘zgarishlarni, amaliy ish vaqtida miyadagi elektr toklarining o‘zgarishini ham nazarda tutish imkonini beradi. Ayniqsa, I. P. Pavlovning shartli reflekslar metodi psixologiya uchun g‘oyat samarali metoddir.

Laboratoriya eksperimenti psixologiyani taraqqiy ettirishda katta ahamiyatga ega. Yuqorida aytilganidek, bu metod tekshirilishi lozim bo‘lgan psixik hodisalarni qachon kerak bo‘lsa, shu vaqtda vujudga keltirish va o‘zgartirishga, tajribani ko‘p marta takrorlash yo‘li bilan shu hodisalarni sinchiklab tahlil qilishga imkon beradi. Eksperiment bir xil psixik hodisalarning ikkinchi xil psixik hodisalar bilan bog‘lanishini aniqroq bilishga imkon beradi. Jumladan, psixik jarayonlarning fiziologik mexanizmlari ko‘proq eksperiment yo‘li bilan aniqlanadi. Laboratoriyada qilinadigan eksperiment metodlari bilan olib borilgan, tekshirib chiqqan natija va xulosalarni tekshirib ko‘rishga ham imkon beradi.

Hozirgi zamon psixologiyasining ko‘pgina muvaffaqiyatlari laboratoriya eksperimenti tufayli qo‘lga kiritilgan. Eksperiment metodining psixologiya sohasida qo‘llanishi psixologiya ma’lumotlarini pedagogikaga keng tatbiq etishga imkon beradi.

Ammo psixologiyadagi laboratoriya eksperimentining kamchiliklari bor. Shu kamchiliklardan eng muhimi shuki, bu metodda sun’iylik bor. Eksperiment o‘tkaziladigan sharoitning o‘zi tekshirilayotgan kishilarning psixik holatiga, demak, tekshirilayotgan hodisalarga va tekshirish natijalariga salbiy ta’sir etishi mumkin. Masalan, o‘quvchining o‘ziga berilgan o‘quv materialini nima uchun xotirada qoldirish kerakligini bilib, maktabda yoki uyda dars tayyorlashi uning uchun odatdagi bir ishdir, ammo xuddi shu o‘quvchining laboratoriya sharoitida, maxsus asboblar qo‘llaniladigan odatdan tashqari eksperiment sharoitida, ataylab tayyorlangan eksperiment materialini esda olib qolish jarayoni boshqacha tusda o‘tishi mumkin. Shuning uchun ham laboratoriya eksperimenti psixik hodisalarni o‘rganishda psixologiyaning boshqa metodlari bilan birga qo‘llaniladi.

Laboratoriya eksperimenti metodidan foydalanganda tekshiriluvchi kishilarning psixikasiga va eksperimentning natijalariga ta’sir eta oladigan sharoitni nazarda tutmoq kerak. Laboratoriya eksperimentining natijalarini boshqa metodlar yordami bilan tekshirib ko‘rish kerak.

Tabiiy eksperiment metodi oddiy obyektiv suratda kuzatish metodi bilan laboratoriya eksperimenti metodi o‘rtasida turadi. Bu metodni professor A. F. Lazurskiy kuzatish va tajriba metodlarining kamchiliklaridan saqlanish va ikkala metodning foydali tomonlarini qo‘shish maqsadida yaratgan.

Tabiiy eksperiment metodining mohiyati shundaki, bu yerda tekshiruvchi kishining o‘zi tekshiriladigan kishida (yoki kishilarda) biron psixik jarayon (masalan, xotira, tafakkur, diqqat) ro‘y berishi uchun yoki tekshiriladigan kishilarda individual xususiyatlarini (temperament, havas) ro‘y berishi uchun maxsus sharoit tug‘diradi. Masalan, tekshirish lozim bo‘lgan biron psixik jarayon odatdagi dars vaqtida yoki o‘yin paytida maxsus reja bilan tekshiriluvchining o‘ziga sezdirmasdan tajriba qilib sinaladi. Albatta, bu sharoit va unda tekshiriladigan psixik faoliyat dastlab analiz qilinadi. Masalan, bolalardagi muayyan bir psixik jarayonlarni, muayyan bir xarakter xususiyatlarini, muayyan bir qobiliyatlarni ularning biron-bir o‘yindagi faoliyati sharoitida tekshiriladigan bo‘lsa, bolalarning tekshirish nazarda tutilgan psixik jarayoni, xarakter xususiyatlari, qobiliyatlari qaysi o‘yinda, ayniqsa, yaqqol ko‘rinishi oldindan bilib olinadi. Tekshiriluvchi kishilar shundan keyin tekshiruvchi kishi tomonidan maxsus ravishda, lekin tekshiriluvchi kishilar uchun tabiiy bo‘lgan sharoitga, darsga yoki bu o‘rinda o‘yinga jalb qilinadi. Tekshiruvchi kishi bolalarning faoliyatini kuzatib turadi va tekshiriluvchi bolalar uchun tabiiy sharoitda kelib chiqadigan psixik jarayonlarni va bolalarning individual xususiyatlarini qayd qiladi. Ammo tekshirilayotgan bolalar, yuqorida aytilganidek, o‘z faoliyatlari maxsus suratda kuzatib turilganligini sezmasliklari lozim. Shu shartga rioya qilingandagina, tekshirilayotgan bolalar kundalik hayot va faoliyatda o‘zlarini qanday tutsalar, maxsus yo‘l bilan atayin vujudga keltirilgan tabiiy sharoitda ham o‘zlarini o‘shanday samimiyat bilan tutadilar. Bunday eksperimentning tabiiy eksperimentligi ham shundadir.

Tabiiy eksperiment metodining tashqi kuzatish metodidan farqi shuki, tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisalarni zarur bo‘lganda maxsus yo‘l bilan ataylab vujudga keltiradi. So‘ngra bu psixik hodisalarni boshqacha bir tarzda vujudga keltirish mumkin va bunda shu psixik hodisalarning tabiiy suratda ro‘y bermog‘i uchun eksperiment yangi bir sharoitda o‘tkaziladi.

Psixologik-pedagogik eksperiment yoki ta’sir ko‘rsatuvchi eksperiment – tabiiy eksperimentning bir turidir.

Bu eksperimentning vazifasi o‘qitish va tarbiyalash ishidagi har xil tadbirlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishga, shaxsning ayrim psixik sifatlari tarkib topishiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligini aniqlashdir. Masalan, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ayrim metodik usullarning ta’siri, o‘quvchilarda turli havaslarning tarkib topishiga to‘garaklar, ma’ruzalar, suhbatlar, kino kartinalarning ta’siri tekshiriladi.

Laboratoriya eksperimenti kabi, tabiiy eksperiment metodida ham tadqiqotchi ko‘pincha tekshiriluvchilar bilan suhbat qilib turadi.

So‘rash va suhbat metodi

So‘rash va suhbat metodi psixik hodisalarning asosan ichki, subyektiv tomonini tekshirish uchun qo‘llaniladi. Bu metodda tadqiqotlar taxminan quyidagicha o‘tkaziladi. Tadqiqotchi psixik hayot hodisalarining birontasini, masalan, odamda shodlik hissi subyektiv ravishda qanday kechishini, poetik ijodiyot jarayoni qanday borishini, irodaga bog‘liq harakatlarda qaror qabul qilish jarayoni qanday ro‘y berishini, biron masalani yechganda tafakkur jarayoni qanday borishini va shunga o‘xshash hodisalarni tekshirishni oldindan vazifa qilib qo‘yadi, tadqiqotchi suhbat vaqtida tekshiriluvchi kishiga beradigan savollarni oldindan belgilab oladi. Savollar shunday tartib bilan tanlab olinadiki, tekshiriluvchi kishida qaysi kechinmalar va ong jarayonlarini o‘rganish kerak bo‘lsa, u o‘z javoblarida xuddi o‘sha kechinmalarni va o‘sha ong jarayonlarini oydinlashtirib bersin.

Tekshirishning qanday borishiga va tekshiriluvchi kishining individual xususiyatlariga qarab, suhbat vaqtida savollarni o‘zgartirish, to‘ldirish, boshqacha qilib berish mumkin. Bu vaqtda tadqiqotchi tekshiriluvchi kishini kuzatib, masalan, nutqining xususiyatlarini, mimikasini va shunga o‘xshash xislatlarini qayd qilib turadi. Beriladigan savollarga tekshiriluvchi kishi tegishli javob qaytaradi. Tekshiriladigan hodisaga va savollarning xarakteriga qarab, tekshiriluvchi kishi ichki kechinmalarini mukammal tasvirlab yoki so‘z bilan istagancha hisobot berib, javob qaytarishi mumkin, ba’zan tekshiriluvchi kishi faqat «ha» yoki «yo‘q» deb javob qaytarishi lozim bo‘lib qoladigan tadqiqot davomida tekshiruvchining barcha savollari va tekshiriluvchining barcha javoblari ipidan ignasigacha o‘zgartirilmasdan to‘la yozib olinadi, bayonnomada mukammal qayd qilinadi. Iloji bo‘lsa, tekshiriluvchi kishining javoblari magnitofon lentasiga yozib olinadi. Tekshiriladigan bir necha kishi bilan, ba’zan esa o‘nlarcha va yuzlarcha kishilar bilan muayyan bir mavzuda savol-javob va suhbat qilinadi. Shu tariqa rejadagi dastlabki material sistemaga solinadi, statistik jihatdan ishlab chiqiladi, analiz qilinadi, klassifikatsiyaga solinib, xulosa chiqariladi.

So‘rash va suhbat metodi o‘z-o‘zini kuzatish metodi bilan tashqi kuzatish metodining qo‘shilishidan iborat. Bu yerda o‘z-o‘zini kuzatish shunda namoyon bo‘ladiki, tadqiqotchi tekshiriluvchi kishiga savollar berib, uning o‘z ichki ongini chuqurroq bilib olishga majbur etadi. Tekshiriluvchi kishi tadqiqotchining topshiriqlariga muvofiq va tadqiqotchining yordami bilan (savollar ustalik bilan berilganda) o‘zining ichki holatlarini ochib tashlab, tavsiya etadi va nutqida ifodalaydi, so‘zlar bilan javob qaytaradi.

Tashqi kuzatish shunda namoyon bo‘ladiki, tadqiqotchi ong jarayonlarini o‘zi ustida emas, balki boshqa kishilar ustida tekshiradi. Psixik

hayot hodisalaridan bittasini tekshirish uchun bir kishi bilan emas, balki bir necha kishi, ba'zan esa ko'plab kishilar so'rash va so'zlash metodi bilan tekshirilgani uchun obyektiv xulosa chiqariladi. Tekshiriluvchi kishilardan birontasining so'z bilan qaytargan javoblarini boshqalarining qaytargan javoblariga solishtirib, taqqoslab, tekshirish mumkin. Suhbat metodining kamchiliklari haqida gapirganda, odatda, bu metoddan foydalanishda tadqiqotchining ta'siri bo'lishi mumkin deb aytadilar. Tadqiqotchining ta'siri bo'lishi mumkinligini, albatta, hisobga olish va tekshirishning boshlaridayoq bunga yo'l qo'ymaslik kerak. Buning uchun savollar shunday berilishi kerakki, ularda qanday bo'lmasin muayyan javobga ishora ham qolmasin. Bundan tashqari, savollar shunday berilishi kerakki, tekshiriluvchi kishining bir savolga qaytargan javoblarini boshqa savolga qaytarilgan javoblar bilan nazorat qilish mumkin bo'lsin. Suhbatni o'ziga xos tergovga aylantirib yubormaslik kerak. Suhbat samimiy, bemalol bo'lishi, tekshiriluvchi kishilarning psixik holatiga zo'r kelmasligi kerak. Suhbat odam psixik hayotining bevosita kuzatish va eksperimentda aniqlab bo'lmaydigan jarayon va hollari haqida ma'lumot olishga yordam beradigan birdan-bir metoddir, deyish mumkin. Masalan, kosmosga parvoz qilish vaqtida odamning psixik faoliyat xususiyatlari haqida bilim olmoq uchun tadqiqotchi kosmonavtlarning o'zi bilan suhbat qilishi kerak.

Suhbat metodi shaxsning individual xususiyatlarini (e'tiqodlari, havaslari, jamoaga munosabati, o'z vazifalarini tushunish) tekshirishda, shaxsning hayoti va faoliyatidagi maxsus voqealar, qahramonlik, ijodiy maqom va shunga o'xshashlarni tekshirishda qo'llaniladi. Bu metod o'qitish va tarbiyalashning psixik asoslarini tekshirishda, masalan, bolalarning kitobxonlikka havasini, ayrim darslarga munosabatini tekshirishda, o'quvchilarning uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda xotirada qoldirish usullarini, ayrim o'quvchilarning darslarni sust o'zlashtirish sabablarini aniqlashda qo'llaniladi. Hozir suhbat metodi psixologiyada juda keng qo'llaniladi, jumladan pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, ijodiyot psixologiyasi, kosmik psixologiyada suhbat metodidan foydalaniladi.

Biografiya metodi. Odam psixikasini tekshirish uchun ayrim kishilarning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa, ularning o'zlari bergan ma'lumotlar (tarjimayi hol, kundalik daftarlar, memuarlar, xatlar), shuningdek, boshqa kishilar yozib olgan biografiya ma'lumotlari (biografiyalar, esdaliklar, xatlar, xarakteristikalar va shunga o'xshashlar) katta ahamiyatga egadir.

Bu ma'lumotlar psixik faoliyat namoyon bo'lishining kuzatish va eksperiment yo'li bilan tekshirib bo'lmaydigan turlarini, masalan, ijodiy xayol – poeziya, musiqa, texnika va boshqa shu kabi sohalardagi ijodiyot

yuksak jarayonlarini, ilmiy kashfiyotlarda namoyon bo‘ladigan tafakkur faoliyati yuksak jarayonlarini, kuchli iroda va ma’naviy yuksak sifatlarning alohida ifodasi bo‘lgan qahramonlikni, shuningdek, geniallik, talantlilik va zo‘r qobiliyat kabi xislatlarni ochishga yordam beradi. Odam ongi namoyon bo‘lishining ana shunday turlari to‘g‘risida eng atoqli kishilar bayon qilgan fikrlariga qarab yoki o‘sha shaxslarga yaqin yurgan kishilarning guvohliklariga qarab ko‘pgina fikr yuritish mumkin.

Bundan tashqari, biografiyaga doir ma’lumotlar odamning individual kamolotida tarbiya, shuningdek, kishining faoliyati va o‘zi ustida ishlashi qanday o‘rin tutgani va qanday ahamiyat kasb etganini ham bilishga yordam beradi.

Faoliyat samaralarini tekshirish. Odamning faoliyat sohalarini, uning mehnat natijalarini tekshirish psixikani bilish uchun muhim vositadir. Odamning kuch va qobiliyatlari u yaratadigan narsalarda gavdalanadi.

Odamzod faoliyatining samaralarini tekshirganimizda biz, shu samaralarni barpo etgan kishilar qanday qilib fikr qilganliklarini, his qilganliklarini, nimaga intilganliklarini, ularning irodasi naqadar kuchli bo‘lganliklarini, ularda qanday mahorat va malakalar bo‘lganligini bilib olamiz. Masalan, biror uy-joyga diqqat bilan qarar ekanmiz, shu uyni qurgan kishilarning konstruksiya-texnika qobiliyatlari qanday bo‘lgani, ularning estetik didi, ma’naviy sifatlari, halolligi, mas’uliyat sezishi va shunga o‘xshashlar haqida fikr yurita olamiz. Ayrim kishilarning, ma’lum bir davr kishilarining, muayyan yoshdagi kishilarning psixikasini ularning faoliyat samaralariga qarab bilsa bo‘ladi.

Kishilarning mehnat va ijodiyot samaralari ularning psixikasini bilish uchun juda muhim manbalardir.

Bu metod turli yoshdagi bolalar psixikasining xususiyatlarini tekshirishda muvaffaqiyat bilan qo‘llanilmoqda. Masalan, bolalarning o‘zi chizgan rasmlaridan, yasagan qo‘g‘irchoqlaridan ularning nazar doirasi naqadar kengligini, tasavvurlarining xarakterini va hajmini, tafakkur xususiyatlarini, qiziqish-havaslarini va shunga o‘xshashlarni bilish mumkin.

O‘quvchilarning bajargan ishlarini tahlil qilish pedagogning darsdagi materialni o‘quvchilarning o‘zlashtirish va zarur malaka hosil qilish xususiyatlarini, shuningdek, bolalarning qobiliyat va havaslarini tekshirib bilib olishiga yordam beradi. Kishilar psixikasini bilib olish uchun badiiy adabiyotning ham katta ahamiyati bor.

II BOB.
MIYA VA PSIXIKA

Psixikaning moddiy asosi nerv sistemasi va avvalo bosh miyadir. Shu sababli nerv sistemasining tuzilishini va qanday ishlashini bilmasdan turib, psixik hayot hodisalarini tushunib bo‘lmaydi.

1. Nerv sistemasining tuzilishi, nerv to‘qimasi, uning elementlari va xossalari

Nerv sistemasi nerv to‘qimasidan iborat, bu to‘qima esa nerv hujayralaridan tuzilgan.

Nerv hujayrasi protoplazmadan tuzilgan tana bo‘lib, ikki turli o‘simtalari bor, bu o‘simtalarning bir xillari kalta, boshqa bir xillari uzun bo‘ladi. Kalta o‘simtalari sertarmoq bo‘lib, dendritlar deb ataladi. Uzun o‘simtalari aksonlar yoki neyritlar deb ataladi. Har bir hujayrada bu o‘simtalar ikkitadan ortiq bo‘lmaydi. Neyrit ikkita parda bilan o‘ralgan. Neyritga yopishib turadigan birinchi pardasi yoysimon parda bo‘lib, uni et parda yoki mielin pardasi deb ataladi. Ikkinchi tashqi pardasini shvani pardasi deyiladi. Bu pardalar toladan o‘tuvchi nerv qo‘zg‘alishini ajratib turuvchi izolatsiyadek bir vazifani o‘taydi. Neyrit, odatda, nerv tolasi deb ataladi.

Nerv hujayrasi, uning o‘simtalari va ularni qoplovchi pardalar birgalikda neyron deb ataladi (2-rasm). Nerv sistemasi juda ko‘p neyronlardan tuzilgan. Nerv tolalari miyadan tutam-tutam bo‘lib chiqib nerv stvolini yoki oddiy so‘z bilan aytganda, nervni hosil qiladi.

Nerv hujayralari va mielinsiz tolalar to‘plami miyaning kulrang moddasini, mielinli nerv tolalarining to‘plami esa miyaning oq moddasini tashkil etadi.



2-rasm. *Nerv hujayrasi.*

Hujayralar ularning yadrolari va tolalari sinapslar degan maxsus mayda tolachalar yordami bilan bevosita bog‘lanadi (sinaps grekcha so‘z bo‘lib, «ilgak» degan ma’noni bildiradi).

Nerv sistemasining maxsus xossalari bor, bu xossalardan asosiylari qo‘zg‘aluvchanlik va o‘tkazuvchanlikdir. Bu xossalar shundan iborat.

Agar nerv tolasining biror joyiga tegilsa, issiq, sovuq, elektr toki, kimyoviy moddalar va boshqa shu kabilar bilan ta’sir etilsa, yoki

3-rasm. *Diffuz nerv sistemasi.*

o‘zgartirilsa, nerv tolasining qo‘zg‘atilgan joyida maxsus fiziologik jarayonlar ro‘y beradi, buni qo‘zg‘alish deyiladi.

Agar nerv tolasi yetarli darajada qo‘zg‘atilsa, bu qo‘zg‘alish sodir bo‘lgan joyidagina qolmay, balki nerv tolasi bo‘ylab tarqaladi va bir nerv hujayrasidan ikkinchi nerv hujayrasiga o‘tadi, nihoyat, qo‘zg‘atish kuchi muayyan darajaga yetganda qo‘zg‘alish butun nerv sistemasiga yoyilishi mumkin.

Nerv to‘qimasida qo‘zg‘alish jarayoni yuz berganda bir qancha hodisalar: elektr, kimyo, issiqlik hodisalari paydo bo‘ladi. Yonma-yon turgan bir nerv hujayrasining aksoni bilan ikkinchi nerv hujayrasining tutashadigan joyi sinapslar borligi tufayli, qo‘zg‘alish nerv tolalarida bir tomonga tarqaladi. Mielin pardasi borligidan, qo‘zg‘alish nerv tolasida ayrim-ayrim tarqaladi.

Odamning nerv sistemasi hayvonot olamining uzoq, evolutsiyasi jarayonida va odamning tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelgan.

Nerv sistemasi birinchi marta kovakichli hayvonlarda ro‘yirost ko‘rinadi. Bu nerv sistemasi butun organizmga yoyilgan ayrim hujayralardan tuzilgan. Masalan, gidroid poliplarning nerv sistemasi shunday bo‘ladi. Bu – diffuz tipda tuzilgan nerv sistemasidir (3-rasm).

Meduzalarda nerv elementlarining talaygina qismi zontik tevaragida

4-rasm. *Zanjir shaklidagi nerv sistemasi.*

ikki halqa shaklida joylashgandir. Chuvalchanglar, molluskalarning nerv sistemasi ular tanasining o‘ng va chap tomonida simmetrik suratda joylashgan (4-rasm). Bu – zanjir (yoki tugun) shaklida tuzilgan nerv sistemasi bo‘lib, nerv sistemasi taraqqiyotining yuqoriroq bosqichidir. Xordali hayvonlarning nerv sistemasi shu bilan farq qiladiki, nerv elementlari bir-biri bilan tutashib tugun hosil qilmaydi, balki uzun chilvir shaklida tuzilgan va ichida ko‘pincha bo‘shlig‘i bo‘ladi. Xordali hayvonlarda orqa miya va ibtidoiy darajada bosh miya bo‘lganligini ko‘ramiz. Umurtqali hayvonlar bilan odamda nerv sistemasi murakkab tuzilgan bo‘lib, uch qismga: markaziy, periferiyadagi va vegetativ qismlarga bo‘linadi.

2. Markaziy nerv sistemasi

Markaziy nerv sistemasi bosh miya bilan orqa miyadan tarkib topgan.

Orqa miya (5-rasm) umurtqa pog‘onasining kanalida joylashgan bo‘lib, nerv to‘qimasidan tuzilgan va shaklan go‘yo yo‘g‘on chilvirga o‘xshaydi. Orqa miya uzunasiga ketgan ikkita egat bilan ikki qismga: o‘ng va chap qismlarga bo‘linadi.

Orqa miyaning atrof-chekkasida oq modda (nerv tolalarining to‘plami), o‘rtasida esa kulrang modda (nerv hujayralarining to‘plami) joylashganligini orqa miyaning ko‘ndalang kesigidan ko‘rish mumkin (6-rasm). Kulrang modda kesigi shaklan kapalakka o‘xshaydi. Orqa miya oldingi qismlari *oldingi ildizchalar*, orqadagi qismlari



5-rasm. *Orqa miya.*



6-rasm. *Orqa miyaning ko‘ndalang kesigi.*

orqadagi ildizchalar deb ataladi.

Orqa miyada nerv tutam bo‘lib joylashgan, qo‘zg‘alish periferiyadagi nerv uchlaridan – skelet muskullari, teri, shilliq pardalardagi nerv uchlaridan shu nerv tolalarining tutamlari orqali nerv impulslari shaklida bosh miyaga yetib boradi va bosh miyadan periferiyaga keladi. Nerv tolalarining ana shu tutamlari *o‘tkazuvchi yo‘llar* deb ataladi.

Orqa miya ongli psixik jarayonlarning bevosita markazi bo‘lmay, balki ongsiz reflektor harakatlarni idora etadigan markazdir. U tana va qo‘l-oyoq muskullarini, ko‘z muskullarini idora qiladi, shuningdek, organizmda bo‘ladigan bir qancha fiziologik jarayonlarni, ya’ni tomir harakatlari, ter chiqarish va boshqa shu kabi fiziologik jarayonlarni ham idora etadigan markazdir. Ana shu markazlardan bir qismi vegetativ nerv sistemasiga taalluqlidir.

Bosh miya (7-rasm) kalla qutisida joylashgan bo‘lib, go‘yo *orqa miya* tepasidagi ustki qavat hisoblanadi.

Bosh miya quyidagi qismlarga ajratiladi: 1) ketingi miya, 2) o‘rta miya, 3) oraliq miya va 4) oldingi miya.

Ketingi miya. Ketingi miyaga uzunchoq miya, Varoliy ko‘prigi va miyacha kiradi. Uzunchoq miya bilan Varoliy ko‘prigi orqa miyaning go‘yo bevosita davomidir. Lekin shu bilan birga, uzunchoq miya orqa miyaga qaraganda hiyla murakkabroq funksiyani o‘taydi. Uzunchoq miya orqali orqa



7-rasm. *Odam bosh miyasining ko‘ndalang kesigi:*
I–bosh miya po‘sti; II–oraliq miya; III–o‘rta miya; IV–Varoliy ko‘prigi; V–uzunchoq miya; VI–miyacha.



8-rasm. *Bosh miyaning ko‘ndalang kesigi, odam va boshqa hayvonlarda.*

miyadan bosh miyaning yuqoriroqdagi bo‘limlariga va aksincha, bosh miyaning yuqoriroqdagi bo‘limlaridan orqa miyaga impulslar o‘tib turadi. Uzunchoq miya yadrolari emish, chaynash, yutish, so‘lak ajratish, me’da va me’da osti bezidan shira ajratish, qusish va shunga o‘xshash bir qancha murakkab reflektor jarayonlarda qatnashadi. Nafas olishni, yurakning ishlashini idora etadigan, qon tomirlar tonusini saqlaydigan markazlar uzunchoq miyadadir. Miyacha markaziy nerv sistemasining pastdagi hamma bo‘limlariga, shuningdek, yuqoriroqdagi qismlariga ko‘p yo‘llar bilan mahkam bog‘langandir. Miyachaning juda katta ahamiyatga ega ekanligi loaqal shundan ham ko‘rinadiki, miyacha olib tashlangandan keyin tananing muvozanat va harakat funksiyalari juda ham buziladi, shakllanadi; harakatlar tartibsiz tuzilgan chalkash, poyma-poy bo‘lib qoladi. Miyachasi olib tashlangan hayvon qaddini ko‘tarib va boshini tutib turolmaydi; boshi va tanasi doim tebranib turadi; omonat, poyma-poy, haddan tashqari keskin harakatlar qiladi va hokazo.

O‘rta miya. Muskul tonusining normal taqsimlanishini va gavdaning tovush hamda yorug‘lik singari qo‘zg‘ovchilarga, shuningdek, og‘irlik kuchiga nisbatan to‘g‘ri turishini idora qiladi.

Oraliq miya muhim funksiyalarni o‘taydigan bir qancha nerv uchastkalaridan iborat, gavdaning umumiy sezuvchanligini ham o‘rta miya idora etadi. Pastroqdagi vegetativ markazlarning ishlarini birlashtiradigan va muvofiqlashtiradigan oliy vegetativ markazlar ham o‘rta miyada deb taxmin qilinadi.

Uzunchoq miya, Varoliy ko‘prigi, o‘rta miya va oraliq miya hammasi birgalikda *miya dastasi* yoki *miya stvoli* deb ataladi.

Oldingi miya va uning po‘sti bosh miyaning oliy qismlaridir. Hayvon biologik taraqqiyot bosqichining qancha yuqorisida tursa, oldingi miyasi bosh miyaning boshqa qismlariga nisbatan o‘shancha ko‘proq joy egallaydi. Biologik taraqqiyotning turli bosqichlarida uchrovchi hayvonlar bilan odam, oldingi miyasining kattaligi 8-rasmda taqqoslab ko‘rsatilgan. Odamda oldingi miya butun bosh miyaning katta bir qismini, taxminan 80 foizini egallaydi. Oldingi miya ikkita yarim shardan — o‘ng va chap yarim sharlardan iborat, bosh miyaning peshana bo‘ladigan ensa bo‘lagiga qarab boradigan katta egat bu yarim sharlarni bir-biridan ajratib turadi. Oldingi miyaning o‘ng va chap yarim sharlari qadoq modda deb ataluvchi jism yordami bilan o‘zaro birlashadi. Yarim sharlarning miya po‘sti deb ataladigan butun yuzasi shuncha chuqurroq va pushtalari ko‘proq bo‘ladi. Odam miyasining yarim sharlaridagi pushtalar juda ko‘p va egatlari ko‘p darajada chuqurdir.

Egatlardan eng yaqqol ko‘rinib turadiganlari Silviy egati bilan roland egatidir. Silviyning ko‘ndalang egati chakka bo‘lagini ajratib turadi. Roland egati esa tepa bo‘lakning o‘rtasidan peshana va chakka bo‘laklarga qarab boradi. Bosh miya po‘sti miyaning kulrang moddasidan iborat.



9-rasm. *Bosh miya.*

Miyaning turli qismlarida po‘stning qalinligi 1 mm dan 4-5 mm gacha boradi.

Odamning bosh miya po‘stining butun yuzasi o‘rta hisob bilan 2000 kv. sm keladi. Bosh miya yarim shardagi po‘stining yuzasi odatda to‘rtta katta qismi – peshana qismi (eng kattasi), tepa qismi, ensa qismi va chakka qismiga bo‘linadi (9-rasm). Ba’zi bir olimlarning hisobiga qaraganda, bosh miya po‘sti va yarim sharlarida 15 milliardga yaqin nerv hujayrasi bor.

Katta yarim sharlar po‘sti shakli va funksiyasi bilan bir-biridan farq qiladigan olti qavat nerv hujayralaridan tuzilgan (11-rasm). Oltinchi qavat o‘z navbatida ikki qatlamga bo‘linadi. Ammo bosh miya po‘stining turli qismlari olti qavat hujayradan iborat emas, balki ikki, uch, to‘rt qavatdan, ba’zi qismlari esa olti qavatdan iborat. Bosh miya po‘stining hujayralar qavati bir xilda bo‘lgan uchastkalari maydon hosil qiladi. Odam bosh miyasining po‘stida hammasi bo‘lib 52 ta maydon bor. Tuzilish jihatidan bir-biriga o‘xshaydigan maydonlar sohalarni tashkil etadi; bunday sohalar 11 tadir. Bosh miya po‘stining uchinchi va beshinchi qavatlari katta-katta piramidasimon hujayralardan tuzilgan, qolgan qavatlari esa mayda (donasimon) hujayralardan, uchburchak va dutsimon hujayralardan tuzilgan.

Bosh miya po‘stida shu aytib o‘tilgan hujayralar bilan birga nerv tolalari ham bor. Bu nerv tolalari yarim sharlardan bittasi po‘stining ayrim qismlarini ham (assotsiativ tolalar), har ikkala yarim shar po‘stining ayrim qismlarini ham (qo‘shuvchi tolalar) birlashtiradi, shuningdek, bosh miya po‘stini markaziy nerv sistemasining pastroqdagi boshqa bo‘limlari bilan birlashtiradi (proeksion tolalar).

Bosh miyaning po‘sti ostidagi qismlari po‘st ostidagi soha deb ataladi.

3. Bosh miya va psixik funksiyalar

Po‘st ostidagi soha va po‘st ostidagi tugunlar differensiallashmagan va umumiy sezuvchanlik markazidir. Emotsiya va instinktlarimiz shu soha bilan chambarchas bog‘liqdir. Harakatlarimizni idora etish uchun po‘st ostidagi tugunlardan targ‘il jismning ahamiyati, ayniqsa, kattadir. Targ‘il jism zararlanganda, odatda, harakat kuchayadi, ammo poyma-poy bo‘ladi.

Yuksak darajada tashkil topgan hayvonlarda psixik jarayonlarning va odamda ongli jarayonlarning bevosita moddiy asosi bosh miya po‘stidir. Bosh miyaning pastroqdagi boshqa hamma qismlari, shuningdek, orqa miya – ongsiz reflektor harakatlarning markazlari bo‘lib, xilma-xil fiziologik jarayonlarni idora etadi. Bu yerda yana shuni aytib o‘tish kerakki, bosh miyaning yuqorida aytilgan hamma qismlari va orqa miya markaziy nerv sistemani bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining bosqichlaridir. Bosh miyaning taraqqiyotidagi har bir qismi (pastdan yuqoriga qarab hisob qilganda) o‘zidan avvalgi qismning ustiga qoplangan. Orqa miya, undan keyin esa uzunchoq miya markaziy nerv sistemasining eng qadimgi qismlaridir. Oldingi miya va po‘st genetik jihatdan miyaning eng yosh qismlaridir. Markaziy nerv sistemasining yuqorigi qismlari taraqqiy qilgunicha pastdagi (qadimgi) qismlari murakkabroq psixik funksiyalarni ham bajargan deb o‘ylash mumkin. Markaziy nerv sistemasining yuqorigi qismlari tarkib topib taraqqiy qilishi bilan murakkabroq psixik funksiyalar miyaning yuksak taraqqiy qilgan qismlariga o‘tadi. Shu bilan birga psixik funksiyalar tobora murakkablashib va takomillashib bordi. Psixik funksiyalar miyaning yuksak taraqqiy qilgan qismlariga o‘tishi bilan miyaning pastdagi qismlari muayyan refleks va instinktiv harakatlarinigina idora etadigan bo‘lib qoldi. Buning haqiqatan ham shunday ekanligini quyidagi hollar ko‘rsatib turibdi. Biologik taraqqiyotning ancha past bosqichlarida turgan hayvonlarning miya po‘sti va oldingi miyasi olib tashlanganda, bu qismlarning funksiyasini pastroqdagi qismlar o‘tay boshlaydi (garchi mukammal shaklda bo‘lmasa ham, har holda, o‘taydi). Masalan, oldingi miyasi olib tashlangan baqa tamomila normal baqaga o‘xshaydi. Bunday baqa odatdagicha o‘tiradi; baqa turgan taxta ag‘darila boshlasa, u ag‘anab tushmaslikka harakat qiladi; agar baqa chalqancha ag‘anab tushsa, o‘nglanib oladi. Shunday qilib, baqa miya yarim sharlaridan mahrum bo‘lsa ham harakat qilish va o‘z harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyatini saqlab qoladi.

Yarim sharlari olib tashlangan kaptar og‘ziga solingan ovqatni yeydi, turtib yuborilsa yuradi; bunday kaptar turtinmasdan ucha oladi. Ammo kaptar turtib yuborilmasa, odatda, qimirlamay turaveradi. Agar it miyasining ikkala yarim shari olib tashlansa, sun’iy suratda boqilib borilsagina bir necha yil yashay oladi. Bunday it og‘ziga solingan ovqatni yeydi, yura oladi. It urilsa vangillaydi, qattiq tovush eshitganda sapchib tushadi.

Ammo bunday it o‘zicha ovqat qidirib topolmaydi va hatto yaqinidagi ovqatni ham topib yeya olmaydi. Bu it uni boquvchi kishilarni tanimaydi. Avval hosil qilgan malakalari yo‘qoladi, shu bilan birga, yangi malakalar hosil qilish qobiliyati ham yo‘qoladi.

Ba’zi fiziologlar maymunlarning yarim sharlarini olib tashlab tajribalar qilganlar. Maymunlar operatsiya qilingandan keyin psixik funksiyalari yo‘qolishi bilan birga, harakatlar, harakatni muvofiqlashtirish ham buzilgan. Ular to‘ppa-to‘g‘ri o‘tirib tura olgan, shuningdek, narsalarni changallay olgan, ammo, murakkabroq harakatlar, ayniqsa, yurish qobiliyati buzilgan, shunday qilib, evolutsiyaning yuqori bosqichlarida murakkab harakatlar va ularni muvofiqlashtirish funksiyalari ham miya po‘stiga o‘tadi.

I. P. Pavlov yuksak nerv faoliyatiga doir tekshirishlarida shunday hodisalarni ilmiy asosda tushuntirib berdi. Hayvonlar bosh miyasining ayrim qismlarini olib tashlash ustidagi tajribalar shuni ko‘rsatdiki, hayvon biologik taraqqiyotning qancha yuqori bosqichida tursa, quyi qismlarining yuksak psixik funksiyalarni bajara olish imkoniyati o‘shancha kam bo‘ladi. Odamda miyaning quyi qismlari yuksak psixik funksiyalarni bajarishga mutlaqo qobil emas. Odam miyasining po‘sti ostidagi qismlari po‘st funksiyasini loaqal qisman ham bajara olmasa kerak. Yarim sharlarsiz tug‘ilgan bolalar (anzitsefallar) ni kuzatish bu holni juda ravshan tasdiqlaydi. Odatda, bunday bolalar uzoq yashamaydi. Shunday bolalardan birining faqat uch yil-u to‘qqiz oy yashagani ma’lum. Bu bola doim yotgan, turishga biron marta ham harakat qilib ko‘rmagan. U narsalarni ushlashga hech urinmagan, hatto narsalarni qo‘lda ushlab turishni ham bilmagan. Faqat yuzida ba’zi bir harakatlar ko‘ringan; u ba’zan ijirg‘angan; emganda va qoshiqlab ovqat berilganda lablari va tili harakatga kelgan. Bola tagi xo‘l bo‘lganda ham hech parvo qilmagan. Bu bola bilan gaplashish yoki unga biron narsa o‘rgatish aslo mumkin bo‘lmagan. Unda hatto eng oddiy ko‘nikmalar ham hosil bo‘lmagan. Yuqorida aytilganlardan, miyaning po‘st ostidagi qismlarining psixik hayotga hech qanday aloqasi yo‘q degan ma’no chiqmaydi. Yarim sharlar po‘sti o‘z tolalari bilan bosh miyaning hamma qismlariga va orqa miyaga bog‘langan. Shu bilan birga, yuqorida aytilganidek, orqa miyadagi nerv hujayralarining tolalari va po‘st ostidagi sohalarning tolalari yarim sharlar po‘stining qismlariga bog‘langandir. Shu sababli butun markaziy nerv sistemasi va uning faoliyati bo‘lmasa, psixik hayot ham bo‘lmas edi. Shu bilan birga, butun nerv sistemasining va butun organizmning faoliyatida bosh miya po‘sti asosiy rol o‘ynaydi. I. P. Pavlov ta’limotiga ko‘ra, yarim sharlar po‘sti organizmdagi hamma funksiyalarni idora etadi, katta yarim sharlar po‘sti organizmning barcha funksiyalarini boshqaradi.

4. Periferik nerv sistemasi

Periferiyadagi nerv sistemasi markaziy nerv sistemasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, undan ajralmasdir. Periferiyadagi nerv sistemasi

nervlardan tuzilgan: bu nervlar markaziy nerv sistemasidan chiqib va butun organizmga tarmoqlanib, organizmning har bir qismini bosh miya va orqa miya bilan bog‘laydi. Bosh miyadan 12 juft nerv, orqa miyadan 31 juft nerv chiqadi (2-rasm).

Periferiyadagi nerv tolalari orqa miya bilan bosh miyaning ichki qismlariga kiradi. Ular bosh miyaning hamma qismlari bilan, jumladan, bosh miya po‘sti bilan bog‘lanadi.

Periferiyadagi nervlar bosh miya bilan orqa miyadan chiqqanda hiyla yo‘g‘on (ba’zilari juda ham yo‘g‘on) bo‘ladi. Lekin bu nervlar organizmga yoyilib ketganda, ko‘pgina juda ingichka ip va tolalarga bo‘linadi, chekka tarmoqlar deb shularga aytiladi.

I. P. Pavlov ta’limotiga ko‘ra, periferiyadagi nerv analizatorning bir qismini, ya’ni uning retseptor qismini (chekka tarmoqlarini) va o‘tkazuvchi yo‘lni tashkil etadi.

Periferiyadagi nervlar ikkiga, ya’ni sezuvchi va harakatlantiruvchi nervlarga bo‘linadi.

Sezuvchi nervlar chekka tarmoqlarning qo‘zg‘atilishi natijasida hosil bo‘lgan qo‘zg‘alishni markazga, ya’ni orqa miya bilan bosh miyaga o‘tkazadi. Tevarak-atrofimizdagi voqelikni ana shu nervlar yordami bilan sezamiz va idrok qilamiz. Bu nervlar retseptor (sezuvchi), markazga intiluvchi yoki afferent nervlar deb ham ataladi.

Harakatlantiruvchi (yoki motor) nervlar markazdan muskul va bezlarga impuls o‘tkazadi. Shu nervlar yordami bilan muskullarimiz harakatga keladi, xilma-xil ish-harakatlar qilinadi, turli bezlar (masalan, so‘lak bezlari) ning faoliyati ham shu nervlar yordami bilan idora etiladi. Bu nervlar markazdan qochuvchi yoki efferent nervlar deb ham ataladi. Periferiyadagi nervlardan ba’zilari qo‘zg‘alishi periferiyadan markazga ham, markazdan periferiyaga ham o‘tkazadi. Sezuvchi va harakatlantiruvchi nervlardan qo‘zg‘alish bir xil tezlik bilan o‘tmaydi; sezuvchi nervlar qo‘zg‘alishni harakatlantiruvchi nervlarga nisbatan sekinroq o‘tkazadi.

Sezuvchi nervlar ayrim sezgi organlariga yoyilib, har bir organning asosiy negizini tashkil etadi. Har bir sezuvchi nerv muayyan organga ko‘ruv, eshituv, hid bilish va shunga o‘xshash organlarning biriga xos bo‘lgan spetsifik qo‘zg‘alishlarni o‘tkazadi. Harakatlantiruvchi nervlar ayrim organlarning va muskul ayrim qismlari harakatini idora etadi.

5. Vegetativ nerv sistemasi

Vegetativ nerv sistemasini nerv tugunlari va bu nerv tugunlarini orqa miyadagi hamda orqa miyadan tashqaridagi maxsus birikma va chatishmalari tashkil etadi. Vegetativ nerv sistemasidagi nerv hujayralarining va nerv tugunlarining ayrim birikmalari hazm organlarida, qon aylanish, nafas olish organlarida va shunga o‘xshash organlarda

bo‘ladi. Vegetativ nerv sistemasi markaziy nerv sistemasi bilan bog‘langan: vegetativ nerv sistemasining nerv tugunlari bosh miyaning gipotalamus (ko‘ruv do‘mboqlarining pastki qismi), to‘rt tepalik va uzunchoq miya sohasida, shuningdek, orqa miyaning ko‘krak, yuqori bel va dumg‘aza bo‘limlarida joylashgan.

Katta yarim sharlar po‘stining peshana qismlarida periferik nerv sistemasining ham, vegetativ nerv sistemasining ham funksiyalarini birlashtiradigan yuksak markazlari bor. Bosh miya po‘stidan periferik nerv sistemasiga ham, vegetativ nerv sistemasiga ham impulslar kelib turadi. Binobarin, vegetativ nerv sistemasini, shuningdek, boshqa qism va markazlarni bosh miya po‘sti idora etadi.

Vegetativ nerv sistemasi umumiy nerv sistemasining bir qismi bo‘lib, ichki organlar hazm, nafas, qon aylanish organlarining ishlarini va ichki sekretsiya bezlarining faoliyatini idora qiladi. Vegetativ nerv sistemasi organizmning umuman hamma hayotiy jarayonlarini idora etadi. Organizm jarayonlarining shu tariqa vegetativ nerv sistemasi tomonidan idora etilishi organlar faoliyatining kuchayishi va susayishida, ortishi va kamayishida ko‘rinadi. Vegetativ nerv sistemasi ichki organlar bilangina bog‘lanib qolmay, balki organizmning boshqa hamma qismlari bilan ham bog‘langandir. Vegetativ nerv sistemasining markazdan qochuvchi tolalari hamma sezgi organlarida va teri hujayralarida bor. Vegetativ nerv sistemasi o‘sha tolalar orqali sezgi organlariga ta’sir etib, ularning faoliyatini kuchaytiradi yoki susaytiradi. Jumladan, vegetativ nerv sistemasi sezgi organlarining adaptatsiyasiga (ya’ni moslanishiga) ancha yordam berar ekan. Vegetativ nerv sistemasi markaziy nerv sistemasining turli qismlariga, jumladan, bosh miya po‘stiga ham ta’sir etadi. Shuning uchun ham vegetativ nerv sistemasining ta’siri psixik jarayonlarda ham ko‘rinadi. Vegetativ nerv sistemasi ikki bo‘lakdan: simpatik nerv sistemasi va parasimpatik nerv sistemasidan iborat. Simpatik nerv sistemasining markazlari gipotalamusda, orqa miyaning ko‘krak va yuqori bel bo‘limlaridadir. Simpatik nerv sistemasining tolalari tanadagi hamma organlarga yoyiladi. Parasimpatik nerv sistemasining markazlari to‘rt tepalikda, o‘rta miyada (Varoliy ko‘prigi), uzunchoq miyada va orqa miyaning dumg‘aza bo‘limidadir.

Simpatik va parasimpatik nerv sistemalari ichki organlar faoliyatini idora etishda «antagonistlar» rolini belgilaydi.

6. Funksiyalarning lokalizatsiyasi (joylashuvi)

Turli psixik funksiyalar faoliyati odatda bosh miyaning ayrim sistemasining qismlariga bog‘liq bo‘ladi.

I. P. Pavlovning tekshirishlariga qadar, funksiyalar lokalizatsiyasi haqidagi masalada noto‘g‘ri fikr yurar edi, ya’ni miya po‘stida har bir

psixik funksiyaning qat'iy aniq markazi bo‘ladi, miyaning muayyan anatomik qismi muayyan psixik funksiyani idora etadi, deb hisoblanar edi.

Masalan, ko‘ruv markazi miyaning ensa qismida, eshituv markazi yuqori chakka pushtasining o‘rta qismida, hid bilish markazi ilmoqsimon pushtada (bu pushta yarim sharlarning pastki yuzasida bo‘ladi), nutq harakatlari markazi (Broka markazi) chap yarim sharning uchinchi peshana pushtasida, birovning nutqini tushunish markazi (Vernike markazi) chap yarim shardagi birinchi chakka pushtasining orqadagi va o‘rta qismida joylashganligi aniq, deb hisoblanar edi. Xuddi shuningdek, oyoq, qo‘l barmoqlar, tana harakatlarining alohida-alohida markazlari bor, deb aytilar, «yozuv markazlari», «o‘qish markazlari» va shunga o‘xshash markazlar bor deb, da'vo qilinar edi.

I. P. Pavlov funksiyalarni shu tariqa sof anatomik nuqtayi nazardan lokalizatsiyalashdan tamoman farq qiladigan boshqa lokalizatsiya haqida yangi ta'limot ishlab chiqdi. I. P. Pavlovning tajribalari shuni ko‘rsatdiki, analizatorlarning markaziy qismlarini miya po‘stining bir-biridan uzil-kesil chegara bilan ajralgan bo‘laklari deb tushunish yaramaydi. Ha-qiqatda bu «markazlar»ning bir-biriga o‘tishi, bir-biriga qo‘shilishi, bir-birini qoplashi aniqlandi. Masalan, optik analizatorning markaziy qismi, yadrosi, yorug‘lik ta'sirotlarini yuqori darajada sintez va analiz qiladigan organ – yarim sharlarning ensa bo‘laklaridadir. Ammo optik analizatorning hammasi shu yerda emas. Bu analizator keng tarqalgan katta yarim sharlarning balki hammasiga ham tarqalgan bo‘lsa ehtimol. Boshqa analizatorlarning «markazlari» to‘g‘risida ham gap shunday. I. P. Pavlovning fikriga ko‘ra, analizatorning po‘stdagi qismi po‘stga (ehtimol, butun po‘stga ham) yoyilgan ikki xil hujayralarni o‘z ichiga oladi: bir xil hujayralar eng sodda analiz va sintez funksiyalarni o‘taydi, ikkinchi xil hujayralar yadroni tashkil etadi, murakkab (kompleks) qo‘zg‘alishlar o‘sha yadroda nozik analiz va sintez qilinadi, qo‘zg‘ovchilar juda aniq ajratiladi, ularni bunday ajratish organizm hayoti uchun nihoyatda muhimdir.

III BOB.
PSIXIKANING TARAQQIYOTI

Psixikaning taraqqiyoti haqida so‘zlaganda: 1) hayvonlar psixikasining taraqqiyotini, 2) odam ongining tarixiy taraqqiyotini, 3) odam psixikasining yoshga qarab taraqqiy qilishi nazarda tutiladi.

I. HAYVONLAR PSIXIKASI

Yuqorida ko‘rsatilganidek, psixika organik hayotning taraqqiyoti jarayonida paydo bo‘lgan. Organik materiyaning anorganik materiyadan farq qiladigan xususiyatlaridan biri shuki, organik materiya seskanuvchandir, ya’ni tashqaridan bo‘lgan ta’sirlarga seskanib javob beradi. Muhitning ta’siri bilan qo‘zg‘aladi. Masalan, bittagina hujayradan iborat bo‘lgan amyoba tashqi ta’sirga javob berar ekan, shu ta’sirga qarab harakatlanadi yoki undan qochadi.

Organik materiyaning bundan buyongi taraqqiyot bosqichlarida yangi xossa – sezuvchanlik, sezish xossasi paydo bo‘ladi, ya’ni organizmga ta’sir etadigan narsalarning xossalarini aks ettiruvchi sezish qobiliyati paydo bo‘lgan. Bu sezish xossasi nerv sistemasining kurtaklariga ega bo‘lgan hayvonlar vujudga kelgan vaqtda, balki undan ham ilgariroq eng boshlang‘ich shaklda paydo bo‘lgan A. N. Leontev gipotezasiga ko‘ra, sezuvchanlik «... genetik jihatdan olib qaraganda muhitning organizmni boshqa ta’sirlar bilan bog‘lovchi, ya’ni organizmning muhitda oriyentirovka qilishga yordam beruvchi signallik vazifasini o‘tovchi ta’sirlarga seskanuvchanlikdan boshqa narsa emas» (A. N. Leontev. Проблемы развития психики. M., «Мысл», 1965, 45-bet). A. N. Leontev seskanuvchanlikdan sezuvchanlikka o‘tish boshqacha hayot tarixi bilan bog‘liq deb ko‘rsatadi va yuksak tashkil topgan hayvonlarda sezuvchanlik taraqqiy etadi, sezgi a’zolari tarkib topadi, deb ko‘rsatadi.

Sezish qobiliyatining paydo bo‘lishi psixika taraqqiyotidagi dastlabki davrdir. Keyinchalik hayvonlar nerv sistemasining taraqqiysiga va jumladan sezgi organlarining taraqqiysiga qarab, tashqaridan bo‘ladigan ta’sirni aks ettirish, sezish qobiliyati o‘sib, tobora murakkablasha bordi. Masalan, maxsus sezgi organlari bo‘lmagan eng sodda hayvonlarda, aftidan, faqat umumiy, differensiallashmagan sezuvchanlik mavjud bo‘lsa kerak. Taraqqiyotning ancha yuqori bosqichlarida hayvonlarda sezgi organlari paydo bo‘ladi, nerv sistemasining analiz qilish qobiliyati ham o‘sadi. Biologik taraqqiyotning yuqori bosqichlarida hayvonlarning ba’zi turlarida sezgi organlari hayron qolarlik darajada takomillashadi. Masalan, burgutning ko‘rish organi, itning hid bilish organlari va hokazo.

Nerv sistemasi sezgi organlarining taraqqiyoti, shu bilan birga hayvonlar psixikasining taraqqiyotiga, hayvonlarning hayot kechirish tarziga, shu hayvonlarning qayerda, qanday yashashiga, qanday oziqlanishiga,

qanday ovqat topishiga, kimga qarshi kurashishiga va shu kabilarga bog‘liqdir. Masalan, parrandalar umrining ko‘p qismini havoda, uchib yurib o‘tkazadi. Bunday hayot kechirish bepoyon bo‘shliqlarda adashmaslik zaruriyatini tug‘diradi. Shuning uchun ham parrandalarning, ayniqsa, yirtqich va ko‘chib yuradigan parrandalarning ko‘ruv organi va ko‘rib idrok qilish xususiyatlari ham taraqqiy qilgandir. Maymunlar asosan daraxtlarda hayot kechiradi. Shunga ko‘ra, maymunlarning ko‘z bilan chamalash, harakatlarni uyg‘unlashtirish va chaqqon ushlab olish xususiyati, darrov vaziyatga qarab ish ko‘rish qobiliyati paydo bo‘lgan. Hayvonlar psixikasining taraqqiysida tevarak-atrofdagi tabiat xususiyatlari, o‘sha turga kiradigan hayvonlarning birgalashib yashashi katta ahamiyatga egadir. Uy hayvonlari psixikasining shakllanishida odamzod muhiti katta rol o‘ynaydi. Bir sharoitdan ikkinchi bir sharoitga ko‘chib o‘tgan hayvonlarning psixikasi ham bir qadar o‘zgarishi mumkin.

Hayvonlar o‘z turiga kiradigan hayvonlar to‘dasidan chetda o‘sganda ularning xatti-harakatida ba’zi bir xususiyatlar paydo bo‘ladi. Uy hayvonlari doimo odamga yaqin yurganidan, ularning xatti-harakatlari shu turga kiradigan yovvoyi hayvonlar xatti-harakatiga qaraganda juda ham boshqacha bo‘lib tuyuladi.

Hayvonlarda bo‘ladigan xatti-harakatlarning ikki xil shaklini, ya’ni tug‘ma (yoki nasldan-naslga o‘tadigan) xatti-harakatlar bilan hayvonlarning o‘z tirikchiligi tajribasi natijasida paydo qiladigan (yoki hosil qiladigan) xatti-harakatlarni bir-biridan farq qilmoq kerak. Ammo tug‘ma xatti-harakatlar shakllari bilan hayvonlarning o‘z tirikchiligi tajribasida hosil qilingan (individual) xatti-harakatlar shakllarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish yaramaydi. Tug‘ma xatti-harakatlar shakllarining o‘zgarishi va individual xususiyatlarga aylanishi mumkin, individual xatti-harakat shakllari esa tug‘ma xatti-harakatlar shakllari zaminida hosil bo‘ladi. Buni quyida ko‘ramiz.

Hayvonlar xatti-harakatining asosiy tug‘ma shakli instinktlardir. Hayvonlarning o‘z tirikchiligi tajribasi natijasida hosil bo‘ladigan (individual) xatti-harakat shakllariga ko‘nikmalar va kurtak holdagi fahm bilan aloqador harakatlar kiradi.

Hayvonlarning instinktlari

Instinktlar hayvonlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun qiladigan murakkab tug‘ma harakatlaridir. Masalan, ko‘p qushlar juda ustalik bilan in yasar ekan, material (cho‘p-char, loy) tanlash va inni pishiq qilib qurish yo‘lida xilma-xil harakatlarni bajaradi. Qaldirg‘ochlarning ini bunga yaxshi misol bo‘la oladi. O‘rgimchaklar garchi in to‘qish «san’atini» oldindan o‘rganmagan bo‘lsa ham, o‘z inlarini zo‘r «mahorat» bilan to‘qiydilar. Asalari o‘z kataklarini, go‘yo puxta hisob qilib turganday,

uyga olib kirib, uy eshigini yopib qo‘yildi, deylik. It buni ko‘radi. It ovqatga ehtiyoj sezganda eshikka yugurib boradi, uni oyog‘i yoki tumshug‘i bilan ochishga urinib, ko‘pgina poyma-poy harakatlar qiladi. Shu betartib harakatlar davomida it eshikni oyog‘i yoki tumshug‘i bilan bexosdan ochib yuboradi. Bu harakat bir necha marta takrorlanadi. Oyoq yoki tumshuqning o‘ng kelgan harakatlari mustahkamlanib qoladi, natija bermaydigan foydasiz harakatlar esa yo‘qoladi, it keyinchalik eshikni oyog‘i yoki tumshug‘i bilan bemalol ochadigan bo‘lib qoladi. Hayvonda bama’ni harakatning yangi ko‘nikmasi, yangi usuli taxminan shunday vujudga keladi. Hayvonlarning ko‘nikmalari ota-onasidan «o‘rganish» yo‘li bilan ham hosil bo‘ladi. Masalan, bo‘rilar bolalarini ovga shunday «o‘rgatadi»: qari bo‘ri qilgan harakatlarni yosh bo‘rilar takrorlaydi. Bu yerda «o‘rganish» taqlid qilish instinktiga asoslangandir.

Uy hayvonlarini odam «o‘rgatganida» ular ko‘p ko‘nikma hosil qiladi. Kishilarning hayvonlarda shu tariqa ko‘nikmalar hosil qilishi **o‘rgatish** (dressirovka) deb ataladi.

Yuksak darajadagi hayvonlarning ba’zi ko‘nikmalari juda murakkab bo‘ladi va hatto aqllilik belgisi bo‘lib ko‘rinadi. Masalan, o‘rgatilib, sirk sahnasiga olib chiqiladigan hayvonlarning ko‘rsatadigan harakatlari: fillar raqsi, ayiqlarning velosiped minib yurishi, sherlarning akrobatik harakatlari, it, otlarining «matematik masalalarni» yechishi va hokazolar shundaydir. Bularning hammasi shartli reflekslar hosil qilishga asoslangandir. Hosil bo‘lgan ko‘nikmalar ayrim hollarda, hayvonlarning hayot sharoitiga qarab, mustahkamlanishi va irsiy bo‘lib qolishi yangi instinktiv harakatlar shaklida nasldan-naslga o‘tishi mumkin. I. P. Pavlov fiziologlarning 1913-yilda Gronengenda bo‘lib o‘tgan xalqaro kongressida bunday degan edi: «Yangi paydo qilingan shartli reflekslarning ba’zilari keyinchalik irsiyat yo‘li bilan shartsiz reflekslarga aylanadi, deyish mumkin» (O‘sha asar, III tom, 1-kitob, 273-bet).

Bir yildan keyin – 1914-yilda, Pavlov yanada ko‘proq ishonch bilan bunday dedi: «Yangi paydo bo‘lgan reflekslar birin-ketin bir qancha nasllarda hayot sharoiti birday saqlangan taqdirda, uzluksiz ravishda doimiy reflekslarga aylanishi juda ham ehtimol (va bunga endi faktlar dalil bo‘la oladi). (O‘sha kitob, 281-bet.)

I. P. Pavlov ta’limotiga ko‘ra, hayvonlar paydo bo‘lib ularda nerv sistemasi vujudga kelishi bilanoq shartli reflekslar, ya’ni organizm bilan tashqi muhit o‘rtasidagi muvaqqat nerv bog‘lanishlari vujudga kela boshlagan. Biologik jihatdan nihoyatda muhim va organizmning hayotini saqlash uchun zarur bo‘lgan bu muvaqqat nerv bog‘lanishlari bir qancha nasllardan-nasllarga o‘tib, takrorlanib, doimiy (shartsiz) bog‘lanishlarga, ya’ni instinktlarga aylangan. Hayvonlarda shartli reflekslar hosil bo‘lish jarayonida nerv sistemasining o‘zi ham o‘zgargan va takomillashib borgan.

Shunday qilib, I. P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, yuksak nerv faoliyati hayvonlarning taraqqiyotida yetakchi rol o'ynaydi. Hayvonlar ko'nikmalar hosil qilish tufayli, tashqi muhitning o'zgaruvchi sharoitiga chaqqonroq va yaxshiroq moslashadigan bo'lib qoladi.

Hayvonlardagi tafakkur kurtaklari

Yuqori darajada taraqqiy qilgan hayvonlarning (masalan, it, maymunlarning) ba'zi harakatlarini ko'rganimizda ba'zan ularga «ziyrak», «sezgir», «tiyrak» degan va boshqa shu kabi sifatlar beramiz. Hayvonlarda shunday harakatlar ko'rinadiki, bu harakatlardan bizga hayvon qanday bo'lmasin maqsadga yetish yo'llari yoki vositalarini tanlaganday, qanday bo'lmasin masalani hal etganday, avvalgi tajribani yangi sharoitga qarab tatbiq etganday tuyuladi. Hayvonlarning tafakkuri haqidagi masala sohasida so'nggi vaqtlarda g'oyat ko'p eksperimental tekshirish o'tkazildi, bu tajriba ishlarining ko'pchiligi maymunlarning turli zotlari ustida olib borildi. Masalan, N. N. Ladigina Kotsning tekshirishlari shimpanzeda boshlang'ich abstraksiya qobiliyatlari borligini ko'rsatadi: maymunlar o'zi idrok qiladigan narsalarning rangini shakli va hajmidan ajratar ekan, shuningdek, shaklni rang va jismdan ajrata olar ekan. Hatto tuban darajadagi maymunlarda ham anchagina murakkab tanlash-ajratish qobiliyati borligini tajriba ko'rsatib berdi.

Professor Roginskiy mana bunday tajriba qilgan: maymunlar oldiga turli tomonga qaratib, uzun-uzun bir necha tasma va arqon uzala yotqizib qo'yilgan. Shu tasma va arqonlardan ba'zilarining uchiga yemish bog'lab



11-rasm. *Maymunlarda murakkab tanlash-ajratish qobiliyati borligini ko'rsatuvchi tajriba.*

qo‘yilgan. Maymunlar bu tasma va arqonlarni bir-biridan farq qilmay bir necha marta ushlab ko‘rganidan keyin, oxiri, tasma va arqonlarning qay xilda cho‘zilib yotganidan qat’i nazar, yanglishmay xuddi o‘sha yemish bog‘langan tasma va arqonlarni darrov ajratib, topib olganlar.

Maymunlarning sun’iy suratda yaratilgan sharoitda o‘zlari uchun yangi, murakkab harakatlarni bajarishga qobil ekanliklari ma’lum bo‘ldi. Maxsus tajriba qilib ko‘rilganda shu narsa ayon bo‘lganki, maymunlar baland joyga qo‘yib qo‘yilgan yemishlarni tushirib olish uchun yonlarida turgan yog‘ochni «qurol» tariqasida ishlata olganlar, ayrim hollarda esa yemishlarni tushirib olish uchun yog‘ochlarni bir-biriga ulaganlar yoki buyumlarni qalashtirib, ustiga chiqib olganlar.

Maymunlarning tafakkurini tekshirishda I. P. Pavlovning xizmati, ayniqsa, kattadir. I. P. Pavlov sinchiklab tajriba qilib, maymunlarning fahm bilan aloqador harakatlar qila olishini ko‘rsatib berdi. Masalan, tajriba qilingan Rafael deb atalgan maymun eshiklarning turli xil zanjir va ilgaklarini ularning har biriga yarasha asbob bilan ochishga, olovga suv sepishga, yashiklarni taxlab zinapoyacha qilib, balandga chiqishga o‘rgandi.

I. P. Pavlov o‘z tajribalariga, shuningdek, boshqa tekshiruvchilarning tajribalariga asoslanib, maymunlarning fahm bilan aloqador harakatlarini materialistik asosda uqtirib berdi. Maymunlarning fahm bilan aloqador bu harakatlari ular miyasining shartli reflektor faoliyatidir, albatta. I. P. Pavlov maymunlarning tafakkuri, fahmi o‘ylashda emas (maymunlar o‘ylamaydi), balki harakatidadir, degan xulosa chiqaradi. «Maymunning tafakkurini uning harakatlarida o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rasiz», «maymunning goh uni, goh buni qo‘liga olib ko‘rib qilayotgan barcha ish-harakatlari, o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rib turganingizdek, ish-harakatda namoyon bo‘lgan tafakkurdir. Bu qisman avvallari hosil qilingan, qisman hozir ko‘z o‘ngingizda hosil bo‘layotgan, ko‘z oldingizda bir-biriga qo‘shilayotgan bir qancha assotsiatsiyalardir. Albatta, bu fahm eng elementar fahmdir» – deydi I. P. Pavlov («Павловские среды», II tom, 431-bet).

Bu tafakkurning elementar tafakkurligi shundaki, hayvonlar shu paytda o‘zi idrok qiladigan voqelik doirasidagina «fikrlaydi», ularning fahm bilan aloqador harakatlari faqat biologik ehtiyojlarni qondirish yo‘lidagi harakatlardir, xolos.

Hayvonlar o‘ylamaydi, ularning fikrni ifodalaydigan va ma’lum bir shaklga kiritadigan tili yo‘q. Yuqori darajada taraqqiy qilgan hayvonlarda faqat birinchi signal sistemasining muvaqqat bog‘lanishlari tafakkurning nerv-fiziologik mexanizmlari bo‘lib xizmat qiladi.

Hayvonlarda vujudga kelgan harakat usullari biridan ikkinchisiga o‘tmaydi. Bu harakat usullarini qaysi hayvon topgan bo‘lsa, faqat o‘sha ayrim hayvonniki bo‘lib qoladi. Hayvonlarning kurtak holidagi tafakkuri

taraqqiy etmaydi. Bu tafakkurning zohir bo‘lishi tafakkurning navbatdagi, yuksak va murakkabroq shakllari taraqqiy etishi uchun bir bosqich bo‘lolmaydi. Hayvonlarning tafakkuri namoyon bo‘ladigan harakatlar ularning fe’l-atvorida asosiy o‘rin tutmaydi. Hayvonlarning fe’l-atvori (xatti-harakatlari)dagi asosiy shakllari instinktlari bilan ko‘nikmalardan iborat. Hayvonlarning ana shu oddiy kurtak holidagi tafakkur faoliyati ayni vaqtda hayvon psixika taraqqiyotidagi yuksak bosqich hisoblanadi.

Hayvonlar psixologiyasi – **zoopsixologiya** degan maxsus fan hayvonlar psixikasini tekshirish bilan shug‘ullanadi. Bu fan hayvonlardagi psixik hayot shakllarining taraqqiyotini ulardagi nerv sistemasining taraqqiyotiga va biologik sistematikaga (hayvonlarning har xil turlariga), shuningdek, hayvonlarning hayot kechirish xususiyatlariga qarab o‘rganadi. Zoopsixologiya turli hayvonlar psixikasining taqqoslab tekshirganidan **chog‘ishtirma psixologiya** deb ham ataladi. Shu psixologiyaning o‘zi psixika taraqqiyotini hayvon organizmlarining biologik tuzilishiga qarab tekshirgani uchun yana **biologik psixologiya** deb ham yuritiladi.

II. INSON ONGINING TARIXIY TARAQQIYOTI

Hayvonlar psixikasining paydo bo‘lishi va o‘sib taraqqiy qilinishini yuksak darajada taraqqiy etgan psixikaning, ya’ni faqat insonga xos bo‘lgan ongning ilk tarixi arafasi desa bo‘ladi.

Inson ong egasi bo‘lganligi tufayli hodisalarning o‘zaro sababiyatlari, bog‘lanishlarini va bu bog‘lanishlarning natijalarini ochib ola biladi, o‘z oldiga muayyan maqsadlar qo‘yadi va shu maqsadlarga yarasha ish ko‘radi. Odam ongi, psixikasi yuksak darajada tashkil topgan materiyaning, ya’ni miyaning xossasidir. Shu bilan birga, odam ongini ijtimoiy hayot sharoitiga bog‘lagan holda taraqqiy qiladi. Ong insonning eng avvalgi ota-bobosi qurol yasab, mehnat qila boshlagan va shu tufayli ijtimoiy hayot kechira boshlagan paytdan e’tiboran paydo bo‘lgan.

Odamning eng avvalgi ota-bobolari to‘da-to‘da bo‘lib yashagan. Mehnat jarayonida insonni jamiyatga yaqinlashtiradi. Odam tashqi tabiatga ta’sir etib va uni mehnati bilan o‘zlashtirish jarayonida o‘zining tabiatini ham o‘zgartirib boradi. Odamning eng avvalgi ota-bobolari mehnat jarayonida qayta tuzilib odam organizmi takomillasha borgan.

Odamning taraqqiy qilishida mehnatning roli

Inson ongining taraqqiy qilishida so‘zsiz mehnat jarayoni muhim rol o‘ynadi. Avlod-ajdodlarimiz mehnat qilish natijasida o‘z ehtiyojlari uchun kerak bo‘lgan buyumlarni tabiatdagi bor bo‘lgan yog‘och, tosh kabilardan yasash natijasida ularning onglari takomillasha borgan.

Ayni mehnat qurollari tayyorlanishi, qo‘ldan turli-tuman ishlarda foydalanishi tufayli odamzod qo‘lining panjalari rivojlandi. Odam mehnat qilgan sayin so‘zlashni o‘rgandi, nutq vujudga keldi, odam tilga kirdi, so‘zlashni o‘rgana boshladi, so‘zlay berish munosabati bilan, nutq ila qilinadigan muomalada til taraqqiy eta bordi va mehnat bilan bir qatorda, odam bosh miyasi va ongining yanada o‘zgarishi, takomillashuvi uchun asosiy faktor bo‘lib qoldi.

Odam miyasining nisbiy hajmi ham o‘zgardi va ancha kattalashdi. Bosh miya po‘stining yuzasi ham kattalashdi (2000 kv. sm), miyaning va miya po‘stidagi ayrim qismlarning tuzilishi o‘zgardi. Katta yarim sharlarning peshana va tepa bo‘laklari, ayniqsa, takomil etdi. Odam miyasining peshana bo‘lagi miya po‘sti yuzasining taxminan 30 foizini egallaydi. Bosh miya po‘stining ensa bo‘lagi odamda 12 foizini egalladi. Odam miyasining po‘stida yangi markazlar hosil bo‘ldi, hayvonlarning miya po‘stida esa bunday markazlar yo‘q. Odam miyasining po‘stida nutq markazlarining hosil bo‘lishi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Odamda ikkinchi signal sistemasi vujudga keldi va tarkib topdi, ikkinchi signal sistemasining ishlashi odamdagi yuksak nerv faoliyatining hayvonlardagi yuksak nerv faoliyatidan farq qiladigan asosiy xususiyatidir.

Odamda moddiy dunyo taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo‘lgan ong taraqqiy qilib va o‘zgarib bordi. Lekin ongning tarixiy taraqqiyoti biologik qonunlar bilan emas, balki ijtimoiy qonunlar bilan belgilandi. Kishilar ongi ijtimoiy hayot shakllarining tarixiy o‘zgarishlariga muvofiq ravishda taraqqiy qilib bordi. Jumladan, kishilar ongining tarixiy taraqqiyoti ishlab chiqarish usullariga, ishlab chiqarish munosabatlarining o‘zgarishiga va shu jamiyat ideologiyasiga qarab bordi.

Ideologiya deb biron jamiyat, sinfning siyosiy, falsafiy, ma’naviy, estetik (san’at), diniy qarashlar sistemasini aytiladi. Ideologiya, boshqacha aytganda, ijtimoiy ong deb ataladi. Psixologiyada tekshiriladigan individual ongni, ya’ni har bir ayrim kishi ongini ijtimoiy ongdan farq qilish kerak.

Barcha kishilar tevarak-atrofdagi dunyoni seza va idrok eta oladilar. Barcha kishilarda xotira va xayol bor. Barcha kishilar fikrlaydilar va til vositasi bilan o‘zaro aloqa qiladilar. Barcha kishilar turli hislarni ko‘ngildan kechiradilar va o‘z irodalarini namoyon qiladilar.

Odam ongining ayrim tomonlari va funksiyalarining tarixiy taraqqiyoti

Odam ongining ayrim tomonlari va funksiyalari tarixan taraqqiy qilib kelgan. Kishilarda faqat ularning o‘ziga xos bo‘lgan ehtiyojlar vujudga keldi va taraqqiy etdi.

Ehtiyoj odamning kun kechirishi, yashashi va kamolga yetishi uchun zarur narsalarning hammasi demakdir.

Odam yashash, hayot kechirish uchun o‘z ehtiyojlarini qondirishi lozim.

Ehtiyoj hayvonlarda ham bor. Ammo hayvonlarda faqat biologik, tug‘ma ehtiyojlar bo‘ladi, ovqatlanish, o‘z-o‘zini himoya qilish, nasl qoldirish ehtiyojlari bor, xolos. Odamda bu biologik ehtiyojlardan tashqari, yana yuksak ehtiyojlar – bilish ehtiyojlari, ijtimoiy, ma’naviy, estetik va boshqa shu kabi ehtiyojlar bor. Bu ehtiyojlar tug‘ma ehtiyojlar emas, ular tarixan taraqqiy etgan. Ijtimoiy zot bo‘lgan odamning biologik ehtiyojlari ham tarixiy taraqqiyot jarayonida sifat jihatidan tubdan o‘zgargan.

Kishilarning ehtiyojlari ijtimoiy tuzum shakllarining taraqqiyotiga qarab o‘zgaradi.

Tarixda odam miyasi taraqqiy etishi bilan birga sezgi ko‘ruv, eshituv, tuyg‘u organlari, ayniqsa, yuksak kamolotga erishdi. Odam musiqani, nafis suratlarni va boshqa san’at asarlarini idrok etishga qodir bo‘ldi. Qo‘l asosiy mehnat organi bo‘lish bilan birga asosiy tuyg‘u organi ham bo‘lib qoldi.

Odamning tarixiy taraqqiyotida uning idroki va xotira faoliyati ham takomillashib va sifat jihatidan o‘zgarib turdi. Tashqi dunyodagi narsa va hodisalarni anglab-bilib, shu bilan birga kengroq va chuqurroq idrok etadigan bo‘ldi, o‘z faoliyatidagi tajriba mahsulini anglab-bilib esda qoldiradigan va undan anglab-bilib foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ldi.

Inson tafakkuri ham tarixiy taraqqiyot mahsulidir

Odamzod tafakkuri dastlab elementar mehnat faoliyati bilan chambarchas bog‘langan edi. Bu aniq-amaliy tafakkur edi. Keyinchalik tafakkur aniq tafakkurdan abstrakt tafakkur sari va amaliy tafakkurdan nazariy tafakkur sari taraqqiy qilib bordi. Albatta, abstrakt va nazariy tafakkur tajribadan ajralmagan holda o‘sib bordi. Mantiqiy tafakkur shakllari ham mehnat tajribasida va dunyoni bilish jarayonlarida hosil bo‘ldi va o‘sib bordi.

Odam hodisalar o‘rtasidagi muhim aloqa va munosabatlarni, tabiat va ijtimoiy hayot qonunlarini tafakkur yordami bilan ochib oladi. Insonning ong idora qiladigan faoliyati endi faqat oddiy qo‘l mehnati qurollari, ovqat, kiyim-kechak va turar joyinigina yaratib qolmay, balki fan, san’at, murakkab texnikani ham yaratadi. Kishilar ilmga asoslangan dunyoqarash yaratishga intiladilar va shunga harakat qiladilar. Taraqqiy qilayotgan fan, texnika va san’at esa o‘z navbatida kishilar ongining o‘sishiga, ularning ma’naviy qiyofasiga, tafakkuriga ta’sir etadi.

Avvalgi nasllarning tajriba va bilimlari tilda mustahkamlanib, keyingi nasllarga o‘tib keldi. Mehnat aloqalarida takomillashib borgan til o‘z navbatida kishilarning ongi va tafakkuri taraqqiyotiga ham ta’sir etdi.

Yozuvning takomillashuvi tufayli kishilarning o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’siri mislsiz darajada kengaydi va mazmundor bo‘lib qoldi. Kishilar bir-birlari bilan bevosita aloqa qilish orqaligina emas, balki uzoq masofadagi kishilar bilan va ilgari o‘tgan kishilar bilan bavosita «aloqa» bog‘lash yo‘li bilan ham ularning ongi, bilim va tajribasi bilan boyiydigan bo‘lib qoladi. Til kishining butun ongli faoliyati bilan chambarchas bog‘langandir. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, til mehnat bilan bir qatorda inson jamiyati va ongini taraqqiy ettiradigan ikkinchi asosiy faktordir.

Mehnat jarayoni va ijtimoiy munosabatlarning tarkib topish jarayonida tafakkur va til bilan birga, odam irodasi ham paydo bo‘ldi hamda tarixan o‘sa bordi. Odam, ish ko‘rishdan oldin o‘z harakatlarini tasavvur qiladi, shu harakatlarni oldin o‘ylab ko‘radi, qo‘yilgan maqsadga yetish uchun anglab-bilib g‘ayrat ko‘rsatadi, ro‘y bergan qiyinchiliklarni yengib o‘tadigan bo‘lib qoladi. Iroda bilan bo‘ladigan harakatlar – ongli harakatlar shakllanadi. Shu bilan birga, odamning iroda-ixtiyor bilan qiladigan harakatlari bo‘ladi. Tevarak-atrofdagi muhitni o‘zlashtirish, uni o‘z ehtiyojiga moslashtirish imkonini paydo qildi. Odam iroda egasi bo‘lganligi tufayli tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiatni o‘ziga asta-sekin bo‘ysundirdi, uni o‘ziga xizmat qilishga majbur etdi. Odam tabiatni, tevarak-atrofdagi olamni o‘z maqsadlariga muvofiq qilib o‘zgartiradi, unga yangilik kiritadi. O‘sha tarixiy taraqqiyot jarayonida, uzoq kurash yo‘li bilan insonlar ijtimoiy muhitining stixiyali ta’siridan qutuladi, ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini sekin-asta bilib olib, ijtimoiy hayotga uyushgan holda ta’sir ko‘rsata boshlaydi, inson jamiyatining taraqqiyotini muayyan yo‘lga sola boshlaydi.

Kishilar ongining o‘zgarishi

Mamlakatimizda mustaqillikning g‘alaba qilishi odamzod shaxsining – undagi barcha kuch va qobiliyatlarning yayrab-yashnashi uchun mislsiz katta imkoniyatlar yaratib berdi. Ishlab chiqarish vositalarining ijtimoiy mulkligi ishlab chiqarish munosabatlarining asosi ana shu yangi munosabatlarni aks ettiradigan yangi ong ham paydo bo‘ldi. Kishilar ongidagi bu yangilik kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishida, mehnatga munosabatning o‘zgarishida, kishilar saviyasining o‘zgarishi va kengayishida, ularning o‘z faoliyatida oldilariga qo‘yadigan g‘oyalarning o‘zgarishida o‘z ifodasini topdi. Kishilarning o‘zaro munosabatlarida o‘rtoqlarcha hamkorlik va ishlab chiqarish jarayonida o‘zaro yordam, hamkorlik qaror topdi.

Bizda kishilarning mehnatga munosabati ham tubdan o‘zgardi: ilgari og‘ir va mashaqqatli yuk deb hisoblangan mehnat shon-sharafga, shavkat va qahramonlik ishiga aylandi. Mehnatda zavq-shavq qo‘zg‘aydigan manbalar paydo bo‘ldi. Bizda mehnat faqat yashash vositasi bo‘libgina

qolmay, balki, ehtiyojga shu bilan birga, shodlik va bardamlik manbalariga aylandi. Kishilarning yuksak hislari — Vatanimiz baxt-saodati uchun ijodiy mehnat qilishida yangilik yaratish, kashfiyot bilan shug‘ullanishda o‘z ifodasini topmoqda. Ozod kishilarning erkin mehnati zo‘r ijodiyot ekanligini, bu ijodiyotda kishining barcha jismoniy va ma’naviy kuchlari munosib ravishda qo‘shilishini, korxonalarimizning ilg‘orlari va tadbirkorlari amalda ko‘rsatmoqdalar.

Kishilarning o‘zaro munosabatlari o‘zgarishi bilan mehnatga yangicha munosabat qaror topishi bilan kishilarning ongi ham o‘zgardi. Ular o‘z jamiyatiga qarshi bosh ko‘taradigan kishilar emas, balki o‘z jamiyatining a’zosi uning fidoiysidirlar. Ular Vatan oldidagi burchini, vazifalarini doimo yaxshi anglaydigan kishilardir. Mustaqillik davrida kishilarning fikr-hislari, intilishlari va irodasi ham o‘zgardi.

Kishilar ongining o‘zgarishida ijtimoiy tuzum qancha yuqori bo‘lsa, ijtimoiy muhitning o‘sib kelayotgan avlod ongiga ta’siri shuncha ortadi. Mustaqillikka erishishimizning o‘zi kishilarning ongini o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Jamiyatning bolalar ongiga ta’sir etishida ta’lim-tarbiyaning roli kattadir. Chunki bolalar yoshligidan atrofdagi kishilar bilan munosabatda bo‘lib, bilimlar, ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. Bolani o‘rab olgan ijtimoiy muhit (tabiat, jamiyat, jamoa va guruh), mehnat va til faqat inson shaxsi taraqqiyotining shartlarigina bo‘lib qolmay, bolalar uchun maktabda o‘quv predmetiga aylanadi. Bilim va ko‘nikmalarni egallash bolaning ma’naviy jihatdan o‘sishiga yordam beradi, dunyoqarash shakllanadi.

Inson ongining o‘zgarishida uning faollik ko‘rsatishi ham muhim ahamiyatga ega. Agar bola tug‘ilganidan boshlab faollik ko‘rsata boshlasa, keyinchalik bu faollik faoliyatga aylanadi. Faoliyat esa kishining o‘zini o‘rab olgan tabiatga, ijtimoiy muhitga va ayrim kishilarga ta’sir ko‘rsatishidir. Bularning hammasi kishilar ongining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

III. ODAM ONGINING YOSHGA QARAB O‘SISHI

Ma’lumki, har bir odamning ongi tug‘ilish paytidan boshlab, butun umr bo‘yi o‘sib boradi. Odam ongining yoshga qarab o‘zgarish sababi nimada, degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Turmushdagi kuzatishlar va biologlar, jamiyatshunoslar, psixologlar va pedagoglarning ko‘pgina ilmiy tadqiqotlari bu savolga quyidagicha javob qaytarishimizga asos beradi: har bir kishi, ongining yoshga qarab taraqqiy etishi shu kishi organizmining o‘sishiga, ijtimoiy muhit ta’siriga, ta’lim va tarbiyaga, shuningdek, odamning o‘z faoliyatiga bog‘liq.

Organizmning o‘sishi

Bola organizmi o‘sib, kamolga yetib boradi. Organizmning ayrim a’zolari o‘sadi va takomil etadi, shu a’zolarning sifati o‘zgaradi. Nerv

sistemasi taraqqiy etib va chiniqib boradi. Masalan, bola bir yoshga to‘lguncha bosh miyasining og‘irligi ikki marta oshadi, to‘rt-besh yoshlarga borganda bosh miya og‘irligi uch marta oshadi. Miyaning o‘sishi 20 yoshgacha, ba’zan undan keyin ham davom etadi.

Bola shartsiz reflekslar bilan tug‘iladi, ammo hayotining birinchi oyidayoq, shartsiz reflekslar asosida, tashqi ta’sirlar tufayli shartli reflekslar ham vujudga kela boshlaydi. Bola bir yoshga to‘lib, ikkinchi yoshga qadam qo‘yganda bosh miya po‘stining faqat odamga xos bo‘lgan yuksak funksiyasi tarkib topadi, I. P. Pavlov bu funksiyani ikkinchi signal sistemasi deb atagan edi. Yuqorida aytganimizdek, I. P. Pavlov ta’limotiga ko‘ra, ikkinchi signal sistemasining mexanizmlari tafakkur hamda og‘zaki va yozma nutqning nerv-fiziologik negizi hisoblanadi.

Takomil etuvchi nerv sistemasi, jumladan, bosh miya – taraqqiy etayotgan odam psixikasining moddiy substrati (asosi)dir. Ammo organizm o‘sishining o‘zi hali odam shaxsini, undagi psixik hayot mazmuni va shakllarini belgilab bermaydi. Bola tayyor bilim va mahorat, tasavvur va qobiliyat, tayyor havas va xarakter bilan tug‘ilmaydi. Organizmning o‘sishiga bog‘liq bo‘lgan psixik hayot imkoniyatlari haqiqatan yuzaga chiqishi uchun bola anchayin o‘sish bilangina qolmay, ijtimoiy muhitda, odamlar orasida yashashi va kamolga yetishi kerak.

Bolalarni go‘dakligida yovvoyi hayvonlar (maymunlar, bo‘rilar) o‘g‘irlab ketishi, bu bolalarning tirik qolib, odamlarga aralashmasdan o‘sish hodisalari anchagina ma’lum. Ammo, bunday bolalarda odamga xos bo‘lgan psixik qobiliyatlar ularning yoshiga yarasha taraqqiy etgan emas.

Bu faktlar shuni ko‘rsatadiki, organizmning inson jamiyatidan tashqarida o‘sishining o‘zi shaxsning psixik taraqqiyotini ta’minlay olmaydi.

Organizm o‘sishi bilan, jumladan, nerv sistemasi o‘sishi bilan psixik hayot mazmuni va shakllarining taraqqiysi uchun imkoniyat vujudga keladi, xolos. Bu imkoniyatlarning yuzaga chiqish boisi shuki, odam ijtimoiy muhitda yashaydi va kamol topadi. Odam biologik zot sifatida emas, balki ijtimoiy zot sifatida kamolga yetadi.

Ijtimoiy muhit

Umuman odam ongi ijtimoiy tarixiy hayot sharoitida vujudga kelib, kamolga yetgani kabi, har bir odam ongi ham faqat muayyan ijtimoiy muhitda kamol topadi.

Bola tug‘ilgan paytidanoq, muayyan ijtimoiy hayot sharoitida tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar sharoitida, ijtimoiy ong shakllari qaror topgan bir sharoitda bo‘ladi, bola mehnat sharoitining ta’sirida bo‘ladi, tevarak-atrofdagi kishilar bilan so‘zlashib, aloqa qilib turadi. Go‘dak bola-

ning o‘zi mehnat qilmaydi, albatta. Ammo u mehnat sharoitida yashaydi va o‘sadi. Bolaning atrofida ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli bo‘lgan narsalar turadi; u mehnat samaralaridan foydalanadi; katta yoshli kishilar bola uchun mehnat qiladilar, so‘ngra bola voyaga yetib, mehnatning biron turiga kirishadi, mehnatga biron munosabatda bo‘ladi. Xuddi shuningdek, bola tug‘ilgan kuniyoq tilga kirmaydi. Ammo boshqa kishilar bolaning oldida unga murojaat qilib so‘zlaydilar. Bola so‘zlashuvchilar orasida o‘sadi, so‘ngra bola ma’lum yoshga yetgach tilga kirib, so‘zlashadigan bo‘lib qoladi.

O‘sayotgan bola tilni bilib oladi, tilning yordami bilan esa avvalgi nasllarning to‘plagan moddiy va ma’naviy tajribasini bilib oladi, ayni vaqtda o‘zining psixik kuchlarini ham kamolga yetkazadi.

Odam kamolga yetadigan muhit qandaydir o‘zgarmas bir narsa emas. Har bir odamning, har bir bolaning ongi o‘zgaruvchi muhit ta’sirida kamol topadi. Sinfiy jamiyatda bu muhit sinfiy bo‘ladi. Shu sababli, aniq muhitga qarab, o‘sayotgan odam ongi ham har xil tarkib topadi va kamolga yetadi.

Hamma sharoitda bola bolaligicha, yigit-yigitligicha qoladi, albatta. Ammo ijtimoiy hayot, turmush va madaniyat sharoitiga qarab, tarbiyaga qarab, o‘smirlar va yigit-qizlarning xususiyatlari tarkib topadi.

Ta’lim va tarbiya

Tevarak-atrofdagi ijtimoiy muhit odamning o‘sayotgan ongiga, asosan, uyushgan tartibda ta’sir etadi. Ijtimoiy formatsiya qancha yuqori bo‘lsa, ijtimoiy muhitning o‘smir avlod ongiga uyushgan tartibdagi ta’siri shuncha katta bo‘ladi.

Inson jamiyati bolalar ongiga asosan tarbiya va ta’lim yo‘li bilan uyushgan ta’sir ko‘rsatadi. Bola tevarak-atrofdagi kishilar bilan xilma-xil o‘zaro munosabatlarga kirishar ekan, go‘dakligidanoq bilim, mahorat va malaka orttira boshlaydi. U avval oila sharoitida yoki maktabgacha tarbiya muassasasida, so‘ngra maktabda o‘qiydi, ta’lim oladi. Tevarak-atrofdagi muhit (tabiat va jamiyat), mehnat va til odam shaxsini kamolga yetkazadigan sharoit bo‘lish bilan birga, bola o‘sgan sayin maktabda o‘rganadi, shuningdek, tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi.

Ta’lim va tarbiya odamni kamolga yetkazadigan asosiy yetakchi faktordir. Buning sababi shular:

1. Organizm o‘sishining o‘zi va muhitning stixiyali ta’siri berolmaydigan narsani odam ta’lim va tarbiya jarayonida oladi. Masalan, bola ona tilini tevarak-atrofdagi muhitning «stixiyali» ta’sirida ham bilib olishi mumkin. Ammo, o‘qish-yozishni faqat maxsus ta’lim olish yo‘li bilan o‘rganishi mumkin.

Odam qo‘l-oyog‘ining xilma-xil harakatlari organizmning o‘sishi bi-

lan birga va shu organizm yashaydigan sharoitga qarab takomil etadi. Ammo, maxsus mehnat va texnik ko‘nikma hamda malakalarini odam faqat o‘qib-o‘rganish yo‘li bilan egallab oladi.

2. Odamning noqulay organik takomil natijasi bo‘lgan nuqson ham ta’lim va tarbiya yo‘li bilan zarur tomonga qarab o‘zgartiriladi. Masalan, ba’zi bolalarning ayrim nuqsonlar bilan – ko‘r, kar (kar-soqov, ko‘r-kar-soqov) bo‘lib tug‘ilishi ma’lum. Ammo, maxsus tashkil etilgan ta’lim va tarbiya yordami bilan bunday bolalar aqli to‘la-to‘kis o‘sadi. Bunga ko‘r-kar-soqov Olga Skoroxodova yorqin misol bo‘la oladi. Olga o‘qib, oliy ma’lumot oldi, bir qancha ilmiy asarlar va she’r to‘plamlari yozdi.

3. Muhitning stixiyali salbiy ta’sir etish natijasi bo‘lgan kamchiliklar ham ta’lim va tarbiya yo‘li bilan zarur tomonga o‘zgartiriladi. Masalan, 9-10 yashar bolalarda ba’zan muhit ta’siri bilan ba’zi yomon odat va mayllar – tamaki chekish, karta o‘ynash, so‘kinish va shunga o‘xshash yaramas odatlar paydo bo‘lishi mumkin.

Maxsus pedagogik usullar bilan ta’sir etib, bu yaramas odat va mayllarni bartaraf qilish va o‘rniga boshqa yaxshi odatlarni singdirish mumkin.

4. Ta’lim va tarbiya shaxs taraqqiyotida progressiv ahamiyatga egadir. Muhitning stixiyali ta’siri odamning taraqqiyotini shu muhit darajasiga yetkaza oladi. Ta’lim va tarbiyada shu progressiv jamiyat darajasidan tashqariga chiqadigan maqsadlar (ideyalar) qo‘yiladi. Masalan, pedagogik sistemamizda kelajak kishilarini, yanada mukammal kamol topgan shaxsni yetishtirishni maqsad qilib qo‘yamiz. Bunday maqsad yosh avlodda psixikaning kamolga yetish xususiyatlarini ham belgilab beradi, yoshlarda haqiqiy maqsadga intilish, yashash va ishlashga intilishning taraqqiy etishini ta’minlaydi. Shunday maqsad qo‘yilar ekan, tarbiya va ta’lim shaxs taraqqiyotida yoshda progressiv ahamiyatga ega bo‘ladi.

5. Ta’lim jarayonida bolalar o‘z aqlini ilm bilan boyitib, bir qancha mahorat va malaka olib, shu bilan birga o‘zlari ham kamol topadilar.

Bolalarning kamolga yetish darajasi biror bilim va malakalarni o‘zlashtirish imkoniyatiga bog‘liq. Bilim va malakalarni o‘zlashtirish jarayoni esa o‘z navbatida bolalarning jismoniy va ma’naviy jihatdan kamol topishiga imkon beradi.

Ta’lim jarayonida bolalarning iroda va ma’naviy sifatlari takomillashadi, ularning dunyoqarashi tarkib topadi. Ta’lim – odamning tabiiy qobiliyatlarini uyg‘otish va rivojlantirish uchun muhim shartlardan biridir.

Odamning o‘z faoliyati

Har bir shaxsning kamolga yetishi faqat organizmning o‘sishiga, muhit hamda ta’lim va tarbiya vositalarining ta’sir etishiga bog‘liq bo‘lish bilangina qolmaydi; har bir shaxsning kamol topishi shu kamolga yetayotgan

kishining faol ishtiroki bilan bo‘ladi. Bu faoliyat avvalo shunda ko‘rinadiki, bola muhitning, tarbiyachilar va o‘qituvchilarning o‘ziga ko‘rsatayotgan ta’siriga ijobiy yoki salbiy munosabatda bo‘ladi.

Bolaning tashqaridan bo‘ladigan ta’sirlarga biror munosabatda bo‘lishi avval organizmning tuzilish va faoliyat xususiyatlariga, shuningdek, unda kelib chiqqan ehtiyojlarga bog‘liq. O‘sayotgan organizmning xususiyatlariga va paydo bo‘layotgan ehtiyojlariga qarab, bolaning ba’zi psixik xususiyatlari yoshlik davridan tarkib topa boshlaydi. Shunga qarab, takomil etayotgan odam o‘ziga ko‘rsatiladigan ta’sirlarni bolalik davridanoq, turlicha va turli darajada o‘zlashtiradi. Bola hayotining dastlabki kunlaridanoq ko‘rinadigan faol munosabat keyinchalik faoliyatga aylanadi. Bu faoliyat esa odamning tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga, ijtimoiy muhitga va ayrim kishilarga ta’sir etishi demakdir. Agar bola mutlaqo qimirlamay turaversa (amalda bunday bo‘lishi mumkin emas, albatta) psixikasi taraqqiy etmagan bo‘lar edi.

Har bir zotning o‘z taraqqiyoti uning kamolga yetishida katta rol o‘ynaydi. Odamning o‘z taraqqiyoti faoliyatda yuzaga chiqadi. Odamning o‘z taraqqiyoti yosh sayin ongli jarayonga aylanib, faoliyatning o‘z-o‘zini tarbiyalash degan maxsus turiga aylanadi. Odam boshqalarni tarbiyalash bilangina cheklanib qolmay, o‘z-o‘zini ham tarbiyalaydi. Shuning uchun har bir odam umrining qandaydir yoshidan boshlab qandaydir darajada, maktab yoshidan boshlab esa o‘zining xatti-harakatiga tegishli tarzda javobgar bo‘ladi.

Yosh psixologiyasi degan maxsus fan odam psixikasining yosh sayin taraqqiy etishini tekshiradi. Bu fan odam yoshining turli bosqichlarida psixikaning ketma-ket taraqqiy etish xususiyatlari va qonuniyatlarini o‘rganadi. Odam umri davomida (ontogenezda) ong va shaxs ketma-ket qanday tarkib topishini tekshirish, odam yoshining har bir bosqichida go‘daklik davridan tortib to keksayguncha bu psixika strukturasining qanday spetsifik xususiyatlari borligini bilish, odam psixikasining yoshga qarab taraqqiy etishi qanday faktorlarga bog‘liq ekanligini aniqlash yosh psixologiyasining vazifasidir.

Yosh psixologiyasi sistemasida bolalar psixologiyasi alohida muhim o‘rinni egallaydi. Bu fan chaqaloqlik, go‘daklik, maktabgacha tarbiya yoshi, maktab yoshida psixika qanday taraqqiy etishini o‘rganadi. Bu o‘sish davrlari odam shaxsi va ongining tarkib topish davri hamdir.

Psixologiyaning maxsus sohalari «Yoshlar psixologiyasi», «Kattalar psixologiyasi», «Keksalar psixologiyasi» ham yosh psixologiyasi sistemasida o‘ziga munosib o‘rinni egallaydi.

IKKINCHI QISM. SHAXS VA FAOLIYAT.
I BOB. SHAXS PSIXOLOGIYASI

1. Shaxs psixologiyasi. Individ, shaxs va individuallik

Inson dunyoga individ sifatida keladi. Individ deganda biz odamning insonlik jinsiga mansubligini tushunamiz. Individga yangi tug‘ilgan chaqaloq ham, katta yoshdagilar ham, til va oddiy malakalarni egallay olmaydigan telbalar ham kiradi. Lekin ulardan ijtimoiy munosabatlarga qatnashuvchi, jamiyatda ijtimoiy taraqqiyotda faol ishtirok etuvchi odamgina shaxs deb ataladi.

Shaxsning uch asosiy belgisi bor:

1. Shaxsning ijtimoiyligi.
2. Ongi.
3. O‘zini anglashi.

Individ sifatida dunyoga kelgan chaqaloq ijtimoiy munosabatlar tizimiga duch keladi va ijtimoiy tajribalarni atrof-muhitdagi kishilar bilan bo‘lgan munosabatlarda egallay boshlaydi. Unda narsa va hodisalarga, atrofdagi kishilarga bo‘lgan munosabatlarda faollik paydo bo‘ladi. Ijtimoiy muhit bilan organizm orasidagi qarama-qarshiliklar jiddiylashadi va ularga moslashish, yengish jarayonida faollik kuchayadi. Faollik shaxsga xarakterli bo‘lgan xulq-atvor motivlarida, amal-usullarida keyinchalik bolani tevarak-atrofdagi voqelikni o‘zgartirishga qaratilgan turli-tuman faoliyatlarida namoyon bo‘ladi.

Odamga ta’sir qilayotgan hamma tashqi ta’sirlar ijtimoiy shart-sharoitlar tizimi yoki faoliyatning ichki sharoitlari bilan o‘zgartiriladi va shaxs shakllana boshlaydi.

Jamiyatdan tashqarida odam odam bo‘lolmaydi va kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqa ularning amaliy faoliyatidagi, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi munosabati bilan belgilanadi. Odam boshqa kishilarga munosabatda bo‘lish tufayligina ongliroq bo‘lib qoladi va uning psixik hayoti muayyan mazmunga ega bo‘ladi. Ana shu munosabatlar nechog‘li mazmundor va rang-barang bo‘lsa, odamning psixik hayoti ham shunchalik mazmundor va rang-barang bo‘ladi. Odam ongining yuksak belgisi — uning o‘zini anglashidir, odamning o‘zini anglashi ham shaxsning muhim belgisidir. Shaxsning o‘zini anglashi shundan iboratki, odam jamiyatda taraqqiy etar va ishlar ekan, tevarak-atrofdagi muhitda o‘zining individligini, subyektligini ajratadi. Odam tevarak-atrofdagi olamni biluvchi va shu dunyoga ta’sir etuvchi zot sifatida har bir odam subyektdir, odamning idrok etadigan, tasavvur qiladigan, fikr yuritadigan, tilga oladigan va ta’sir ko‘rsatadigan narsasi uning uchun obyektdir. Odamning o‘zini anglashi subyektiv ravishda o‘zini «men» deb his qilishida ifodalanadi.

Odam ijtimoiy zot bo‘lganligidan unga o‘zini anglash qobiliyati xosdir. Ammo odam jamiyatning bir a’zosi va olamning bir qismidir, shu sababli odam tevarak-atrofidagi olamdan ajratsa ham, ayni vaqtda shu olam bilan bog‘langanligini anglaydi. Odam o‘z tevarak-atrofidagi olamdan o‘zini ajralgan holda o‘zini «men» deb anglay olmaydi, chunki odam ongining, o‘zini anglashining, «men»ining mazmuni o‘sha odam atrofidagi real-voqelik in’ikosidir.

Shaxsning o‘zini anglashi shunda ifodalanadiki, odam tevarak-atrofdagi olamda o‘zini ajratish bilan bir vaqtda, o‘zining shu olamga uzviy ravishda bog‘langanligini anglaydi, o‘ziga, o‘z faoliyatiga va o‘z vazifalariga anglab-bilib munosabatda bo‘ladi.

Shaxsning o‘zini anglashi, «men» deb his qilishi hamisha muayyan mazmuni bilan yuzaga chiqadi. O‘zining borligini anglashi, odamning o‘zini kim deb bilishi – o‘quvchi, ishchi, o‘qituvchi, muhandis va shunga o‘xshash deb anglashi, o‘zining o‘tmishini va kelajagini anglashi, boshqa kishilar bilan o‘zaro munosabatini anglashi, o‘z huquq va burchlarini anglashi, o‘zining fazilat va kamchiliklarini va shunga o‘xshashlarni anglashi o‘zini anglashga kiradi. Shaxs o‘zini anglaganligidan o‘zini-o‘zi kuzata oladi va o‘zini-o‘zi bilib oladi, ko‘nglidan o‘tgan kechinmalarni tushuna oladi, o‘zining xatti-harakatlariga o‘zi tanqidiy ko‘z bilan qaray oladi. Shaxsning o‘zini anglashi va o‘zini bilishi o‘z xulq-atvorini boshqarish uchun zarur shartdir, o‘zini-o‘zi tarbiyalash uchun o‘z aqlini o‘zi o‘stirishi uchun zarur shartdir.

Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir. Individuallik shaxs xususiyatlarini boshqa bir kishida qaytarilmasligidir. Uning tarkibiga xarakter, temperament, qobiliyat, qiziqish kabilar kiradi. Ikkita bir-biriga xarakter, temperament, qobiliyat va boshqa xususiyatlari aynan o‘xshagan kishini topib bo‘lmaydi.

Inson shaxsi o‘zining individualligi bilan qaytarilmasdir. U o‘zining qadr-qiymati va xususiyatlari bilan jamiyat hayotida faol qatnashganligi hamda ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan xislatlari bilan paydo bo‘lgan aniq tirik odamdir.

Odam jamiyatda turli-tuman vazifalarni bajaradi va har turli vaziyatlarda o‘xshash sifatlarni namoyon qiladi. Shaxsning turli faoliyatlarda (o‘yin, mehnat, o‘qish, shuningdek oila va maktab, ish joyida) turlicha namoyon qilgan xislatlari bir-biriga mos keladi va u shaxsning yaxlitligini ko‘rsatadi. Bizning mamlakatimizda inson shaxsiga beriladigan tavsifnoma uning mustaqillikni mustahkamlash jarayoniga bo‘lgan munosabati va bu jarayonda qanday qatnashishi bilan belgilanadi.

Demak, shaxsning psixologik tuzilishi, psixologik xususiyatlari, aql sifatlari birikmasi odamda barqaror birlikni tashkil etadi. Bu esa shaxs psixologik tuzilishining doimiyligidir.

Shaxsning psixik tuzilishini o‘zgarishi uning yashash sharoiti, faoliyatida yuzaga keladigan o‘zgarish natijasi bo‘lib, u ijtimoiy ta’lim-tarbiya bilan bog‘liqdir.

Shaxsning tuzilishi

Har bir odamga xos bo‘lgan nisbatan barqaror va o‘zgarmas xususiyatlar shaxs xislatlarining bir butunligi va o‘zaro bog‘liqligidan iborat bo‘lgan murakkab birlikni ya’ni dinamik tuzilishni hosil qiladi.

Shaxsning tuzilishi haqida ko‘pgina nazariyalar mavjud bo‘lib, bulardan biri chet el psixologiyasida ikkita faktorni ya’ni biologik va ijtimoiy faktorlarni asos qilib olinganligidir. Unda biologik va ijtimoiy faktorlarning o‘zaro ta’siri bilan tarkib topgan inson shaxsida ikkita asosiy qismlarni ajratuvchi nazariya o‘rin egallagan. Ular inson shaxsi «endopsixik» (ichki psixik) va «ekzopsixik» (tashqi psixik) a’zolarga bo‘linadi. Ularning fikricha, «endopsixika» shaxsning ta’sirchanlik, xotira, tafakkur va xayol jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo‘r berish qobiliyatini o‘z ichiga olsa, «ekzopsixika» shaxs munosabatlarining tizimini, uning tajribalarini, qiziqishlarini, mayllarini, ideallarini, hissiyotni, bilimlarni o‘z ichiga oladi deb ko‘rsatadilar. Bu nazariyani haqiqatga mos kelmasligi shundaki, u ijtimoiy faktor bilan biologik faktorni, muhit bilan biologik tuzilishni «ekzopsixika» bilan «endopsixika»ni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo‘yadi. (A. V. Petrovskiyning «Umumiy psixologiya» kitobidan. 1992-yil). A. V. Petrovskiy shaxs tuzilishidagi tabiiy, organik tomonlar va holatlar uning ijtimoiy shart-sharoitlariga bog‘liq elementlardir deb ta’kidlaydi. Uningcha shaxs tuzilishidagi tabiiy (anatomo-fiziologik va boshqa sifatlar) va ijtimoiy faktorlar birlikni tashkil qiladi va ular mexanik ravishda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin emas deb ko‘rsatadi. A. V. Petrovskiy shaxsning tuzilishida tabiiy, biologik va ijtimoiy faktorlarning rolini tan oladi. Taniqli rus olimi S. L. Rubenshteyn shaxs tuzilishini 3 faktor bilan belgilaydi.

1. Shaxsning yo‘nalganligi – uning ehtiyojlari, qiziqishlari, ideal, e’tiqod, motivlar, dunyoqarashida namoyon bo‘ladigan xususiyatlar.

2. Bilim, ko‘nikma va malaka – bilish, o‘qish faoliyati natijasida, hayot jarayonida orttirgan xususiyatlari.

3. Individual, tipologik xususiyatlar – temperament, xarakter va qobiliyatida namoyon bo‘ladigan xususiyatlar.

Shaxsning tuzilishi haqidagi fikrlardan shu narsa ma’lumki, uni tuzilishi biologik va ijtimoiy, tabiiy faktorlar bilan belgilanadi. Uning shaxs sifatida namoyon bo‘lishi hayot jarayonida ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta’lim-tarbiya va shaxsning faoliyatidagi faolligi bilan bog‘liqdir.

Psixik jarayonlar, holatlar va xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligi, alo-

qadorligi esa odamdagi barcha sifatlarning bir butunligini ta'min etadi va shaxsning psixologik tuzilishini tashkil qiladi.

Shaxsning biron maqsadni ko'zlashi va dunyoqarashi

Shaxsning belgisi va o'zini anglashining mazmuni – uning biron maqsadni ko'zlashi, shunga intilishidan iborat.

Shaxsning muhim xossasi shuki, u biron maqsadni ko'zlaydi, shu maqsadga intiladi. Shaxs hamisha biron narsaga, biron maqsadga, biron obyektga ko'z tikadi, unga intiladi, voqelikning real sohalari ana shunday obyekt bo'ladi, ammo haqiqatda yo'q bo'lgan, xomxayoldan kelib chiqqan narsalar ham shunday obyekt bo'lmog'i mumkin.

Shaxs o'z hayotida muayyan bir ideal uchun, kishi istiqbolning o'z umrida amalga oshirish lozim deb hisoblaydigan va amalga oshiradigan barkamol obrazi uchun intiladi va shuni o'ziga oliy maqsad qilib oladi. Odam shu maqsadni deb yashaydi va hayotining ma'nosi shunda deb biladi. Odamning intilishlari, hayot maqsadi muayyan va barqaror maqsad bo'lishi uchun shu yuksak ideal ham xomxayol mahsuli bo'lmasdan, balki haqiqatan ham hayotiy, barqaror va doimiy ideal bo'lishi kerak. Yuksak ideal yoki oliy maqsad kishining dunyoqarashidan kelib chiqqandagina barqaror va ideal bo'la oladi.

Dunyoqarashning bo'lishi ham shaxsning muhim belgisidir. Dunyoqarash odamning tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi qarashlari, tasavvurlari va tushunchalari sistemasidir.

Sinfiy jamiyatda yagona dunyoqarash yo'q va bo'lishi mumkin emas. Dunyoqarash tashqi olam va inson tafakkurining jarayonlari haqida muntazam qarashlar sistemasini beradi. Bu dunyoqarash fanning yutuqlariga va insoniyatning ko'p asrlik tajribasiga asoslanadi. Odamning ko'zlagan maqsadi, xatti-harakati dunyoqarashga mos bo'lib, shaxsning ehtiyojiga aylanganda bu dunyoqarash maslak bo'lib qoladi.

Ideallar (oliy maqsadlar) va dunyoqarashning mavjudligi ham odamning o'z ongiga qo'shiladi. Odam o'z ideallarini anglab, o'z dunyoqarashi va maslaklarini bilib olib, hayotda va jamiyatda tutgan o'rnini aniqlaydi, nimani deb yashayotganligini va ishlayotganligini; o'zini, o'z faoliyatini qay yo'ldan kamolga yetkaza borishi kerakligini, jamiyatda qanday kishi bo'lib yetishuvi zarurligini aniqlab oladi.

Odamning ehtiyojlari va qiziqishlari

Shaxsning muhim belgisi faqat odamga xos maxsus ehtiyojlarning borligidir.

Ehtiyojlar odamning kun ko'rishi va yashashi uchun zarur narsalardir.

Odam yashamoq, kun kechirmoq uchun o'z ehtiyojlarini qondirishi

kerak. Ehtiyojlar hayvonlarda ham bor. Ammo hayvonlarda faqat biologik, tug‘ma ehtiyojlar bo‘ladi – ovqatlanish, saqlanish, nasl qoldirish ehtiyojlari bor, xolos. Odamda esa biologik ehtiyojlardan tashqari, yana yuksak ehtiyojlar – bilish ehtiyojlari, ijtimoiy ehtiyojlar, ma’naviy, estetik va boshqa shu kabi ehtiyojlar bor. Bu ehtiyojlar tug‘ma ehtiyojlar emas – ular tarixan taraqqiy etgan. Ijtimoiy zot bo‘lgan odamning biologik ehtiyojlari ham tarixiy taraqqiyot jarayonida sifat jihatdan o‘zgargan.

Kishilarning ehtiyojlari ijtimoiy tuzum shakllarining taraqqiysiga qarab o‘zgaradi. Har bir ayrim odamning ehtiyojlari ijtimoiy muhit, tarbiya va tajribasiga qarab taraqqiy etadi. Ehtiyojni qondirish jarayoni hayotning muhim bir tomonini tashkil etadi. Odam yuksak darajadagi ma’naviy ehtiyojlari borligi bilangina emas, balki o‘zining ehtiyojlari (shu jumladan, biologik ehtiyojlarni ham) anglashi bilan ham hayvonlardan farq qiladi. Ehtiyojlar odamni g‘ayratga kirgizadi, uning faoliyatini hamma turlariga dalda beradi.

Yuqorida aytilganidek, hayvonlar o‘zining ehtiyojlarini tug‘ma instinktiv harakatlar yordami bilan va instinktlar asosida vujudga kelgan ko‘nikmalar yordami bilan qoniqtiradi. Odam shaxs bo‘lganidan o‘z ehtiyojlarini ongli, oqilona harakatlar yordami bilan qondiradi. Shu bilan birga, odam faqat insonga xos bo‘lgan madaniy ijtimoiy ehtiyojlarnigina emas, balki tabiiy, biologik ehtiyojlarini ham oqilona qondiradi. Shu bilan birga, odamning harakati hayvonlar harakatidan tafovut qilib, ijodiy xarakterda bo‘ladi. Hayvonlar tevarak-atrofdagi muhitga faqat moslashadi, undan tayyorini oladi. Odam muhitga moslashish bilangina cheklanib qolmaydi, balki shu muhitni **qayta ko‘radi, o‘zgartiradi,** o‘ziga moslashtiradi. Shaxsning oqilona iroda bilan bo‘ladigan faoliyati ijodiy mehnatda sodir bo‘ladi. Odam yangilik yaratadi, ijod qiladi, shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqelikka qo‘shadi, voqelikni o‘zgartiradi va to‘ldiradi.

Kishilarning ijtimoiy mehnat faoliyati tufayli yer sharining butun qiyofasi o‘zgardi – yangi geografik muhit vujudga keldi, deyish mumkin.

Shaxs aktivligining manbalari turli-tuman ehtiyojlardadir. Ehtiyojlarda shaxsning yashash sharoitlariga bog‘liqligi motivlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Motiv deb ma’lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatga moyillikka aytiladi. Agar ehtiyojlar inson faolligining asosini tashkil qilsa, u vaqtda motivlar bu mohiyatning aniq namoyon bo‘lishidan iboratdir.

Ehtiyoj motivlarda namoyon bo‘ladi va ular keng va tor shakllarda bo‘lib faoliyatning aynan o‘zida amalga oshiriladi. Faoliyat qancha murakkab bo‘lsa motivlar ham shuncha ko‘plikni tashkil qiladi va biz faoliyatni (o‘qish, mehnat, o‘yin) bajarish jarayonida bu motivlarning hammasiga javob beramiz va ko‘zlagan maqsadga erishamiz.

Inson faoliyatining motivlari qoidalar, qonuniyatlar, faktlar bilan belgilanadi, ya'ni biz faoliyat motivini turlicha asoslab boramiz. Bunga faoliyat motivatsiyasi yoki faoliyat motivlarini asoslanishi deb ataladi. Har qanday faoliyatning motivlari asoslab berilganda u insoniyat faoliyati uchun mazmunli, foydali va ahamiyatli bo'ladi.

Faoliyat jarayonida amal qiladigan motivlar anglangan va anglanmagan bo'lishi mumkin. Anglangan motivlarga qiziqishlar, e'tiqod, dunyoqarash, tilaklar kiradi. Anglanmagan motivlarga ustanovkalar (faoliyatni bajarishga tayyorgarlik holati) kiradi.

Qiziqishlar deb, shaxsning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarning hissiy namoyon bo'lishiga aytiladi. Qiziqishlar, faoliyat jarayonida muhim rol o'ynaydi. Chunki u faoliyat obyektining mazmuniga bo'lgan moyillik kuchini ifodalaydi. Bu moyillik kuchi shaxsning bilish ehtiyojiga javob beradi va shaxsda yuzaga keladigan «bilish va tushunishga bo'lgan tashnalik»ni qondirishning yo'l va usullarini faol qondirishga majbur etadi.

Qiziqishlarning mazmuniga, maqsadiga, kengligi va mustahkamligiga qarab turlarga ajratiladi. Qiziqishlarning mazmuni jihatidan farqlari bilish ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan obyektlarni va ularning mazkur faoliyat maqsadi uchun real ahamiyatini aniqlaydi. Qiziqishlarning ijtimoiy qiymatga va ijtimoiy mazmunga egaligi uning mazmunini qandayligini ko'rsatib beradi. Qiziqishlar maqsadiga ko'ra bevosita va vositali qiziqishlarga ajratiladi. Bevosita qiziqishlar obyektning emotsional jozibadorligi tufayli yuzaga keladi. Vositali qiziqishlar obyektning real ma'nosi va uning shaxs uchun ahamiyati mos kelganda paydo bo'ladi. Bu qiziqishning paydo bo'lishi faoliyatning maqsadini anglash bilan bog'liq bo'lgan bilish ehtiyojidir.

Qiziqishlar kengligiga ko'ra keng va tor qiziqishlarga bo'linadi. Keng qiziqish bir sohaga yoki faoliyatga emas, balki ko'plab sohalarga faoliyatlarga qiziqishdir. Ba'zi odamlarda qiziqishlar bir sohaga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bu tor qiziqishdir.

Qiziqishlarning kengligi mehnatga sarflangan quvvatni tiklash uchun faoliyat turlarini almashlab turishning eng yaxshi vositalaridan hisoblanadi.

Qiziqishlar barqarorligi darajasiga qarab barqaror va beqaror bo'lishi mumkin. Barqaror qiziqishlar uzoq muddat davomida, hatto kishining umrini oxiriga qadar amal qiladigan qiziqishlardir. Shuningdek, shaxsning asosiy ehtiyojlarini to'la namoyon qiluvchi va shuning natijasida shaxs psixologik qiyofasining muhim xislatiga aylangan qiziqishlar barqaror hisoblanadi.

Xatti-harakatning muhim motivi e'tiqoddir. E'tiqod shaxsning o'z qarashlari, tamoyillari, dunyoqarashlariga mos ravishda harakat qilish-

ga undovchi anglanilgan ehtiyojlar tizimidir. E'tiqod shaklida namoyon bo'lgan ehtiyojlarning mazmunini odamni o'rab olgan tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar va ularni ma'lum darajada tushunish tashkil etadi. Odamning bilimlari, o'zlashtirib olingandan keyin va tartibga solingandan keyin u dunyoqarashga aylanadi.

Dunyoqarash – shaxsning voqelik va unga bo'lgan munosabatini ifodalovchi tasavvur, tushuncha hamda qarashlari tizimi, kishining falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik ideal va e'tiqodlarining yig'indisidir. Dunyoqarash inson faoliyati va xulqining umumiy yo'nalishini belgilab beruvchi tizimdir.

Yuqorida bayon etilganlarning hammasi anglangan faoliyat motivlaridir.

Inson xulq-atvori va xatti-harakatlarining motivlari orasida anglab yetilmagan mayllar ham muhim ahamiyatga egadir. Psixologiya shaxsdagi ana shunday mayllarning namoyon bo'lishini XX asrning 30-yillaridan boshlab o'rgana boshladi.

Faoliyatga nisbatan anglanilmagan mayllar orasida eng ko'p o'rganilgani ko'rsatma berish masalasidir. Bu mayllar gruzin psixologi D. N. Uznadze va uning xodimlari tomonidan ishlab chiqildi.

Ko'rsatma berish – bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojni ma'lum usulda qondirishga tayyor turishdir. Ko'rsatma berish shaxsning o'zi anglab yetmagan holatidir. Bunday holatda shaxs biror ehtiyojni qondirishi mumkin bo'lgan ma'lum faolitga tayyor turgan bo'ladi.

II BOB. GURUH VA JAMOALAR.

Guruh va jamoa haqida tushuncha

Inson tug‘ilib ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan u oilasida, bog‘cha va maktabda, zavod va fabrikalarda turli kishilar orasida yashaydi. Bu kishilar turli guruh, jamoalar bo‘lishi mumkin. XX asrga qadar psixologiyada guruh va jamoaga kam e’tibor berilgan. Keyinchalik ijtimoiy psixologiya fanini rivojlanishi guruh va jamoa masalasiga katta e’tibor berdi va keyinchalik guruh va jamoalar, ularda shaxslararo munosabatlar keng ravishda o‘rganila boshlandi.

Guruh – bir necha kishilar uyushmasidir. Ijtimoiy psixologiyada ikki tipdagi guruhlar farqlanadi:

1. Shartli guruhlar.
2. Real guruhlar.

Shartli guruhlar odamlarni yoshi, jinsi, millati kabi boshqa belgilari bilan birlashgan kishilar guruhidir. Ma’lum belgilariga asoslanib birlashtirilgan guruhlardir. M: Psixologlar guruhi, geologlar guruhi va b. q. Bu guruhga kirgan kishilar bir-birlarini ko‘rmasliklari, munosabatda bo‘lmasliklari, bir-birlari bilan hech qachon uchrashmasliklari mumkin, ammo ular o‘zlarining real guruhlariga qarashli boshqa a’zolari bilan ozmi-ko‘pmi bir xil munosabatda bo‘ladilar.

Real guruhlar – bu umumiy makon va zamonda yashab turib, real munosabatlar asosida birlashgan kishilar guruhidir. M: Kamolot yoshlar, pedagogik jamoa guruhi va b. q.

Real guruhlar: 1) maxsus tashkil qilingan va
2) maxsus tashkil qilinmagan guruhlarga ajratiladi.

Maxsus tashkil qilinmagan guruhlar turli yoshdagi, mansabdagi, kasbdagi odamlarning mutlaqo tashkil qilinmagan, lekin tasodifan birlashib qolgan kishilar guruhidir (masalan: avtobusdagi tasodifan yig‘ilib qolgan kishilar guruhi). Kishilarning tasodifan yig‘ilishi, agar u yetarli darajada uzoq vaqtni talab qilsa u ichki tuzilishga ega bo‘lishga intiladi. Ular o‘z ichidan guruh liderlarini, maslahatchilarini belgilashga harakat qiladilar. Guruhning ichki tuzilishi shu yo‘l bilan yuzaga keladi. U guruh ichida oldindan kelishib olingan mayllar bilan mustahkamlanadi. Guruhlarning tashqi tuzilishi tashqaridan tashkil qilinadi. M: harbiylar guruhi. Tashqi rasmiy va ichki norasmiy guruhlarning tuzilishlari bir-biriga mos keladi. Maxsus tashkil etilgan guruhlar shaxslar tomonidan maxsus tashkil etiladi. Ularning o‘z maqsad va vazifalari, qarashlari, intilishlari bo‘lib ular birgalikda harakat qiladilar.

Maxsus tashkil qilingan guruhlarning eng yuksak shakli jamoadir. Jamoa – umumiy faoliyat maqsadlari asosida birlashgan, jamiyatning bir qismi hisoblangan va shu jamiyat maqsadlariga bo‘ysunadigan odamlar guruhidir.

Jamoaning asosiy belgisi – bu uning jamiyat uchun o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarining qiymati va ahamiyati bilan belgilanadi. Agar bunday belgisi bo‘lmasa, u holda bunday umumiylik jamoa bo‘la olmaydi va guruhlarga aylanib qoladi.

Jamoa faoliyatining maqsadlari shu jamoaning o‘z ichida cheklanib qolmay, balki jamoa guruhi doirasidan tashqariga chiqishi kerak. Jamoaning maqsadlari jamiyatning qo‘ygan talablaridan kelib chiqishi maqsadga muvofiq. Chunki jamiyat qo‘ygan talablar o‘zaro javobgarlikni ham talab qiladi. Shuning uchun kichik jamoalar katta jamoalarga bo‘ysunadi.

Jamoada shaxslararo munosabatlar

Insonlarning o‘zaro munosabatlari guruhlarda paydo bo‘ladi. Ijtimoiy psixologiyada faoliyatlarda maqsad va qiziqishlari bir bo‘lgan kontakt guruh, bir-biriga jips bog‘langan kichik guruhlar, qoida normalarning bog‘liqligi bir bo‘lgan referent (oila, mahalla) guruhlar o‘rganiladi. Kontakt guruhlarga qarab assotsiativ va korporatsiyaga bo‘linadi. Assotsiativ guruhlarga harbiylar guruhi kirsa, korporatsiyaga ichki maqsad asosida tashkil qilingan, mohiyati xudbinlikdan iborat bo‘lgan uyushma kiradi. Banditlar shaykasi, biznesmenlar guruhi jamoa emas, balki korporatsiyalarning misolidir. Korporatsiyaning mohiyati o‘ziga yaqin turuvchi boshqa korporatsiyalarga dushmanlikdan iboratdir.

Guruh, jamoa va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganishi lozim bo‘lgan eng muhim muammolardan biridir. Bu yerda ikki aspektni: guruh, jamoaning shaxsga ta’sirini; shaxsning guruhga, jamoaga ta’sirini ta’kidlab o‘tish mumkin. Bu aspektlarning birinchisi bir necha yo‘nalishda amalga oshiriladi. Birinchidan, guruh, jamoa tashkilotchilik vazifasini amalga oshiradi. Guruh shaxs faoliyatini o‘ziga bo‘ysundiradi, hamda uni jamoa maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun safarbar qiladi. Ikkinchidan, jamoa, guruh tarbiyaviy vazifani bajaradi, guruhning ta’siri ostida odamning xulqi o‘zgara boradi, uning ichki qiyofasidagi muhim belgilarda o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, odamlar bilan muomala qilishning yangi shakllari paydo bo‘ladi.

Shaxsning jamoaga ta’siri ham avvalo rahbarlik vazifalarining bajarilishida ro‘yobga chiqadi. Shaxs guruhga, jamoaga rahbarlik qilishi va uning faoliyatini yo‘lga solib turishi mumkin. Bunda shaxsning guruhga, jamoaga ta’siri rahbarlik uslubiga bog‘liq bo‘ladi. Guruh va jamoalarda shaxs faoliyati uchun ahamiyatli bo‘lgan shaxslararo munosabatlar paydo bo‘ladi. Shaxs va uning taraqqiyoti mazmuni jamoaga bog‘liqdir. Chunki inson shaxs sifatida tug‘ilmaydi, o‘zaro munosabatlar jarayonida shaxsga aylanadi. Shaxs ongga ega bo‘lgan zotdir. U avvalo referent (oila, o‘ziga yaqin kishilar) guruhida tarbiyalanadi, u yerda dastlabki tarbiyani

oladi. Keyinchalik yasli, bog‘cha, maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida shaxs sifatida shakllanadi. Inson xulqi uning xatti-harakati ijtimoiy muhitga bog‘liqdir. Tashqi taassurotlar, tevarak olam bilan munosabatlar odamlar orasida vujudga keladigan obyektiv munosabatlarda paydo bo‘ladi. Ijtimoiy hayot davomida odamlar o‘rtasida obyektiv tarzda yuzaga keladigan real aloqa va munosabatlar odamlarning subyektiv munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish vazifasi har bir jamoa bilan, shu jumladan maktabdagi sinf jamoasi bilan ishlash vaqtida paydo bo‘ladi va bolaning intellektual taraqqiyotiga ta’sir qiladi. Shaxslararo munosabat jarayonida odamning ijtimoiy qiyofasi o‘zgaradi. Shuningdek, psixologik xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Bunda muloqotga kirishayotgan kishilarning har biri uchun xos bo‘lgan anatomik-fiziologik, psixik va ijtimoiy xususiyatlar hamda boshqa o‘ziga xos sifatlar idrok qilinadi. Odamni odam tomonidan idrok qilinishida ularning har biridagi shaxsiy tajribadan foydalaniladi. Ammo odamni idrok qilishda shaxsiy tajriba har doim ham kifoya qilavermaydi, odam haqida yetarli axborot olinavermaydi.

Odamlar bir-birlarini o‘zaro idrok qilishlari asosida ular o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar deb ataladigan aloqalar tarkib topadi.

Shaxslararo munosabatlarda eng muhimi shaxsning asosiy sifatlari shakllanadi. Shaxsning asosiy sifatlari jumlasiga: 1. G‘oyaviy yo‘nalish va maqsadga intilish kiradi. Bu sifat yoshlarni mustaqil jamiyatimizni mustahkamlash ishida faol ishtirok etishda ifodalanadi.

2. Vatanparvarlik. Bu sifatlar irqiy va milliy xurofotlardan yot bo‘lib, bir xalqni ikkincha halqqa qдrama-qarshi qo‘ymaydi, balki xalqlarni yagona ahil oilaga birlashtiradi. Vatanparvarlik vatanimiz madaniyat, iqtisod sohasida erishgan ulkan yutuqlari uchun faxrlanishda, Vatanni dushmanlardan himoya qilishga tayyor turishda, buning uchun kuchi va jonini ham ayamaslikda ko‘rinadi.

3. Mehnatga ongli va ijobiy munosabat. Bu fazilat mehnatga faqat o‘zining shaxsiy ishi sifatida qaramasdan, balki uni o‘zining davlat oldidagi burchi deb bilishda ifodalanadi.

4. Jamoatchilik va gumanizm hislari. Bu sifatlar har bir kishining o‘zi ishlaydigan, o‘qiydigan jamoa va butun xalqi bilan uzviy bog‘liqligidan, o‘zining shaxsiy manfaatlarini emas, balki umummanfaatini tushunishdan, boshqa odamlar bilan do‘stlashishdan, ular haqida g‘amxo‘rlik qilishdan iborat.

Shaxslararo munosabatlar jarayonida xalqimiz ma’naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy kamolotni o‘zida mujassamlashtiradi.

Guruhlarning tabaqalanishi

Guruhlarning tabaqalanishi avvalo shaxslararo munosabatlarda paydo bo‘ladi. Odamning shaxs sifatida tevarak-atrofdagi kishilar va olam bi-

lan bo‘lgan o‘zaro munosabatlari ularning ijtimoiy hayotlarida odamlar o‘rtasida yuzaga keladigan obyektiv munosabatlarda paydo bo‘ladi. Ijtimoiy hayot davomida odamlar o‘rtasida obyektiv tarzda yuzaga keladigan real aloqa va munosabatlar odamlarning subyektiv munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Guruhlar o‘rtasida obyektiv munosabatlarning aks ettirilishi shaxslar o‘rtasidagi subyektiv munosabatlardan iborat bo‘ladi. Bular ijtimoiy psixologiyaning eng muhim o‘rganish obyektlaridandir.

Ijtimoiy psixologiya shaxslararo munosabatlarning shunday tomonini o‘rganadiki, bir odamning ikkinchi odamda izzat-hurmat uyg‘otishi ularni bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi shaxsning ijtimoiy roli singarilar shular jumlasidandir. Odamning izzat-hurmat uyg‘otishi sotsiometrik usul (ya’ni, sherik tanlash usuli) yordamida belgilanadi.

Sotsiometrik usul kichik guruhlarga taalluqli bo‘lib shaxslararo munosabatlarni o‘rganish va o‘lchashning tekstlari usuli sifatida dastavval amerikalik mikrosotsiolog Djon Moreno tomonidan ishlab chiqilgan. Djon Moreno odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar asosini qandaydir «Ilohiylashtirish» tashkil etadi deb ko‘rsatdi. Uning tushunchasiga ko‘ra bunday xususiyat go‘yo hamma odamlarga xos bo‘lib, boshqa odamlarni yaxshi yoki yomon ko‘rish tuyg‘usi namoyon bo‘lar emish. Sotsiometriyani bunday ma’noda talqin qilinishini hozirgi zamon rus psixologlari asossiz deb ko‘rsatdilar. Ular guruhiy differensiya qilish (farqlash) usulini (sotsiometrek usuli) takomillashtirdilar. Bu usul yordamida sherik tanlash ish yoki shaxsiy hurmat asosida bo‘lishi mumkin. Ish asosida sherik tanlash hamkorlikda qilinadigan ishlar uchun, qo‘yilgan vazifalarni birgalikda bajarish uchun amalga oshirilsa, shaxsiy hurmat asosida sherik



Sotsiogramma yoki guruhiy differensiatsiyalash kartasi

tanlash motivlari shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lib, bunday aloqalarni shaxsning jamiyatga tanilganligi yoki tanilmaganligi yetarli darajada aniq belgilanadi. Individual farqlar shunga olib keladiki, bunda bir xil odamlar boshqa bir xil kishilarning ta’siri ostida o‘z xulq-atvorini o‘zgartiradilar.

Sotsiometrik usuldan foydalanilganda o‘rganish mavzusining mazmuniga mos savollar tuziladi. M: sinfdagi o‘quvchilarni o‘zaro munosabatlarini o‘rganish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin.

1. Sen bir partada kim bilan o‘tirishni xohlaysan?
2. Kim bilan kinoga borishni xohlaysan?
3. Kim bilan dars tayyorlashni xohlaysan?
4. Kim bilan sayr qilging keladi?
5. Tug‘ilgan kuningga sindoshlaringdan kimni taklif qilmoqchisan?
6. Bayramda sinfdoshlaringdan kimga sovg‘a qilar eding va h.k.

Bu savollarga javob yozishda hammadan ko‘ra

1- dan ... ...

2- dan ... ...

3- ... ... - deb ko‘rsatilishi lozim. Birinchidan, Aqida bilan. U bo‘lmasa-chi?

2-dan Umida bilan. U ham bo‘lmasa-chi? 3 ... Hakima bilan deb aniq nomlar ko‘rsatiladi. Savollarga javoblar natijasi matematik yo‘l bilan hisoblanadi. Hamma o‘quvchilarning olgan javobi umumlashtiriladi va guruhda kim ko‘p ovoz olgan bo‘lsa u guruhning sardori yoki g‘olibi bo‘lishi mumkin. Sotsiometrik ma’lumotlar grafik va ko‘rgazmali metodlar bilan ishlab chiqilishi mumkin. Har bir o‘quvchining holatini aniqroq tasavvur qilish maqsadida guruh differensiyasi deb ataladigan karta tuziladi. U bir-biri ichiga joylashtirilgan to‘rtta oynadan iborat bo‘lib, har bir aylana o‘tkazilgan tekshirishning natijasiga ko‘ra o‘quvchilarning holatini aniqlab beradi.

Birinchi aylanaga oltita va undan ko‘p marta tanlanganlar joylashtiriladi, ikkinchi aylanaga 3-5 marta, uchunchi aylanaga 1-2 marta va to‘rtinchi aylanaga biror marta ham tanlanmagan o‘quvchilar joylashtiriladi. Shunday qilib, birinchi va ikkinchi aylanaga joylashgan o‘quvchilar sinfda yuqori mavqeni egallaydilar, uchinchi va to‘rtinchi aylanaga joylashganlar esa bundayroq mavqega ega bo‘ladilar.

Guruh differensiyasi kartasida o‘g‘il bolalar uchburchak bilan, qizlar esa doirachalar bilan belgilanadi. Guruh faol a’zolarini ko‘rsatuvchi uchburchak va doirachalar rangli qalam bilan bo‘yab qo‘yiladi. Natijada har bir bolaning o‘zaro munosabati to‘g‘risida, qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi munosabat haqida ravshan tushuncha beradigan rasm yuzaga keladi va bu orqali sinfdagi o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari aniqlanadi.

Guruh boshlig‘i

Har bir guruhda, u qanday guruh bo‘lishidan qat’i nazar ularning ish boshlovchilari, boshliqlari, rahbarlari bo‘ladi va ular hamma vaqt ham teng huquqlikka asoslangan bo‘lmaydi. Chunki shaxslararo munosabatlarning bab-baravarligi asosida, rahbarlik bilan tobelik elementlarisiz qurilmaydi. Ana shu rahbar, yo‘lboshchi saylangan bo‘lishi, tayinlangan bo‘lishi va tayinlanmagan bo‘lishi mumkin. Rasmiy ravishda boshliq qilib saylangan, tayinlangan guruh «mustahkam» hisoblanadi. Lekin ko‘p hollarda boshliqni tayinlash hollari yuz bermaydi, ana shunday hollarda jamoa bir necha norasmiy guruhlarga bo‘linib ketadi. Shunda guruhga ular ichidan faol kishilar rahbarlik, liderlik qila boshlaydi. Guruhlarda rahbarlik yaxshi tashkil qilingan bo‘lsa, talabchanlik bilan samimiyat, hurmat bilan izzat birgalikda amal qilsa unda guruhlar jipslashadi, maqsad qilib olingan ish muvaffaqiyatli bajariladi va hamma a’zolarning fikri bir joydan chiqadi, kelishib ishlash uchun imkoniyat paydo bo‘ladi.

Agar rahbarlik bo‘shashib ketsa tobelar orasida tabaqalanish paydo bo‘ladi. Shuningdek sinf yoki maktabda talabchanlik bo‘sh bo‘lsa o‘qituvchi va o‘quvchilar ham 3–5 ta bo‘lib olib guruhlarga bo‘linadilar. O‘quvchilarning yaxshi bahoga o‘qiydiganlari bir guruh, sust o‘zlashtiruvchilari bir guruh, oilasi yaxshi ta’minlanganlar bir guruh, bir guruh yaxshi ta’minlanmaganlari, yana bir guruh shaharli va qishloqdan kelganlar, yana alohida-alohida guruhlarga ajralib ketishlari mumkin. Agar guruhlar faoliyatining maqsadlari shu guruhlarga bo‘ysungan bo‘lsa unda guruhning ishi maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin. Agar pedagog guruhlarning faoliyati motivlarini payqay olmasa unda ba’zi guruhlar orasida o‘zaro nizolar chiqishi mumkin. Bu nizolar, ziddiyatlarning oldini olib guruhlar ishini umumjamiyat maqsadiga bo‘ysundirish lozim.

III BOB. FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI.

Faoliyat haqida umumiy tushuncha

Inson o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun faollik ko‘rsatadi. Ammo odamning o‘z ehtiyojlarini hayvonlarniki singari hamisha bevosita xarakterda bo‘lmaydi. Hayvonlar bevosita organik ehtiyojlari ta’siridagina harakat qiladi. Odamda esa tabiiy ehtiyoj bo‘lmish ovqatlanish ham insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy tajriba ta’sirida qondiriladi. Masalan, bola stulga o‘tirishi bilan qoshiqni oladi-yu ovqatlanish ehtiyojini qondira boshlaydi. Ovqatni qoshiqsiz ham yeyish mumkinku, lekin uni qoshiq bilan yeyishga onasi o‘rgatadi. Tarbiya bola faoliyati shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Bola ehtiyojlarini qondirishda faollik ko‘rsata boshlaydi.

Odamning u yoki bu ehtiyojlarini qondirgan faol xatti-harakatlar faoliyat deb ataladi. Hayvonlar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarni faoliyat deb bo‘lmaydi. Inson faoliyatining hayvonlar xatti-harakatidan farqi shundaki, hayvonlar tabiatga moslashadi, inson esa o‘z ehtiyojini qondirish uchun o‘z faoliyati jarayonida tevarak-atrof borliqni faol ravishda o‘zgartiradi.

Odamning ijtimoiy va ongli xarakterga ega bo‘lgan faoliyati natijasida biron-bir muayyan mahsulot yaratiladi. U nimaki qilmasin, bu ishning ko‘p qismini o‘zi uchun emas, balki jamiyat uchun qiladi, kishilarning ehtiyojlarini qondiradi. Bu esa inson ongining qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Ong va faoliyatning birligi deb ataladigan psixologiyaning tamoyiliga binoan ong faoliyat davomida vujudga keladi, shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Faoliyat xarakteri, uning u yoki bu xususiyatlari odam tomonidan atrof-muhitni aks ettirish jarayoniga va uning natijalariga, shuningdek, odam ongida qanday psixik hodisalar qay tariqa paydo bo‘lishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Psixikani aks ettirish jarayoni sifatida tushunish uning ikkilamchi xarakterini, ya’ni u obyektiv voqelikning obraz ekanligini ham ta’kidlaydi. Psixikaning faoliyat sifatida tushunilish esa aks ettirishning faol xarakterini ta’kidlaydi. Bunday aks ettirish jarayonida kishi ongida tevarak-atrofdagi olamning ideal modeli shakllanadi.

Ong va faoliyat birligi tamoyili – faoliyatning ijtimoiy tabiatini ochib berishda o‘z ifodasini topadi. Faoliyatning ijtimoiy ekanligi eng avvalo uning izchilligida ko‘rinadi. O‘tib borayotgan avlod o‘zidan keyin kelayotgan avlodga mehnat qurollari, mehnat vositalarini topshiradi, ulardan foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi. Bu usullar yangi avlodga tabiat va jamiyat bilan munosabatlarning insoniyat erishgan darajasiga tayangan holda ish olib borish imkonini beradi. Ijtimoiy faoliyat, shuningdek, ishlab chiqarishda boshqa odamlar bilan hamkorlikda mehnat qilishda o‘z ifodasini topadi.

Insonning ehtiyojlari, uning xatti-harakatlarini qondiradigan insoniy shart-sharoitlar narsalarning biologik ahamiyati bilan emas, balki ijtimoiy ahamiyati bilan belgilanadi.

Ehtiyoj shaxs faolligining manbayidir. Inson o‘z ehtiyoji orqali ma’lum tarzda va ma’lum yo‘nalishda harakat qilishga urinadi. Ehtiyoj shaxs aktivligining manbayi sifatida namoyon bo‘ladigan va uning aniq yashash sharoitiga bog‘liq ravishda ifodalanuvchi holatdir. Odam ehtiyojlari uning shaxs sifatida tarixiy tarkib topgan usullarini egallash jarayonida paydo bo‘lgan.

Ehtiyoj – organizmning hayotini ta’minlovchi zarur sharoitlarni aks ettirishdan iborat faoliyat motivi, qondirilmagan muhtojlikni sezish, kishilarning hayotiy zarur narsalarga muhtojligi.

Shuning uchun ham ehtiyojlarni qondirish jarayoni ma’lum ijtimoiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan faoliyat shakllarini faol, maqsadga muvofiq o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Odam o‘z oldiga maqsad qo‘yadi, agar maqsad bo‘lmasa faoliyat ham bo‘lmaydi. Ehtiyoj bilan birga odamda faoliyatning motivlari, ya’ni muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan ichki turtki kuchlar paydo bo‘ladi. Bu kuchlar odamni faoliyatga undovchi sababdir, maqsad esa odamning nimagadir intilishi, muayyan ishni bajarishidir. Maqsad hamma vaqt ham motiv bilan mos kelavermaydi. Ammo odamning maqsadi faoliyatning motivga aylangan taqdirdagina muhim omil bo‘la oladi. Bunda odamda o‘z oldiga qo‘ygan vazifani mumkin qadar yaxshiroq bajarishga intilish paydo bo‘ladi. Bu esa uning ehtiyoji bo‘lib qoladi.

Faoliyat motivlari eng yaqin yoki qisqa muddatli va uzoqni ko‘zlovchi motivlar bo‘ladi. Yaqinni ko‘zlagan (qisqa muddatli) motivlar bilan ish ko‘rsa, uning faoliyati istiqbolga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu esa odamning qiziqishlari cheklanganligidan, o‘ziga ishonmaslikdan, beqarorlikdan dalolat beradi.

Olisni ko‘zlab ish ko‘ruvchi (olisni ko‘zlangan) motivlar faoliyat qanchalik murakkab, qiyin bo‘lmasin oldilariga qo‘ygan maqsadni amalga oshirishga harakat qiladilar, qiyinchiliklarni yengib maqsadga erishishiga intiladilar.

Demak, faoliyat maqsadlariga erishish uning motivlari mazmuniga bog‘liqdir.

2. Faoliyatning tuzilishi. Faoliyat shaxs hayotida juda muhim rol o‘ynar ekan, u qanday tuzilgan. Faoliyat birinchidan amallar (ish) va ikkinchidan, ish harakatlaridan tuzilgan. Amallar – tashqi olamdagi narsalarning holatlarini yoki xossalarini o‘zgartirishga qaratilgan harakatlardir. Narsalar bilan qilinadigan istagan bir ish makon va zamon bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lum harakatlardan tashkil topadi. Agar biz stulni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib qo‘ysak bu amal (ish)dir. Bundan

tashqari amal jarayonida bizning tanamizni vaziyatini saqlab turuvchi (turish, bukilish, o‘tirish), kommunikatsiyalarni ta’minlaydigan harakatlar (mimika, pantamimika, imo-ishora) ham ishtirok etadi. Bu harakatlar faoliyatga yordam beruvchi harakatlardir ya’ni ish-harakatlardir. Harakatlarning bajarilishini, uning natijalarini ongli ravishda maqsad bilan taqqoslash, nazorat qilish talab etiladi.

Faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi

Inson miyasi hayvonlarnikidan farqli o‘laroq u voqelikni aks ettiradi va u yana kelajakni ko‘ra oladi. Bu esa oldindan voqelikni ko‘ra bilish uchun zarur bo‘lgan imkoniyat tashqi olamning xususiyati tufayli, qonuniyatlari tufayli yuzaga keladi. Chunki tashqi dunyodagi turli hodisalar bir-biri bilan bog‘liq, ular muayyan sharoitda mustahkam xususiyat va tuzilishga egadir. (M: qum suvda erimaydi, sovuqda suv muzlaydi, soyani chopib bo‘lmaydi) narsalar bilan hodisalar o‘rtasidagi bunday barqaror munosabatlarni narsalarning, ya’ni obyektlarning qonuniyatlari deb ataladi. Narsalarning barqaror xususiyat va qonuniyatlari ma’lum bir ta’sir tufayli qanday o‘zgarishi va shu maqsad tufayli ish ko‘rish narsa va hodisalarning «xatti-harakat»larini oldindan ko‘ra bilish imkonini yaratadi. Bunda narsalar bilan qilinadigan ish go‘yo ichki, ya’ni ideal faoliyat tomonidan payqab olinadi. Tashqi, yaqqol faoliyat ichki (psixik) faoliyat tarzida his etiladi. Narsalarni bajarishda amal qilinadigan harakatlar ularning muhim xususiyatlariga mo‘ljallangan psixik jarayon bilan almashtiriladi.

Tashqi real ishdan ichki ideal ishga o‘tish jarayoni interiorizatsiya («ichki ishga aylanish») deb ataladi. Interiorizatsiya — ichki psixik faoliyatning tashqi amaliy faoliyatdan kelib chiqishi, tashqi harakatlarning ichki harakatlarga, narsalarning obrazlari va ular haqidagi tushunchalarga aylanishi jarayonidir. Inson psixikasi interiorizatsiyasi tufayli ayni vaqtda ko‘z o‘ngida bo‘lmagan narsalarning obrazlari bilan ishlay olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, insoniyat tajribasini va bir qancha yuz va ming kilometr uzoqlikdagi kishilarning va jamoalarning tajribalarini o‘zlashtiradi.

Inson faoliyatida shaxsning tashqi (jismoniy) va ichki (psixik) tomonlari bir-biriga juda bog‘liqdir. Odam faoliyatining tashqi tomoni – tashqi olamga ta’sir ko‘rsatadi. Bunday harakatlar motiv, bilish va boshqarish kabi ichki (psixik) faoliyat orqali aniqlanadi. Ichki faoliyat tashqi (jismoniy) faoliyat tomonidan boshqariladi. Tashqi faoliyat narsalarning, jarayonlarning xususiyatlarini ta’minlaydi va qo‘lga kiritilgan natija va ishlarning kutilgan samarasi va uni maqsadga qanchalik mos kelishini belgilaydi.

Ichki (psixik) faoliyat buyumlar bilan qilinadigan tashqi faoliyatning

interiorizatsiyasi natijasi deb qarash mumkin. Shunga muvofiq narsalar bilan qilinadigan tashqi faoliyatni ichki psixik faoliyatning eksteriorizatsiyasi deb qarash mumkin.

Eksteriorizatsiya (tashqi) ichki psixik faoliyatning tashqi, predmetli faoliyatga, jonli mushohadaga aylanishidir. Shaxs faoliyatining tashqi (jismoniy) va ichki (psixik) tuzilmalari bir-biri bilan bog‘liqdir. Inson faoliyatining tashqi jabhasi uning atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishiga mo‘ljallangan harakatlar psixik (ichki) jihatiga bog‘liq bo‘lib, ularni motivlashtiradi, bilishga undaydi. Tashqi jismoniy harakatlar ichki psixik harakatlarda buyumlar va jarayonlar xususiyatlarini o‘zida namoyon qiladi, ularni maqsadga muvofiq ravishda o‘zgartiradi, nazorat qilib turadi. Shuning uchun ham tashqi (jismoniy) harakatlar ichki (psixik) harakatga aylanadi. Bu esa faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda muvaffaqiyatli ijro etish imkoniyatini ta’minlaydi.

FAOLIYATNI O‘ZLASHTIRISH

Ko‘nikma, malaka va odatlar

Irodaviy faollik kishilarning faoliyatlarida turli-tuman sifatlari bilan namoyon bo‘ladi.

Inson faoliyati odamlarga xos bo‘lgan har xil ehtiyojlar asosida yuzaga keladi. Faoliyatning o‘zi ehtiyojlarni qondira oladigan yo‘l hamda vositalarni izlash va shuning bilan birga, ehtiyojni qondiradigan harakatlardan iborat bo‘ladi.

Faoliyatning asosiy turlari – mehnat, o‘yin va o‘qishdan iboratdir.

Faoliyatning istalgan turi odamda tegishli ko‘nikma va malakalar bilan amalga oshiriladi.

Ko‘nikmalar

Ko‘nikma – shunday aqliy hamda jismoniy harakatlar, usullar va yo‘l-yo‘riqlardan iboratdirki, bular yordami bilan qandaydir maqsadga erishiladi yoki ayni bir faoliyat amalga oshiriladi. Masalan, ayrim harflarni yozish usullari, ko‘paytirish va bo‘lish usullari, boltani ushlash va mix qoqish yoki temirni toblashda bolg‘a urish usullari shular jumlasidandir.

Ko‘nikmalarni bilim bilan aralashtirish yaramaydi. Albatta, har qanday ko‘nikma bilim bo‘lishini taqozo etadi. Lekin bilimning ko‘nikma bilan bog‘liq bo‘lishi shart emas. Masalan, tarix, geografiya va adabiyotshunoslikka doir bilimlar shular jumlasidandir.

Bilimlar, asosan, voqelik to‘g‘ri aks ettiriladigan hukm va mulohazalarda ifodalanadi.

Ko‘nikmalar esa, ko‘proq aqliy yoki jismoniy harakatlarda ifodalanadilar. Ko‘nikmalar oldindan belgilangan maqsadga mos bo‘lishi lozim. Har qanday ko‘nikma («a» harfini yozish, bolg‘a bilan mix qoqish), albatta, ayrim harakatlarning to‘la va aniq bo‘lishini talab etadi. Yassi dumaloq shaklni yoki ilmoqli to‘g‘ri chiziqchani seza olmaslik, ruchka yoki qalamni to‘g‘ri ushlay olmaslik «a» harfini yoza olmaslikdan dalolat beradi. Bolg‘achani sopidan to‘g‘ri ushlay bilmaslik va bolg‘a urishda qo‘lning noto‘g‘ri harakat qilishi mix qoqa bilmaslikni ko‘rsatadi. Bunda o‘quvchi «a» harfining qanday yozilishini va bolg‘acha bilan qanday qilib mix qoqilishini bilishi va hatto gapirib berishi mumkin.

Ko‘nikmalar qay daraja o‘sganligi jihatidan bir-biridan farq qilishi mumkin. Shuning uchun ko‘nikma faqat bilim talab qilibgina qolmay, balki, albatta, qandaydir maqsad amalga oshiriladigan o‘zaro mos harakatlarda ham ifodalanadi. O‘quvchilar ko‘nikma bilan bog‘liq bo‘lmagan bilimlarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘quvchi kasrlarni ko‘paytirish qoidasini bilishi mumkin, lekin bunday hisob amalini bajara olmasligi ham mumkin, yoki o‘quvchi orfografiya qoidalarini bilgani bilan savodli yoza olmasligi mumkin. Ko‘nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo‘llay bilishga oiddir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bilimlarga odatlanmagan hech qanday ko‘nikma bo‘lishi mumkin emas. To‘g‘ri yozish uchun grammatika qoidalarini bilish shart. Shu bilan birga, ko‘nikma hosil qilish uchun o‘quvchi tegishli natijalarga erishtiruvchi to‘g‘ri usullarni ham bilishi lozim. Shuning uchun o‘qituvchi yozishga o‘rgatar ekan, ruchkani qanday qilib to‘g‘ri ushlashni, daftarning qanday holatda turishini, yozishda ruchkani qanchalik bosish kerakligini va shu kabilarni ko‘rsatadi.

Shunday hollar ham bo‘ladiki, o‘quvchi oldin tegishli bilimlarni o‘zlashtirmasdan turib, berilgan nusxalarga taqlid qilish yo‘li bilan ba’zi ko‘nikmalar hosil qiladi. Lekin bunday holda ham ko‘nikmalar har holda berilgan nusxani mustaqil kuzatish yo‘li bilan olingan bilimga asoslanadi. Ammo bunday bilimlarning aniq bo‘lmasligi tufayli ko‘r-ko‘rona taqlid qilish yo‘li bilan orttirilgan ko‘nikmalar yetarli darajada o‘qib olinmagan va to‘la takomillashmagan bo‘ladi.

Ko‘nikmalar murakkablik darajalari jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Ko‘nikma oddiy yoki murakkab bo‘lishi mumkin. Masalan, harflarning elementlaridan chiziqcha yoki aylana yozish oddiy ko‘nikma bo‘lsa, butun bir so‘zlarni yozish murakkab ko‘nikmadir.

Murakkab bo‘lgan yozish ko‘nikmasi o‘z ichiga bir qator oddiyroq ko‘nikmalarni oladi. Masalan, ruchkani to‘g‘ri ushlash, yozishda ruchkaning bosimini to‘g‘ri nazorat qila bilish ko‘nikmalari.

Sonlarni kvadrat yoki kub ildizdan chiqarishga qaraganda ularni arifmetika usulida qo‘shish oddiy ko‘nikma bo‘ladi.

Ninaga ip taqish va tugmacha chatish – oddiy uquvdir, lekin xuddi shu nina bilan ko‘ylak yoki kostum tikish – murakkab uquvdir.

Malakalar

Odamning hayotida ko‘nikmalarning ko‘pi malakalar tarzida namoyon bo‘ladi. Har qanday malaka ko‘nikmadir, lekin har qanday ko‘nikmani malaka deb bo‘lmaydi. Faqat avtomatlashgan ko‘nikmagina malaka deb ataladi. Malakalar, odatda, ongli faoliyatdan, ya’ni mehnat faoliyatlaridan ajralgan holda namoyon bo‘lmaydi.

Malakalar – biron ish-harakatning mustahkamlangan va avtomatlashgan yo‘l va usullari bo‘lib, bu yo‘l va usullar, odatda, murakkab ongli faoliyatni bajarishda qo‘llanadi. Masalan, maktabdagi dars o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchilar uchun ham murakkab ongli faoliyatdir. Lekin dars paytida o‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham malaka bo‘lib qolgan bir qator avtomatlashgan, ko‘nikilgan harakatlar qiladilar: qalam yoki ruchkani qanday ushlash kerakligi haqida hech bir o‘ylamay, ishlataveradilar; ayrim harf va so‘zlarni yozishda qalam yoki peroni qanday yurgizish kerakligini o‘ylab o‘tirmay, yozaveradilar. Bu harakatlarning hammasi dastlab (savod chiqarishda), ya’ni 1-sinfda bajariladigan ongli, ixtiyoriy va ko‘nikilgan harakatlardir. Lekin juda ko‘p marta takrorlayverish tufayli, bu harakatlar mustahkamlanib qolgan va endi ular ongning bevosita ishtirokisiz, avtomatik ravishda qilinaveradi. Shunday qilib, malakalarning o‘zi avtomatlashgan harakatlar bo‘lishiga qaramay biron-bir murakkab ongli faoliyatdan tashqari, mustaqil ravishda hosil bo‘la olmaydi.

Kishining har qanday ongli faoliyati bir butun malakalar sistemasi yordami bilan amalga oshiriladi.

Malakalar avtomatlashish darajasi jihatidan o‘zaro farqlanadilar. Masalan, kalligrafik (chiroyli) yozuvda avtomatlashish juda katta ahamiyatga ega, o‘qish uslubida esa avtomatlashish bilan birga har doim onglilik ham talab etiladi. Malakalar avtomatlashgan harakatlar sifatida o‘qish jarayonida ham, inson faoliyatining barcha turlarida ham katta ahamiyatga egadirlar.

Malakalar maxsus zo‘r berishsiz hamda ongli harakatlarga nisbatan tez sodir bo‘lishi tufayli, faoliyatning ayrim turlari va murakkab ko‘nikmalarining amalga oshirilishini yengillashtiradi.

Ammo avtomatlashgan harakatlar bo‘lgan malakalarni ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlardan batamom ajratib tashlash yaramaydi. Har bir malaka muayyan bir sharoitdagi faoliyat jarayonida ongli harakatga aylanishi mumkin. Aksincha, juda ko‘p ongli harakatlar faoliyat jarayonida malakaga aylanib qolishi ham mumkin. Hosil qilingan malakalardan ratsional foydalanilsa, ular yanada ortiqroq takomillashgan, ongli ijodiy faoliyat uchun asos va sharoit bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ko‘nikma va malakalarning turlari

O‘qituvchilar hosil qilgan ko‘nikma va malakalarni uch turga bo‘lish mumkin: ta’lim, unumli mehnat va sport sohasiga doir ko‘nikma hamda malakalar.

Maktabdagi o‘qishning hamma bosqichlarida har bir predmetni o‘zlashtirish bilan birga, bir qator o‘quv malakalarini egallash ham talab etiladi.

O‘qish jarayonida o‘quvchilar dastavval yozish, o‘qish va hisoblash ko‘nikmasi hamda malakasi hosil qilishlari kerak bo‘ladi. Bu ko‘nikma va malakalar dastlabki, ya’ni boshlang‘ich ko‘nikma va malakalar hisoblanadi. Keyinchalik, ana shular asosida orfografiya va matematika sohasida murakkab ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi.

Ta’limiy ko‘nikma va malakalar hosil qilishda o‘quvchilarning aqliy faoliyatlari, ayniqsa, katta o‘rin tutadi. Bunday ko‘nikma va malakalar hosil qilish jarayonida o‘quvchilar juda ko‘p narsalarni kuzatishlari, o‘ylab ko‘rishlari, eslarida olib qolishlari va tasavvur etishlari lozim bo‘ladi.

Juda ko‘p ta’limiy ko‘nikmalarda, ayniqsa, orfografiya va matematika sohasidagi ko‘nikmalarda qilinadigan ish, asosan, aqliy mehnatga ega bo‘ladi. Lekin bir qator ta’limiy ko‘nikma va malakalarda (masalan, yozish, chizmachilik, rasm kabilarda) muskul harakatlari ham asosiy rol o‘ynaydi. Ta’limiy ko‘nikma va malakalarning tarkib topishi zo‘r diqqat va iroda talab etadi.

O‘quvchilarning ayrim hollarda orfografiya jihatidan savodsizligiga (grammatika qoidalariga doir bilimlari bo‘lsa ham) xatolarni tuzatish uchun yetarli diqqat qilmasliklari sabab bo‘ladi. Ta’limiy ko‘nikma va malakalarda avtomatlashish hech qachon to‘la bo‘lmaydi va to‘la bo‘lishi ham lozim emas. Bunday ko‘nikma va malakalarda avtomatlashish, ko‘pincha, faqat qilinadigan ishning sodda elementlariga qaratilgan bo‘ladi.

Unumli mehnatga oid (texnikaviy) ko‘nikmalar va malakalar, asosan, harakat a’zolari bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalardir.

O‘quvchilarda unumli mehnat ko‘nikma va malakalari, asosan, politexnika ta’limi jarayonida hosil bo‘ladi. Bundan tashqari, ana shunday ko‘nikma va malakalar sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda, texnika to‘garaklarida va texnik stansiyalarda hosil bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar mehnat ko‘nikma va malakalarini qo‘l mehnati darslarida qog‘ozdan, kartondan, gazmollardan, plastilindan va boshqa shu kabi ishlanishi jihatidan bolalarning qurbi yetadigan materiallardan sodda narsalar tayyorlash yo‘li bilan hosil qiladilar. V—VIII sinflarda o‘quvchilar maktab o‘quv ustaxonalarida yog‘och va metallni ishlash jarayonini o‘rganish va fizika, kimyo, tabiiyot hamda boshqa fanlardan amaliy vazifalarni bajarishlari jarayonida birmuncha murakkabroq mehnat

ko‘nikma va malakalari hosil qiladilar. Yuqori sinf o‘quvchilari ishlab chiqarish ta’limi jarayonida va korxonalarda o‘tkaziladigan ishlab chiqarish amaliyoti davomida texnikaga oid ko‘nikma va malakalar orttiradilar.

O‘quvchilar jismoniy tarbiya ko‘nikmalari va malakalarini egallashlari davomida tezlik hamda baquvvatlik, moslashgan harakatlar va chaqqonlik kabi sifatlarga ega bo‘lgan har turli muskul harakatlarini hosil qiladilar. Saflanish usullari hamda gimnastik tarzda qayta saflanish, tirmashib chiqish va oshib tushish, sakrash, muvozanatni saqlash, yurish va yugurish, irg‘itish, to‘siqlarni yengib o‘tish va shuning kabi harakatlar ana shular jumlasidandir.

Maktabdagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarni jismoniy jihatdan har tomonlama taraqqiy qilishlariga, ularning badan tarbiyasiga, ayrim sport turlarining texnikasini egallashlariga va shuning bilan birga GTO ning ta’limiy hamda umumiy kompleks normalarini topshirish uchun tayyorgarlik ko‘rishlariga yordam berishi kerak.

Maktabdagi turli sinflarda jismoniy tarbiyadan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning mazmuni va metodlari o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga hamda ularning jismoniy imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak.

Jismoniy tarbiya – o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, o‘quvchilarning salomatliklarini mustahkamlash, ularni unumli mehnat faoliyati va vatan mudofaasiga tayyorlash vositalaridan biridir.

Ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lish jarayoni

Ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lishning nerv-fiziologik asosi shartli reflekslardir. Har bir malaka va har bir odat, o‘z fiziologiyasi asosiga ko‘ra, shartli refleks bog‘lanishlari sistemasidan iborat. Malaka va odatlarning hosil bo‘lishida, shuningdek, ularning o‘zgarishida shartli reflekslarning hosil bo‘lishi, o‘zgarishi hamda tormozlanishiga oid bo‘lgan barcha qonunlar, jumladan, dinamik stereotip hosil bo‘lishi qonuniyatlari amal qiladi.

Biron narsaning uddasidan chiqa oladigan bo‘lish uchun kishi, dastavval qanday harakatlarga intilish kerakligini va bu harakatlarning qay yo‘sinda amalga oshirilishini bilib olishi va esida saqlab qolishi kerak. Shundagina kishi talab qilingan natijaga erishishi mumkin. Ishning bajarish usullarini bilgandan so‘ng yoki bilish mobaynida kishi birovning tushuntirishi bo‘yicha yoki nusxaga qarab, xuddi shunday harakatlarni qila boshlaydi. Masalan, endigina yozishni o‘rganayotgan bola «a» harfini qanday yozish kerakligini o‘qituvchining tushuntirishidan va nusxadan qarab bilib oladi. So‘ngra bu harfni uning o‘zi ham yoza boshlaydi. U avval yarim doira shaklini chizadi va buning o‘ng tarafiga

pastki tomoni biroz qaytarilgan to‘g‘ri chiziq qo‘shadi. Bu bolaning «a» harfini o‘rgana boshlashi demakdir.

Biron ishning uddasidan chiqishni o‘rganishning bu dastlabki davrida har bir yangi harakat ongli ravishda bajariladi. Kishining diqqati, odatda, bajarilayotgan ishning o‘ziga emas, balki, ko‘proq o‘zining ayrim harakatlariga qaratilgan bo‘ladi. Biron ishning uddasidan chiqishni o‘rganishning bu davri tegishli ish-harakatlarni yoki zehniy ishni amalga oshirishda kerak bo‘ladigan usullarni ongli ravishda tanlashdan iborat bo‘ladiki, bu usullarning birga qo‘shilishi natijasida maqsadga muvofiq va to‘g‘ri ish-harakatlar qilinadi. Ammo biron ishning uddasidan chiqishni o‘rganishning dastlabki davridagi harakatlar ko‘pincha bir-biriga qovushmagan bo‘ladi. Masalan, bola xat yozishni o‘rganar ekan, «a» harfini faqat bitta harakat yordami bilan emas, balki eng kamida ikkita harakat yordami bilan yozadi.

Biron ishning uddasidan chiqishni o‘rganishning dastlabki davriga xos bo‘lgan xarakterli xususiyatlardan biri ortiqcha kuch sarf etishni talab qiluvchi yanglish va qo‘shimcha harakatlarning ko‘p bo‘lishidir. Masalan, endi yozishga o‘rganayotgan bolalar, ko‘pincha, yozish paytida tillari, yuz muskullari, butun badanlari bilan zo‘r berib harakat qiladilar, ba’zan oyoqlarini ham qimirlatadilar.

Biron ishning uddasidan chiqishni o‘rganishning bundan keyingi davri – bilib qilinadigan ongli harakatning mustahkamlanish va takomillashish davridir. Bunda ko‘nikmalar mashq qilish orasida mustahkamlanadi. Mashq – ko‘nikma hamda kerakli usul va harakatlarni mustahkamlash hamda takomillashtirish maqsadida ularni ko‘p marta takrorlashdir. Mashq jarayonida harakatlar faqat mustahkamlanibgina qolmay, balki o‘zgaradi va aniq, tez hamda puxta bajariladigan bo‘ladi.

Mashqlar jarayonida kishining ixtiyoriy diqqati butun ishga ham, uning ayrim tomonlariga ham qaratilgan bo‘ladi. Bunda harakatlarning to‘g‘ri bajarilayoganligi, asosan, ko‘z bilan nazorat qilinadi.

Biron ishning uddasidan chiqishni o‘rganishning bu davrida ayrim harakatlarning bir-biriga muvofiqlashuvi (koordinatsiyasi) takomillashadi. Bir necha harakatlar bir butun murakkab harakat, amal bo‘lib birlashadi, umuman qattiq zo‘r berish ozayadi va ko‘p ortiqcha harakatlar yo‘qola boradi.

Ortiqcha va qo‘shimcha harakatlarning yo‘qotilishi differensirovka hosil bo‘lishning natijasidir: muvaffaqiyatli natija bilan quvvatlanmagan harakatlar asta-sekin tormozlanadi, kerakli natijaga olib boruvchi turli harakatlar esa mashq qilish davomida tobora mustahkamlanadi.

Harakatlarning avtomatlashish davrida ko‘nikmalar faqatgina juda yaxshi mustahkamlanib qolmay, balki yanada takomillashadi, bu davrda ortiqcha harakatlarning yo‘qola borishi davom etadi, kerakli harakatlar esa yanada aniqroq, ixchamroq va tezroq bo‘la boradi.

Malakaning mustahkamlanishi va avtomatlashishi maxsus mashqlar va o‘rganish davrida tugallanmaydi. Malakalar faoliyatning o‘zida ham takomillashaveradi. Masalan, agar kishiga umrida juda ko‘p yozish va o‘qish to‘g‘ri kelsa, uning orfografiya malakasi juda mustahkam bo‘ladi. Barcha mehnat malakalari mehnat jarayonining o‘zida takomillashadi. Malakani egallash uchun qilinadigan maxsus mashqlar faqat tayyorgarlik ahamiyatiga egadir.

Shunday hollar ham bo‘ladiki, bunda malakalar maxsus mashq va o‘rganish natijasida hosil qilinmay, balki faoliyat jarayonida hosil qilinaveradi, hatto ishni uddalay bilishni avtomatlashtirish ko‘zda tutilmagan taqdirda ham faoliyat jarayonida hosil qilinaveradi.

Avtomatlashgan harakatlar, ya’ni ko‘nikma va malakalar ong nazoratidan batamom chiqib ketmaydi. Sharoit o‘zgarib qolgan paytda ular yana ongli ravishda takrorlanaveradi, bunda qilinadigan ayrim ishlar o‘ylab olinadi.

Malakalar hosil bo‘lish jarayonlariga xos qonuniyatlar

Malakalar hosil bo‘lish jarayoniga xos bir qator qonuniyatlar bor.

Bu qonuniyatlar: birinchidan, malakalar hosil bo‘lish jarayonidagi notekislik qonuni; ikkinchidan, malakalarning ko‘chishi va tormozlanishi qonuni; uchinchidan, malakalarni yuksalishi va pasayishi qonunidir.

Malaka hosil bo‘lishi hamma vaqt ham birdek bo‘lmaydi. U bolalarning individual xususiyatlariga bog‘liq ravishda notekis rivojlanadi.

Malakalar hosil qilish jarayonida ijobiy yutuqlar bilan bir qatorda, ba’zan xato, noto‘g‘ri harakatlarga ham yo‘l qo‘yiladi. Mashqlarning muvaffaqiyati – ijobiy yutuqlarning o‘sishi va ko‘payishidan, ya’ni to‘g‘ri harakatlarning ko‘payishidan, xatolar sonining kamayib borishidan iboratdir.

Ijobiy yutuqlarning o‘sishi bir tekisda bo‘lmasligi mumkin, ya’ni ma’lum bir darajada ancha vaqt to‘xtab, birdan ko‘tarilib ketib va vaqtincha yana pasayib ketishi mumkin. Har bir takrordan so‘ng, xatolar sonining kamayishi ham xuddi shunday notekis bo‘ladi.

Kishining turli faoliyat xillarini amalga oshirishida va faoliyat jarayonining o‘zida har xil malakalar hosil qilishi va o‘zlashtirishi lozim bo‘ladi. Yangi malakalar ilgari hosil qilingan va mustahkamlangan malakalar asosida hosil bo‘ladi. Yangi hosil qilinayotgan malakalar ilgari o‘zlashtirilgan malakalar bilan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Ilgari o‘zlashtirilgan malakalar, odatda, yangi malakalarni o‘zlashtirish jarayoniga ta’sir qiladilar. Bizda bor bo‘lgan malakalar yangi malakalarni tezroq va mustahkam o‘zlashtirishga yoki, aksincha, o‘zlashtirishni tormozlab, to‘xtatib qo‘yishga ta’sir ko‘rsatishlari mumkin.

Ilgari mustahkamlangan malakalarning yangi malakalar hosil qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi malakani **ko'chirish** deb ataladi.

Malakalarning ko'chishi va tormozlanishi qonuniyati avvalo shundan iboratki, ma'lum bir sohada hosil qilingan malaka shunga yaqin sohaga doir boshqa malakalarni ancha yengillik bilan egallashga moyillik tug'diradi. Masalan, ma'lum bir mashinada, epchillik bilan ishlaydigan ishchi bundan ko'ra murakkabroq yoki boshqacharoq mashinada ishlashni tez orada o'rganib oladi.

Malakalarning ko'chish hodisasining bir necha sabablari bor. Bu yerda turli malakalarni hosil qilishda o'xshash elementlarning borligi va aynan yoki o'xshash psixik jarayonlarning borligi katta ahamiyatga egadir. Masalan, tillarni o'rganishda bir xil alfavit va ayrim tovushlarni ishlata bilish rol o'ynaydi; musiqaviy malakalarni hosil qilishda bir xil nota belgilari, yuksak musiqiy ohang eshita bilish qobiliyati, ko'rish va harakat koordinatsiyasi va shuning kabilar katta rol o'ynaydi.

Malakalarning ko'chishiga ishning va mashqning umumiy usullari ham yordam ko'rsatadi. Masalan, qandaydir bir chet tilini egallashda kishida ayrim so'zlar, gaplar talaffuzining bir qator maxsus usullari, o'rganilayotgan materialni tartibga solish usullari va esda olib qolish usullari hosil qilinadi. Yangi tilni o'rganishda shu usullarning hammasi ko'chiriladi va ular yangi til malakalarini tezroq egallashga yordam beradi.

Nihoyat, malakalarni ko'chirish uchun ilgarigi malakalarni hosil qilishda **maqsad qilib tutgan yo'l** katta ahamiyatga egadir. Har qanday malaka orttirish kishini epchil qiladi, ya'ni uni boshqa malakalar va xususan o'xshash malakalarni egallashga uquvliroq qiladi. Ilgarigi malakalarni o'zlashtirish jarayonida kishida yangi malakalarni o'zlashtirishga alohida «malaka», ya'ni malakalar hosil qilish layoqati paydo bo'ladi.

Malakaning ko'chishi, yana shunda ko'rinadiki, muayyan bir a'zomizda malaka hosil qilish shu harakatlarni maxsus mashqlarsiz boshqa a'zolarimiz bilan ham bajaraverish imkoniyatini tug'diradi. Bir a'zoimizni mashq qildirganimizda boshqa a'zolarimiz ham shunga qo'shib mashq qildiriladi. Masalan, har birimiz o'ng qo'limiz bilan xat yozishga mashq qilganmiz, lekin birmuncha yomonroq bo'lsa-da, chap qo'limiz bilan ham yoza olamiz. Tajriba, masalan, shu narsani ko'rsatganki, o'ng qo'lda ikkita koptokni otib o'ynay bilish qobiliyati chap qo'lga ham o'tar ekan.

Malakaning bu xildagi ko'chishining sababi shundadirki, malaka hosil qilish o'z fiziologik mexanizmi jihatidan faqat periferiya nerv sistemasigagina bog'liq bo'lib qolmay, balki markaziy nerv sistemasiga ham bog'liq bo'lgan jarayondir. Har xil malakani hosil qilishda butun nerv sistemasi qatnashadi. Biron-bir yakka a'zo, chunonchi, qo'lning o'zigina emas, balki kishining butun vujudi mashq qiladi. Bu mashq

jarayonida bosh miya yarim sharlarining po‘stida tegishli dinamik stereotip vujudga keladi va u boshqa o‘xshash dinamik stereotipning hosil qilinishiga ta’sir ko‘rsatadi. Lekin, albatta, eng samarali malaka mashq qildirilgan a’zoda hosil bo‘ladi, chunki bunda mashq markaziy nerv sistemasining, asosan shu a’zo bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan periferiya qismlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat negizida voqe bo‘ladi.

Mustahkamlashib ketgan malakalar yangi malakalar hosil qilishga salbiy va tormozlantiruvchi tarzda ta’sir qilishi mumkin. Malakalarning mana shunday o‘zaro salbiy munosabatlarini, odatda, malakalar interferensiyasi deb ataladi. Bu yerda malakalarning o‘zaro salbiy munosabatlari shundan iboratki, ilgari hosil qilingan malakalar yangi malakalar hosil qilishni qiyinlashtiradi yoki ularning samaraliligini pasaytiradi. Masalan, agar mashinistka alfaviti ma’lum tartibda joylashgan mashinkada ishlashga odatlanib qolgan bo‘lsa, alfaviti boshqacha tartibda joylashgan mashinkaga o‘tishda katta qiyinchiliklar tug‘diradi.

Malakalarning interferensiya hodisasi bilan ta’lim ishida tez-tez to‘qnashib turishga to‘g‘ri keladi. Masalan, malakalarning interferensiyasi yozish, o‘qish, ayrim so‘zlarni talaffuz qilish va shuning kabilar yuzasidan hosil qilingan yanglish malakalarni tuzatishda ko‘rinadi. Bunday hollarda ayrim malakalarni boshqalari bilan almashtirishga, ba’zilarini esa qayta o‘rganishga to‘g‘ri keladi.

Malakaning yuksalishi va pasayishi. Hosil qilingan malakalar qo‘llanishi va takrorlanishiga qarab, yuksalishi yoki pasayishi mumkin. Qaysi bir malaka faoliyatda qancha ko‘p qo‘llanilsa va turishda qancha ko‘p takrorlansa, u shunchalik mustahkam va avtomatlashgan bo‘laveradi. Masalan, hammaga ma’lumki, yozish malakasi juda mustahkamlanib va avtomatlashib ketgani tufayli, kishi hattoki ba’zan bir grammatika qoidalarini esidan chiqarib qo‘ysa ham, baribir, to‘g‘ri yozaveradi. Malaka va odatlarning yuksalishi bu malaka hamda odatlarning juda ham takomillashuvi va avtomatlashishidadir. Bu esa faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Agar hosil qilingan malakalar uzoq vaqt davomida qo‘llanilmasa, ular so‘na boshlaydi, ya’ni pasaya boshlaydi.

Malakalar pasayishining nerv-fiziologik asosi ichki (yoki shartli) tormozlanish, ya’ni amaliy ish bilan mustahkamlanmagan muvaqqat bog‘lanishlarning so‘nishidir.

Malakalarning so‘nishi, avvalo, shunda ko‘rinadiki, bunda avtomatik harakatlar sekinlasha boradi va bu harakatlarda yanglish va xatolar ro‘y bera boshlaydi. So‘ngra malakalarning so‘nishi avtomatlashgan harakatlarning yo‘qolishida ko‘rinadi, buni deavtomatizatsiya deyiladi, ya’ni ilgari avtomatlashgan harakatlarni bajarish endi yana o‘ylashni va maxsus qaratilgan diqqatning, ong nazoratining bo‘lishini talab qiladigan bo‘lib qoladi.

Nihoyat, malakalarning so‘nishi ularni batamom esdan chiqarib yuborishda ko‘rinadi. Kishi bir qancha vaqtdan so‘ng lozim bo‘lib qolgan sharoitda qachonlardir malaka sifatida o‘zlashtirilgan harakatlaridan foydalana olmay qoladi.

Malakalarning pasayishi faqat vaqtgagina bog‘liq bo‘lib qolmay, balki bir qator boshqa sabablarga ham bog‘liqdir. Uzoq davom etgan toliqish, kuchli kechinmalar va o‘z kuchiga ishonmaslik natijasida malakalar buzilishi va pasayishi mumkin. Ba’zi bir asabiy kasalliklar ham malakalarni pasaytirib yoki buzib yuboradi.

Bir qator harakatlar va turli usullarni talab qiladigan murakkab malakalar, ayniqsa, tezda pasayadi va buziladi. Yaxshi mustahkamlangan malakalar uzoq saqlanib qoladi. Ma’lumki, bolalikda hosil qilingan malakalar puxta esda qoladi va eng barqaror malakalar bo‘lib qoladi.

Ammo shuni nazarda tutish kerakki, malakaning pasayishi ba’zi hollardagina batamom yo‘qolib ketish darajasigacha yetishi mumkin. Malaka buzilganda yoki uni esdan chiqarib yuborilganda, odatda, undan ba’zi bir «izlar» qoladi. Mana shu qolgan izlar tufayli, malaka qayta tiklanishi mumkin.

Malakaning qayta tiklanishi uchun ham mashq qilish kerak bo‘ladi. To‘g‘ri malakani dastlab hosil qilish va mustahkamlashga nisbatan uni qayta tiklashda ancha kam mashq talab qilinadi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, hosil qilingan malaka iz qoldirmasdan yo‘qolib ketmaydi.

Malaka hosil bo‘lish tezligi va mustahkamligining shartlari

Malaka hosil bo‘lish jarayonining tezligi har xil bo‘lishi mumkin. Ayni bir kishidagi ayrim malakalar va turli kishilardagi bir xil malakalar turlicha tezlik bilan hosil bo‘lishi mumkin. Malaka hosil bo‘lish tezligi zaruriy harakatlarni takrorlash soni va malaka hosil qilish uchun sarf qilingan vaqt bilan aniqlanadi. Malaka hosil qilish uchun sarf qilingan vaqt soat, kun, oy, ba’zan esa yillar bilan o‘lchanadi.

1. Malaka hosil qilish tezligi dastavval shu malakaning murakkablik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Malaka qanchalik murakkab bo‘lsa, u shunchalik sekin hosil qilinadi. Masalan, mix qoqishda bolg‘achani to‘g‘ri urish malakasi, shu mixlarni ustaxonada (qo‘l bilan) tayyorlashda bolg‘a bilan ishlash malakasiga qaraganda, juda tez hosil qilinadi.

2. Malaka hosil qilishning tezligi va uning mustahkamligi kishining yoshiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Ayrim malakalar kishining yoshlik davrida tez hosil bo‘lsa, boshqalari esa kishi katta bo‘lgandan so‘ng yengilroq hosil bo‘ladi.

3. Malaka hosil bo‘lish tezligi va uning mustahkamligi ko‘p darajada kishining nerv sistemasining holatiga bog‘liq bo‘ladi. Nerv sistemasi

sog‘lom va tetik bo‘lsa, odatda, malaka va odatlar ham juda tez hamda juda yaxshi mustahkamlanadi.

4. Kishining ongliligi malaka hosil qilishda samarali natijalarga erishtiruvchi eng muhim shartdir. Onglilik, avvalo, bilimlarni o‘zlashtirishda va mahorat qozonishda kerakdir: unda faqat ish harakatlarni bajarish, bu harakatlarni bir-biriga qo‘shish va birini biri bilan muvofiqlash ila cheklanib qolmay, balki qanday qilib bu harakatlarni to‘g‘ri, yaxshi, maqsadga muvofiq qilib bajarish, qanday yo‘l bilan ularni bir-biriga to‘g‘ri qo‘shish va birini biri bilan qanday qilib to‘g‘ri muvofiqlashtirish haqida o‘ylash va, xususan, bularning hammasi nima uchun qilinayotganligini anglash ham lozim bo‘ladi.

Mahoratni mustahkamlash va malakalar hosil bo‘lishi uchun qilinadigan mashqlar ham **onglilikni** talab etadi. Bu yerda onglilik hosil qilinayotgan malakaning maqsadi va ahamiyatini tushunishda, mashqlar natijasini tasavvur etishda va, shuning bilan birga, kerakli harakatlarning qoidalarini va usullarini bilishda namoyon bo‘ladi. Ongli ravishda mashq qilish, demak, mazkur mashqlarning nima uchun kerakligini, bu mashqlarning qanday usul bilan olib borilishini, bu mashqlarning natijasi qanday bo‘lishi kerakligini hamda bu mashqlar tufayli qanday malaka hosil qilinayotganligini va bu malaka faoliyatning ma’lum bir turlarida qanday o‘rinni olishi kerak ekanligini bilish demakdir.

5. Malakalar hosil qilish tezligi kishining shu hosil qilinayotgan malakalarni o‘z ichiga olgan faoliyatiga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishiga qaraydi. Bu munosabat muayyan bir malakalarni hosil qilishga kishining qanchalik qiziqishi va buning zarur ekanligini anglashida hamda, shuning bilan birga, hosil qilayotgan malakalariga bog‘liq bo‘lgan hissiy kechinmalarida ifodalanadi.

6. Malakalar hosil qilish tezligi va ularning mustahkamligi o‘qitish metodlariga ham bog‘liqdir. Bunda o‘qituvchining tushuntirishi ham, ma’lum bir harakatlarni vujudga keltiruvchi usullar ham, mashq jarayonida qo‘llanadigan usullar ham ahamiyatga egadir.

Odatlar

Mehnat va o‘qish jarayonida ko‘nikma hamda malakalar bilan birga odatlar ham katta o‘rin egallaydi.

Odatlar, xuddi malakalar singari, yangidan hosil qilingan, mustahkamlangan va avtomatlashtirilgan ish-harakatlardir, lekin malaka va odat aynan bir narsa emas, ular bir-biridan farq qilinadi.

Ma’lum sharoit ta’siri ostida vujudga kelib va mustahkamlanib qolgan va bajarilib turishi kishining ehtiyojiga aylangan amal harakatlarni **odat** deb aytiladi.

Bunday harakatlarni (odatlarni) to‘xtatib qolish, odatda, tajanglik

va norozilik hissini uyg‘otadi. Masalan, bunga quyidagi odatlarni ko‘rsatish mumkin: masalan, bir vaqtda uyqudan turish, ovqat oldidan qo‘lni yuvish, ishda asboblarni ma’lum bir joyga qo‘yish va shuning kabilar.

Odatlanib qolgan harakatlar ko‘pincha shunchalik mustahkam singib ketadiki, ular kishiga tabiiy bo‘lib ko‘rinadi. «Odat kishining ikkinchi tabiatidir» («o‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas») degan maqol ham mana shundan kelib chiqqan.

Odatlar ham, malakalar singari, har xil bo‘ladi, masalan, shunday odatlar bo‘ladi: kasb va mehnat odatlari (ishga o‘z vaqtida kelish, boshlangan ishni oxirigacha yetkazish, har qanday ishni oldindan o‘ylab, reja bilan ishlash, ish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalarni ma’lum bir joyga qo‘yish va boshqalar), gigiyena odatlari (badan va kiyimlarning tozaligini saqlash, tishni tozalab turish, ovqat oldidan qo‘llarni yuvish va boshqalar), estetik odatlar (sochlarni yaxshilab tarab, kiyimlarni ozoda qilib yurish, uyni tartibli va chiroyli qilib tutish, nutq madaniyatiga rioya qilish va boshqalar), axloqiy odatlar (rostgo‘y, sofdil va halol bo‘lish).

Faqat ijobiy odatlar bo‘lib qolmay, balki salbiy odatlar ham bo‘lishi mumkin. Salbiy odatlarga misol qilib — ishdagi yuzakilik va tartibsizlikni, irkitlikni, qo‘pol iboralar, ya’ni, masalan, xo‘sh kabi keraksiz so‘zlarning ishlatilishini, tirnoqlarni kemirish odatini, shuning kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Odatlarni hosil qilish jarayoni, xuddi malakalarni hosil qilish jarayoni singari, ya’ni bir xildagi harakatlarni asosan ko‘p martalab takrorlash orqali sodir bo‘ladi. Odat va malakalar hosil bo‘lish qonuniyatlari birdir. Odatlarning nerv-fiziologik asosi ko‘nikma va malakalarning nerv-fiziologik asoslari bilan birdir.

Odatlarning ahamiyati. Odatlar, malakalar singari, odamning faoliyatlarida katta o‘rin egallaydilar. Odatlar bizning hayotimizni va faoliyatimizni saranjom-sarishta hamda tartibli qiladi. Gigiyena malakalari, maishiy, mehnat va estetik malakalar shular jumlasidandir. Chunonchi, mehnatning ratsional rejimiga rioya qilish odatlari, sanitariya-gigiyena odatlari, yaxshi madaniy xulq-atvor odatlari mehnat unumdorligini oshirishning muhim shartlaridandir. Salbiy xarakterga ega bo‘lgan odatlar, aksincha, bizning hayotimizni bebosh qiladi va intizomsizlikka sabab bo‘ladi.

Odatlar inson ongining barcha faoliyatini va xususan, tafakkur hamda diqqatini tartibli qiladi, bizda o‘ylash odati va o‘ylashning odat bo‘lib qolgan usullari, diqqatli bo‘lish odati va odat bo‘lib qolgan diqqat vujudga kelishi mumkin. Juda ko‘p odatlar xarakterimizning xislatlariga aylanib qoladi. Shuning uchun ijobiy odatlarni paydo qilish kishini eng kichik yoshdan boshlab tarbiyalashning muhim vazifalaridan biridir.

Odatlarning yuzaga kelishi juda yosh bolalik davrdan boshlanadi. Odatlarning dastavval boshlab yuzaga kelishida bolalarning kattalarga taqlid qilishlari katta rol o‘ynaydi. Bolada odatlarning yuzaga kelishi ko‘p jihatdan kattalarning xulq-atvoriga bog‘liq. Maktabda odatlar o‘qituvchi talablarining ta’siri hamda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qilgan ishlari va xulq-atvorlariga sistemali tarzda baho berib borish orqali yuzaga keltiriladi. O‘quvchilarda ijobiy odatlarni yuzaga keltirishda sinf jamoasi hamda «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati ijtimoiy fikrining ta’siri alohida ahamiyatga egadir. Maktabda mehnat qilishga odatlanishni hosil qilish alohida muhim o‘rinda turishi kerak. O‘quvchilarda mehnat faoliyatiga tegishli ijobiy odatlarni yuzaga keltirish lozim. Masalan, bajaradigan mehnat vazifasiga javobgarlik bilan qarash, ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish, ish asboblari, materiallar va mashinalarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, harakatlarni vaqt mobaynida ratsional (to‘g‘ri) taqsimlash, qilinayotgan ishlarni sistemali ravishda nazorat qilib borish, qiyinchiliklarni yengish, mehnat usullarini yaxshilash yo‘lida tashabbus va ijodkorlik ko‘rsatish hamda mehnat unumdorligini oshirishga intilish odatlari shular jumlasidandir. Ijobiy odatlarni hosil qilish bilan birga salbiy odatlarni yo‘qotish yuzasidan ham ish olib borish lozim. Salbiy odatlarni yo‘qotish uchun asosan bunday odatlarga qarshi sistemali ravishda va muttasil kurash olib borish kerak. Salbiy odatlarning oldini olish zarur, agar sharoit imkon bergan joyda, paydo bo‘lgan salbiy odatlarni ijobiy odatlar bilan almashtirib yuborish kerak.

Maktabda to‘g‘ri hosil qilingan va mustahkamlangan odatlar maktab tugatilgandan so‘ng xulq-atvorning barqaror shakli bo‘lib qoladi va shaxsning ancha mustahkam xislatiga aylanadi.

Malaka va odatlar kishining xulq-atvori va faoliyatining barcha turlari uchun zarurdir. Ammo kishining faoliyati va xulq-atvorini faqat malaka va odatlardan iborat deb bo‘lmaydi. Malaka va odatlar bilan birga, kishining ongli ijodiy faoliyati ham yuksak darajada o‘sishi va namoyon bo‘lishi lozim. Kerakli malaka va odatlarni tarbiyalash bilan birga, kishida o‘z xulq-atvori va o‘z faoliyatiga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishni ham o‘stirmoq kerak.

Faoliyat turlari

Inson faoliyati turli-tumandir. Moddiy va ma’naviy hayot kechirishga zarur narsalarning hammasiga ega bo‘lgan holda yashash uchun odam tevarak-atrofni yaxshi bilishi, tabiat, jamiyat haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishi, tevarak-atrofdan odamlarning hamda o‘zidan avvalgi avlodning tajribasini o‘rganishi lozim. Bu o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Individ sifatida dunyoga kelgan bola o‘zaro munosabatlarga kirishuvi orqali

dunyoni idrok qila boshlaydi, faollik ko‘rsatadi. Psixik jarayonlar, xususiyatlar, munosabatlarning bir-biriga bog‘liqligi shaxs faolligining 3 asosiy turi bilan belgilanadi.

1. O‘yin faoliyati.
2. Bilish, ya’ni o‘qish (ta’lim) faoliyati.
3. Mehnat faoliyati.

Odam rivojlanishining dastlabki genetik bosqichlarida odamning atrof-muhit bilan aloqa o‘rnatishining asosi sifatida hamda uning psixikasini shakllantirish va namoyon etishning hal qiluvchi (faktori) omili sifatida faoliyat **o‘yinlar** ko‘rinishida bo‘ladi. O‘yinlar bola to maktabga borgunga qadar uning psixik rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. O‘yinlar mazmuni jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini bevosita aks ettiradi. Bolaning psixik taraqqiyotini o‘yinsiz tasavvur qilish mumkin emas. Bola o‘yinda ijtimoiy munosabatga kirishadi. Nutq o‘rganadi, narsa va hodisalarni idrok qilishga, ular haqida xayol va fikr yuritishga, o‘z-o‘zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengishga o‘rganadi, jismoniy jihatdan rivojlanadi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishish narsalarni o‘yin sifatida ishlatishdan to predmet munosabatlarigacha va undan odamlarning o‘zaro munosabatlarigacha, bolaning tevarak-atrofidagi maishiy turmush va umuman bola hayoti bilan bog‘liq o‘yinlardan tortib tobora kengayib borayotgan ijtimoiy mehnat faoliyatini o‘z ichiga olgan o‘yinlarga qadar bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘ylab davom etadi. O‘yin faoliyatining motivlari shu o‘yinning o‘zidan bolalar hosil qiladigan jismoniy va emotsional qoniqish orqali belgilanadi. Bola shaxsini faoliyatning yuqoriroq darajasi – o‘qishga qobiliyatli qilib shakllantirish ular bilan o‘tkaziladigan o‘yinlar natijasi hisoblanadi.

O‘qish – bu shaxsning mehnat faoliyatiga kirishib ketishiga imkon beradigan bilim, mahorat va malakalarning egallab olishidir. O‘qish va o‘qitish – ta’lim o‘quv faoliyati, aqliy faoliyat, bilish faoliyati bo‘lib, u o‘qituvchi va o‘quvchi, subyekt – subyekt munosabati faoliyatidir. Bolalar ta’lim jarayonida o‘zidan avvalgi avlodlarning tajribasini o‘rganish bilan birga avvalo, savod chiqaradi, fan asoslarini o‘zlashtiradi, izlanadi, ijod qiladi, buning uchun u bilish faoliyati bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bu faoliyatning boshqa faoliyatlardan farqi shundaki, bunda o‘quvchi talabalarning fikr yuritish jarayonlari (tahlili qilish, umumlashtirish, abstraksiyalash kabi) shakllanadi, mantiqiy fikrlashga o‘rganadilar, fikrlash jarayonlari faollashadi. O‘qish bilish orqali odamning sezgi a’zolari va miyasi uning tevarak-atrofdan olamni idrok qilishgagina emas, balki ularning xususiyatlarini o‘zgartirishiga ham sabab bo‘ladi. Shu sabab psixik jarayonlar: idrok, xotira, tafakkur, xayol insonni bilish faoliyatining ko‘rinishlaridir.

O‘qitish umumiy va ixtisoslashgan (kasb-hunarga o‘rgatish, ya’ni kasb-

hunar kollejlari, akademik litseylar) tarzda bo‘lishi mumkin. Umumiy o‘qitish mehnat kasblarini egallab olish uchun zarur bo‘lgan intellektual, ma’naviy va jismoniy kuchlarni rivojlantirishga qaratilgandir. Jamiyatning texnika darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, u shaxsdan shunchalik yuqoriroq umumiy tayyorgarlikni talab qiladi. Maxsus, ya’ni ixtisoslashgan o‘qitish kasb-hunar o‘rganish bilan bog‘liqdir. Bu mehnat qilish vaqtida bajarilishi talab etiladigan faoliyatning murakkabligiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qitish, o‘rganish orqali bola bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilibgina qolmaydi, balki u aqliy jihatdan rivojlanadi va shaxs sifatida shakllanadi, mehnatga va jamiyat ishiga ma’naviy jihatdan tayyor bo‘lgan shaxs sifatida tayyorlanadi.

Mehnat – inson hayotining asosiy mazmunini tashkil qiladi, unda odamning ma’naviy va axloqiy kuchlari namoyon bo‘ladi. U ma’lum ijtimoiy foydali, moddiy-ma’naviy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdir. Mehnat natijasi – jamiyat hayotidagi har xil sohalarda yaratilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlardir. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarni hayotga tayyorlaydi, uning mehnati o‘quvchilarda ijtimoiy jihatdan qimmatli bo‘lgan faoliyatlarni qanchalik rivojlantirilganligini ko‘rsatadi.

Shaxs mehnatida shakllanadi, u mehnat tufayli o‘z qobiliyatini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, amaliy faoliyat boshlangunga qadar kasb tanlash uchun tavsiyalar beradi. Mehnat faoliyati davomida yoshlar o‘zlarini nimalarga qodir va qodir emasliklarini tushunib yetadilar va shunga qarab kasb tanlashga, bu kasbning kelajagi haqida aniq fikr yurita oladigan bo‘ladilar. Hozirgi vaqtda yoshlar faoliyatining muhim ijtimoiy-psixologik aspekti – shaxsning qiziqishi hamda obyektiv imkoniyatlari muammosidir. Qiziqish darajasi bu shaxsni rivojlantirish va undagi qobiliyatlarni aniqlashning xarakterlantiruvchi kuchlaridan biridir. Real ravishda qo‘lga kiritilgan natijalarni qiziqish bilan taqqoslash asosida shaxsning faoliyatga hamda o‘z shaxsiy «men»iga, ya’ni o‘zligiga bo‘lgan munosabati ham shakllanadi.

Mehnat faoliyati orqali yoshlar o‘zini tuta bilishga, qat’iyatli, sabr-toqatli bo‘lishga, qiyinchiliklarga barham berish va uni bartaraf qilishga, mustaqil fikrlash va mustaqil ijod qilishga o‘rganadilar. Mehnat tufayli ularda unga ijobiy, ongli munosabat shakllanadi. Mehnat faoliyati ota-onalarining mehnatini qadrlashga, mehnatdan olingan mahsulotni e’zozlashga, mehnat anjomlarini asrashga, avaylashga o‘rganadilar. Shuning uchun ham mehnat faoliyatiga odamning yashashini ta’minlovchi, tabiat kuchlari va narsalardan odamni foydalantiruvchi maxsus insoniy xatti-harakat turi deb qarash mumkin.

UCHINCHI QISM
BILISHNING PSIXIK JARAYONLARI

I BOB. SEZGILAR.

Sezgilar haqida umumiy tushuncha

Tevarak-atrofimizda bo‘lgan va bizga ta’sir etib turadigan narsa va hodisalarning xilma-xil xossalari bor. Bu xossalar ko‘ruv, eshituv, tuyg‘u organlari va shunga o‘xshash sezgi organlari yordami bilan ongimizda bevosita aks etadi. Sezgi organlarimizga ta’sir etadigan narsalardagi ayrim xossalarning miyamizda shu tariqa bevosita aks etishi sezgi deb ataladi. Biz qizil, yashil ranglarni, shirin, achchiq ta’mlarni, og‘ir-yengilni, issiq-sovuqni va shu kabilarni sezamiz. Sezgi organiga ta’sir etib, sezgini vujudga keltiradigan har bir narsa (yoki hodisa) **qo‘zg‘ovchi** deb ataladi, uning ta’siri esa **qo‘zg‘alish** deb yuritiladi.

Sezish jarayoni quyidagicha ro‘y beradi: 1) narsa yoki hodisalar sezgi organlariga (retseptorga) ta’sir etib, tegishli sezuvchi nervning chekka (periferi) uchlarini qo‘zg‘aydi; 2) shu yerda kelib chiqqan qo‘zg‘alish o‘sha nervning o‘tkazuvchi yo‘li orqali bosh miya po‘stining tegishli markaziy hujayralar sistemasiga o‘tadi; 3) bu yerda nerv qo‘zg‘alishi psixik hodisaga, ya’ni sezgiga aylanadi.

Sezish jarayonining ana shu 3 bosqichi I. P. Pavlov tomonidan **analizator** deb atalgan sezuvchi nerv apparatining tuzilishiga muvofiq ravishda o‘tadi. Yuqorida aytganimizdek, har bir analizator sezuvchi nervning chekka tarmoqlaridan, o‘tkazuvchi yo‘ldan va bosh miya po‘stining markaziy hujayralaridan iborat. Analizatorning yuqorida ko‘rsatilgan qismlaridan birortasi zararlansa, sezgi hosil bo‘lolmaydi. Nomidan ham ko‘rinib turibdiki, analizatorlar tevarak-atrofdagi olam ta’sirlarini analiz qilib beradi. Analizatorlar insonning ko‘p asrlardan beri davom etib kelgan tarixida hayot uchun nihoyatda muhim bo‘lib kelgan qo‘zg‘ovchilarni boshqa qo‘zg‘ovchilardan ajratadi, ularni bir-biridan ayirib beradi.

Har bir sezgi odatda xush yoki noxush tuyg‘ular bilan bog‘langan bo‘ladi. Bu sezgining **hissiy yoki emotsional toni** deb ataladi. Masalan, shirin narsa kishiga huzur beradi, taxir-bemaza narsa ko‘ngilni behuzur qiladi. Ba’zi sezgilarda hissiy ton juda kuchli bo‘ladi. Masalan, ortiqcha to‘yish, ochiqish, og‘riq sezgilari shundaydir.

Sezish jarayonida tug‘iladigan xush yoki noxush tuyg‘u ayni vaqtda organizmning qo‘zg‘ovchi ta’siriga javoban reaksiyasiga sabab bo‘ladi (bu reaksiya ba’zan arang bilinadi). Bu reaksiyalar bolalik davrida, ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi. Ana shu reaksiyalarga qarab, bolalarning biron sezgini boshdan kechirayotganini bilamiz. Ana shu reaksiyalarning borligi

sezgining nerv-fiziologik mexanizmi refleksdan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

2. Sezgi turlari

Sezgilar xilma-xil bo‘ladi. Turli-tuman sezgini qaysi sezgi organlari yordami bilan hosil qilsak, ularni o‘sha organlarga qarab odatda, quyidagi turlarga, ya’ni ko‘rish sezgilari, eshitish sezgilari, hid bilish sezgilari, ta’m (maza) bilish sezgilari, teri sezgilari, muskul-harakat sezgilari va organik sezgilarga ajratiladi. Sezgi organlari qayerda ekanligiga va qayerdan qo‘zg‘alishiga qarab, ularni uch guruhga ajratish mumkin: eksteroretseptorlar, proprioretseptorlar va interoretseptorlar.

Eksteroretseptorlar organizmning sirtida bo‘ladi – ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m (maza) bilish, teri sezgisi, muskul harakat sezgisi va organik sezgi organlari shu jumladandir.

Bu a’zolar tashqi sezgi a’zolari deb ataladi. Organizmimizdan tashqaridagi narsa va hodisalarning xossalari ana shu a’zolar yordami bilan aks ettiriladi. Shu a’zolar orqali kelib chiqadigan sezgilar (ko‘rish, eshitish sezgilari va hokazo) **eksterioretseptiv** sezgilar deb ataladi.

Proprioretseptorlar muskul, pay va boylamlarda bo‘ladi. Organizmimiz va undagi ayrim a’zolarning turli harakatlarini va vaziyatini ana shu a’zolar yordami bilan sezamiz. Bu a’zolar **proprioretseptiv** sezgilar deb ataladi. Muskul harakat sezgilari (knestetik sezgilar) va muvozanat sezgilari (statik sezgilar) shular jumlasidandir.

Interoretseptorlar gavdamiz ichidagi organlar – teri, me’da, ichak, jigar, o‘pkada bo‘ladi. Ovqat hazm qilish, nafas olish, qon aylanish organlari va shunga o‘xshash ichki organlardagi jarayonlar (qo‘zg‘alishlar) vujudga keltiradigan sezgilar shu retseptorlar yordami bilan belgilanadi. Bu sezgilar **interoretseptiv sezgilar** deb ataladi. Organ sezgilar degan sezgilar shu jumladandir.

Eksteroretseptorlar. Ko‘rish sezgilari

Rang va yorug‘likni sezish ko‘rish sezgilariga kiradi. Biz sezadigan ranglar xromatik va axromatik ranglarga bo‘linadi.

Yorug‘lik nurlari uchburchak shisha prizma orqali o‘tib, singanda hosil bo‘ladigan ranglar **xromatik** ranglar deb ataladi. Xromatik ranglar kamalak ranglari bo‘lib, bunga qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havo rang, ko‘k va binafsha ranglar kiradi. Bu ranglarning turlari nihoyatda xilma-xil bo‘lib, juda ko‘pdir.

Oq rang bilan qora rang, shuningdek, xilma-xil hamma kulranglar **axromatik ranglar** deb ataladi.

Ko‘rish sezgilarining organi – ko‘zdir. Bu organ ko‘z **soqqasi** bilan



12-rasm. *Ko‘zning sxematik kesigi:*
1 – ko‘rish nervi; 2 – to‘r parda; 3 – muguz parda; 4 – oqsil parda;
5 – rangdor parda; 6 – tomirli parda; 7 – sariq dog‘; 8 – gavhar;
9 – shishasimon jism.

undan chiqadigan ko‘ruv nervidan iborat. Ko‘z soqqasida uchta parda, ya’ni: tashqi, tomirli va to‘r parda bor (12-rasm). Tashqi pardaning tiniqmas (oq) qismi sklera (qotgan yoki qattiq parda) deb ataladi. Tashqi pardaning oldingi birmuncha qavariq qismi **tiniq** (muguz) **parda** deb ataladi.

Tashqi pardaning orqasida **tomirli parda bor**. Tomirli pardaning oldingi qismi **rangdor parda** deb ataladi. Rangdor pardaning rangiga qarab, kishilarning ko‘k ko‘z, qo‘y ko‘z, qora ko‘z deb ataymiz va hokazo. Rangdor pardaning o‘rtasida yumaloq teshik bor, qorachiq deb ataladigan ana shu teshikdan ko‘zning ichiga yorug‘lik nurlari o‘tadi. Yorug‘likning oz-ko‘pligiga qarab, qorachiq kengayishi va torayishi mumkin. Ko‘zning uchinchi pardasi – to‘r parda bo‘lib, u ko‘z soqqasining deyarli butun ichki yuzasini qoplaydi. Qorachiq bilan rangdor pardaning orqasida ikki tomoni qavariq, tiniq, jism – ko‘z **gavhari** turadi, yorug‘lik nurlari ko‘z gavharida turib sinadi va natijada to‘r pardaga narsaning aksi (surati) tushadi. Halqa shaklidagi ko‘priksimon muskulning uzayishi va qisqarishi tufayli gavhar goh yassilanadi, goh qavaradi: narsa ko‘zdan uzoqlashtirilganda gavhar deyarli yassi bo‘lib qoladi, narsa ko‘zga yaqinlashtirilganda esa gavhar deyarli shar shakliga kiradi. Ko‘z gavharida shunday xossa borligidan, yaqindagi narsalarning aksi ham, uzoqdagi narsalarning aksi ham gavhardan o‘tib, xuddi to‘r pardaga tushadi. To‘r parda rangni va yorug‘likni sezish uchun asosiy ahamiyatga ega. Ko‘ruv nervining tarmoqlari to‘r pardada joylashgandir. Bu tarmoqlarning chekka uchlarida maxsus nerv hujayralari – shaklan tayoqcha va kolbachaga

o‘xshagani uchun **tayoqchalar va kolbachalar** deb ataladigan hujayralar bo‘ladi (13-rasm). Odam ko‘zining to‘r pardasida 130 millionga yaqin tayoqcha va 7 millionga yaqin kolbacha bor.



13-rasm. *Ko‘z to‘r pardasining tuzilishi:* A–tayoqchalar, B–kolbachalar.

Kolbachalarning yorug‘likka sezgirligi kuchli emas. Kolbachalar yordami bilan biz faqat ravshan (kunduzgi) yorug‘likda ko‘ramiz. Xromatik ranglar kolbachalar yordami bilan ko‘riladi. Shu sababli, kolbachalar **kunduzgi yorug‘likda ko‘rish** yoki **rangni ayirish apparati** deb ataladi. Tayoqchalar esa, aksincha, yorug‘likni yaxshi sezadigan bo‘lib, eng xira yorug‘likni ham seza oladi.

Tunda, qosh qorayganda va umuman xira yorug‘likda tayoqchalar yordami bilan ko‘ramiz. Tayoqchalar – **g‘ira-shirada ko‘rish** apparatlaridir. Tayoqchalar yordami bilan faqat axromatik ranglar ko‘riladi. Shu sababli, g‘ira-shirada xromatik ranglar yaxshi bilinmaydi yoki butunlay bilinmaydi, natijada hamma narsalar bizga kulrang bo‘lib ko‘rinadi

To‘r pardaning eng sezgir joyi – **sariq dog‘ning** asosan kolbachalar bilan to‘lgan **markaziy chuqurchasidir.** Nimaning aksi (surati) sariq dog‘ga tushsa, o‘sha narsani hamma narsadan ko‘ra ravshanroq ko‘ramiz. Biron narsaga tikilganimizda ko‘z muskullarining yordami bilan ko‘zimiz shunday buriladiki, natijada o‘sha narsaning aksi, albatta, har bir ko‘zimizdagi to‘r pardaning sariq dog‘iga tushadi. Bunday ko‘rishni **to‘g‘ridan ko‘rish** deyiladi. Narsalar suratining sariq dog‘dan tashqarida – to‘r pardaning yon qismlarida aks etishi **yondan ko‘rish** deb ataladi.

To‘r pardaning bir joyida rangni va yorug‘likni sezadigan tayoqchalar bilan kolbachalar mutlaqo yo‘q. Bu – ko‘ruv nervining ko‘z soqqasidan chiqish joyidir. To‘r pardaning ana shu joyi yorug‘likdan ta’sirlanmaydi va **ko‘r dog‘** deb ataladi.

Odatda, ko‘r dog‘ning borligini payqamaymiz, chunki narsaning bir ko‘zdagi ko‘r dog‘ga tushadigan tasviri ikkinchi ko‘z to‘r pardasining sezgir joyiga to‘g‘ri keladi.

14-rasmdan foydalanib, har kim o‘z ko‘zidagi ko‘r dog‘ni topishi mumkin.

Ko‘r dog‘ni topish uchun rasm ko‘zdan 25 – 30 *sm* uzoqlikka qo‘yiladi, o‘ng ko‘zni yumib, chap ko‘z bilan rasmning o‘ng tomonida

14-rasm. *Ko‘r dog‘ni topish tajribasi.*

turgan doiragacha qaraladi. Suratni oldinga va orqaga dam-badam surib, shunday masofaga keltiriladiki, bunday masofada rasmdagi krestcha shakli ko‘rinmay qoladi. Buning sababi shuki, krestchadan kelayotgan nur ko‘zning ko‘r dog‘iga tushib qoladi.

Agar chap ko‘zni berkitib, o‘ng ko‘z bilan krestchaga qaralsa, doiracha ko‘rinmay qoladi. Tajriba vaqtida ko‘zni chalg‘itmaslik kerak, chunki ko‘zning salgina chalg‘ishi ham ko‘r dog‘ harakatini o‘zgartiradi, ko‘z soqqasidan chiqadigan ko‘ruv nervining tolalari yarim sharlardan o‘tib, bosh miyaning ensa bo‘lagiga boradi – bosh miya po‘stining ko‘ruv markazlari ham shu yerdadir.

Ko‘rish sezgisini hosil qiladigan fizik sabab – yorug‘likdir, ya’ni elektromagnit to‘lqinlaridir.

Ko‘rish sezgisi jarayoni

Rang va yorug‘likni ko‘rish organining yordami bilan sezish jarayoni qanday voqe bo‘ladi? Rang va yorug‘lik sezish jarayonlarining o‘z xususiyatlari bor.

Rang sezish jarayonlarini tushuntirib beradigan eng mashhur nazariya «uch rangni ko‘rish» nazariyasidir. Bu nazariyaning asosiy qonun-qoidalarini rus olimi M. V. Lomonosov 1756-yildayoq bayon qilib bergan edi. Ma’lum nemis fiziologi va fizigi Gelmgolts Lomonosovdan 100 yil keyin o‘sha nazariyani to‘la bayon qilib berdi. Bu nazariyaga ko‘ra, to‘r pardaning kolbachalarida uchta asosiy element bor. O‘sha elementlardan birining alohida qo‘zg‘alishi qizil rang sezgisini, ikkinchi birining qo‘zg‘alishi yashil rang sezgisini va uchinchi birining qo‘zg‘alishi binafsha rang sezgisini hosil qiladi. Yorug‘lik to‘lqinlari birdaniga uchta elementni bir xilda qo‘zg‘asa, oq rang sezgisi hosil bo‘ladi. Lekin, yorug‘lik to‘lqinlari ikki yoki uch elementga ta’sir etsa-yu, ammo bu ta’sir bir tekisda bo‘lmasa, u holda sezuvchi elementlardan har birining qanchalik qo‘zg‘alganligiga qarab, har xil rang sezgilari hosil bo‘ladi.

Yuqoridagi rasm turli ranglarning qanday sezilish jarayonini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Spektrning rang sezuvchi elementlar qo‘zg‘alish kuchiga qarab hosil bo‘ladigan ayrim ranglarining bosh harflari sxemada ko‘rsatilgan. Sxemadagi figuralar rang sezuvchi elementlarning qo‘zg‘alish kuchini

ko‘rsatadi. «Uch rangni ko‘rish» nazariyasi rang sezish jarayonlaridagi ko‘ruv organining rolini ochib berishda eng ma’qul nazariya deb hisoblanadi. Ammo bu nazariya haqiqatda ehtimolga eng yaqin gipotezadir, chunki kolbachalarda rang sezuvchi uch elementning borligi hali aniq isbot etilgan emas, balki faraz qilinadi, xolos.

Hozirgi vaqtda psixologlar va fiziologlar ranglarni sezish yolg‘iz to‘r pardasidagi jarayonlar bilangina emas, balki boshqa miya po‘stida bo‘ladigan jarayonlar bilan ham bog‘liq ekanligini isbotlashga harakat qilmoqdalar. Yorug‘lik sezishda ro‘y beradigan spetsifik jarayonlar mukammalroq tekshirilgan. Tayoqchalarda ko‘rish **purpuri** degan maxsus modda bor ekan. Ko‘zga yorug‘lik ta’sir etganda ko‘rish purpuri kimyoviy yo‘l bilan parchalanib, tarkibiy qismlariga bo‘linib ketadi. Ko‘rish purpurining shu tariqa parchalanish jarayoni ko‘rish nervini qo‘zg‘ab, yorug‘lik sezgisi hosil bo‘ldi. Qorong‘ida purpur yana tiklanadi.

Ko‘rish sezgilaridagi maxsus hodisalar

Ko‘rish sezgilaridagi bir qancha maxsus hodisalar ko‘rish organidagi apparatlarning holatiga bog‘liq. Rang kontrasti, «shapko‘rlik» (qorong‘ida va tunda yaxshi ko‘ra olmaslik) va «rang ajratolmaslik» (rang turlarining farqiga bora olmaslik) shunday hodisalardan hisoblanadi.

Rang kontrasti. Qizil rangli kvadratni bir varaq oq qog‘oz ustiga qo‘yib tikilib qarasak, bir necha vaqtdan keyin shu kvadrat atrofida och havo rang hoshiyani, ya’ni qizil rangga qo‘shimcha rangni ko‘ramiz. Kontrast hodisasi ana shudir. Yuqorida keltirilgan misolda qo‘shimcha rang asosiy rang bilan bir vaqtda seziladi. Bu bir vaqtdagi kontrastdir. Bundan tashqari, izma-iz kontrast bo‘ladi. Masalan, qizil doiraga uzoq vaqt qarab turib, keyin oq yuzaga ko‘z tashlansa och havo rang – sariq rangli doira, ya’ni qizil rangga qo‘shimcha rang ko‘ramiz. Buning teskarisini ham qilib ko‘rish mumkin. Izma-iz kontrast hodisasi ana shudir.



15-rasm. *Ranglarni aralashtiradigan charx.*



16-rasm. *Uch rangni ko‘rish nazariyasining sxemasi.*

Rang kontrastining hosil bo‘lishiga sabab shuki, kishi uzoq qarab turganda kolbachalarning qizil rangni sezuvchi elementlari charchaydi, natijada ularning sezuvchanligi kamayadi. Ayni vaqtda qo‘shimcha rangni sezuvchi elementlar qo‘zg‘alganicha qolaveradi, ularning sezuvchanligi kuchliroq bo‘lib chiqadi. Shu sababli, ranglarning aralashish qonuniga muvofiq, qo‘shimcha rang seziladi.

«Shapko‘rlik» shundan iboratki, odam kechqurun va tunda xira ko‘radi yoki butunlay ko‘rmaydi. Bu hodisaning sababi shuki, to‘r pardalaridagi tayoqchalar sust ishlaydi yoki butunlay ishlamaydi.

«Rang ajratolmaslik» xromatik ranglarni seza olmaslik va farq qila olmaslikdan iborat. Ba’zi bir kishilar ranglarni sira ayira olmaydigan bo‘ladi. Bunday kishilar hamma ranglarni axromatik kulrangdek ko‘radilar (xuddi fotografiyadagi singari). Ba’zi kishilar ranglarni qisman ayira olmaydigan bo‘ladi. Bunday kishilar faqat ba’zi bir ranglarni ayira olmaydilar. Statistika ma’lumotlariga qaraganda, ranglarni ajrata olmaslik hodisasi erkaklar orasida taxminan 4 foiz va ayollar orasida 0, 5 foiz uchraydi. Qizil va yashil rangni ayira olmaslik hodisasi ko‘proq uchraydi. Binafsha rangni ajrata olmaslik hodisasi esa kamroq uchraydi. Ranglarni sira ayira olmaslik hodisasi juda kamdan-kam bo‘ladi. Ranglarni ajrata olmaslik sababi shuki, ko‘zning to‘r pardasidagi kolbachalar ishlamaydi yoki qisman ishlaydi. Shapko‘rlik va rang ajratolmaslik haqiqatan ham kolbacha va tayoqchalardagi nuqsonlarga bog‘liq ekanligi turli hayvonlarning ko‘rish organlarini maxsus tekshirishda tasdiqlanadi. Kunduzgi yorug‘likda hayot kechiradigan hayvonlar (kaltakesaklar, ilonlar, tovuq, kaptarlar) ko‘zining to‘r pardasida faqat kolbachalar bo‘ladi, ular kechasi hech narsani ko‘rmaydi, tunda hayot kechiradigan hayvonlar

(ko‘rsichqon, ko‘rkalamush, kirpilar, boyqushlar, ko‘rshapalaklar) ko‘zining to‘r pardasida faqat tayoqchalar bo‘ladi, ular kunduz kuni ko‘rmaydi.

Eshitish sezgilari

Eshitish sezgilari tovushlarni sezishdan iboratdir. Tovushlar musiqiy tovushlarga (ashula tovushi, cholg‘u asboblarining tovushi) va shovqinli tovushlarga (taraq-turuq, tars-turs, sharaq-shuruq, taqir-tuqur va boshqa shu kabi tovushlarga) bo‘linadi.

Tovushlar oddiy va murakkab tovushlarga ham bo‘linadi. Oddiy tovushlar tonlar (yoki mikrotovushlar) deb ataladi, masalan, kamertonni jaranglatganimizda tonni sezamiz. Ohangli tovushlar murakkab tovush bo‘lib, ular bir necha tondan tarkib topadi. Shu tonlardan biri asosiy ton bo‘lib, tovushning balandligini va kuchini belgilab beradi, boshqalari birga qo‘shiluvchi tovushlar bo‘lib, **obertonlar** deb ataladi. Obertonlar turli asboblardan, masalan, royal, skripka, gitaradan chiqadigan bir xil balandlikdagi tovushlarning o‘ziga xosligini belgilaydi. Tovushlarning ana shu tariqa o‘ziga xosligi **tembr** deb ataladi.

Nutq tovushlari ohangli tovushlar (asosan, unli tovushlar) bilan shovqinlardan iborat (shovqinlarda undosh tovushlar ko‘proq bo‘ladi). **Eshitish sezgilari** organi quloq bo‘lib, u uch qismdan: tashqi quloq, o‘rta quloq va ichki quloqdan iboratdir (17-rasm).

Tashqi quloq – quloq suprasi bilan eshituv yo‘lidan iborat. Tashqi quloq havo to‘lqinlarini yig‘uvchi karnay desa bo‘ladi. Tashqi quloq bilan o‘rta quloq o‘rtasida bir parda bor, u **nog‘ora parda** yoki o‘rta quloq pardasi deb ataladi. **O‘rta quloq** – nog‘ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: bolg‘acha sandon va uzangidan iborat. Nog‘ora parda, shuningdek, unga yopishuvchi suyakchalar (bolg‘acha, sandon va uzangi) havo tebranishlarini ichki quloqqa o‘tkazadi. O‘rta quloq maxsus kanal (Yevstaxiy nayi) yordami bilan og‘iz bo‘shlig‘iga va burun bo‘shlig‘iga tutashgan.

Ichki quloq yoki quloq labiranti o‘zaro birlashgan uchta bo‘lakdan iborat. Ichki quloqning yuqori qismi uchta yarim joyga kanaldan, o‘rta qismi kameradan (u ichki **quloq dahlizi** deb ataladi) va pastki qismi chig‘anoqdan iborat, ichki quloqning uchala bo‘limi endolimfa nomli maxsus suyuqlik bilan to‘la. Ichki quloqning asosiy qismi chig‘anog‘idir. Chig‘anoqning ichida Kortiy organi deb ataladigan bo‘lakcha bor. Bu organ gumbaz shaklida bo‘lib, uning negizida asosiy **membrana** bor. Membrana – uzunligi sekin-asta qisqarib boruvchi elastik tolalardan iborat. Bu tolalar arfa yoki fortepianoning tarang tortilgan torlariga o‘xshaydi. Asosiy membranani yuqori tomondan maxsus tayoqchasimon hujayralar berkitib turadi, bu hujayralar Kortiy duralari deb ataladi. Asosiy membrananing tolalari endolimfaga eng ingichka qillari botib tur-



17-rasm. *Quloqning tuzilishi:* 1. Quloq suprasi. 2. Tashqi eshitish yo‘li. 3. Nog‘ora pardasi. 4. O‘rta quloq. 5. Yevstaxiy nayi. 6. O‘rta quloq ichidagi suyuqliklar. 7. Ichki quloq dahlizi. 8. Yarim doira kanallari. 9. Chig‘anoq.

adigan maxsus hujayralar yordami bilan Kortiy duralari orqali eshitish nerviga bog‘lanadi. Eshitish markazlari bosh miya po‘stining chakka bo‘lagidadir.

Eshitish sezgilarining fizik sababi — havo to‘lqinlarining harakati bo‘lib, bu havo to‘lqinlari tovush chiqaruvchi jismlar tebranganda hosil bo‘ladi.

Eshitish sezgisi jarayoni

Eshitib sezishlar chog‘ida eshitish organida ro‘y beradigan spetsifik jarayonlar sababini anglatishda eng ko‘p qabul qilingan nazariya Gelmgols ishlab chiqqan rezonans nazariyasidir. Bu nazariyaga ko‘ra havoning to‘lqinsimon harakatlari tashqi va o‘rta quloq orqali ichki quloqdagi endolimfaga o‘tadi. Bu yerda endolimfaga botib turuvchi qillar orqali asosiy membrana tolalari harakatga keladi, ulardan eshitish nervi ham harakatga keladi.

Gelmgols eshituv sezgilarining sifat farqlarini (tonlarning farqlarini) tushuntirganda umumiy rezonans nazariyasiga tayanadi. Bu nazariyaga ko‘ra, har bir musiqa asbobi tashqaridan keluvchi biron tovushga javoban o‘sha tovushga bir tonda moslangan torini tebrantiradi, xolos. Gelmgols nazariyasiga muvofiq, odam qulog‘ida ham shunga o‘xshash hodisa voqe bo‘ladi. Endolimfaga o‘tuvchi muayyan balandlikdagi har qanday tovushga javoban asosiy membrana o‘z tolalaridan birontasini tebrantiradi, qo‘zg‘alish o‘sha tola orqali eshitish nerviga o‘tadi. Eshitish haqidagi rezonans nazariyasi ko‘p faktlar bilan tasdiqlanishini aytib o‘tmoq ke-



21-rasm. *Esteziometr.*

rak.

Asosiy membrana tolalarining soni odam qulog‘i sezadigan tovushlarning soniga umuman baravar keladi, ya’ni 20000 tacha bo‘ladi. So‘ngra, arpa yoki guslining uzun torlari singari, asosiy membrananing uzun tolalari ham past (yo‘g‘on) tovushlarga rezonans (aks-sado) beradi, musiqa asbobining kalta torlari singari, asosiy membrananing kalta tolalari ham baland (ingichka) tovushlarga rezonans beradi. Bu, masalan, hayvonlar ustida qilingan quyidagi tajribalar bilan isbot etiladi. Agar it qulog‘ining asosiy membranasidagi uzun tolalar qirqib olinsa, u past (yo‘g‘on) tovushlarni sezmaydigan bo‘lib qoladi, agar asosiy membrananing kalta tolalari kesib olinsa, baland (ingichka) tovushlarni sezmaydigan bo‘lib qoladi.

Hid bilish sezgilari

Hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi. Hidlar nihoyatda ko‘p va xilma-xil bo‘ladi. Hidlarni klassifikatsiya qilish uchun umumiy bir mezon yo‘q. Hidlar odatda hidli narsalarning nomi bilan ataladi, masalan, rayhon hidi, non hidi, olma hidi va hokazo. Hidlar odatda, xush va noxush deb ikkiga bo‘linadi, lekin bu taqsimot hidlarning mohiyatini ko‘rsatib bermaydi, balki o‘sha hidlarga qanday qarashimizni ko‘rsatadi.

Hid bilish sezgilarining organi burun kovagining yuqori tomoni bo‘lib, bu yerda hid **bilish hujayralari** va sezuvchi nervning tarmoqlari bor, sezuvchi nervning tarmoqlari «hid bilish sohasining shilliq pardasiga botib turadi.

Hidli moddalar sezuvchi nervni qo‘zg‘aydi, bu qo‘zg‘alish bosh miyaga o‘tadi, natijada biz turli hidlarni sezamiz. Hid bilish markazi bosh miya yarim sharlari orqa yuzasining pastki qismida deb faraz qilinadi.

Hidli moddalar hid bilish hujayralariga faqat gaz holatidagina ta’sir etadi va kimyoviy reaksiya yo‘li bilan ularni qo‘zg‘aydi. Ma’lumki, hidli moddalarning hammasi bug‘lanadi va eriydi. Gaz holatidagi moddalar nafas olinadigan havo bilan burun kavagiga kiradi.

Ta’m bilish (maza) sezgilari

Ta'm bilish sezgilariga shirin-achchiq, nordon-shirin his qilish kiradi. Shu asosiy ta'm bilish sezgilaridan tashqari, umumiy klassifikatsiyasi bo'lmagan juda ko'p va xilma-xil ta'm bilish sezgilari ham bor. Hid bilish sezgilari kabi ta'm bilish sezgilari ham, muayyan ta'mli narsa yoki moddalarning nomi bilan ataladi. Masalan, sutning mazasi, yog'ning mazasi, go'shtning mazasi, nonning mazasi va hokazo deb ataymiz.

Ta'm bilish sezgilarining organi – tilning yuzasi va tanglayning yumshoq qismidir. Tilning shilliq pardasida maxsus ta'm bilish so'rg'ichlari bor.

Ularning ichida tayoqchasimon hujayralardan tuzilgan maxsus ta'm bilish «kurtaklari» yoki «sugonlari» bor. Har bir ta'm bilish sezgisining o'ziga xos tuzilgan «sugoni» bo'ladi. Spetsifik sifatlari bilan farq qiladigan bu ta'm bilish sugonlari til yuzasida bir tekisda taqsimlangan emas. Tilning asosiy yoki orqa qismi achchiq mazani, ayniqsa, yaxshi sezadi, til uchi, asosan, shirin mazani, ayniqsa, yaxshiroq sezadi, tilning chetlari esa nordon mazani yaxshiroq sezadi. Tilning o'rtasi ta'm sezmaydi. Ta'm bilish organlarining hujayrali qismlarida maxsus sezuvchi nervlarning chekka uchlari bor, bular maza (ta'm) bilish organidagi qo'zg'alishni bosh miyaga o'tkazadi. Ta'm bilish organining miyadagi markazlari hid bilish markazlarining yaqinidadir, deb faraz qilinadi.

Ta'm bilish sezgilari moddalarning kimyoviy xossalari tufayli hosil bo'ladi. Ta'm bilish sugonlari faqat suyuq suvda yoki so'lakda erigan moddalar ta'siri ostida qo'zg'aladi (masalan, qand eriy boshlashi bilangina shirin mazasi sezilarli bo'lib qoladi. Hid va ta'm bilish sezgilari bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Hid bilish sezgilari ham, ta'm bilish sezgilari ham sezgi organlariga kimyoviy moddalarning ta'sir etishi natijasida hosil bo'ladi. Ammo ta'm bilish sezgilarini hosil qilmoq uchun o'sha ta'mli narsa bevosita totib ko'rilmog'i kerak, hidli narsalarning isi esa uzoqdan ham sezilaveradi.

Teri sezgilari

Teri sezgilariga tuyush va harorat sezgilari kiradi, bu sezgilarning teri sezgilari deb atalishiga sabab shuki, bu sezgilarning chekka nerv apparatlari (retseptorlar) terida va organizmimizning tashqi shilliq pardalarida bo'ladi.

Tuyush sezgilari – tegish, tarqalishni tuyush sezgilari yoki (21-rasm) tuyush tanachalari. Taktil sezgilar, shuningdek, silliq yoki g'adir-budurni tuyush sezgilaridir. Biror narsaning tegishini sezish tashqi ta'sir (qo'zg'alish) kuchayganda siqiq sezishga aylanadi. Qo'zg'alish yanada kuchayganda siqiq og'riq sezgisiga aylanishi mumkin. Ammo terida seziladigan har qanday ortiq teriga ta'sir etadigan tashqi qo'zg'alishga

bog‘liq bo‘lavermaydi, albatta.

Tuyush sezgilari organi – teridagi va tashqi shilliq pardalardagi tuyush tanachalari degan maxsus tanachalardir. O‘sha tanachalarning ichida, qisman esa tashqarisida (bevosita epiteliyda) tuyush nervining chekka tarmoqlari bor. Ular terida va gavdamizning shilliq pardalarida bir tekisda taqsimlangan emas. Bu tanachalar barmoqlarning uchida, til uchida, labda zich joylashgandir. Shuning uchun ham gavdamizning ana shu qismlari tekkan narsani, silliq va g‘adir-budurni boshqa qolganlaridan eng ko‘p sezgiridir. Tuyush tanachalari orqa terisida juda siyrakdir. Tuyush tanachalari va sezuvchi nervning chekka tarmoqlari nechog‘li zich taqsimlanganligi esteziometr nomli maxsus asbob yordami bilan aniqlanadi.

Bu asbob keriladigan ikkita oyoqli sirkuldan iborat. Sirkul o‘zagidagi darajalar oyoqchalarning uchlari o‘rtasidagi masofani ko‘rsatib beradi. Biron masofada kerilgan ikki oyoqcha bir vaqtda tekkanda, tekshiriluvchi kishi ikki yoki bir nuqtani sezayotganligini sinab ko‘rish mumkin. Barmoqlarning uchlarida 1 mm dan 2 mm gacha masofada, qo‘l kaftida 10 mm masofada, orqada esa 60–70 mm masofada bir yo‘la ikki oyoqcha tegayotganligini sezish mumkin ekanligi shu yo‘l bilan aniqlangan. Oyoqchalar o‘rtasidagi masofa kamaytirilganda terining o‘sha qismlaridagi ikki ta’sir bir-biridan farq qilinmay, bitta ta’sir deb seziladi (Bir yo‘la ikki ta’sir faqat bitta ta’sir deb seziladigan teri qismlari «sezgi doiralari» deb ataladi).

Tuyush markazi bosh miya po‘stining orqadagi markaziy pushtasida deb faraz qilinadi. Tuyush sezgilarining tashqi, fizik sababi biron-bir buyumlarning teriga bevosita tegishidir. Bunda biz narsaga tegish bilan birga uni paypaslasak, uning bilan biron ish qilsak, tuyush sezgisi hiyla oshadi.

Bunday hollarda tuyush organlari muskul-harakat organlari bilan birgalikda ishlaydi. Harakat bilan bog‘liq sezgilar (bu haqda quyidagi bo‘limda so‘zlanadi) taktil sezgilar ila birga qo‘shilganda, narsalarning asosan, silliq yoki g‘adir-budur ekanligi bilinadi. Tuyush sezgisida va paypaslashda qo‘l, jumladan, qo‘l barmoqlari, ayniqsa, katta rol o‘ynaydi. Odamning faoliyatida, tevarak-atrofdagi olamni bilishida qo‘l tuyush va paypaslashning maxsus organi bo‘lib xizmat qiladi.

Harorat sezgilariga issiq va sovuqni sezish kiradi. Terida va shilliq pardalarda maxsus tanachalar bor, ularning ichida issiqni yoki sovuqni sezadigan maxsus nervlarning chekka tarmoqlari bo‘ladi.

Harorat sezgilarining tashqi sababi biron haroratga ega bo‘lgan qattiq, suyuq va gazsimon jismlarning organizmimizga tegib turishidir. Issiqni yoki sovuqni ayirish terimizga tegib turgan narsa (qo‘zg‘ovchi) harorati bilan badan harorati o‘rtasidagi nisbat bilan belgilanadi. Agar qo‘zg‘ovchining harorati badanimiz yuzasining haroratidan pastroq bo‘lsa,

sovuq sezamiz, agar qo‘zg‘ovchining harorati badan haroratidan yuqoriroq bo‘lsa issiq sezamiz. Issiq yoki sovuqning farqiga borish biz haroratini sezayotgan jismlarning issiq o‘tkazuvchanligiga ham bog‘liq. Shu sababli, baravar haroratda, masalan, 10 gradus sovuqda yaxshi o‘tkazgich (masalan, temir) yomon o‘tkazgichga (masalan, yungga) qaraganda sovuqroq bo‘lib tuyuladi. Harorat sezgilari faqat (odam organizmiga nisbatan) tashqaridagi narsalar ta’siri bilangina emas, balki organizmning ichida asosan, qon aylanishining kuchayishi yoki susayishi natijasida ham hosil bo‘lishi mumkin. Shu sababli, masalan, odam qattiq qo‘rqqanda ba’zan «Qo‘rqqanimdan dir-dir titrab ketdim» deydi, qattiq uyalganda esa: «Uyalganimdan istmam chiqib ketdi» deydi. Birinchi holda qon tomirlari torayadi, ikkinchi holda esa kengayadi.

Proprioretseptorlar

Muskul-harakat sezgilari **motor sezgilar** yoki **kinestetik sezgilar** deb ham ataladi. Bu xil sezgilarga tazyiq (og‘irlik)ni bilish sezgilari, qarshilikni (qattiqlik, yumshoqlikni) bilish sezgilari va ayrim organlarning harakatini bilish sezgilari kiradi. Bu sezgilarning organlari – gavdamizdagi hamma muskullar, paylar va bo‘g‘im yuzalaridir. Hamma muskullarda, paylarda va bo‘g‘imlarda maxsus sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari bor, muskul-harakat sezgilari va statik sezgilar ana shu nerv tarmoqlari yordami bilan hosil bo‘ladi.

Muskul-harakat sezgilarining tashqi, fizik sababi muskullarimizga ta’sir etuvchi narsalarning mexanik tazyiqi yoki qarshiligi, shuningdek, gavdamizning harakatlaridir. Shu sabablar ta’sirida muskullar, paylar, boylamlar va bo‘g‘im yuzalarida ishqalanish, taranglashish, cho‘zilish, qisilish hodisalari yuz beradi. Bularning hammasini biz tazyiq, qattiqlik, og‘irlik, yumshoqlik deb his qilamiz.

Statik sezgilar gavdamizning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgilari deb ataladi. Gavdaning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgisi uchun ichki quloqdagi vestibulyar apparat retseptor vazifasini o‘taydi. Quloq dahlizi va yarim doira kanallar vestibulyar apparat tarkibiga kiradi. Yarim doira kanallarni to‘ldirgan endolimfada sezuvchi nerv tarmoqlari bor, bu nerv gavdamizning fazodagi harakatini va holatni idora etadi. Gavdamiz turli harakatlar qilganda endolimfa tebranib, ana shu nervni qo‘zg‘aydi. Gavda muvozanatini saqlashda **otolitlar** katta rol o‘ynaydi. Otolitlar – endolimfada otolit pardasi deb ataluvchi maxsus pardaning ustida suzib yuradigan mayda ohaktosh kristallaridan iboratdir.

Organizm, asosan, avtomatik suratda refleks yo‘li bilan muvozanat saqlaydi, gavdamizning biron holati muvozanat buzilgandagina, ayniqsa, ravshan seziladi (bilib olinadi). Muvozanat organi zararlanganda odam

biron organining (yoki butun gavdasining) holatini bila olmaydi va yurganda muvozanat saqlay olmaydi. Gavdamiz holatining sezilishida ko‘rish, harakat (kinestetik) sezgilari bilan teri sezgilari ham katta ahamiyatga egadir.

Interoretseptorlar

Ochiqqanda, suvsaganda, ortiq to‘yib ketganda, charchaganda, ko‘ngil ayniganda, ichki organlarimiz og‘riganda ichki sezgilar tug‘iladi, bularni **organik sezgilar** deyiladi; kishining o‘zini tetik, salomat, kasal his qilishlari ham organik sezgilar jumlasidandir. Organik sezgilarning ko‘pi differensiatsiyalanmagan va betayin bo‘ladi. Bu sezgilarning retseptorlari ichki organlarda: qizilo‘ngach, me’da, ichak, qon tomirlari, o‘pka va shu kabilarda bo‘ladi.

Yuqorida aytganimizdek, ichki organlarda bo‘lib turadigan jarayonlar **organik sezgilar retseptorlarining qo‘zg‘ovchilaridir**. Ammo ichki organlar salomat bo‘lib, sog‘lom ishlab turgan vaqtda biz ichki (organik) sezishlarni yo payqamaymiz yoki bu sezgilar o‘zimizni umuman «yaxshi» his qilish — tetiklik, sog‘lomlik va boshqa shu kabi tuyg‘ular tarzida ifodalanadi. Ichki organlarimizning ishi izdan chiqqan taqdirda organik (ichki) sezgilar, ayniqsa, aniq bilinadi. Masalan, chanqov, ochlik, to‘yib ketish sezgilari, ichki organlarda og‘riq his qilish sezgilari, ko‘ngil aynish sezgilari shundaydir.

Organik sezgilar ko‘pincha xush va noxush tuyg‘ular qo‘zg‘atadi, kuchli hissiy tonda namoyon bo‘ladi. Masalan, kishi och qolganda yoki biron yeri og‘riganda o‘zini nihoyat darajada «yomon» sezadi, azob chekadi, ammo kishi salomat bo‘lib, hech yeri og‘rimasa yoki to‘yib yaxshi ovqat yesa «huzur» qiladi — o‘zini nihoyatda «yaxshi» sezadi.

3. Sezgi xususiyatlari va qonuniyatlari

Sezgilar o‘ziga xos xususiyat va qonuniyatlarga ega. Sezgi xususiyatlariga sezgilarni paydo bo‘lish tezligi davomiyligi va sifati kiradi. Sezgining qonuniyatlariga sezgirlik, adaptatsiya, sinesteziya, sensibilizatsiya va sezgilardagi kompensatorlik hodisasi kiradi.

Sezgilar biror-bir sezgi organining qo‘zg‘alishi natijasida hosil bo‘ladi. Ammo qo‘zg‘ovchi retseptorga ta’sir eta boshlashi bilanoq, darrov sezgi tug‘ilavermas ekan: qo‘zg‘ovchi ta’sir eta boshlagandan bir necha vaqt keyingina sezgi hosil bo‘ladi. Turli sezgilarda bu vaqt 0, 02 soniyadan 0, 1 soniyagacha boradi. Shunday qisqa vaziyatni biz, odatda, payqamaymiz. Sezgi hosil bo‘lgach, ma’lum muddat davom etadi. Sezgilar davom etish muddatiga qarab, qisqa va uzoq muddatli sezgilarga bo‘linadi. Masalan, yalt etib chaqnagan bir uchqun yorug‘ligini sezish yoki yerga tushib ketgan qalam tovushini sezish qisqa muddatli sezgilardan hisoblanadi.

Kunduzgi yorug‘likni sezish, zavodning yangrayotgan gudok ovozini eshitish uzoq muddatli sezgilardandir. Sezgilarning qancha muddat davom etishi tashqaridagi narsalarning sezgi organlariga nechog‘li uzoq ta’sir etishiga bog‘liq. Narsa ta’sir etib turar ekan, tegishli sezgi ham bo‘ladi. Ammo narsaning ta’sir eta boshlashi va sezgining hosil bo‘lishi bir vaqtga to‘g‘ri kelmagani singari, narsa ta’sirining to‘xtashi va sezgining yo‘qolishi ham mutlaqo bir vaqtga to‘g‘ri kelmaydi. Narsa ta’sir etmay qo‘ygani holda sezgi yana bir necha vaqt davom etaveradi. Torning ovoz chiqarishi to‘xtatilganiga qaramay, tovushni sezish yana bir necha vaqt davom etadi. Bunday sezgilar **tutilib qolgan yoki izma-iz obrazlar** deb ataladi. Tutilib qolgan obrazlar 0, 05 soniyadan 1 soniyagacha (ba’zan bundan ham ortiq) davom etadi.

Yuqorida aytilgan ko‘rish sezgilaridagi kontrast va izma-iz obrazlarning paydo bo‘lishi sezgilarning hosil bo‘lish tezligiga va davom etish muddatiga taalluqli qonuniyatlar bilan izohlanadi. Sezgilarning shunday xususiyatlari borligidan tezlik bilan almashinuvchi qo‘zg‘ovchilar bir-biri bilan ketma-ket keluvchi yakka narsalar sifatida sezilmasdan, harakatdagi bir narsa bo‘lib seziladi. Kinokartinani ko‘rish jarayoni sezgilarning shu xossasiga asoslangan.

Sezgi sifati uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. U sezgi turlarining xususiyatlari bilan farqlanadi. Agar eshitish sezgilari tovushning balandligi, tembrli bilan farqlansa, ko‘rish sezgilari ranglarning quyuqligi, toni, tovlanishi, jilosi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, sezgilar uchun qo‘zg‘ovchining fazoda joylashgan o‘rni (lokalizatsiyasi) muhimdir. Agar qo‘zg‘ovchilar qanchalik sezgi a’zolariga bevosita ta’sir etib turgan bo‘lsa, biz shunchalik uning ta’sirini tezlik bilan payqab olamiz.

Distant, ya’ni masofa retseptorlari tomonidan amalga oshiriladigan fazoviy tahlil bizga qo‘zg‘atuvchining fazodagi o‘rni haqida ma’lumot beradi. Kontakt sezgilari: taktil, og‘riq, maza badanning qo‘zg‘atuvchi ta’sir qilayotgan joyi bilan bog‘liqdir. Bunda og‘riq sezgilarining lokalizatsiyasi, ya’ni badanda joylashgan o‘rni taktil sezgilarga qaraganda badanga anchagina tarqalgan, lekin unchalik aniq darajada emas.

Sezgi chegaralari va sezgirlik

Sezgilarning kuchi turli darajada bo‘lishi mumkin, boshqacha qilib aytganda kuchsiz va kuchli sezgilar bor. Yonib turgan bir gugurt cho‘pi sochib turgan yorug‘likni sezish kuchsiz sezgiga, havo ochiq kunda quyosh sochib turgan yorug‘likni sezish esa kuchli sezgiga misol bo‘la oladi. Sezgilarning kuchi avvalo qo‘zg‘alishning kuchiga bog‘liq. Qo‘zg‘alish qancha kuchli bo‘lsa, hosil bo‘ladigan sezgi ham shuncha kuchli bo‘ladi. Odatdagi kuzatishlardan ham, maxsus tekshirishlardan

ham ma'lumki, har qanday ta'sirdan sezgi hosil bo'lavermaydi. Qo'zg'ovchi hech qanday sezgi hosil qila olmaydigan darajada sust ta'sir etishi mumkin. Masalan, bir gramm qandni bir stakan suvda eritib ichilsa, hech qanday shirin maza sezilmaydi. 0, 1 *kv sm* keladigan kattagina qog'oz qo'l kaftiga qo'yilsa, hech qanday og'irlik sezmaymiz. Buning sababi shuki, kuchsiz qo'zg'ovchilar ta'siri bilan hosil bo'ladigan qo'zg'alish bosh miya po'stiga yetib bormaydi. Bu qo'zg'alish hali differensiallanmagan, arang bilinadigan dastlabki sezgini hosil qilmoq uchun ta'sir muayyan kuchga ega bo'lishi kerak. Qo'zg'alishning **salgina sezila boshlagan darajasini sezgining pastki yoki absolut chegarasi deyiladi**. Agar shu qo'zg'alish kuchi salgina susaytirilsa ham sezgi yo'qoladi. Sezgi hosil qilmaydigan kuchsiz qo'zg'alishlar sezgi chegarasidan pastda turuvchi qo'zg'alishlar deb ataladi.

Sezgi hosil qiladigan qo'zg'alishning kuchi o'zgarishi, ya'ni ortishi yoki kamayishi mumkin. Qo'zg'alish o'zgarganda sezgi kuchi ham o'zgaradi (oshadi yoki kamayadi). Agar uyda bitta lampochka yonib turgan bo'lsa, muayyan darajada yorug'lik sezamiz. Agar yana bir shunday lampochka yoqib qo'yilsa, yorug'lik sezgisi kuchayadi. Qo'limizdagi bir kilogramm og'irlikka yana bir kilogramm og'irlik qo'shsak, og'irlik sezgisi kuchliroq bo'lib qoladi. Ammo qo'zg'alish kuchining har bir o'zgarishi sezgining kuchini o'zgartira olmas ekan. Sezgilarning kuchi qo'zg'alish muayyan miqdorda oshganda yoki kamaygandagina o'zgarar ekan. Masalan, bir stakan suvda 6 g qand eritsak, muayyan darajada shirin maza sezamiz. Eritilgan shu qandga yana 1 g qand qo'shsak, shirin mazani bilish sezgisi o'zgarmaydi. Shirin mazani bilish sezgisi birmuncha ortishi uchun 6 g qandga yana 2 g qand qo'shish (ya'ni, butun qand miqdorining uchdan biricha qand qo'shish) kerak ekan.

Qo'zg'ovchilar ta'siri o'rtasidagi sezilar-sezilmas salgina farqni sezishni **farq qilish chegarasi** deyiladi.

Qo'zg'alish kuchi shunchalik orta borishi mumkinki, bunda tegishli sezgi o'zining spetsifik sifatini yo'qotadi va og'riq hissiga aylanadi. Chunonchi, haddan tashqari kuchli yorug'lik ko'zda og'riqni keltirib chiqaradi – «ko'zni qamashtiradi». Kuchli tovush quloqni og'ritadi. Haddan tashqari og'ir narsa muskullarni og'ritadi va shuning singarilar.

Qo'zg'alish kuchining o'zgarishi bilan sezgi sifatidagi og'riq tomon (yoqimsiz) ro'y bergan sezilar-sezilmas o'zgarishga **sezgining yuqori chegarasi** deyiladi.

Shunday qilib, qo'zg'alish kuchining o'zgarishi bilan sezgi kuchining o'zgarishi o'rtasida parallellik va to'g'ri proporsionallik yo'q ekan. Qo'zg'alish kuchiga nisbatan sezgi kuchi sekinroq o'zgarar ekan. Bunday hodisalarning fiziologik sababi, aftidan, shunday bo'lsa kerakki, ma'lum bir qo'zg'ovchining kuchi sezilar-sezilmas o'zgarganda hosil bo'lgan

qo‘zg‘alish ayni shu qo‘zg‘ovchining kuchi ma’lum darajaga yetmaguncha differensiallanmaydi, ya’ni sezgining o‘zgarganligi bilinmaydi, farq qilinmaydi. Farq qilish chegaralari qo‘zg‘alish kuchiga bog‘liq bo‘lishdan tashqari, boshqa sabablarga ham bog‘liq. Masalan, eshitish sezgilarida farq qilish chegaralari tovushning balandligiga bog‘liq bo‘lsa, ko‘rish sezgilarida ranglarni (va tuslarni) ajratishga, taktil sezgilarda tegish nuqtalari o‘rtasidagi masofaga bog‘liq.

Sezgi chegaralarining darajasi (yoki, boshqacha aytganda, yuqoriligi) sensor sezgirlikning darajasini belgilab beradi. **Bu sezgirlik sezgi chegaralarining darajasiga teskari nisbatda bo‘ladi**. Sezgi chegarasining darajasi qancha yuqori bo‘lsa, sezgirlik shuncha zaif (past) bo‘ladi va aksincha, sezgi chegarasining darajasi qancha past bo‘lsa, sezgirlik shuncha kuchli bo‘ladi. Sezgi chegaralariga qarab, absolut sezgirlik va farq qilish sezgirligi ajratiladi. Sezgirlik darajasi yana **sezgi o‘tkirligi** deb ham ataladi; masalan, o‘tkir, nozik sezgirlik deb gapiriladi, masalan: ko‘rish o‘tkirligi, eshitish o‘tkirligi deb aytiladi.

Adaptatsiya

Sezgi organlarining o‘ziga ta’sir etadigan qo‘zg‘ovchilarga moslanishi, ko‘nikishi **adaptatsiya** deb ataladi. Qo‘zg‘ovchining ta’siri o‘zgarishi bilan sezgirlik ham o‘zgaradi. Qo‘zg‘ovchilar sust ta’sir etganda sezgirlik oshadi, kuchli ta’sir etganda sezgirlik kamayadi. Shu sababli, musbat va manfiy adaptatsiya farq qilinadi.

Adaptatsiya ko‘rish sezgilarida, ayniqsa, yorug‘ joydan qorong‘i joyga kirganda va aksincha – qorong‘i joydan yorug‘ joyga chiqqanda yaqqol ko‘rinadi. Masalan, yorug‘ joydan qorong‘iroq binoga kirganimizda avvaliga hech narsani ko‘rmaymiz. Ko‘rish organimiz kuchsiz yorug‘likka moslashguncha bir necha vaqt o‘tadi. Bu – **qorong‘ilik adaptatsiyasidir**. Eksperimental tekshirishlardan olingan ma’lumotlarga qaraganda, qorong‘ida yorug‘likka sezgirlik yorug‘ joydagi sezgirlikka nisbatan 200 ming marta (bir soat mobaynida) oshadi. Qorong‘idan yorug‘ga chiqqanda ham ko‘rish organlari yorug‘likka yana moslashuvi uchun bir necha vaqt (taxminan 4 daqiqadan 5 daqiqagacha fursat) kerak. Bu **yorug‘lik adaptatsiyasidir.**

Qorong‘ilik adaptatsiyasida sezgirlikning juda ham ortib ketish sababi avvalo shundaki, yorug‘dan qorong‘iga kirganda ko‘z qorachig‘ining sathi 17 marta kengayadi, binobarin, ko‘z qorachig‘i yorug‘ni 17 marta ko‘proq o‘tkazadi. Ammo sezgirlikning 200 ming marta ortish sababini tushuntirib berish uchun bu kamlik qiladi, albatta. Bu yerda kolbachalar vositasi bilan ko‘rishdan tayoqchalar vositasi bilan ko‘rishga o‘tishning katta ahamiyati bor. Tayoqchalar yorug‘likni kolbachalarga qaraganda yaxshiroq sezadi. Qorong‘ida ko‘rish purpuri ko‘proq turadi, natijada

yorug‘likni ko‘rish sezgirligi oshadi.

Adaptatsiya harorat sezgilarida ham bor. Biz cho‘milish uchun suvga tushganimizda yoki dush tagida turganimizda dastlabki paytda suv sovuqroq tuyuladi, bir necha daqiqadan keyin esa o‘sha suv unchalik sovuq sezilmaydi va hatto iliqroq seziladi.

Hid bilish sezgilarida adaptatsiya tezroq boshlanadi. Masalan, biron hidi bor uyga kirganimizda avvaliga shu hidni sezamiz, bir necha vaqtdan so‘ng hidni sezmay qolamiz. Qilingan tajribalar hid sezilmay qoladigan darajada to‘liq adaptatsiya, chunonchi: yodning hidiga 50–60 soniyadan keyin, kamfaraning hidiga 1, 5 daqiqadan keyin hidi o‘tkir sirga (pishloqqa) 8 daqiqadan keyin paydo bo‘lishini ko‘rsatadi. Hid bilish sezgirligi adaptatsiyadan keyin to‘la tiklanishi uchun 1 daqiqadan 3 daqiqagacha tanaffus kerak bo‘ladi.

Tegish yoki zaif tazyiq sezgilarida adaptatsiya kuchliroq ko‘rinadi. Ko‘pincha biz kiyim-kechakning badanimizga tegib va tazyiq qilib turganini sezmaymiz, doim taqib yuradigan ko‘zoynagimiz chakkamizga botayotganini sezmaymiz. Narsa badanimizga tekkandan 3 soniya keyinroq sezgi kuchi qo‘zg‘ovchining ta’siri bilan hosil bo‘ladigan sezgi kuchiga nisbatan beshdan biricha kamayishi tekshirishlardan ma’lum.

Adaptatsiya ko‘rish, harorat, hid bilish sezgilarida kuchliroq, eshitish va og‘riq sezgilarida kamroq bo‘ladi. Boshqa sezgi organlari ishlab turganda ayrim sezgi organlarining adaptatsiya jarayoni tezlashuvi mumkin. Masalan, harorat (sovuq), ta’m bilish, muskul retseptorlari va ichki organlardagi retseptorlar ta’sirlanganda ko‘rish va eshitish sezgirligi tezroq kuchayadi. Olimlar o‘tkazgan bir qancha tajribalar shuni ko‘rsatadiki, sovuq suvga latta xo‘llab yuz va bo‘yinni artganda (issiq faslda), jismoniy tarbiya mashqlariga o‘xshash tipdagi yengil ishda – nafas olish tezlashganda va kuchayganda eshitish va ko‘rish sezgirligi oshadi, musbat adaptatsiya tezlashadi. Shunday vositalardan foydalanib, qorong‘ilik adaptatsiyasini odatdagidek 40–50 daqiqada emas, balki 5–6 daqiqada tezlatish mumkin.

Sinesteziya

Ba’zi kishilarning sezgilarida sinesteziya degan hodisa ko‘riladi. Sinesteziya – ikki sezgining yaxlit bir sezgi bo‘lib qo‘shilishi demakdir. Sinesteziyada sezgilardan birontasi muayyan paytda bevosita ta’sir etuvchi qo‘zg‘ovchiga ega bo‘lmaydi, balki qaytariladi. Sinesteziyaning ko‘proq uchraydigan shakli «rangdor eshitish» deb ataladigan hodisadir. Bunda tovush sezgisi (shovqin, ton, musiqali akkord) ko‘rish obrazini, ya’ni yorug‘lik yoki rang tasavvurini uyg‘otadi.

Kompozitorlardan A. Skryabin, F. List, N. Rimskiy-Korsakovda «rang-

dor eshitish» qobiliyati bo‘lganligi ma’lum. Ularga har bir tovush muayyan rangli bo‘lib tuyulgan. Masalan, Skryabin «do»da «iroda baxsh etuvchi qizil rang» bor, «re»da «nurafshon sariq rang» bor, «mi»da «havo rang» bor deb hisoblagan va hokazo.

Sinesteziya kishilarning taxminan 12 foizida uchraydi, «rangdor eshitish» kishilarning 4 foizida ko‘riladi. Sinesteziya hodisalarini ko‘rsatadigan ayrim so‘zlarni adabiy tildan topish mumkin. Masalan, «istarasi issiq», «basharasi sovuq», «yumshoq ko‘ngil», «tosh yurak», «shirin so‘z», «sassiq so‘z» deb gapiradilar va hokazo.

Sinesteziyaning mohiyati hali to‘liq aniqlanganicha yo‘q. Sezgilarning har xil turlariga xos bo‘lgan hissiy (emotsional) momentning umumiyligi tufayli sinesteziya ro‘y beradi, deb hisoblanadi. Qanday bo‘lmasin biron sezgi (masalan, tovush sezgisi) bo‘lganda umumiy hissiy moment assotsiatsiya yo‘li bilan boshqa bir tasavvurni, masalan, rang tasavvurini tug‘diradi.

Sinesteziyaning fiziologik negizi, aftidan, shunda bo‘lsa kerakki, bosh miya po‘stining ayrim markazlari o‘rtasida shartli bog‘lanish hosil bo‘lib, mustahkam o‘rnashib qoladi.

Sensibilizatsiya va sezgilarning kompensatorlik hodisasi

Mashq qilish natijasida sezgirlik o‘zgaradi. Analizatorlarning o‘zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgirlikning kuchayishini sensibilizatsiya deb ataladi. Mashq qilish muayyan qo‘zg‘ovchilar ta’sirida bosh miya po‘stidagi qo‘zg‘oluvchilikni ortishiga sabab bo‘ladi va shu sabab bilan sezgirlik kuchaya boradi. Bu esa ko‘rish eshitish, teri va boshqa sezgilarda odatdagi sharoitdan ko‘ra ravshanroq sezishga sabab bo‘ladi. Sensibilizatsiyaning nerv fiziologik mexanizmi analizatorlarning markaziy qismlari joylashgan bosh miya po‘stidagi qo‘zg‘alishining irrodiatsiya (yoyilish) hamda konsentratsiya (markazlashuv, to‘planish) jarayonidir. Fiziolog I. P. Pavlov ta’limotiga ko‘ra kuchsiz qo‘zg‘atuvchi bosh miya katta yarim sharlarining po‘stida oson irrodiatsiyalangan (oson yoyilib ketgan) qo‘zg‘alish jarayonini yuzaga keltiradi. Qo‘zg‘alishning irrodiatsiyasi boshqa analizatorlarning sezgirligini oshiradi va ayni bir markazda konsentratsiya jarayoni yuzaga keladi va sezgirlik ortadi. Mashq qilish jarayoni sezgirlikni oshiradi. Aks holda u susayishi, o‘tkirlanishi yoki zaiflashishi mumkin.

Sezgi a’zolarining sensibilizatsiyasi faqat yordamchi qo‘zg‘ovchilarning qo‘llanishi bilangina sodir bo‘libgina qolmay, balki mashq qilish yo‘li bilan sodir bo‘ladi. Sezgi a’zolarini mashq qildirish va ularni takomillashtirish imkoniyati muhimdir. Sezgi a’zolarining sezgirligini oshirishni ikki sohaga bo‘lish mumkin.

1) Faoliyat mazmuni hamda odam kasbining maxsus talablari bilan

yuzaga keltirilgan sensibilizatsiya. (M: yaxshi zargar bo‘lish uchun tinmay mashq qilish orqali kasbni takomillashtirish) va 2) sezgi a’zolarining nuqsonini qoplashga stixiyali tarzda olib keladigan sensibilizatsiya. Masalan: ba’zan ba’zilar onadan tug‘ma ko‘r, kar kabi kamchiliklar bilan tug‘iladilar. Bunda shu kamchilik bo‘lgan a’zoning ishini ma’lum darajada boshqa sezgi a’zolari to‘ldiradi. Ko‘zdan mahrum bo‘lgan kishida tuyish (tekkanni sezish) sezgisi, eshitish sezgisi yuksak darajada rivojlangan bo‘ladi. Eshitish sezgisidan mahrum bo‘lgan kishilarda havo tebranishini sezish shu darajada rivojlangan bo‘ladiki, ulardan ba’zilari hatto musiqa «eshita» oladilar. Bunday paytda ular qo‘llarini musiqa asbobining ustiga qo‘yib turadilar yoki orkestrga orqalarini o‘girib o‘tiradilar. Qulog‘i kar, ko‘zi ko‘r Diffektologiya institutining sobiq dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi Olga Skoraxodova ham konsert, kino va teatrlarga borib orqasini sahnaga qaratib o‘tirib ularni sog‘ kishilar qanday idrok qilsa u ham shunday idrok qilgan, undan ijobiy tuyg‘ular hosil qilib, maroq bilan tinglagan. Uning oldiga bir qancha ro‘znoma (gazeta)lar qo‘yib, ular qanday gazeta deb so‘ralganda u ro‘znomalarni barmoqlari bilan paypaslab ularni nomini aytib bergan. Demak, kar, ko‘r va boshqa sezgilardagi kamchiliklarni o‘rnini yana boshqa sezgilar to‘ldiradi. Buni psixologiyada kompensatorlik hodisasi deb ataladi. Ba’zi ko‘rlarda hid bilish sezgisi kuchli, yo‘ldagi to‘sqinliklarga nisbatan masofa sezgirligi kuchlidir. Demak, shaxsda qaysi sezgi a’zosi ishlamasa uning o‘rnini boshqa sezgi a’zolari to‘ldiradi. Shu orqali inson dunyoni ongida aks ettiradi, uni bilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki u orqali tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni ya’ni moddiy dunyoni bilib olamiz. Shuning uchun ham sezgi moddiy dunyoni bilish manbayidir.

II BOB. IDROK

1. Idrok to‘g‘risida umumiy tushuncha

Biz narsa va hodisalarning ayrim sifat va xossalarini sezgilar orqali ongimizda aks ettiramiz. Shuningdek, hamisha narsalarning ayrim xossalarini aks ettiruvchi birtalay sezgilarimiz bo‘ladi. Bu sezgilar asosida atrofimizdagi narsa va hodisalarni idrok qilamiz.

Idrok deb, narsa va hodisalarni bizning sezgi a’zolarimizga ta’sir etishi natijasida ularni yaxlitligicha ongimizda aks etishidan iborat bilish psixik jarayoniga aytiladi. Biz bir narsani idrok qilayotganimizda uning ayrim xossalarini ham sezamiz.

Biror narsaning o‘zini idrok qilmasdan hosil bo‘ladigan sezgilar yangi tug‘ilgan chaqaloq hayotining dastlabki kunlaridagina mavjud bo‘lsa kerak; chaqaloq narsaning o‘zini idrok qila bilmasa ham undan hosil bo‘ladigan sezgilarni ajratadi, masalan, yorug‘ va qorong‘ini, shirin va nordonni sezadi. Odamning murakkab psixik hayotida ayrim sezgilar faqat idrok **jarayonida** fikrni analiz va abstraktlashtirish yo‘li bilan ajratiladi.

Sezgilar, odatda sodda, elementar psixik jarayonlar deb hisoblanadi, idrok esa murakkab psixik jarayondir. Biz idrok qilayotgan narsalar g‘oyatda xilma-xildir. Bular jumlasiga, avvalo turli buyumlar, chunonchi, binolar, daraxtlar, jihozlar, texnika buyumlari va hokazolar kiradi. Biz musiqa, surat, rasm va boshqa san’at asarlarini idrok qilamiz. Odamning hayotida nutqni — og‘zaki va yozma nutqni idrok qilish eng katta va muhim o‘rin tutadi.

Atrofimizdagi narsa va hodisalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki hamma vaqt idrok qilinib turgan narsa boshqa narsalar bilan makon va vaqt jihatdan bir-biri bilan bog‘langan holda idrok qilinayotganini har bir kishi o‘z kundalik tajribasidan yaxshi biladi. Masalan, stolni idrok qilayotganimizda biz uning joyini, atrofini o‘rab olgan stullarni, shu paytda radiodan eshitilayotgan musiqani ham idrok qilamiz, xona ichidagi radiopriyomnikni ham, kishilarni ham bir vaqtda ko‘ramiz.

Biz narsa va hodisalarni makon va zamon sharoitida idrok qilamiz. Makon va zamon moddiy bog‘liq shakli sifatida, barcha boshqa reallikllar kabi idrok qilinadi. Buning ma’nosi shuki, biz narsalarni, ularga xos bo‘lgan fazodagi shakllari (kub, uchburchak, doira va hokazo shakllari)ga, fazodagi katta-kichikligi (katta, kichkina, mayda va hokazo)ga, fazodagi munosabatlari (bir-biriga va bizga nisbatan yaqin, uzoq, chap, o‘ng tomonda, yuqori va past turishlari)ga qarab idrok qilamiz, ular tinch yoki harakat holatlarida idrok qilinadi. Biz idrok qilib turgan narsa va hodisalarni ma’lum vaqt (zamon) davomida paydo bo‘lish va o‘zgarib borishlarida idrok qilamiz.

Idrokda idrok **jarayonini,** ya'ni ongimizning bevosita aks ettiruvchi faoliyatini va narsalarni idrok qilish (aks ettirish)dan hosil bo'ladigan subyektiv obrazni bir-biridan farq qilish lozim.

2. Idrokning murakkabligi

Idrok murakkab psixik jarayondir. Bu murakkablik, avvalo shundan iboratki, har bir idrok tarkibiga ayni vaqtda bir necha sezgi kiradi. Masalan, qovunni idrok qilish uning shaklini (uzunchoq va hokazo), rangini (ko'k, oq va hokazolarni) sezish — bu ko'rish sezgilar idrok, hidini sezish (hid sezgilari), shirin, chuchukligini sezish (maza sezgilari), og'ir-yengilligini, qattiq-yumshoqligini sezish (muskul sezgilari) va boshqa sezgilardan tarkib topadi. Idrok qilishda analiz yordamida ajratilgan shu ayrim sezgilar (retsepsiyalar) idrokning retseptiv tomonini tashkil qiladilar.

Shu xossalarning jamini sezishdan idrok qilayotgan narsaning dastlabki bevosita obrazi hosil bo'ldi, bu idrokning **perseptiv** tomonini tashkil qiladi. Bunda shu xossalar narsaning o'zida qanday bog'langan bo'lsa, ayni shu tarkibda seziladi. Shu sababli idrok qilinayotgan narsaning dastlabki obrazi ham sezgilarning mexanik jami (yig'indisi)dan iborat bo'lmay, balki yaxlit, bir butun bo'ladi.

Idrokning nerv-fiziologik mexanizmlari ham sezgilardagiga qaraganda ancha murakkabdir. Idrokning fiziologik asosi bosh miya po'stining analiz-sintez faoliyatidan iborat bo'lib, bu faoliyat sezgi organlarimizga ta'sir qilib turadigan narsa yoki hodisaning bitta xossasi bilan emas, balki bu xossalarning jami, butun bir kompleksi bilan vujudga keladi. Idrokning nerv-fiziologik mexanizmi narsalar xossalari jamining ta'siri bilan hosil bo'ladigan muvaqqat bog'lanishlar sistemasidan iboratdir. Har bir narsadagi xossalarning shu jamiga qarab, biz narsalarni bir-biridan farq qilamiz.

I. P. Pavlov qilgan tajribalardan ma'lum bo'ldiki, agar analizatorga bironta yakka qo'zg'ovchi emas, balki qo'zg'ovchilarning jami muntazam ta'sir qilib tursa, bundan tug'iladigan reaksiya har bir qo'zg'ovchining o'z xususiyatiga qarab emas, balki bu qo'zg'ovchilarning o'zaro qanday bog'lanishiga, o'zaro munosabatiga qarab tug'iladi. I. P. Pavlov bu hodisani munosabat refleksi deb atadi.

Bunday bog'lanishlarning ko'rish analizatorida hosil bo'lishi, masalan, muayyan bir figuralarning qanday rang bilan chizilganligi va kattakichikligidan qat'i nazar, ularning konturlarini topib olishga imkon beradi. Bunday bog'lanishlarning eshitish analizatorida hosil bo'lishi bironta kuyning baland yoki past (ingichka yoki yo'g'on) tonda ijro qilinishidan qat'i nazar, uni tanib olinishiga (bir xilda idrok qilinishiga) imkon beradi. Munosabat refleksi narsaning ayrim xossalarining o'zaro obyektiv bog'liqligini aks ettirishdan iboratdir.



22-rasm. *a* – uchburchak; *b* –doira.

Shunday qilib, idrok bitta sezgi organining ishi bo‘lavermay, balki boshqa bir qancha sezgi organlari, bir qancha analizatorlarning faoliyati mahsulidir. Lekin har bir idrokda sezgi organlaridan biri eng muhim o‘rin tutadi. Masalan, suratni idrok qilishda ko‘rish organi, musiqani idrok qilishda eshitish organi bosh o‘rinda turadi. Idrok ham sezgilar kabi, bosh o‘rinda turadigan ana shu organlarga qarab: ko‘rish, eshitish, hid, maza va boshqa idrok xillariga bo‘linadi. Bulardan hayotimiz uchun eng muhimlari ko‘rish bilan eshitish idrokidir.

Bulardan tashqari, idrokning yana aralash turi ham bor. Idrokning bu turida yolg‘iz bir sezgi organi emas, balki ikki, uch sezgi organi baravar muhim o‘rinda turadi. Ovozli kinofilm yoki operani idrok qilishda ko‘rish va eshitish sezgisi baravar muhim o‘rin tutishi aralash idrokka misol bo‘la oladi.

Idrokning mazmuni uning tarkibiga kirgan sezgilarning faqat oddiy jami yig‘indisidan iborat bo‘lib qolmaydi *(har bir idrok tarkibiga sezgilar kirishi bilan birga, odamning o‘tmishida hosil qilgan tajribalari va bilimlari ham kiradi)*. Masalan, 22 «a»-rasmni uchburchak va 22 «b»-rasmni doira deb idrok qilamiz, holbuki birinchi rasmda uchburchak emas, balki uch chiziq, ikkinchisida esa yarim doiradan boshqa narsa yo‘q. Birinchi rasmda yo‘q burchaklarni va ikkinchi rasmda yetishmagan tomonini o‘zimizdan, o‘z tajribamizdan olib «qo‘shamiz» va bu rasmlarni uchburchak va doira deb idrok qilamiz. Biz o‘tmishdagi tajribamizda uchburchak va doiralarni ko‘p marta ko‘rganmiz, bu figuralar bilan ko‘p marta ish ko‘rganmiz. Bu figuralarning obrazi miyamizda mustahkam o‘rnashib qolgan. Shu sababli, bu rasmlarni ko‘rishimiz bilan ilgari bizda hosil bo‘lgan tasavvurlar yana esimizga kelib, miyamizda uchburchak yoki doiraning yaxlit obrazi paydo bo‘ladi. Atrofimizdagi hamma narsalarni idrok etish ana shunday amalga oshiriladi.

3. Idrokning faolligi va kuzatish

Idrok jarayonlari faqat tevarak-atrofdagi narsalarning sezgi organlarimizga ta'sir qilib turishlari natijasidagina emas, balki shu bilan birga idrok qilayotgan odam o'zining olamni bilish va amaliy faoliyatida yon atrofidagi narsalarga ta'sir ko'rsatishi natijasida ham vujudga keladi.

Idrokning faolligiga, avvalo unga *bog'liq* bo'lgan hissiy *kechinmalar* sabab bo'ladi. Bu his-tuyg'ular, avvalo shu paytdagi idrok tarkibiga kiradigan sezgilarning emotsional (hissiy) tomonidan iborat bo'ladi. Idrok qilinayotgan narsa va hodisalar to'g'risida o'tmishda tug'ilgan taassurot va fikrlar bilan bog'liq hissiyot ham shu jumladandir. Ko'pincha odamning idrokiga shu paytda kechirayotgan bironta hissiyoti – shodligi, xushchaqchaqligi, g'amginligi, tajangligi va boshqa shu kabi tuyg'ulari ta'sir qilib, idrok qilinayotgan narsa yoki hodisaga ma'lum bir tus beradi. Shu sababli, kishining ta'bi xiralik vaqtida tabiat manzaralari unga allaqanday g'amgin, ma'yusdek ko'rinadigan bo'lsa, ta'bi chog' vaqtida gullar «kulib» turganday, hamma yoq «quvnoq» dek ko'rinadi va hokazo.

His-tuyg'ular idrok mazmunini jonli, yorqin qiladi, idrokni ma'lum bir tomonga yo'naltiradi. His-tuyg'ular idrokning faollik darajasini kuchaytiradi, idrok sharoiti bo'lgan boshqa psixik jarayonlarning ildamlik darajasiga ta'sir qiladi: bu jarayonlarni tezlatadi yoki susaytiradi. Idrok bilan bog'liq hislar, jumladan, xayol jarayonlarini qo'zg'atib faollashtiradi. Masalan, kishi qattiq vahimaga tushganda har bir arzimagan narsadan ham xavfsirayveradi, oddiy, arzimagan narsa ham nazarida allaqanday – dahshatli tuyuladi yoki kishi qattiq, xushvaqtlikda o'zini har narsadan mamnun sezadi, oddiy, arzimagan narsalardan ham zavqlanaveradi, shuning uchun ham: «qo'rqqan ko'zga qo'sh ko'rinar» yoki «guli-gun xayol» deydilar.

Idrok jarayonlaridagi diqqat g'oyat katta ahamiyatga egadir. Diqqat idrokning faolligini oshiradi va idrokning mukammal, raso va ravshan bo'lishiga xizmat qiladi. Diqqat, faollik darajasiga qarab, ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lmog'i mumkin, shu sababli idrok ham ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lmog'i mumkin.

Muayyan bir obyektni oldindan maqsad qilib olmasdan va maxsus tanlanmasdan, kuch sarf etmasdan idrok qilish jarayoni **ixtiyorsiz idrok** deb ataladi. Bunday idrok jarayonlari diqqatimizni beixtiyor o'ziga jalb qilayotgan obyektlarning ta'siri bilan qo'zg'aladi; masalan, biz uzoqdan kelayotgan poyezd ovozini beixtiyor eshitamiz, tunda qirda yonayotgan alangani uzoqdan beixtiyor ko'ramiz. O'zining yorug'ligi, rang-barangligi, harakati, xushohangligi, kontrastligi bilan ajralib turadigan narsa yoki hodisalar, odatda, beixtiyor idrok qilinadi, shuningdek, ayni vaqtda bironta ehtiyoj va manfaatimizga javob beradigan, shaxsiy tajriba va bilimlarimizga eng ko'p darajada muvofiq keladigan va biz uchun g'oyat

katta ahamiyati bo‘lgan obyektlar ham beixtiyor idrok qilinadi. Ixtiyorsiz idrok tetik, bardam vaqtimizda bizda to‘xtovsiz bo‘lib turadigan jarayondir.

Oldin belgilangan maqsadga qarab muayyan bir obyektni idrok qilishni **ixtiyoriy idrok** deb ataladi. Badiiy bir rasmni ko‘rish, ma’ruzani e’tibor bilan eshitish, yozma ishlardagi imlo xatolarini chizib o‘tish, operadagi ariyani tinglash, ko‘pchilik orasida o‘zimiz qidirgan bir shaxsni topib ajratish ixtiyoriy idrokka misol bo‘la oladi.

Ixtiyoriy idrok ixtiyorsiz idrokdan ayrilgan holda bo‘ladigan jarayon emas. Ixtiyorsiz idrok ixtiyoriy idrok uchun go‘yo «fon» bo‘lib xizmat qiladi.

Kishining sistemali, davomli va rejali idrok qilish qobiliyati **kuzatuvchanlik** deb ataladi. Kuzatish qobiliyati tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni ma’lum bir maqsad bilan sistemali va rejali idrok qila bilishdir.

Har bir kishi ma’lum darajada kuzata bilish qobiliyatiga ega, bu qobiliyat har kimning o‘z hayotiy tajribasi va bilish faoliyatida taraqqiy qilib boradi. Ammo har bir kishini ham razmi o‘tkir, kuzatish mahorati zo‘r deb bo‘lavermaydi. Razmi o‘tkir, kuzata bilish qobiliyati zo‘r kishi deb, odatda, o‘z oldiga jamiyat uchun foydali, ilmiy va boshqa muhim vazifalarni qo‘ya biladigan, tevarak-atrofdagi xilma-xil narsa va hodisalardan kerakli va eng muhim obyektlarni ajrata biladigan kishini aytiladi. Razmi o‘tkir, kuzata biladigan kishi idrok qilinayotgan narsa va hodisalardagi o‘xshashlikni va farqni darrov payqab oladi, bu narsa va hodisalarning eng muhimi, zarur xususiyatlarini ajrata biladi.

Razm sola bilish, kuzatuvchanlik qobiliyati shaxsning nihoyatda qimmatli sifatlaridandir. U mavjud sharoitni turli tushunishga, o‘rab olgan olamni samarali o‘rganishga va xususan, o‘quv materialini chuqur o‘zlashtirishga imkon beradi.

I. P. Pavlov kuzatuvchanlik ilmiy bilishning asosiy sharti deb hisoblardi. Pavlov shahrida u tashkil qilgan biologiya stansiyasi binosining old tomoniga «kuzatuvchanlik va yana kuzatuvchanlik» deb bejiz yozilmagan edi.

K. D. Ushinskiy kuzatuvchanlikni o‘stirish vazifasiga katta ahamiyat berardi. «Agar ta’lim bolalarning aqlini o‘stirmoqchi bo‘lsa, – deb yozgan edi K. D. Ushinskiy, – ularning kuzatuvchanlik qobiliyatini mashq qildirish kerak» (Tanlangan asarlar, 6-tom, PFA, Moskva, 1949-yil, 267-bet).

Shuning uchun ham o‘sib kelayotgan yosh avlodda kuzatuvchanlikni tarbiyalash pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.

4. Idrokning asosiy xususiyatlari

Idrokning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, u hissiy bilishning sifati

jihatidan yangi bosqichdir. Bunga idrokning predmetliligi, yaxlitligi, tuzilishi, konstantligi va anglanganligi kiradi.

Idrokning predmetliligi – bu tashqi olamdan olingan ma'lumotlarni shu olamning o'ziga qaratishda ifodalanadi. Idrok tevarak-atrofdagi narsalarni amaliy faoliyatda qanday bo'lsa shundayligicha aks ettirish jarayonidir, ya'ni subyektiv olamning predmetliligini ochib berishni ta'minlaydigan harakatlar tizimidir. Predmetlilik idrokning sifati tarzida ish-harakatlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Idrokning yaxlitligi – idrok jarayonida barcha psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlarning ishtirok etishidan iborat qonuniyat. Idrokning yaxlitligi insonning predmet faoliyati jarayonida shakllanadi. Idrok sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi narsalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qilib, narsalarning yaxlit obrazidir. Bu yaxlit obraz har xil sezgilar orqali olingan narsalarning ayrim xususiyat va sifatlari haqidagi bilimlarini umumlashtirish asosida vujudga keladi.

Idrokning yaxlitligi uning tuzilganligi bilan bog'liqdir. Biz musiqa eshitganimizda uni yaxlitligicha idrok qilamiz, lekin bu musiqa tarkibida juda ko'p musiqa asboblarining ovozi bor (tor, doira, nay va b.). Ular hammasi bir bo'lib shu musiqaning tuzilishini tashkil qiladi.

Idrokning konstantligi – (konstantlik — doimiy, o'zgarmas) idrok qilinayotgan narsaning fizik holati o'zgarsa ham, uni ko'z to'r pardasidagi obrazlarning o'zgarmasligi yoki nisbiy turg'unligidir. Masalan, samolyotda ucha turib yerga qarasak, yerdagi uylar gugurt qutichasiga (odamlar esa umuman ko'rinmaydi, ko'rinsa ham juda kichkina) o'xshab ko'rinadi. Lekin biz ularni gugurt quticha deb emas, balki 4–5 qavatli uylar deb, odamlarni rasman kishilardek idrok qilaveramiz. Konstantlik 1) katta kichiklik konstantligi, 2) shakl konstantligi, 3) rang konstantligi bo'lishi mumkin.

Odamning idroki tafakkur bilan, narsalarning mohiyatini tushunish bilan bog'liqdir. Narsalarni ongli idrok qilish degan so'z uni fikran atash degan ma'noni bildiradi. Bu esa idrok qilinayotgan narsani ma'lum guruhlarga, sinfga kiritish, ya'ni so'z orqali umumlashtirishdir. Idrok qilinadigan narsa haqida bor ma'lumotlarni tushunib, ularni bog'lab, farq va o'xshashliklarini aniqlab idrok qilish jarayoni idrokning anglanganligidir.

Appersepsiya

Yuqorida bayon qilinganlardan ma'lumki, odamning tajribasi, bilimi, xayol va tafakkurining faoliyati, hissiyot va diqqati, umuman odam psixikasining hamma mazmuni idrokida namoyon bo'ladi. Bu psixik hayotning idrokda aks etuvchi va idrokka ta'sir ko'rsatuvchi mazmunini **appersepsiya** deb ataladi. Appersepsiyalarning nerv-fiziologik mexaniz-

mi, aftidan, o‘tmishdagi tajribadan hosil bo‘lgan bog‘lanishlar sistemasidan va ularning yangi hosil bo‘layotgan muvaqqat bog‘lanishlarga ta’sir ko‘rsatishidan iborat bo‘lsa kerak.

Nerv bog‘lanishlarning tarkib topgan sistemasi (ya’ni dinamik stereotip) bironta bo‘shroq, hattoki bironta o‘xshash qo‘zg‘ovchining ta’siri bilan ham qo‘zg‘almog‘i mumkin. Bunda qo‘zg‘algan stereotipdan hosil bo‘lgan natija, shu stereotipni vujudga keltirgan jami qo‘zg‘ovchilar ta’sir ko‘rsatgandagi natijasidan sira qolishmaydi.

Ayni bir narsa yoki hodisani ayrim kishilarning idrok etishida ko‘rinadigan ba’zi xususiyatlar appersepsiya bilan belgilangan bo‘ladi. Bu xususiyatlar odamning tajribasi va bilimlariga bog‘liq xususiyatlardir. Kishilar ayni bir narsa yoki hodisani yoshlari, ma’lumotlari, turmush tajribalari, kasblari, sinfiy chiqishlari, temperament, xarakter, qobiliyat va qiziqishlarida ko‘rinadigan shaxsiy xususiyatlariga qarab, har xil idrok qiladilar.

Odamning aqli qanchalik yetuk, muayyan sohaga oid tasavvuri, fikri, tajribasi, bilimi qanchalik boy bo‘lsa, uning shu sohada idroki ham shunchalik murakkab, chuqur va sermazmun bo‘ladi. Bu xususiyatlar moddiy buyumlarni idrok qilishdayoq namoyon bo‘ladi. Masalan, bironta yangi mashinani tegishli ixtisosi bo‘lmagan kishi tomonidan idrok qilinishi, ixtisosi bor odamning idrokiga qaraganda, mazmunan torroq va yuzaki bo‘ladi. Ayni bir obyektlarni tegishli ixtisosi bo‘lmagan kishining kuzatishlariga qaraganda, olimning chuqur ilmiy kuzatishlari hiyla farq qiladi.

Ayni bir mevali bog‘ni rassom, agronom va savdo xodimi har xil, ya’ni har qaysisi o‘z nuqtayi nazaridan e’tibor berib idrok qilishi mumkin.

Alifbe va boshlang‘ich o‘qish kitoblari yirik harflar bilan bosiladi, chunki endi savod chiqarayotgan kishilarda (bola va katta yoshlilarda) hali kitob o‘qish tajribasi bo‘lmaydi. Ko‘p o‘qigan, bu sohada katta tajribaga ega bo‘lgan kishilar mayda harf bilan bosilgan xatni ham (masalan, gazetani) jo‘ngina o‘qib ketaveradilar. Bizda hosil bo‘lgan tajriba va bilim tufayli, biz chala yozilgan so‘zlarni, tushib qolgan harflarni payqamasdan, xato yozilgan bo‘lsa ham, baribir, to‘g‘ri o‘qiyveramiz. Masalan, taxistoskop bilan qilingan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, *«avtombrus»* deb xato terilgan so‘z «a*vtobus»* yoki *«avtomobil»* deb, *«sinoatlantirish»* deb terilgan so‘z *«sanoatlashtirish»* deb o‘qiyverar ekan va hokazo.

Idrokka subyektiv mazmun berish og‘zaki materialni idrok etishda, ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi. Masalan, «ildiz» degan so‘zni botanik o‘simlik ildizi, matematik kvadrat yoki kub ildizi, tish doktori tish ildizi degan ma’noda idrok qilishlari mumkin. «Reaksiya» degan so‘zni tarixchi bir

ma'noda tushunsa, ximik yoki psixolog boshqa ma'noda tushunishi mumkin. Appersepsiya badiiy asarlar matnini, badiiy surat va rasmlarni idrok etishda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Biz bironta suratga ko'z solganimizda to'g'ridan to'g'ri faqat bo'yoq rang va chiziqlarning har xil chatishuvini ko'ramiz, xolos. Bu persepsiyadir. Rasm va suratni idrok qilganimizda esa, masalan, istiqbolni, odam va hayvonlarning ish-harakatlarini biz o'tmishdagi tajribamiz, bilimlarimiz va xayolimiz faoliyati natijasida idrok qilamiz. Bu appersepsiyadir. Musiqani idrok qilishda ham xuddi shu hol yuz beradi.

Ayni bir narsa yoki hodisani ayni bir kishi turli vaziyatda turlicha idrok qilavermog'i mumkin, bu hol har gal o'sha kishining kayfiyati, hissiyoti, diqqati, manfaati, maqsadi va hokazolarga qarab ro'y beradi. Bironta murakkabroq vaziyatni idrok qilayotganimizda e'tiborimiz va manfaatimizning talabiga qarab, biz shu vaziyat tarkibiga kirgan yakka bir narsani yoki uning qismini ajrata olamiz. Masalan, o'rmonda biz uchun zarur bo'lgan bironta daraxtni hamma boshqa daraxtlardan ayrim idrok qilamiz. Musiqani eshitganimizda garmoniya ohanglaridan biz uchun tanish bo'lgan bir kuyni ajratamiz.

23-rasmga qarasak, qora fon ustida vaza suratini yoki oq fon ustida ikki yuzning yonidan ko'rinishini (profillarni) ko'rishimiz (idrok qilishimiz) mumkin. Bu holda idrokning ikkilanishi diqqatimiz nimaga (rasmning qaysi bir tomoniga) qaratilganligi bilan belgilanadi. Idrok jarayonida ba'zan uchrab keladigan subyektivizm ham appersepsiya natijasidir. Bu subyektivizm, masalan, vaqtni, harakatni idrok qilishda, qizg'in munozaralar borayotgan paytda bir kishining gapini idrok qilishda ko'proq uchraydi.



23-rasm. *Ikkilangan tasvir.*

Appersepsiya fazo, vaqt hamda harakatni idrok qilishda katta rol o'ynaydi. Illuziyalar esa hiyla darajada appersepsiya natijasidir.

5. Idrokning turlari. Fazoni idrok qilish

Fazoni idrok qilish to'g'risida gapirar ekanmiz, biz narsalarning fazodagi shakllarini, ularning fazodagi katta-kichikligini va fazodagi o'zaro munosabatlarini ko'zda tutamiz. Ma'lumki, fazodagi shakllariga qarab, uch burchakli, to'rt burchakli, kub, silindr va shu kabi shakldagi narsalar ajratiladi; narsalar katta-kichikligiga qarab, nisbatan katta, kichikroq,

o‘rtacha va hokazo narsalarga ajratiladi; fazodagi munosabatlariga qarab, bu narsalar bizga va bir-biriga nisbatan yaqin, uzoq, chap tomonda, o‘ng tomonda, yuqori yoki past bo‘lishlari mumkin.

Fazoni biz uning hamma uch o‘lchovida ko‘rish, teri sezgilari va muskul-harakat organlari yordami bilan idrok qilamiz. Fazo munosabatlarini, narsalarning shaklini, narsalarning hajmi va katta-kichikligini biz asosan ko‘z bilan ko‘rib idrok qilamiz.

Fazoni biz bir ko‘zimiz bilan ham ko‘rib, ya’ni monokulyar, ikki ko‘zimiz bilan ham ko‘rib, ya’ni binokulyar idrok qilamiz. Monokulyar idrok quyidagicha voqe bo‘ladi. Biz ko‘z bilan qaraganimizda, biz shu narsadan aks etgan nurlar ko‘z gavharida sinib, ko‘zning to‘r pardasi (setchatka)da shu narsaning aks etgan surati fotoapparatdagiga o‘xshab, to‘nkarilib, teskari tushadi (24-rasm). Ammo bunga qaramasdan, biz narsani haqiqiy holatida, haqiqiy shakli va katta-kichikligida ko‘ramiz, idrok qilamiz («Idrokning konstantligi» nomli bobga qaralsin, 120-bet).

Narsaning chetlaridagi nuqtalaridan aks etgan nurlar ko‘z gavharida bir-birini kesib o‘tadi va ularning kesilish joyida ko‘rish burchagi hosil bo‘ladi. Bu burchakning katta-kichikligi idrok qilinayotgan narsaning katta-kichikligiga hamda uning ko‘zdan qanchalik uzoq-yaqin turganiga bog‘liq bo‘ladi. Narsa qanchalik katta bo‘lsa, ko‘rish burchagi ham shunchalik katta bo‘ladi va aksincha. Kattaligi bir xildagi ayni bir narsani yaqin masofadan ko‘rayotganimizda ko‘rish burchagi kattaroq, uzoqdan turib qarasak kichikroq bo‘ladi. Demak, ko‘rish burchagining katta-kichikligi idrok qilinayotgan narsaning katta-kichikligini, shuningdek, uning qanchalik uzoqlashganini bildiradi.

Ko‘zimiz bilan tik (to‘ppa-to‘g‘ri) qaraganimizda, agar yorug‘lik kuchli bo‘lib, ko‘rinib turgan narsalar o‘rtasidagi ko‘rish burchagi 50 dan kam bo‘lmasa, ko‘zimiz ayni bir vaqtda ikki narsani (ikki nuqtani) ko‘ra oladi. Lekin, ko‘rish burchagi kichikroq bo‘lsa, ikki narsa yoki ikki nuqta bittadek bo‘lib ko‘rinadi. Yon tomondan qaraganda ikki nuqta bittadek ko‘rinadi va ko‘rish burchagi hiyla katta bo‘ladi. Shuning uchun



24-rasm. *Nurlarning ko‘z gavharida sinishi:*
a, b; a–b o‘qining teskari aksi; A–fiksatsiya nuqtasi; $A–A_1$ – ko‘rish chizig‘i; a, k, b–ko‘rish burchagi.



25-rasm. *Nurlarning sinishi:* 1 – normal ko‘radiganlarda; 2 – uzoqdan yaxshi ko‘ra olmaydiganlar; 3 – yaqindan yaxshi ko‘ra olmaydiganlarda.

ham uzoq masofadagi ikki yoki bir qancha narsa «birlashib ketib», bir narsadek idrok qilinadi. Ikki narsani ayni bir vaqtda ko‘rayotganda ko‘rish burchagi qanchalik kichik bo‘lsa, ko‘z shunchalik o‘tkir hisoblanadi. Yaqin yoki uzoqroq masofadagi narsalarning aks etgan surati to‘ppa-to‘g‘ri ko‘z to‘r pardasiga tushmog‘i uchun ko‘z gavhari bo‘rtiq yoki yassi holda bo‘lmog‘i kerak. Yaqin turgan narsalarga qaragan paytda ko‘z gavhari qorayib sharga o‘xshash bo‘rtiq shaklga, uzoqdagi narsalarga qaraganda esa cho‘zilib, qariyb yassi shaklga kiradi. Ko‘z gavharining va umuman, ko‘zning ravshan ko‘rish uchun uyg‘unlashuvini **akkomodatsiya** deb ataladi. Ko‘zning akkomodatsiyasi 20-25 metr doirasida fazoning uchinchi o‘lchovini, ya’ni olislikni, chuqurlikni, relyefni ko‘z bilan idrok qilishda, ayniqsa, katta ahamiyatga ega.

Ko‘z xiralik – uzoqdan yaxshi ko‘ra olmaslik va yaqindan yaxshi ko‘ra olmaslik. Ko‘z gavhari qanchalik shar shakliga yaqinlashsa, yorug‘lik nurining sinishi shunchalik kuchliroq bo‘ladi va qaralayotgan narsaning surati ham ko‘z gavharidan shunchalik yaqin yerda aks etadi. Ko‘z gavhari qanchalik ko‘p cho‘zilib yassi shakl olsa, nurning sinishi ham shunchalik kuchsiz bo‘ladi va qaralayotgan narsaning surati ham ko‘z gavharidan shunchalik yiroq yerda aks etadi. Ko‘z gavharining yassi shaklga yoki bo‘rtib shar shakliga kira olish qobiliyati hamisha zo‘r berib tikilishdan yoki odamning yoshiga qarab susayib bormog‘i mumkin. Bunday hollarda normal ko‘rish qobiliyati buzilib, uzoqdan yaxshi ko‘ra

olmaslik (yassilanish qobiliyatining zaifligi) yoki yaqindan yaxshi ko‘ra olmaslik (bo‘rtish qobiliyatining zaifligi) paydo bo‘ladi. Uzoqdan yaxshi ko‘ra olmaydigan odamlarning ko‘z gavharida nurlarning sinishi kuchli bo‘ladi; binobarin, bu sinayotgan nurlar ko‘z to‘r pardasiga borib yetmasdanoq bir nuqtaga yig‘iladi. Buning natijasida narsaning surati ko‘z to‘r pardasida xira, mujmal aks etadi. Shuning uchun ham uzoqdan yaxshi ko‘ra olmaydigan odamlar botiq ko‘zoynak taqib yuradilar, chunki botiq ko‘zoynak nurlarni tarqatadi va bu nurlarning sinish nuqtalarini ko‘z to‘r pardasigacha yetkazadi.

Yaqindan yaxshi ko‘rmaydigan odamlarning ko‘z gavharida nurlarning sinishi zaif bo‘ladi, natijada nurlar ko‘z to‘r pardasining orqa yerida turadi. Ko‘z to‘r pardasining o‘ziga esa hali bir nuqtada turmagan nurlar tushadi. Shu sababli, ko‘z bu holda ham ravshan ko‘ra olmaydi. Yaqindan yaxshi ko‘ra olmaydigan odamlar bo‘rtiq ko‘zoynak taqadilar, chunki bo‘rtiq oyna nurlarning sinishini kuchaytiradi va nurlarni xuddi ko‘z to‘r pardasiga to‘playdi.

Uzoqdan yaxshi ko‘rmaslik va yaqindan yaxshi ko‘rmaslikning yana bir sababi shuki, ba’zi odamlarning ko‘z soqqasi cho‘zinchoqroq (uzoqdan yaxshi ko‘ra olmaydiganlarda) yoki kalta (yaqindan yaxshi ko‘ra olmaydiganlarda) bo‘ladi. Shuning uchun ko‘zning bu kabi xiraligi bolalik chog‘idanoq ko‘rinmog‘i mumkin. Uzoqdan yaxshi ko‘ra olmaydigan odamlar bilan yaqindan yaxshi ko‘ra olmaydigan odamlarning ko‘zida nurlarning qanday sinishi 25-rasmda ko‘rsatilgan.

Fazoni (monokulyar ko‘rish yo‘li bilan) bir ko‘z bilan yetarli darajada aniq va mukammal ko‘rib bo‘lmaydi. Ayniqsa, fazoning uchinchi o‘lchovini bir ko‘z bilan (monokulyar) idrok qilish yo‘li bilan ko‘rishda to‘la aniqlikka erishib bo‘lmaydi. Odatda biz narsalarni fazo munosabatlari shakllari va katta-kichikligi bilan birlikda idrok qilganimizda ikkala ko‘zimiz bilan, ya’ni binokulyar idrok qilamiz.

Uzoqdalik, chuqurlikni binokulyar idrok qilishda ko‘zning konvergensiyasi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega.

Konvergensiya ma’lum bir narsaga qaraganda, ikkala ko‘z soqqasining qanshar tomon baravar burilishidir. Ikkala ko‘z soqqasi ana shunday burilganida ko‘rish o‘qlari biz qarab turgan narsaning o‘zida bir-birini kesib o‘tadi.

Idrok qilinayotgan narsa qanchalik yaqin tursa, ko‘z soqqalari bir-biriga, ya’ni qanshar tomonga shunchalik yaqin buriladi, ko‘rish o‘qlari ham bir-birini shunchalik yaqin kesib o‘tadi. Sechenov ta’biricha, ko‘rish o‘qlari «qamrab oluvchilar» bo‘lib, biz qarab turgan narsa bizga yaqinlashgan sari, «ko‘rish o‘qlari ham ko‘zimizga yaqinlashadi, narsa uzoqlashgan sari, ko‘rish o‘qlari ham ko‘zimizdan uzoqlashadi».

Ko‘zlarimizning konvergensiyasi, ayniqsa, masofani, yiroqni, chu-

qurlikni eng aniq, raso idrok qilishga imkon beradi, chunki konvergensiya vaqtida asosiy o‘rinda turgan ko‘rish analizatoriga harakat analizatori, ya’ni ko‘z muskullarining ishi qo‘shiladi. Biz qarab turgan narsalar yuziga tushgan ko‘lankalar masofani, chuqurlikni, relyefni idrok qilishda katta rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, uchinchi o‘lchovni ikki ko‘z bilan (binokulyar) idrok etishda eng ko‘p daraja aniqlikka erishuvning sababi o‘tmishdagi tajribamiz samarasi hamdir. Chunki biz kundalik hayotimizda narsalarni doimo ikki ko‘z bilan qarab ko‘ramiz, narsalarga faqat bir ko‘zimiz bilan qarash hollari kamdan kam uchraydi.

Fazoni idrok qilishda teri sezgilari va muskul-harakat a’zolarining roli

Fazoni teri sezgilari va muskul-harakat vositasi bilan idrok etganda ko‘z bilan qarab ham, ko‘z bilan qaramasdan ham idrok qilaverish mumkin.

Maydaroq narsalarning shaklini, ularning katta-kichikligini, holatini biz teri sezgilari vositasi bilan, ya’ni uni ko‘rib, bevosita idrok qilamiz, masalan, qo‘limizdagi tanga pulning shaklini, katta-kichikligini, holatini bevosita teri sezgilari vositasi bilan bilamiz. Teri sezgilari vositasi bilan biz, xususan ikki o‘lchovni uzunlik (masofa) va sirt o‘lchovlarini idrok qilishimiz mumkin, lekin narsalarning (hatto mayda narsalarning ham) shaklini, katta-kichikligini va fazodagi munosabatlarini yolg‘iz teri sezgilari vositasi bilan idrok qilganda to‘la aniqlikka erishib bo‘lmaydi. Shu sababli ko‘pincha fazoni teri sezgilari vositasi bilan idrok qilish muskullar harakat vositasi bilan idrok qilish ila birgalikda o‘tadi. Muskul-harakat organlarimiz vositasi bilan biz yirik va mayda obyektlarning (masalan, stol, xona, hovli va shu kabilarning) shaklini, katta-kichikligini, fazodagi munosabatlarini hamma uch o‘lchovda idrok qilishimiz mumkin. Ko‘r odamlar (yoki ko‘r emaslar qorong‘i tushganda) narsalarning shaklini, masofani va fazodagi munosabatlarni ana shu yo‘l bilan idrok qiladilar. Mayda narsalarning shakli barmoq harakatlari (paypaslash) vositasi bilan idrok qilinadi. Yirik narsalarning shaklini va masofani ko‘zimizni yumib yoki qorong‘ida idrok qilganimizda biz qo‘l harakatlarimizdan va qadamlab yurishdan foydalanamiz. Ana shu harakatlardan tug‘iladigan muskul-harakat sezgilarimizga o‘tmishda hosil bo‘lgan tajribamiz qo‘shiladi, natijada biz ko‘zimiz ko‘rmasa ham, turgan joyimizni, fazoga oid munosabatlarni chama bilan bilib olamiz.

Fazoni ko‘z bilan ko‘rib idrok qilishning o‘sishida teri sezgilari va muskul-harakat organlari katta rol o‘ynaydi. Ko‘r bo‘lib tug‘ilgan, ammo tegishli operatsiyadan keyin ko‘zi ochilgan odamlarning fazoni qanday idrok qilishlarini tekshirish natijalari bunga dalil bo‘la oladi.

Bir necha misol keltiraylik. Ko‘r bo‘lib tug‘ilgan bir odam muvaffaqiyatli operatsiyadan keyin ko‘zi ochilgan bo‘lsa-da, lekin dastlabki kunlarda u fazoni va narsalarning fazodagi holatini ko‘zi ko‘r emas (basir) odamlarga qaraganda boshqacha idrok qilgan, masalan, ko‘ruv doirasiga kirgan hamma narsalarni juda yaqin va ko‘ziga tegib turayotgandek his qilgan, shuning uchun bu odam ehtiyot yuzasidan ko‘zini *qo‘li* bilan hadeb qoplayvergan. Narsalarning shaklini ham faqat ko‘rish bilangina fahmlay olmagan, bu narsalarni qo‘li bilan paypaslab ko‘rganidagina, ya’ni o‘tmishdagi muskul-harakat sezgisiga asoslangan tajribasiga suyanganidagina narsalarning shakllarini taniy olgan.

Operatsiyadan so‘ng ko‘zi ochilgan yana bir odamga yog‘ochdan yasalgan, har ikkalasi ham bir xil bo‘yalgan va diametri teng shar bilan kub ko‘rsatganlar. U odam bu narsalarning turli buyumlar ekanini ko‘rib tursa ham, lekin ularni bir-biridan aniq farq qila olmagan: qaysisi dumaloq va qaysisi burchakli ekanini aniq aytib bera olmagan. Yana shu odamga shar bilan bir xil kattalikdagi doiraning, kub bilan bir xil kattalikdagi to‘rtburchakning yassi shaklini yonma-yon qo‘yib ko‘rsatganlarida, ularni bir-biridan farq qila olmagan, faqat paypaslab ko‘rganidan keyin sharni doiradan va kubni to‘rtburchakdan ajratgan. Bu odam qilingan operatsiyadan tamomila sog‘aygandan keyin, ko‘z bilan ko‘rib idrok qilishni o‘rganmoq uchun maxsus mashq qilgan. Masalan, oyog‘idan etigini yechib irg‘itib yuborar, so‘ngra etikkacha bo‘lgan masofani ko‘zi bilan chamalashga urinar ekan. Chama bilan bir-ikki qadam yurgandan keyin, qo‘lini uzatib etikni olishga harakat qilar ekan, lekin ko‘zi bilan masofani aniq belgilay olmaganligidan yanglishar va paypaslab, qachon etik qo‘liga tegsa, uni shundagina ushlab olar ekan.

Yuqorida keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ldiki, ko‘rlar ko‘zlari ochilgandan keyin, ularda fazoni ko‘z bilan ko‘rib idrok qilish qobiliyati teri va muskul harakat organlarining ishtiroki bilan asta-sekin o‘sib boradi. Demak, fazoga oid shakl, katta-kichiklik va munosabatlarni ko‘rish, teri sezgilari va muskul-harakat organlari bir-biri bilan mahkam bog‘lanib ishlaganlaridagina eng to‘g‘ri va mukammal idrok qilish mumkin.

Sezgi organlarimizning — tuyush, muskul-harakat va ko‘rish organlarimizning o‘ziga xos xususiyati, jumladan, obyektiv mavjud fazoni ham idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘lishdadir. Idrokning hamma turlari singari, fazoni idrok qilish ham kishining tajribasi va umumiy kamoloti jarayonida boradi.

Vaqtni idrok qilish

Biz idrok qilib turgan narsa va hodisalar ma’lum bir (zamon) davomida paydo bo‘ladi, taraqqiy qiladi va o‘zgarib boradi. Shuningdek, obyektiv dunyo hodisalarini aks ettiradigan idrok, tasavvur, fikr va hokazolardan

iborat bo‘lgan bizdagi subyektiv, psixik hodisalar ham vaqt davomida paydo bo‘ladi, o‘zgarib va almashib turadi. Ma’lumki, fazo singari vaqt ham materiyaning mavjudligi shaklidir. Har qanday bog‘liqning asosiy shaklidir. U obyektiv reallikdir, ya’ni ongimizdan tashqari o‘zi mavjuddir. Biz fazoni idrok qilganimizdek, vaqtni ham idrok qilamiz. Biroq, vaqtni idrok qilish to‘g‘risida gapirar ekanmiz, biz quyidagilarni nazarda tutamiz. Vaqtni idrok qilishni vaqt «bo‘laklarini» soat va boshqa xronometrik asboblar yordamida o‘lchash deb tushunish yaramaydi. Kishi xuddi bir xilda bo‘lgan vaqt bo‘lagi (daqiqa, soat yoki ko‘p va hokazo)ning obyektiv davomini hamisha bir xilda sezavermas ekan. Ba’zan bir soat, bir daqiqada, o‘tib ketadi yoki «bir soat bir yildek tuyuladi» deb gapiradilar.

Biz vaqtni hozirgi zamon (hozirgi payt) va undan kelgusiga borayotgan real narsadek idrok qilamiz, uni tasavvur qilamiz va fikrlaymiz. Shuning uchun ham o‘tmish, hozirgi zamon va kelgusi ma’nosida olingan tushunchalar mavjuddir. Vaqtni idrok qilish haqida gapirar ekanmiz, biz hozirgi paytni nazarda tutamiz. O‘tmish vaqt xotira faoliyati esga tushirish faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Kelgusi vaqtni esa biz faqat xayolga keltirishimiz yoki bu haqda o‘ylashimiz mumkin, xolos. Obyektiv (matematik) nuqtayi nazardan, hozirgi payt bu o‘tmishni kelgusidan ajratadigan bir nuqta (chegara)dir. Ammo psixologik, subyektiv nuqtayi nazardan, biz borayotgan vaqtning «bo‘laklarini» hozirgi payt (endimik) deb idrok qilamiz. Dars, ma’ruza yoki bironta musiqiy asarni eshitib o‘tirish davomidagi vaqt ham mana shunday idrok qilinadi. Demak, vaqtning to‘xtovsiz borishi, davomi hozirgi payt deb tuyuladi.

Biz vaqtni (uning to‘xtovsiz borishi, cho‘zilishini va davomini) idrok qiladigan maxsus bir organga ega emasmiz. O‘tayotgan vaqt avvalo atrofimizdagi narsa va hodisalarning o‘zgarib va almashinib turishidan bilinadi. Shu sababli bizning idrok qilishimiz hamma sezgi a’zolarimiz faoliyati bilan bog‘langan deb aytish mumkin. Vaqtni idrok qilish organizmimizda borayotgan fiziologik jarayonlar bilan ham belgilanadi. Yurak tepish, nafas olish ritmikasi va organik sezgilar vaqtni idrok qilishda katta rol o‘ynaydi, bu hol maxsus tekshirishlar bilan aniqlangan.

Vaqt bizga «sekin o‘tayotgandek» yoki «tez o‘tayotgandek» tuyuladi. Buning sababi shunda ekanki, har birining davomi obyektiv suratda bir xilda bo‘lgan vaqt bo‘lagini, ya’ni soat, daqiqa, soniya va hokazoni hamisha bir xilda sezavermas ekanmiz. Ba’zan biz «bir soat bir yilga o‘xshab ketdi», ba’zan esa «uch soat ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketdi», «bir kun bir daqiqaday o‘tib ketdi» deb gapiramiz.

Vaqtni tez yoki sekin o‘tayotgandek sezishimiz shu paytda siz kechirayotgan psixik jarayonlarga bog‘liq bo‘ladi.

Aksincha, psixik tuyg‘ular mazmundor va xilma-xil bo‘lib, odamning

butun fikri-zikrini o‘ziga qaratib qo‘ysa, vaqt juda tez o‘tib ketayotgandek seziladi. Diqqatimizni tuyg‘ularimizning mazmuniga qaratsak, vaqtning o‘tayotgani biz uchun bilinmay qoladi. Ayniqsa, ongimizning mazmuni, ya’ni idrok, tasavvur va fikrlarimiz xush emotsiyalar, yoqimli hislar uyg‘otsa, vaqt juda tez o‘tayotgandek seziladi. Masalan, ayni bir dars vaqti bir o‘quvchiga juda tez o‘tgandek sezilsa, boshqa bir o‘quvchiga juda sekin borayotgandek tuyuladi, buning sababi bu o‘quvchilarning diqqati nimaga qaratilishidadir. Agar o‘quvchi diqqat-e’tiborini darsning mazmuniga qaratsa, dars bilan qiziqib, zavq bilan tinglasa, ko‘ngli to‘q bo‘lsa, vaqtning o‘tib ketganini bilmay qoladi. Darsga ahamiyat bermay, zerikib va dars vaqtining tezroq o‘tishini sabrsizlik bilan kutib, hadeb soatiga qarab o‘tirgan o‘quvchiga vaqt «to‘xtab qolgandek» seziladi, «tikilgan qozon qaynamas» degan xalq maqoli ham bunga misol bo‘la oladi.

Demak, vaqtni bevosita idrok qilish («vaqt hissi») aniq bo‘lmasdan, subyektiv bo‘lar ekan. Shuning uchun ham biz ko‘pincha vaqt davomini belgilashda xatoga yo‘l qo‘yib, o‘zimizcha «vaqt tez o‘tdi» yoki «sekin» o‘tmoqda deb o‘ylaymiz.

Bu esa odamning ham faoliyatiga, ham ruhiy holatiga ko‘pincha salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Odamda ham «vaqtga refleks» hosil bo‘lmog‘i mumkin. Kunda ma’lum bir vaqtda uyqudan uyg‘onish odati bunga misol bo‘la oladi.

Vaqt hissi odamda mehnat faoliyati jarayonida vujudga keladi. Ana shu tariqa hosil bo‘lgan vaqt hissi o‘z navbatida mehnat harakatlarini tartibli ravishda idora qilishga ta’sir ko‘rsatadi.

Harakatni idrok qilish

Biz narsalarning harakatsiz, sokin holatinigina idrok qilib qolmay, balki fazoda joy almashtirib turgan holatini, narsalarning harakatini ham idrok qilamiz. Harakatning hamma xillari singari, narsalarning ana shu mexanik harakatlari ham vaqt davomida voqe bo‘ladi. Shu sababli, harakat tez yoki sekin bo‘lmog‘i mumkin. Harakatning tezlik darajasini obyektiv o‘lchash uchun vaqtning bir miqdori, masalan, bir soniya olinib, bu harakatning tezligi jism shu vaqt ichida bosib o‘tgan masofa bilan aniqlanadi. Jism bir soniya ichida qancha katta masofa bosib o‘tsa, harakat shuncha tez hisoblanadi va aksincha.

Binobarin, harakatni idrok qilish ayni zamonda ham fazoni, ham vaqtni idrok qilish demakdir. Masalan, yurayotgan mashinani ko‘rib turar ekanmiz, biz ayni vaqtda uning bizga nisbatan joyini ham va biror nuqtaga nisbatan masofasi o‘zgargan (yaqinlashgan yoki uzoqlashgan) vaqtini ham idrok qilamiz. Idrok qilinayotgan harakatning tezligi shu narsa harakatining obyektiv (haqiqiy) tezligiga hamisha teng baravar

bo‘lavermaydi. Ayni bir xildagi harakat tezligi, vaziyatga qarab, har xil idrok qilinishi mumkin: goho ildamroq, goho sekinlashgandek ko‘rinadi. Tanamizga bevosita tegib turgan narsalarning harakatini biz teri sezgisi, muskul va ko‘ruv organlari vositasi bilan idrok qilamiz. Bizga nisbatan muayyan masofada turgan narsalarning harakatini ko‘z bilan ko‘rib idrok qilamiz.

Harakatni ko‘z bilan ko‘rib idrok etish ikki xil usul bilan: birinchidan, harakatda bo‘lgan narsaga ko‘zni uzmasdan qaraganda uning surati ko‘z to‘r pardasida hosil bo‘ladi, ikkinchidan, ko‘zimizni harakatda bo‘lgan narsa tomon yuritish, harakatini kuzatib borish bilan voqe bo‘ladi. Ko‘zimizni harakatlanuvchi narsa tomon yuritib idrok qilingan harakatga qaraganda, ko‘zimizni uzmasdan (yuritmasdan) idrok qilingan harakat ancha tez harakatdek ko‘rinadi. Odatda, harakat ana shu ikkala usul bilan bir yo‘la idrok qilinadi. Ikki usulning birlashgani uchun idrok qilinayotgan harakatning tezligi ancha aniq bilib olinadi.

Harakat idrokini nisbiy va g‘ayri nisbiy idrok deb ataladigan ikki xilga bo‘lish rasm bo‘lgan. Harakatni nisbiy idrok qilish deyilganda, biz harakatlanuvchi narsa va shu narsaning harakati bog‘langan yoki yonidan o‘tgan sokin nuqta ham ayni vaqtda birgalikda idrok qilinishini tushunamiz. G‘ayri nisbiy idrok deb harakatda bo‘lgan narsani boshqa narsalardan ayrim holida idrok etishni aytiladi. Obyektiv tezligi baravar bo‘lsa ham, nisbiy harakat ancha tez, g‘ayri nisbiy harakat esa ancha sekin harakatdek idrok qilinadi.

Harakatning tezdek yoki sekindek ko‘rinishi shu harakatning obyektiv tezligiga hamda harakatda bo‘lgan buyumning ko‘zimizdan uzoq-yaqin bo‘lishiga bog‘liq: u bizdan qancha uzoq bo‘lsa, uning harakati ham shuncha sekindek ko‘rinadi. Idrok qilinayotgan harakatning tez yoki sekindek ko‘rinishi buyumning muayyan vaqt davomida o‘tadigan harakatini idrok qilganda hosil bo‘ladigan qarash burchagining katta-kichikligi bilan belgilanadi. Harakatda bo‘lgan buyumlarni idrok qilgan paytda qarash burchagi kattalashadi. Qarash burchagi harakatlanuvchi buyum bosib o‘tayotgan fazo nuqtalaridan bir-birini kesib ko‘zga keluvchi nurlardan hosil bo‘ladi. Muayyan vaqt ichida (masalan, bir soniya ichida) hosil bo‘lgan qarash burchagi qancha katta bo‘lsa, harakat ham shuncha tez harakatdek idrok qilinadi.

Idrokning konstantligi

Idrokning konstantligi shundan iboratki, bironta narsani idrok qilishdan hosil bo‘lgan obraz, idrokning fizik sharoiti o‘zgarib tursa ham, doimo shu obraz holicha qolaveradi.

Idrokning konstantligi ko‘rish idroklarida, narsalarning katta-kichikligini, ularning shakli va ranglarini idrok qilishda, ayniqsa, yaqqol

koʻrinadi. Bizga maʼlumki, biror narsadan uzoqlashsak, uning koʻzimiz toʻr pardasidagi surati (aksi) kichrayadi, ammo shu narsaning obrazi bu bilan oʻzgarmaydi, oʻzgarganda ham bilinar-bilinmas oʻzgaradi. Masalan, ayni bir qalamni 20 *sm* va 1 *m* masofadan turib idrok qilinsa ham, baribir uning uzunligi oʻzgarganligi sezilmaydi, holbuki uning koʻz toʻr pardasiga tushgan surati oʻzgaradi, yaʼni qalamni 20 *sm* masofadan turib koʻrishga nisbatan 1 *m* masofadan koʻrilganda, qalamning koʻz toʻr pardasiga tushadigan surati 5 marta qisqaradi. Shu qalamning sezilarli darajada kaltaroq koʻrinishi uchun uni hiyla uzoq masofadan turib koʻrish kerak boʻladi. Toʻgʻri burchakli stol bizdan 1 *m* yoki 10 *m uzoqroq*da tursa ham biz unga toʻgʻridan yoki yondan qarasak ham, uning kattaligi va shaklining aksi koʻz toʻr pardasida har safar oʻzgarib turishiga qaramay, baribir hamisha oʻz shakli va katta-kichikligini oʻzgartirmagandek, boyagicha idrok qilinaveradi. Kosaga toʻgʻridan qarasak, shakli dumaloq ekanini koʻramiz, ammo ana shu kosaga yondan qarasak, qarash burchagi oʻzgarganligidan uning koʻz toʻr pardasiga tushgan surati tuxumsimon choʻzinchoqroq shaklda boʻladi. Biz esa doimo uni dumaloq shaklida idrok qilamiz. Bu safar ham narsaning idrok qilinayotgan shakli, uning haqiqiy, obyektiv shakliga muvofiq boʻlib, doimo toʻgʻri idrok qilinadi. Ayni shu kabi konstantlik ranglarni sezishda ham roʻy beradi. Yorugʻlik darajasi turli xil boʻlganda ham narsalarning rangi, narsalar qaytargan yorugʻlik nurlarining fizik tarkibi oʻzgarishiga qaramay, biz doimo bir tusda idrok qilaveramiz. Masalan, oq qogʻoz elektr chirogʻining sargʻish nurida ham, yoki u yashil barglar soyasida yotsa ham baribir u bizga oppoq boʻlib koʻrinaveradi. Holbuki, bu ikki vaziyatda ham qogʻoz yuzidan qaytariladigan nurlarning fizik tarkibi oʻzgaradi. Yozuv qogʻozi qosh qoraygan paytda ham oppoq, qora bosma harf bilan yozilgan xat esa quyosh yorugʻida ham qop-qora boʻlib koʻrinaveradi, holbuki qosh qoraygan paytda qogʻoz yuzidan qaytarilgan nurlarning kuchi, quyosh yorugʻida bosma xatdan qaytarilgan nurlarga qaraganda zaifroqdir. Maʼlumki, bir parcha koʻmirdan tushki vaqtda qaytariladigan nurlar miqdori tong yorishish paytida bundan qaytariladigan nurlar miqdoriga qaraganda bir necha marta koʻpdir. Holbuki, koʻmir tush vaqtida ham qop-qora, boʻr esa tong otarda ham, gʻira-shira paytda ham, hatto tunda ham, baribir oppoq boʻlib koʻrinadi.

Konstantlik hodisasi shuni koʻrsatadiki, biz narsalarni koʻrib turgan paytimizda, ularning koʻz toʻr pardasiga tushgan suratiga aynan muvofiq holda koʻrmay, balki shu narsalar haqiqatda qanday mavjud boʻlsa, shu holda koʻramiz.

Idrokning konstantligi odamning tajribasi jarayonida, amaliy faoliyatida vujudga kelib, mustahkamlanadi. I. P. Pavlov koʻz bilan koʻrib idrok etish konstantligi uchun fiziologik asos boʻlib xizmat qiladigan

muvaqqat bog‘lanishlarga oid reflektor faoliyatning tashkil topish xususiyatlarini ochib berdi, «bironta narsaning haqiqiy katta-kichikligi to‘g‘risida tasavvur hosil qilmoq uchun, – deb yozadi Pavlov, – shu narsaning ko‘z to‘r pardasiga tushgan surati ma’lum katta-kichiklikka ega bo‘lmog‘i va ko‘z soqqasining sirti va ichki muskullarining ma’lum ravishda birlashib ishlamog‘i talab qilinadi. Ko‘z to‘r pardasi va ana shu muskullardan keluvchi qo‘zg‘alishlarning muayyan kombinatsiyasi, muayyan kattalikda bo‘lgan narsani teri sezgisi orqali idrok etishdan hosil bo‘lgan qo‘zg‘alishlar bilan bir necha marta ayni vaqtda to‘g‘ri kelaverib, narsaning haqiqiy kattaligidan hosil bo‘lgan shartli qo‘zg‘ovchi bo‘lib qoladi» (Полное собрание сочинений, III tom, 1-kitob, 121-bet).

I. P. Pavlov aytib o‘tgan ko‘z muskullari harakati bilan narsaning ko‘z to‘r pardasiga tushgan surati o‘rtasida ana shu tariqa hosil bo‘lgan bog‘lanishlar doimo turmushda mustahkamlanib turadi, shuning uchun ham bu bog‘lanishlar idrok konstantligini nerv-fiziologik tomondan belgilab beradi.

Konstantlik hodisasi voqelikni bilishda, tevarak-atrofdagi muhitni fahmlab, kunda amaliy ish ko‘rishda juda katta ahamiyatga egadir. Idrokimizda konstantlik bo‘lmaganida edi, biz har bir qimirlashimizda, boshimizni salgina burganimizda, yorug‘lik o‘zgarib turganida, narsalar o‘z joylaridan andakkina siljiganida ham xuddi shu narsalarni har gal butunlay boshqa-boshqa, yangi notanish narsalardek idrok qilardik, biz hatto o‘z narsalarimizni ham ulardan hatto yarim metr uzoqlashgan taqdirda, taniy olmasdik.

Illuziyalar

Ba’zi hollarda narsalar noto‘g‘ri, yanglish idrok qilinishi mumkin. Narsalarni bu tariqa noto‘g‘ri idrok qilishni **illuziya** deb ataladi. Masalan, agar biz 28-rasmda ko‘rsatilganidek, ko‘rsatkich va o‘rta barmog‘imizni chalishtirib, no‘xat yoki bironta dumaloq narsani chalishtirilgan ikkala barmog‘imizning uchi bilan bosib turib, ayni bir vaqtda aylantiraversak (biz no‘xatni aylantiraylik), barmoqlarimiz tagida bitta emas, balki ikki no‘xat bordek his qilamiz. Ana shu holda bir narsaning ikki bo‘lib sezilishini Aristotel (Arastu) illuziyasi deyiladi. Og‘irligi aynan teng, ammo kattaligi har xil bo‘lgan ikki buyumni ketma-ketiga ushlab turilsa, kattasi yengilroq, ikkinchisi og‘irroqdek tuyuladi. Metalldan ishlangan 1 *kg* tarozi toshi, 1 *kg* paxtadan og‘irroqdek his qilinadi. Bu hol geometrik illuziyalar deb nom berilgan illuziyalarda, ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi. Masalan, uzunligi baravar bo‘lgan ikki chiziqning chetlariga ikki xil burchaklar chizilsa, illuziya paydo bo‘ladi, ya’ni burchaklari tashqariga qaratilgan chiziqqa nisbatan burchaklari ichkari tomonga qara-

28-rasm.



29-rasm.

tilgan chiziq kaltaroq bo‘lib ko‘rinadi.

Bir nechta parallel chiziqlar ustidan qiya chiziqlar chizilsa, bu chiziqlar parallel emas, balki har xil tomonga qarab ketgan chiziqlardek tuyuladi (29-rasm).

Ikkita teng burchakdan bittasi chiziqlar bilan to‘latilsa, ikkinchisiga qaraganda kattaroq bo‘lib ko‘rinadi. Ikkita baravar doira shaklini chizib, bulardan birini shu doiradan kattaroq, ikkinchisini esa o‘zidan kichikroq, doiralar ichiga olinsa, ikkinchi doira kattaroq ko‘rinadigan bo‘lib qoladi.

Illuziyaning yuqorida keltirilgan namunalari hamma aqli raso odamlarda albatta bo‘ladigan illuziyalardandir. Bunday illuziyalarning muayyan qonuniyatlari bor. Masalan, yuqorida bayon qilingan Aristotel illuziyasining paydo bo‘lish sababi shuki, bunda bitta narsa barmoq uchlarimizning terisi yuzidagi shunday ikki nuqtaga tegadi, odatdagi tabiiy sharoitda esa bitta narsa ana shu ikki nuqtaga hech qachon birdaniga tegib turmaydi. Og‘irligi baravar bo‘lib, kattaligi har xil bo‘lgan buyumlardan kichikrog‘i kattarog‘iga qaraganda og‘ir ko‘rinishining sababi shun-



30-rasm.

daki, odam hajmi kattaroq buyumning hajmi kichikroq buyumdan og‘ir ekanini o‘z tajribasida doimo sinab kelgan, binobarin, hajmi har xil buyumlarni ko‘z bilan idrok qilganda beixtiyor shu tajribasiga tayanadida, kattaroq buyumni ushlaganida ko‘proq zo‘r beradi, kichikroq buyumni qo‘liga olganida uncha zo‘r bermaydi, natijada og‘irligi baravar bo‘lgani bilan zo‘r berish yoki muskullarning qarshilik ko‘rsatishi uchun sarf qilingan kuch darajasi har xil bo‘lganligidan kichikroq buyum og‘irroqdek his qilinadi.

Idrok qilib turgan shaxsning psixikasida ro‘y beradigan o‘zgarishlar bilan tug‘iladigan tasodifiy illuziyalar ham bo‘ladi. Masalan, cho‘lda suvsagan kishi uzoqda yarqirab turgan sho‘rxok yerni ko‘l deb o‘ylashi (lekin bu illuziyani sahrodagi sarobdan farq qila bilish kerak) yoki o‘rmondagi to‘nka odamning ko‘ziga bironta yirtqich hayvonga o‘xshab ko‘rinishi va hokazo shu kabi illuziyalar jumlasidandir.

Gap nutq sohasida ham illuziyalar ko‘p uchrab turishi hammaga ma’lum. Bu xil illuziyalar shundan iboratki, birovning nutqidagi ayrim so‘zlar boshqa tovush tarkibidagi yoki boshqa bir ma’noda aytilgan so‘zdek eshitiladi. Bunday hollarda odamlar odatda «yaxshi eshitmay qoldim», «boshqacha tushunibman» deb gapiradilar. Eshitish organining sog‘ bo‘lishiga qaramay, birovning nutqini noto‘g‘ri eshitish sababi suhbatdoshlardan birining gap borayotgan narsa haqida yetarli ma’lumoti bo‘lmasligida yoki e’tibori boshqa narsaga chalg‘ib ketib, gapni chala eshitganligidadir. Illuziyani gollutsinatsiyadan farq qilish lozim. Illuziya shu onda sezgi organlarimizga ta’sir qilib turgan bir narsani yanglish, noto‘g‘ri idrok qilish bo‘lsa, gollutsinatsiya yo‘q narsalarni, tashqi ta’sirotsiz «idrok qilinishidir»: o‘rni tagida yo‘q narsaning ko‘zga bordek ko‘rinishi, yo‘q ovozlarning quloqqa eshitilishi, yo‘q narsalarning isi dimoqqa urilishi va boshqa shu kabilar gollutsinatsiya mahsulidir. Gollutsinatsiya shaxsning go‘yo biror narsani ko‘rgandek, eshitgandek, ushlagandek, is bilgandek va boshqa shu kabi tasavvuridir, xolos. Gollutsinatsiya ko‘pincha kasallikdan darak beruvchi alomatdir, u nerv sistemasi bironta zaharli narsa (alkogol, kokain, nasha) bilan ta’sirlanganda, nerv sistemasini buzadigan kasalliklar oqibatida ro‘y beradi.

Ba’zi hollarda bosh miya yarim sharlari qobig‘idagi ba’zi asab markazlarining zararlanishi natijasida odatlanilgan harakatlarni bajarish qobiliyati buziladi yoki yo‘qoladi. Buni psixologiyada apraksiya (yunoncha – harakatsizlik) deb ataladi. Apraksiya – psixologik nuqson bo‘lib, u elementar harakatlarni idrok qilish harakatini, sezgirlikni, nutqiy buzilishiga, mehnat va o‘qishni tushuna olmaslikka sabab bo‘ladi.

Idrokning sifatlari

Idrokka xos sifatlar ajratiladi. Idrokning tezligi, to‘laligi, ravshanligi va aniqligi yoki to‘g‘riligi uning sifatlaridandir. Idrokning tezligi idrok qilinayotgan narsaning sezgi organlarimizga ta’sir qila boshlagan paytdan, to bu narsa obrazini anglab olgunimizgacha o‘tgan vaqt bilan o‘lchanadi. Buni anglash odatda: «Bu falon narsa ekan» yoki «Men falon narsani ko‘rayapman, eshityapman va hokazo» deb tasdiqlash (gapirish) da ifodalanadi. Obrazning aniqlab olinishi yana organizm idrok qilinayotgan narsani tanish (oriyentirovka) yuzasidan qilgan harakat reaksiyasida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Idrokning tezligi idrok asosida yotgan sezgilarning tezligiga baravar, yoxud hiyla sekinroq ham bo‘lmog‘i mumkin. Idrokning u yoki bu darajada sekin o‘tishi ma’lum darajada appersepsiya bilan ham belgilanadi. Idrokning tezligi soniyaning o‘n, yuz va mingdan bir qismi, ba’zan esa soniyalar bilan o‘lchanadi.

Mazmun jihatdan idrok *to‘la* yoki *to‘la bo‘lmasligi* mumkin. Idrokning to‘laligi narsaning ayni idrokda aks etgan belgilarining miqdori va xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Idrok qanchalik to‘la va sermazmun bo‘lsa, u shuncha aniq bo‘ladi. Mazmunan to‘liq bo‘lmagan idrok obrazlari ayni vaqtda tussiz va siyqa bo‘ladi. Idrokning aniqligi idrok obrazlari idrok qilinayotgan narsalarga qanchalik muvofiq bo‘lishida bilinadi. Idrokda faqat idrok qilinayotgan narsaning ayni vaqtda mavjud bo‘lgan belgilari aks ettirilsa, u aniq idrok bo‘ladi. Idrokning mazmunida idrok qilinayotgan narsada yo‘q bo‘lgan belgilar ham bo‘lsa, u noaniq idrok bo‘ladi. Bunday belgilar biron sabab bilan avval idrok qilingan narsalardan olib qo‘shiladi yoki xayolda yaratiladi. Yuqorida aytilganidek, har xil illuziyalar ana shunday noaniq idroklar jumlasidandir.

Butun psixik hayotimizda, faoliyatimizning hamma sohalari va xususan o‘qish-o‘qitishda idrokning ahamiyati kattadir. Shuning uchun hamisha idrokning sifatiga alohida e’tibor berish lozim bo‘ladi. Psixik hayotimizning butun boyligi sezgi va idroklarimiz orqali hosil bo‘lgan mazmundan voqe bo‘ladi. Idrok olamni bilish faoliyatimizning boshlang‘ich, asosiy momentidir. Idrok qilish yo‘li bilan hosil bo‘lgan ma’lumotlar xotiramizda saqlanib qoladi va so‘ngra ongimizning oliy jarayonlari — tafakkur, xayol, iroda faoliyati uchun asos bo‘ladi. Tasavvurlarimizning qanchalik to‘la va ravshan bo‘lishi idrokning sifati bilan belgilanadi. Idrok xilma-xil hissiyot va xususan estetik hislar manbayi bo‘lib xizmat etadi. Shu tuyg‘u hissiyotlarning xususiyatlari tegishli idroklarning u yoki bu sifatlariga hiyla darajada bog‘liq bo‘ladi. Idrok sifat atrof-tevarakdagi sharoitni to‘g‘ri va tez tushunib olish, inson faoliyatining har xil turlari — o‘yin, mehnat, sport mashqi va musobaqalari uchun ahamiyati kattadir. Xususan, ta’lim-tarbiya ishida idrokning sifatini e’tiborga olish katta ahamiyatga egadir. O‘qituvchi bergan har bir o‘quv

materialini o‘zlashtirish uchun o‘quvchi avvalo uni idrok qilmog‘i, ko‘rmog‘i, eshitmog‘i kerak. O‘quvchi idrok qilgan narsasini esda qoldiradi, tushunib oladi. O‘quvchi o‘quv materialini qanchalik tez, to‘la, ravshan va aniq idrok qilsa, u bu materialni shunchalik yengil va to‘g‘ri tushunib, fahmlab oladi, shunchalik oson, to‘la va mustahkam bilib oladi.

Shuning uchun o‘qish o‘qitishda idrokning sifatiga oid xususiyatlarni e’tiborga olish, o‘quv materialini eng yaxshi usulda idrok qilishni ta’min etish lozim, o‘qish-o‘qitish ishini shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchilar materialni tez, to‘la, ravshan va aniq idrok qila oladigan bo‘lsin. Buning uchun o‘quvchilar idrokning sifati qanday sabablarga bog‘liq ekanini bilishi kerak.

Idrokning sifati — uning tezligi, to‘laligi, ravshan va aniqligi — tashqi shartlar, organik va psixik shartlar bilan belgilanadi. Biz idrok qilayotgan narsa va hodisalarning xossalari idrokning sifatini belgilovchi tashqi yoki obyektiv shartlardir. Aniq va chiroyli qilib ishlangan rasm, kitob harflarining aniqligi, ravshan va to‘g‘ri talaffuz qilingan nutq tez, oson, to‘la va aniqroq idrok qilinadi. Idrok qilinayotgan paytdagi sharoit ham idrok sifatini ta’minlovchi obyektiv shartlar jumlasidandir. Masalan, ko‘rish idroki uchun joyning yaxshi yoritilgan bo‘lishi, eshitish idroki uchun — jim-jitlik alohida ahamiyatga ega. Ko‘rish yoki eshitish lozim bo‘lgan narsalarga nisbatan masofa ham shunday shartlardandir.

Nerv sistemasi va sezgi organlarining holati idrok sifatini belgilovchi organik shartdir. Umuman idrokning yaxshi sifati nerv sistemasi va sezgi organlarining sog‘lom, tetik bo‘lishiga bog‘liqdir. Nerv sistemasi kasal, charchagan yoki biror zahar ta’sirida buzilgan bo‘lsa, idrokning sifati pasayadi; idrok qilish sekinlashadi, idrok obrazlari xiralashadi, ba’zan esa juda ravshandek bo‘lsa ham aslida noaniq, noto‘g‘ri bo‘ladi. Sezgi organlarida biror nuqson bo‘lsa, idrokning sifati ham o‘zgaradi. Masalan, eshitish va ko‘rish organi zaif bo‘lganda eshitish va ko‘rish idroki to‘la va aniq bo‘lmaydi. O‘qish-o‘qitish ishida ko‘rish va eshitish organlari, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Shuning uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchining sezgi organlari (tibbiyot tekshirishiga qarab) qanday holatda ekanini bilishi kerak. Ko‘zi yaxshi ko‘rmaydigan yoki qulog‘i yaxshi eshitmaydigan o‘quvchilarni oldingi partalarga o‘tkazish zarurdir. Shunday hollar uchraydiki, ayrim o‘quvchilar dars materialini puxta esga olib qola olmaslik yoki, uni o‘qib ololmaslikdan emas, balki yaxshi eshita olmasliklari yoki ko‘ra olmasliklari oqibatida o‘zlashtira olmaydilar.

Mavjud tasavvurlar, tajriba va bilimlar, tafakkurning taraqqiyot darajasi, diqqatning faolligi, kishining hislari, qiziqish-havaslari va manfaatlari idrokning sifatini belgilovchi *subyektiv* yoki *psixik* shartlardandir.

Biror sohada tajriba, bilim kam bo‘lsa, shu sohaga doir yangi narsani idrok qilishi sekinlashadi, idrok chala, xira va noaniq bo‘ladi. Odamning qaysi bir sohada tajriba va bilimi qanchalik ko‘p bo‘lsa, u shu sohadagi narsalarni shunchalik tez idrok qiladi, idroki esa, mazmunan to‘la, ravshan va aniq bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, idrokning sifati uchun his-tuyg‘ular, diqqat va tafakkurning ahamiyati katta. Idrokning aniqligi, ravonligi, fahmlanganligi diqqat va tafakkurning taraqqiyot darajasiga bog‘liq. Illuziyalar tafakkur orqali tekshiriladi, aniqlanadi va shu tariqa idrokning aniqligiga erishiladi. Shuning uchun pedagog yangi materialni bayon qilishda avvalo o‘quvchilarda mavjud tasavvur va bilimlarini hisobga olishi kerak. Didaktikaning «ma’lumdan noma’lumga» degan asosiy qoidasidan, avvalo, o‘quvchilarning o‘quv materialini tez, to‘la, aniq idrok qilishni ta’minlash maqsadida foydalanish lozim. O‘quvchilar idrokining to‘la, ravshan va aniq bo‘lishi uchun o‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning diqqatini to‘la jalb qilish va tarbiyalashga, shuningdek, ularda kishiga nisbatan ijobiy hissiyot va qiziqishlar yaratish uchun harakat qilishi lozim.

III BOB. XOTIRA

I. XOTIRA TO‘G‘RISIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Miya po‘stida paydo bo‘lgan muvaqqat (shartli) bog‘lanishlar ko‘p yillargacha saqlanib turishi mumkin. Paydo bo‘lgan bu bog‘lanishlar vaqti-vaqti bilan takrorlanib, mustahkamlanib turilsa, u odamning butun umri bo‘yi saqlanib qolishi mumkin. Bu esa psixik faoliyatning zaruriy negizini tashkil qiladi.

Biz sezgan, idrok qilgan narsalar iz qoldirmasdan yo‘qolib ketmaydi, balki ma’lum darajada esda olib qolinadi, ya’ni esimizda saqlanib qoladi va qulay sharoitda yoki kerak bo‘lganda esimizga tushadi.

Shuningdek, kechirilgan tuyg‘u, fikr va qilingan ish-harakatlarimiz ham esimizda saqlanib qoladi va keyinchalik esimizga tushadi. Buni har kim o‘z tajribasidan yaxshi biladi. Masalan, o‘quvchilar maktabda o‘qitilayotgan narsalarini esda olib qoladilar, esda saqlaydilar va esga tushiradilar.

Kundalik tajribamiz ko‘rsatadiki, esda qolgan narsalarning hammasi ham esimizga tushavermaydi, ularning bir qismi unutiladi. Unutish ham xotiraga oid hodisadir.

Ta’sirotlarning ana shunday esda qoldirish va keyin esga tushirishning fiziologik asosi muvaqqat nerv bog‘lanishlaridir, bu muvaqqat bog‘lanishlarning hosil bo‘lish, mustahkamlanish va keyin jonlanish (tiklanish) jarayonidir.

Esda qoladigan narsa xotira materialini, esda saqlanib turadigan va esga tushiriladigan narsa esa xotiraning mazmunini tashkil qiladi.

Eng avval bevosita idrok qilingan narsa va hodisalar (uylar, ko‘chalar, daraxtlar, hayvonlar va hokazolar)ning obrazlari esda olib qolinadi, saqlanib qoladi va esga tushadi. Ko‘rgan badiiy surat va rasmlar, eshitgan musiqa kuylari, ashulalar va hokazolar esda qoladi.

Ilgari idrok qilingan narsalarning esimizga tushgan obrazlari tasavvur deb ataladi. Bu xotiramizda saqlanib qolgan idrok obrazlari bo‘lib, mazmunan obrazli xotiraga taalluqlidir. Odam xotirasining asosiy mazmunini nutq-so‘z materiali tashkil etadi. Idrok qilingan narsa va hodisalarning nomlari, o‘qilgan matnlar, so‘zlar, gaplar boshqalarning nutqi esda olib qolinadi, esda saqlanib qoladi va esga tushiriladi. Lekin nutq esda olib qolinganda u yoki bu oddiy tovushlar birikish sistemalari emas, balki nutqda ifodalangan ma’no, o‘zi va boshqalarning fikrlari esda qoladi, saqlanadi va esga tushadi. So‘zlarning ma’no jihatdan mantiqiy sur’atda bir-biriga bog‘lanib, esda qolishi va esga tushishi mazmunan so‘z logik xotirasi bo‘lib, obrazli xotiraga nisbatan, ancha murakkab aqliy faoliyatdir. Biz ko‘ngildan kechirgan tuyg‘ular, har xil muskul va ish-harakatlari ham xotira mazmunini tashkil qiladilar.

Shu sababli esda qoladigan materialning xilma-xil mazmuniga qarab, xotirani, odatda, obrazli, so‘z logik, emotsional (tuyg‘u-hissiyot) va harakat xotirasi kabi xillarga ajratiladi. Albatta, xotiraning ana shu xillarga bo‘linishi nisbiydir. Haqiqatda xotiraning shu hamma xillari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan, bironta narsaning esimizda qolgan va keyin esimizga tushirilgan obrazi gap bilan ifodalanadi, har bir tuyg‘u-hissiyot bironta bir tasavvurga, yoki fikrga, yoki ish-harakatga va hokazolarga bog‘liq holda tug‘iladi.

Shunday qilib, ongimiz aks ettirgan narsalarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchalik tiklash (esga tushirish) dan iborat bo‘lgan aqliy faoliyat xotira deyiladi.

Xotiraning ayrim jarayonlarini – esda olib qolish, esda saqlash va unutish, esga tushirish jarayonlarini ko‘rib chiqaylik.

II. XOTIRA JARAYONLARI. ESDA OLIB QOLISH

Xotira faoliyati esda olib qolishdan boshlanadi. Biz hamisha bir narsa yoki hodisani idrok qilishimiz, biron narsa haqida o‘ylashimiz singari hamisha biron narsa yoki hodisani esda olib qolamiz. Esda olib qolish jarayoni eng avval miya po‘stida idrok qilinayotgan narsalarning– buyum, surat, so‘z, fikr va hokazolarning «izlari» hosil bo‘lishidan va ayni vaqtda esda olib qolinadigan material bilan kishida mavjud bilim va tajriba o‘rtasida, esda qoladigan materialning ayrim qismlari yoki elementlari o‘rtasida bog‘lanish vujudga kelishidan iboratdir.

Esda qolishning nerv-fiziologik asosi bosh miya po‘stida yangi muvaqqat nerv bog‘lanishlari hosil bo‘lishidan iboratdir.

Esda olib qolishning tezligi, to‘laligi, aniqligi va mustahkamligi har xil bo‘lishi mumkin. Esda qoldirishning bu sifatlari esga tushirishning tezligi, to‘laligi va aniqligiga, shuningdek, nechog‘li tez yoki sekin unutilishiga qarab aniqlanadi. Tez, to‘la va aniq esga tushirish va tezda unutib qo‘ymaslik esda qoldirishning eng yaxshi sifatlaridandir.

Jumladan, unutishning tezligiga qarab, esda qoldirishning mustahkam bo‘lish-bo‘lmasligi aniqlanadi: puxta esda qolgan material sekin unutiladi yoki sira unutilmaydi. Shu sababli esda olib qolishning har xil sifati nimaga bog‘liq degan savolning tug‘ilishi tabiiydir. Xotiraning sifatini belgilovchi shartlarni bilish pedagogika uchun amaliy ahamiyatga ega, chunki bu shartlarni bilganda, eng mustahkam va eng tez esda qoldirishga erishmoq uchun nimalar qilish va nimalarni hisobga olish kerak ekani ma’lum bo‘ladi.

Turmushdagi kuzatishlar pedagogik amaliy va maxsus eksperimental tekshirishlar ko‘rsatishicha, esda qoldirishning sifatlari – uning tezligi, to‘laligi, aniqligi va puxtaligi, birinchidan, esda qoldirish xillariga, ik-

kinchidan, esda olib qolinayotgan materialga kishining (shaxsning) munosabatiga va uchinchidan, esda qoldirish uchun qo‘llanilgan maxsus metodik usul va priyomlarga bog‘liq bo‘lar ekan.

Biroq har holda esda mustahkam olib qolish, albatta, eng avval nerv sistemasining ahvoliga bog‘liqdir. Nerv sistemasi sog‘lom va tetik bo‘lsa, muvaqqat nerv bog‘lanishlar tezroq hosil bo‘lib, puxtaroq bo‘ladi, binobarin, esda olib qolish ham tez va puxtaroq bo‘ladi.

1. Esda olib qolish hollari

Esda qoldirish jarayonining asosida yotgan bog‘lanishlarning ikki xili ajratiladi. Bu bog‘lanishlarning qaysi biri asosiy o‘rin olganligiga qarab, assotsiativ va logik esda qoldirish xillari farq qilinadi.

Esda olib qolish faol jarayondir: bu faollik ikki xil bo‘ladi, shu sababli ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda qoldirish xillari ajratiladi.

Assotsiativ esda qoldirish. Bir vaqtda va bir yerda birin-ketin idrok qilingan ikki yoki bir qancha narsa va hodisalarning obrazlari o‘rtasida miyada hosil bo‘ladigan bog‘lanish **assotsiativ bog‘lanish yoki assotsiatsiya** deyiladi. Ana shu yo‘sinda hosil bo‘lgan assotsiatsiya yondoshlik assotsiatsiyadir. Masalan, bironta ashulani eshita turib, ayni zamonda shu ashulani aytayotgan odamning o‘zini ham ko‘rsak, shu ashulani (uning kuyi va so‘zlarini) idrok qilish bilan birga, ashula aytib turgan kishining o‘zini ham idrok qilish o‘rtasida yondoshlik assotsiatsiya hosil bo‘ladi. Bunday assotsiatsiyaning bizda hosil bo‘lganligi shundan bilinadiki, ana shu ashulani takror eshitganimizda yoki uni esimizga tushirganimizda, ashulani aytgan odamning obrazi ham darrov ko‘z oldimizga keladi.

O‘xshashlik assotsiatsiyalar – idrok qilinayotgan narsa bilan esga olinadigan narsa o‘rtasida o‘xshash belgilar bo‘lganda vujudga keladigan bog‘lanishlardir. Qush bilan samolyot yoki tarkibida bir-biriga o‘xshash tovushlar bor so‘zlar o‘rtasidagi assotsiatsiyalar shu jumladandir.

Qarama-qarshilik (kontrakt) assotsiatsiyalar hozir idrok qilinayotgan narsa bilan ilgari idrok qilingan narsa o‘rtasida qarama-qarshilik yuz berganda hosil bo‘ladigan assotsiatsiyadir (masalan, yorug‘lik va qorong‘ilik).

O‘xshashlik va qarama-qarshilik asosidagi assotsiatsiyalar ko‘pincha tashqi, ahamiyatsiz va tasodifiy belgilar asosida hosil bo‘ladilar. Ular turli vaqtda esda olib qolingan tasavvurlar o‘rtasida ham hosil bo‘lishlari mumkin. Esda olib qolishda qancha ko‘p va xilma-xil assotsiatsiyalar voqe bo‘lsa, esda qoldirish ham shunchalik mustahkam bo‘ladi Ammo faqatgina assotsiativ bog‘lanishlar asosida esda qoldirish, xususan biror matnni shu asosda yod olish kam natija beradi. Yolg‘iz assotsiativ bog‘lanishlarga suyanib esda qoldirishni **mexanik esda qoldirish** deyiladi.

Materialni, uning ichki ma'nosini tushunmasdan va uni mustaqil o'ylab chiqmasdan mana shu usulda yod olinsa, bu quruq takrorlashdangina iborat bo'lib qoladi; bu usul ko'p kuch sarf etishni talab qiladi-yu, ammo kam natija beradi va ko'p hollarda foydasiz bo'ladi. Mexanik esda olib qolishning uchiga chiqqan usulini **quruq yodlash** deyiladi. Bu usul bilan yod olish matnni, so'z va gaplarning ma'nosini tushunmasdan faqat ko'p marta takrorlab borishdan iborat bo'ladi.

Ma'nosiga tushunib yoki mantiqan (logik) esda qoldirish

Ma'nosiga tushunib yoki mantiqan (logik) esda olib qolish jarayonida asosiy o'rinda fikrlash jarayonlari turadi. Esda qoldirilayotgan materialning ayrim qismlari va elementlari o'rtasidagi ma'no va logik (mantiqiy) bog'lanishlarni fikr yuritish yo'li bilan ochiladi. Ma'no bog'lanishlarni ochish bironta narsaning obrazini oddiy esda olib qolish emas, balki narsa va hodisalarga xos bo'lgan eng muhim va zaruriy bog'lanishlarni ochish demakdir, bir guruh (sinf) doirasiga kirgan narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini, ular o'rtasidagi sababi va natija bog'lanishlarini aniqlash demakdir.

Assotsiatsiyalar asosida esda olib qolish singari ma'nosiga tushunib esda qoldirish bevosita idrok qilinayotgan narsalar, buyumlar, tabiat hodisalari va hokazo obrazlarini xotirada mustahkamlash jarayonida ro'y beradi. Ma'nosini tushunib esda olib qolish og'zaki materialni – nutq va kitob matnini esda qoldirishda, ayniqsa, katta rol o'ynaydi. Nutq tovushlari va nutq belgilari (harf, raqam va shu kabilar)ning bir-biri bilan bog'lanishlarida ifodalangan ma'no, fikr idrok qilinadi, fikrlar o'rtasidagi ichki mantiqiy bog'lanishlar ochiladi va aniqlanadi, tushunib olinadi va mulohazalar yuritiladi.

Ta'lim-tarbiya ishida tushunib esda qoldirishning ahamiyatini doimo esda tutish zarur. O'quvchilarni esda saqlab qolish zarur bo'lgan materialning mazmunini yaxshi tushunib olib, so'ngra uni o'rganib olishga odatlantirish kerak.

Tafakkur bilan chambarchas bog'langan nutq esda qoldirish jarayonida katta rol o'ynaydi. Nutq esda olib qolinayotgan material (obyekt) gina bo'lib qolmay, balki ham obrazli (aniq va ko'rsatma), ham abstrakt materialni eng yaxshi esda qoldirishning juda muhim sharti hamdir.

Fiziologik jihatdan bu hodisa avval tarkib topgan nerv bog'lanishlari sistemasining yangi nerv bog'lanishlar voqe bo'lishiga ta'sir etishi va esda qoladigan materialning xarakteri bilan izohlanadi. Chunonchi, ancha murakkab bog'lanishlar hosil bo'lishini talab qiladigan abstrakt-nazariy materialga nisbatan yaqqol ko'rsatmali material tezroq va osonroq esda qoladi.

Ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda qoldirish

Esda olib qolish ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo‘lmog‘i mumkin. Ixtiyorsiz esda qoldirish oldimizga hech qanday maqsad qo‘ymasdan, esga olinadigan materialni oldin belgilamasdan va maxsus usullar qo‘llamasdan, beixtiyor esda qoldirishdir. Masalan, biz, odatda, ko‘chada tasodifiy ko‘rgan kishilarning aft-basharasini, tasodifiy eshitib qolgan ba’zi gap va kuylarni beixtiyor esimizda (xotiramizda) saqlab qolamiz.

Ixtiyorsiz esda saqlab qolish bizning hayotimiz va faoliyatimizda juda katta o‘rin tutadi. Ayrim hollarda bironta yorqin obrazlar, so‘zlar, ayrim kishilarning aft-basharasi, o‘qilgan yoki eshitilgan jumlalar ixtiyorsiz ravishda esda olib qolinadi va xotirada uzoq saqlanib turadi. Esda olib qolinadigan material bizning ehtiyoj va manfaatimizga muvofiq bo‘lsa, bu material biz uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lsa, esimizda uzoq saqlanib turadi. Ixtiyorsiz esda olib qolishda hissiyot, ayniqsa, katta rol o‘ynaydi. Bizda bironta hissiyot tug‘diradigan material hissiyotimizga hech bir ta’sir qilmaydigan materialga qaraganda esimizda ham tezroq, ham mustahkamroq o‘rnashib qoladi. Ba’zan esa beixtiyor esda qoldirish ixtiyoriy esda qoldirishdan ko‘ra samaraliroq bo‘ladi.

Ixtiyorsiz esda olib qolish ixtiyoriy esda olib qolish jarayonidan batamom ayrilgan bo‘lmaydi: ko‘pincha ixtiyoriy esda qoldirishda ixtiyorsiz esda olib qolish yuz beradi yoki esda olib qolinadigan material biror amaliy faoliyat tarkibiga kirgan bo‘ladi.

Ixtiyoriy esda qoldirish ko‘zda tutilgan maqsadga muvofiq, tanlangan materialni ongli ravishda kuch berib maxsus esda qoldirishdir. Ixtiyoriy esda qoldirishda materialni puxta esda saqlab qolish maqsadida biz maxsus usullardan foydalanamiz: diqqatimizni to‘playmiz, idrok qilingan materialni takrorlaymiz, uning mazmunini o‘qib olish uchun harakat qilamiz, ilgarigi tajriba va bilimlarimiz bilan uni bog‘laymiz va hokazo.

Sistematik ravishda esda qoldirish **yodlab olish, o‘rganib olish** deyiladi. Bizning o‘quv ishlarimiz – bilimlarni o‘zlashtirish, tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilish asosan ixtiyoriy esda qoldirish yo‘li bilan bo‘ladi. Yodlab, o‘rganib olish-tartib bilan esda qoldirish demakdir.

Ixtiyoriy esda qoldirish anglab-bilib esda qoldirishdir. Ixtiyoriy esda qoldirishning nerv-fiziologik asosi birinchi signal sistemasi bilan o‘zaro munosabatda ikkinchi signal hosil bo‘ladigan bog‘lanishlardir.

Ixtiyoriy (irodaviy) esda olib qolish eng samarali va puxta esda qoldirishdir. Bunda esda olib qolish maqsadini ko‘zda tutishning esda olib qolish lozim bo‘lgan materialni tanlashning o‘ziyoq uni eng samarali yo‘sinda esda qoldirishga sabab bo‘ladi. Esda olib qolishda ma’lum materialni xotirada qoldirish zarur va kerak ekanini tushunish ahamiyatga egadir. Esda olib qolishga jazm qilish, maqsadni ko‘zlash, kerak materialni

tanlash, motivatsiya (nima maqsad bilan esda qoldirish kerakligini bilish) – bularning hammasi tafakkur faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli ixtiyoriy esda qoldirish asosan ma’nosiga tushunib, ongli va binobarin, eng unumli ravishda esda qoldirishdir.

Assotsiativ va ma’no bog‘lanishlari ham ixtiyoriy, ham ixtiyorsiz esda olib qolishda yuz beradi, deyish mumkin. Bunda assotsiatsiyalar ularning nerv-fiziologik asoslari bilan birga dastlabki va universal bog‘lanishlardir. «Muvaqqat nerv bog‘lanishlar, – deb yozadi I. P. Pavlov, – hayvonot olamida va bizning o‘zimizda ham bo‘ladigan eng umumiy (universal) fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir. Turli-tuman harakat, taassurot yo bo‘lmasa harflar, so‘zlar va fikrlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan bog‘lanishlardirki, bu bog‘lanishlarni psixologlar assotsiatsiya deb aytadilar». Ixtiyoriy esda qoldirish jarayonida asosiy o‘rinni ish «qiladigan hukm va tushuncha» shaklida ifodalanadigan ma’no bog‘lanishlari ham assotsiatsiyalar asosida hosil bo‘ladi.

2. Esda olib qolinayotgan materialga shaxsning munosabati

Esda olib qolishning muvaffaqiyati ko‘p darajada esda olib qolinayotgan materialga yoki shu material bilan aloqasi bo‘lgan faoliyatga shaxsning **ijobiy munosabati bilan** bog‘liq bo‘ladi. Bu munosabat qiziqish, diqqat-e’tibor tarzida namoyon bo‘ladi. Qiziqish muvaffaqiyatli esda qoldirishning eng birinchi shartlaridandir. Bizda qiziqish tug‘dirgan narsa tezroq va mustahkamroq esda qoladi. Biz, odatda, bizni qiziqtirmaydigan narsalarga e’tibor bermaymiz va ularni hatto payqamaymiz. O‘quvchilar qiziqqan, o‘zlari «sevgan» fanlarining mazmunini puxta o‘qib olishlarini har bir pedagog yaxshi biladi. Bu aytilganlardan ta’lim-tarbiya ishida mana bunday xulosa chiqadi: o‘quv materialini o‘quvchilarning xotirasida mahkam o‘rnatish uchun maktabda ta’lim ishini shunday olib borish kerakki, har bir fan o‘quvchilarda qiziqish, havas tug‘diradigan bo‘lsin. Esda qoldiriladigan materialga qiziqish, diqqatimizni shu materialga qaratadi, his-tuyg‘umizga ta’sir qiladi, zavqlantiradi va beixtiyor esda qoldirish jarayonlarini kuchaytiradi.

Qiziqish esda qoldiriladigan materialni, shaxsning o‘zi va jamiyat uchun ahamiyatini tushunish bilan bog‘liq bo‘lsa, esda qoldirish samaraliroq bo‘ladi. Diqqat esda mustahkam saqlab qolishning zaruriy shartidir. Diqqat esga olish lozim bo‘lgan materialga nechog‘li kuchli sur’atda qaratilgan bo‘lsa, u shunchalik tez va puxta esda qoladi, chunki diqqatning nerv-fiziologik asosi miya po‘stining bir qismida kuchli qo‘zg‘alish (optimal qo‘zg‘alish) o‘chog‘ining paydo bo‘lishidir. Ana shunday qo‘zg‘alish paydo bo‘lishi bilan yangi nerv bog‘lanishlar tezroq hosil bo‘lib, mahkam saqlanib qoladi. Ko‘pincha, ayrim kishilarning

o‘z xotirasining zaifligi, tez va puxta esda saqlab qololmasligi to‘g‘risidagi shikoyatlari analiz qilib ko‘rilganda, esda yaxshi saqlab qololmasliklarining sababi ular diqqatining bo‘shligida, tarqoqligida, miya po‘stidagi tegishli qo‘zg‘alish o‘choqlarining zaifligida ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bunday kishilar diqqatlarini bir nuqtaga jamlab qunt bilan ishlashga harakat qilishlari bilan ulardagi xotira ham kuchaya boradi.

Esda qoldirish usuli hayot va faoliyatning turli hollarida biror muddatgacha nimanidir qisqa yoki uzoq vaqtgacha esda qoldirishga to‘g‘ri keladi. Biz shunga asoslanib esda olib qolish qisqa, uzoq muddatli va operativ xotira deb ajratamiz. Shunday qilib, esda qoldirish usuliga yoki maqsadiga ko‘ra xotira qisqa muddatli va uzoq muddatliga bo‘linadi.

Muayyan (qisqa) vaqtdan keyin takror tiklash (eslash) maqsadida kerakli materialning esda saqlab qolingan vaqtlardagi xotira, qisqa *muddatli* xotira deb ataladi, qisqa muddatli xotira bir lahzali xotiradir. Chunki bunda material bir marta idrok qilinadi. Shundan keyin esa esda qolgan material qisqa muddatli xotiraga misol bo‘ladi. Ongda uning keyingi eslab qolinishi (saqlanishi)ga hech qanday zaruriyat yo‘q. Masalan, odam ishdan qayta turib yo‘l-yo‘lakay bir qancha ishlar qilishni: pochtaga kirish, xat tashlash, do‘kondagi yangi kitoblarni ko‘zdan kechirish, non hamda shakar va shuning singarilar sotib olishni belgilab oladi.

O‘quv tajribasida shunday hodisalar bo‘lib turadi. Ba’zi bir o‘quvchilar darsga yoki imtihonga tayyorlanar ekanlar, kerakli o‘quv materialini shunday usulda, ya’ni bu materialni faqat darsda yoki imtihonda eslash uchungina yod oladilar.

Qisqa muddatli xotira shunday holda, ya’ni kishi o‘ziga berilgan qandaydir vazifani aniq bajarganida namoyon bo‘ladi. Xotiraning bu turini boshqacha qilib operativ xotira deyiladi. Xotira faoliyatning shunday turlarida, ya’ni kerakli materialni va, ayniqsa, o‘quv materialini uzoq muddatgacha va butunlay esda saqlab qolishda uzoq muddatli xotira tariqasida namoyon bo‘ladi. Odatda har qanday o‘quv materiali ana shu usulda o‘zlashtirib olinadi.

Uzoq muddatli xotira maqsad asosida takrorlash orqali esda olib qolishdir. Material qancha ko‘p, ongli takrorlanilsa u esimizda uzoq saqlanadi va kerak vaqtida osonlikcha esga tushadi.

Operativ xotira esa – odamning shu vaqtdagi ish-harakatlari uchun xizmat qiluvchi xotira jarayoni. U inson bajarayotgan har bir yaqqol harakatlardan erishiladigan natijaning shart-sharoitlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi materialni yaxshi esda qoldirish uchun uni qismlarga ajratib mutolaa qiladi, yoki eng asosiy mazmun tagiga chizib qo‘yadi yoki yon daftarchasiga asosiy joylarini yozib oladi, materialni

bir-biriga bog‘lab esda qoldirish mumkin. Natijada u qiyin materialni ham osonlikcha o‘zlashtirishi mumkin.

Esda qolish usuli qandaydir biror muddat va sifatga ham ta’sir etib – esda qoldirishni mustahkamlaydi. Maxsus eksperimentlarda isbot qilinganki, kishining: «esimda uzoq saqlayman» yoki «esimdan aslo chiqarmayman» deb jazm qilgan narsasi xotirada mahkam o‘rnashib qolar ekan. Aksincha, qisqa bir muddat uchun (masalan, navbatdagi imtihonni berish uchun) esda qoldirishga jazm qilingan material tez unutiladi.

Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, o‘qituvchi ta’lim jarayonida darsni tushuntirganida, uyga vazifa topshirganida, o‘quvchi bilimini tekshirganida hamisha ma’lum ta’rif, qoida, parcha, tarix sanalari va shu kabilarni puxta va doimo esda saqlab qolishning zarurligini uqtirib bormog‘i lozim.

Darsni so‘raganda savolni faqat o‘tgan safargi topshiriq yuzasidangina berib qolmay, balki bundan oldin o‘tilgan materialdan ham savol berish kerak, bunday qilish o‘quvchilarni har bir yangi darsni doimo puxta esda saqlash maqsadi bilan o‘qishga odatlantiradi. Bunday qilish o‘quvchilarning o‘quv materialini puxtaroq esda qoldirishlariga yordam beradi.

3. Esda olib qolishda qo‘llaniladigan maxsus metodik usullar

Materialning tez va puxta esda olib qolinishi, ko‘p darajada, biz esda olib qolish maqsadida foydalanadigan alohida metodik usullarga bog‘liq bo‘ladi. Esda olib qolinayotgan materialni idrok qilish usullari, takrorlash va hokazolar shu jumladagi usullardir.

Puxta esda olib qolish shartlari

Tez va puxta esda qoldirish eng avvalo esga olinadigan materialning qanday idrok qilinishiga bog‘liq. Tez, ravshan va raso, aniq idrok qilingan narsa, odatda, esda tez va mahkam saqlanib qoladi. Shuning uchun ham idrokning sifatini belgilovchi shart ayni vaqtda xotiraning sifatini ham, ya’ni uning tezligini va puxta bo‘lishini ham belgilaydi.

Shunisi ham muhimki, materialni idrok qilishda qancha ko‘p sezgi organlari ishtirok etsa, material ham shuncha tez va puxta esda qoladi. Masalan, o‘quvchilar o‘quv materialini eshitish organlari vositasi bilan idrok qilib qolmay (faqat o‘qituvchining darsiga, sheriklarining baland ovoz bilan o‘qishiga quloq solish bilangina cheklanib qolmay), balki ko‘rish organlari vositasi bilan (darslikni o‘qish, undagi rasmlarni ko‘rish, turli ko‘rsatma qurollardan foydalanish), shuningdek, muskul harakatlari (yozib olish, so‘zlarni baland ovoz bilan aytish, o‘z ichida shivirlab aytish) vositasi bilan ham idrok qilganlarida, bu materialni yaxshi va mustahkam eslab qoladilar.

Takrorlash: Bosh miya po‘stida yangi puxta bog‘lanishlar hosil bo‘lmog‘i uchun taassurotlar bir necha marta takrorlanishi shart. Bironta material qancha ko‘p takrorlansa, shuncha mahkam esda qolishini hamma biladi. Takrorlash esda qoldirishning puxtaligiga ta’sir qiladigan eng muhim shartlardan biridir. Ammo takrorlash har doim ham samarali bo‘lavermaydi. Ba’zan takrorlash hech qanday natija bermasligi mumkin. Takrorlashning bir necha turlari bo‘lib, ularning natijalari ham turlichadir. Avvalo passiv va faol takrorlash usullarini farq qilish lozim.

Passiv takrorlash ayni bir materialni idrok qilishning o‘zini takrorlayverishdir. Passiv takrorlash ayni bir narsani bir necha karra ko‘zdan kechirish, o‘qib chiqish yoki eshitish demakdir. Ana shu tariqa takrorlash (ba’zan ko‘p marta takrorlansa ham) ko‘p vaqtlarda uncha katta natija bermaydi.

Faol takrorlash materialni esga tushirish asosida takrorlashdir. Faol takrorlash idrok qilingan materialni, masalan, o‘qilgan, eshitilgan materialni bir necha marta esga tushirib takrorlash demakdir. Kitobdan ko‘zni uzmasdan takror-takror o‘qib yod olishdan ko‘ra, faol qaytarish eng yaxshi natija beradigan usuldir. Shu sababli, o‘quvchi bir-ikki marta o‘qib chiqilgan materialni kitobga nazar solmasdan og‘zaki takrorlasa, material tezroq va puxtaroq esda qoladi. Esga olinayotgan materialni boshqa bir kishiga gapirib berish mustahkam esda qoldirish uchun katta ahamiyatga egadir.

Sidirg‘asiga takrorlash bilan taqsimlab takrorlash. Materialni faol usuldami, passiv usuldami, baribir, yo sidirg‘asiga, ya’ni orada ma’lum vaqt o‘tkazmay takrorlash, yoki taqsimlab, ya’ni orada ma’lum vaqt o‘tkazib takrorlash mumkin. Orada ma’lum vaqt o‘tkazib takrorlash, sidirg‘asiga, to‘xtovsiz takrorlayverishga qaraganda, hiyla natija berar ekan. Bir talay maxsus tajribalar shuni isbot qildiki, orada vaqt o‘tkazib takrorlaganda materialni puxta esda qoldirish uchun takrorlash ancha kamroq talab qilinar ekan.

Esda olib qolishda materialni taqsim qilish usulining ham ahamiyati katta: materialni yaxlit yoki parchalarga bo‘lib esda qoldirish mumkin. Material tushunarli va hajmi kichikroq bo‘lsa, yaxlit esda olib qolinishi ma’qul. Material katta bo‘lsa (masalan, katta bir she’r, doston), uni parchalarga bo‘lib, avval bir parchasini, keyin boshqa parchalarini birinketin yodlab olish kerak. Materialni taqsim qilganda, uning har bir parchasi tugal bir ma’no berishiga, mazmuni to‘liq bo‘lishiga albatta rioya qilish kerak.

III. ESGA TUSHIRISH VA UNING XILLARI

O‘tmishda idrok qilingan narsalarning his-tuyg‘u, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qaytadan tiklanishini esga tushirish deyiladi.

Esga tushirishning nerv-fiziologik asosi bosh miya po‘stida ilgari hosil bo‘lgan nerv bog‘lanishlarining qo‘zg‘alishidir.

Esga tushirishning: tanish, eslash, bevosita eslash, oradan ma’lum bir vaqt o‘tkazib eslash, ixtiyorsiz va ixtiyoriy eslash xillari bo‘ladi.

Tanish va eslash. Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni takror idrok qilganda, u narsa yoki hodisa esga tushadi, ana shuni tanish deymiz.

Oshnamizni yoki uyni tanish deganimizda, buning ma’nosi biz shu oshnamizni yoki uyni ilgari ko‘rganimizda hosil bo‘lgan obraz, his va fikrlarning oshnamizni yoki uyni ikkinchi ko‘rganimizda ongimizda tiklanishi demakdir.

Tanish aniq (to‘liq) va noaniq (yarim-yorti) bo‘lmog‘i mumkin. Yarim metr taniganimizda shu narsani idrok qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi bir tasavvur, his va fikrlargina g‘ira-shira esimizga tushadi, biz bu narsa bizga notanish emasligini his qilamiz, xolos. Lekin bu tasavvur va fikrlar xuddi shu narsani ilgari ko‘rganimizda tug‘ilgan tasavvur va fikrlarga bog‘lanmagan holda esimizga tushadi: masalan, bir odam ko‘zimizga issiq ko‘rinadi-yu, ammo uni qachon, qayerda ko‘rganimizni eslay olmaymiz.

Yarim-yorti tanishda shu narsa, umuman nima uchundir tanish ekani his qilinadi, lekin to‘liq esga tushmay turadi.

To‘liq, aniq tanishda esa shu paytda idrok qilinayotgan bir narsaga doir ilgari hosil bo‘lgan tasavvur va fikrlar ongimizda tiklanadi. Ana shu tasavvur va fikrlar bir talay boshqa tasavvur va fikrlar bilan bog‘lanib esga tushaveradi. Bunday holda biz shu narsani qayerda va qachon ko‘rganimizni ham bemalol eslay olamiz. Masalan, biz bir kishi bilan uchrashganimizda uning o‘zini ham taniymiz va ilgari u bilan qayerda, qanday sharoitda uchrashganimizni, nima to‘g‘risida gaplashganimizni va hokazolarni ravshan eslay olamiz. Ko‘pincha, yarim-yorti tanish, umuman tanish ekanini his qilish bir necha vaqtdan keyin to‘la, aniq tanishga o‘tadi. Bunga shu narsa bilan ilgari uchrashgan yerni ikkinchi ko‘rish yoki shu narsani ilgari qayerda ko‘rganimizning esga tushirilishi yordam beradi.

Tanish jarayonida idrok qilinayotgan narsaning nomi katta rol o‘ynaydi. Narsaning nomi bilan shu narsaning o‘zi o‘rtasida juda mahkam assotsiatsiya hosil bo‘ladi va biron narsaning nomi esga tushganda shu narsaga aloqasi bo‘lgan juda ko‘p boshqa tasavvurlar ko‘z oldimizga keladi. Masalan, biz bir kishi bilan uchrashib qolganimizda uni tanib yeta olmasak, familiyasini eshitish bilan darrov kim ekani esimizga tushadi.

Tanish ma’lum darajada har bir idrok jarayonining tarkibiy elementidir.

Eslash narsani, uning o‘zini shu paytda idrok qilmay turib, esga

tushirishdir. Eslaganda xotirada qolgan obraz, his va fikrlar shu paytda sezgi organlarining ishtirokidan tashqari esga tushadi. Masalan, biz bo‘lib o‘tgan voqealarni, o‘rganib olgan she’rni ana shunday esimizga tushiramiz. Tanish singari, eslash ham, to‘lalik va aniqlik jihatdan har xil bo‘lmog‘i mumkin. Esda qolgan narsa qisman esga tushsa, buni yarim-yorti eslash deymiz. Ammo esga tushgan materialning mazmuni esda qolgan materialga ma’lum darajada muvofiq bo‘lmasa, buni noaniq eslash deymiz.

Materialning muayyan mazmuni bilan birga, bu material qachon, qayerda va qanday sharoitda esda olib qolinganligi ham aniq esga tushsa – xotirlash mukammal va to‘la-to‘kis bo‘ladi.

Eslash jarayoni tanish bilan mahkam bog‘langan. Kundalik faoliyatimizda, ayniqsa, o‘quv ishida, esga tushirish jarayoni ko‘pincha tanishdan boshlanadi va shundan keyin esga keladi. Ko‘p hollarda bironta narsani mumkin qadar aniq va to‘la eslash uchun tanish momentlardan foydalanish kerak bo‘lib qoladi, o‘qilganni yoddan aytib berganda kitobga ahyon-ahyon ko‘z tashlash, o‘qituvchining yordamchi savoli shu jumladandir. O‘rganib-bilib olish jarayonida tanish – esga olinadigan materialni takror idrok qilish vositasi bilan mustahkamlanishidir.

Bevosita va oradan ma’lum bir vaqt o‘tkazib esga tushirish

Bevosita eslash va vaqt o‘tkazib esga tushirish ham tanish, ham eslash shaklida bo‘lmog‘i mumkin. Bevosita esga tushirish deb materialni idrok qilish ketidanoq, ya’ni esga olib qolish bilan esga tushirish o‘rtasidagi paytda ongimizda esga olinadigan materialdan boshqa hech qanday jarayon yuz bermaganda bo‘ladigan esga tushirishni aytiladi. Esga olish jarayonida biz ana shu xil esga tushirishdan, odatda, texnik bir usul tariqasida foydalanamiz. Masalan, she’rni yod olganimizda biz, odatda, bir necha satrni o‘qigach, kitobga qaramasdan takrorlaymiz, ya’ni bevosita esga tushiramiz. Kishi biror topshiriqni tez bajarganda muayyan bir qarorga kelib, uni darrov amalga oshirganda bevosita esga tushirish yuz bergan bo‘ladi.

Bevosita esga tushirishdan iborat bo‘lgan xotira faoliyati ba’zan qisqa muddatli yoki operativ xotira tarzida namoyon bo‘ladi. Yaxlit-yaxlit parchalarni ana shu usulda bevosita esga tushirish esda olib qolish jarayonini jadallashtirishi mumkin.

Bir karra ko‘zdan kechirilgan yoki eshitilgan materialning bevosita esga tushirilgan miqdoriga qarab, xotiraning ko‘lami (hajmi) aniqlanadi. Materialning ko‘p qismini bevosita esga tushira oladigan kishining xotira ko‘lami keng hisoblanadi. Xotiraning ko‘lamini, masalan, quyidagicha aniqlasa bo‘ladi: sinalayotgan kishiga bir necha so‘z yoki raqamlardan iborat materialni o‘qib chiqish yoki eshitish va so‘ngra bu materialni

darrov to‘la-to‘kis va berilgan tartibda esga tushirish kerakligi uqtiriladi. Sinalayotgan kishining materialni qanchalik to‘la va tartibini aynan saqlab esga tushira olishiga qarab, uning xotira ko‘lami aniqlanadi. 6-7 raqamdan yoki so‘zdan 1-2 tasigina esga tushirilsa, xotiraning ko‘lami tor hisoblanadi, 5-6 raqamni yoki so‘zni eslab aytilsa xotiraning ko‘lami keng hisoblanadi. Xotira ko‘lamini mashq qilish yo‘li bilan o‘stirish (kengaytirish) mumkin.

Vaqt o‘tkazib esga tushirish esda olib qolingan narsani oradan bir qancha, ba’zan ancha ko‘p vaqt o‘tkazib esga tushirishdirki, shu orada ongimizdan boshqa jarayonlar (fikr-tuyg‘ular, tasavvur va shu kabilar) ham o‘tgan bo‘ladi. Masalan, hayotimizda bundan bir necha yillar ilgari bo‘lib o‘tgan voqealarni ana shu tariqa eslaymiz. O‘quvchining sinfda darsdan berilgan savolga javob bera turib, bundan bir necha kun yoki bir necha soat ilgari o‘rganib-bilib olganlarini xotirlashi ham shu jumladandir. Xotira faoliyatining asosiy xizmati vaqt o‘tkazib esga tushirishdadir. Xotiraning qiymati ham shundaki, biz xotira tufayli esda qolgan materialni ma’lum muddatdan keyin ham eslash imkoniyatiga ega bo‘lamiz va binobarin, tajriba to‘play olamiz hamda hosil bo‘lgan tajribani esimizda uzoq vaqtgacha saqlab tura va undan foydalana olamiz. Xotiraning shu xususiyati tufayli biz bilim va malakalar hosil qilamiz va bu bilim hamda malakalardan zarur bo‘lgan holda bemalol foydalana olamiz.

Ixtiyorsiz va ixtiyoriy esga tushirish

Esga tushirish ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo‘ladi. **Ixtiyorsiz esga tushirish** o‘z oldiga ma’lum bir maqsad qo‘ymasdan, esga tushirish uchun material tanlamasdan va zo‘r bermasdan esga tushirishdir. Biron narsani beixtiyor eslaganda o‘z-o‘zidan esga tushib qoladi. Ammo Haqiqatda o‘zidan sababsiz hech narsa vujudga kelmaydi, albatta. Beixtiyor esga tushirish ham hamisha bironta sabab bilan bo‘ladi. Bironta narsaning idrok qilinishi, bironta tasavvur yoki fikrning tug‘ilishi beixtiyor eslashga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, «maktab» degan so‘zni eshitgan yoki o‘qiganda bizning ko‘z o‘ngimizda maktabning ichki ko‘rinishi, o‘quvchilar, o‘qituvchilar va shu kabilar beixtiyor gavdalanadi, shular to‘g‘risida tasavvur tug‘iladi. Paydo bo‘lgan bir tasavvur yoki fikr boshqa bir tasavvur yoki fikrni uyg‘otmog‘i, bu fikr va tasavvurlar o‘z navbatida yana boshqa fikr va tasavvurlarni tug‘dirmog‘i mumkin va hokazo.

Tasavvur va fikrlarning ana shu tariqa beixtiyor tug‘ilib turishi tartibsiz sodir bo‘lmaydi, balki ma’lum bir tartib asosida sodir bo‘ladi. Bu tartib esda olinib qolishda hosil bo‘ladigan assotsiatsiyalar bilan belgilanadi. Shu sababli, beixtiyor esga tushirish yondashlik, o‘xshashlik, qarama-qarshilik assotsiatsiyalari asosida bo‘lishi mumkin.

Yondashlik assotsiatsiyasi. Bu assotsiatsiya asosida avvalo tasavvurlar tug‘iladi. Ilgari ayni bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilingan va esda olib qolingan narsalardan biri keyinchalik tasavvur qilinsa, bu tasavvur ikkinchi narsa haqidagi tasavvurning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Masalan, biz ilgari A, B, D, E, F degan harflarni ayni bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilib, agar bu narsalar mustahkam esda qolgan bo‘lsa, A ni ikkinchi marta ko‘rganimizda, bizda beixtiyor B haqida, so‘ngra D, E haqidagi tasavvurlar ham tug‘iladi va hokazo. *Daraxt* degan so‘zni eshitganimizda, bizda daraxtning tanasi, shoxlari, barglari, o‘rmonzorlar haqida tasavvur paydo bo‘ladi.

O‘xshashlik assotsiatsiyasi umumiy (o‘xshash) belgilari bo‘lgan tasavvurlarning bir-birini tug‘dirishidir. Bironta narsani idrok yoki tasavvur qilinganda, shunga o‘xshagan boshqa bir narsa ham beixtiyor tasavvur qilinadi. Masalan, oshnamizning suratini ko‘rar ekanmiz, uning obrazi ko‘z oldimizda gavdalanadi.

O‘xshashlik assotsiatsiyasi biror narsa yoki hodisaning obrazi yoki bu haqida tug‘ilgan fikr boshqa bir shunga o‘xshash narsani eslatganda voqe bo‘ladi. Masalan, ko‘p hollarda suhbatdoshlar boshdan kechirilgan, eshitgan, shohid bo‘lgan va o‘zlari xuddi o‘xshash vaziyatlarda ishtirok qilgan turli voqealarni beixtiyor esga tushiradilar. Turli voqealarda, urushda, ovda va umuman, biror sarguzasht va shu kabilarda ishtirok qilganlari haqidagi hikoyalar o‘xshatish asosida beixtiyor esga tushirish shu jumladandir. O‘xshashlik assotsiatsiyasi poetik metaforalar yaratishda, masalan, to‘lqinlar shovqinini olomon shov-shuviga, majnuntolni majnun kishi obraziga o‘xshatish kabi hollarda katta rol o‘ynaydi.

Qarama-qarshilik assotsiatsiyasi – bironta narsa yoki hodisalar to‘g‘risidagi tasavvur yoki fikrlar o‘ziga qarama-qarshi fikr va tasavvurlarning tug‘ilishiga sabab bo‘lishidir. Masalan, *qish-yoz* haqida, *oq-qora, katta-kichik, yoshlik-qarilik* haqida tasavvur uyg‘onishi mumkin va hokazo.

Maxsus o‘tkazilgan tajriba va oddiy kuzatishlar ko‘rsatganidek, beixtiyor eslash jarayonida eng ko‘p o‘rinni yondashlik assotsiatsiyasi ishg‘ol qilar ekan. O‘xshashlik va qarama-qarshilik assotsiatsiyalari esa kamroq uchrab turar ekan.

Shunday qilib, assotsiatsiyalar esda olib qolishning qonuniy shartidir, ayni zamonda xotirada o‘rnashib qolgan materialni ham esga tushirish yo‘llaridir.

Ixtiyorsiz va ixtiyoriy esga tushirish va idrok qilish jarayonida ayrim so‘zlar, gaplar, fikr va ish-harakatlar o‘rtasida yangi va murakkabroq assotsiatsiyalar sistemasi vujudga keladi. Sabab bilan natijaning bog‘lanishlari, grammatik qoidalar bilan yozuv o‘rtasidagi va arifmetik qoidalar bilan hisob amallari o‘rtasida hosil bo‘ladigan bog‘lanishlar

shu jumladandir. Assotsiatsiya jarayonlari har xil tezlikda voqe bo‘ladi. Assotsiatsiyaning tezligi ma’lum bir vaqt ichida yuz berib, ongimizda almashib turadigan fikr yoki tasavvurlar miqdori bilan belgilanadi. Assotsiatsiyalar tezligi alohida asbob-xronoskop bilan aniqlanadi va soniyaning o‘n yoki yuzdan bir hissasi bilan o‘lchanadi.

Assotsiatsiyalarning tezlik darajasi bir talay sabablarga; nerv sistemasining holatiga, esga tushadigan narsaning ongimizda nechog‘li mustahkam o‘rnashib qolganligiga, kishining kayfiyati, his-tuyg‘ulari va shu kabilarga bog‘liq bo‘ladi.

Ixtiyorsiz idrok qilish singari, ixtiyorsiz esga tushirish ham bizda doimo bo‘lib turadigan jarayondir. Har bir idrokimiz tarkibiga o‘tmishdagi tajriba va mavjud bilimlarimizning qandaydir bir elementi albatta kirgan bo‘ladi. Xayol, tafakkur va nutq jarayonlari faqat ixtiyorsiz esga tushadigan tasavvur va fikrlarimizga bog‘langan holda voqe bo‘ladi.

Ixtiyoriy esga tushirish – biron maqsad bilan esga olinishi kerak bo‘lgan materialni tanlab, harakat qilib, maxsus esga tushirish demakdir. Bunda, asosan, assotsiatsiya yo‘li bilan esga tushirilgan materialdan faqat maqsad uchun kerak bo‘lgani maxsus tanlanadi. Tanlashning o‘zi va esga tushirmoqchi bo‘lgan narsani sistemaga solish esa tafakkur ishidir. Ixtiyoriy esga tushirish bilib, anglab esga tushirishdir. Biroq, u assotsiatsiyalar va ixtiyorsiz tug‘iladigan momentlardan ayrilgan holda voqe bo‘lmaydi. Masalan, tarixiy voqealarni, tarix sanalarini, tarixiy shaxslarning ismlarini, ma’lum joylarning nomlarini, har xil ta’riflarni, qoidalarni va shu kabilarni ixtiyoriy esga tushiriladi. O‘quvchi darslarni ana shu tariqa esga tushiradi. Ixtiyoriy esga tushirishda ham materialni esda olib qolish jarayonida hosil bo‘lgan assotsiatsiyalar katta rol o‘ynaydi. Ixtiyoriy esga tushirish, odatda, assotsiatsiya jarayonlariga va faol fikrlashga bog‘liq holda yuz beradi.

Esga tushirishda ko‘pincha qiynalib qolish hollari bo‘ladi va esga tushirish jarayoni to‘xtalib qolgandek bo‘ladi. Biz ba’zan kerak bo‘lib qolgan bir narsani, masalan, bir kishining ism-familiyasini, biror joyning nomini, grammatika yoki matematika ta’riflarini va hokazolarni esga tushirish uchun birmuncha kirishamiz. Bunday hollarda biz, odatda, har xil yordamchi usullardan foydalanamiz. Bir kishining esimizdan chiqazib qo‘ygan familiyasini eslamoqchi bo‘lib, bir qancha familiyalarni atayin aytib chiqamiz, har xil buyumlar nomini tilga olamiz, alfavitning ayrim harflarini aytib qaraymiz, shu kishi bilan oxirgi marta qachon, qayerda ko‘rishganligimizni xotirlashga harakat qilamiz. Eslab topish uchun maxsus usullardan foydalanishning yaqqol misoli A. P. Chexovning «Yilqibop familiya» nomli hikoyasida ko‘rish mumkin.

Shu singari qiynalish eslashdagina emas, balki tanish jarayonida ham

uchrab turadi. Ana shunday qiynalib arang eslashni **xotiraga keltirish** deyiladi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lganidek, ixtiyorsiz esda qolgan kitob matni, ixtiyoriy esga olib qolingandagiday to'liq va aniq esga tushmaydi. Bu faqat keyinchalik esga tushirish maqsadini ko'zlamay ixtiyorsiz esda qoldirish xususiyatlari bilangina emas, balki ixtiyorsiz esda olib qolingan narsani keyin esga tushirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan ham izohlanadi.

IV. ESDA SAQLASH VA UNUTISH

Idrok qilingan narsalar miyamizda o'rnashib qolishi, esimizda turishi tufayli turli usulda esimizga tushishi mumkin.

Esda saqlash deyilganda, ilgari tug'ilgan taassurot, fikr, his-tuyg'u va ish-harakatlarning jonlanib, takrorlanib turishga moyillik paydo qilishi va mustahkamlanishini tushunamiz. Ana shunday moyillikning hosil bo'lishi va mustahkamlanib qolishiga sabab nerv sistemasining **plastiklik** deb ataluvchi alohida xususiyatga ega bo'lishidir. Shuning uchun ham nerv sistemasi ilgari bo'lib o'tgan taassurotlarni takrorlashga (tiklashga) tayyor turadi.

Unutish hodisasini ilgarilari esda olib qolingan narsalarning ongimizdan tamomila yo'qolishi, ya'ni uni esda tutishga batamom qarama-qarshi jarayon deb tushuniladi. Ammo bunday deb tushunish uncha asosli emas.

Shuni esda tutish kerakki, esga tushirish faqat xotiraga keltirish usuli bilangina emas, balki tanish vositasi bilan ham voqe bo'ladigan jarayondir. Biz ilgarilari esda qoldirgan har bir narsani keyinchalik qay darajada bo'lmasin tanib olamiz. Bundan tashqari, har bir idrokda tanib olish elementi bor. Demak, xotiramizda ixtiyoriy esga tushiriladigan narsadan ko'ra xayolda ko'p narsa saqlanib turar ekan.

So'ngra, biz o'qib olgan material, biz uni esda olib qolgan vaqtda mazmunan va shaklan qanday bo'lgan bo'lsa, albatta aynan shunday saqlanib turavermaydi. Lekin bir qancha narsalar, masalan, odatlanilgan ish-harakat, ko'paytirish jadvali, matematika va grammatikaga oid har xil ta'riflar, she'rlar, telefon nomerlari va shu kabilar esimizda mazmunan va shaklan o'zgarmasdan aynan saqlanib turishi mumkin. Ammo ko'p narsa esimizda aynan saqlanib qolmaydi, biz ba'zan esa esda aynan saqlab qolish kamdan kam uchraydi, deb o'ylaymiz.

Ammo esda qolgan hamma materialni to'la-to'kis va aynan esga tushirish mumkin emasligidan, shu material esimizda saqlanib qolmaydi, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Esda qoldirilayotgan material, uni yodga olib qolish va esda saqlab turish jarayonida qaytadan tuziladi, **rekonstruksiya qilinadi**. Rekonstruksiya, ko'pincha xotira mahsuli

to‘g‘risida fikrimizning faol ishlashi natijasida voqe bo‘ladi. Xotirada qolgan material kishining ongida mustaqil «ishlab chiqilgandan» keyin shaxsning o‘z xazinasi bo‘lib qolgandagina xotira qiymatli sifatga ega bo‘ladi.

Unutish deb, esga tushirishda ana shu tariqa qiynalib qolishni, shuningdek, zarur bo‘lgan narsani shu onda esga tushira olmaslikni tushunamiz. **Unutilgan** deb, esda saqlanib qolmagan narsani emas, balki shu paytda esga tushira olmagan, esga tushish uchun qulay sharoit mavjud bo‘lmagan narsani aytamiz. Shuning uchun, unutish — esda saqlashning aksi bo‘lgan jarayon bo‘lmay, balki esga tushirishning aksi bo‘lgan jarayondir. Unutishning nerv-fiziologik asosi muvaqqat bog‘lanishlarning tormozlanishidir.

Unutish darajasi har xil bo‘ladi. Materialni **tamom** yoki **qisman** unutish mumkin, ya’ni material butunlay esdan chiqib ketadi yoki uning faqat bir qismi unutiladi.

Material tez orada yoki birmuncha vaqtdan keyin unutilishi mumkin. Biror narsa ancha vaqtgacha unutilib turilishi mumkin, ya’ni bir narsani ancha vaqtgacha xotiraga keltira olmay turishimiz mumkin. Odatda, unutish **vaqtincha** bo‘ladi, biz shu paytda zarur bo‘lgan bir narsani darrov eslay olmaymiz, ammo bir necha vaqtdan keyin u esimizga tushadi. Bu hodisaning sababi shuki, uzoq vaqt bir ish bilan mashg‘ul bo‘lganda miya po‘stining tegishli nerv hujayralarida charchash yuz beradi va charchash haddan oshishi natijasida nerv hujayralarida ehtiyot yuzasidan saqlovchi tormozlanish paydo bo‘ladi va vaqtincha esdan chiqarish ro‘y beradi. Bir necha vaqt o‘tgandan keyin charchash tugaydi, dam olgan nerv hujayralari normal ishlay boshlaydi va vaqtincha unutilgan narsa esga tushishi mumkin bo‘ladi.

Materialni o‘qib-o‘rganib olinganidan keyinoq uni yaxshi xotirlay olmaslik, ammo orada bir necha vaqt o‘tgandan keyin uni to‘la xotirlay olishlikning sababi materialni o‘qib-o‘rganib olish jarayonida ro‘y beradigan charchashlikda bo‘lsa kerak.

Biror materialning unutilishiga uning ketidan esda olib qolgan material ta’sir etadi. Kuzatishlardan ma’lumki, hozirgina yod olingan materialni esga tushirishga, uning ketidan esga olingan biror material to‘sqinlik qilar ekan. Bu hodisa **retrofaol** (teskari amal qiluvchi) tormozlanish deb ataladi.

Biror materialni o‘rganib esda qoldirgandan keyin unga o‘xshagan boshqa material yod olinsa, retrofaol tormozlanishning salbiy ta’siri, ayniqsa, ravshan seziladi.

Ammo shunday hollar ham bo‘ladi: oldin yod olingan material undan keyingisini esda olib qolishga salbiy ta’sir qiladi. Buni **profaol** tormozlanish hodisasi deyiladi. Retrofaol va profaol tormozlanish hodisalari max-

sus o‘tkazilgan tajriba yo‘li bilan professor A.A. Smirnov tomonidan tekshirilgan.

Xotirada qolgan materialni esdan chiqib ketish darajasi yana shu materialdan keyin anglab olingan materialning mazmuni qanchalik boy va yangi bo‘lishiga ham bog‘liqdir. Agar ilgari esda olib qolingan material bilan undan keyin esda olib qilingan material o‘rtasida chuqur bog‘lanish hosil bo‘lsa, ilgari esda olib qolingan material osonroq esga tushadi va tez orada esdan chiqib ketmaydi, bora-bora esdan chiqadi. Masalan, ma’lum biron soatga doir bilimlarni sistemali suratda va ma’nosiga tushunib anglab olgan kishi, odatda, shu bilimlarni qisman esdan chiqaradi va oradan ancha vaqt o‘tgach unutadi. Kishi biron sohaga doir qancha ko‘p bilim olsa, bu bilimlar shuncha puxta bo‘ladi hamda juda oz qismi unutiladi, umuman esa bora-bora unutiladi.

Materialning tez esdan chiqish-chiqmasligi yana bu materialning amalga tatbiq qilinish-qilinmasligiga ham bog‘liqdir. O‘qib-bilib olingan narsa amalda ishlatilsa, binobarin, takrorlab turilsa, tez unutilmaydi yoki hech ham esdan chiqmaydi. Biz ona tilimizni unutmaymiz, chunki doimo shu tilda so‘zlashamiz. Shuningdek, kasbimizga aloqasi bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar ham unutilmaydi, chunki biz ulardan hamisha foydalanib turamiz. Va, aksincha, egallab olingan bilim va malakalarni turmush tajribamizda ishlatmay qo‘ysak, bu bilim va malakalarni tez esdan chiqazib qo‘yamiz. Agar o‘z ona tilimizda uzoq vaqt gapirmay yursak yoki o‘z kasbimizni tashlab qo‘ysak, hatto ona tilimizdagi so‘zlarni va kasbga bog‘liq bo‘lgan bilim va malakalarni ham unuta boshlaymiz.

Esda qolgan materialning esdan tez chiqish-chiqmasligi yana shu materialga bo‘lgan qiziqishning naqadar barqaror bo‘lishiga ham bog‘liqdir. Qiziqish-havas tug‘diradigan narsa ustida kishi o‘z diqqatini faol to‘playdi, bu narsa haqida ko‘proq o‘ylaydi, uni ko‘proq eslaydi. Shu sababli, ma’lum bir narsaga qiziqish-havas hanuz saqlanib tursa, bu narsa unutilmaydi, yoki uzoq vaqt o‘tgach unutiladi, agar havas yo‘qolsa, material tez unutiladi. Masalan, bir odam ancha vaqt tarix bilan qiziqib yurib, bu sohada ma’lum bilimga ega bo‘lsa, keyin bu bilimlar darrov unutilmay, bora-bora unutiladi.

Biz uchun o‘z dolzarb ahamiyatini va qimmatini yo‘qotgan narsa tezroq esdan chiqadi. Bu xil unutishlarning nerv-fiziologik asosi ichki (yoki shartli) tormozlanishdan, ya’ni amaliy ahamiyati bo‘lgan qo‘zg‘ovchilar bilan mustahkamlanib turmagan muvaqqat bog‘lanishlarning yo‘qolishi (so‘nishi)dan iboratdir.

Esdan chiqarib qo‘yish-qo‘ymaslik hiyla darajada nerv sistemasining ahvoliga bog‘liq bo‘ladi. Charchash yoki kasaldan keyin nerv sistemasining bo‘shashishi natijasida ba’zan unutish juda kuchayadi.

Biz esimizda olib qolgan narsalar, vaqt o‘tishi bilan, ma’lum darajada unutilib boradi. Shu sababli, unutishning oldini olish, unutishga qarshi kurashish, ayniqsa, o‘qish jarayonida bunga qarshi choralar ko‘rib borish kerak. Buning uchun, o‘rganib, bilib olgan materialni vaqti-vaqti bilan takrorlab turish lozim. Esda qoldiriladigan materialni undan keyin olingan bilim bilan, hosil qilingan bilimni amaliyot bilan bog‘lab borish kerak, har bir kishi nimaiki zarur va qiymatga ega bo‘lsa, shuni o‘qib-o‘rganib olishga o‘zida barqaror va xilma-xil qiziqish, havas o‘stirib bormog‘i lozim.

Maktab ta’limining amaliy hayot bilan bog‘lab olib borilishi bilim va ko‘nikmalarni puxta o‘zlashtirishning muhim sharti va shuningdek, unutishga qarshi kurashish vositasi bo‘lmog‘i kerak.

V. XOTIRA TASAVVURLARI HAQIDA TUSHUNCHA

Tasavvur va idrok

Xotira tasavvurlari haqida tushuncha.

Xotiraning asosiy ko‘rinishlaridan biri obrazlarni esga tushirishdir. Biz shu onning o‘zida idroq qilmagan narsalar va hodisalarning obrazini tasavvur deymiz.

Tasavvur oldin idrok qilingan narsalarning ko‘z oldimizga kelgan obrazlaridir. Idrok obrazlari voqelikda mavjud narsa va hodisalarning obrazlari bo‘lganligidan, tasavvurlar ham xuddi shu narsa va hodisalarni aks ettiradi. Ammo idrok bilan tasavvur o‘rtasida kattagina farq bor. Idrok narsa va hodisalarning sezgi organlariga bevosita ta’sir qilishi natijasida tug‘iladi.

Xotira tasavvurlari esa ilgari sezilgan va idrok qilingan narsalar asosida, sezgi organlarimizning bevosita faoliyatisiz hosil bo‘ladi. Biz ilgarilari ko‘rgan (idrok qilgan) bir narsaning obrazini ko‘zimizni yumib turib ko‘z o‘ngimizga keltira olamiz. Ilgarilari eshitgan bir kuyni, biror buyumning og‘ir-yengilligini tasavvur qilmog‘imiz mumkin.

Tasavvur qilishning fiziologik asosi shartli reflekslarning hosil bo‘lishida bosh miya po‘stida paydo bo‘lgan «izlar»ning jonlanishidir.

Odamda tasavvur tug‘diradigan spetsifik qo‘zg‘ovchi so‘zdir. So‘z bilan tasvirlash orqali turli tasavvurlar tug‘iladi. Masalan, bizga shaxsan tanish bo‘lgan bir kishining ismini eshitib qolganimizda uning obrazi (tasavvuri) darrov ko‘z oldimizga keladi. Tasavvurlar ravshanlik yoki boshqacha qilib aytganda, yaqqollik darajasi jihatidan idrok obrazlaridan farq qiladi, tasavvurlar idrok obrazlaridan ancha noravshan, xiraroq bo‘ladi. Ilgari idrok qilingan narsalar haqidagi tasavvurlar, shu narsalarning o‘zini bevosita idrok qilganda hosil bo‘lgan obrazlarga qaraganda, uncha to‘liq, ravshan va aniq bo‘lmaydi. Tasavvur bironta

narsani ko‘pincha to‘la-to‘kis, barcha tomonlari va sifatlari bilan aynan aks ettira olmaydi. Tasavvurning bu xususiyatini **tasavvurning fragmentligi** deb ataladi. Masalan, biz ayrim kishilarni tasavvur qilganimizda, goh yuz-ko‘zini, goho ovozini, goho ust-boshini va hokazolarni ko‘z oldimizga keltiramiz. Tasavvurlar ko‘pincha idrok obrazlarini bir qadar o‘zgartirish asosida tarkib topadi. Ko‘p hollarda tasavvurning mazmuniga idrok qilingan narsaning o‘zida bo‘lmagan xayol obrazlari, fikr va hislar qo‘shiladi.

Nihoyat, idrok obrazlari bilan tasavvur o‘rtasida barqarorlik jihatidan ham farq bor. Tasavvur qilingan obraz barqaror bo‘lmaydi, o‘zgarib turadi, idrok obrazlari esa ularning muvofiq bo‘lgan narsalar sezgi organlariga ta’sir qilishdan to‘xtamaguncha, ongimizda barqaror saqlanib turadi. Tasavvurlar boshqa tasavvur, fikr, his va ish-harakatlar bilan, idrok qilinayotgan narsalar bilan bog‘liq holda ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz (assotsiatsiya yo‘li bilan) tug‘iladi. Tug‘ilgan tasavvurlar ongimizda, ko‘pincha, barqaror, uzoq saqlanib turmaydi, balki yangi tasavvurlar bilan almashinib turadi.

Tasavvurlar sifat jihatdan bir-biridan farq qiladi. Tasavvurning sifati uning idrok obraziga naqadar aynan o‘xshashlik darajasiga bog‘liqdir. Tasavvur qancha to‘liq, ravshan va aniq bo‘lsa, u idrok obraziga shunchalik yaqinlashadi. Tasavvurning sifatlari deyilganda, ularning to‘laligi, ravshanligi, aniqligi va yaqqolligini tushunamiz. Ba’zi bir narsa yoki o‘tmishdagi biron voqea haqida tasavvurlarimiz, ayniqsa, to‘la va ravshan bo‘ladi. Demak, bunday tasavvurlarning mazmuni tasavvur qilinayotgan narsaning eng ko‘p sifat va alomatlarini qamrab olgan bo‘ladi. Masalan, bironta narsani xotiramizga tushirganimizda: «xuddi hozirgina bo‘lganday ko‘z oldimda turibdi», «boyagi ashula hozir ham xuddi qulog‘imga eshitilayotgandek tuyuladi» deb gapiramiz. Aksincha, noaniq, noravshan va xiraroq tasavvurlar ham bo‘ladi. Demak, bunday tasavvurlarning mazmuni tasavvur qilinadigan narsaning faqat ba’zi bir va ko‘pincha uncha muhim bo‘lmagan belgilarinigina aks ettiradi. Bu xil tasavvurlar ko‘pincha faqat narsaning umumiy sxemasi shaklida gavdalanadi.

Tasavvur sifatlarida odamlarning individual xususiyatlari namoyon bo‘ladi, qachondir idrok qilingan xuddi bir narsa yoki hodisani har kim o‘ziyoq idrok qiladi. Tasavvurning shu xil farqlari odamning kasbiga, qiziqish-havasiga, xarakter va qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ayrim kishilarda tasavvur obrazlarning yaqqolligi va ravshanligi qariyb idrok obrazlari darajasigacha yetadi. Shu daraja ravshan yaqqol tasavvurlarini eydetik obrazlar deb ataladi. Tasavvurlari shu xildagi odamlarni esa eydetiklar deyiladi.

Tasavvurning sifati odamning yoshiga ham qaraydi. Katta yoshli odamlarning tasavvuriga qaraganda bolalarning tasavvur obrazlari ancha

yaqqol va ravshan bo‘ladi, yosh bolalar o‘rtasida eydetiklar, ayniqsa, ko‘p uchraydi.

Tasavvur xillari

Bizda turli-tuman tasavvurlar tug‘iladi. Idrok singari tasavvurlar ham sezgi organlariga muvofiq turlarga bo‘linadi. Shu sababli, tasavvurlar ko‘rish, eshitish, hid bilish, maza (ta’m) bilish, teri sezgisi, harorat, muskul-harakat, umumiy-organik tasavvurlarga bo‘linadi. Tasavvurlarda aks etadigan voqelik sohalariga qarab ham tasavvurlar bir-biridan farqlanadi. Masalan, tabiat, jamiyat, texnika, fazo, vaqt va shu kabilar to‘g‘risidagi tasavvurlar shular qatoridagi tasavvurlardir. Nihoyat, tasavvurlar yana yakka va umumiy tasavvur xillariga bo‘linadi.

Yakka tasavvur deb, bironta yakka narsa yoki hodisaning obrazini tasavvur qilishga aytiladi. Masalan, mening o‘z stolim, bironta oshnam, yurgan ko‘cham haqidagi tasavvurlarim yakka tasavvurlardandir.

Umumiy tasavvur deyilganda, bir-biriga o‘xshagan, bir guruhga kirgan narsalarning umumiy obrazini tushunamiz. Umuman uy, umuman hayvon, umuman daraxt, umuman o‘simlik haqidagi tasavvur shu jumladandir. Bunda ko‘z o‘ngimizga yakka bir hayvon yoki daraxt haqidagi tasavvur kelmay, balki umuman hayvon va umuman daraxt obrazlari ko‘z oldimizga keladi.

Albatta, umumiy tasavvur bir talay bir-biriga o‘xshagan yakka narsalarni idrok qilish natijasida hosil bo‘ladi. Shunday qilib, bir-biriga o‘xshagan narsalarni tasavvur qilganda umumiylashtirish jarayoni yuz beradi. Umumiy tasavvurlarning paydo bo‘lishida faqat ko‘p marta takrorlanib turgan idrok jarayonigina katta rol o‘ynab qolmay, balki xayol hamda tafakkur bilan nutq ham katta rol o‘ynaydi.

Har bir umumiy tasavvur bizda yakka tasavvur sifatida tug‘iladi va bir guruh yoki sinfga kirgan narsalarni aks ettiradi.

VI. XOTIRADAGI INDIVIDUAL FARQLAR (XOTIRA TIPLARI)

Har kimning o‘ziga xos xotira xususiyatlari bor. Har kimning xotirasidagi farq xotiraning kuchida ifodalanadi, ma’lumki, xotirasi kuchli va xotirasi zaif odamlar bor. A. S. Pushkinning zamondoshlaridan biri: «Bir sahifa she’rni yod aytib berish uchun Pushkinga bu she’rni bir-ikki marta o‘qib chiqish kifoya qilardi» deb gapirganligi ma’lum. Kompozitor Motsart bir-ikki marta eshitgan murakkab musiqa asarini esida qoldira olganligi va keyinchalik shu asarni notaga aynan yod ko‘chira olganligi ma’lum.

Kompozitor Balakirevning ham xotirasi nihoyatda kuchli bo‘lgan.

Bir kuni u Chaykovskiydan simfoniya asarlaridan birini chalib berishni iltimos qilganda, Chaykovskiy o‘zining shu simfoniyasini eslay olmagach, Balakirev Chaykovskiyning bu simfoniyasini konsertda bir marta eshitgan bo‘lsa ham, fortepianoda bexato, aynan chalib bergan.

Xotiraning sifati (kuchi) ga ko‘pincha faqat esda olib qolish tezligiga qarab baho beradilar. Bunday fikr, ayniqsa, maktab o‘quvchilariga nisbatan ko‘p tarqalgandir. O‘quvchi tez yod olar ekan, demak, uning xotirasi kuchli va aksincha, sekin esda olib qolar ekan – xotirasi bo‘sh. Ammo bunday qarash noto‘g‘ri. Faqat esda olib qolish tezligiga qarab, xotiraning kuchli-kuchsizligiga baho berish yaramaydi.

Xotiraning kuchli-kuchsiz bo‘lishini biz ham esda qoldirish va ham esdan chiqarib, ham ishning tezlik darajasiga qarab bilamiz. Tez esga olib, sekin, bora-bora unutish kuchli xotiraning xarakterli xususiyati bo‘lsa, sekin esda olib qolish va tez esdan chiqarib qo‘yish kuchsiz xotira belgilaridandir. Ana shu xotira sifatlarining nerv-fiziologik asosi muvaqqat nerv bog‘lanishlarining hosil bo‘lishiga va ularning qanday ishlab turishiga xos xususiyatlaridan iborat.

Esda olib qolish tezligi va esdan chiqarib qo‘yish tezligiga qarab, har kimning xotirasidagi eng asosiy individual farqni aniqlab olish mumkin. Bu farqlar quyidagilardan iborat.

Esda qoldirish	**Unutish**
1-tip. Tez	Sekin
2-tip. Sekin	Sekin
3-tip. Tez	Tez
4-tip. Sekin	Tez

Xotiraning ana shu xillarini o‘quvchilarda ham ko‘rish mumkin. Ba’zi o‘quvchilar birinchi tipga kiradilar, bunday o‘quvchilarning xotirasi kuchli, ayniqsa, samarali bo‘ladi; ular materialni, darsni tez bilib oladilar, buning uchun ularga materialni bir marta eshitish yoki bir karra o‘qib chiqish kifoya, shu bilan birga, material bora-bora esdan chiqadi va materialni bu o‘quvchilar to‘la-to‘kis hamda yanglishmasdan, raso esga tushiradilar. Bu tipdagi o‘quvchilarning xotirasi yaqqol sezilib turadi.

Xotirasi ikkinchi tipdagi o‘quvchilar materialni sekinroq bilib oladilar, lekin uzoq esdan chiqarmaydilar. Ular materialni o‘rganib olish uchun ko‘proq kuch sarf qilib, uni maxsus usullar yordami bilan takrorlaydilar, qayta-qayta o‘qiydilar, eshitadilar, yozib oladilar, sxemasini chizadilar va hokazo; materialni puxta bilib oladilar va shu sababli, uni tez esdan chiqarmaydilar. Xotiraning natijali bo‘lishi jihatidan ular birinchi tipdagi o‘quvchilardan qolishmaydilar.

Uchinchi tip – tez bilib olish va tez unutish xususiyati bilan ajraladi. Bu tipga kirgan o‘quvchilar materialni ko‘rish, eshitish, o‘qituvchining og‘zidan chiqishi bilanoq ilib olganday darrov bilib oladilar va keyinroq uni to‘la-to‘kis aytib bera oladilar. Ammo bu tariqa bilib olish va esga tushirish uzoqqa bormaydi. Bir necha vaqt (odatda, ikki yoki uch kun) o‘tgandan keyin materialni unutib qo‘yadilar: juda qiynalib, yarim yorti esga tushiradilar. Shunday qilib ular tez bilib olsalar ham, natijasizdir, chunki ular materialni tez unutadilar. Bunday o‘quvchilarga materialni tez-tez takrorlab turishni maslahat berish, individual topshiriqlar berib, ularni tez-tez tekshirib turish lozim.

To‘rtinchi tip xotiraning zaif tipidir. Bu tipdagi o‘quvchilar materialni juda sekinlik bilan bilib oladilar va tez unutadilar. Bu o‘quvchilar materialni o‘rganib olish uchun ko‘p kuch, vaqt sarf qiladilar, lekin ularning mehnati kam natija beradi, ular materialni yarim-yorti va chala esga tushiradilar hamda uni tez esdan chiqarib qo‘yadilar. Xotiraning bu tipi o‘z vaqtida bironta sabab bilan maktabga qatnamagan va o‘qishdan orqada qolib ketgan bolalarda uchraydi. Ulardagi xotiraning zaif bo‘lishiga bironta nerv-miya kasalining asorati ta’sir qilgan bo‘lishi ham mumkin. Bunday o‘quvchilar anchagacha individual yordamga muhtoj bo‘ladilar. Ularga darslarni qanday o‘qish to‘g‘risida tegishli maslahat va alohida topshiriqlar berish lozim, ularni faqat nazorat qilib qo‘ya qolmay, balki ularga materialni o‘rganib olishda bir necha vaqt davomida bevosita yordam ham berib turish kerak. Tajriba ko‘rsatganidek, to‘g‘ri tarbiya natijasida, bir necha vaqt o‘tgandan keyin, bunday o‘quvchilarning xotirasi tuzaladi va ular ham ikkinchi tipdagi o‘quvchilardan qolishmay, materialni mustaqil o‘rganishga qobil bo‘lib qoladilar. Ammo bunday hol kasallik oqibatida ro‘y bergan bo‘lsa, tegishli davolash choralarini ko‘rish zarur bo‘ladi.

Xotiraning naqadar kuchli bo‘lishi xotira mazmuniga qarab bilinadi. Xotira mazmunsiz bo‘la olmaydi. Biz hamisha muayyan bir narsani esda qoldiramiz, muayyan bir narsani xotirlaymiz va muayyan bir narsani unutib qo‘yamiz.

Xotira ilmning hamma sohalarida barobar kuchli bo‘lavermaydi. Bir xil odamlar adabiyotga doir materialni, bir xil odamlar matematikaga oid materialni va hokazoni yaxshiroq esda olib qoladilar. Bu xususiyatni o‘quvchilarda ham ko‘rish mumkin. Xotiraning shu xususiyati ko‘p darajada o‘quvchilarning ishga munosabati, o‘quv fanlaridan ba’zilariga qiziqishi va ko‘proq e’tibor berishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning xotirasini o‘stirish va boyitish maqsadida ularda maktabda o‘tiladigan har bir fanga qiziqish-havas uyg‘otish lozim. Faqat bir xil mashg‘ulotga bir xil fanga qiziqish xotiraning bir tomonlama o‘sishiga sabab bo‘ladi.

Esda olib qolinadigan material qaysi bir analizator vositasi bilan idrok qilinishiga qarab ham xotira xillari bir-biridan farq qiladi. Ba'zi kishilar har narsani ko'rib idrok qilsalar, masalan, o'z kuchlari bilan o'qisalar tezroq va puxtaroq esda qoldiradilar. Bu yo'l ular uchun eng qulay va natijali yo'ldir. Boshqa birovlar eshitib idrok qilsalar, masalan, materialni o'zlari emas, balki boshqa birovning o'qiganini, so'zlab berganini eshitib tursalar, yaxshiroq uqib oladilar. Ba'zi kishilar esa materialni yozib olish, rasmini chizish, mehnat harakatlari vositasi bilan tezroq va puxtaroq esda olib qoladilar.

Ana shu xususiyatlarga qarab, xotirani ko'rish, eshitish, harakat (motor) tiplariga ajratiladi. Lekin xotiraning ana shunday sof tiplari kam uchraydi. Ko'p kishilarning xotirasi aralash tipdagi, ya'ni ko'rish-harakat (bunisi eng ko'p uchraydi), harakat-eshitish yoki ko'rish-eshitish tipdagi xotiradir. Shunga muvofiq ko'rish, eshitish yoki muskul harakat tasavvurlari ham bir-biridan farq qilinib, ba'zi kishilarda shu xil tasavvurlardan biri ustunlik qiladi. Xotiraning yana neytral (befarq) tipi ham ajratiladi. Xotirasi shu tipda bo'lgan odam farq qilmasdan ko'rish orqali ham, eshitish orqali va muskul harakati orqali ham idrok qilingan narsalarni bemalol esida qoldiraveradi.

Xotiraning ana shu individual xususiyatlari tug'ma va o'zgarmaydigan, barqaror qattiq o'rnashib qolgan narsa emas. Bu xususiyatlar ham turmush tajribasida va ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga keladi. Ta'lim-tarbiya ishining vazifalaridan biri o'quvchilarda xotiraning hamma xillarini, ya'ni ko'rish, eshitish, harakat tiplarini ham baravar o'stirishdan iborat bo'lmog'i kerakki, natijada o'quvchilar o'zlari o'qigan, eshitgan, yozib olgan, rasmini chizgan narsalarini tez va puxta uqib olishga qobil bo'lsinlar.

Lekin aytilganlardan, hamma o'quvchilarda neytral xotirani paydo qilish mumkin, degan xulosa chiqarish yaramaydi, chunki xotira xususiyatlari faqat o'quv-tarbiya jarayonida tarkib topib qolmay, balki maktabdan tashqi amaliy jarayonda ham tarkib topadi. Shu sababli, o'quvchilarda hosil bo'lgan xotira xususiyatlarini ularning xotirasini o'stirish ishida nazarga olish talab qilinadi.

Xotiraga oid individual xususiyatlarning vujudga kelishiga odamning kasb-kori ham ancha ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, rassomlarda ko'rish xotirasi, musiqachilarda eshitish xotirasi va hokazo ko'proq taraqqiy qilgan bo'ladi.

VII. XOTIRANING AHAMIYATI

Xotira inson hayotida g'oyat katta ahamiyatga egadir. Xotira tufayli ongimizda faqat hozirgi paytdagi narsalar, hodisalar aks etib qolmay,

balki o‘tmishda idrok qilingan narsa va hodisalar, kechirgan tuyg‘u, fikrlar ham aks etadi. Xotiraga ega bo‘lmaganimizda edi biz shu paytda idrok qilinayotgan narsa va hodisalarnigina aks ettirar edik, shu bilan birga, idrok qilinayotgan narsa va hodisalar hamma vaqt bizga yangi, notanishdek ko‘rinar edi. Odam xotira tufayli malaka va ko‘nikmalar hosil qiladi, bilimini boyitadi va saviyasini kengaytiradi. Xotira boshqa psixik jarayonlarning faoliyati va taraqqiysi uchun katta ahamiyatga egadir. Idrok to‘g‘risidagi bobda biz, xotira idrokimizni boyitadi, deb ko‘rsatib o‘tgan edik. Xotira mahsuli bo‘lgan tasavvur, shuningdek, fikr bilim va bizning tajribalarimiz xotiramizda mustahkam o‘rnashib qolsa, bu bilan xayol, tafakkur, nutq, iroda va his faoliyati hamda taraqqiysi uchun sharoit ta’minlangan bo‘ladi.

Odamning tasavvurlari boyligi va xotirasida mustahkam o‘rnashib qolgan bilimlari boyligi qanchalik boy bo‘lsa, uning idroki ham shunchalik mazmundor, to‘la, aniq bo‘ladi. Xayol, tafakkur, nutq va irodasining faoliyati ham samarali bo‘ladi.

Xotira inson faoliyatining hamma xillarida ancha muhim rol o‘ynaydi. Hatto yosh bolalar ham agar ularda ba’zi bir bilim, ko‘nikma va malakalar bo‘lsagina o‘ynay oladilar, bo‘lmasa o‘ynay olmaydilar. Har qanday mehnat xoh jismoniy, xoh aqliy mehnat zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar mavjud bo‘lganidagina amalga oshmog‘i mumkin.

Xotiraning ahamiyati ta’lim ishlarida, ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi. Maktabdagi ta’lim ishlarining eng birinchi va asosiy vazifasi o‘quvchilarni fanlar asosi bilimi bilan qurollantirish, boyitishdir. Xotirada mukammal bilmay turib fan asoslarini o‘qib olish mumkin emas. Maktablarda ta’lim ishlari shunday yo‘lga qo‘yilmog‘i kerakki, o‘quvchilarga o‘qitilayotgan material ularning xotirasida mustahkam saqlanib qoladigan bo‘lsin. Shu sababdan, o‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘z o‘quvchilarini o‘rganib, har bir o‘quvchisini yaxshi bilishi, jumladan, har bir o‘quvchisining xotirasi qanday ekanligini, bu xotiraning qanday o‘sib borayotganligini, xotiraning o‘sishiga nimalar sabab bo‘layotganini va o‘quvchilarning xotirasini maktab ta’limi ishlari jarayonida qanday yo‘l va vositalar bilan o‘stirish kerakligini bilmog‘i lozim.

IV BOB. XAYOL (FANTAZIYA)

1. Xayol to‘g‘risida umumiy tushuncha

Xayol yuksak bilish jarayoni bo‘lib, u kishining o‘ziga xos insoniy xarakterga ega bo‘lgan faoliyatida namoyon bo‘ladi. Mehnatning natijasini xayolga keltirmay turib, ishga kirishb bo‘lmaydi. Fantaziya yordami bilan kutilayotgan natijani tasavvur qilish uning muhim xususiyatidir.

Bizning ongimizda o‘zimiz ilgari idrok qilgan obyektlar to‘g‘risidagina emas, shu bilan birga, biz idrok qilmagan obyektlar (narsalar, voqealar, shaxslar, joylar va shu kabilar) to‘g‘risida ham tasavvurlar bor. Masalan, garchi biz Antarktikada, Janubiy qutbda bo‘lmagan, Mirniy pasyolkasidagi tadqiqotchilarning hayotini va ishini ko‘rmagan bo‘lsak ham, lekin ular haqida bizning tasavvurimiz bor, biz Vatanimizning uzoq o‘tmishidagi voqealar to‘g‘risidagi tasavvurga egamiz, o‘n, yuz va ming yillardan keyin nimalar bo‘lishini tasavvur qilamiz va hokazo. Biz kosmik kemalarning Oyga va boshqa planetalarga uchishini tasavvur qilishimiz mumkin. Bu tasavvurlarni xayolimiz yaratib beradi, xotira tasavvurlaridan farq qilgan bu tasavvurlar xayol tasavvurlari yoki fantaziya tasavvurlari deb ataladi.

Xayol vujudga keltirayotgan obrazlar (tasavvurlar) faqat ongning subyektiv mazmunigina bo‘lib qolmaydi, shu bilan birga, bu obrazlar odamlarning hayoti va faoliyatida og‘zaki va yozma nutqda ifodalanadilar; narsalarda, bo‘yoqlarda, tovushlarda, she’r va proza tariqasidagi adabiy asarlarda va san’atning boshqa turlarida gavdalanadi.

Shunday qilib, **xayol ong faoliyatidir, bu faoliyat ilgari biz idrok qilmagan, tajribamizda uchratilmagan narsa va hodisalarning obrazlarini mavjud tasavvurlarimiz asosida miyamizda yaratishda ifodalanadi.**

Odamning miyasida ilgari vujudga kelgan muvaqqat bog‘lanishlarning miyada gavdalanishini va bu bog‘lanishlar bir-biri bilan tutashib, yangicha paydo bo‘lishini xayolning nerv-fiziologik negizi deb hisoblamoq kerak.

Ongning boshqa funksiyalari kabi xayol ham, tarixan, avvalo odamning mehnat faoliyatida rivojlanib kelgan. Odamlar o‘z ehtiyojlarini qondirmoq uchun odam aralashmasdanoq tabiat berayotgan mahsuldan ham ko‘ra ko‘proq mahsul olish niyatida tevarak-atrof olamni o‘zgartirganlar va uni o‘zlariga bo‘ysundirganlar. O‘zgartirmoq va yaratmoq uchun esa istalgan narsani oldindan tasavvur qilish, shunday o‘zgartirishga qanday yo‘llar bilan erishishni va uning natijalarini tasavvur qilish lozim bo‘lgan.

Bora-bora odamning xilma-xil ehtiyojlari – ijtimoiy, bilish, estetik va shu kabi ehtiyojlari rivojlana borgan sari xayol ham rivojlana borgan.

Jamiyatdagi odamlarning ijodiy faoliyatida namoyon bo‘layotgan xayol ham ijtimoiy hayot sharoitiga va umumiy madaniy rivojlanish darajasiga qarab, shu jamiyatdagi odamlarning asosiy intilishlariga qarab, alohida xarakter, alohida yo‘nalish kasb qilaveradi.

2. Xayol qilish jarayoni

Xayol tasavvurlarining idrok obrazlaridan va xotira tasavvurlaridan farqi shuki, xayol tasavvurlari tajribamizda orttirilgan obyektlarga ega emas. Xo‘sh, odamlarning ongida bu obrazlar qayerdan va qanday qilib paydo bo‘ladi, degan savol tug‘iladi. Albatta, bu obrazlar biror manbaga ega bo‘lmay, yo‘q narsadan paydo bo‘lishi mumkin emas. Muayyan bir ehtiyoj mavjud bo‘lgan taqdirda xayolning tegishli obrazlari xayol tasavvurlari insonning *tajribasiga* va *xotira tasavvurlariga* asoslanib hosil bo‘lishi va tarkib topishi mumkin. Bu tasavvurlar xayol tasavvurlarini vujudga keltirishga asos bo‘ladigan materialdir.

Xayol uchun material bo‘ladigan tasavvurlar xayol yaratib berayotgan obrazlarga, ko‘pincha, to‘liq holda kirmasdan, balki qisman kiradi. Shu sababli, xayol jarayonida mavjud tasavvurlarni gavdalantirish bilan birlikda yoki uning ketidan analiz qilish, ya’ni tasavvurlarni bo‘lak-bo‘lak qilib bo‘lish va shu tasavvurlarning ayrim qismlarini hamda elementlarini ajratib olish faoliyati ro‘y beradi. So‘ngra **xayolning sintez qilish faoliyati** ro‘y beradi. Muayyan tasavvurdan ajratib olingan elementlarni boshqa tasavvurlar bilan yoki boshqa tasavvurlarning elementlari bilan qo‘shish va bir turkum qilish jarayoni ro‘y beradi. Mana shunday sintez qilish faoliyatida yangi tasavvur – xayol tasavvuri vujudga keladi. Xayolning sintez qiluvchi faoliyatining oddiy shakli **agglyutinatsiyadir**. Agglyutinatsiya – ayrim elementlarni yoki bir necha buyumlarning qismlarini bitta obraz qilib qo‘shish va shularning kombinatsiyasidir. Masalan, xalq xayolining mahsuli bo‘lgan rusalka (suv parisi) obrazi xotin (bosh va gavdasi), baliq (dumi) va yashil suv o‘simligi (sochlari) obrazlaridan yaratilgan. Xuddi shuningdek, bulbuli go‘yo deganimizda xalq tasavvurida har bir narsani bilib aytib beradigan odamsimon (boshi odam, tanasi qush) bir jonivor gavdalanadi, bunda ham biz odam va qush obrazidan bitta obraz yaratilganligini ko‘ramiz.

Xotira tasavvurlarini qayta ishlash, yangi obrazlar yaratish jarayonida xayol faoliyati tasavvur qilinadigan buyumlarni

kattalashtirishda yoki **kichraytirishda** ifodalanishi mumkin. Bu kattalashtirish yoki kichraytirish ba'zi hollarda buyumning hamma qismlariga nisbatan mutanosib, proporsional bo'lishi mumkin.

Kattalashtirish yoki kichraytirish mutanosib bo'lmasligi, proporsional bo'lmasligi ham mumkin, xayol jarayonida buyumning faqat ayrim qismlarigina kattalashtirilishi yoki kichraytirilishi mumkin. Buyumning faqat bir qismini bunday kattalashtirish yoki kichraytirishni *aksentirovka* deyiladi. **Aksentirovka,** asosan, karikatura tariqasidagi tasavvurlarda va suratlarda namoyon bo'ladi. Chunonchi, san'atkor biron sudxo'rning karikatura tariqasidagi obrazini yaratmoqchi bo'lsa, uning og'zini juda katta, tishlarini katta-kattaday, panjalarini uzun va chovut solib turganday, qornini qappayib chiqqan qilib, bo'rttirib ko'rsatadi.

Xayol jarayonlaridagi odam tafakkuri katta o'rin oladi. Biror yangi obraz yoki tasavvurlar sistemasini yaratishda odamning o'ylab qo'ygan biror murodi amalga oshiriladi, biror vazifa hal qilinadi.

Tafakkur tufayli xayol jarayonlari tartibga va sistemaga solinibgina qolmasdan, shu bilan birga, «to'xtatilib», nazorat qilinib ham turiladi. Tafakkur yaxshi o'smagan bo'lsa, bilim kam bo'lsa, fantaziya juda uzoqqa «uchib ketishi» va voqelikka hech qanday o'xshashlik tomoni qolmasligi mumkin.

Xayol tasavvurlarining paydo bo'lishida nutq katta rol o'ynaydi. Har kimga ham ma'lumki, shu tasavvurlarning ko'pi boshqa kishilar aytib bergan hikoyalarning ta'siri ostida, shuningdek, o'qish jarayonida, ayniqsa, she'riy asarlarni va badiiy adabiyotning boshqa turlarini o'qish chog'ida paydo bo'ladi. Bunda yana quyidagilarga e'tiborni jalb qilish zarur.

Xayol obrazlari, garchi **tasavvurlar** deb atalsa ham, lekin bu tasavvurlar o'zlarining bir qancha xususiyatlari bilan xotira tasavvurlaridan farq qiladi.

1. Yuqorida aytib o'tilganidek, xotira tasavvurlari ilgari idrok qilingan buyumlar obrazining gavdalanishidir. Xayol tasavvurlari esa xotira tasavvurlarini murakkab ijodiy qayta ishlash natijasida vujudga keladi. Xayol tasavvurlari xotira tasavvurlarining takrorlanishi emas, balki yangicha hosil bo'lgan tasavvurlardir.

2. Xayol tasavvurlari ko'pincha o'zining ko'proq to'liq bo'lishi, lo'nda va yorqin bo'lishi bilan xotira tasavvurlaridan farq qiladi. Shu jihatdan qaraganda, xayol tasavvurlari idrok obrazlariga yaqinroq bo'ladi.

3. Tasavvur obyekti bilan tanishlik hissi va shu obyekt real mavjud bo'lib turibdi yoki mavjud bo'lgan, tasavvurning mazmuni obyektga

muvofiq keladi degan ishonch xotira tasavvurlariga xos belgilardir. Bunda mana shunday ishonch idroklarning obyektivligiga bo‘lgan ishonchga yaqinroqdir.

Ammo xayol tasavvurlari esa hamisha alohida bir «yangilikni» va «noma’lumlikni» his qilish tuyg‘usini beradi. Shu sababli xotira tasavvurlari tasavvur qilingan narsaning mavjudligiga yoki haqiqatan mavjud bo‘lganligiga yoxud mavjud bo‘lajagiga alohida ishonch hissi bilan bog‘langan bo‘ladi va tasavvurning mazmuni shu narsaga muvofiq degan alohida hisni vujudga keltiradi.

Bunda tasavvur qilingan narsaning realligiga to‘la ishonch bo‘lishi mumkin va buning realligiga shubhalanish, ishonmaslik va hatto bu reallikning inkor qilinishi ham mumkin.

Xotira tasavvurlari o‘tmishda ko‘rilgan va eshitilgan narsalarning esga tushishi bilan bog‘langan bo‘lib, passivroq xarakterga egadir. Xayol tasavvurlarining ko‘pchiligi o‘zining faolligi bilan farq qiladi: bu tasavvurlar masofa yoki vaqt jihatdan birmuncha olisroqqa intilish bilan bog‘langandir.

Xayol tasavvurlarining bu xususiyatlarini shu narsa bilan izohlash mumkinki, bu tasavvurlar ehtiyojning kuchli ravishda namoyon bo‘lishi natijasida, insonda qiziqish va ideallar borligi sababli, insonda xilma-xil hissiyotlar va jumladan yangilikni his qilish tuyg‘ulari paydo bo‘lganligi natijasida vujudga keladi.

3. Xayol turlari

Xayol har xil turlarda namoyon bo‘ladi. Tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol — xayol turlari jumlasidan bo‘lib, ular bir-biridan farq qiladi.

Tasavvur xayoli va ijodiy xayol. Tasavvur xayoli deb, hozir yoki o‘tmishda aslida mavjud bo‘lsa ham, lekin bizning tajribamizda hali uchramagan va biz idrok qilmagan narsa va hodisalar to‘g‘risida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat bo‘lgan xayol turini aytamiz. Bu narsalarning obrazlari boshqa kishilarning aytib bergan so‘zlari asosida, shuningdek, yozma va boshqa hujjatlar asosida yaratiladi.

Mana shu hamma misollardagi tasavvur obyektlari hozir yoki o‘tmishda aslida bo‘lgan bo‘lsa-da, lekin biz o‘zimiz bevosita idrok qilmagan obyektlardir. Tasavvur xayoli jarayonida odam o‘zi ko‘z oldiga keltirayotgan obrazning obyekti haqiqatan ham muayyan joyda bo‘lganligini yoki muayyan vaqtda bo‘lganligini anglaydi. Tasavvur xayolining xarakterli xususiyati ham mana shudir. Masalan, arxiv hujjatlari va tarixiy yodgorlik bilan ishlayotgan tarixchining xayoli

ham shu jumladandir, chunki u tarixda bo‘lib o‘tgan voqealarni shu materiallar asosida ko‘z oldiga keltiradi.

Kimdir – birov ma’lum bir sistemaga solgan, undagi obrazlarni ham yaratgan tayyor material asosida biron-bir obraz yaratayotganda qilingan xayol ham tasavvur xayoli bo‘ladi. Masalan, badiiy asarni o‘qiganimizda, badiiy suratni ko‘rganimizda, texnika chertyojlarini va sxemalarini o‘qiganimizda, hikoya eshitganimizda bizning ongimizda shaxslarning, suratlarning, tabiat manzaralarining, voqealarning obrazlari paydo bo‘ladi.

Ijodiy xayol deb, bizning tajribamizda bo‘lmagan va voqelikning o‘zida ham uchramagan narsa va hodisalar haqida tasavvur va obrazlar yaratishdan iborat bo‘lgan xayol turini aytiladi.

Odam o‘zining ijodiy xayolida o‘zi biror yangi, original narsa yaratadi. Masalan, yozuvchi o‘z asari uchun personajlarning tipik obrazlarini yaratayotganida uning xayoli mana shunday ijodiy xayol bo‘ladi. Ixtirochining yangi mashina, yangi asbob loyihasini yaratayotganidagi xayoli mana shunday ijodiy xayoldir. Tadqiqotchining biror gipoteza yoki eksperiment rejani yaratayotganidagi xayoli mana shunday ijodiy xayoldir. Ijodiy xayolning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘ladi. Avvalo yaratilayotgan obrazning obyekti haqiqatda yo‘qligi, qandaydir biron yangi narsa yaratilayotganligi anglanadi. So‘ngra, jamiyatning va shu muayyan kishining ehtiyoj va manfaatlari o‘sha obrazni yaratishga rag‘batlantiradi, shu obrazning yaratilishi o‘sha obrazni yaratayotgan odamdagi shaxsiy tasavvurlar va bilimlar boyligiga, shuningdek, o‘sha odam xayolining alohida ijodiy xislatlariga bog‘liq bo‘ladi. Ijodiy xayol obrazlari so‘zlarda yoki moddiy obyektlarda gavdalantirilishi, tasvir qilinishi mumkin.

Ijodiy xayol san’atning hamma turlarida – poeziyada, musiqada, tasviriy san’atda (suratkashlikda), arxitekturada, qishloq xo‘jaligidagi novatorlikda, fan va texnika sohasidagi ixtirolarda namoyon bo‘ladi. Ijodiy xayol jarayonida odam o‘z ongida faqat yangi mazmun yaratibgina qolmaydi, shu bilan birga, obyektiv olamda yangi real narsalar ham yaratadi. Shuni nazarda tutish kerakki, tasavvur xayoli bilan ijodiy xayol o‘rtasidagi farq faqat nisbiy farqdir. Ijodiy xayol jarayonida bo‘lgani kabi, tasavvur xayoli jarayonida ham obyektlarning obrazlari yaratiladi, yangidan ijod qilinadi. Xayolning bu ikki turi ham aslida ijodiy jarayondir.

Orzular va shirin xayol surishlar ijodiy xayolning alohida turlaridir. **Orzu** – ijodiy xayolning tilakdagi kelajakka qaratilgan faoliyatidir. Orzu qilish – ko‘nglimizga yoqadigan istiqbol obrazlarini yaratish

demakdir. Chunonchi, yosh yigit kelgusida pedagog, muhandis, tokar, shifokor, traktor haydovchi, uchuvchi va hokazo bo‘lishni orzu qiladi. Boshqa bir yigit kelajakda Vatan faxrlanadigan katta qahramonlik ko‘rsatishni orzu qiladi.

Shirin xayol surish muayyan bir narsaga qaratilmagan muayyan bir sistemaga ega bo‘lmagan xayol jarayonidir. Shirin xayolga botgan vaqtda turli obrazlar ko‘z o‘ngidan birin-ketin betartib o‘ta beradi. Bu tasavvurlar jarayonini tafakkur tartibga solmaydi. Orzularda bo‘lgani kabi, shirin xayol surishda ham, asosan, o‘zimiz xush ko‘rgan obrazlar paydo bo‘ladi. Shu sababli, ko‘pincha, shirin xayol surish odamga huzur baxsh etadi. Shirin xayolga botish, odatda, odam passiv, irodasi bo‘shashgan paytda, masalan, qattiq charchagandan keyin istirohat qilayotgan vaqtda, ko‘z uyquga ketayotgan va uyqudan uyg‘ongan vaqtda (odam uxlab borayotgan yoki uyqudan uyg‘onayotgan paytlarda) paydo bo‘ladi. Shirin xayol surish nerv sistemasi betoblanib holsizlangan vaqtda, ba’zan psixik kasalliklar vaqtida, isitma chiqayotganida, nerv sistemasi (alkogol, kokain, morfiy bilan) zaharlangan vaqtda paydo bo‘ladi.

Ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol

Ixtiyorsiz xayolda oldindan belgilangan maqsad bo‘lmaydi, bunda iroda faol ishtirok etmaydi. Bu holda obrazlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi.

Ixtiyorsiz xayol avvalo qondirilmagan shu topdagi ehtiyoj sababli tug‘iladi. Masalan, odam suvsiz cho‘l-biyobonda yurib, juda chanqab qolgan vaqtida uning xayolida buloq, daryo va suv kabilarning obrazlari beixtiyor paydo bo‘la boshlaydi. Biror narsa yoki hodisani idrok qilish, tasavvur qilish, biror fikr, nutq, hislarning ta’siri bilan ham ixtiyorsiz xayol suriladi. Chunonchi, tarix, geografiyaga oid kitoblarni, texnikaga doir kitoblarni va, ayniqsa, badiiy asarlarni o‘qigan vaqtda bizning ongimizda turli joylarning, voqealarning, shaxslarning va boshqa shu kabilarning obrazlari beixtiyor paydo bo‘ladi. Musiqa tinglagan vaqtda ham xuddi shunday bo‘ladi. Badiiy asarlarning xususiyati shundaki, biz bu asarlarni idrok qilayotganimizda (o‘qiyotganimizda, ko‘rayotganimizda, tinglayotganimizda) ular bizda beixtiyor xayol paydo qiladi.

Orzu va shirin xayol surish, ko‘pincha, beixtiyor paydo bo‘ladi. Bizning tush ko‘rishimiz ham ixtiyorsiz xayol faoliyatidir. Odatda, kishi qattiq uxlamagan vaqtida tush ko‘radi; uyqu vaqtida, garchi zaif holda bo‘lsa ham, har holda, tug‘iladigan sezgilar, kishi

organizmining holati va ehtiyojlari, shuningdek, kishi bedor yurgan chog‘ida tuyg‘usida kechirgan hissiyotlar, uyqu vaqtida beixtiyor paydo bo‘ladigan tasavvurlar odamning tush ko‘rishiga sabab bo‘ladi. Masalan, biz salqin uyda issiq ko‘rpa yopinib, uxlab qoldik; kechasi qo‘limiz yoki oyog‘imiz ochilib qolganida biz sovuq qota boshlaymiz. Mana shu sovuqni sezish xayolni ishga soladi, o‘shanda, masalan, biz shunday tush ko‘ramiz biz qor bosgan yo‘lda oyoq yalang ketayotgan bo‘lamiz, o‘zimizni sovuqdan panaga olishga harakat qilamiz, issiq binoga kirib olishga ko‘p urinamiz-u, lekin buni uddalay olmaymiz va hokazo.

I. P. Pavlovning fikricha, tush ko‘rishning fiziologik asosi «ilgarigi ta’sirotlarning» nervda qoldirgan izlari juda kutilmagan bir tarzda bir-biri bilan bog‘lanishidadir. Xayolning beixtiyor jarayonlari betartib ravishda o‘tmay, balki muayyan bir narsaga yo‘nalgan bo‘ladi. Bu yo‘nalish shaxsning ehtiyojlari, maqsadlari, hissiyotlari, tevarak-atrofdagi voqelikni idrok qilishi, uning ustun turgan tasavvurlari va fikrlari bilan belgilanadi.

Ixtiyoriy xayol oldindan belgilangan maqsadga yo‘nalgan bo‘ladi, muayyan obrazni yaratish uchun zarur bo‘lgan materialni tanlash, iroda kuchini ishlatish yo‘li bilan vujudga keladi. Shaxs tashabbusi bilan o‘z oldiga maqsad qo‘yishi mumkin, masalan: rassom, shoir o‘zi chizmoqchi bo‘lgan suratning yoki o‘z she’riy asarining mavzusini o‘zi belgilaydi. Albatta, badiiy asarda ijtimoiy vazifalar ifodalanadi, lekin asarning aniq mavzusi, shu temaga muvofiq keladigan kompozitsiya rassomning, shoirning o‘z tashabbusi bilan belgilanadi.

San’at asarlarining hammasi, avvalo – ixtiyoriy xayol mahsullaridir. Ixtiyoriy xayol ixtiyorsiz xayoldan ajralgan holda ro‘y bermaydi: ixtiyoriy xayol jarayoni hamisha beixtiyor qilinadigan xayol momentlarini o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, musiqa ijodiyotining she’riy yoki boshqa bir ijodiyotning ixtiyoriy faoliyat tariqasida o‘tadigan murakkab jarayonlari ko‘pincha beixtiyor qilinadigan xayol faoliyatini ham o‘z ichiga oladi. Shoirlar, rassomlar muayyan mavzuda o‘z asarlarini (ixtiyoriy ravishda) yaratayotganlarida, ba’zan beixtiyor paydo bo‘lgan obrazlar, hislar, fikrlarga berilib ketgandek bo‘ladilar.

Ijodiy xayolning mahsuldorligi, asosan, iroda ko‘rsatib, g‘ayrat bilan ishlashga bog‘liqdir. Xayol faoliyatini qo‘zg‘atish tegishli obraz-larni yaratish uchun ulug‘ kishilarning ham ko‘p fikr ishlatishlari, zo‘r iroda ko‘rsatib, g‘ayrat bilan, ko‘p mehnat sarf qilib, tirishib ishlashlari lozim bo‘lgan.

Xayolning sifati va individual xususiyatlari

Xayol shaxsning boshqa psixik jarayonlari va xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Xayol odatda turli-tuman kechinmalarga boy bo‘ladi va u ko‘pincha yuksak ta’sirchanlik oqibatida vujudga keladi. U kishining aqli bilan, kuzatuvchanlik xususiyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu tufayli turli kishilarda o‘zinig xayol qilish sifati va xususiyatlari bilan farqlanadi. Xayolning sifati uning xususiyatlarini mazmuni bilan belgilanadi.

Xayol faoliyati kengligi, mazmundorligi, kuchi va realligi jihatlaridan farq qiladi. Xayolning bu xususiyatlari ayrim kishilarda turlicha namoyon bo‘ladi va har bir shaxsning o‘ziga xos xarakterini belgilaydi.

Ikkinchi tomondan, odamning vujudga kelgan individual xususiyatlari ham uning xayol qilish faoliyatida namoyon bo‘laveradi. Shu sababli, xayol qilish jarayonlariga va xayol obrazlarning hosil bo‘lishiga odamning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va axloqiy tamoyillari ham ta’sir qilaveradi.

Xayol kengligi va mazmundorligi

Xayol kengligi voqelikning kishilar xayol faoliyati uchun obyekt bo‘ladigan sohalari doirasi bilan belgilanadi. Tabiatning hozirgi va kelajak holati, odamlarning o‘tmishdagi va kelajakdagi tarixiy hayoti, yer ostidagi narsalar, osmon va undagi yulduzlar, texnika va san’at xayol faoliyati uchun obyekt bo‘ladigan ana shunday sohalar jumlasidandir. Odamning xayoli shunday sohalarning naqadar ko‘pini o‘z ichiga olsa, uning xayoli shunchalik keng bo‘ladi. Kishining xayoli ko‘pincha real voqelikdan, mavjud bo‘lgan va ro‘yobga chiqarilishi mumkin bo‘lgan narsalar doirasidan chetga chiqib ketadi. Buni «sof fantastika sohasi» deb ataydilar, odam ko‘pincha o‘z orzulari va shirin xayollarida mana shu «sof fantastika sohasi»ga chiqib ketadi. Xayolning mazmundorligi biror obyektga nisbatan xayolda tug‘ilayotgan tasavvurlarning boyligi, xilma-xilligi va ma’nodorligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham falon kishining xayoli mazmundor (xayoli boy) va falon kishining xayoli kam mazmun (xayoli kambag‘al) deb gapiramiz. Xayol kengligi va mazmundorligi, odatda, bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Kosmik kema vujudga keltirilganligi ham, ichiga odam tushgan shu kemaning uchishi ham inson fantaziyasi g‘oyat yuksak darajaga ko‘tarilganligining mahsulidir. Lekin shu kemaning real obrazini yaratmoq va kemaning o‘zini yasamoq (qurmoq) uchun katta bilimlardan hamda fizika, kimyo, matema-

tika, astronomiya va shu kabi xilma-xil fanlarning muvaffaqiyatlaridan foydalanish zarur bo‘ldi.

Tajriba va bilim xayol jarayonida qayta ishlanadigan materialgina bo‘lib qolmasdan, balki, shu bilan birga, xayol faoliyatining ma’lum bir yo‘ldan borishini ham belgilab beradi.

Xayol kuchi

Xayol kuchli va kuchsiz bo‘lishi mumkin. Biz xayol kuchiga xayolda yaratilayotgan obrazlar voqelikni idrok qilishdan hosil bo‘lgan obrazlarga qanchalik yaqinlashganligiga qarab baho beramiz. Ba’zan xayol shunchalik kuchli sur’atda ishlaydiki, biz xayol obyektlarini xuddi ko‘zimiz bilan ko‘rib turgandek, qulog‘imiz bilan eshitib turgandek yoki qo‘limiz bilan ushlab sezayotgandek bo‘lamiz. Bunday hollarda real voqelik bilan fantaziya obrazlari o‘rtasida tafovut qolmagandek bo‘ladi.

Xayol kuchi avvalo odam ehtiyojining, qiziqishlarining va istaklarining kuchiga bog‘liq bo‘ladi. Faqat shu bugunnigina o‘ylaydigan, shu bugungisiga mag‘rur yoki o‘zi-o‘ziga mag‘rur kishilarda xayol juda kuchsiz bo‘ladi.

Tasavvur xayolning kuchi, jumladan, nutqda, suratlarda, bo‘yoqlarda, chizmalarda, ohanglarda va boshqa shu kabilarda obrazning naqadar mahorat bilan ifodalanganligiga va gavdalantirilganiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, biz Navoiy, Bobur, Muqimiy asarlarini o‘qiyotganimizda, shu asarlarda tasvirlangan ayrim personajlar, voqealar, tabiat manzaralari ko‘z oldimizda yorqin va yaqqol gavdalanadi. San’atning asosiy vazifalaridan biri ham shuki, u tomoshabinlar va tinglovchilarning ko‘z o‘ngida eng jonli va ravshan, juda yorqin va yaqqol obrazlar gavdalantirishdir.

Xayol kuchli hissiyotga bog‘liq bo‘ladi, bu hissiyotlar xayoliy obrazlar tufayli tug‘iladi va shu bilan birgalikda xayol faoliyatini ham rag‘batlantiradi. Bu hislar qanchalik kuchli bo‘lsa, xayoliy obrazlar ham shunchalik kuchli, yorqin va jonli bo‘ladi. Hissiyoti kuchli, ehtirosli odamlarning xayoli ham kuchli bo‘ladi. Hissiyoti kuchsiz, sovuqqon odamlarning xayoliy obrazlari odatda nursiz va zaif bo‘ladi. Xayol kuchi diqqatga va tevarak-atrofdagi voqelikning idrok qilinishiga bog‘liq bo‘ladi. Agar bizning diqqatimiz tevarak-atrofdagi vaziyatni idrok qilish bilan band bo‘lsa, u holda xayol jarayoni susayib ketadi. Agar diqqatimiz xayol qilinayotgan obyektga batamom band bo‘lib qolsa, u holda idrok qilish susayib ketadi. Ba’zan kishi «xayol surib», tevarak-atrofdagi narsalarni (go‘yo ko‘rmayotgan va eshitmayotganday) payqamay qoladi.

Kishi uxlagan vaqtida tevarak-atrofdagi hodisalarni idrok qilmaydi, shuning uchun ham xayol jarayoni tush ko‘rish tariqasida namoyon bo‘ladi va tushdagi narsalar real idrok qilingan narsalardek ravshan ko‘rinadi.

Xayol kuchi ko‘p darajada kishining umumiy ahvoliga va nerv sistemasining holatiga, kishining tetikligiga yoki charchab qolganligiga, sog‘lig‘iga yoki betobligiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘p kishilarga ma’lumki, kishining harorati ko‘tarilganda uning fantaziyasi zo‘r berib ishlaydi, uning xayolida paydo bo‘layotgan obrazlar g‘oyat yorqin va tez-tez takrorlanadigan obrazlar bo‘lib qoladi. Bu holda kishining xayoli beixtiyor xayol surish tarzida o‘tadi. Nerv sistemasi kasallanishi natijasida, fantaziya obrazlari ko‘pincha real idrok qilingan narsalardek kuchli va yorqin bo‘ladi, gollutsinatsiyaga (alahsirashga) aylanadi. Gollutsinatsiyaning o‘zi aslida xayolning kuchli namoyon bo‘lishidir. Bunday holatda xayoliy obrazlar kishining nazarida xuddi idrok qilinayotgan obrazlardek gavdalanadi. Nerv sistemasi kasallanishi natijasida ko‘pincha real narsalarni ham kishi noto‘g‘ri idrok qiladi — illuziya hosil bo‘ladi.

Xayol jarayonlarining nerv sistemasining kasallik holatiga bog‘liq bo‘lgan bu xususiyatlari patalogik hodisalar sohasiga taalluqli xususiyatlardir. Biz kuchli xayol to‘g‘risida ijobiy ma’noda gapirgan vaqtimizda, nerv sistemasining normal holatida o‘tadigan xayolni nazarda tutamiz.

Xayolning realligi

Xayol jarayonlaridagi voqelik o‘zgargan tarzda aks ettiriladi. Bunda xayol yaratayotgan obrazlar voqelikka mos kelishi, voqelikni to‘g‘ri aks ettirishi mumkin va bu voqelikka mos kelmasligi ham mumkin. Voqelikni to‘g‘ri aks ettirgan obrazlar *real obrazlar* deb aytiladi.

Xayol yaratgan obrazlar turmushda gavdalantirilgan va gavdalantirilayotgan taqdirda, turmush shu obrazlarga muvofiq qayta ko‘rilayotganida, yangi boyliklar yaratilayotganida bunday xayol ham **real xayol bo‘ladi.**

Odamning kosmosga uchishi yaqin-yaqingacha ham ro‘yobga chiqmaydigan orzu, deb hisoblanib kelgan edi, endilikda esa kosmonavtlar kosmosda bir necha o‘n million kilometr masofani bosib o‘tdilar. Endi biz Oy, Mars, Venera, Koinotning boshqa planetalariga uchishni orzu qilmoqdamiz. Bu orzu ham real orzudir. Bu orzu ham amalga oshiriladi.

Binobarin, agar xayolda yaratilgan obrazlar amalga oshirilishi mumkin bo‘lsa va haqiqatan amalga oshirilayotgan bo‘lsa, bunday

obrazlarni yaratib bergan xayolni real xayol deb aytamiz. Texnikaning, san'atning hamma turlari mana shunday real xayol mahsullaridir. Maktab o'quvchisining «kelgusida qahramon bo'laman» degan orzusi va shu orzuning haqiqatan **amalga oshirilganligi mana shunday real orzudir.** Kuchli real xayol ilmiy bashoratning, fan istiqbolini oldindan ko'rishning eng muhim tarkibiy bo'laklaridan biridir. Masalan, K. E. Siolkovskiy mana shunday juda kuchli real xayol qilish quvvatiga ega edi. Bu haqda Yu. A. Gagarin quyidagilarni yozadi: «Shuni aytish mumkinki, Siolkovskiy o'zining «Yerdan tashqarida» degan kitobida men o'zim uchgan vaqtda ko'rgan narsalarning hammasini juda ravshan tasavvur qilgan. Kosmosga ko'tarilgan insonning ko'zi oldida gavdalangan olamni Siolkovskiy hammadan ko'ra ravshanroq tasavvur qilgan edi».

Xayolning realligi odamning tajribasiga, uning bilimlariga, undagi tanqidiy tafakkurning qay darajada o'sganligiga va odamning turmush tajribasi bilan qay darajada aloqasi borligiga bog'liqdir.

Xayolda yaratilayotgan obrazlar amalda ro'yobga chiqarilmaydigan bo'lsa yoki bu obrazlarni amalga oshirish keraksiz, bema'ni bir narsa bo'lsa, bunday xayol real xayol bo'lmaydi. Xayoli mana shunday real bo'lmagan kishilarni «quruq xayolparast», «fantazyor» deb aytadilar.

Puch fantaziyachilar xayolparastlar ko'pincha shaxsiy tajribasi oz, bilimi kam, tanqidiy tafakkuri o'smagan, irodasi kuchsiz, turmush tajribasi bilan tuzuk bog'lanmagan kishilardir. Bular g'ayrati yo'q, lapashang kishilardir. Ularning fantaziyasi hech bir narsa bilan chegaralanmaydi, hech bir narsa bilan nazorat qilinmaydi, shuning uchun ham ular juda g'alati, aqlga sig'maydigan va amalga oshmaydigan obrazlar yaratishlari mumkin.

IV. XAYOLNING AHAMIYATI

Xayol jarayoni ongimizning mazmunini faqat biz idrok qilgan narsalar to'g'risidagi tasavvurlar bilangina boyitib qolmasdan, shu bilan birga, ilgari biz idrok qilmagan narsalar to'g'risidagi tasavvurlar bilan ham boyitadi, shu bilan birga, ilgari biz idrok qilmagan narsalar to'g'risidagi tasavvurlar bilan ham boyitadi.

Shunday qilib, xayol tufayli olam bizning ongimizda kengroq va xilma-xil aks etadi, bizning nazar doiramiz kengayib, shaxsiy tajribamiz doirasidan ancha chetga chiqadi.

Xayol boshqa psixik jarayonlarning faoliyatini boyitadi. Xayol natijasida bizning idrokimiz, garchi hamisha raso bo'lavermasa-da, lekin har holda, to'liqroq va yorqinroq bo'ladi. Masalan, nutq badiiy

suratlar, musiqa va boshqa shu kabi san'at asarlarining qanchalik to‘liq idrok qilinishi ko‘p darajada xayol faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Xayol faoliyati qanchalik kuchli bo‘lsa, shunchalik mukammal, mazmuni ham shunchalik keng idrok etiladi.

Xayol jarayonlari xotira faoliyatida kattagina o‘rin oladi. Xayolda yaratilayotgan tasavvurlar esda olib qolish vaqtida va esga tushirish vaqtida bog‘lanishlar vujudga keltirish uchun tayanch bo‘ladi. Xotira tasavvurlarining mazmuni ko‘pincha xayol faoliyati bilan o‘zgartiriladi va to‘ldiriladi.

Xotira tasavvurlari kabi, xayol tasavvurlari ham tafakkur uchun tayanch material bo‘ladi. Tafakkurning umumiylashtirish, abstraksiyalash, aniqlashtirish kabi jarayonlari xayolga ko‘p daraja bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, tafakkur jarayonlaridagi yaqqollik ko‘p jihatdan xayol faoliyati tufayli hosil bo‘ladi.

Xayol yaratib berayotgan obrazlar, shuningdek, xayol jarayonlarining o‘zi ham har xil hissiyotlarimiz uchun eng boy manbadir. Xayol faoliyati tufayli tug‘iladigan hislar ko‘pincha ancha kuchli va barqaror hislar bo‘ladi.

Xayol tufayli odam o‘z tevarak-atrofidagi voqelikni idrok qilib va o‘z turmushining o‘tmishidagi hodisalarni esga tushirish bilan bog‘liq bo‘lgan tuyg‘ularni his qilib qolmasdan, balki, shu bilan birga, kelajak to‘g‘risidagi – kutilayotgan yoki istakdagi narsalar, orzu va maqsadlar to‘g‘risida tasavvurlar tug‘dirgan tuyg‘ularni his qiladi. Masalan, tilakdagi maqsadni tasavvur qilish kishida ijobiy hislar tug‘diradi, bunday hislar esa kishini tetik qiladi va uning g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shadi. Chunonchi, charchab qolgan kishi o‘z mehnatining natijalarini tasavvur qilganida, bu tasavvur uning ishini bitkazishiga yordam beradigan kuch va tetiklik bag‘ishlaydi.

Albatta, xayol tufayli shunday obrazlar ham tug‘iladiki, bu obrazlar salbiy hislarni: sog‘inish, ma'yuslik, qo‘rqish, sababsiz g‘azablanish va boshqa shu kabi hislarni vujudga keltiradi yoki kuchaytiradi. Shunday ham bo‘ladiki, xayol jarayonlarining o‘zi salbiy emotsional holat sababli, ya'ni yomon kayfiyat, ko‘ngil g‘ashlik, xavotirlik va boshqa shu singari holat sababli vujudga keladi va bu holat o‘sha jarayonlarni kuchaytiradi, so‘ngra esa vujudga kelgan tasavvurlar o‘sha salbiy hislarni yanada kuchaytirib yuboradi. Hammaga ma'lumki, qo‘rqoq kishilar xatarli ahvolni tasavvur qilishlari bilanoq haqiqatda bo‘lishi mumkin bo‘lganidan beshbattarroq enka-tenkalari chiqib ketadi.

Xayol faoliyati bizning ijtimoiy hislarimizni do‘stlik va jamoa hislarini ko‘p darajada kuchaytiradi. Xayol tufayli odam o‘zini boshqa

kishining o‘rnida deb tasavvur qilishi, uning hislari va intilishlari bilan yashashi, xayrixohlik, birdamlik deb ataladigan va boshqa shu kabi tuyg‘ularni his qilishi mumkin.

Xayol bizning irodamizni ishlatishimizda ham katta rol o‘ynaydi. Ma’lumki, odam bir ishga kirishmasdan oldin o‘z oldiga muayyan maqsad qo‘yadi, shu maqsadga erishish yo‘llarini va vositalarini belgilab oladi, o‘z harakatlarining natijalarini tasavvur qiladi, rejalashtiradi. Mana shu tasavvurlarning hammasi esa xayol vositasi bilan vujudga keltiriladi. Shu sababli, irodasi kuchli, o‘tkir, xarakteri mustahkam kishilarda xayol ham juda o‘sgan bo‘ladi. I**nson faoliyatining hamma turlarida:** o‘yinda, o‘qishda, mehnatda, fan va ijodiyotda xayolning katta ahamiyati bor.

Bolalikdagi o‘yinlar – asosan, bolalar fantaziyasining namoyon bo‘lishidir. Bolalarning ijodiy o‘yinlarida ularning organizmi kamol topadi va mustahkamlanadi, aqli, irodasi, ma’naviy va estetik hislari o‘sadi.

Xayol bo‘lmasa, o‘qish ishlarining samarali bo‘lishi mumkin emas. O‘quvchilar o‘zlari bevosita idrok qilolmaydigan narsalar to‘g‘risidagi bilimlarni xayol mavjud bo‘lganidagina yaqqol tushunib, bilib olishlari mumkin. Chunonchi, o‘quvchilar geografiya va tarixga doir bilimlarni mana shu tariqa yaqqol idrok qiladilar.

Xayol jarayoni o‘quvchilarga darsda mavhum, abstrakt shaklda berilayotgan materialni aniqlashtirishga yordam beradi. O‘quvchilar matematika, grammatika va boshqa fanlarga doir misollarni ko‘p jihatdan xayol ishtiroki bilan «o‘ylab topadilar» va tanlab oladilar.

Xayol bo‘lmasa, odamning mehnat qilishi ham mumkin bo‘lmaydi. Mehnat qilish vaqtida hamisha shu mehnatdan kuzatilgan maqsad oldindan belgilab olinadi, shu mehnatning qanday natijalar berishi oldindan tasavvur qilinadi. Shunday qilinmasa, ishlab bo‘lmaydi. Erishilmoqchi bo‘lgan maqsadni belgilash, oldindan ko‘rish, chamalashning o‘zi shu maqsadni va natijalarni xayolda tasavvur qilish demakdir, xayolning bo‘lishi insonning har qanday ishni ijodiy bajarishiga yoki bu ishga ijodkorlik elementlarini kiritishga imkon beradi. Aks holda mehnatning har bir turi ilgari o‘rganib olingan usullar va harakatlarni shunchaki takrorlash yo‘li bilangina bajarilishi mumkin.

Ilmiy kashfiyotlarda va texnikaga doir ixtirolar qilishda juda katta ahamiyati bo‘lgan ilmiy gipotezalar yaratishda xayolning roli, ayniqsa, katta.

Gipoteza – haqiqiy sabablari noma’lum bo‘lgan hodisalarning faktlarni izohlamoq uchun fanda qo‘llaniladigan taxmindir. Odatda,

gipotezalarning ko‘pchiligi olimlarning xayolida ayrim faktlar yoki farazlar asosida vujudga keladi. Vujudga keltirilgan gipoteza eksperimentlar qilish yoki faktlar tanlash yo‘li bilan tanqidiy ravishda tekshirib ko‘riladi. Eksperimentning natijalari va to‘plangan faktlar shu gipotezaning rostligini tasdiqlasa, u holda gipoteza ilmiy nazariya bo‘lib qoladi. Masalan, qadimiy fiziklar va astronomlar meteorlarning va yulduzlar uchishining sabablarini izohlashga urinib, bu hodisalar Yerdagi qattiq moddalarning bug‘lanishidan boshqa narsa emas, suv bug‘lari kabi mazkur qattiq moddalarning bug‘lari ham yuqori ko‘tarilib va so‘ngra lovillagan toshlar holida yerga tushadi, deb faraz qilgan edilar. Lekin bu gipoteza faktlar bilan isbot bo‘lmaganligi sababli rad qilindi. So‘ngra, mana shu hodisalarni meteorlarni izohlamoq uchun boshqa bir gipoteza vujudga keltirildi: Oyda vulqonlar bor, shu vulqonlar g‘oyat zo‘r kuch bilan lava chiqarib turadi, bu lavaning bir qismi meteoritlar tariqasida yerga tushadi, deb faraz qilindi. Lekin bu gipoteza ham isbot bo‘lmadi: Oyda hech qanday vulqon yo‘qligi va lavalar chiqarmasligi ma’lum bo‘lib qoldi. Keyingi vaqtlarda bunday gipoteza vujudga keldi: shu gipotezaga ko‘ra, benihoya ko‘p miqdorda kichik va mayda jismlar bor, planetalar singari, bu jismlar ham quyosh atrofida aylanib yuradi. Ba’zan bu jismlar Yerning tortish kuchi doirasiga tushib qoladi, buning natijasida ular yerga tushadi. Bu gipoteza haqiqatga eng yaqinroq bo‘lib chiqdi va hozirgi vaqtda hamma tomonidan qabul qilingan ilmiy nazariya bo‘lib qoldi.

Gipotezalar ilm-fanning olg‘a borishi uchun muhim shartdir.

Odamning butun ijodiy faoliyatida xayolning juda katta ahamiyati bor, xayol bo‘lmasa, qishloq xo‘jaligida novatorlik, texnikada ixtirochilik va barcha san’at tarmoqlari ham bo‘lmagan bo‘lar edi.

Albatta, real xayolgina inson faoliyatida ana shunday ijobiy ahamiyatga egadir.

Aksincha, real bo‘lmagan xayol — quruq xayolparastlikdir, bunday quruq xayolparastlik har qanday faoliyatga to‘sqinlik qiladi. Keng, mazmunli, kuchli va real xayolgina inson faoliyatining hamma sohalarida ijobiy ahamiyatga ega bo‘ladi, albatta. Mana shunday xayolni o‘stirish aqliy tarbiyaning muhim vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

V BOB. TAFAKKUR

I. TAFAKKUR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Tafakkur bilish jarayonining eng yuksak shaklidir. U shaxsning obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning muhim xususiyatlarini, bog‘lanish hamda munosabatlarini bevosita **umumlashgan** holda aks ettirishdan iborat bo‘lgan aqliy jarayonidir.

Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishdan boshlanadi va hissiy bilish chegarasidan tashqariga chiqadi. Dunyoni bilish faoliyati ikki yo‘ldan borishi mumkin. Bevosita yo‘l bilan narsa va hodisalarning ayrim xossalarni sezgilar yordamida, idrok orqali narsa va hodisalarni yaxlitligicha, shuningdek, ilgari sezib idrok qilgan narsalarni ko‘z oldimizda yaqqol tasavvur qilib bilib olamiz. Bu bevosita hissiy bilishdir. Dunyoda shunday narsa va hodisalar borki, biz ularni sezish, idrok qilish, tasavvurlar orqali bila olmaymiz. Bunday vaqtda dunyoni hissiy (bevosita) bilishdan tasavvur orqali tafakkurga (bavosita) o‘tiladi. Dunyodagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabat, bog‘lanish hamda qonuniyatlarni biz hissiy yo‘l bilan bila olmay, faqat bavosita yo‘l bilan tafakkur orqali to‘liq va chuqur bilib olamiz. Tasavvur qilishimiz mumkin bo‘lmagan hodisalar fikr yuritish orqali hal qilinadi.

Voqelik tafakkurda idrok va tasavvurlardagiga qaraganda chuqurroq va to‘laroq aks etadi.

Biz sezgi, idrok va tasavvur vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo‘lmagan narsa yoki hodisalarni, bu narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog‘lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Masalan, bizga ma’lumki, agar yorug‘lik nuri shisha prizma orqali o‘tkazilsa, bu nur spektrning yetti rangiga ajralib ketadi, bu ranglarni biz idrok qilamiz (ko‘zimiz bilan ko‘ramiz), lekin fizikadan bizga shu narsa ma’lumki, bu nurlardan bo‘lak, yana boshqa nurlar ham bor. Bu nurlar, infraqizil va ultrabinafsha nurlar deb ataladi. Bu nurlarni biz ko‘rmaymiz, idrok qilmaymiz. Bunday nurlarning borligi tafakkur yordami bilan kashf qilingan.

Tafakkur — voqelikning umumlashtirib aks ettirilishidir. Biz ayrim-ayrim narsalarni va hodisalarni, masalan, alohida stolni yoki stulni idrok qilamiz va tasavvur qilamiz, ammo umuman stol va stul to‘g‘risida, umuman mebel va umuman narsa to‘g‘risida esa fikrlashimiz mumkin. Umumiylash natijasida bir hukmning o‘zida ayni vaqtda yakka bir narsa to‘g‘risidagina fikr qilib qolmasdan, balki, shu bilan birga narsalarning butun bir turkumi to‘g‘risida ham fikr yuritish mumkin. Masalan, «O‘zbekistonning fuqarolari teng huquqlidirlar» degan hukmda ayrim bir kishi haqida fikr yuritmasdan, balki O‘zbekistonning hamma fuqarolari haqida fikr yuritiladi.

Narsa yoki hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Bunday bir misolni olib ko‘raylik. Siz qalamni barmoqlaringiz bilan stoldan 20 santimetr balandda ushlab turibsiz. Barmoqlaringizni ochib yuborsangiz qalam stol ustiga tushadi, uning taqillagani (tovushi) eshitiladi. Biz bu hodisalarni birin-ketin idrok qilamiz va ularni xuddi shu tartibda tasavvur qilishimiz mumkin. Lekin biz bunda hodisalarning ma’lum vaqt ichida birin-ketin sodir bo‘lishini idrok qilamiz, xolos, ammo ayni vaqtda tafakkur yordami bilan bu hodisalarning bir-biriga qonuniy bog‘lanishidagi chuqurroq sabablar va bundan kelib chiqadigan natijalar ochiladi. Biz hodisalarning birin-ketin o‘tayotganliginigina qayd qilib qolavermaymiz, balki birinchi hodisa bo‘lgani uchun ikkinchi hodisa ro‘y beradi, undan keyingi hodisalarning har qaysisi (masalan, tovush) oldingi hodisa ro‘y berganligi uchun (qalam stolga urilganligi uchun) sodir bo‘ldi, deb aniq aytamiz va oldingi hodisaning ro‘y berganligi keyin shu hodisani muqarrar keltirib chiqarganligini anglaymiz. Bu hodisalarda ularning ma’lum bir vaqt ichida birin-ketin sodir bo‘lganligini idrok qilganimizdan tashqari, ular o‘rtasida sabab-natija bog‘lanishi, ya’ni qonuniy bog‘lanish bor, deb aniq qilib aytamiz. Biz bu sabab-natija tariqasidagi bog‘lanishning o‘zini bevosita idrok qila olmaymiz, uni sezgi organlarimiz vositasi bilan his qilolmaymiz (ko‘rmaymiz, ushlab ko‘rmaymiz, eshita olmaymiz), balki shu bog‘lanish borligini idrokimizga asoslanib turib fikr qilish yo‘li bilan topamiz.

So‘ngra, ayrim hodisalardagi sabab-natija bog‘lanishlari ochilganligiga asoslanib, umumiylashtirish yo‘li bilan voqelikning umumiy qonuniyatlarini topib olamiz.

Masalan, suvning yaxlab qolganligiga haroratning pasayganligi (0° dan pastga tushib ketganligi) sabab bo‘lganligi aniqlangan bo‘lsa va bu hodisa boshqa bir qancha hollarda ham aniqlangan bo‘lsa ana shu hollarni umumiylashtirish natijasida: «Harorat 0° dan past bo‘lganida suv hamisha muzlaydi» degan hukmda ifodalangan qonun topilgan. Hodisalar o‘rtasidagi mavjud sabab-natija bog‘lanishlarini bilganligimiz uchun, hodisalarning o‘zgarish va taraqqiysi qonunlarini bilganligimiz uchun biz hozirgi paytda mavjud bo‘lmagan yoki hozirgi paytda bizning oldimizda ro‘y bermagan hodisalarning yuz berishini *oldindan* aytib berishimiz mumkin. Masalan, termometrda haroratning 0° dan past tushganligini ko‘rishimiz bilan, endi suv muzlaydi, deb oldindan ayta olamiz. Astronomlar osmondagi jismlarning harakat qonunlarini bilganliklari uchun quyosh yoki oy qachon tutilishini aniq qilib oldindan aytib beradilar. Ijtimoiy turmushning asoschilari ochib bergan qonunlarini bilish ijtimoiy-siyosiy voqealarning qanday bo‘lib borishini oldindan ko‘rib turish imkoniyatini beradi.

Oldindan ko‘rish o‘z oldimizga maqsadlar qo‘yishimizga va shu maqsadlarga muvofiq harakat qilishimizga imkon beradi.

Oldindan ko‘rish va atrofimizdagi buyumlarning xossalarini bilish tufayli insoniyatning hozirgi tajribasi vujudga kelgan, bu esa xilma-xil mehnat bilan shug‘ullanish imkoniyatini ochib bermoqda.

Binobarin, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to‘g‘ri), to‘liq, chuqur va umumiylashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi.

Bosh miya po‘stining biron-bir uchastkasi emas, balki bosh miyaning butun po‘sti qilayotgan faoliyat tafakkurning nerv-fiziologik negizidir. Analizatorlarning miyaga borib tutashgan uchlari o‘rtasida vujudga keladigan murakkab muvaqqat bog‘lanishlar tafakkur qilish uchun birinchi galda ahamiyatga ega.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, ikkinchi signal sistemasi bilan birinchi signal sistemasining bir-biriga ta’sir o‘tkazishida muvaqqat bog‘lanishlarning vujudga kelishi tafakkurning spetsifik nerv-fiziologik mexanizmlaridir. I. P. Pavlov aytganidek, «avvalo, umuminsoniy empirizmni, (insonning tajribasi, orttirgan bilimlari) nihoyat atrof olamni va insonning o‘zini ham bilish uchun oliy qurol bo‘lgan fanni ham yaratuvchi maxsus insoniy, oliy tafakkur» ayni shu bog‘lanishlar asosida voqe bo‘ladi (Пособие собрание, III tom, 2-kitob, 232-bet).

Tafakkurni yo‘naltirib turadigan asosiy nerv-fiziologik negiz shunday yo‘l ko‘rsatib turuvchi refleksdirki, bu refleks tafakkur qilish jarayonlarida katta rol o‘ynaydi.

Odam tevarak-atrof olamni shaxsan bilib olayotgan chog‘ida yoki o‘zi harakat qilayotgan chog‘idagina emas, balki shu bilan birga, u o‘zining (og‘zaki yoki yozma) nutqi bilan o‘z fikrlarini boshqa odamlarga o‘tkazayotganida hamda boshqa odamlarning fikr va bilimlarini o‘zi o‘zlashtirib olayotgan chog‘da ham fikr qilaveradi.

Odamning bilish va amaliy ehtiyojlari, tevarak-atrof va hayot to‘g‘risidagi o‘z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga intilishi tafakkur qilish faoliyatini vujudga keltiradi va bu faoliyatni kuchaytiraveradi. Shu sababli tafakkur qilish jarayonlarining muayyan maqsadga qaratilgan bo‘lishi shu jarayonlarning muhim xususiyatidir.

II. FIKR YURITISH OPERATSIYALARI

Tafakkur qilish jarayoni biror psixik elementlarning shunchaki bir-biri bilan almashinishi tarzida voqe bo‘lmasdan, balki alohida aqliy operatsiyalar – biz idrok qilayotgan yoki tasavvur qilayotgan narsalar

(obyektlar) ustida, biz umumiylashgan va abstrakt tushunchalarga ega bo‘lgan obyektlar ustida aqliy harakatlar qilish tarzida voqe bo‘ladi.

Tafakkur qilish – operativ jarayondir.

Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiylashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir.

Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo‘ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to‘g‘risidagi tushunchalar vujudga keladi.

Taqqoslash – shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o‘rtasida o‘xshashlikni yoki tafovutni, tenglik yoki tengsizlik borligini, bir xillik yoki qarama-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi.

Narsalarning o‘xshashligi yoki tafovuti dastlab bevosita sezgilarda va idroklarda aks etadi. Taqqoslash fikr qilish jarayoni bo‘lib, bu jarayon idrok qilinayotgan narsalarning o‘xshashligi yoki tafovutini aniqlash lozim bo‘lganda, yoxud sezgilarda va idrokda bevosita aks etmagan o‘xshashlik va tafovutni topish lozim bo‘lgan hollarda voqe bo‘ladi.

Voqelikni chuqurroq va aniqroq bilish uchun bir-biriga juda o‘xshash narsalardagi tafovutni va bir-biridan juda ham farq qiladigan narsalardagi bir-biriga o‘xshashlik tomonlarini topa olish qobiliyati, ya’ni tafakkurning mana shunday qobiliyati, ayniqsa, katta ahamiyatga egadir.

Analiz – narsani (buyumlarni, hodisalarni, jarayonni) tarkibiy elementlarga, qismlarga yoki tarkibiy belgilarga bo‘lish demakdir.

Analiz jarayonida butunning uning qismlariga uning elementlariga bo‘lgan munosabati aniqlanadi. Biror moddiy narsani uning moddiy elementlariga ajratib bo‘lish eng oddiy shakldagi analizdir. Stolni ayrim qismlarga bo‘lish – uning oyoqlarini, yashiklarini va boshqa shu kabilarni bir-biridan ajratib olish mumkin. Kimyogar suvni vodorod bilan kislorodga ajratib yuboradi. Mana shu hollarning hammasida analiz narsalar va hodisalar bilan qilinadigan ish-harakatlarda ifodalanishi mumkin.

Analiz obyektlarni amalda ajratib bo‘lmaydigan elementlarga yoki belgilarga bo‘lishda ham ifodalanishi mumkin. Bu fikriy analiz, ya’ni fikrda qilinadigan analizdir. Chunonchi, stolni analiz qilgan vaqtimizda biz uning tusini, og‘irligi va boshqa shu kabi belgilarini bilib olamiz. Suvning tiniqligini, og‘irligini, bug‘lanishini, haroratini, zichligini ham fikran ajratish mumkin.

Psixologiyani o‘rganayotganimizda biz har bir psixik hodisani bir-biri bilan taqqoslabgina qolmasdan, balki, shu bilan birga, analiz ham qilamiz.

O‘qish mashg‘uloti vaqtida tafakkurning analiz qilish faoliyati katta o‘rin tutadi. Chunonchi, savod o‘rgatish, odatda, nutqni analiz qilishdan: gapni so‘zlarga, so‘zlarni bo‘g‘inlarga, bo‘g‘inlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi. Matematika masalasini yechish analiz qilishdan – dastlab bir qancha ma’lum sonlarni, so‘ngra esa noma’lum sonlarni topishdan boshlanadi.

Sintez – analizning aksi yoki teskarisi bo‘lgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon obyektning ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini bir butun qilib qo‘shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa, yoki hodisa tarkibiga kirgan elementlar, yoki qismlar tariqasida olingan buyum yoki hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo‘lgan munosabati aniqlanadi.

Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo‘shishdan iboratdir, amaliy analiz bo‘lgani singari, sintez ham amaliy bo‘lishi mumkin. Chunonchi, mashinaning ayrim detallari bir-biriga tegishli tarzda biriktirilganda, ya’ni ular sintez qilinganda, yaxlit, butun mashina, masalan, odimlovchi ekskavator hosil bo‘ladi. Kislorod bilan vodorodning kimyoviy birikishi natijasida suv hosil bo‘ladi. Mana shu va shunga o‘xshash hollarning hammasida sintez fikr qilish jarayonlarida va ish-harakatlarda sodir bo‘ladiki, bu ish-harakatlar natijasida bir butun, yaxlit moddiy narsa hosil bo‘ladi.

Analiz singari, sintez ham, fikran bo‘lishi mumkin, ya’ni sintezda ayrim elementlarni faqat fikrda bir butun qilish mumkin. Masalan, biz chet tilining o‘zimizga ma’lum bo‘lgan so‘zlaridan mazmunli gap tuzayotganimizda yoki ana shunday ma’lum so‘zlardan tarkib topgan tayyor gapni o‘qib tushunayotganimizda xuddi shunday jarayon sodir bo‘ladi.

Analiz singari, sintez ham, o‘qish jarayonida katta o‘rin tutadi. Masalan, o‘qishga o‘rgatish vaqtida tovushlar va harflardan bo‘g‘inlar, bo‘g‘inlardan so‘zlar, so‘zlardan gap tuziladi. Mana shuning o‘zi – sintezdir. Adabiy asarlardagi ayrim qahramonlarning yoki tarixiy arboblarning qilgan ishlarini, fikrlarini, hislarini tasvirlash va analiz qilish yo‘li bilan hamda sintez qilish natijasida shu arboblarning, shu qahramonlarning xarakteristikasi hosil bo‘ladi.

Analiz va sintez yo‘li bilan muayyan bir butun narsaning har bir ayrim qismining, har bir ayrim elementining shu butun narsadagi roli va ahamiyati, shu qismlar va elementlarning bir-biriga bog‘lanishi, narsaning asosiy (muhim) belgilari va ikkinchi darajali belgilari aniqlanadi.

Analiz va sintez hamisha birlikda o‘tadi. Bir butun narsa analiz qilinadi. Binobarin, sintez analizni taqozo qiladi. Muayyan qismlarni, elementlarni, belgilarni bir butun qilib birlashtirmoq uchun avvalo shu

qismlarni, shu elementlarni va belgilarni analiz natijasida ajratib olish lozim.

Abstraksiya – shunday bir fikrlash jarayonidirki, bunda tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha obyektlarning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu obyekt yoki obyektlardan fikran ajratib olinadi. Bu jarayonda obyektdan ajratilgan bir belgining o‘zi tafakkurning mustaqil obyekti bo‘lib qoladi. Abstraksiya, odatda, analiz jarayonida yoki analiz natijasida sodir bo‘ladi.

Masalan, sinfdagi doskani tasviriy analiz qilish jarayonida uning faqat bir belgisini – qoraligini ajratib olish mumkin va qora doska to‘g‘risida emas, balki doskaning qoraligi to‘g‘risida, so‘ngra esa umuman qoralik to‘g‘risida fikr qilish mumkin. Biz odamlar, samolyotlar, suv, ot va hokazolarning ko‘z oldimizdagi harakatini kuzatib turib, ularning bitta umumiy belgisini – harakatini fikran ajratib olishimiz va umuman harakat to‘g‘risida fikr qilishimiz mumkin. Chunonchi, abstraktlash yo‘li bilan bizda uzunlik, kenglik, miqdor, tenglik, son, qiymat va boshqa shu kabilar to‘g‘risida abstrakt tushuncha hosil bo‘ladi.

Umumiylashtirish – tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning o‘xshash, muhim belgilarini shu narsalar to‘g‘risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish demakdir. Masalan, olmalarda, noklarda, o‘riklarda, apelsinlarda va boshqa shu kabilarda bo‘lgan o‘xshash belgilar bitta tushunchada birlashadi, biz buni *meva* degan so‘z bilan ifodalaymiz. Daraxtlar, o‘tlar, gullar va boshqa shu kabilar «o‘simlik» degan tushunchada umumiylashtiriladi, o‘simlik va hayvonlar «organizm» degan tushunchada umumiylashtiriladi, harf va raqamlar «belgi» degan bir tushunchada umumiylashtiriladi.

Umumiylashtirish tafakkurning abstraktlashtiruvchi faoliyati bilan chambarchas bog‘langandir. Abstraktlashtirish jarayonida ayrim narsalarning o‘xshash belgilari aniqlanadi va shu o‘xshash belgilar umumiylashtiriladi.

Abstraktlashtirish singari, umumiylashtirish ham so‘z yordami bilan hosil bo‘ladi. Har qanday so‘z yakka bir narsani yoki hodisani emas, balki o‘xshash yakka-yakka obyektlarning ko‘pchiligini ifodalaydi. Chunonchi, biz *stol* degan so‘zni aytganimizda, bu bilan biz yakka-yakka ko‘p stollarga taalluqli bo‘lgan fikrni ifodalaymiz.

Fikrdagi abstraktlashtirish va umumiylashtirish jarayonlari ikkinchi signal sistemasining spetsifik, o‘ziga xos mexanizmlariga tayanadi.

Aniqlashtirish (konkretlashtirish) abstrkatsiyalash va umumlashtirish jarayonining aksidir. U birinchidan, umumiy abstrakt belgining yakka obyektlariga tatbiq qilishda ifodalanadi. Masalan, «oq» deganimizda ko‘z oldimizga oppoq paxta, oq qor, oq qog‘oz kabilar kelishi mumkin. Ik-

kinchidan, aniqlashtirish umumiy va yakka belgilari kamroq bo‘lgan umumiylikni ochishda ham ifodalanadi. Masalan, olma, nok, olxo‘ri kabilar mevalar qatoriga, shkaf, divan, kreslo va shu kabilarni mebel qatoriga qo‘shamiz. Biz birinchidan umumiy abstrakt belgilarni yakka obyektlarga tatbiq qilsak, ikkinchidan yakka obyektlarni umumiyga tatbiq qilamiz. Bu esa aniqlashtirishning o‘zginasidir.

Klassifikatsiya va sistemaga solish

Atrofdagi olamni bilish uchun bitta narsani emas, balki ko‘pchilik va xilma-xil narsalarni o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Shu sababli o‘rganish uchun qulaylik tug‘dirish maqsadida, shuningdek, amaliy maqsadlarda mana shu ko‘pchilik narsalarni guruhlarga – turkumlarga bo‘lishga to‘g‘ri keladi. Ko‘pchilik narsalarni (narsalarni va hodisalarni) guruhlarga bo‘lish **klassifikatsiya** yoki turkumlarga bo‘lish deb ataladi. Har bir guruhdagi muayyan narsaga xos bo‘lgan biror belgiga qarab, shu narsalar turkumlarga bo‘linadi. Narsalarning umumiy belgisi borligi ularni biror jihatdan bir-biriga o‘xshash qilib qo‘yadi. Masalan, kutubxonada kitoblar muqovasiga, formatiga, mazmuniga va shu kabi belgilariga qarab turkumlarga bo‘linishi mumkin. O‘quvchilarni, odatda, yosh yoki jinsiy belgilari bo‘yicha, ulgurishlariga va shu kabilarga qarab turkumlarga bo‘ladilar.

Turkumlarga bo‘lish uchun asos qilib olingan belgi turkumlarga bo‘lishning **asosi** deb ataladi.

Sistemaga solish shundan iborat bo‘ladiki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisalar va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tutgan o‘rniga qarab yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi. Shu sababli makoniy xronologik va mantiqiy belgilar asosida sistemaga solish turlari ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtlarning boqqa o‘tqazilishi makoniy sistema namunasi bo‘la oladi. O‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqealarning xronologik tartibda joylashtirilishi shu voqealarning vaqtiga qarab sistemaga solish namunasi bo‘la oladi. Matematikaga, falsafaga, mantiqqa doir darsliklarda ilmiy materialning joylashtirilishi mantiqiy sistemaga solishning namunasidir.

FIKRLASH FAOLIYATINING MOTIVATSIYASI

Inson turli jarayonlar asosida fikr yuritar ekan, u qandaydir ehtiyojlarga va faoliyat motivlariga asoslanadi. Unda mantiqiy tafakkur bilan hissiy bilish o‘rtasidagina emas, balki fikr yuritish faoliyatining ehtiyojlari, motivlari, hissiyot va shu kabilar bilan ham mavhumlashadi. Fikr yuritish jarayoni o‘z-o‘zicha fikr yuritmaydi, balki ma’lum qobiliyat, his-tuyg‘u, motiv va ehtiyojlarga ega bo‘lgan odam, shaxs fikr yuritadi.

Chunki tafakkur har qanday shaxsning tabiat va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkurdir, u bilish jarayonining yuksak shaklidir.

Tafakkur motivlari 2 xil bo‘ladi:

1) maxsus bilish motivlari;

2) maxsus bo‘lmagan motivlar.

Maxsus bilish motivlarida shaxsni tafakkur faoliyatiga undovchi va uni harakatga keltiruvchi kuchlar bilish ehtiyojlari namoyon bo‘ladigan qiziqish va motivlardan iborat bo‘ladi.

Maxsus bo‘lmagan motivlarda tafakkur sof bilish bilan bog‘liq bo‘lmagan qiziqishlar ta’sirida emas, balki ozmi-ko‘pmi tashqi sabablar ta’sirida boshlanadi. Masalan: talaba o‘z oldiga maqsad qo‘yib, bilishga qiziqib, unga ehtiyoj sezib a’lo baholarga o‘qisa unda maxsus bilish motivlar amal qiladi. Agar talaba «2» olib stipendiya ololmasligidan qo‘rqib o‘qisa, dars tayyorlasa (stipendiya ololmaslik – tashqi ta’sir) unda maxsus bo‘lmagan bilish motivlari amal qilmaydi.

Lekin tafakkurning dastlabki motivlari qanday bo‘lmasin, tafakkur qilish jarayonida xususiy bilish motivlari ta’sir qila boshlaydi. Masalan, 1-sinf o‘quvchisi onasi ta’sirida dars tayyorlayverishi natijasida sof bilish bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqishlar paydo bo‘ladi. Natijada bola biror ehtiyojning ta’siri bilan fikr yuritadi va u faoliyat davomida chuqurlashadi.

Muammoli vaziyat va masala yechish

Odam tafakkuri hamisha aniq maqsadga qaratilgandir. Chunki har qanday tafakkur tadbiri muayyan bir fikriy masalani (qanday masala bo‘lishidan qat’i nazar) hal qilishga qaratilgan bo‘lib, bizning ongimizda u yoki bu tarzda paydo bo‘lgan savolga javob hisoblanadi. Odamning bilimi qancha keng va chuqur bo‘lsa, uning aqliy faoliyatidagi tajribasi shuncha takomillashgan bo‘ladi. U hal qilinmagan masalani boshqalardan ko‘ra ko‘proq ko‘radi, uning ongida hal etilishi talab qilingan fikriy masalalar tez-tez paydo bo‘ladi.

Masalalarni hal qilish odatda to‘rt bosqichdan o‘tadi: muammoning paydo bo‘lishi, masalani hal qilish imkoniyatlari to‘g‘risida turli gipoteza (chamalash) tuzish, masalani hal qilish va uni tekshirish. Odamning aqliy faoliyati uslubiga hamda masala mazmunining o‘sha kishi uchun tushunarli bo‘lishiga qarab masalaning hal qilinishi har xil usullar bilan amalga oshiriladi.

Masalani hal qilishda yangi maqsadning tug‘ilishi tafakkurning paydo bo‘lishi demakdir, ya’ni tafakkur shunday vaqtda zarur bo‘lib qoladiki, yangi maqsadlar paydo bo‘lib, shu maqsadlarga erishish uchun faoliyat-

ning eski vosita va usullari yetishmay qoladi. Mana shunday vaziyat muammoli vaziyat deb ataladi. Muammoli vaziyatni hal qilish yangi usul, vositalarni topish va maqsadga qaratilgan faoliyat motivlarini ro‘yobga chiqarish jarayonida bo‘ladi. Muammoli vaziyatni tahlil qilish natijasida sof ma’nodagi masalalar (muammo) paydo bo‘ladi va tarkib topadi. Masalani hal qilish uchun:

1) masalaning shartlari va motivlarini aniqlash;

2) masalada qidirilayotgan noma’lum muammoni aniqlash;

3) uni qanday yo‘l va usullar bilan hal qilishni, ya’ni nimani isbotlash, topish, aniqlash, hisoblash lozimligini belgilash;

4) masalani hal qilishdan ko‘zlangan natijani gipotezasini (chamalab) belgilash;

5) belgilangan gippotezani eksperimental ravishda tekshirib xulosa chiqarish;

6) uning natijasini yana tekshirib ko‘rib, uni to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish lozim.

Masalani yechishda tafakkur jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Tafakkurni jarayon sifatida talqin qilishda fikr yuritish faoliyati determinatsiyasi (sababiy bog‘lanish) katta ahamiyatga ega. Tafakkur determinatsiyasi masala yechish davomida hosil bo‘ladi va u jarayon sifatida namoyon bo‘ladi, masala hal qilinadi. Bunda:

a) noma’lumni oldindan ko‘ra bilish; b) va uni yetarli baholash; d) natijani tan olish va inkor qilish; e) saralab qayta ko‘rib chiqish; f) obyektning asosiy xususiyatlarini ajratish va uni asosiy bo‘lmagan xususiyatlari bilan solishtirib chiqish muhim rol o‘ynaydi.

Demak, fikr yuritish jarayonining asosiy «mexanizmi» tafakkur jarayonida obyektning yangidan yangi aloqalarini paydo qilishi yangidan yangi sifat va xususiyatlarga ega bo‘lishi, obyektdan yangi mazmun olishi va yangi xususiyatlar namoyon qilishidir.

Fikrlash faoliyatining motivatsiyasi inson turli jarayonlar asosida fikr yuritar ekan qandaydir ehtiyojlarga va faoliyat motivlariga asoslanadi. Unda mantiqiy tafakkur bilan hissiy bilish o‘rtasidagina emas, fikr yuritish faoliyatining ehtiyojlari, motivlari hissiyot va shu kabilar bilan ham mavhumlashadi. Fikr yuritish jarayoni o‘z-o‘ziga fikr yuritmaydi, balki, ma’lum qobiliyat, his-tuyg‘u motiv va ehtiyojlarga ega bo‘lgan odam, shaxs fikr yuritadi. Chunki tafakkur har qanday shaxsning tabiat va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkurdir, u bilish jarayonining yuksak shaklidir.

Tafakkur motivlari 2 xil bo‘ladi:

1) maxsus bilish motivlari;

2) maxsus bo‘lmagan motivlar.

Maxsus bilish motivlarida shaxsni tafakkur faoliyatiga undovchi va uni harakatga keltiruvchi kuchlar bilish ehtiyojlari namoyon bo‘ladigan qiziqish va motivlardan iborat bo‘ladi.

Maxsus bo‘lmagan motivlarda tafakkur sof bilish bilan bog‘liq bo‘lmagan qiziqishlar ta’sirida emas, balki ozmi-ko‘pmi tashqi sabablar ta’sirida boshlanadi. Masalan: talaba o‘z oldiga maqsad qo‘yib, bilishga qiziqib, unga ehtiyoj sezib a’lo baholarga o‘qisa, unda maxsus bilish motivlar amal qiladi. Agar talaba «2» olib stipendiya ola olmasligidan qo‘rqib o‘qisa, dars tayyorlasa (stipendiya ololmaslik – tashqi ta’sir) unda maxsus bilish motivlari amal qilmaydi. Lekin tafakkurning dastlabki motivlari qanday bo‘lmasin, tafakkur qilish jarayonida xususiy bilish motivlari ta’sir qila boshlaydi. Masalan: 1-sinf o‘quuvchisi onasi ta’sirida dars tayyorlayverishi natijasida sof bilish bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqlar paydo bo‘ladi. Natijasida bola biror ehtiyojning ta’siri bilan fikr yuritadi va u faoliyat davomida chuqurlashadi.

* * *

Xulosa chiqarish tafakkurning spetsifik fikr yurituvchi operatsiyasidir, lekin hukmlar masalasini bayon qilayotganimizda bu operatsiya to‘g‘risida gapirish maqsadga muvofiqroq bo‘ladi.

TAFAKKURNI LOGIKADA O‘RGANISH

Logika (mantiq fani) tafakkurning mantiqiy shakllarini – hukm va xulosa chiqarish, tushunchalarni o‘rganadi

Hukm va xulosa chiqarish

Tafakkur qilish jarayonida, ayrim fikr yuritish operatsiyalarida bizda paydo bo‘ladigan fikrlar hukm tariqasida shakllanadi. Hukm – biror narsa (yoki biror kimsa) haqida biror nimani tasdiqlash yoki inkor qilish demakdir. Masalan, «Bu stol – yog‘och stol», «Tuyaqushlar ucha olmaydi», «Hamma fanlar foydali». Hukmda biror nima haqida yoki biror kimsa haqida tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsa hukm mavzuyi bo‘ladi. Hukmlarda buyumda biror belgilarning borligi yoki yo‘qligi – uning boshqa buyumlar bilan bog‘lanishi va munosabatlari tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Shu sababli hukmlar sifatiga qarab bir-biridan farq qilinib, **tasdiqlovchi hukm** va inkor qiluvchi hukm deb aytiladi. Shu hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar esa hukmlarning mazmunini tashkil qiladi.

Hukm mavzui va uning mazmuni idrok qilinishi, tasavvur etilishi va fikrga keltirilishi mumkin, ya’ni tushunchalar tarzida ifodalanishi mumkin. Binobarin, idroklar, tasavvur tushunchalar ikki elementining (mahsullarining) mazmunini hukmning psixologik (subyektiv) jihatini tashkil

etadi. Lekin elementlarning bu qo‘shilishini ularning assotsiatsiyalar asosida ketma-ket bir-biri bilan almashinish tariqasidagina tushunish yaramaydi. Bunda shunday bog‘lanish ham bo‘lishi mumkin. Lekin tasdiqlash yoki inkor qilishning o‘zidagi mazkur elementlarning bog‘lanishi hukm (fikr) spetsifikasini tashkil etadi.

Bizning hukmlarimiz yo bir buyumga, yoki buyumlarning butun bir turkumiga, yoxud buyumlar turkumining biror qismiga taalluqli bo‘lishi mumkin. Bir buyumga yoki bir hodisaga taalluqli hukmlar yakka hukm deb ataladi.

Masalan: «Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti», «Bugun havo ochiq». Buyumlarning bir butun turkumiga taalluqli hukmlar **umumiy** hukmlar deb ataladi. Masalan, «Motorlarning hammasi elektr tokini o‘tkazadi». Buyumlarning biror turkumi qismigagina taalluqli bo‘lgan hukmlar **juz’iy** hukmlar deb ataladi. Masalan, «Ba’zi jismlar elektr tokini o‘tkazmaydi».

Hukmlar voqelikka munosabati jihatidan ham bir-biridan farq qiladi, hukmlar voqelikka muvofiq kelishi yoki muvofiq kelmasligi mumkin. Shu jihatdan qaraganda, ular chinakam hukm, noto‘g‘ri (xato) hukm va taxminiy bo‘lishi mumkin.

Voqelikka muvofiq bo‘lgan, shu voqelikni to‘g‘ri aks ettiradigan hukmlar **chinakam** hukmlar deb ataladi. Masalan, «Andijon O‘zbekistonning eng yirik sanoat shahridir» degan hukmlar chinakam hukmlardir.

Biror buyum to‘g‘risidagi chinakam hukmlar shu buyum to‘g‘risidagi bilimdir. Bilim hukmlarda shakllanadi, lekin har qanday hukm ham bilim bo‘lavermaydi.

Voqelikka muvofiq kelmaydigan, uni noto‘g‘ri aks ettirayotgan hukmlar yolg‘on yoki xato hukmlar deb ataladi. Masalan, «Ikki karra uch sakkiz» degan hukmlar mana shunday noto‘g‘ri hukmlardir. Bu xato, noto‘g‘ri hukmlar bilmaslikni ifodalaydi.

Chin yoki yolg‘on hukm bo‘lib chiqishi mumkin bo‘lgan, ya’ni buyumga muvofiq kelishi mumkin bo‘lgan, muvofiq kelmasligi ham mumkin bo‘lgan hukmlar **taxminiy** hukmlar deb ataladi. Masalan, «Ertaga yomg‘ir yog‘ishi mumkin», «Ehtimol, Marsda hayot bordir» kabi.

Tevarak-atrof olamni bilish jarayonida tafakkur narsalar va voqelik hodisalari to‘g‘risida hamisha chin hukmlar chiqarishga yo‘nalgan bo‘ladi.

Fikr yuritish jarayonlarining natijalari hukmlarda gavdalantiriladi. Lekin ayni vaqtda hukmlar ham tafakkurning shaklidir. Bizda tafakkur faoliyati odatda, muhokama shaklida o‘tadi. Muhokama esa bir-biri bilan bog‘langan hukmlar «zanjiri» dir, ammo bu «zanjir» da ayrim hukmlar shunchaki biri ketidan biri kelavermaydi, balki ayni vaqtda

tafakkurning biror muayyan narsasiga (yoki masalasiga) taalluqli bo‘lib, bir-biri bilan bog‘lana boradi. Shu tufayli muhokamalarning sistemali, muayyan va mantiqiy bo‘lishiga erishiladi.

Xulosa chiqarish – tafakkurning tarixan tarkib topgan mantiqiy shaklidir, tafakkurning shu mantiqiy shakli vositasi bilan bir yoki bir necha ma’lum hukmlar (asoslar) dan yangi hukm – xulosa chiqariladi. Masalan, «Osmondagi hamma jismlar singari Quyosh ham, Yerdagi kabi elementlardan tarkib topgandir», «Quyoshda geliy elementi bor» degan ikkita hukm bor. Mana shu ikki hukmdan: «Demak, Yerda ham geliy bor» degan yangi hukm chiqariladi.

Yerda geliy borligi dastlab xuddi ana shunday xulosa chiqarish yo‘li bilan kashf qilingan edi. So‘ngra bu xulosa amaliyotda ham tasdiqlandi.

Xulosa chiqarishning uch turi bor. Bular – induktiv xulosa chiqarish, deduktiv xulosa chiqarish va analogiyaga asosan xulosa chiqarishdir.

Induktiv xulosa chiqarish (yoki induksiya) xulosa chiqarishning shunday bir turidirki, bunda bir necha yakka yoki ayrim hukmlardan bitta umumiy hukm chiqariladi. Masalan, shunday hukmlar bor: «Yog‘och qizdirishdan kengayadi», «Temir qizdirishdan kengayadi», «Suv isitishdan kengayadi», «Havo qizdirishdan kengayadi» va hokazo. Biz mana shu hukmlar (asoslar) dan yangi umumiy hukm (xulosa) chiqarib, demak, «jismlar qizdirishdan kengayadi» deb aytamiz.

Umumiy hukmda yakka hukmga o‘tish yo‘li bilan xulosa chiqarishni deduktiv xulosa chiqarish (yoki deduksiya) deb ataymiz.

Masalan:

«Jismlarning hammasi qizdirishdan kengayadi». Asos.

«Havo jismdir». Asos.

«Demak, havo ham qizdirishdan kengayadi» – xulosa. O‘qitish jarayonida umumiy qoidalarni juz’iy, yakkalarga tatbiq qilish vaqtida o‘quvchilar deduksiya yo‘li bilan fikrlaydilar.

Masalan, o‘quvchilarga oxiridagi undosh tovush aniq eshitilmaydigan so‘z uchrab qoladi *(kitob, ozod* va hokazo). Ular umumiy qoidani bilganliklari sababli o‘sha qoidani mana shu juz’iy holda tatbiq qiladilar va aniq eshitilmayotgan undosh tovushning aniq eshitilmog‘i uchun so‘zni turlab, uni to‘g‘ri yozadilar.

Analogiya yo‘li bilan, ya’ni o‘xshashligiga qarab xulosa chiqarish – juz’iy yoki yakka hukmlarga asoslanib juz’iy yoki yakka hukm keltirib chiqarishdir. Bog‘cha yoshidagi bolaning quyidagi muhokamasini misol qilib keltirish mumkin. Bola bunday muhokama yuritadi: «Ana, xolam kelayotir. U menga konfet beradi». Agar bolaning shu muhokamasini analiz qilib ko‘rsak, uning fikr yuritishi quyidagi tarzda borganligini ko‘ramiz.

«O‘tgan safar xolam kelgan edi». Asos.
«O‘shanda xolam menga konfet olib kelgan edi». Asos.
«Yana xolam kelayotir». Asos.
«Demak, xolam menga yana konfet beradi» – xulosa.
Yana bir misol:
«O‘tgan yil iyun oyining boshida sel yoqqan edi». Asos.
«Iyun kelayotir». Asos.
«Demak, tez orada qattiq, sel yog‘sa kerak» – xulosa.

Xulosa chiqarishga doir keltirilgan bu misollar kengaytirilgan mantiqiy shaklda beriladi. Fikr qilish jarayonida xulosa chiqarishning ayrim qismlari, odatda, tushirib qoldiriladi. Ko‘pincha, ayrim asoslar hammaga ma’lum hukm bo‘lganligi, shu sababli, takrorlab o‘tirishning hojati yo‘qligi tufayli tushirib qoldiriladi.

Masalan: «Fanlarning hammasi foydalidir. Psixologiya – fandir. Demak, psixologiya foydalidir», degan mazmundagi kengaytirilgan shaklda xulosa chiqarish o‘rniga biz, odatda, shu xulosa chiqarish yo‘lini qisqartirilgan shaklda ifodalab, bunday deymiz: «Hamma fanlar foydalidir, demak, psixologiya ham foydalidir», yoki «Psixologiya – fandir, demak, u foydalidir», yoki «Psixologiya foydalidir, chunki hamma fanlar foydalidir».

Biz o‘zimizning yoki boshqalarning fikrlarini tekshirib ko‘rish, asoslab berish, isbotlab berish lozim bo‘lgandagina xulosa chiqarishning to‘liq, kengaytirilgan mantiqiy shaklidan foydalanamiz.

Hukm yuritishning murakkab jarayonlari hamisha tutash xulosalar chiqarishdan iborat bo‘lib, bu jarayonlarda xulosalarning hamma turlari bir-biri bilan chatishib ketadi.

Xotira tasavvurlariga asoslangan (o‘tmishni esga tushirgandagi) hukmlar ba’zan kishida shubha tug‘diradi va ularga kamroq ishonch bilan qaraymiz.

Xulosa chiqarish yo‘li bilan hosil qilinadigan hukmlar xotira tasavvurlariga asoslangan hukmlarga qaraganda ko‘p daraja inobatli, ishonchli bo‘ladi, lekin, shunday bo‘lsa ham, biz xulosa chiqarish yo‘li bilan hosil qilingan yoki shu yo‘l bilan hosil qilinadigan hukmlardan hamma vaqt ham qanoat hosil qilavermaymiz. Buning sababi, birinchidan, mana shu chiqarilgan xulosaga negiz bo‘lgan asoslarning qanchalik to‘g‘riligiga, ya’ni shu hukmlarda voqelikning to‘g‘ri aks ettirilganligiga qay darajada ishonch borligiga va ikkinchidan, kishi xulosa chiqarishning mantiqiy shakllarini qanchalik egallab olganligiga bog‘liq bo‘ladi. Agar kishi xulosa chiqarish shakllarini to‘la egallab olmagan bo‘lsa, u to‘g‘ri va chin asoslar bo‘lgan taqdirda ham xato xulosa chiqarishi yoki chin xulosani noto‘g‘ri xulosa deb qabul qilishi mumkin.

Tafakkurni mantiqiy shakllaridan biri tushunchadir. **Tushuncha** deb narsa va hodisalarning xususiyatlarini muhim belgilarini, bog‘lanishlarini va munosabatlarini hukmlar orqali fikran keng va chuqurroq aks ettirishga aytiladi.

Biror narsa to‘g‘risida tushuncha hosil qilish – shu narsa to‘g‘risida bir qancha hukmlar yuritish demakdir. Tushunchani ochib beradigan hukmlar jami shu tushunchaning mazmunini tashkil qiladi. Biror narsa to‘g‘risida qancha ko‘p hukm yurita olsak, tushunchaning mazmuni ham shunchalik boy bo‘ladi. Narsaning shu hukmlarda ifodalangan belgilari qanchalik muhim bo‘lsa, tushunchaning mazmuni ham shunchalik chuqur bo‘ladi.

Tushunchaning ikki turi bor: biri aniq tushuncha, ikkinchisi – abstrakt tushuncha.

Bir butun narsaga taalluqli bo‘lgan tushuncha, masalan, stol to‘g‘risidagi, odam to‘g‘risidagi, o‘simlik va boshqa shu kabi narsalar to‘g‘risidagi tushuncha aniq tushunchadir.

Narsa va hodisalarning o‘ziga taalluqli bo‘lmasdan, balki narsa va hodisalardan, fikran ajratib olingan ayrim xususiyat, sifat va holatlarga, shuningdek, ayrim narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarga va bog‘lanishlarga taalluqli bo‘lgan tushunchalar abstrakt tushunchalar deb ataladi. Masalan, «og‘irlik» to‘g‘risidagi, «uzunlik» to‘g‘risidagi, «tenglik» to‘g‘risidagi, «harakat» to‘g‘risidagi, «qiymat» to‘g‘risidagi va boshqa shu kabi tushunchalar mana shunday abstrakt tushunchalardir.

Tushunchani idrok va tasavvurdan farq qilmoq kerak. Ilgari aytib o‘tilganidek, sezgi va idroklar narsa va hodisalarning bizning sezuv organlarimizga ta’sir qilishi jarayonida hosil bo‘ladi. Sezgi va idroklar sezuv organlari faoliyatining mahsulidir. Tasavvurlar yo xotiraning mahsuli, yoki xayolning mahsulidir.

Idrok va tasavvurlar faqat yakka narsalarning obrazlaridir. Tushunchalar esa faqat yakka bir narsaga emas, balki ko‘p narsalarga, narsalarning butun turkumiga ham taalluqli bo‘lgan, umumiylashtirilgan bir mazmunni aks ettiradi. Masalan, «stol» (umuman stol) degan tushuncha hamma stollarga taalluqli tushunchadir.

Tushuncha – o‘zining psixologik tuzilishi jihatidan fikran umumiylashtirilgan obrazdir.

Tushunchaga taalluqli obyektlarning miqdori tushunchaning ko‘lamini (hajmini) tashkil qiladi. Tushunchalar ko‘lam jihatidan ikkiga bo‘linib, yakka tushunchalar va umumiy tushunchalar deb ataladi.

Ayrim, yakka narsalarga taalluqli tushunchalar yakka tushunchalar deb ataladi. Masalan, Amudaryo to‘g‘risidagi, Navoiy to‘g‘risidagi, bir

stol to‘g‘risidagi va hokazolar haqidagi tushunchalarimiz mana shunday yakka tushunchalardir.

Yakka tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalarda hamisha yaqqol obraz mavjud bo‘ladi, chunki bu tushunchalar bevosita yo idrokka, yoki tasavvurga asoslanadi.

Butun bir turkum, bir-biriga o‘xshash tushunchalar umumiy tushunchalar deb ataladi. Masalan: imorat to‘g‘risidagi, odam to‘g‘risidagi, o‘simlik to‘g‘risidagi, organizm va hokazolar to‘g‘risidagi tushunchalar mana shunday tushunchalardir. Umumiy tushunchalar ham tasavvurlarga asoslanadi. Lekin mana shu tushunchalarda paydo bo‘ladigan tasavvurlar ayrim hollarda va ayrim kishilarda turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, bizning fikrimizda «hayvon» degan tushuncha paydo bo‘lganida, bizning ongimizda yo ot to‘g‘risidagi, yoki sigir to‘g‘risidagi, yoki it to‘g‘risidagi, yoxud shu hayvonlarning butun bir to‘dasi to‘g‘risidagi tasavvur tug‘ilishi mumkin. Aniq tushunchalarda tug‘iladigan tasavvur har qancha xilma-xil bo‘lsa ham shu tushunchalar shu tushunchada ifodalanadigan narsalarning bir turiga, bir turkumigagina taalluqli bo‘ladi.

Abstrakt tushuncha hamisha umumiy bo‘ladi. Abstrakt tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalar idrok yoki tasavvurlarga bevosita tayanadi. Bu tushunchalarda yaqqol obraz bo‘lmaydi, abstrakt tushunchalarda sezgi elementlari bo‘lmaydi.

Garchi abstrakt tushunchalardan miyamizda biror tasavvur tug‘ilsa ham, bu tasavvurlar shu tushunchaning o‘ziga bevosita taalluqli bo‘lmasdan, balki bavosita va hatto juda olis munosabatda bo‘ladi. Masalan, «cheksizlik» degan abstrakt tushuncha bir odamda uzun yo‘l to‘g‘risida tasavvur tug‘dirsa, ikkinchi bir kishida bir g‘altak ip to‘g‘risida tasavvur tug‘diradi, uchinchi bir kishida osmon to‘la yulduzlar to‘g‘risida tasavvur tug‘dirishi, to‘rtinchi bir kishida cheksizlik alomati bo‘lgan matematik belgi to‘g‘risida tasavvur tug‘dirishi mumkin va hokazo. Abstrakt tushunchalar aniqlashtirilgandagina tasavvurlar muayyan xarakter kasb etadi. Masalan, «balandlik» to‘g‘risidagi, «oqlik» to‘g‘risidagi tushunchalarda yaqqol obraz yo‘q, lekin «imoratning balandligi» to‘g‘risidagi, «qorning oqligi» to‘g‘risidagi tushunchalarda yaqqol obraz, tasavvur bor.

Tushunchalar o‘zining mazmuni jihatidan ham idrok va tasavvur obrazlaridan farq qiladi. Sezgi organlari yordami bilan bevosita aks ettirilgan belgilar narsalar to‘g‘risidagi idrok va tasavvurlarning mazmunini tashkil qiladi.

Tushunchaning mazmunini hukmlar sintezining majmuini tashkil qiladi, bu hukmlarda o‘sha idrok qilinayotgan belgilar, shuningdek, sezish

organlarimiz his qilolmaydigan belgilar ko‘rsatiladi. Bunda narsaning belgilari uning boshqa narsalar va tushunchalar bilan muhim bog‘lanishlarini va munosabatlarini ifodalaydi. To‘g‘ri fikr qilingan taqdirda, voqelik tushunchalarda, sezgi va tasavvurlardagiga qaraganda chuqurroq, to‘liqroq va aniqroq aks etadi. Masalan, biz Quyoshni nur sochib turgan katta doira shaklida idrok qilamiz, lekin bizning quyosh to‘g‘risidagi tushunchamiz bir qancha hukmlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu hukmlarda, idrokka nisbatan, ko‘proq bilim mavjuddir. Masalan: Quyosh Yerdan qariyb bir yarim million marta katta, lovillab turgan shardir. Quyosh bilan Yerning orasi 150 million kilometr. Quyosh Yer, shuningdek, osmondagi hamma jismlar tarkib topgan elementlardan tarkib topgan va hokazo.

Ikkinchi signal sistemasining muvaqqat bog‘lanishlari tushunchalar hosil bo‘lishining nerv-fiziologik mexanizmlaridir; lekin, ilgari necha martalab aytib o‘tganimizdek, ikkinchi signal sistemasining faoliyati hamisha birinchi signal sistemasi asosida va bir-biriga o‘tkazayotgan ta’siri natijasida sodir bo‘ladi. Tushunchalar birinchi signal sistemasining signallarini abstraktlash, umumiylashtirish, yuksak darajada analiz va sintez qilish natijasida vujudga keladi.

Tushuncha va so‘z

Tushuncha bilan so‘z bir-biriga chambarchas bog‘langandir: so‘zsiz tushuncha bo‘lishi mumkin emas. So‘z tushunchaning «moddiy» ifodasi va tushunchaning tayanchidir. Tushunchalar yo bir so‘z, yoki bir necha so‘z bilan ifodalanadi. Masalan, «odam» degan tushuncha bir so‘z bilan ifodalangan, lekin «O‘zbekiston fuqarosi» degan tushuncha esa ikki so‘z bilan ifodalangan, «O‘z Vatanini sevgan kishi» degan tushuncha to‘rt so‘z bilan ifodalangan.

Ko‘pincha tushunchalar alohida shartli belgilar — savollar vositasi bilan ifodalanadi. Masalan, matematikada + (plus), − (minus), = (tenglik) va boshqa shu kabi belgilar ishlatiladi. Ko‘p tushunchalar ayrim harflar — *a, b, c, x, y* va boshqa shu kabi harflar bilan ifodalanadi. Bunday belgilar, odatda, so‘z bilan ifodalanadigan iboralarning o‘rnida ishlatiladi va shartli ahamiyatgagina ega bo‘ladi — so‘zlashgan vaqtda bu harflar o‘rniga og‘zaki tildagi so‘zlar va gaplar ishlatish mumkin.

So‘zlar va belgilar faqat tushunchalarning ifodasigina bo‘lib qolmasdan, balki, shu bilan birga, tushunchalar hosil qilish uchun ham vosita bo‘ladi. Tushunchalar sezgi, idrok, tasavvurlar asosida, so‘z, nutq yordami bilan tafakkur jarayonida hosil bo‘ladi.

Tushunchalar hosil qilishda fikrlashning asosiy jarayonlari bo‘lgan umumiylashtirish va abstraktlash faqat so‘zlar yordami bilangina ro‘yobga chiqishi mumkin. So‘zlar, terminlar tafakkur jarayonlaridagi tushun-

chalarning mazmunini ifodalaydi, ongda tushunchalarning «vakili» bo‘lib xizmat qiladi, so‘z birinchi signal sistemasining hamma signallarining signallaridir; shu signallarning hammasini ifodalaydi, shu signallarning hammasini umumiylashtiradi (Pavlov).

Har bir so‘z muayyan mazmunni va muayyan hajmdagi tushunchani ifodalaydi, shu sababli, so‘zlar aloqa qilishga va tushunchalarni anglab olishga xizmat qiladi. Har bir tushuncha so‘zlar vositasi bilan boshqa shaxslarga bildirilishi mumkin. Tushunchalarni hamma anglab olishi mumkin. Biz o‘zimizdagi tushunchalarning ko‘pchiligini boshqa odamlardan tayyor holda olganmiz. Odamlarning hamma keyingi avlodlari o‘zlarida *bo‘lgan* tushunchalarning katta qismini o‘zlaridan oldingi bo‘g‘inlardan tayyor holda oladilar.

Hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar fikrlash faoliyatida bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Tushunchalar hukmlarda ochib beriladi. Muhokama yuritish jarayonida o‘zimizda bo‘lgan hukmlar asosida xulosa chiqarish yo‘li bilan yangi hukmlarda narsalarning yangi (ya’ni, shu vaqtgacha noma’lum bo‘lgan) belgilari ochib beriladi va shu bilan birlikda, bu narsalar to‘g‘risidagi tushunchalar tag‘in ham ko‘proq boyiydi, chuqurlashadi va aniqlanadi.

Tafakkur turlari

Odamlarning ehtiyojlari, hayotiy qiziqishlari va faoliyatlari juda xilma-xildir. Shu sababli, odamning tafakkuri ham turli hollarda har xil turda namoyon bo‘ladi. Bilish uchun kerak bo‘lgan vazifalarni va har xil amaliy vazifalarni hal etishga to‘g‘ri kelib qolinganida, shuningdek, boshqa odamlarning fikrlarini nutq orqali va amaliy muomalada bilib olishga, tushunib olishga to‘g‘ri kelinganida odam o‘z fikrini ishlatadi. Mana shundan **ijodiy tafakkur** va **tushunish** deb ataladigan tafakkur kelib chiqadi. Tafakkurning faolligi qay turda bo‘lishiga qarab, u ixtiyoriy va ixtiyorsiz tafakkurga bo‘linadi, tafakkurning umumiylashganlik darajasiga qarab, u aniq va abstrakt tafakkurga, yo‘nalishiga qarab, u nazariy va amaliy tafakkurga bo‘linadi.

Ijodiy tafakkur va tushunish

Paydo bo‘lgan savollarning javobini odam o‘zi qidirib topsa, qo‘yilgan vazifalarni odam o‘zi hal qilsa, odamning ongida yangi hukmlar va tushunchalar paydo bo‘lsa, bunday hollarda ijodiy tafakkur paydo bo‘ladi.

Ijodiy tafakkur — qo‘yilgan amaliy va nazariy vazifalarni yangi usullar bilan hal qilish, ongimizda yangi tasavvur, tushuncha va hukmlar tashkil

qilish, muayyan yangi narsa yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab tafakkur jarayonidir. U savol va muammoning paydo bo‘lishidan boshlanadi.

Savollarning paydo bo‘lishi yoki qo‘yilganligi fikr qilish, tafakkur jarayonlaridagi boshlang‘ich momentdir (yoki fazadir).

Idroklarda, tasavvurlarda, fikrlarda va nutqda biror yetishmagan, mukammal ifodalanmagan narsa sezilib qolganida, o‘zining yangiligi, kutilmaganligi bilan e’tiborni jalb qiladigan narsa va hodisalar idrok qilinganida hamda shunga o‘xshash fikrlar paydo bo‘lganida bizning ongimizda savollar tug‘iladi. Idrok, tasavvur va fikrlar bir-biri bilan «to‘qnash» kelib qolganida, bir-biriga zid tushib qolganida savollar paydo bo‘ladi. Bunday hollarda taajjublanish, hayratda qolish hissi tug‘iladi va shu hislar bilan birlikda savollar ham ifodalanadi.

Inson faoliyatining hamma turlarida uning ehtiyojlari sababli savollar paydo bo‘laveradi, faoliyat jarayonining o‘zida bizda yangi savollar tug‘iladi, yangi vazifalar qo‘yiladi.

Nutq orqali muomala qilganimizda, kitoblarni o‘qiyotgan vaqtimizda, narsalarni ko‘zdan kechirayotganimizda, texnikaga va mexanikaga doir xilma-xil mashinalar bilan tanishayotganimizda va shu kabi hollarda bizda turli savollar tug‘iladi.

Tafakkur jarayonining o‘zi ham, bilish jarayonining o‘zi ham muttasil har xil savollar tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Odam qanchalik ko‘p bilaversa, uning oldida noma’lum narsalar shu qadar ko‘p paydo bo‘laveradi, unda shu qadar ko‘p savollar tug‘ilaveradi va uning o‘zi shu qadar ko‘p savol beraveradi. Bilishga qiziqish savollar qo‘yishda katta rol o‘ynaydi.

Kundalik hayotda shunday ham bo‘ladiki, savol berilishi bilan darrov uning javobi ham topiladi. Masalan, «Bugun nima kun?» «Bugun shanba», «Ikki marta uch qancha bo‘ladi?» «Ikki marta uch — olti». Shunday qilib, bunday tafakkur jarayonida savolga javobni idrok qilinayotgan yaqin vaziyatning o‘zi beradi yoki hammaga ma’lum ochiq-oydin haqiqatlar javob bo‘lib xizmat qiladi. Kundalik hayotimizdagi nutqni bevosita tushunishning o‘zi ham oddiy tafakkurga taalluqlidir.

Bu — tafakkurning **oddiy**, elementar jarayonlaridir. Bu ayrim hukmlar bizning idrokimizda ifodalanadi hamda tasavvurlar va tushunchalar tariqasida xotiramizda mustahkam o‘rin oladi.

Ijodiy tafakkur to‘g‘risida gapirganimizda biz murakkab aqliy jarayonni nazarda tutamiz. Bu jarayon bir qancha bosqichlar (yoki fazalar) va momentlardan iborat bo‘ladi.

Ijodiy tafakkur murakkab jarayon bo‘lib, bu **murakkab** jarayonda qo‘yilgan savol ketidan (shu savolning murakkabligiga qarab) dastlab

vazifa ifodalanadi, so‘ngra esa vazifani, masalani yechish jarayoni, ya’ni qo‘yilgan savollarga javob qidirish jarayoni boshlanadi.

Tushunish ijodiy tafakkurdan farq qiladi, gavdalantiruvchi xayol bo‘lgani kabi, tushunishni ham gavdalantiruvchi tafakkur deb ta’riflash mumkin.

Tushunish asosan, tayyor bilimlarni va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda sodir bo‘ladigan tafakkurdir.

Maktabda o‘qitish jarayonida tushunish katta rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning bilimlarni uqib olishdagi muvaffaqiyatlari ularning shu bilimlarni qay darajada tushunishlariga bog‘liq bo‘ladi.

Odamning aqliy faoliyatida tushunish va mustaqil ijodiy tafakkur jarayonlari bir-birini istisno qilmaydi. Shuni nazarda tutish kerakki, tafakkurning bu ikkala turi ayni bir xil operatsiyalardir: taqqoslash, analiz, sintez qilish va shu kabilarda sodir bo‘laveradi.

Ba’zan tushunish jarayonida ham savollar qo‘yishga va masalalarni hal qilishga to‘g‘ri keladi. Og‘zaki nutqni idrok qilish chog‘ida yoki kitobni o‘qiyotganimizda, yoxud biror texnika va mexanizmlarni ko‘zdan kechirayotganimizda tushunib bo‘lmaydigan, tushunish qiyin bo‘lgan narsalar uchrab qoladi. Bunday hollarda «buni qanday tushunmoq kerak» degan savol tug‘iladi, bu savolning javobini qidirish boshlanadi. Bundan tashqari, biror vazifani mustaqil hal qilmoq uchun, biror masalani mustaqil hal etmoq uchun biror nimani tushunish ham kerak. Masalan, hukm yuritishda chin xulosaga kelmoq uchun shu hukm yuritishga asos bo‘lgan shart-sharoitning mazmunini to‘g‘ri tushunib olmoq kerak. Matematika masalasini yechayotgan o‘quvchi avvalo shu masalaning mazmunini tushunib olishi, ya’ni matnda ifodalangan fikrni (hukmni va tushunchalarni) uning mantiqiy bog‘lanishida to‘g‘ri uqib olishi, so‘ngra esa masalani yechishga kirishuvi, ya’ni tushunilgan materialga asoslanib turib, har xil fikrlash jarayonlarini tatbiq qilish yo‘li bilan noma’lum sonni qidirishi va topishi lozim bo‘ladi.

Tushunish (idrok qilishdan iborat fikr yuritish jarayoni) va masalani mustaqil yechish (ijodiy fikr qilish) jarayonlari odam faoliyatida bir-biri bilan chambarchas bog‘langan holda sodir bo‘ladi va o‘tadi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz tafakkur jarayonlari

Boshqa aqliy jarayonlar singari, tafakkur jarayoni ham, ixtiyoriy va ixtiyorsiz sodir bo‘lishi mumkin.

Boshqa aqliy faoliyat turlariga (idrok, esda qoldirish, esga tushirish, xayolga) nisbatan tafakkur ko‘proq ixtiyoriy jarayondir. Fikrlash faoliyatida ko‘pincha maxsus savollar qo‘yiladi, masalalar ifodalab beriladi. Javoblarni qidirish, yangi masalalarni yechish vaqtida ko‘pincha biz

ma’lum darajada kuch sarflaymiz, irodamizni ishga solamiz, bunda ba’zan katta qiyinchiliklarni, to‘sqinliklarni yengishga to‘g‘ri keladi.

Ixtiyoriy tafakkur muhokama qilish tarzida o‘tadi. Matematikadan har qanday masalani yechish jarayoni ixtiyoriy tafakkurga misol bo‘la oladi. Nazorat qiluvchi tanqidiy tafakkur ham, asosan, ixtiyoriy tafakkur jarayonidir.

Tafakkur jarayonlari ixtiyorsiz tarzda ham bo‘ladi. Bunda ixtiyorsiz jarayonlar ko‘pincha ixtiyoriy tafakkur bilan chambarchas chirmashib ketadi. Ba’zan faoliyatning turli sohalariga: maishiy, amaliy, ilmiy-bilish faoliyatlariga doir savollar beixtiyor tug‘ilib qoladi. Qo‘yilgan savollarning javoblari ham, xuddi shuningdek, ba’zan beixtiyor qidiriladi va topiladi. Bunday hollarda fikrlash jarayonlar sezilmasdan o‘taveradi, savollarning javoblari esa fahmga kelganday bo‘ladi. Ba’zan shunday ham bo‘ladiki, biz qattiq fikr qilib turgan vaqtimizda butunlay boshqacha fikrlash bizda beixtiyor (biror nimaning ta’siri bilan) paydo bo‘ladi, shu fikrlar ongimizga o‘rnashib olib, bizning e’tiborimizni asosiy ishdan, shu onning o‘zida ongli ravishda qo‘yilgan vazifadan chetga tortadi. Ko‘pincha biz biron-bir vazifani ixtiyoriy ravishda o‘z oldimizga qo‘yib, uni hal etayotganimizda, shu onning o‘zida bizning oldimizda turmagan boshqa masalalarni ham yo‘lakay hal qilib qo‘yamiz. Shunday hollar ham bo‘ladiki, ixtiyoriy ravishda zo‘r berib, fikr qilingan vaqtda hal etilmay qolgan masalalar biroz vaqt o‘tgach, biz kutmagan holda, o‘z-o‘zidan hal qilinib qoladi.

Yirik mutafakkirlar beixtiyor fikr qilib turgan paytlarida ilmiy kashfiyotlar qilganliklari singari hollar ham oz emas. Chunonchi, shu narsa ma’lumki, qadimiy grek mutafakkiri Arximed solishtirma og‘irlik qonunini shu masala ustida zo‘r berib fikr qilgan vaqtida kashf qilolmasdan, balki o‘zi sira kutmagan bir paytda, vannada cho‘milib turgan vaqtida beixtiyor kashf qilgan.

Mendeleyevning aytishiga qaraganda, u elementlarning davriy sistemasi jadvalini tuzmoqchi bo‘lib, uch kecha-kunduz tinmay ishlagan. Ammo shunda ham bu vazifani hal qila olmagan. Shundan keyin juda charchab o‘rniga yotgan-u, shu onda uxlab qolgan. «Men tushimda, — deydi Mendeleyev, — shu elementlar batartib joylashtirib qo‘yilgan jadvalni ko‘rdim». Mendeleyev darhol o‘rnidan turib, shu jadvalni bir parcha qog‘ozga yozib qo‘ygan.

Masalaning bunday beixtiyor ravishda, kutilmagan holda hal etilishi ilgari zo‘r berib qilingan, lekin bitmay qolgan tafakkur jarayonining tugallanishi bo‘lsa kerak.

Taajjublanish va hayratda qolish hislari, qiziqish hissi, ishonch, ishonchsizlik hissi, shubhalanish hissi va, ayniqsa, yangilikni sezish

hissi ixtiyorsiz tafakkur jarayonlarini faollashtirishda katta ahamiyatga egadir.

Bu hislar fikrlash jarayonlarining tug‘ilishiga sabab bo‘ladi yoki shu hislarning o‘zi tafakkur jarayonlari sababli tug‘iladi va o‘z navbatida shu jarayonlarning borishiga ta’sir qiladi.

Aniq va abstrakt tafakkur

Tafakkur – aniq tafakkur va abstrakt tafakkur deb ikkiga bo‘linadi. Agar biz fikr yuritilayotgan narsani idrok qilsak yoki tasavvur qilsak, bu tafakkur **aniq** tafakkur deb ataladi.

Aniq tafakkur ham predmetli-yaqqol tafakkur va yaqqol-obrazli tafakkur deb ikkiga bo‘linadi.

Tafakkur obyekti bevosita idrok qilinadigan tafakkur **predmetli-yaqqol tafakkur** deb ataladi.

O‘zimiz turgan xona to‘g‘risidagi, biz derazadan ko‘rib turgan daraxt to‘g‘risidagi muhokamalarimiz mana shunday predmetli-yaqqol tafakkurga misol bo‘la oladi.

Predmetli-yaqqol tafakkur faqat muhokamalardagina emas, shu bilan birga bevosita harakatlarda ham namoyon bo‘ladi. Bunday tafakkur **predmetli-harakatli tafakkurdir**.

Tafakkurning bu turini, masalan, kubiklarni u yoki bu tartibda terayotgan yoki joylashtirayotgan bolalarda ko‘rish mumkin.

Katta yoshdagi kishilar ro‘zg‘orga taalluqli turli buyumlar bilan va xilma-xil mehnat qurollari bilan ish olib borayotganlarida ularning kundalik amaliy faoliyatida ham mana shunday tafakkur ishga solinadi. Tafakkur qilinayotgan narsani idrok qilmasdan, balki faqat tasavvur qilgan vaqtimizdagi tafakkur **obrazli-yaqqol tafakkur** deb ataladi. Bunday tafakkur xotira tasavvuriga yoki xayol tasavvuriga tayanadi.

Kecha bo‘lib o‘tgan voqealar to‘g‘risidagi muhokamalar, Marsda hayot bormikin, deb qilayotgan bizning muhokamalarimiz yaqqol-obrazli tafakkur namunalari deb hisoblanishi mumkin.

Abstrakt tafakkur umumiy va abstrakt tushunchalarga asoslanadi. Bu – tushunchalardan tarkib topgan tafakkurdir, umumiylashtirilgan tafakkurdir, bu tafakkur, asosan, ikkinchi signal sistemasining, nutq, signal sistemasining faoliyati tufayli vujudga keladi.

Bizning algebra masalalarini yechish vaqtidagi muhokamalarimiz abstrakt tafakkurga misol bo‘la oladi.

Abstrakt tafakkur haqiqatga erishishga va voqelikni yana ham chuqurroq hamda to‘laroq bilishga olib boradigan yo‘llardir.

Ammo biz abstrakt tafakkurning xususiyatlari to‘g‘risida gapirganimizda shuni nazarda tutishimiz lozimki, bu tafakkur va aniq tafakkur

odamning yaxlit tafakkurini tashkil qiladi, bu ikkala tafakkur bir-biriga chambarchas bog‘langandir.

Bu bog‘lanish avvalo shundaki, abstrakt tafakkur tarixan aniq tafakkur asosida taraqqiy qilgan. Xuddi shuningdek, har bir kishining individual hayotida ham abstrakt tafakkur aniq tafakkur asosida taraqqiy qilgan. Bolaning eng dastlabki tafakkuri aniq tafakkurdir. Bolaning aniq tafakkuri jarayonida tushunchalar hosil bo‘la boshlaganida va shu tushunchalar o‘zlashtirila boshlaganidagina shu paytdan boshlab, bolada abstrakt tafakkur ham paydo bo‘ladi.

Ikkinchidan, abstrakt tafakkur bilan aniq tafakkurning birligi shundaki, har qanday aniq fikr abstrakt fikrga muayyan bir darajada kiradi va har bir abstrakt tafakkur jarayoni aniq tafakkurga tayanadi. Hatto eng oddiy yakka aniq muhokamalarda ham abstraktlik momenti bor. Masalan, «Bu — to‘rtburchak stol» va «Bu — to‘rtburchak quti» degan aniq muhokamalarda *«to‘rtburchak»* degan so‘zning o‘zi abstrakt tushunchadir.

Biz aniq tafakkurni abstrakt tafakkurdan ayirib gapiramiz ham, lekin aslida biz odamning tafakkurida yo aniq, yoki abstrakt elementlarning ustunlik qilishini nazarda tutamiz.

Nazariy (izohlovchi) va amaliy tafakkur

Tafakkurning yo‘nalishiga qarab nazariy va amaliy tafakkur turlari ajratiladi.

Hodisalarni izohlashga qaratilgan tafakkur *nazariy tafakkur* deb ataladi. Biror narsani izohlab berish noma’lum narsani ma’lum qilish demakdir. Buning uchun esa noma’lum narsani ma’lum narsa bilan bog‘lash lozim. Demak, turli va ayrim tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni va munosabatlarni ochib berish hamda shu bog‘lanishlarni muhokamalarda izohlab berish kerak bo‘ladi.

Jumladan, izohlab berish izohlanayotgan hodisaning sababini topish demakdir; bunday izohlash izohlanayotgan narsani shu narsa mansub bo‘lgan turkum to‘g‘risidagi tushuncha doirasiga kiritib, uning farq qiladigan belgilarini ko‘rsatib berish demakdir; biror hodisaning maqsadini, uning nima uchun mavjudligini, uning ahamiyatini va vazifasini ko‘rsatib berish demakdir.

Nazariy tafakkurda voqelikda mavjud bo‘lgan umumiy, muhim bog‘lanishlar va munosabatlar aks etadi. Shu tufayli biz u yoki bu xil ayrim hodisalarning kelishini (masalan, quyosh va oy tutilish vaqtini) oldindan ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Biror sohadagi hodisalarning muhim qonuniyatlarini, bog‘lanishlarini va munosabatlarini aks ettiruvchi fikrlar (hukmlar va tushunchalar) sistemasi **nazariya** deb ataladi.

Nazariy tafakkur – oldindan ko‘rish imkoniyatini beradigan umumlashtirilgan tafakkurdir.

Tevarak-atrofdagi voqelikni o‘zgartirish yo‘li bilan o‘zimizga kerakli real narsalarni va hodisalarni olishga yoki yaratishga qaratilgan tafakkur *amaliy tafakkur* deb ataladi. Amaliy tafakkur jarayonlari bir qancha savollar berishdan, masalan: qo‘yilgan maqsadga erishmoq uchun «Nimalar qilish kerak?», «Qanday qilish kerak?», «Qay tarzda?», «Buning uchun nimalar qilish lozim?» degan savollar tuzilishi bilan boshlanadi. Amaliy tafakkurning shundan so‘nggi jarayoni ish-harakatlarda yoki qo‘yilgan savollarga javob beruvchi ish-harakatlarni tasavvur qilish va o‘ylashda voqe bo‘ladi. Masalan, ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, mashinani takomillashtirish kerak bo‘lganida, biz falon xil parrakni soniyasiga o‘n marta aylanadigan qilishimiz lozim. Buning uchun shu parrakni transmissiya orqali yoki tishli parrak orqali diametri kattaroq bo‘lgan boshqa parraklarga tutashtiramiz va shu tariqa o‘sha parrakni o‘zimiz xohlaganimizdek, soniyasiga o‘n marta aylanadigan qilamiz.

Tevarak-atrofdagi voqelikni biz asosan mehnat qurollari yordami bilan, asboblar yordami bilan o‘zgartiramiz. Shu sababli amaliy tafakkur, boshqacha qilib aytganda, *texnik tafakkur* deb ham ataladi.

Voqelikni o‘zimiz xohlaganimizdek o‘zgartirishimiz natijasida yangi bir hodisa paydo bo‘lganligi, voqelik qayta ko‘rilganligi, biror real mahsulot vujudga keltirilganligi, masalan, stol, mashina, uy va shu kabilar vujudga keltirilganligi sababli, amaliy tafakkur *konstruktiv tafakkur* ham deb ataladi.

(«Amaliy tafakkur» degan terminni «amal», «amaliyot» degan termin bilan qorishtirib yubormaslik kerak. Amal, amaliyot deganimizda, odatda, odamlarning xilma-xil moddiy boyliklar yaratishiga yordam beradigan harakatlar sistemasini – buning uchun kerak bo‘ladigan ko‘nikma, malaka va usullarni tushunamiz. Odamning amaliy faoliyati tafakkursiz vujudga kela olmaydi. Ammo subyektiv jarayon bo‘lgan amaliy tafakkur esa amaliy harakatlar bo‘lmasa ham ro‘y beraverishi mumkin.)

Nazariy tafakkur kabi amaliy tafakkur ham muhokamalarda ifodalanadi. Lekin bu muhokamalarning tuzilishida o‘ziga xos xususiyatlar bor.

Nazariy muhokamalarda, odatda, obyektlarda biror belgilarning, bog‘lanishlarning, qonuniyatlarning borligi qat’iy qilib tasdiqlanadi yoki rad qilinadi.

Amaliy tafakkur odamning xayol qilishi va o‘zi mo‘ljallaganidek harakat qilishi, irodasi bilan chambarchas bog‘langan.

Tafakkurning mana shu ikki turini – nazariy va amaliy tafakkurni,

shuningdek, aniq va abstrakt tafakkurni, faqat tafakkurni o‘rganish uchun bir-biridan ajratishimiz mumkin. Tafakkurning mana shu ikki turi haqiqatda birlikka ega bo‘lgan tafakkurdir. Lekin ularning paydo bo‘lishi jihatidan qaraganimizda, amaliy tafakkur birlamchidir. Nazariy tafakkur amaliyotda, odamning mehnat faoliyatida rivojlanib keldi va rivojlanadi.

Amaliyot muhokamalarimizning chinligini bildiruvchi asosiy mezondir, kriteriydir.

Tafakkurning sifatlari

Ayrim kishilarning tafakkuri o‘zining mazmundorligi, chuqurligi va kengligi jihatidan, mustaqilligi, samaraliligi va tezligi jihatidan turli hollarda turlicha namoyon bo‘ladi. Bular tafakkurning sifatini tashkil qiluvchi belgilardir. Bu belgilar tafakkurning individual xususiyatlari hamdir.

Tafakkurning **mazmundorligi,** avvalo, u yoki bu narsalar yoki hodisalar to‘g‘risidagi, voqelikning u yoki bu sohalari to‘g‘risidagi muhokamalar va tushunchalar odamning ongida qanchalik o‘rin olganligidan kelib chiqadi. Odamda fikr nechog‘li ko‘p bo‘lsa va bu fikrlar nechog‘li xilma-xil bo‘lsa, uning tafakkuri shu qadar mazmunli bo‘ladi, uning aqli shu qadar boy bo‘ladi. Lekin tafakkurning mazmundorligi mavjud fikrlarning miqdori bilangina belgilanmaydi, tafakkurning mazmundorligi shu fikrlarda nimalar aks ettirilganligi bilan ham belgilanadi. Shu sababli tafakkur faqat boy bo‘lganidagina emas, shu bilan birga, u ham chuqur bo‘lganida, bunday tafakkur mazmundor tafakkur deb hisoblanadi.

Voqelikning eng muhim xossalari va sifatlari, eng muhim bog‘lanishlari va munosabatlari tafakkurda aks etganida bunday tafakkur **chuqur tafakkur** deyiladi.

Tafakkurning mazmundorligi (boyligi va chuqurligi) odamning faoliyatiga, bilimiga va tajribasiga, odamda xayolning qay darajada rivojlanganligiga va odamda qiziqish, havaslarning borligiga bog‘liqdir.

Tafakkurning mazmundorligi va chuqurligi uning **kengligi** bilan chambarchas bog‘langan, voqelikning eng ko‘p sohalarini o‘z ichiga olgan, hozirgi vaqti, uzoq o‘tmishni va uzoq kelajakni o‘z ichiga olgan tafakkurni biz keng tafakkur deb hisoblaymiz. Tafakkuri keng bo‘lgan kishilarni odatda biz aqli keng, saviyasi baland va nazar doirasi keng kishilar deb, xilma-xil ma’lumotli kishilar deb ataymiz. Keng tafakkur ba’zan unchalik chuqur bo‘lmasligi, yuzaki bo‘lishi mumkin. Shunday odamlar ham bo‘ladiki, ular hamma narsa to‘g‘risida fikr yuritaveradilar, lekin ularning muhokamalarida kundalik tajribadan har bir kishiga ma’lum bo‘lgan narsalarga nisbatan yangilik juda kam bo‘ladi.

Voqelikning asosan biror kichik (tor) qismini o‘z ichiga olgan tafakkur tor tafakkur deb ataladi. Tor tafakkur ham mazmuni, hatto chuqur bo‘lishi mumkin. Bunday tafakkur biror «tor ixtisos»ga ega mutaxassislarda uchraydi. Lekin tor tafakkur ba’zan o‘z mazmuni jihatidan ayni bir vaqtda nochor, mayda va yuzaki bo‘ladi.

Fikrning kengligi ham odamning tajribasiga va bilimiga hamda shularga bog‘liq bo‘lgan qiziqish-havaslariga ham bog‘liqdir.

Tafakkur o‘zining **mustaqilligi** jihatidan turlicha bo‘lishi mumkin: tafakkur mustaqil va nomustaqil bo‘lishi mumkin.

Odam yangi vazifalarni qo‘yishda o‘zi tashabbus ko‘rsatib, shu vazifalarni boshqa odamlarning yordamisiz, o‘zining alohida yo‘llari bilan hal qilaversa, shu odamning tafakkuri mustaqil tafakkur bo‘ladi. Jumladan, tafakkurdagi mustaqillik aqlning sertashabbus bo‘lishida, pishiq bo‘lishida va tanqidiy fikr yuritishida ifodalanadi.

Aqlning **sertashabbusligi** yangi, o‘zining masala va vazifalarini o‘zi qo‘yishda hamda shu vazifalarni hal qilish uchun o‘zining yo‘llari va vositalarini o‘zi qidirishga va topishga intilishda ifodalanadi.

Biror ijtimoiy foydali nazariy va amaliy vazifalarni jamoa bo‘lib hal etishda faol ishtirok etgan odamning ham tafakkur qilishida mustaqillik namoyon bo‘ladi.

Aqlning **pishiqligi** vazifalarni hal qilishdagi odat qatoriga kirgan, shablon bo‘lib qolgan (ko‘pincha, eskirib qolgan) usullardan xoli bo‘la bilishda, vazifalarni hal qilishning yangi usullarini tez topa olishda yoki tanlay olishda va shu usullarni joy-joyiga qarab ishlata bilishda ifodalanadi.

Aqlning **tanqidiyligi** o‘zining yoki o‘zgalarning fikrlarini haqiqatga mos bo‘lish-bo‘lmaslik jihatidan tekshira bilishda va shu fikrlarga baho bera bilishda ifodalanadi. Aqlning tanqidiyligi aytilgan fikrlarning turmush uchun amaliy qiymatini aniqlay bilishda ham ifodalanadi. Aqlning «tanqidiyligi» odamning o‘z fikrlariga va o‘zganing fikrlariga tanqidiy nazar bilan qarashi demakdir.

Fikrlash vazifalari boshqa kishilar tomonidan qo‘yilganidagina va qo‘yilgan vazifalar faqat tayyor shakllarga asoslanib va boshqa kishilarning bevosita yordami bilan hal qilinayotganidagina ozmi-ko‘pmi faol ravishda ishga solingan tafakkur nomustaqil tafakkurdir.

Tafakkurning **mustaqilligini** uning boshqa kishilarning tafakkuridan to‘la ravishda mustaqil va ajralgan tafakkur tariqasida tushunish yaramaydi, albatta. Tafakkurning mustaqilligi haqiqatga olib kelganidagina, odam o‘zining fikrlash faoliyatida ilmiy asoslarga, progressiv tashabbuslarning hammasiga tayangandagina bunday mustaqillik qimmatga ega bo‘ladi. Shu sababli tafakkurning mustaqilligi avtoritetni, obro‘ni, nufuzni e’tirof etishni istisno qilmaydi. Tafakkurning mustaqilligi

odamning o‘z faoliyatida ilg‘or fikrlarni, ulug‘ kishilar tafakkurining mahsullarini o‘zlashtira va foydalana bilishda ham ifodalanadi. Mustaqil fikrlash ilg‘or kishi uchun mo‘tabar qo‘llanmadir.

Fikrning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan chambarchas bog‘langan.

Fikrning **mahsuldorligi** biron vaqt davomida biror jihatdan qimmatli bo‘lgan va mustaqil ravishda vujudga keltirilayotgan fikrlarning miqdorida ifodalanadi. Tafakkurni biz sermahsul va kam mahsul yoki mahsulsiz tafakkur deb aytishimiz mumkin.

Agar odam muayyan bir vaqt ichida biror jihatdan qimmatli va yangi fikrlarni (masalan, ilmiy sohada) ko‘p yaratayotgan bo‘lsa, agar u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi nazariy va amaliy vazifalarni hal qilayotgan bo‘lsa, bunday kishining tafakkurini biz sermahsul, original tafakkur deb ataymiz.

Tafakkurning **tezligi** qo‘yilgan savolga uzil-kesil javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Albatta, bu vaqt oddiy tafakkur jarayonlarida ancha qisqa bo‘ladi va murakkab tafakkur jarayonlarida uzunroq bo‘ladi. Oddiy tafakkur jarayonlari shu bilan farq qiladiki, bunday tafakkur jarayonlarida savollar qo‘yilishi bilanoq darhol shu savollarning javobi kelib chiqadi. Shunday kishilar borki, ularda murakkab fikrlash operatsiyalari ham juda tez o‘tadi. Bunday kishilarni hozirjavob, zehni o‘tkir kishilar deb ataymiz. Ayrim kishilarda tafakkur jarayoni sekinroq o‘tadi, hatto oddiy tafakkur jarayonlarida ham bunday odamlar qo‘yilgan savolga tayyor javobni birmuncha vaqt o‘ylab turib javob beradilar, ba’zan savolni qaytarib so‘raydilar. Tafakkurning tezligi bir qancha faktorlarga: fikrlash uchun kerakli materialning xotirada mustahkam o‘rnashib qolganligiga va shu materialni qanchalik tez esga tushira olishga, jumladan, assotsiativ jarayonlarning tezligiga, odamdagi hislarning mavjudligiga, odamning diqqatiga, qiziqishiga, shuningdek, nerv sistemasining holatiga ham bog‘liqdir. Tafakkurning tezligi odamning bilimlariga, ilmiga, mantiqiy shakllarni va tafakkur qoidalarini qay darajada egallab olganligiga, fikrlash faoliyatining epchilligiga, fikrlash ko‘nikmalarining qay darajada rivojlanganligiga bog‘liqdir.

Tafakkurning tezligi faqat shu shartlargagina bog‘liq bo‘lib qolmasdan, shu bilan birga, hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifaning xarakteriga, mazmuniga va qay darajada murakkabligiga ham bog‘liqdir.

VI BOB. NUTQ

1. Nutq to‘g‘risida umumiy tushuncha

Nutq – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish va avlodlarga berish yoki o‘zaro aloqa o‘rnatish yoki o‘z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Til ijtimoiy hodisa, aloqa vositasi bo‘lsa, nutq aloqa qilish jarayonining o‘zginasidir.

Nutq – odamlar til orqali bir-biri bilan muomala va aloqa qilishning alohida usulidir. Odam o‘z nutqi orqali o‘zining bilimlari, fikrlari, hislari va istaklarini boshqa kishilarga aytib bera oladi va boshqa kishilarning fikrlarini o‘zlashtirib oladi, boshqa kishilarning hislari va istaklarini bilib oladi.

Odamlar o‘zlarining faoliyatlari va kundalik hayotlarida bir-birlari bilan shu tarzda aloqa qilib turadilar.

Nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash jarayonida har bir kishi bilimlarning ko‘p *qism*ini boshqa kishilardan oladi.

Nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash odamning doimiy ehtiyoji bo‘lib, bu aloqa fikr olishga xizmat qiladi.

Odam boshqa kishilar bilan nutq orqali muomala qilmay yashay olmaydi. Odam yakka o‘zi qolganida, ko‘pincha, xayolidagi suhbatdoshlar bilan «o‘z ichida» gaplashadi. Odam o‘ziga notanish bo‘lgan bir yoki bir necha kishi o‘rtasiga tushib qolsa, unda nimalarnidir aytish yoki shu kishilardan nimalarnidir eshitish ehtiyoji albatta paydo bo‘ladi. Bu ehtiyoj qondirilmay qolsa, odamda ma’yus qiladigan «o‘ng‘aysizlik» hissi tug‘iladi. Odamning «aytadigan hech bir gapi» bo‘lmagan taqdirda ham shunday ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bunday hollarda u «nima qilishini» bilmay qoladi. Bunday hollarda unda «nimani gapirsam ekan?», «nimadan gap boshlasam ekan?», «qanday gap boshlasam ekan?» deb gap mavzuini qidirish boshlanadi.

Nutq tarixiy taraqqiyot jarayonida, ong bilan baravar, insonlarda til vositasi bilan aloqa bog‘lash, bir-birlariga biron narsa aytish ehtiyoji tug‘ilishi natijasida paydo bo‘lgan. Kishi nutqi mehnat jarayonida o‘sib borgan.

Har bir kishining nutqi bolalik chog‘idan boshlab o‘sib boradi, buning sababi ham boshqa kishilar bilan aloqada bo‘lish ehtiyojidir.

Nutq to‘g‘risida, shu bilan birga, til to‘g‘risida gapirganimizda quyidagilarga e’tibor berishimiz kerak.

«Nutq» va «til» degan terminlar ko‘pincha bir xil ma’noda ishlatiladi. Ammo bu terminlarning ma’nosini bir-biriga aralashtirib yuborish yaramaydi. Garchi nutq bilan til bir-biriga chambarchas bog‘langan bo‘lsa ham, lekin ularning ikkovi bitta narsa emas.

Biz biror kishiga: «Siz qaysi tilda (yoki tillarda) gaplashasiz?» deb

savol berganimizda, biz shu kishining nutqi, gapi bilan uning o‘z nutqida qanday til (yoki tillar)dan foydalanishini aniq farq qilamiz.

Til esa ijtimoiy hodisadir. Til ayrim kishida mustaqil ravishda mavjuddir. Tilning ijodkori esa xalqning o‘zidir, tarixan tarkib topgan millatning o‘zidir. Rus tili, o‘zbek tili, xitoy tili, nemis tili va hokazo deganimizda, biz mana shu ma’noda gapiramiz. Har bir avlod o‘zidan oldin o‘tgan avlodlar ishlab chiqqan tilga duch keladi va shu tilni egallab oladi, ya’ni o‘zining nutq orqali qiladigan muomalasida shu tildan foydalanadi.

Nutq bilan til bir-biridan farq qiladi, lekin ayni vaqtda ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi; nutq ham, til ham bir-biriga bog‘langan, ular birlikda mavjuddir. Bu birlik shundan iboratki, har bir til tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash jarayonida vujudga kelgan va o‘sib borgan. Har bir tilning yashab turishi kishilarning shu tilda gaplashuvlariga bog‘liq. Agar odamlar biror tilda gaplashmay qo‘ysalar, bu til ham yo‘q bo‘lib ketadi.

2. Nutqning funksiyalari

Odamlarning o‘zaro aloqalarida ularning nutqlari turli ma’nolarda yoki funksiyalarda namoyon bo‘ladi.

Nutqning asosiy vazifasi, demak, uning asosiy funksiyasi – odamlarning bir-birlari bilan aloqa qilish vositasi bo‘lishdir.

Bu aloqa asosan odamlarning o‘z fikrlarini bir-birlariga aytishlaridan iborat bo‘ladi. Aloqa jarayonida fikrlar nutq yordamida shakllanadi, ifodalanadi, aytiladi va tushunib olinadi. Og‘zaki yoki yozma nutqda ifodalab berilgan fikrlar shu fikrlarni aytuvchi kishi uchun ham ravshanroq bo‘lib qoladi. Shunday qilib, nutq aloqa jarayonida tafakkur quroli bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga mana shu aloqa jarayonida nutq ifodalash vositasi bo‘lib, biror nima bildirish vositasi bo‘lib, ta’sir o‘tkazish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi.

Nutq – ifodalash vositasi

Nutqda bizning fikrlarimiz bilan birlikda his-tuyg‘ularimiz ham ifodalanadi. Og‘zaki nutqda hissiyotlarimiz (emotsional kechinmalarimiz) so‘z yordami bilan qilingan tasvirlarda, ohangda, qofiyada, xitob va savollarda, gaplashish vaqtidagi pauzalarda va, ayniqsa, intonatsiyalarda namoyon bo‘ladi. Chunonchi, biz biron kishining ismini ataganimizda, shu kishiga bo‘lgan turli hislarimizni va munosabatlarimizni o‘zimizdagi mehrni, g‘azabni, g‘ururni, muhabbatni, hurmatni, nafratni, mensimaslikni va boshqa shu kabilarni atayin yoki beixtiyor namoyon qilishimiz mumkin. Shu bilan birga, gapiruvchining intonatsiyasida uning

holati ham, charchaganligi, umuman hayajoni, o‘ziga bo‘lgan ishonchi yoki ishonchsizligi va shu kabilar ham ifodalanadi.

Lirik she’rlar, ashulalar, romanlar, ariyalar singari nutq shakllarida odamlarning asosan xilma-xil his va tuyg‘ulari ifodalanadi.

Turli hissiyotlar bizning og‘zaki nutqimiz bilan birgalikda, odatda yuz harakatlarimizda va imo-ishoralarimizda ham yorqin namoyon bo‘ladi.

Nutqda bizning irodamiz maqsad-muddaomiz, istagimiz, niyatimiz, qarorimiz ham, shuningdek, iroda jarayonlarining ayrim sifatlari – qat’iyat va qat’iyatsizlik, dadillik, kishining o‘zini tuta bilishi, kishidagi qunt va boshqa shu kabilar ham namoyon bo‘ladi.

Nutq – biror nimani bildiruvchi vosita

Odamning nutqida uning fikrlari va xilma-xil ichki holati – emotsional kechinmalari va irodasigina ifodalanib qolmasdan, shu bilan birga hamisha biror obyektiv narsa ham bildiriladi.

Odamning nutqida namoyon bo‘ladigan xilma-xil tovush birikmalari uning ichki holatini ifodalabgina qolmasdan, shu bilan birga obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan narsalar va hodisalarning nimaligini bildiruvchi vosita bo‘lib ham xizmat qiladi. Har qanday so‘z biron narsaning ma’nosini bildiradi. Masalan, *stol* degan so‘z birikmasi ham nutq bo‘lagi bo‘lib qoladiki, bunda shu tovush birikmasi yordami bilan muayyan buyumning ma’nosi bildiriladi. So‘zlar bizning ongimizdan tashqarida mavjud bo‘lgan buyumlar va hodisalarning hamda ularning xislatlari, holatlari, bog‘lanishlari, munosabatlari va shu kabilarning ongimizdagi in’ikosidir.

Bizning ongimizda voqelik in’ikos etganida so‘z shu in’ikosni umumlashtiruvchi vositadir. So‘z bilan hamisha umumiylikni ifodalaymiz. Shu sababli *stol* degan so‘zni aytganimizda, bu so‘z bilan biz xuddi shu onning o‘zida bizning ko‘z o‘ngimizda turgan bitta stolnigina ifodalab qolmasdan, balki umuman «stol» tushunchasini ifodalaymiz. O‘zimiz idrok qilayotgan yoki tasavvur qilayotgan bitta stolning nomini aytganimizda, biz mana shu bitta stol degan so‘zda umuman «stol» to‘g‘risidagi o‘zimizda bo‘lgan umumiy tushunchani nazarda tutamiz. Shu sababli umumlashtirilgan ma’noga ega bo‘lgan so‘z faqat yakka narsalarga mansub bo‘lmasdan, shu bilan birga narsalarning butun bir turkumiga ham mansubdir.

Nutq va ayrim so‘zlar narsalarning faqat belgilari – «yorliqlari» gina emas. Narsalarni ifodalovchi nomlar nutqning xususiy funksiyalaridan biridir, xolos. Har bir so‘zning bundan tashqari yana ichki mazmuni ham bor, har bir so‘z ma’lum tushunchani ifodalaydi.

Nutq – ta’sir ko‘rsatish vositasi

Nutq ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ta’sir ko‘rsatish – biz nutqimizni kimga qaratayotgan bo‘lsak, shu kishida biz istagan hislar, intilishlar va harakatlarni tug‘dirish, ularning fikrini biz istagan tomonga burish, ularni o‘zimiz xohlaganimizcha o‘ylashga majbur etish, ularni ishontirish demakdir. Ma’lumki, nutq yordami bilan boshqalarda xursandlik, qo‘rquv, g‘azab, ruhlanish hislarini tug‘dirish mumkin, boshqalarda biz istagan intilishlarni, harakatlarni kuzatishimiz mumkin.

Yozuvchi badiiy asar yaratayotganida odamlarda muayyan fikr, his, intilish tug‘dirishni, turmushga muayyan qarash hosil qilishni nazarda tutadi.

Nutq ta’sir vositasi bo‘lib, u tibbiyot tajribasida katta rol o‘ynaydi. Shu narsa hammaga ma’lumki, shifokorning so‘zi, ya’ni uning bemor bilan bevosita nutqiy aloqasi kuchli sur’atda ta’sir qiladigan vositalaridan biridir. So‘z og‘riqni bosadigan, darmon kiritadigan va boshqa shu kabi shifobaxsh vositadir. Tajribali tabibning aytishlariga qaraganda, so‘z kasalning jismoniy va ma’naviy alamlarini ba’zan doridan ham yaxshiroq yengillashtirar ekan. Masalan, shifokorning maslahatlari, kasalning xavfsizligi va tezda tuzalib ketishiga bemorda ishonch va e’tiqod hosil qilishi ham ana shunday ta’sir ko‘rsatadigan nutqiy vositalar jumlasiga kiradi.

O‘qituvchi va tarbiyachi so‘z orqali ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan o‘quvchilarda muayyan intizom va xatti-harakat vujudga keltiradi. Ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lgan nutq ta’lim-tarbiyaning asosiy qurolidir.

Amr-farmon berish, o‘tinib so‘rash – iltimos qilish, maslahat berish, o‘git-nasihat qilish, dalil-isbotlar keltirish va boshqa shu kabilar so‘z vositasi bilan ta’sir ko‘rsatish shakllaridir. Nutq ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi, chunki so‘zlab turgan kishining nutqida uning hissiy intilishlari, iroda va e’tiqodi aks etadi.

Nutqning ta’sir o‘tkazuvchi funksiyasida intonatsiya katta rol o‘ynaydi. Intonatsiyada nozik va murakkab hislar va iroda xususiyatlari – norozilik, istak, talab hislari va shu kabilar namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli, o‘quvchilarda tabiat va turmushdagi biror hodisaga qiziqish paydo qilish, bilimni yanada mustahkamroq bilib olishga ishtiyoq uyg‘otish uchun, shuningdek, ularni ma’lum bir harakatga yo‘llash uchun o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatmoqchi bo‘lganida o‘qituvchi o‘z nutqida talaffuzga, ayniqsa, alohida e’tibor bermog‘i lozim.

Nutq – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribalarni egallash va avlodlarga berish, o‘zaro aloqa o‘rnatish, harakatlarni rivojlantirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Til ijtimoiy hodisa, aloqa

vositasi bo‘lsa, nutq aloqa qilish jarayonining o‘zginasidir.

Til ham o‘z funksiyasiga egadir.

Tilning asosiy funksiyasi:

1. Til – hayot kechirish, ijtimoiy tarixiy tajribalarni bilish, uni o‘zlashtirish vositasi.

2. Til – kommunikatsiya (aloqa) usuli.

3. Til – aqliy faoliyat, ya’ni idrok, xotira, tafakkur, xayol quroli ekanligida namoyon bo‘ladi.

Inson farzandi tug‘ilgandan keyin atrofdagi kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini o‘rganadi, hayot kechirish jarayonida o‘zaro munosabatlarga kirishadi, til yordamida so‘z belgilari tizimini o‘zlashtiradi va bunda til yashash vositasi, tajribalarni o‘rganish va o‘zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo‘ladi.

Tilning kommunikatsiya vositasi eng muhim vositadir. Bu vosita tufayli biz kishilarga ta’sir qilamiz, o‘zimizning xatti-harakatlarimizni boshqaramiz, tajribalarni o‘rganamiz. Har bir kishining shaxsiy tajribasi bor va bu til bilan bog‘liqdir. Odam har qanday muammoni hal qila oladi. Bunda u o‘z oldiga bajariladigan muammoning vazifalarini qo‘yadi va uni hal qilish jarayonida turli aqliy (intellektual) harakatlardan foydalanadi. Buni intellektual akt (harakat) deb ataladi.

Intellektual harakat uch qismdan iborat bo‘lib, unga faoliyatni rejalashtirish, uni amalga oshirish va natijasini ko‘zlangan maqsad bilan solishtirish kabilar kiradi. Bunda obyektni idrok qilish, esda qoldirish, tafakkur va xayol kabi bilish jarayonlari ishtirok etadi va aqliy faoliyat namoyon bo‘ladi. Bu esa tilni aqliy faoliyat vazifasini bajarishidan dalolat beradi.

3. Nutqning anatomik-fiziologik asoslari

Bosh miya po‘stidagi alohida markazlarning faoliyati va nutqqa oid muskul apparati nutqning anatomik-fiziologik asosini tashkil qiladi.

Tovush nutqining (fonetik nutqning) muskul apparati uch qismdan – nafas olish, ovoz va artikulatsiya apparatlaridan iborat. **Nafas olish apparati** diafragmadan, o‘pkadan, o‘pkani, bronxni va bo‘g‘izni harakatga keltiruvchi muskullardan iborat. Nafas olish apparatining vazifasi nutq apparatining ovoz qismiga havo kiritib turishdan iborat.

Ovoz apparati – nafas olinadigan bo‘g‘izning davomi bo‘lgan kekirdak bo‘lib, to‘rtta tog‘aydan iboratdir.

Shu tog‘aylar o‘rtasidagi bo‘shliqda ikkita gorizontal elastik muskullar bor, bu ovoz muskullari deb ataladi. Nafas bo‘g‘izdan chiqib turgan havo bu muskullarni harakatga keltirib, tebratib turadi.

Tog‘aylar mana shunday tebranib turishi tufayli ovoz muskullari

taranglanishi yoki susayishi mumkin: bu muskullar bir-biriga yopishib yoki bir-biridan ajralib turishi natijasida ularning o‘rtasida ovoz teshigi deb atalgan bo‘shliq hosil bo‘ladi.

Agar ovoz muskullari tarang bo‘lib tursa yoki bir-biriga yaqinlashib qolsa (ya’ni, ovoz teshigi yopilib qolsa), u holda nafas yo‘lidan chiqqan havo shu teshikka kirib, ovoz muskullarining chetlarini tebratadi (vibratsiya qiladi), natijada tovush hosil bo‘ladi. Agar ovoz muskullari bir-biriga yetarli ravishda yaqinlashmagan bo‘lsa, nafas oladigan bo‘g‘izdan chiqayotgan havoning ovoz muskullariga yengil ishqalanib o‘tishi natijasida pichirlagan tovush hosil bo‘ladi. Erkin, tovushsiz nafas olinganida ovoz muskullari tarang bo‘lmasdan qoladi, ovoz teshigi esa to‘la ravishda ochiq bo‘lib qoladi.

Artikulatsiya apparati og‘iz bo‘shlig‘idan va burun bo‘shlig‘idan iboratdir. Bu bo‘shliqlar bo‘g‘in ustidagi tovushga bamisoli sayqal beruvchi truba kabi bir narsadir (rezonatordir).

Og‘iz bo‘shlig‘i bo‘g‘izda paydo bo‘lgan tovushlarning asosiy rezonatori bo‘lib xizmat qiladi. Agar tovush to‘lqinlari og‘iz bo‘shlig‘i orqali hech bir to‘siqqa uchramay o‘tayotgan bo‘lsa, unli tovushlar hosil bo‘ladi. Unli tovushlarning *(a, e, i, o, u)* farqi og‘iz bo‘shlig‘ining katta-kichik bo‘lishiga va shaklining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi. Og‘iz bo‘shlig‘ining shakli ko‘p jihatdan til va lablarning holatiga va og‘izning qay darajada ochilishiga bog‘liqdir. Til — nutqning eng serharakat organidir: til ko‘tarilishi, tushirilishi, oldinga cho‘zilishi va orqasiga qaytarilishi mumkin. Lablar cho‘zilishi, cho‘chchaytirilishi mumkin.

Undosh tovushlar tovush to‘lqinlarining og‘iz bo‘shlig‘idan bemalol o‘tishiga katta yoki kichik biror to‘siq paydo bo‘lishi natijasida hosil bo‘ladi. Bu to‘siqlar lablarni yumish yo‘li bilan vujudga keltirilganida *p, b, m* tovushlari hosil bo‘ladi, bu pastki lab va yuqori tishlar bilan vujudga keltirilganida *f , v* tovushlari hosil bo‘ladi, til va ustki tishlar bilan vujudga keltirilganida *t, d, n, s, z* tovushlari hosil bo‘ladi, til va tanglayning biror qismi bilan vujudga keltirilganida *r, sh, k,* tovushlari hosil bo‘ladi. Burun bo‘shlig‘i tovushlarni hosil qilishda turlicha rol o‘ynaydi. Burun bo‘shlig‘i ochiq yoki yopiq bo‘lishiga qarab, turlicha tovushlar hosil bo‘ladi. Agar burun bo‘shlig‘i yopiq bo‘lsa, burundan chiqmaydigan tovushlar *(a, u, yu),* agar bu bo‘shliq ochiq bo‘lsa, burundan chiqadigan undosh tovushlar *(j, n) hosil* bo‘ladi.

Tovushlar turli ravishda bir-biriga qo‘shilganda bo‘g‘in va so‘zlar hosil bo‘ladi, so‘zlardan esa gap hosil bo‘ladi. Bizning og‘zaki nutqimiz shu tariqa vujudga keladi.

Nutq yozuv vositasi bilan ifodalanganda so‘zlarning tovush tuzilishi yozma, grafik belgilar sistemasiga ko‘chiriladi. Nutqning yozma ifodasi

qo‘l va barmoq muskullari yordami bilan hosil qilinadi. Lekin bunda yozish jarayoni artikulatsiyadan ajralgan holda emas, balki artikulatsiya asosida voqe bo‘ladi. Yozishning artikulatsiya bilan bunday bog‘langanligi savod chiqarishning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa, sezilarli bo‘ladi. Endigina savod chiqarayotgan o‘quvchi har bir so‘zni yozayotganida shu so‘zni albatta gapirib yoki pichirlab aytib turadi. Yozish malakasi rivojlanib ketganida (avtomatik tus olganida) ham bo‘g‘izning yengil harakat qilishi davom etaveradi, buni alohida asboblar yordami bilan qayd qilish mumkin.

Ikkinchi signal sistemasining mexanizmlari tafakkurning asosi bo‘lgani kabi, nutqning ham nerv-fiziologik asosidir (uchinchi bobga qaralsin). Hayvonlarning tashqi dunyo bilan munosabati ularning faqat bevosita taassurotlari orqali voqe bo‘ladi. Odamning tarixiy rivojlanishi natijasida esa unda «ikkinchi signal sistemalari, ana shu birlamchi signallarning signallari so‘zlar tariqasida paydo bo‘ldi, rivojlandi va nihoyat darajada takomillashdi». Qo‘zg‘ovchi vosita sifatida, so‘z uch shaklda namoyon bo‘lishi mumkin: 1) eshitish organini qo‘zg‘ovchi shaklda – eshitiladigan so‘z; 2) ko‘rish organini qo‘zg‘ovchi shaklda – yozilgan so‘z; 3) kinestezik qo‘zg‘ovchi shakl sifatida – aytilayotgan yoki yozilayotgan so‘z (I. P. Pavlov, Полное собрание сочинений, III tom, 2-kitob, 232-bet). Shu shakllar orasida I. P. Pavlov organlarining kinestezik qo‘zg‘alishi alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi: «Nutq, avvalo, nutq organlaridan bosh miya pastiga o‘tuvchi maxsus kinestezik qo‘zg‘alishdir. Nutq ikkinchi signallardir, signallarning signalidir». Eshitilib turgan, aytilayotgan va ko‘rinib turgan (yozuv) so‘z qo‘zg‘ovchi bo‘libgina xizmat qilmasdan, shu bilan birga, qo‘zg‘alishga javob reaksiyasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Bunda javob reaksiyasi bo‘lgan so‘z o‘z navbatida – ikkinchi signal sistemasidagi jarayonlarni vujudga keltiradigan qo‘zg‘ovchidir.

Qo‘zg‘ovchi nutq va javob so‘z reaksiyasi bo‘lgan nutq, bosh miya po‘stining maxsus uchastkalari bilan – nutq markazlari bilan bog‘langan. Nutq markazlari eshitish markazi, harakatlantirish markazi va ko‘rish markazi deb uch xil markazga bo‘linadi.

Eshitish markazi so‘l chakkaning orqa bo‘limida joylashgan. Miyaning bu uchastkasi eshitilgan so‘zlarni idrok qiladi, boshqalarning nutqini tushunish va o‘zlashtirishni vujudga keltiradi, bu markaz buzilib qolganida nutq chuvalab ketadi, buni **sensorli afaziya** deb ataladi. Bunday kasalga duchor bo‘lgan kishi o‘zgalarning nutqini tushunmaydi: tovush va so‘zlarni eshitadi-yu, lekin so‘zlarning mazmunini bilmaydi, gapning ma’nosini tushunmaydi.

Nutqning **harakatlantirish** markazi chap yarim sharning uchinchi manglay qismida joylashgan. Bu markaz gapiruvchi kishining faol

nutqini vujudga keltiradi. Bu markaz buzilib qolganida odam gapirolmaydigan bo‘lib qoladi. Nutqning bunday buzilishi **harakat afaziyasi** deb ataladi.

Nutqning ko‘rish markazi bosh miyaning orqa qismiga joylashgan. Yozilgan xatni o‘qiganda va yozgan vaqtda yozuv belgilari shu markaz tufayli idrok qilinadi. Bu markaz buzilib qolgan taqdirda odam harflarni tanimaydi, o‘qiy olmay qoladi (aleksiya kasalligi), yozolmay qoladi (agrafiya kasalligi).

Biroq, akademik I. P. Pavlovning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, bosh miya po‘stining boshqa markazlari kabi bu nutq markazlarining qat’iy chegaralari yo‘q va bir-biridan ajralgan holda harakat qilmaydi. Bu markazlar bir-biri bilan qo‘shilaveradi va bir-birining vazifasini bajaraveradi, bosh miya po‘stining boshqa markazlari bilan ham qo‘shilaveradi. Nutq markazlari deb nom berilgan markazlar bosh miya po‘stining u yoki bu xil nutq jarayonlarida ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lgan uchastkalaridir, xolos. O‘zgalarning nutqini va gapirayotgan kishining o‘z nutqini idrok qilish bosh miya po‘stining faoliyatiga va asosan, bosh miya po‘stining ikkinchi signal sistemasi bilan bog‘lanishlarni vujudga keltiruvchi qismiga bog‘liqdir.

4. Nutq va tafakkurning o‘zaro uzviyligi

Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Odam nutq bo‘lmasa, til vositalari bo‘lmasa fikr qilolmaydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, nutq fikrlash qurolidir. Tafakkur bo‘lmasa nutq til bo‘lishi ham mumkin emas.

Fanga xilof bo‘lgan burjua idealistik ta’limot uchun xarakterli narsa shuki, u tafakkurni nutqdan, til shakllaridan ajratib qo‘yadi. Masalan, psixologlarning Vyursburg maktabi deb atalgan idealistik psixologiya namoyandalari (Byuller, Messer, Kyulpe, Ax va boshqalar) odamdagi tafakkur jarayonlari obrazlardan − idroklar va tasavvurlardan mustaqil ravishda, shuningdek, nutq tildan mustaqil ravishda sodir bo‘ladi, deb isbot qilmoq uchun, buni hatto tajriba qilib ko‘rsatishga ham urinib ko‘rdilar.

Obrazlardan va nutqdan mustaqil mana shunday «sof» tafakkur bo‘lishi mumkin, degan idealistik ta’limot butunlay asossiz ta’limotdir. Tafakkur idrok va tasavvurlardan mustaqil sur’atda o‘sa olmaydi. Nutq bo‘lmasa, tafakkur ham bo‘lmaydi, til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi.

Bizning hukmlarimiz, mantiqiy ta’riflarimiz, xulosalarimiz til materiallari va gaplar yordami bilan ifodalanadi. Til materiallari va gaplar vositasi bilan analiz va sintez qilinadi, abstraksiya qilinadi va umumiylashtiriladi.

Til materiallari bo‘lmasa, biz hatto eng oddiy hukmni ham o‘zimiz uchun ifodalay ololmaymiz – biz shu onning o‘zida idrok qilib turgan buyumlar to‘g‘risida ham biror nimani tasdiq qilib yoki inkor qilib aytolmaymiz. Biz so‘zlar bo‘lmasa, bitta ham tushunchani fikrimizga joylashtira olmaymiz.

Faqat til yordami bilangina odamlar bir-birlariga o‘z fikrlarini ayta oladilar. Odamlar nutq orqali bir-birlari bilan aloqa bog‘laganlarida, tafakkur natijalarini va o‘tmish ajdodlarning bilish sohasida erishgan muvaffaqiyatlarini til yordami bilan o‘zlashtirib oladilar va ayni vaqtda o‘z fikrlarini va bilimlarini avlodlariga topshiradilar.

Inson tafakkuri ham tarixiy taraqqiyot jarayonida, til yordami bilan bo‘ladigan nutq aloqalarida o‘sdi – tafakkurning mantiqiy shakllari ishlab chiqildi.

Har bir kishining tafakkuri uning butun umri davomida til yordami bilan bo‘ladigan nutq aloqalari jarayonida o‘sib boradi.

Lekin biz tafakkur, nutq va til bir-biriga chambarchas bog‘langan deganimizda shuni ham nazarda tutishimiz kerakki, nutq bilan tafakkur aynan bir narsa emas, nutq bilan tafakkurni, fikr bilan tilni bir-biriga aynan teng deyish yaramaydi. Biz ba’zi burjua psixologlarining tafakkur bilan nutq aynan bir narsa, deb da’vo qiluvchi soxta ta’limotini qat’iyan rad qilishimiz lozim.

Agar nutq bilan tafakkur aynan bir narsa bo‘lganda edi, boshqa birovning nutqini faqat eshitish yoki birinchi takrorlash bilanoq, tushunib olingan bo‘lur edi. Modomiki, birovning nutqini faqat eshitish yoki birinchi takrorlash bilanoq tushunib bo‘lmas ekan, binobarin, tafakkur bilan nutqni ham aynan bir narsa deb bo‘lmaydi.

Shunday ham bo‘ladiki, ayni bir fikrning o‘zini turli odamlar va ayni bir kishining o‘zi turli hollarda, turli so‘zlarda, turli iboralarda ifodalaydi. Misol uchun matematikaning quyidagi ta’rifini ko‘rsatish mumkin: plus-plusga ko‘paytirilganida va minus-minusga ko‘paytirilganida plus hosil bo‘ladi, plus minusga ko‘paytirilganida esa minus hosil bo‘ladi. Shu fikrning o‘zi boshqa bir iborada ifodalanishi mumkin: bir xildagi alomatlarga ega bo‘lgan raqamlar bir-biriga ko‘paytirilganda musbat raqam hosil bo‘ladi, alomatlari turlicha bo‘lgan raqamlar bir-biriga ko‘paytirilganida manfiy raqam hosil bo‘ladi. Nutq bilan tafakkur aynan bir narsa bo‘lganida edi, bunday hodisalarning bo‘lishi mumkin bo‘lmas edi.

Tafakkur bilan nutq o‘rtasida farq borligini shu faktdan ham bilish mumkinki, ayni bir fikrni grammatik tuzilishi turlicha bo‘lgan turli

tillarda (masalan, rus, o‘zbek, xitoy va boshqa tillarda) aynan bir ma’no bildiradigan qilib ifodalash mumkin.

Agar til bilan tafakkur aynan bir narsa bo‘lganida edi, u holda hamma tillarda grammatik tuzilish ham aynan bir-biriga o‘xshash bo‘lishi kerak edi, yoki har qaysi millatda shu millat tilining grammatik tuzilishiga muvofiq ravishda, tafakkur shakllarining tuzilishi ham turlicha bo‘lishi kerak edi. Har bir xalqda o‘ziga xos mantiq bo‘lishi lozim edi. Lekin bunday holda, turli millat odamlarining bir-birlarini tushunishlari mumkin bo‘lmadi, aynan bir fikrni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish mumkin bo‘lmadi. Til bilan tafakkurning bevosita aloqasi faqat tilning tafakkur uchun bo‘lgan ahamiyatidagina ifodalanib qolmasdan, balki, shu bilan birga, tafakkurning til uchun bo‘lgan ahamiyatida ham ifodalanadi.

Tafakkurning taraqqiyot tarixida tilning roli qanchalik katta bo‘lsa, tilning taraqqiyot tarixida ham tafakkurning roli shunchalik kattadir. Grammatika qonunlarini, shakllarini va qoidalarini tuzishda hamda ularning takomillashib borishida tafakkur, ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Har bir kishidagi tafakkurning o‘sishi shu kishi nutqining o‘sishi bilan bab-baravar bo‘lganidek, shu kishi nutqining o‘sishi ham undagi tafakkurning o‘sishiga bog‘liq bo‘lgan. Grammatika shakllari va qoidalarini o‘zlashtirish jarayonining o‘zi odamning o‘z tafakkurini zo‘r berib ishlatishini talab qiladiki, bu hammaga ma’lumdir.

Shunday qilib, tafakkur bilan nutq turli hodisalardir, lekin ayni vaqtda bu ikki hodisa bir-biri bilan chambarchas bog‘langan, bir-birini taqozo qiluvchi va bir-biridan tashqarida voqe bo‘lmaydigan va o‘sa olmaydigan hodisadir. Nutq va tafakkur bir-biri bilan dialektik birlik asosida bog‘langandir.

Nutq bilan tafakkurning birligini Pavlovning ikkinchi signal sistemasi to‘g‘risidagi ta’limoti ham isbotlab beradi, ikkinchi signal sistemasi birinchi signal sistemasi bilan bir-biriga o‘zaro ta’sir qilgan holda nutqning ham, tafakkurning ham nerv-fiziologik negizini tashkil qiladi.

V. Nutq turlari

Nutq o‘zining tashqi ifodalanish usuliga qarab og‘zaki va yozma nutqqa ajralib qolmasdan shu bilan birga, qanday vazifani bajarishiga va sintaktik tuzilishining xususiyatlariga qarab ham bir-biridan farq qiladi.

Nutq o‘zining bajaradigan vazifasiga qarab, ichki va tashqi nutqqa bo‘linadi.

Ichki nutq

Ichki nutq shunday bir nutqdirki, uning yordami bilan fikrlar boshqa odamlarga ma'lum qilinmasdan oldin ichda ifodalanadi.

Ichki nutqning o'z xususiyatlari bor. Bu nutq, ko'pincha tovushlar ovoz chiqarib aytmaydigan nutqdir, bu nutq odam «o'z ichida gapiradigan» nutqdir. Ba'zan ichki nutq «tashqariga» chiqadi, ya'ni tovushlar ovoz chiqarib aytiladi. Biror nimani fikr qilayotgan odam qandaydir qiyinchilikka uchrab qolganida, shuningdek, hissiyoti qattiq qo'zg'alish natijasida hayajonlanib ketganida yoki o'zining oldida boshqa odamlar bo'lmagan vaziyatda u, o'zi sezmagan holda, «ovoz chiqarib o'ylaydi» — ovoz chiqarib o'z-o'zi bilan gaplasha boshlaydi. Odam yakka qolib, o'z ichida o'ylab o'tirganida ko'pincha imo-ishora va mimikadan ham foydalanadi. Kichkina bolalar ko'pincha «ovoz chiqarib o'ylaydilar», gaplashib va harakat qilib turib fikr qiladilar.

Shakl jihatidan ichki nutq ko'proq monolog tarzida sodir bo'ladi, ichki nutqni odamning o'z-o'zi bilan va o'zicha gaplashuvi deyish mumkin. Lekin ba'zan ichki dialog shaklida, xayoldagi suhbatdosh bilan gaplashish yoki munozara qilish tarzida ham sodir bo'ladi.

Sintaksis tuzilishi jihatidan ko'pincha ichki nutq qisqartirilgan, bo'lak-bo'lak gaplardan iborat bo'ladi. Ichki nutqda gapning faqat ayrim bo'laklarigina, asosan ega birmuncha aniq qilib ifodalanadi («ichdan, o'z-o'ziga» aytiladi). Ichki nutq ovoz chiqarib «aytib yuborilganida» ham o'zining shu xususiyatini saqlab qoladi. Ichki nutqning to'liq bo'lmasligiga, bo'lak-bo'lak bo'lishiga sabab shuki, tafakkur obyekti va shu tafakkur sodir bo'layotgan vaziyat fikr qiluvchi kishining o'ziga ravshandir va to'liq gap bilan qayd qilinishini talab etmaydi. Nutq tafakkur obyektida tasdiqlanadigan yoki inkor qilinadigan narsa ustidagina to'xtaladi.

Ichki nutq, odatda, ixtiyorsiz ravishda o'tadi. Bunda tafakkur jarayonlarining o'zi ixtiyoriy ravishda, ma'lum kuch sarflash yo'li bilan ham borishi mumkin. Lekin ixtiyoriy tafakkur jarayonining borishiga yordam bergan ichki nutq ixtiyorsiz ravishda o'z-o'zicha maydonga chiqadi deyish mumkin. Ichki nutq dialog shaklida sodir bo'lgan hollardagina ixtiyoriylik momentlari paydo bo'ladi. Bunday hollarda ichki nutq o'zining sintaksis tuzilishi jihatidan ham tashqi nutq tuzilishiga yaqinlashib qoladi. Ichki nutqning xarakterli belgisi shuki, bunda tovushlarning artikulatsiyasi ko'zga ko'rinmaydi. I. M. Sechenov buni quyidagicha tasvirlaydi: «Men fikr qilayotganimda juda ko'p vaqt og'zimni ochmay va yopib turib, gapiraveraman, ya'ni og'iz bo'shlig'idagi til muskullari harakat qilaveradi. Biror fikrni, asosan boshqalarga uqtirmoqchi bo'lib, ifodalashga uringan

hollarning hammasida esa shu fikrni albatta pichirlab takrorlab turaman» (Избранные философские и психологические произведения. Gospolitizdat, 1947, 142-bet).

Ichki nutqning ko‘zga ko‘rinmaydigan mana shunday artikulatsiyasi borligi hozirgi vaqtda eksperimental yo‘l bilan isbotlangan.

Tashqi nutq

Tashqi nutq boshqa odamlar bilan aloqa qilishimizda foydalaniladigan nutqdir.

Bu nutq biron kishiga qaratilgan, biron nimani xabar qiladigan nutqdir.

Tashqi nutqning o‘zi ham og‘zaki va yozma nutqqa bo‘linadi.

Og‘zaki nutq

Og‘zaki nutq – boshqa kishilar bilan bevosita qilayotgan aloqamizda foydalanilayotgan nutqdir. Bu nutq odatdagi gaplashuv nutqidir. Bu nutq hamisha boshqa kishilarning eshitish organlari yordami bilan idrok qilishlari uchun mo‘ljallangan «tovushli» nutqdir. Shu sababli, odatda, og‘zaki nutq ovoz bilan va (ba’zan) shivirlab aytiladi. Og‘zaki nutq vaqtida, odatda, gapirayotgan kishi bu nutqni mimika, imo-ishoralar bilan ishlatadi.

Og‘zaki nutqning xarakterli xususiyati shuki, bu nutq suhbatdoshlar o‘rtasida bo‘ladi. Suhbatdoshning yoki suhbatdoshlarning bunday ishtirok etishi ularning gapirayotgan kishining nutqiga diqqat qilib turishi, savollar berib turishi, so‘z tashlab turishidan iborat bo‘ladi; suhbatdoshlar gapirayotgan kishining fikriga e’tiroz bildiradilar, yoki bu fikrga o‘zlarining rozi bo‘lganliklarini izhor qiladilar, yoxud shu fikrni kengaytiradilar.

Suhbatdoshlarning og‘zaki nutqda qatnashishlari qay xarakterda va qay darajada bo‘lishiga qarab, og‘zaki nutq ikki shaklga bo‘linadi. Bularning biri dialog nutq (dialog) va ikkinchisi monolog nutq (monolog) deb aytiladi.

Ikki yoki ko‘p suhbatdosh o‘rtasidagi gaplashish tariqasida bo‘ladigan nutq *dialog* deb ataladi. Suhbatdoshlar navbatma-navbat gaplashaveradilar – biri so‘raydi, biror narsani aytadi, boshqalar esa uni tinglaydilar, javob beradilar.

Odam bitta o‘zi gapirsa-yu, boshqa kishilar bu gapga faol qatnashmay faqat uning nutqini tinglab tursalar, nutqning bu shakli *monolog* deb ataladi. Masalan, lektorning, dokladchining nutqi, sudda, kengashlarda va boshqa shu kabi joylarda so‘zlanadigan nutq monolog nutqdir yoki monologdir.

Og‘zaki nutq ixtiyorsiz yoki ixtiyoriy bo‘ladi. Gapirayotgan kishi so‘z va grammatika shakllarini maxsus tanlamay, og‘ziga kelganicha so‘zlashsa, bu holda nutq ixtiyorsiz nutq bo‘ladi. Gapirayotgan kishi o‘z so‘zlari uchun alohida mas’uliyat sezib gapirganida, shu nutqni tinglayotgan kishi gapirayotgan kishi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lganida, bunday hollarda nutq ixtiyoriy xarakterga ega bo‘lib qoladi. Masalan, o‘quvchining o‘z o‘qituvchisi bilan gaplashayotgan vaqtidagi nutq mana shunday ixtiyoriy nutqdir. Bunday hollarda gapirayotgan kishi lozim bo‘lgan so‘zlarni tanlab, joy-joyiga qo‘yib ishlatishga, grammatika qoidalariga rioya qilishga intiladi va harakat qiladi.

Dialog – ikki yoki bir necha odam o‘rtasida bo‘ladigan gapdir, bunda suhbatdoshlarning gapi bir-biriga bog‘lanadi, ulanib ketadi, ya’ni gaplashib turganlar bir-birlariga savol-javob qilib, bir-birlariga e’tiroz qilib gapni ulab, davom ettiradilar. Shuning uchun dialog ma’nosi bir-biriga ulangan nutqni ancha osonlashtiradi. Monolog nutq esa ancha og‘ir ko‘chadi. Monolog – gapirayotgan kishidan juda ko‘p diqqat-e’tibor berishni talab qiladi, gapirayotgan kishining faqat o‘z nutqining mazmunigagina diqqat-e’tibor berib qolmay, balki, shu bilan birga, bu nutqning tashqi tuzilishiga ham, fikrlarni ifodalashda muayyan sistema, tartib bo‘lishiga ham rioya qilishi lozim bo‘ladi.

Monolog nutq tuzilishi jihatidan yozma nutqqa yaqindir.

Og‘zaki nutq (dialog ham, monolog ham) ichki nutq singari, tafakkur qurolidir. Bunda boshqalar bilan gaplashish jarayonida gapirayotgan kishining o‘z fikrlari ham o‘ziga ravshan bo‘lib qoladi.

Yozma nutq

Yozma nutqning xususiyati shuki, bu nutq bevosita aloqa bog‘lash vositasi bo‘lmasdan, balki, ko‘pincha, boshqa vaziyatda, boshqa bir joyda turgan yoki turishi mumkin bo‘lgan odamlar bilan aloqa bog‘lash vositasidir. Masalan, biz o‘z do‘stimizga yoki qarindoshimizga xatimizda yozib yuborgan xabarimizni u ehtimolki bir kundan keyin, ikki kundan keyin, bir haftadan keyin, boshqa shaharda yoki boshqa qishloqda o‘qib bilishi mumkin. Biz bundan yarim yil, bir yil, hatto bir necha o‘n va yuz yil muqaddam yozib qoldirilgan kitoblarni o‘qib, shu kitoblardagi bilimlarni bilib olamiz.

Yozma nutq ham monolog shaklida va dialog shaklida bo‘ladi. Masalan, ilmiy asarlar hamisha deyarli monolog shaklida yoziladi. Badiiy-adabiy asarlar dialog shaklida ham, monolog shaklida ham yoziladi. Ba’zan oddiy maktublar ham dialog shaklida yoziladi, shu maktubni yozayotgan kishi uni o‘qiydigan kishini tasavvur qilib, unga

maktubda o‘zi savollar beradi va shu savollarga o‘zi javob qaytaradi.

Sintaksis jihatidan qaraganda yozma nutq eng to‘liq va mukammal nutqdir. Har bir kishi oddiy maktubni yoki ilmiy maqolani yozayotganida grammatika qoidalariga, og‘zaki nutqdagiga qaraganda, ko‘proq rioya qiladi. Yozma nutqda gap bo‘laklaridan biri tushib qolsa, bu yozma nutqni o‘qigan kishilar uni qiynalib tushunadilar yoki butunlay tushunolmaydilar. Yozma nutqning sintaksis jihatdan to‘liq bo‘lishi shuning uchun ham zarurki, og‘zaki nutq uchun xarakterli bo‘lgan mimika, imo-ishoralar, intonatsiyalar va boshqa shu kabi qo‘shimcha elementlarni yozma nutqda ishlatib bo‘lmaydi.

Yozma nutq, asosan, ixtiyoriy nutq bo‘ladi. Maktub, doklad, ma’ruzalar va boshqa shu kabilarni yozayotgan kishi so‘zlarni ongli ravishda tanlaydi, gaplarni yaxshiroq qilib tuzishga intiladi. Ko‘pincha o‘z fikrlarimizni o‘qiydigan kishilarga so‘zlar vositasi bilan g‘oyat ravshan va tushunarli qilib ifodalamoq uchun ancha-muncha kuch sarflashimiz lozim bo‘ladi.

Yozma nutq fikrlarimizni ifodalab berishning eng yaxshi vositasidir. Yozma nutqda fikrning mazmuni va shaklidagi ayrim kamchiliklar ochiq ko‘rinib qoladi va fikrning o‘zi mazmun va shakl jihatidan eng ravshan, aniq qilinib ifodalanadi. Shuning uchun ham biz aqliy ish bilan shug‘ullanayotganimizda, biror masalani hal qilganimizda yoki tayyor bilimlarni o‘zlashtirayotganimizda ish natijasini yoki olgan bilimimizni ko‘pincha, xatga yozib qo‘yamiz, ba’zan esa bir necha marta ko‘chirib yozamiz. Shu sababli, har xil yozma ishlar — hikoya qilib yozib berish, insho yozish, konspekt olish — tafakkurning o‘sishi uchun katta ahamiyatga egadir.

Faol va passiv nutq

Faol nutq biror narsa gapirayotgan va yozayotgan kishining nutqidir. Shuningdek, kishi biror shaxsga maktub yozayotgan, olim maqola, kitob yozayotgan, yozuvchi o‘zining adabiy asarini yaratayotgan vaqtidagi nutq ham faol nutq bo‘ladi.

Boshqa birovning faol nutqini idrok qilish va tushunish jarayoni passiv nutqdir. Gapirayotgan kishining so‘zini tinglab turgan yoki yozilgan narsani o‘qiyotgan kishi boshqa bir kishining faol nutqini o‘zicha takrorlagandek bo‘ladi. Masalan, o‘qituvchi darsni tushuntirib berayotganida, o‘quvchilar esa uning darsini eshitayotganlarida o‘qituvchining nutqi faol nutq bo‘ladi, o‘quvchilarning shu nutqni idrok qilish, ya’ni tushunish jarayoni esa passiv nutq bo‘ladi.

Boshqa birovning nutqini, shu nutq so‘zlanayotgan tilni o‘zimiz bilganimiz taqdirdagina bu nutqni idrok qilishimiz va

o‘zlashtirishimiz mumkin. Ammo shunda ham o‘sha nutqni idrok qilishimiz hamisha bayon qilinayotgan nutqqa aynan teng va muvofiq bo‘lavermaydi. Ba’zan boshqa bir kishining nutqini tushunmaslik, bu nutqni bir tomonlama, noto‘g‘ri tushunish, so‘z illuziyalari va boshqa shu kabilarning hosil bo‘lishiga sabab ham shudir. Passiv nutqning bu xususiyatlari idrok qilayotgan kishining aqli qay darajada yetukligiga bog‘liq bo‘ladi. Gapirayotgan kishi o‘z nutqining mazmunini va shaklini shu nutqni tinglovchilarning qay darajada idrok qilishini ko‘zda tutib tuzadi. Chunonchi, o‘qituvchi o‘z nutqining o‘quvchilar qanchalik tushuna olishini nazarda tutib, so‘zlayotgan nutqini shunga qarab tuzadi.

Har bir kishi passiv nutqni faol nutqqa qaraganda, birmuncha oldinroq egallaydi. Yosh bola oldin kattalarning gapini tushunadigan bo‘ladi, so‘ngra o‘zi ham tilga kirib, gapira boshlaydi. Xuddi shuningdek, boshqa bir tilni o‘rganish vaqtida o‘rganilayotgan tilda faol nutqni egallash passiv nutqni egallashga qaraganda birmuncha keyinda qolib boradi.

Biz yuqorida bayon qilgan nutq faoliyatini klassifikatsiya qilishda uni turli belgilarini asos qilib olamiz va shunga binoan uni turlicha turlarini ajratish mumkin:

1. Nutqning psixofiziologik mexanizmiga qarab:

a) xor bilan aytiladigan nutq;

b) exolik nutq;

d) atash nutqi;

e) kommunikativ nutq.

2. Nutqni rejalashtirish nuqtayi nazaridan:

a) faol nutq;

b) reaktiv nutq;

d) yozma nutq

3. Nutqni ixtiyoriylik darajasiga qarab:

a) ixtiyorsiz nutq; b) ixtiyoriy nutq

4. Eksteriozirizatsiyalashgan va interiorizatsiyalashgan xarakteriga qarab:

a) ichki va tashqi nutqqa ajratiladi.

Xor bilan aytiladigan nutq ko‘pchilikning baravar aytadigan nutqidir. Masalan: o‘qituvchi sinfga kirishi bilan talabalar «Assalomu alaykum» deb uni qarshi oladigan nutq xor bilan aytiladigan nutqdir.

Exolik nutq bu akssado beruvchi nutq bo‘lsa, atash nutqi narsalarning nomi bilan izohlanadi. Masalan: «Bu pedogogika instituti», «stol», «shkaf», «kitob» va h.k. Kommunikativ nutq ikki yoki undan ko‘proq kishilar bilan o‘zaro munosabatga kirishuvdagi nutqdir.

Nutq turlaridan o‘zining xususiyatlariga qarab o‘zaro munosabatlarda maqsadga muvofiq ravishda foydalaniladi, faoliyat maqsadiga ko‘ra munosabatga kirishiladi.

So‘zlayotgan, mustaqil fikrlab yozayotgan nutq faol bo‘lmagan nutq bo‘lsa, tez fikrlab bayon qiladigan nutq faol bo‘lmasa, tez fikrlab bayon qiladigan nutq reaktiv nutqdir. Yozma nutq bevosita aloqa vositasi bo‘lmasdan balki uzoqdagi odamlar bilan aloqa bog‘lash vositasidir. U so‘z belgilari asosida fikrlarni bayon qilish usulidir. Nutqlar ichida eng murakkab nutqdir. Chunki u atrofdagi kishilarga mo‘ljallangan bo‘lishi uni mazmunan tushunarli bo‘lishini, grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi kerak. Ixtiyorsiz nutq tashqi ta’sirlar natijasida paydo bo‘ladigan nutq bo‘lsa, ixtiyoriy nutq o‘z ixtiyorimiz bilan yozayotgan, fikrlayotgan vaqtimizdagi nutqdir. U monolog, dialog, yozma va og‘zaki bayon qilinishi mumkin.

Eksteriorizatsiyalashgan (tashqi) nutq boshqa odamlar bilan aloqa qilishinizda foydalaniladigan, biror kishiga qaratiladigan, biror nimani xabar qiladigan nutqdir. Interiorizatsiyalashgan (ichki) nutq fikrlar boshqalarga bayon qilinmasdan ichida ifodalanadigan va ovoz chiqarib aytilmaydigan nutqdir. U kishining o‘zi uchun yaratilgan. Biror narsadan xursand bo‘lganimizda yoki qattiq ta’sirlanganimizda o‘zimiz bilan o‘zimiz «gaplashamiz». Qattiq ta’sirlanganimizda bexosdan ovoz ham chiqarib yuboramiz.

Nutqning hamma turlari ham hayotimizda muhim ahamiyatga egadir.

VII BOB. DIQQAT ONGLI FAOLIYATNING SHART-SHAROITIDIR

1. Diqqat to‘g‘risida umumiy tushuncha

Biz voqelikni sezamiz, idrok qilamiz, xotirada saqlaymiz, esga tushiramiz va ular haqida fikr yuritamiz. Diqqat-e’tiborini ularga yo‘naltirolmasa, to‘play olmasa unda hech bir psixik jarayon unumli bo‘lmaydi. Biz biror obyektga qarab tursak ham uni ko‘rmaymiz, televizorda konsert berib tursa ham uni eshitmaymiz. Yoki o‘z fikr-mulohazalari bilan band bo‘lgan odam yaqin atrofdagi kishilarning gaplarini eshitmaydi. Agar aksincha odam biror-bir predmet yoki faoliyatga butun diqqat e’tiborini yo‘naltirsa va markazlashtirsa, u holda odam predmetning miridan-sirigacha bilib oladi va ishi ham juda unumli bo‘ladi. Shuning uchun ham u ongli faoliyatning sharti hisoblanadi. Diqqat, deb psixik faoliyatning biror bir obyekt ustiga yo‘nalishi va to‘planishiga aytiladi.

Psixik faoliyatning yo‘nalishi deb, psixik faoliyatning tanlovchilik xarakteri, obyektni ixtiyoriy yoki beixtiyor tanlab olishga aytiladi.

Psixik faoliyatning to‘planishi deb, uni tanlab olgan obyektga butunlay berilishi va unga chuqur e’tibor berishga aytiladi.

Biz bundan oldingi boblarda aqliy faoliyatning ayrim turlarini bayon qilganda diqqatning ahamiyati haqida gapirib o‘tgan edik. Aqliy faoliyatning barcha turlarida diqqat ishtirok etadi. Bizning ish-harakatlarimiz ham diqqat ishtiroki bilan sodir bo‘ladi.

Demak, diqqat, ongni bir nuqtaga to‘plab, muayyan bir obyektga faol qaratilishidir. Biz o‘z faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o‘zimizning qilgan ishlarimiz, o‘y va fikrlarimiz diqqatning obyekti bo‘la oladi.

Diqqat paytida **ongning bir nuqtaga to‘planishi ong doirasining torayishidan iboratdir;** bunda go‘yoki ong doirasi anchagina tig‘izlanadi. Ana shunday torayish va tormozlanish tufayli ong doirasi juda ham yorqinlashadi. Ongning eng tormozlangan va binobarin, eng yorqin nuqtasi diqqatning fokusi (ya’ni markazi) deb ataladi. Ana shu fokusga tushgan barcha narsalar (idrok qilinayotgan predmetlar, tasavvurlar, fikrlar) juda to‘la, yorqin hamda juda aniq aks ettiriladi.

Diqqatga hamma vaqt u yoki bu darajadagi faollik xosdir. Bunday faollik ongning bir nuqtaga to‘planishining kuchayishi va ma’lum vaqt mobaynida diqqat qaratilgan narsaga ongning faol yo‘naltirilishini saqlab turishdan iboratdir.

Diqqatimiz qaratilgan obyektlar ongimizning to‘plangan «zonasida» juda aniqlik va yaqqollik bilan aks ettiriladi. Bu yerda yana shuni ham nazarda tutish kerakki, diqqat — idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq

singari alohida psixik jarayon emas. Diqqat hamma psixik jarayonlarda ko‘rinadi. Biz «shunchaki» diqqatli bo‘la olmaymiz, balki biz diqqat bilan idrok qilamiz (qaraymiz, eshitamiz), diqqat bilan esda olib qolamiz, o‘ylaymiz, diqqat bilan muhokama yuritamiz, gaplashamiz. Diqqat aqliy jarayonlarning sifatini ta’minlaydigan ichki faollikdir.

Diqqat o‘qish ishining ham zaruriy shartidir. O‘quvchilarning dars materiallarini muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirishlari, dastavval diqqatning mavjud bo‘lishiga bog‘liqdir. K. D. Ushinskiyning aytishicha: «Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o‘tib kiradi».

Ayrim o‘quvchilarda uchraydigan o‘zlashtira olmaslik holatining sababini, avvalo, ular diqqatining yetarli emasligidan qidirish kerak. Xotiraning bo‘shligi, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning bo‘shligi, asosan, diqqatning bo‘shligidan kelib chiqadi.

Mana shuning uchun ham pedagog o‘qitish ishida yuksak muvaffaqiyatga erishishni istar ekan, o‘quvchilar diqqatini va, xususan, eng barqaror va eng kuchli diqqatini uyushtirish hamda tarbiyalash haqida jon kuydirishi lozim.

2. Diqqatning fiziologik asoslari

Diqqatning fiziologik asosini bosh miya po‘sti qismidagi «optimal qo‘zg‘alish nuqtasi» tashkil qiladi. Bunday joyni yaqqol qilib ko‘rsatish uchun I. P. Pavlov shunday tasvirlaydi: «Agar bosh suyagiga qaraganda uning ichidagi miya ko‘rinadigan bo‘lsa, agar katta miya yarim sharlarida optimal qo‘zg‘alish uchun eng yaxshi sharoit tug‘ilgan nuqtasi yiltillab ko‘rinadigan bo‘lsa edi, ongi sog‘lom bo‘lib, bir narsani o‘ylab turgan odamning miyasiga qaraganimizda, uning miyasining katta yarim sharlarida juda g‘alati jimjimador shakl bo‘lib, surati va hajmi har lahzada bir o‘zgarib, turlanib, jimir-jimir qilib turuvchi yorug‘ narsaning u yoqdan-bu yoqqa yugurib qimirlab turganini va miya yarim sharining bu yorug‘ narsa atrofidagi boshqa yerlari birmuncha xira tortib turganini ko‘rar edi» (Полное собрание сочинений, III tom, 1-kitob, 248-bet).

Optimal qo‘zg‘alish nuqtasi manfiy induksiya qonuniga ko‘ra, bosh miya po‘stining boshqa joylarida tormozlanishni vujudga keltiradi.

«Miya yarim sharlarining optimal qo‘zg‘alishga ega bo‘lgan qismida, – deydi I. P. Pavlov, – yangi shartli reflekslar yengillik bilan hosil bo‘ladi va differensirovkalar muvaffaqiyatli ravishda paydo bo‘ladi. Shunday qilib, optimal qo‘zg‘alishga ega bo‘lgan joy ayni chog‘da bosh miya yarim sharlarining ijodga layoqatli qismi desa bo‘ladi. Miya yarim sharlarining sust qo‘zg‘algan boshqa qismlari bunday xususiyatga qobil emas. Ularning ayni chog‘dagi funksiyasi, juda nari borganda, tegishli qo‘zg‘ovchilar asosida ilgari hosil qilingan reflekslarni bir tartibda qayta

tiklashdan iboratdir. Bunday qismlarning faoliyati biz ongsiz, avtomatlashgan faoliyat deb ataydigan subyektiv faoliyatdan iboratdir» (O‘sha kitob, 277–278-bet). Bosh miya yarim sharlarining tormozlangan qismiga ta’sir qiluvchi qo‘zg‘ovchilar idrok va tasavvurning yorqin obrazlarini tug‘dira olmaydi.

Miya po‘stining optimal qo‘zg‘algan joyi («yiltillab turgan nuqtasi») o‘z o‘rnini almashtirib turishi diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga ko‘chishini va shuning bilan birga, ongimizning ma’lum narsa, ma’lum faoliyat turiga qarata yo‘naltirilishi va to‘planishini shartlaydi.

Diqqatning fiziologik asosi bo‘lmish optimal qo‘zg‘alish o‘chog‘i haqidagi I. P. Pavlov ta’limoti bilan akademik A. A. Uxtomskiyning olib borgan tekshirishlari bir-biriga to‘g‘ri keldi. Bu tekshirishlar natijasida quyidagilar ma’lum bo‘ldi. Agar nerv sistemasiga bir qancha qo‘zg‘ovchilar bir vaqtda ta’sir etsa, bosh miya po‘stida shu onning o‘zida bir necha qo‘zg‘alish o‘choqlari paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, har bir qo‘zg‘alish o‘chog‘i bosh miya po‘stining hamma yeriga tarqalishga, irradiatsiyalanishga moyildir. Shuning uchun ayrim qo‘zg‘alish o‘choqlari o‘rtasida to‘qnashish va «kurash» sodir bo‘ladi. Bu kurash natijasida qo‘zg‘alish o‘choqlaridan biri hukmron (dominanta) bo‘lib oladi. Mana shu hukmron bo‘lib olgan qo‘zg‘alish o‘chog‘ini akademik Uxtomskiy «dominanta» deb ataydi. Uxtomskiyning bergan ta’rifiga ko‘ra, dominanta – bu ayni chog‘da markazda sodir bo‘ladigan reaksiyalar xarakterini bir qadar belgilab beruvchi hukmron qo‘zg‘alish o‘chog‘idir.

Dominantalar mavjud bo‘lgan paytda boshqa qo‘zg‘alish o‘choqlari («subdominantalari» – nisbatan kuchsiz qo‘zg‘alish o‘choqlari) ko‘pincha yo‘qolib ketmaydilar. Ular dominantaga qo‘shilib, uni kuchaytiradilar yoki dominanta bilan kurasha boshlaydilar. Bu kurash jarayonida subdominanta dominanta bo‘lib olishi mumkin, ilgarigi dominanta esa subdominanta bo‘lib qolishi mumkin. Hukmron qo‘zg‘alish o‘chog‘i bo‘lgan dominanta diqqatimizning ma’lum narsaga yo‘naltirilishi va to‘planishining fiziologik asosidir.

Diqqatning paydo bo‘lishida orientirovka refleksii deb ataladigan refleksning ahamiyati kattadir. Bu refleks organizmning tevarak-atrofdagi har qanday o‘zgarishlarga tug‘ma reaksiyasidan iboratdir. Masalan. Darsda o‘quvchilar o‘qituvchining ma’ruzasini maroq bilan eshitib o‘tirganlarida sekin eshik ochiladi deylik. Shunda hamma o‘quvchilar ham o‘qituvchining o‘zi ham beixtiyor ravishda eshik tomonga o‘grilib qaraydilar. Bu refleksni I.P. Pavlov obrazli qilib, «bu nima?» refleksii deb atagan. Demak, orientirovka refleksi ham diqqatni ko‘chib turishining nerv-fiziologik mexanizmidir.

3. Diqqatning turlari

Diqqat dastavval o‘zining faolligi jihatidan – ixtiyorsiz va ixtiyoriy deb farqlanadi. Diqqat asosan uch turga, ya’ni ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat, muvofiqlashgan diqqat turiga ajratiladi. Biron tashqi sabab bilan va bizning xohishimizdan tashqari hosil bo‘ladigan diqqatni **ixtiyorsiz** diqqat deyiladi.

Ixtiyorsiz diqqatni tug‘diruvchi sabablar, avvalo, bizga ta’sir qiluvchi qo‘zg‘ovchilarning qandaydir mashhur xususiyatlaridir: chunonchi, ularning go‘zalligi, yorqinligi, kuchi, kattaligi, harakatchanligi, uzoq davom etishi, to‘satdan sodir bo‘lishi, kontrastligi va hokazo. Masalan, shiqildoqli chiroyli va yaltiroq o‘yinchoq bog‘cha yoshigacha bo‘lgan bolalarning diqqatini o‘ziga jalb qiladi.

Bundan tashqari, ixtiyorsiz diqqat bizning faoliyatimiz, turmush tajribamiz bilan bog‘liq bo‘lgan va ehtiyojlarimiz, qiziqishlarimizga javob bera oluvchi hamda bizda ma’lum bir hissiyot uyg‘ota oluvchi narsalarning ta’siri bilan ham vujudga keladi.

Ixtiyorsiz diqqatning yuzaga kelishi odamning ayni chog‘dagi holatiga ham bog‘liq. Bir xil narsalar va hodisalar diqqatimizni o‘ziga tortishi mumkin va mutlaqo tortmasligi ham mumkin. Bu narsa odamning ayni chog‘dagi holati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ixtiyorsiz diqqatning dastlabki fiziologik asosi **oriyentirovka** yoki **tekshirish** reflekslaridan iborat.

Diqqatimiz qaratilishi lozim bo‘lgan narsani oldin belgilab olib, ongli ravishda qo‘yilgan maqsad bilan ishga solingan diqqatni **ixtiyoriy** diqqat deyiladi.

Bu diqqatning boshlanishi va, ko‘pincha, butun qilinayotgan ish mobaynida davom ettirilishi kuch va zo‘r berishni, ya’ni irodaning ishtirokini talab qiladi. Shuning uchun uni **irodaviy diqqat** deyiladi. Ixtiyorsiz diqqatning kuchi asosan qiyinchiliklarni yengish bilan bog‘liq bo‘lgan irodaviy zo‘r berish darajasi bilan xarakterlanadi.

Ixtiyoriy diqqat fiziologik tomondan, asosan, ikkinchi signallar sistemasining faoliyati bilan belgilanadi.

O‘quvchining tushuntirilayotgan yangi darsni eshitib o‘tirishi shu ixtiyoriy diqqat bilan ishlashning misoli bo‘la oladi. Bunda o‘quvchi «eshitib o‘tiraman» deb, ilgaridan o‘z oldiga maqsad qo‘yadi va o‘z diqqatini faqatgina o‘qituvchining so‘ziga qaratish uchun kuch sarf qiladi. Shuning bilan birga, o‘quvchi beixtiyor ravishda paydo bo‘lib, o‘qituvchining so‘zini eshitishga xalaqit beruvchi idrok, fikr, hissiyot, xayol kabi boshqa psixik jarayonlarni yo‘qotish uchun ongli ravishda harakat qiladi. Ixtiyoriy diqqat, masalan, ninaga ip taqish kabi juda oddiy ishda, ayniqsa, ochiq ko‘rinadi. Juda ko‘p har xil ishlar borki, ular asosan, ixtiyoriy diqqatni talab qiladi, masalan: musahhihning ishi,

g‘isht teruvchining ishi, ekskavatorda ishlash va shuning kabilar. Bu ishlar boshlanishdan oxirigacha ixtiyoriy diqqat asosida bajariladi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat turlari o‘rtasidagi farq shundan iboratki, ixtiyorsiz diqqat bilan qilinadigan faoliyat ko‘pincha unchalik zo‘r bermay, ancha yengillik bilan va deyarli toliqmasdan amalga oshiriladi; ixtiyoriy diqqat bilan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat esa anchagina zo‘r berishni talab qiladi va birmuncha toliqarli bo‘ladi.

Ixtiyorsiz diqqat ham, ixtiyoriy diqqat ham o‘zining yo‘nalishiga ko‘ra tashqi va ichki bo‘lishi mumkin.

Manbayi bizning ongimizdan tashqarida bo‘lgan diqqatga *tashqi diqqat* deb ataladi. Tashqi diqqat dastavval bizning idroklarimiz jarayonida namoyon bo‘ladi. Haydovchi, vagon haydovchisi, tikuvchining ishida sodir bo‘ladigan diqqat tashqi diqqatga misol bo‘la oladi. O‘quvchining o‘qituvchi bayonini tinglashdagi, kitob o‘qishdagi, suratlarni ko‘rishdagi va tabiat hodisalarini kuzatishdagi diqqati ham tashqi diqqatdir.

Narsa va hodisalarni qaysi sezgi a’zoimiz bilan idrok qilayotganimizga qarab, tashqi diqqatni ko‘rish, eshitish va shuning bilan birga, tuyish, hid bilish va ta’m bilish turlariga ajratish mumkin.

Tashqi diqqat faqat idrok qilishimiz jarayonidagina namoyon bo‘ladi deb hisoblab bo‘lmaydi. Tashqi diqqat biz tasavvur qilayotgan va fikr qilayotgan narsalarimizga ham qaratilishi mumkin. Masalan, muhandis o‘z xonasida ishlab o‘tirib, ko‘rilayotgan binoning ko‘rinishini tasavvur qilayotganda va bu binoning qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan matematik hisoblarni chiqarayotganda uning diqqati tashqi diqqat tarzida namoyon bo‘ladi.

Manbayi bizning tasavvurlarimiz, fikrlarimiz, hissiyotlarimiz va mayllarimizdan iborat bo‘lgan diqqatga *ichki diqqat* deb ataladi.

Biz ongimizning o‘zida sodir bo‘layotgan jarayonlarni kuzatayotganimizda, ya’ni o‘z hissiyotlarimizni, fikrlarimizni, istaklarimizni va shuning kabilarni kuzatayotganimizda ichki diqqat namoyon bo‘ladi. Masalan, biz o‘z fikrlarimizni kuzatayotganimizda, bu fikrlarni tekshirayotganimizda, pushaymon qilish hissini boshimizdan kechirayotganimizda, o‘z-o‘zimizni tanqid qilayotganimizda va o‘z istaklarimizni mulohaza qilayotganimizda ichki diqqat namoyon bo‘ladi.

Ixtiyoriy diqqatdan tashqari, diqqatning yana bir turini qayd etib o‘tish lozim. Bu diqqat ixtiyoriy diqqat kabi, maqsadga qaratilgan bo‘lib lekin irodaviy zo‘r berishni talab qilmaydi. U ixtiyoriy diqqatdan boshlanadi va ixtiyorsiz diqqatga aylanadi. Psixik faoliyat ongning muayyan obyektga ixtiyoriy ravishda qaratilishi, so‘ngra uning ahamiyati tushunilgan sari o‘z-o‘zidan ixtiyorsiz diqqatga o‘tishi jarayonidagi diqqatga muvofiqlashgan diqqat yoki ixtiyoriy diqqatdan so‘ngi diqqat deb ataladi. Masalan, ba’zan bir ishni boshlash biz uchun tog‘ni talqon

qilishdek juda qiyin tuyiladi. Lekin uni qilish kerak. Shunda biz irodaviy zo‘r berib diqqatimizni shu ish ustiga to‘plab ishga kirishamiz. Uni bajarish jarayonida bizda qiziqish, ishtiyoq paydo bo‘ladi-yu, uni qanday qilib bajarib qo‘yganimizni bilmay ham qolamiz (bunda ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga aylanadi), ya’ni biz shu ish jarayoniga muvofiqlashamiz. Shuning uchun ham bu diqqatni muvofiqlashgan ixtiyoriy diqqat yoki ishtiyoqli diqqat deyiladi. «Ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir» degan maqol ham bejiz aytilmagan.

Muvofiqlashgan ixtiyoriy diqqatni ixtiyorsiz diqqat bilan almashtirib bo‘lmaydi, chunki nirinchidan, muvofiqlashtirilgan ixtiyoriy diqqat ongli suratda ko‘zlangan maqsadlar bilan bog‘liq bo‘ladi va ongli qiziqishlar bilan qo‘llab turiladi. Ikkinchidan, muvofiqlashgan ixtiyoriy diqqat sof ixtiyoriy diqqatga o‘xshamaydi. Chunki muvofiqlashtirilgan ixtiyoriy diqqat paytida irodaviy zo‘r berish yo‘q yoki deyarli bo‘lmaydi.

Shuning uchun ham, diqqatning bu maxsus turi ixtiyorsiz diqqatga nisbatan ham ixtiyoriy diqqatga nisbatan ham sifat jihatidan farq qiladi.

Diqqatning bu turi ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Chunki doimo ixtiyoriy diqqat bilan dars o‘tish talabalarni toliqtiradi. Agar o‘qituvchi darsni qiziqarli tashkil qilsa, talabalar irodaviy zo‘r bermaydilar va ta’lim mazmunini oson o‘zlashtiradilar.

4. Diqqatning xususiyatlari

Diqqat bir qancha xususiyatlarga ega bo‘lib, ulardan asosiylari – diqqatning ko‘chuvchanligi, bo‘linishi, ko‘lami, kuchi va barqarorligidir.

Bu xususiyatlarning qanchalik yaqqol ifodalanishiga qarab, har turli faoliyat jarayonida ayrim odamlar diqqatining ma’lum bir (ijobiy yoki salbiy) sifatlari belgilanadi.

Diqqatning ko‘chuvchanligi

Diqqatning ko‘chishi deganda, biz uning bir narsadan ikkinchi boshqa bir narsaga, faoliyatning bir turidan boshqa turiga o‘tishini tushunamiz. Masalan, odam o‘z diqqatini kitob o‘qishdan surat ko‘rishga, surat ko‘rishdan esa o‘z fikrlarini bayon etishga ko‘chirishi mumkin. O‘quvchilar o‘z diqqatlarini bir fanni o‘qishdan boshqa fanga ko‘chiradilar, chunonchi, matematikadan tarixga, tarixdan rus tiliga va shuning kabilar. Diqqatning ko‘chishi ixtiyorsiz va ixtiyoriy tarzda sodir bo‘lishi mumkin.

Diqqatni ko‘chirishning nerv-fiziologik asosi, asosan, ikkinchi signallar sistemasining signallari orqali bosh miyaning po‘stida paydo bo‘lgan optimal qo‘zg‘alish o‘chog‘ining o‘rin almashtirishidir.

Diqqatning ko‘chirilishi ko‘p hollarda qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ba’zan diqqatni bundan oldingi obyektdan ajratish

qiyin bo‘lsa, boshqa hollarda oldingi ishining ketidan qilinadigan yangi ishga kirishib ketish qiyin bo‘ladi. Diqqatni ko‘chirishning yengillik yoki qiyinligi bir qancha sabablarga bog‘liqdir. Bu sabablardan biri – ketma-ket qilinadigan ish mazmunlari o‘rtasida bog‘liqlik bor yoki yo‘qligidir; agarda bunday bog‘liqlik yo‘q bo‘lsa, diqqat tez va yengillik bilan ko‘chishi mumkin. Diqqatni ko‘chirishning yengillik yoki qiyinlik sabablaridan yana biri diqqat qaratilgan narsalarga va bajarilayotgan ishlarga nisbatan kishining munosabatidadir. Masalan, agar kishi ilgari qilgan ishiga zo‘r qiziqish bilan qarab, undan keyingi qilinadigan ishga aytarli qiziqmasa, bunday paytda ilgarigi ishdan diqqatni ko‘chirish qiyin bo‘ladi va sekinlik bilan amalga oshiriladi. Aksincha, agar keyingi qilinadigan ish oldingisiga qaraganda qiziqarli va yoqimliroq bo‘lsa, diqqat tez va osonlik bilan ko‘chadi. Agar qilinayotgan ish to‘la tugallansa, u paytda kishi o‘z diqqatini bir faoliyatdan ikkinchisiga yengillik bilan ko‘chira oladi, aksincha, agar oldingi ishni oxirigacha yetkazmay turib, qandaydir sababga ko‘ra, diqqatni yangi bir faoliyatga ko‘chirish lozim bo‘lib qolsa, bu narsa ancha qiyin bo‘ladi.

Eng yaxshi diqqat, albatta, bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko‘cha oladigan diqqatdir. Diqqatning mana shunday xususiyati tufayli, kishi atrofidagi muhitga tez moslasha oladi hamda o‘zgaruvchan sharoitdagi turli elementlarning ahamiyatlarini tezlik bilan belgilay oladi. Diqqatning tez ko‘chuvchanligi kishining ishini ham tezlashtiradi.

Diqqatning tez ko‘chuvchanligi, uning boshqa sifatlari kabi kishining amaliy faoliyati jarayonida taraqqiy etadi.

Diqqatning bo‘linishi

Ma’lum faoliyat jarayonida diqqat birgina narsaga emas, balki ikki va uch narsaga ham qaratilishi mumkin. Diqqatimiz ayni vaqtda ayrim faoliyat turlariga bo‘lina oladi. Faqat birgina narsaga qaratilgan diqqatni **konsentratsiyalashgan** (yig‘ilgan) yoki **to‘plangan** diqqat deyiladi. Masalan, ninaga ip taqishdagi, qo‘lda biror narsa tikishdagi, matematik masala yechishdagi, ma’ruza eshitishdagi diqqatimiz shunday diqqatdir. Agarda diqqat faqat bir murakkab ish jarayonining o‘zida ikki yoki uch narsaga qaratilgan va faoliyatning turli usullari bilan bog‘liq bo‘lsa, bunday diqqatni **bo‘lingan** yoki **taqsim** qilingan diqqat deyiladi. Masalan, tramvay haydovchisi o‘z ishi davomida diqqatni ayni bir vaqtda piyoda yuruvchilar, avtomobillar va boshqa tramvaylar harakatini hamda shuning bilan birga, motorning ishlashini va konduktorning signallarini kuzatib boradigan qilib taqsimlashi lozim. Haydovchi ham o‘z diqqatini xuddi shunday taqsimlashi kerak. O‘qituvchi darsni tushuntirish paytida o‘z diqqatini o‘quvchilar xulqiga, ko‘rgazma qurollarni ko‘rsatishga, sinf doskasiga va shu kabilarga taqsimlashi lozim.

Konsentratsiyalanish va bo‘linishlik har qanday diqqatga xos bo‘lgan xususiyatdir. Bo‘lingan diqqat aynan bir vaqtning o‘zida bir necha narsalarga qaratilgan bo‘lmasa kerak, deb o‘ylash lozim. Bo‘lingan diqqat bu diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga juda tezlik bilan ko‘chishidir.

Inson diqqatining ijobiy xususiyati o‘z diqqatini bir narsa ustida to‘play olish va faoliyat xarakteriga qarab, uni tegishli ravishda bo‘la olishdadir.

Ayrim kishilar bu jihatdan bir-biridan shu bilan farq qiladilarki, ularning bittasida asosan, konsentratsiyalashgan diqqat taraqqiy qilgan bo‘lsa, boshqasida bo‘lingan diqqat taraqqiy qilgan bo‘ladi. Odamlar diqqatidagi bu ayirma har bir kishining qiladigan faoliyati va kasbiga qarab, amaliy ish jarayonida hosil bo‘ladi.

Diqqatning ko‘lami

Diqqatning ko‘lami – diqqatga eng qisqa vaqt ichida (go‘yoki bir-daniga) sig‘ishi mumkin bo‘lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Diqqat ko‘lami jihatidan **tor yoki keng** bo‘lishi mumkin.

Tajriba qilib tekshirishda diqqatning ko‘lami, odatda, tekshirilayotgan odamga ayni bir vaqtning o‘zida bir qancha o‘zaro bog‘lanmagan harf-larni, so‘zlarni, narsalarni va turli shakllarni ko‘rsatish yo‘li bilan aniq-lanadi.

Tekshirilayotgan kishi bu narsalardan ayni vaqtda qanchalik ko‘pini birdaniga idrok eta olsa (diqqat doirasiga sig‘dira olsa), uning diqqat doirasi shunchalik keng bo‘ladi.

Diqqatning ko‘lamini aniqlash uchun taxistoskop degan maxsus as-bob qo‘llaniladi. Bu asbob yordamida kishiga idrok ettiriladigan narsa-lar juda tez ko‘rsatiladi. Bunda idrok qilinadigan narsalar taxistoskopning ekranidagi teshikdan ko‘rsatiladi va bu teshik juda qisqa vaqt ichida bekilib qoladi.

Taxistoskop vositasi bilan o‘tkazilgan tajribalar ko‘rsatishicha, katta yoshli odam ayni vaqtning o‘zida diqqat doirasiga uchtadan to oltita-gacha bir-biriga *bog‘liq* bo‘lmagan narsalarni, masalan, undosh harflarni, shakllarni sig‘dira oladi.

Lekin idrok qilinadigan narsalar ma’no jihatidan bir-biri bilan bog‘liq bo‘lsa va yoki bu narsalar yaxlit bir narsaning elementlari bo‘lsa, bunda diqqat doirasiga shu kabi narsalarning ko‘pi sig‘ishi mumkin. Masalan, taxistoskopda alohida-alohida harflar emas, balki uch-to‘rt harflardan tuzilgan so‘zlar ko‘rsatilsa, savodli kishi bunday so‘zlardan uch-to‘rttasini, ya’ni to‘qqiztadan tortib, to o‘n oltitagacha harfni idrok eta oladi, chunki savodli kishilar ayrim-ayrim harflarni donalab o‘qimay, balki butun so‘zlarni birdaniga o‘qiydi.

Diqqat ko‘lamining fiziologik asosi miya po‘stida optimal qo‘zg‘algan

joyning kengayishi yoki torayishidan iborat. Bunda miya po‘stidagi optimal qo‘zg‘algan joy ayni vaqtda ta’sir qilib turuvchi boshqa qo‘zg‘atuvchilar bilan hosil qilingan qo‘zg‘alish jarayonlarining qo‘shilishi tufayli kengayadi, ichki tormozlanish jarayonlarining kuchayishi natijasida esa bu joy torayadi.

Diqqatning kuchi va barqarorligi

Diqqatning kuchi va barqarorligi uning muhim xossasidir. Diqqatning kuchi turli darajada bo‘lishi – diqqat kuchli va kuchsiz bo‘lishi mumkin. Diqqat qanchalik kuchli bo‘lsa, u diqqat obyektiga shunchalik ko‘p to‘planadi, boshqa, ayni vaqtda keraksiz bo‘lgan narsalarga shunchalik kam chalg‘iydi. Biz tashqi tomondan diqqatning kuchi to‘g‘risida asosan, uning chalg‘ish darajasiga qarab hukm chiqaramiz. O‘quvchining diqqati har xil, hatto kuchsiz darajadagi chetki qo‘zg‘ovchilardan, chunonchi, qalamning tushib ketishiga, qo‘shni partadagi o‘rtoqlarining pichirlashganiga, koridorda bo‘layotgan gaplarga chalg‘ib ketaversa – bu ayni vaqtda o‘quvchining diqqati kuchsizligidan dalolat beradi. Agar o‘quvchi bunday chetki qo‘zg‘ovchilar (ba’zan hatto kuchli qo‘zg‘ovchilar) ta’sirini ham go‘yo «sezmay», balki muayyan bir ishga berilib qunt bilan ishlasa, bu ayni vaqtda o‘quvchi diqqatining kuchliligidir.

Eng kuchsiz diqqat, odatda, tarqoq diqqat, parishon diqqat yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri **parishonlik** deyiladi. Parishonlik odamning o‘z diqqatini biron-bir muayyan ishda tutib tura olmasligidir. Parishonlikda odamning diqqati bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ravishda o‘tib turadi, bu narsalardan birontasida ham to‘xtab turmaydi. Parishonlik holatini biz bolalar hayotining dastlabki kunlarida uchratishimiz mumkin: yosh bola diqqatini hali hech bir narsa ustida tutib tura olmaydi. Parishonlik holati katta yoshdagi odamlarda ham bo‘ladi, masalan, charchaganda nerv kasalligiga duchor bo‘lganda, nerv sistemasi zaharlanganda. Maktabda parishonxotir o‘quvchilar uchrab turadi. Bunday o‘quvchilar hamisha hamma yoqqa «alang-jalang» qilaveradi, biron narsa ustida diqqatini tutib tura olmaydi. Bolalarning parishon bo‘lib qolishlariga, ko‘pincha, yasli va maktabda ular diqqatini yetarli darajada tarbiyalamaslik sabab bo‘ladi.

Parishonlikni odamning hech bir narsaga diqqat qila olmasligi deb tushunish yaramaydi. Odam hamisha diqqat qila olish qobiliyatiga egadir, lekin odam diqqatining to‘planish darajasi hamma vaqt bir xil bo‘lavermaydi. Parishonlik – bu eng kuchsiz diqqatdir, miya po‘stida qo‘zg‘algan joyning kuchsiz bo‘lishligidir.

Diqqat haddan tashqari kuchli bo‘lganida ham alohida parishonlikni ko‘rish mumkin. Eng kuchli diqqatda ongimiz diqqat qaratilgan narsaga batamom to‘planadi va kam chalg‘iydi yoki hatto boshqa kuchli

qo‘zg‘ovchilar ta’sir qilib turganida ham sira chalg‘imaydi. Odam narsaga juda berilib ketganda vaziyatni unutib qo‘yadi, tevarak-atrofdagilarning gapi qulog‘iga kirmaydi, o‘zining odatlangan ish-harakatlarini sezmay qoladi. Diqqat kuchli bo‘lgan vaqtda odamning parishon bo‘lib qolishini har bir kishi o‘z tajribasidan yoki boshqa odamlarda ko‘rganlaridan yaxshi biladi. Masalan, odam haddan tashqari quvongan vaqtda mana shunday parishon bo‘lib qoladi. Odamning quvonishiga sabab bo‘lgan narsa, hodisalar ba’zan odam ongini o‘ziga shu qadar jalb qilib oladiki, boshqa hech bir narsa uning ongiga borib yetmaydi yoki yetsa ham, juda qiyinchiliklar bilan borib yetadi. Odam haddan tashqari xursand vaqtida shu xursandchilik uyg‘otgan obyektga taalluqli narsalarnigina idrok qiladi, faqat shu narsalar to‘g‘risidagina o‘ylaydi. Ba’zan biron-bir juda qiziqarli roman o‘qiganda, matematikadan murakkab bir masalani yechganda va umuman biron faoliyatga juda berilib ketgan vaqtda bizda ham shunday parishonlik holati sodir bo‘ladi.

Diqqatning barqarorligi. Diqqat ma’lum darajada barqaror va beqaror bo‘lishi mumkin.

Uzoq muddatgacha bir narsaning o‘ziga qaratib tura oladigan diqqat **barqaror** diqqat deyiladi. Agar diqqat biron-bir faoliyat jarayonida boshqa narsalarga, keraksiz narsalarga chalg‘iyversa yoki tez sustlashib va so‘nib qolsa, bunday diqqat **beqaror** diqqat deyiladi. Masalan, o‘quvchi butun dars davomida darsning borishiga diqqat qilib o‘qituvchining tushuntirishlarini boshqa narsalarga chalg‘imay tinglab borsa, biz o‘quvchining diqqatini barqaror diqqat deymiz. Bordi-yu, o‘quvchi o‘qituvchining tushuntirishlariga avval boshda quloq solib borib, lekin 10—15 daqiqadan keyin boshqa narsa bilan shug‘ullansa, yoki boshqa narsalar to‘g‘risida xayolga berilib ketsa, yoki o‘qituvchining tushuntirishidagi ayrim momentlarni «eshita olmay qolibman» desa, yo bo‘lmasa kitob o‘qisa-yu, uning mazmunining ayrim momentlariga «e’tibor bermabman» desa, bunday diqqat beqaror diqqat deyiladi.

Har bir kishining diqqati amaliyotda, faoliyat jarayonida, tarbiya qilish va o‘z-o‘zini tarbiyalash yo‘li bilan o‘sib, ma’lum darajada kuchli va barqaror diqqat bo‘lib qoladi.

5. Diqqatning kuchi va barqarorligini ta’min etadigan shart-sharoitlar

Odam faoliyatining barcha turida, albatta, nihoyatda kuchli (eng ko‘p to‘plangan) va nihoyatda barqaror diqqatning ahamiyati juda kattadir.

Diqqatning kuchli va barqaror bo‘lishi bir qator shartlarga: diqqat obyektining mazmundorligiga, faoliyatga, ish bajarilayotgan vaziyatga, odamning ruhiy holatiga, irodasiga va qiziqishlariga bog‘liqdir.

Diqqat obyektining xarakteri va ishning mazmundorligi. Diqqatning kuchli va barqaror bo‘lishi diqqat obyektining mazmundorligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Diqqat obyekti qanchalik mazmundor bo‘lsa, diqqat ham shu qadar kuchli va barqaror bo‘lishi mumkin. Mazmunsiz narsalarga diqqatni qaratish va tutib turish ancha mahol ish. Masalan, bir varaq toza qog‘ozga chizilgan doiraga uzoq vaqt diqqat bilan qarab turish yoki qimirlamay turgan nuqtaga tikilib qarab turish ancha qiyindir.

Shuningdek, tinimsiz bir xil balandlikda va bir xil kuch bilan chiqayotgan tovushni ancha muddatgacha eshitib turish ham qiyin (ba’zan mumkin ham emas). Bu singari mazmunsiz narsalar ustida diqqatni to‘xtatib turishlikka urinib ko‘rsak, diqqatimiz har 3–5 soniyadan keyin boshqa narsalarga chalg‘iydi yoki tebranib turadi, ya’ni har 3–5 soniya oralig‘ida odam goh qunt bilan diqqat qiladi, goh diqqati sustlashadi, bu ikki hol biridan ikkinchisiga o‘tib turadi.

Diqqatning tebranish holatini, masalan, quyidagi misolda ko‘ra olamiz. Agar kesik piramidaning rasmiga bir necha vaqt tikilib qarab tursak, bunda piramidadagi kichik to‘rtburchak goh yuqoriga bo‘rtib, goh ichkariga botiq bo‘lib ko‘rinadi.

Diqqatning shunga o‘xshash tebranishini jimjit sharoitda cho‘ntak soatining chiqillashiga quloq solib ko‘rilganda kuzatish mumkin: soatning chiqillashi goh sekinlashadi, goh to‘xtab qoladi; goh, soat yana chiqillay boshlaydi. Idrok qilishdagi bunday o‘zgarishlar – diqqat tebranishining natijasidir.

Ish sharoiti va diqqat. Diqqatning kuchi va barqarorligi biror yumush bajarilayotgan va odam idrok qilib turgan sharoitga bog‘liqdir.

Bu sharoitda biron-bir narsa odam diqqatini beixtiyor ravishda jalb qilsa, diqqatning barqarorligiga halal berishi, diqqat kuchi esa zaiflashishi mumkin. Masalan, sinfning eshigi ochilib-yopilib tursa, sinfda ikkiuch o‘quvchi gaplashib o‘tirsa yoki koridorda to‘polon bo‘lib tursa va shunga o‘xshash hollarda o‘quv ishi jarayonida diqqatning barqarorligiga xalal beradi va diqqat kuchi zaiflashadi. Shuningdek, sinf doskasidagi muayyan darsga bevosita aloqasi bo‘lmagan har xil yozuvlar, rasmlar ham diqqatni chalg‘itadi. Bularning hammasi o‘quvchilarning zarur narsalarga qaratilgan diqqatini bo‘shashtiradigan ikkinchi darajali taassurotlardir.

Hissiyot va diqqat. Diqqatning kuchi va barqarorligi hissiyotga bog‘liq. Bu yerda hissiyotning roli ikki xil – ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin.

Hissiyot diqqat qaratilgan narsa bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirdagina diqqat uchun ijobiy ahamiyatga ega bo‘ladi: bunday hissiyot qanchalik kuchli bo‘lsa, diqqat ham shunchalik kuchli va barqaror bo‘ladi. Ixtiyorsiz diqqatning kuchi va barqarorligi, asosan, hissiyotga bog‘liq. Kishining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hislar, emotsiyalar ham ixtiyoriy

diqqatning kuchi va barqarorligini mustahkamlaydi va zo‘raytiradi. Bilish va amaliy faoliyat jarayonida kishining ongi tobora ko‘proq yangi narsalar bilan boyib borar, bilmagan va oz bilgan narsalarini bilib borar ekan, diqqatning to‘planishi va barqarorligi ham ortib boradi. Yangilikni sezish hissi kishining bilish faoliyatini kuchaytiradi, faollashtiradi, shu bilan birga, diqqatning kuchini va barqarorligini mustahkamlaydi.

Diqqatning kuchi va barqarorligiga kishining ayni paytdagi umumiy kayfiyati ham ta’sir qiladi. Yaxshi kayfiyat har qanday ishda diqqatimizning kuchini oshiradi.

Diqqat obyektidan bo‘lak sabablar tufayli qo‘zg‘algan his-tuyg‘ular diqqatning kuchi va barqarorligiga salbiy ta’sir qiladi. Bunday his-tuyg‘ular diqqatni chalg‘itadi va kuchsizlantiradi hamda uning barqarorligini buzadi. Masalan, qo‘shni sinfdagi musiqa yoki ashula ovozi tufayli tug‘ilgan hissiyot o‘quvchilarning darsga qaratilgan diqqatlarini bo‘shashtiradi.

Iroda va diqqat. Ixtiyoriy (irodaviy) diqqatning kuchi iroda kuchi bilan saqlab turiladi. Ko‘pincha, ixtiyorsiz diqqatning barqarorligi ham faoliyat jarayonida irodaning zo‘ri bilan ushlab turiladi. Shuning uchun iroda, asosan, diqqatda ko‘rinadi, desa bo‘ladi. Agar kishi diqqatli bo‘lishni xohlab, buning uchun zo‘r bersa, diqqat kuchli va barqaror bo‘ladi; bunda kishi ixtiyorsiz ravishda paydo bo‘ladigan va diqqatning obyektiga munosabati bo‘lmagan taassurotlar, tasavvurlar, fikr va hissiyotlarni siqib chiqarish va yo‘q qilib yuborish uchun zo‘r harakat qiladi.

Irodaning ishga solinishida kishining bir maqsadga intilishi, uning ishga shaylanib, hozirlanib turishi katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun, kuchli va barqaror diqqat hosil qilishda ma’lum ishga moyillik va tayyor bo‘lishlik katta rol o‘ynaydi. Bu ishga shaylanish, yo‘l tutishdir. Chunonchi, agarda o‘quvchi uy vazifasini tayyorlashga shaylansa, o‘qish ishiga hafsala qo‘ysa, uning diqqati butun ish davomida unchalik zo‘r berishni talab qilmaydi. Shuning bilan bir vaqtda, uning diqqati kuchliroq va barqarorroq bo‘ladi. Diqqatning g‘oyat darajada mujassamligini va barqarorligini saqlab turish uchun kishining ishga muvofiqlanishi, ishlashga odatlanib qolganligi katta ahamiyatga egadir.

Qiziqishlar va diqqat. Diqqatning to‘planishi va barqarorligini saqlab turishda kishining qiziqishlari katta ahamiyatga egadir. Ixtiyorsiz diqqatning barqarorligi, asosan, kishining ayni faoliyatiga bevosita qiziqishiga, ishtiyoqiga bog‘liq. Bevosita qiziqish – bu ayni ish jarayonining, ish-harakatlarning o‘ziga, ish usullariga bo‘lgan qiziqishdir.

Ixtiyoriy diqqatning kuchi va barqarorligi, asosan vositali qiziqishga, ya’ni faoliyatning maqsadi, ishning natijasi bilan qiziqishga bog‘liq. Ixtiyoriy diqqat asosida qilinadigan ish jarayonining o‘zi zo‘r berishni talab qilish tufayli noxush bo‘lishi mumkin. Bunday ish davomida

diqqatning to‘planishi va barqarorligi erishilgan maqsadni, ish natijalarining zarurligi va ahamiyatini anglash orqali saqlab turiladi. Yoshlarning qiziqishlari, ularning asosiy va hayotiy maqsadlari O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlashi, uning kelajagini, faolligini ta’minlashdan iboratdir. Bunday maqsadlarni anglash o‘z ishi jarayonida diqqatining g‘oyat darajada to‘planishi va barqarorligini ta’min etuvchi eng muhim shartlardandir.

Diqqat-e’tiborlilik (ziyraklik) shaxsning asosiy fazilatidir. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘z ishini diqqatning bilan bajarishga odatlansa, diqqat doimiy xususiyatga aylanib, diqqatning e’tiborlilik darajasi rivojlanadi, bu esa uning fazilati sifatida umumiy psixik qiyofasida katta ahamiyatga egadir. Bu fazilatga ega bo‘lgan o‘qituvchi, o‘quvchi o‘zining kuzatuvchanligi, yaxshi idrok qila bilish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Diqqat-e’tiborlilik diqqat xususiyatlarini (barqarorligi, ko‘lami, taqsimlanishi, to‘planishi) yuksak darajada o‘sganligini ko‘rsatadi. Hatto ishga qiziqishi bo‘lmagan odam ixtiyoriy diqqatni tezda ishga sola oladi, og‘ir va qiziqarsiz mashg‘ulotlarga o‘zini jazm etishga majbur qila oladi. Diqqat-e’tiborlilik odamni shaxs sifatidagi qiyofasini ham belgilaydi va uning axloqiy sifatiga aylanadi. Bunday sifatga ega bo‘lgan o‘quvchi ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

TO‘RTINCHI QISM.
SHAXSNING HISSIYOTI VA IRODAVIY JARAYONI

I BOB. HISSIYOT

1. Hissiyot to‘g‘risida umumiy tushuncha

Hissiyot haqida so‘z yuritganda avvalo bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq. Ba’zi bir ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘atlarda (1954-yil) yoki oddiy nutqda sezgi va hissiyot tushunchalari, shuningdek emotsiya tushunchalari bir-biriga aralashtirib yuboriladi va ular bir ma’noni aks ettirgandek bo‘lib tuyiladi. Lekin bu uchala tushuncha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib ular turlicha mazmun, turlicha mohiyat kasb etadi va ular boshqacha psixik jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z navbatida bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Emotsiya bilan hissiyot obyekt bilan subyektning ya’ni kishilarning o‘zaro munosabatlari natijasida paydo bo‘ladi. Ular ko‘proq shaxsning xususiyatlari bilan, uning shaxsiy tajribasi bilan belgilanadi. Emotsiya va hissiyot paydo bo‘lishida kishining ichki kechinmalari katta ahamiyatga ega. Chunki bir xildagi narsalar turli vaqtlarda kishilarga turlicha ta’sir qiladi.

Emotsiya bilan hissiyot orasidagi farq shundan iboratki, emotsiya organik ehtiyojlarimiz (ovqatlanish, jinsiy refleks va b. q) qondirilgan vaqtda, qo‘zg‘ovchilarga nisbatan munosabatni aks ettiradi. Emotsiya odam shaxsining ijtimoiy hayot sharoitida mavjud bo‘lgan va tarixiy tarkib topgan, jamiyatni alohida kishi tomonidan o‘zlashtirilgan qoidalari, g‘oyalarini aks ettiruvchi ongni tarkibiga kiruvchi yuksak hislarni kechirishidan paydo bo‘ladi. Emotsiya belgilari yaqqol namoyon bo‘ladigan hissiyotlarni ichdan kechirishdan iborat psixik jarayonning sodir bo‘lishini aniq shaklidir. Hissiyot esa shaxsni o‘z-o‘ziga, atrofdagilarga, jamiyatga, jamiyat mulkiga, o‘qishga mehnatga bo‘lgan munosabatlaridan kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz (xush va noxush) kechinmalardir. Lekin emotsiya va hissiyotni bir-biridan keskin ajratish ham yaramaydi. Hissiyot jamiyat va o‘z shaxsining o‘zaro munosabati uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalarni aks ettirishdir. Emotsiya esa shaxs hayoti, faoliyati uchun foydali yoki zararli ta’sir qiluvchi va o‘zining kelib chiqishi jihatidan shartsiz reflekslar (ovqatlanish, jinsiy va h.k.) bog‘liq holda namoyon bo‘ladigan «sodda hissiyotlar»dir.

«His» degan termin ko‘pincha «sezgi» degan termin bilan bir ma’noda ishlatiladi. Masalan, ba’zan: «Men yorug‘likni his qilyapman, men is-

siqlikni his qilyapman» deyish o‘rniga: «Men yorug‘likni sezyapman, men issiqlikni sezyapman» deb ham aytishadi. Shu vaqtgacha biz psixologiyada ham sezgi organlari deyish o‘rniga his qilish organlari deb aytishga odatlanib qolganmiz.

Sezgi bilan hisni bir-biridan farq qilish kerak. Sezgi odamdan mustaqil ravishda mavjud bo‘ladi, u narsalar va hodisalarning in’ikosidir. Hissiyot esa odamning shu narsalarga va hodisalarga munosabatini ifodalovchi tuyg‘ular, kechinmalardir. Sezgilar bizga narsalar va hodisalarning o‘zini bildiradi, ammo hissiyot esa odamning shu narsalarga va hodisalarga munosabatini, bu narsalar va hodisalar odamda qanday holat tug‘dirganligini (xush yoki noxush holat tug‘dirganligini) bildiradi.

Kishi biror narsani idrok va tasavvur qilganida, eslab qolganida va esga tushirganida, fikr qilganida va gapirganida hamda harakat qilganida biror yoqimli (xush) yoki yoqimsiz (noxush) holatni kechiradi, bu holat huzur qilish yoki ranjishdan, maza qilish yoki qiynalishdan iborat bo‘ladi. Bu kechirmalarda odamning o‘z tevarak-atrofidagi narsalarga (hodisalarga), odamlarga va o‘ziga nisbatan subyektiv munosabati ifodalanadi. Yoqimli yoki yoqimsiz kechinma hissiyotimizning **(emotsiyalarimizning)** birinchi belgisi va elementidir.

Voqelikning ayrim hodisalari kishini quvontiradi, ayrim hodisalar xafa qiladi, ba’zi hodisalarga kishi qoyil qoladi, ba’zi hodisalardan g‘azablanadi, odam ba’zi hodisalarni ko‘rib jahli chiqadi, ba’zilaridan qo‘rqadi. Xursandlik, xafalik, qoyil bo‘lish, g‘azablanish, qahr, qo‘rquv va shu kabilarning hammasi emotsional kechinmalarning xilma-xil turlaridir, odamning voqelikka bo‘lgan turli subyektiv munosabatidir, odamning o‘ziga ta’sir qilayotgan va uning o‘zi ta’sir qilayotgan narsalardan tug‘iladigan kechinmalardir.

Yoqimli kechinmalarda odamning voqelikdagi ayrim narsalarga, hodisalarga va o‘ziga nisbatan ijobiy munosabati ifodalanadi, yoqimsiz kechinmalarda esa bunga odamning salbiy munosabati ifodalanadi. Shuning uchun ham subyektiv kechinmalardan iborat bo‘lgan hissiyotlar **ijobiy va salbiy hissiyotlar** deb ajratiladi. Lekin hissiyotlar yoqimli yoki yoqimsiz subyektiv kechinmalar bo‘lish jihatidangina emas, shu bilan birga obyektiv, ijtimoiy ahamiyatlari jihatidan ham ijobiy va salbiy hissiyotlar deb farq qilinadi. Hissiyotlarga shaxsiy nuqtayi nazardan beriladigan baho bilan ijtimoiy nuqtayi nazardan beriladigan baho hamisha bir-biriga muvofiq bo‘lavermaydi. Subyektiv ravishda noxush, kishini ranjitadigan kechinmalar tariqasidagi ko‘pgina hissiyotlar, ijtimoiy nuqtayi nazaridan qaraganda, ijobiy hissiyotlar hisoblanadi. Masalan, kishidagi uyalish vijdon azobi yoqimsiz va hatto qattiq azob hissi bilan kechiriladi. Lekin ijtimoiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu

hislar yuksak, ijobiy axloqiy hislardir. G‘azab va qahr hissi har bir kishida salbiy, noxush kechinma holatida o‘tadi. Ammo ijtimoiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu hissiyot nima sababdan tug‘ilganligiga va nimaga yo‘nalganligiga qarab ijobiy yoki salbiy hissiyot bo‘lishi mumkin. Agar bu hissiyotlar axloq tamoyillarga to‘g‘ri kelmaydigan nojo‘ya ish qilib qo‘ygan kishiga nisbatan tug‘ilgan bo‘lsa, bu hissiyot ijobiy axloqiy hissiyotdir. Ammo bu hissiyot biror shaxsiy norozilik sababli, masalan, majlisda qilingan haqli tanqid sababli tug‘ilgan bo‘lsa, bunday hissiyot o‘zbek kishisiga nomunosib, past hissiyotdir.

Hissiyot biz idrok qilayotgan, tasavvur qilayotgan va fikr qilayotgan hodisalar va tasavvurlar, shuningdek, bizning harakatlarimiz va qiliqlarimiz ta’siri bilan tug‘iladi. Narsalar idrok, tasavvur va fikr qilinayotganligi uchungina bizda ayrim tuyg‘ular tug‘ilib qolmasdan, balki, asosan, bu narsalar bizning ehtiyojlarimiz, manfaatlarimiz bilan ma’lum bir darajada bog‘langanligi uchun ham bizda turli tuyg‘ular tug‘diradi, biz idrok, tasavvur va fikr qilayotgan narsalar bizning ehtiyojlarimizga va manfaatlarimizga aloqasi bo‘lmagan taqdirda bizda sezilarli hissiyotlar tug‘ilmaydi. Bunday narsalar ko‘pincha e’tiborimizdan chetda qolaveradi.

Shunday qilib, hissiyotlarning manbalari (yoki sabablari), bir tomondan, bizning ongimizda aks etayotgan tevarak-atrofdagi voqelik bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bizning ehtiyojlarimizdir.

Ko‘p hollarda emotsional kechinmalarimizning mazmuniga bizning **intilishlarimiz** ham kiradi. Intilishlar esa hamisha ehtiyojni ifodalaydi. Lekin hissiyotlar ehtiyojlar sababli paydo bo‘lishi tufayli, intilishlar bilan hissiyotlar bir-biriga «qo‘shilib ketib» bitta tuyg‘u, kechinma holida namoyon bo‘ladi. Bunday hollarda hissiyotlar, odatda, intilishlarni tug‘diradi yoki mavjud intilishlarni kuchaytiradi, shuning uchun ehtiyojlarning o‘zi ham faol kechinmalar bo‘lib qoladi. Hissiyotlarning yo‘nalishi, faolligi intilishlarda namoyon bo‘ladi.

Shunday emotsional holatlar ham bo‘ladiki, bunda intilish juda sust bo‘ladi yoki butunlay bo‘lmaydi. Bu xil samarasiz, passiv hissiyotlarni, odatda, **sentimentallik** deb ataydilar. Sentimentallik – harakatsiz hissiyot bo‘lib, odatda, faqat so‘z bilan cheklanib, oh-vohlar qilish, ba’zan ko‘z yoshi to‘kishdan nariga bormaydi.

Hissiyotlarning faollik darajasi kishidagi qo‘zg‘alish va kuchlanish holatida yoki tinchish va bo‘shashish holatida, yoki kishidagi hamma kuchlar g‘ayratga kirgan holatda, yoxud bu kuchlar zaiflashgan va bo‘shashgan holatda namoyon bo‘ladi. Hissiyotlarning mana shu faollik darajasiga qarab, ular **stenik** va **astenik** hissiyotlarga bo‘linadi.

Kishining hayotiy faoliyatini oshiradigan, g‘ayratini orttiradigan hissiyotlar **stenik** hissiyotlar deb ataladi. Masalan, nihoyatda xursandlik, g‘azablanish hislari stenik hissiyotlar qatoriga kiradi. Kishining hayotiy faoliyatini pasaytiradigan, g‘ayratini susaytiradigan hissiyotlar **astenik** hissiyotlar deb ataladi. G‘am-g‘ussa, ma’yuslik, afsuslanish kabi hissiyotlar mana shunday astenik hissiyotlardir.

2. Hissiyotning fiziologik asoslari

Emotsional kechinmalar organizmdagi alohida fiziologik jarayonlar, o‘zgarishlar bilan bog‘liq ekanligi har kungi tajribada ko‘rinib turibdi. Masalan, emotsional kechinmalar chog‘ida qon aylanishi o‘zgaradi, yurak urishi tezlashadi yoki susayadi. Bir xil emotsional kechinmalar chog‘ida odam qizaradi, boshqa bir xil emotsional kechinmalar chog‘ida esa odam oqaradi yoki bo‘zaradi. Emotsional jarayonlarning yurak faoliyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq ekanligi shu qadar ayon sezilib turadiki, hatto oddiy tilda «his» bilan «yurak» degan so‘z bir-biriga o‘xshash ma’noda ishlatiladi. Odatda, «yuragim orziqib ketdi», «yuragim orqamga tortib ketdi», «yuragim yorilay dedi» deb gapirilganida, «yurak» so‘zi bilan qo‘rqib ketish, sevinish kabi hislar ifodalanadi.

Emotsional kechinmalar vaqtida nafas olish ham o‘zgaradi: ayrim kechinmalar vaqtida nafas olish tezlashadi, ayrim kechinmalar vaqtida esa nafas olish susayadi. Shuningdek, ovqat hazm qilish jarayonlari va ichki sekretsiya bezlarining faoliyati ham o‘zgaradi. Emotsional jarayonlar butun organizmning faoliyatiga ta’sir qiladi.

Odamdagi hissiyotning fiziologik asosi, avvalo, bosh miya po‘stida sodir bo‘ladigan jarayonlardir.

Bosh miya po‘sti hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Buni shu bilan isbot qilish mumkinki, miya yarim sharlari olib tashlangan hayvonlar eng arzimas sabablar bilan muttasil va shu bilan birga kuchli ravishda hayajonga kelaveradi. Miya po‘sti zaiflangani natijasida bet muskullari falaj bo‘lgan kishilar har xil narsalarga, hatto juda arzimas narsaga ham hamisha va qattiq kula beradilar. Bosh miya po‘stining faoliyati buzilishi natijasida ba’zi kishilarda har xil taassurot, bu taassurotga butunlay muvofiq bo‘lmagan teskari emotsional alomatlarni qo‘zg‘atadi – kuldiradi yoki yig‘latadi. Bunday hollarda bemor kishilar ko‘pincha o‘zlari kulib tursalar ham, aslida g‘amgin bo‘ladilar, ko‘z yoshi to‘ka turib esa xursandlik his qiladilar.

Hissiyotlar **bosh miya po‘stining ostki qismlari faoliyati** bilan ham bog‘langandir. Jumladan, ko‘rish bo‘rtig‘i hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazlaridir. Buni shu bilan isbot qilish mumkinki, ko‘rish bo‘rtig‘ining shikastlanishi natijasida, hissiyotni ifodalovchi yuz

harakatlari ham izdan chiqadi. Bosh miya po‘sti ostidagi markazlardan mahrum bo‘lgan hayvonlarda hissiyotlarni ifodalovchi harakat belgilari bo‘lmaydi.

Bosh miya po‘sti ostidagi qismlarda vegetativ nerv sistemasini boshqaruvchi markazlar bor. Bu markazlar emotsional kechinmalar bilan mustahkam bog‘langandir.

Ba’zi hissiyotlar vegetativ nerv sistemasi faoliyatining hamda bu sistema boshqarayotgan organlar faoliyatining oshib ketganligi sababli tug‘iladi. Shu sababli, ba’zi emotsional kechinmalar vaqtida qon aylanish organlarining faoliyati, ovqat hazm qiladigan organlar faoliyati kuchayganligini, nafas olish o‘zgarganligini, ko‘zning nurlanishini, rangning qizarganligini ko‘ramiz va hokazo. Bunday hollarda ichki sekretsiya bezlarining faoliyati oshib ketib, ular nerv sistemasini oziqlantiruvchi va qo‘zg‘atuvchi kerakli moddalarni organizmga ajratib beradi. Bunday emotsional holat chog‘ida biz g‘ayratimiz oshib ketganligini sezamiz, o‘zimizni bardam, ishchan his qilamiz.

Aksincha, boshqa ba’zi bir hissiyotlar vegetativ nerv sistemasi faoliyatining va shu sistema boshqarayotgan organlar faoliyatining pasayishi sababli tug‘iladi. Qayg‘u, g‘am, qo‘rquv singari mana shunday salbiy emotsiyalar chog‘ida qon aylanish, ovqat hazm qilish, nafas olish o‘zgaradi, kishining rangi oqarib-bo‘zarib ketadi, uning ko‘zlari nursizlanadi va hokazo.

Ba’zi salbiy hissiyotlar, masalan, g‘azab, vahima ba’zan vegetativ nerv sistemasining faoliyatini oshirib yuboradi. Lekin bunday hollarda ham shu hissiyotlarning salbiy xarakteri shu narsada namoyon bo‘ladiki, bunday hissiyotlar tugashi bilan organizm bo‘shashib ketadi, kishining tinkasi quriydi, ba’zan esa kishida alohida asabiy betoblik vujudga keladi.

Ikkinchi signal sistemasi odamning emotsional kechinmalarida katta rol o‘ynaydi, ikkinchi signal sistemasidagi bog‘lanishlar insoniy oliy hislarning– intellektual, axloqiy, estetik hislarning – nerv-fiziologik asosidir. Ikkinchi signal sistemasi birinchi signal sistemasi bilan uzilmas ravishda bog‘langanligi va shu orqali bosh miya po‘sti ostidagi qismning faoliyatiga ta’sir qilib turishi sababli, odam o‘z hissiyotlarini ongli ravishda o‘zi boshqarib tura oladi.

3. Hissiyotning tashqi ifodalanishi

Psixik jarayonlarning hammasi organizmning tashqi o‘zgarishlarida va harakatlarida ma’lum darajada ifodalanadi. Lekin odamning hissiyotlari ayniqsa, yaqqol ifodalanadi. Emotsional kechinmalar organizmning tashqi

o‘zgarishlarida shu qadar yaqqol alomatlarda ifodalanadiki, odatda, biz odamning tashqi ko‘rinishiga qarab unda qanday hissiyotlar yuz berayotganligini – u xursandmi, yoki xafami, g‘azablanganmi yoki biror nimadan qo‘rqib turganmi, unda muhabbat paydo bo‘lganmi yoki nafrat paydo bo‘lganmi, shodlik paydo bo‘lganmi yoki uyalish paydo bo‘lganmi, xullas, mana shu hislarning ko‘pini aytib bera olamiz. Rang ko‘r, hol so‘r, degan hikmatli so‘zning psixologik ma’nosi bunga misol bo‘la oladi. Hissiyotlarning tashqi alomatlarini *ifodali harakatlar* deb ataladi.

Emotsional kechinmalar avvalo muskullarning ixtiyorsiz bo‘ladigan harakatlarida ifodalanadi. Ijobiy hissiyotlar vaqtida bu harakatlar, odatda, shu hislarni tug‘dirgan narsa tomonga yo‘nalgan bo‘ladi, salbiy hissiyotlar vaqtida esa bu harakatlar shu hislarni tug‘dirgan narsadan teskari tomonga yo‘nalgan bo‘ladi. Masalan, biz bir badiiy suratni ko‘rib undan zavqlansak, bizda yoqimli his tug‘iladi, shuning uchun beixtiyor shu suratga yaqinlashamiz. Shuningdek, qalin do‘stimiz bilan to‘satdan uchrashib qolganimizda, biz shu do‘stimizga tomon beixtiyor harakat qilamiz, ya’ni unga yaqin borib qolganligimizni o‘zimiz ham sezmay qolamiz.

Ayrim salbiy hissiyotlar vaqtida bizning harakatlarimiz shu hisni tug‘dirgan narsadan chetlatishga intiladi. Boshqa ba’zi salbiy hissiyotlar vaqtida, masalan, g‘azab, nafrat hislari vaqtida bizning harakatlarimiz shu emotsional kechinmalarga sabab bo‘lgan narsa tomonga yo‘naladi. Buning sababi shuki, bizda shu narsani yo‘q qilish yoki uning harakatini bostirish harakati tug‘iladi va biz shunga intilamiz. Mustaqil vatanimizning dushmanlari, terrorizmga, diniy aqidaparastlikka, vahobizmga nisbatan bizdagi g‘azab va nafratning ajoyib ahamiyati bor, chunki bu g‘azab va nafrat dushmanni yo‘q qilishga qaratilgan emotsional kechinmalardir.

Bizning emotsional kechinmalarimiz mimikada, gavda harakatlarida va imo-ishoralarda ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Kishining emotsional kechinmalari fiziologik jarayonlarda yig‘i, kulgi va boshqa shu kabilarda ham namoyon bo‘ladi.

Hissiyotlarning harakatlarda, mimikada, gavdada, imo-ishoralar va ma’noli ko‘z qarashlarda, boshqa shu kabilarda mana shu tariqa tashqi ifodalanishlarining hammasi suratga va kinoga olish yo‘li bilan qayd qilinishi mumkin.

Kishining emotsional kechinmalari uning nutqida ifodalanadi. Turli emotsional kechinmalar vaqtida uning tezligi o‘zgaradi, ko‘pincha, nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, ritmika va intonatsiya o‘zgaradi. O‘tkazilgan tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki, g‘amginlik va ma’yuslik hislarini ifodalovchi nutq vaqtida shu nutqni so‘zlovchi kishining ovozi

beixtiyor pasayib ketadi, nutqning o‘zi susayib qoladi, so‘zlayotgan kishining tovushi ham bo‘linib-bo‘linib chiqadi. Xursandlik holatida bir nima so‘zlayotgan kishining nutqida bunga butunlay teskari holat namoyon bo‘ladi. Turli emotsional kechinmalar vaqtida ovozning titrashi va uning past-balandligi turlicha o‘zgaradi.

Hissiyotlarning mana shu tashqi ifodalari, odatda, ixtiyorimizdan tashqari namoyon bo‘ladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, ayrim hislar o‘ziga xos shaklda ifodalanadi. Masalan, qo‘rquv vaqtida kishining ko‘z qorachiqlari kengayib ketadi, badani qaltiraydi, yuzi oqarib-bo‘zarib ketadi. Xursandlik hissi vaqtida kishining ko‘zi yarqirab ketadi, yuzida qizarish paydo bo‘ladi, harakatlar tezlashadi va hokazo.

Ammo odam o‘zining ifodali harakatlarini o‘zgartirishi mumkin: u ba’zi harakatlarni tiyib turishi, ba’zilarini esa kuchaytirishi mumkin. Odam sun’iy ravishda yangi ifodali harakatlar yaratishi va shu ifodali harakatlar yordami bilan o‘zidagi emotsional kechinmalarni to‘liq va xilma-xil qilib ochib berishi mumkin.

Odam o‘zining mimikasi va gavda harakatini, shuningdek, tovushini atayin chiroyli qilib ko‘rsatishi mumkin. U garchi o‘zi muayyan hissiyotlarni kechirmayotgan bo‘lsa ham, ammo shu hissiyotlarni ifodalaydigan harakatlar yaratishi mumkin. Chunonchi, artistlar sahnada o‘z hislarini emas, balki sun’iy mimika, imo-ishoralar, nutqining intonatsiyasi va shu kabilarni yaratish yo‘li bilan muayyan ifodali harakatlarni tasvirlab ko‘rsatishlari lozim bo‘ladi. Har bir kishi ham o‘z hissiyotlarining tashqi ifodalarini ma’lum darajada o‘zgartirishi mumkin.

Mana shu o‘zgartiriladigan va yangidan vujudga keltiriladigan ifodali harakatlar, ya’ni emotsional kechinmalarning tashqi alomatlari kishida mustahkam o‘rnashib qolishi, ko‘nikma va odatga aylanishi, so‘ngra esa hislarning tabiiy ifodasi tariqasida beixtiyor namoyon bo‘lishi mumkin.

4. Emotsional holatlar va ularning turlari

Hissiyotlar paydo bo‘lish tezligi, kuchi va davomiyligi (barqarorligi) jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Hissiyotning paydo bo‘lish tezligi. Emotsional kechinmalar turli hollarda turlicha tezlik bilan paydo bo‘ladi. Ba’zan hissiyotlar juda tez to‘satdan, darhol paydo bo‘ladi, masalan, kishi birdan xursand bo‘lib ketadi, darhol g‘azabga keladi, darhol achchiqlanadi va hokazo. Lekin ba’zan shu hissiyotlarning o‘zi daf’atan o‘zgarmaydi, balki asta-sekin tug‘ila boshlaydi. Xursandlik ham, g‘azab ham, asta-sekin qo‘zg‘aladi.

(Bunday holatni biz «qo‘rqqanligi» yoki «suyunganligi darrov bilinmadi» deb aytamiz.)

Lekin shunday emotsional kechinmalar borki, ularning qay darajada tez paydo bo‘lganligini belgilash qiyin yoki butunlay belgilab bo‘lmaydi. Masalan, bizdagi kayfiyatlarning ko‘pchiligi shular jumlasiga kiradi.

Hissiyotning kuchi. Emotsional kechinmalarning kuchi turlicha bo‘lishi mumkin. Hissiyotning kuchi, avvalo, yoqimli yoki yoqimsiz tuyg‘ularning naqadar kuchli bo‘lishidadir. Shuning uchun ham «juda xursand bo‘ldim», «unchalik yoqmadi» va shu kabi iboralar ishlatiladi. Subyektiv jihatdan olganda, hissiyotning kuchi shu hissiyotni shaxsning naqadar ehtiros ila kechirayotganligi bilan ham belgilanadi.

Hissiyotning kuchi intellektual (aql-idrok) jarayonlarga ham sezilarli ravishda ta’sir qiladi. Emotsional qo‘zg‘alishning ma’lum bir darajasida intellektual jarayonlar kuchayadi: idrok va tasavvur yaqqolroq bo‘ladi, tafakkur jarayonlari jadallashadi. Lekin ba’zan, ayniqsa, kuchli emotsional kechinmalar vaqtida intellektual jarayonlar cheklanadi, sustlashadi va hatto aql-farosat qochadi. Odam o‘z hissiyotlarini tiyib tura olmaganda ko‘proq shunday bo‘ladi. Paydo bo‘lgan tasavvurlar va fikrlar to‘xtalib qoladi yoki yo‘qoladi, mantiqiy bog‘lanishlar susayadi, tafakkurning nazorat qiluvchi, tanqidiy faoliyati bo‘shashadi yoki butunlay to‘xtab qoladi. Odam mana shunday qattiq emotsional iztirob holatida qattiq hayajonga tushgan yoki hovliqqan paytlarida ko‘pincha nojo‘ya ishlar qilib qo‘yadi, mantiqqa sig‘maydigan, subyektiv, haqsiz, g‘arazli xulosalar chiqaradi, eng oddiy masalalarni ham hal qila olmay qiynalib qoladi. O‘z atrofidagi vaziyatni yaxshi payqay olmaydi. Agar kuchli hissiyotlarni bizning ongimiz boshqarib tursa, bu hissiyotlar bizning tamoyillarimiz tufayli tug‘ilgan bo‘lsa, bunday kuchli hissiyotlar ijobiy ahamiyat kasb qiladi. Ifodalovchi harakatlarning muskul-harakatlantiruvchi sohadagi va nutqdagi eng sezilarli o‘zgarishlar bilan birga kuchayishi yoki kuchsizlanishi sirtdan qaraganda hissiyotlarning kuchi qay darajada ekanligini bildirib turadi. Hissiyot naqadar kuchli bo‘lsa, uning sirtqi ko‘rinishi shu qadar ifodali bo‘ladi.

Muayyan narsaga zo‘r intilish bilan namoyon bo‘ladigan kuchli hissiyotlar katta-katta to‘siqlarni yenga oladigan kuchli harakatlarda ifodalanadi.

Sensor hissiyotdan farqli bo‘lgan emotsional hissiyot his-tuyg‘ular paydo bo‘lishining tezligi va kuchi bilan belgilanadi.

His-tuyg‘ularning barqarorligi. Emotsional kechinmalar qanchalik uzoq davom etishi (barqarorligi) bilan ham bir-biridan farq qiladi. Paydo bo‘lgan kechinmalar uzoq vaqt davom etsa, bunday his-tuyg‘ular barqaror kechinmalar deb ataladi. His-tuyg‘ular paydo bo‘lishi bilan darrov so‘nib

qolsa, yoki boshqa biror emotsional kechinmaga tez o‘tib ketsa, bunday his-tuyg‘ular beqaror his-tuyg‘ular deb ataladi.

His-tuyg‘ularning kuchi va barqarorligini ularning chuqurligidan farq qilmoq kerak. **His-tuyg‘ularning chuqurligi,** odatda, tasavvurlar va fikrlarning, shuningdek, mana shu konkret emotsional kechinma sababli paydo bo‘lgan va shu kechinmalarga muayyan bir ma’no berayotgan intilishlarning xilma-xilligi va boyligi bilan belgilanadi. Odamning e’tiqodlari, dunyoqarashi, qiziqishlari va mayllari bilan aloqador tasavvurlarga, fikrlarga va intilishlarga boy bo‘lgan his-tuyg‘ular chuqur his-tuyg‘ulardir. Chuqur his-tuyg‘ular o‘tib ketganidan keyin ham, odatda, ularning izi uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ko‘pincha tasodifiy idrok qilishlar va tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lgan beqaror his-tuyg‘ular, ya’ni «havas» deb ataladigan his-tuyg‘ular chuqur bo‘lmaydi. Bunday vaqtincha havaslar, odatda, odamning xotirasida biror sezilarli iz qoldirmaydi.

His-tuyg‘ularni qo‘zg‘atuvchi emotsiyalarning xususiyati – paydo bo‘lish tezligi kuchi va barqarorligi bir qancha sabablarga, ya’ni nerv sistemasining holatiga, muayyan paytda paydo bo‘lib qolgan ehtiyojlarning kuchiga, shu hislarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan hodisalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini odam qay darajada anglaganligiga, shu his-tuyg‘ular paydo bo‘layotgan va o‘tayotgan vaziyatga, shaxsning individual xususiyatlariga bog‘liqdir.

Hislarning ayni vaqtda naqadar tez, kuchli va barqaror bo‘lishiga qarab, emotsional holatlarning turlari farq qilinadi.

Inson voqelikdagi narsa va hodisalar ta’siriga kuchli yoki kuchsiz, barqaror yoki beqaror, tez yoki sekin beriladilar. Bu unga xos emotsional kechinmalardir.

Emotsional kechinmalar (holatlar) deb, shaxsning emotsional kuchi, tezligi va barqarorligi bilan belgilanadigan, voqelikka bo‘lgan munosabatda ifodalanadigan turli yoqimli va yoqimsiz kechinmalarga aytiladi. Emotsional kechinmalarga hissiy ton, kayfiyat, ehtiros, ruhlanish, affekt kabilar kiradi.

Emotsional ton(xissiy ton) – sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilayotgan narsaga, hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus emotsional bo‘yoq, yoqimli yoki yoqimsiz kechinma, bevosita sezgi va idrok bilan bog‘langan his-tuyg‘ulardir. Emotsional ton sezgi va idrokni paydo qiladigan qo‘zg‘ovchilarni yo kuchli yoki kuchsiz ta’sir etishda paydo bo‘ladi. Masalan, qalampirning achchiqligi yoki baland shovqin ovoz bizda yoqimli yoki yoqimsiz tuyg‘ularni hosil qiladi. Hissiy kechinmalar tufayli odam organizmida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga moslashishi natijasida, odam ovozining o‘zgarishi, mimika, imo-ishora, ixtiyorsiz va ongli harakatlar sodir bo‘lishi mumkin.

Kayfiyat

Kayfiyat zaif yoki o‘rtacha kuchga ega bo‘lgan va, odatda, ancha barqaror emotsional holatdir. Odamdagi ba’zi bir kayfiyat bir necha kun, bir necha hafta, bir necha oy va undan ham ko‘proq davom etishi mumkin. Quvnoq kayfiyat, ma’yus kayfiyat, g‘amginlik kayfiyati, g‘azab kayfiyati va shu kabi kayfiyatlar, yaxshi yoki yomon kayfiyatlar bo‘lib turishi hammaga ma’lum. Biz biror kishidan, ahvollaringiz qalay, deb so‘raganimizda, biz, asosan, uning kayfiyatini nazarda tutamiz.

Odamdagi turli kayfiyat turlicha sabablar tufayli tug‘ilishi mumkin. Odamning shaxsiy yoki ijtimoiy hayotida sodir bo‘lgan va shu odam uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan biror voqea mana shu xildagi kayfiyatning tug‘ilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Biror ishning muvaffaqiyatli bajarilganligi odamda bir necha kun davom qiladigan xursandlik, shodlik kayfiyatini tug‘dirishi mumkin. Biror ishning muvaffaqiyatli bajarilganligiga mo‘tabar kishi yoki muassasa tomonidan berilgan yuksak baho odamning kayfini chog‘ qilib yuboradi. Ishdagi chatoqlik, muvaffaqiyatsizlik, odamning qilgan ishiga past baho berilganligi uning ruhini tushirib yuboradi, unda ma’yuslik tug‘diradi, uning o‘z kuchiga ishonchsizlik vujudga keltiradi.

Odamdagi nerv sistemasining holati va umuman odam sog‘lig‘ining holati odamda ma’lum bir kayfiyatning tug‘ilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ba’zan kishi o‘zida muayyan kayfiyat tug‘dirgan sabab nimaligini anglamaydi. Bunday hodisa ko‘pincha organizmning holati, jumladan, nerv sistemasining holati sababli vujudga keladi.

Odatda, muayyan kishida u yoki bu xil kayfiyat ustunlik qilishi mumkin. Odatda, qay xildagi kayfiyatning ustunlik qilganiga qarab, biz ba’zi kishilarni quvnoq, xushchaqchaq, bardam kishilar deymiz, ba’zi kishilarni esa g‘amgin, ma’yus, beparvo kishilar deymiz. Mana shunday ustunlik qilgan kayfiyat odam xarakterining xislati bo‘lib qoladi.

Odamning barcha psixik jarayonlarida va faoliyatida kayfiyat katta rol o‘ynaydi. Tasavvurlar va fikrlarning o‘tishidagi tezlikka, shuningdek, tasavvur va fikrlarning mazmuniga hamda yo‘nalishiga kayfiyat ta’sir qiladi. Odamdagi boshqa emotsional kechinmalarning hammasiga kayfiyat, odatda, o‘zining ta’sirini o‘tkazib turadi, bu kechinmalarning, intilishlarning va harakatlarning faolligida shu kayfiyat o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Ehtiros ham uzoq davom qiladigan va barqaror bo‘lgan emotsional holatdir. Lekin kayfiyatdan ehtirosning farqi shuki, ehtiros muayyan harakatga, muayyan obyektga muttasil intilishda kuchli sur’atda ifodalangan kuchli emotsional holatdir. Ehtiros hamisha aniq bir narsaga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, odamlarda bilimga, ixtirochilikka, musiqaga

bo‘lgan ehtiros mana shunday aniq ehtirosdir. Bular ijobiy ehtiroslarga misol bo‘la oladi. Bizning axloqimiz nuqtayi nazaridan qaraganda, salbiy ehtiroslar ham bor.

Masalan, ichkilikbozlikka, alkogolga, qimorga, kartabozlikka hirs qo‘yish, pulparastlik mana shunday salbiy ehtiroslardir. Ijobiy ehtiroslar odamni ulkan ijodiy faoliyat yo‘liga yetaklovchi kuchdir.

Emotsional holatning bir turi bo‘lgan ruhlanish xilma-xil faoliyatlarda namoyon bo‘ladi. Kishidagi ruhlanish muayyan faoliyatga katta kuch va istak bilan intilishdan iboratdir.

Faoliyatdan kuzatilgan maqsad ravshan bo‘lganida va bu faoliyatning natijasi ochiq ko‘rinib turganida hamda kerakli, qimmatli natija ekanligi bilinib turganida birdaniga va tez ruhlanish paydo bo‘lishi mumkin. Faoliyat jarayonining o‘zida shu faoliyatning qimmatli va ijtimoiy ahamiyatli ekanligi aniqlanib qolgan hollarda ham bunday emotsional holat asta-sekin vujudga kelishi mumkin.

Ruhlanish ba’zan qisqa muddat, ba’zan esa uzoq muddat davom etadi. Ruhlanish ijobiy emotsional holatdir. Ruhlanish faqat ayrim kishining o‘zigagina xos holat bo‘lmasdan, shu bilan birga, juda ko‘p vaqt butun bir jamoaga mushtarak kechinma tariqasida ham namoyon bo‘ladi. Bir xildagi vaziyatda, bitta faoliyatning o‘zi bilan shug‘ullanayotgan vaqtda, bitta muayyan g‘oyani amalga oshirayotgan vaqtda bir kishida yoki bir guruh odamlarda paydo bo‘lgan ruhlanish boshqa odamlarga tez o‘tishi mumkin.

Tez paydo bo‘ladigan, nihoyat darajada kuchli, g‘oyat jo‘shqinlik bilan o‘tadigan qisqa muddatli emotsional holatlar **affektlar** deb aytiladi. Masalan, birdaniga achchiqlanish, g‘azablanish, to‘satdan qo‘rqish va shu kabi holatlar affektlarning bir ko‘rinishidir. Affektlar ko‘pincha to‘satdan paydo bo‘ladi va ba’zan atigi bir necha daqiqa davom etadi. Affekt holatida kishining ongi, tasavvur qilish va fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Mana shunday kuchli emotsional qo‘zg‘alish shiddatli harakatlarda, tartibsiz gaplarni gapirib yuborishda, ko‘pincha, baqirib yuborish tarzida namoyon bo‘ladi. Affektlar vaqtida odamning harakatlari kutilmagan tarzda, «portlash» singari, birdaniga boshlanib ketadi.

Ba’zan affektlar tormozlanish holati tariqasida namoyon bo‘ladi va bunday holatda organizm bo‘shashib, harakatsiz bo‘lib va shalvirab qoladi. Chunonchi, kutilmagan bir quvonchli holatni ko‘rib suyunib ketgan kishi «o‘zini yo‘qotib qo‘yadi» va «nima deyishni bilmay qoladi». Bunday holat ko‘pincha odam birdaniga qo‘rqqanida, to‘satdan quvonganida, birdaniga g‘azablanganida va shu kabi hollarda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi.

Affektlar kishining irodasi bo‘shashgan vaqtda paydo bo‘ladi, affektlar odamning o‘zini tiya olmasligini, o‘zini tuta bilmasligini ko‘rsatadigan alomatdir. Affekt – emotsional xatti-harakatning ibtidoiy shaklidir.

Lekin har bir kishi o‘zi yetarli daraja ongli bo‘lganligi uchun, o‘zida affekt paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi yoki affekt paydo bo‘lishi bilanoq o‘zini darhol bosib olishi mumkin. Odam affekt juda zo‘r kuch bilan paydo bo‘lgan vaqtda ham «o‘zini tutib qolishi» mumkin. Albatta, buning uchun kishida kuchli iroda bo‘lishi, unda o‘zini tuta bilish, o‘zini tiya bilish singari iroda sifatlari mavjud bo‘lishi kerak. Odamda bu sifatlar tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiya qilish yo‘li bilan paydo qilinadi.

Emotsional holatlarning yana bir turi **jiddiylikdir**. Jiddiylik – tashqi kuchli ta’sir asosida yuzaga keladigan psixik holatdir. Jiddiylik masalaga tez yechim topa olinmagan vaqtda, jismoniy va psixik jihatdan charchaganda yuzaga keladi va inson faoliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Oqibat natijada zaiflik ustun chiqishi mumkin. Bunday vaqtda shaxs o‘z-o‘zini tuta bilishi, o‘zini qo‘lga olib aql bilan ish ko‘rishi maqsadga muvofiqdir.

5. Odam hissiyotlarining mazmuni

Yoqimli va yoqimsiz kechinmalar odamdagi hissiyotlarning birinchi belgisi ekanligi yuqorida aytib o‘tilgan edi. Lekin hissiyotlarni faqat shu kechinmalardangina iborat deb bo‘lmaydi. Har bir kishiga ma’lumki, yoqimli va yoqimsiz kechinmalar, zavqlanish, huzur qilish yoki zavqlanmaslik holati turli hollarda kishida turlicha o‘tadi. Odam o‘zining ochligini yoki chanqovini qondirganida huzur qiladi, ammo shu odamning o‘zi musiqa tinglaganida, do‘stlari bilan uchrashganida, biron ma’naviy zavq bag‘ishlaydigan ish qilganida va shu kabi hollarda boshqacha huzur qiladi. Suvsash odamda yoqimsiz bir his tug‘diradi, lekin shu biron qiyin vazifani bajara olmay qolganida, unda boshqacha bir yoqimsiz his tug‘iladi. Ammo ayni shu odam axloq doirasiga sig‘maydigan yomon ish qilib qo‘yganida va biror narsadan yoki ishdan uyalganida, vijdon azobiga tushib qolganida esa unda butunlay boshqacha yoqimsiz his tug‘iladi va hokazo. Hissiyotlarni bir-biridan farq qiladigan mana shu xususiyatlarning hammasi hissiyotlarning mazmunini tashkil qiladi.

Hissiyotlarning mazmuni, bir tomondan, odamning ehtiyojlari bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, shu hissiyotlarning tuzilishiga sabab bo‘lgan faoliyat va idroklar, tasavvurlar, fikrlar bilan belgilanadi. Odamga, avvalo, biologik (tabiiy) ehtiyojlar xosdir, shu sababli odamga biologik ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lgan hislar ham xosdir. Ochlikni, chanqashni va to‘yishni his qilish, sog‘liqni, tetiklikni, charchashni his qilish, og‘riqni his qilish, shuningdek, organizmning holati va faoliyati bilan bog‘liq

bo‘lgan boshqa hislar ham mana shunday ehtiyojlarga bog‘liq (ijobiy va salbiy) hislar jumlasidandir.

Odamga tarixan rivojlangan yuksak yoki ma’naviy ehtiyojlar xos bo‘lganligi sababli, bu ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lgan yuksak hislar – intellektual, ma’naviy, estetik va boshqa shu kabi hislar ham unga xosdir.

Yuksak hislar tufayli odamning tabiiy (biologik) hislari ham ma’naviy tus oladi desa bo‘ladi: bu hislar intellektual va axloqiy hislarni ham, estetik hislarni ham qisman o‘z ichiga oladi, hatto organik, biologik ehtiyojlar va jarayonlar sababli tug‘ilgan hissiyotlarni – ochlik va to‘yish hissi, sog‘liq, kasallik va charchash kabi hislarni ham odam ijtimoiy mavjudot sifatida, shaxs sifatida kechiradi.

Odamning boshqa organik ehtiyojlari singari ochlikni qondirishi uning ma’naviy va estetik hislari bilan chambarchas bog‘langandir.

Odamning tarixiy rivojlanish jarayonida uning hissiyotlari ham o‘zgaraveradi. Huzur qilish va ranjish, sevgi, g‘azab va nafrat, xursandlik va g‘amginlik singari hislar hamma odamlarga xos hislardir, albatta. Lekin shu hislarning kechishiga sabab bo‘ladigan narsalarning hammasi, shu hislar yo‘nalgan narsalarning hammasi odamning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Ishlab chiqarish usullari o‘zgaraverdi, odamlarning ishlab chiqarish munosabatlari o‘zgaraverdi, ularning qarashlari, ularning dunyoqarashi o‘zgaraverdi, ehtiyojlar o‘zgara va rivojlanaveradi, shular bilan birgalikda odamlarning hislari ham o‘zgaraveradi.

Ijtimoiy turmush sharoitida hissiyotlarga ijobiy hissiyotlar va salbiy hissiyotlar deb beriladigan baho ham o‘zgardi. Endi bundagi baholar faqat subyektiv shaxsiy jihatdan qarabgina berilmasdan, shu bilan birga obyektiv qiymatiga qarab ham beriladi.

6. Shaxsning oliy hislari

Odamning aqliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hislar **intellektual hislar** deb ataladi. Bilishga qiziqishlik taajjublanish va hayron qolish hislari, ishonch, ishonchsizlik va shubhalanish hislari intellektual hislar qatoriga kiradi. Bunday hissiyotlar har xil nazariy va amaliy savollar tug‘ilganida, vazifa va masalalarni hal qilish chog‘ida, kashfiyotlar, ixtirolar qilinayotgan chog‘da, biror yangilikni o‘zlashtirish va bilish chog‘ida paydo bo‘ladi va his qilinadi.

Intellektual hislarning ba’zi bir ayrim ko‘rinishlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Urinchoqlik. Bu hisning nomidan ko‘rinib turibdiki, bunday his odamning bilimlarga ijobiy munosabatida ifodalanadi. Biror sohada yoki turli sohalarda eng chuqur va aniq bilim olishga intilishdan iborat bo‘lgan bu his juda uzoq (ayrim odamlarda umrbod) davom etadi. Urinchoqlik bilishning turli yo‘llarini va vositalarini izlashga (maxsus adabiyotlarni

o‘qishga, radio va televideniye eshittirishlarini, ma’ruzalarni tinglashga, mutaxassislar bilan suhbatlashishga, tajribalar o‘tkazib turishga) hamda shu yo‘llar va vositalardan foydalanishga rag‘batlantiradi. Ayni vaqtda bu murakkab hislar olingan bilimlarning odamning o‘zi uchun va boshqalar uchun (jamiyat uchun) naqadar ahamiyati borligini ijobiy baholashga yordam beradi.

Bilishga qiziqish urinchoqlikning alohida bir turidir. Ba’zan bu ikki termin (urinchoqlik va bilishga qiziqish terminlari) hatto bir xil ma’noda ishlatiladi. Bilishga qiziqish ba’zan biror nimadan xabardor bo‘lishga kuchli intilish tariqasida va shuni bilib olgach, undan mamnun bo‘lish tariqasida namoyon bo‘ladi Lekin bunda (bilishga qiziqishda) mana shu intilish va mamnuniyat hissi ko‘pincha qisqa bo‘ladi, bevosita yaqin tevarak-atrofdagi hodisalar va voqealarni, odatda, odamning o‘zi qiziqayotgan hodisalarni ko‘pincha bevosita idrok qilib olishdan iboratdir: ko‘rib, eshitib, qo‘lda ushlab bilib olishdan iboratdir.

Bilishga qiziqish degan termini ba’zan salbiy ma’noda ishlatiladi, odamning bilimini kengaytirmaydigan, aksincha, uning pastkashligi, befahmligidan dalolat beradigan tarzda mayda-chuyda va arzimas narsalarni va hodisalarni bilishga intilish mana shunday salbiy ma’nodagi bilishga qiziqishning o‘zidir.

Bilishga qiziqaverish maktabgacha tarbiya yoshida bolalarga xos xususiyatlardir. Normal turmush sharoitida va o‘qitish jarayonida, yoshi ulg‘ayib, tajriba orta borgan sari, oqilona urinchoqlik rivoj topa boradi. Bu his odamning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan samarali shug‘ullanishini rag‘batlantiruvchi asosiy faktordir.

Taajjublanish hissi. Bunday his bizga qandaydir yangi, odatdan tashqari, noma’lum biror narsa ta’sir qilganida tug‘iladi. Biz kutmagan voqealar sodir bo‘lganida bunga taajjublanamiz. Bilish jarayonida taajjublanish hissi xursandlik tariqasida o‘tadi. Bu hol samarali bilish faoliyatining doimiy yo‘ldoshidir. «Voqealarni kuzatib borayotganimizda biz o‘zimizda tug‘ilgan hislardan mamnun bo‘lamiz, bu mamnuniyat esa intellektual xursandlikdir» (D. R. Dekart).

Kutilmagan bir narsa sababli tug‘ilgan taajjublanish bizni dastlabki qarashda kam uchraydigan va odatdan tashqari bo‘lib ko‘ringan narsalarni diqqat bilan ko‘zdan kechirishga majbur etadi. Shunday qilib, taajjublanish bizni hodisalarni bilishga g‘oyat darajada rag‘batlantiradi.

Hayron qolish hissi. Tadqiq qilinayotgan faktlarning sabablarini topishda qiynalib qolganimizda, bu faktlarni o‘zimizga shu damgacha ma’lum bo‘lib turgan hodisalar guruhiga kiritolmay qolganimizda, bog‘lanishlarning aniqlangan turlari qatoriga bu faktlarni kiritolmay

qolganimizda va shu kabi hollarda bizda hayron qolish yoki hayron bo‘lish hissi tug‘iladi. Bu his ham bilish faoliyatini yanada kuchaytirishga yo‘llovchi zo‘r vositadir.

Ishonch hissi. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar va munosabatlarning to‘g‘riligi tafakkur jarayonida aniqlanib, mantiqiy ravishda chiqarilgan xulosalar bilan va amaliyotning o‘zida yaqqol isbot bo‘lganida ishonch hissi tug‘iladi.

Shubhalanish hissi biz o‘zimiz chiqargan qoidalar yoki gipotezalar faktlarga yoki nazariyalarga zid bo‘lib, shular bilan to‘qnashib qolganida tug‘iladigan hissiyotdir. Bu juda muhim hissiyot, chunki to‘plangan faktlarni va biz aytgan qoidalarni har tomonlama tekshirib ko‘rishga rag‘batlantiradi. «Samarali ilmiy faoliyat uchun doimo shubha bilan qaramoq va o‘z-o‘zingni tekshirib turmoq zarur» (I. P. Pavlov).

Nazariy va amaliy vazifalarni hal qilish jarayonida odam **yangilik hissi** degan alohida ijobiy hisni kechadi. Bu his alohida xursandlik holatida o‘tadi va odamda g‘ayratni qo‘zg‘atib yuboradi. Hal qilinayotgan vazifa katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lganida, tamoyili xarakterdagi masalalar hal etilayotganida odamdagi bu his, ayniqsa, kuchli bo‘ladi.

Intellektual hissiyotlar odamning bilish faoliyati sababli paydo bo‘libgina qolmasdan, ular hamisha aqliy jarayonlar tarkibiga kiradilar va shu bilan birga bu hissiyotlar aqliy faoliyatni rag‘batlantirib turadi, kuchaytiradi, tafakkurning tezligiga, samaraliligiga, bilimlarning mazmunli va aniq bo‘lishiga ta’sir qiladi. Masalan, taajjublanish va bilishga qiziqish hislari odamni xilma-xil masalalarni hal etishga, tobora ko‘proq bilim olishga majbur qiladi. Shubhalanish hissi dalillar qidirishga, fikrlarimizni asoslash yo‘llarini topishga, tug‘ilgan masalalarga to‘g‘ri javoblar qidirishga majbur etadi.

Yangilik hissining ta’sirchanligi, ayniqsa, kuchli bo‘ladi. Bu his kishilarga – ilmiy tadqiqot institutlarida va laboratoriyalarda ishlayotgan kishilarga, shuningdek, dalalarda va fabrika, zavod sexlarida ishlayotgan kishilarga ham xos bo‘lib qoldi. Yangilik hissi yangi, ba’zan tag‘in ham murakkab muammolarni hal etish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatni davom ettirish istagini tug‘diradi, ko‘pincha bu istak zo‘r ehtiros bilan intilishni vujudga keltiradi.

7. Ma’naviy hislar

Odamlar o‘zlari yashab turgan jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy tamoyillarni ado etishlari yoki buzishlari sababli odamlarda paydo bo‘ladigan hislar ma’naviy yoki axloqiy hislar deb ataladi. Bu tamoyillar, shuningdek, odat qatoriga kirib qolgan axloqiy normalar va qoidalar

nimalarni «yaxshi» va «yomon», nimalarni «adolatli» va «adolatsiz», nimani «haq» va «nohaq» deb hisoblash kerakligini belgilab beradi.

Odamlarning axloqiy qoidalariga va qarashlariga muvofiq bo‘lgan harakatlari va qiliqlari ma’naviy, axloqiy harakatlar va qiliqlar deb hisoblanadi, shu axloqiy qoidalarga va qarashlarga to‘g‘ri kelmagan, shu qoidalar va qarashlarni buzadigan harakatlar esa axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan harakatlar yoki axloqsizlik deb hisoblanadi.

Ma’naviy hislar axloqiy ongning eng umumiy fundamental (asos) qismlaridandir. Ular jamiyatda mavjud axloqiy munosabatlar, tasavvur va qarashlarning muhim, ijtimoiy mohiyatli jihatlarini o‘zida aks ettiradi.

Axloq tushunchalarida elat, millat, jamiyat axloqining tarixi, bugungi holati va uning kelajak yo‘nalishlari ham o‘z ifodasini topadi. Axloq-odob qoidalari, urf-odatlar dunyoning turli xalqlarida turlicha bo‘lishiga qaramay, axloq tushunchalarini tushunishda umumiylik bor. Buning sababi shundaki, axloq tushunchalarida insoniyat axloqining mushtarak mohiyati, mag‘zi bo‘lgan insoniylik aks etadi. Shunga ko‘ra, axloq tushunchalarini umuminsoniy axloqiy qadriyatlar deyish mumkin. Ular jamiyat insoniyat kamoloti ehtiyojlarini ifodalab, jamiyatda real, mavjud axloqiy munosabatlar va tasavvurlardan yuqoriroq turadi va aynan shu xususiyat tufayli axloqiy ideal vazifasini bajaradi, har bir insonni, jamiyatni axloqiy yuksalishga undaydi.

Jamiyatning axloqiy yuksalishi insoniyatning manfaatlarini va ideallarini ifodalaydi.

Axloq voqelikning eng umumiy hodisalarini ifodalovchi ilmiy tushuncha hamdir. Chunki u obyektiv reallik, ijtimoiy bog‘liq ifodasidir. Axloq kategoriyalari mavjud ijtimoiy-tarixiy sharoit, insonlarning manfaat va ehtiyojlaridan ajralib qolsa, ular mavhum kuch, xayoliy orzu-istaklarga aylanib qoladi. (Masalan: adolat, burch, va h.k.) Amaliyot uchun, kundalik hayot uchun foydasi bo‘lmaydi. Axloqiy ongning axloqiy tushunchalari ham bo‘lib, ular kundalik hayotda kishilar xulqini baholash, boshqarishda ishlatiladi. Ularni axloqning «ishchi tushunchalari» deyish mumkin. Masalan: ehson, ezgulik, saxovat, sadoqat, hayo, vafo, oliyjanoblik va h.k. axloq kategoriyalari jamiyat axloqining eng yuksak, umumiy ifodasi bo‘lsa, axloqning «ishchi tushunchalari» kategoriyalarining mazmunini ochuvchi, aniqlashtiruvchi yo‘ldosh shakllardir. Masalan: yaxshilik kategoriya bo‘lsa, ehson, rahm-shafqat, saxiylik uning aniq ifodalari, ko‘rinishlaridir. Demak, axloq kategoriyalari – axloqiy ongning birlamchi tushunchalaridir. Axloq kategoriyalari – axloqiy ongning mujassam tushunchalaridir. Axloq talablarini bajarish kishilarning burchidir. Tashqi majburiyat yoki buyruq sababli bajariladigan vazifa emas, balki, avvalo har bir insonni jamiyat oldidagi va o‘zi oldidagi axloqiy mas’uliyat sababli bajarilishi lozim bo‘lgan vazifadir. Dilga jo

bo‘lgan ma’naviy e’tiqodlar ta’siri ostidagina qilinadigan harakatlar ma’naviy burchning oliy ko‘rinishidir, bunday holda mana shunday harakatlar qilish kishi uchun ma’naviy ehtiyoj bo‘lib qoladi.

Axloq tamoyillarini yoki ayrim qoidalarni bajarish yoki buzish odamlarda xilma-xil axloqiy hislar vujudga keltiradi. Odamning boshqa odamlarga munosabati, mehnatga munosabati, ayni vaqtda o‘z-o‘ziga ham munosabati ana shu hislarda ifodalanadi.

Kishining boshqa odamlarga munosabatini ifodalovchi hislar

Kishining boshqa odamlarga munosabatini ifodalaydigan hislar juda xilma-xildir. Kishining boshqa odamlarni yoqtirish yoki yoqtirmaslik hislari, ya’ni ijobiy yoki salbiy munosabati mana shu hislarning asosiy, boshlang‘ich bosqichidir (o‘ziga xos elementlaridir).

Ba’zan ayrim kishilarga **beparvo** munosabatda bo‘lindi, deb ham aytiladi. Haqiqatda esa bunda «beparvo» degan so‘z, ko‘pincha, yoqtirmaslik hislarining salkam ifodasidir.

Mana shu boshlang‘ich emotsional hislar asosida murakkab, sermazmun va kuchli hislar – jamoatchilik, o‘rtoqlik va do‘stlik hislari, muhabbat, rashk, yoqtirmaslik, nafrat hislari, insonparvarlik, vatanparvarlik hislari paydo bo‘ladi.

Insonparvarlik hissi kishilarning o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘layotgan asosiy ma’naviy hisdir. Bu his har bir mehnatkash kishining qadr-qimmatini izzat va hurmat qilishda ifodalanadi.

Har bir mehnatkash kishining turmushi va farovonligiga baho berishlar bilan bog‘liq bo‘lgan insonparvarlik hissi kishilarning butun dunyoda tinchlik uchun olib borayotgan kurashiga asoslanadi.

«Kishi – kishiga do‘st, o‘rtoq va birodar» degan yuksak axloqiy tamoyili, odamlarning bir-birlarini hurmatlash tamoyili hozir bizda hamma joyda turmushga singib bormoqda.

Jamoatchilik hissi

Kishilarning kechiradigan ma’naviy hislari nuqul individual tuyg‘ular, ya’ni kishilarning shaxsiy (o‘z) xatti-harakatiga bog‘liq bo‘lgan hislar bilangina cheklanib qolmaydi. Kishilardagi ma’naviy hislarning xususiyati shundan iboratki, boshqa kishilarning xatti-harakati axloqqa muvofiq bo‘lgan taqdirda, u xursand bo‘ladi, bu xatti-harakatlar axloqqa nomuvofiq bo‘lganda g‘azablanadi.

Bir kishi yuksak ma’naviy xatti-harakat qilganda shu jamoaning hamma a’zolaridagina emas, ko‘pincha, butun xalqda ham yuksak ma’naviy qoniqish va shodlik hislari tug‘iladi.

Kishilardagi jamoatchilik ularning boshqa odamlarda tug‘ilgan hislarni o‘zlaridek his qila bilish qobiliyatlarida ifodalanadi: kishi boshqa kishilarga xayrixoh bo‘ladi, boshqa kishilarning dushmanga g‘azabi, nafratiga sherik bo‘ladi. Shu sababli jamoa turmushda odamlar bir-birlariga xayrixoh bo‘lganlarida ularning xursandliklariga xursandlik qo‘shiladi, g‘am-g‘ussani birgalikda tortib, bu bilan ularning g‘amlari ham yengillashadi.

Mana shu xilma-xil hislar va ularning roli jamoada, oilada, maktab sinfida, muassasada, korxona va shu kabilarda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi.

Jamoatchilik hislari shu jamoa hayotidagi va faoliyatidagi umumiylikni anglashda o‘zaro mas’uliyatni his qilishda butun jamoaning va shu jamoadagi har bir a’zoning farovonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishda, shu jamoa oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish istagida ifodalanadi.

Jamoa va gumanizm hissi odamlarning o‘rtoqlik va do‘stlik singari o‘zaro munosabatlarida yana ham yorqinroq namoyon bo‘ladi.

O‘rtoqlik va do‘stlik hissi

O‘rtoqlik va do‘stlik hissi kishilar xayrixoh bo‘lib bir-birini hurmat qilishida ifodalanadi. Bu hislar odamlarning umumiy mehnat va o‘qish faoliyatidagi o‘zaro munosabatlarda tug‘iladi va namoyon bo‘ladi.

O‘rtoqlik va do‘stlik munosabatlari, odatda, kishining bolalik chog‘idan boshlanadi. Bolalar bir-birlariga o‘rtoqdirlar, chunki ular bir-birlari bilan bir xildagi o‘yinlarni o‘ynaydilar, bir xildagi vaziyatda birga bo‘ladilar va shu sababli ularda umumiy qiziqish tug‘iladi. Ular bir-birlarini ko‘rib va bir-birlarini eslab shodlanadilar.

Maktabda o‘quvchilar bir-birlariga o‘rtoqdirlar, chunki ular bir maktabda, bir sinfda o‘qiydilar, ular uchun o‘qituvchilar ham, darsliklar ham umumiydir. Maktab bolalarda o‘rtoqlik va do‘stlik hislarini tarbiyalash sohasida katta ish olib bormoqda, bolalarni bir-biriga, bir sinfda o‘qiydigan bolalarni boshqa sinfda o‘qiydigan bolalar bilan o‘rtoq, do‘st qilib tarbiyalamoqda.

Maktab o‘quvchilari bilimlarni egallamoq uchun birgalikda kurashadilar, bir-birlarining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari uchun shodlik va qayg‘urish hislarini birga kechiradilar, bir-birlariga o‘rtoqlarcha yordamlashadilar. Shu tariqa, ularda o‘rtoqlik va do‘stlik hissi mustahkamlanadi. Maktabda vujudga kelgan o‘rtoqlik hissi ko‘pincha umrbod saqlanib qoladi.

Bir korxonada, bir muassasada ishlayotgan kishilarda o‘rtoqlik hissi vujudga keladi. Hukumatimiz har qanday sharoitda ishlayotgan kishilariga o‘zaro munosabatlarida o‘rtoqlik va do‘stlik hislarini namoyon qilishlari uchun butun shart-sharoitni yaratib bergan.

Do‘stlik hislari ayrim kishilar o‘rtasidagi munosabatlar doirasida cheklanib qololmaydi.

Mamlakatimizdagi hamma xalqlar o‘rtasida bo‘lgan munosabatlar ham do‘stlik hislariga asoslangan. O‘rtoqlik va do‘stlik hislarining paydo bo‘lishiga, avvalo sabab shuki, kishilarning turmushga qarashlari birdir, ular milliy dunyoqarash ruhida tarbiyalanib kelmoqdalar, ularning ijtimoiy manfaatlari, istaklari ham birdir, ularning maqsadi mustaqillikni mustahkamlash, butun dunyoda tinchlik o‘rnatishdir.

Bundan, hamma jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘lgan odamlar orasidagina do‘stlik bo‘lishi mumkin, degan ma’no chiqmaydi. Qobiliyati turlicha bo‘lgan, turli kasbdagi, turli madaniy saviyadagi odamlar ham bir-birlariga do‘st bo‘lishlari mumkin. Lekin umumiy qarashlari, umumiy intilishlari bo‘lmagan kishilarning bir-birlari bilan do‘st bo‘lishlari mumkin emas.

Xalqlarimiz o‘rtasida o‘rtoqlik va do‘stlik hislari bir-birlarini muttasil qo‘llab-quvvatlashda, o‘z ishlarida bir-birlariga yordamlashib va ko‘maklashib turishlarida namoyon bo‘ladi. O‘rtoqlik, do‘stlik va mehr-muhabbat hislari g‘oyaviy umumiylik va ko‘pincha asosiy manfaatlarning umumiyligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga o‘rtoqlikka nisbatan do‘stlik yaxshiroq va mustahkamroq bo‘ladi. O‘rtoqlik, do‘stlikdagi g‘oyaviy umumiylikning natijasida kelishib va birgalashib ishlash qaror topadi, busiz ularning bo‘lishi mumkin emas.

O‘rtoqlik va do‘stlik hislari shu qadar kuchli va jozibadorki, yigit va qizlar ularni tushunishga, o‘z kechinmalarini, kishilarga munosabatlarini tushunib olishga intilmasdan qolmaydi.

Do‘stlik umumiy faoliyat, havas va intilishlar, e’tiqodlarda tarkib topadi. Do‘sting kimligi boshingga kulfat tushganida bilinadi, deb bejiz aytilmagan. O‘rtoqlik va do‘stlik ularning bir-birlari bilan qilayotgan muomalalaridagi o‘zaro samimiyatda, bir-birlarini tushunib, izzat-hurmat qilishlarida namoyon bo‘ladi.

Do‘st bilan uchrashib, gaplashib va suhbatlashib, u bilan bir qancha masalalarni bamaslahat hal qilib olish, boshingga biror baxtsizlik tushganda do‘stdan maslahat olish yoki uning xayrixohlik bildirishi, biror ish o‘ngidan kelganida do‘st bilan birlikda quvonish, zarur bo‘lib qolganida do‘stdan biror yordam olish, do‘stni biror muhim ishga tortish kishiga huzur va nash’a bag‘ishlaydi.

Bir-biriga chinakam do‘st bo‘lgan kishilar bir-biridan sir yashirmaydi. Ba’zan kishida o‘z ko‘nglini do‘stiga ochish, ko‘nglidagi hamma gaplarni unga birma-bir aytib berish ehtiyoji tug‘iladi. Do‘stlar bir-birlarini «tushunishga» qobil bo‘lganlaridagina ular bir-birlari bilan mana shunday dilkashlik qiladilar. Shu sababli, kishi o‘z do‘stiga o‘zining shubhalarini

va o‘zining qilib qo‘ygan xatolarini oshkora aytib beradi, chunki o‘zi nima demoqchi bo‘lganligini do‘sti tushunib, shunga yarasha maslahat berishini va yordamlashuvini biladi, garchi do‘st kishi boshqalarga qaraganda qattiqroq qoralasa ham, lekin shu xatolarni tuzatishga yordam beradi, seni qo‘llab-quvvatlaydi, mushkul ahvoldan qutulish yo‘llarini va vositalarini ko‘rsatib beradi. Do‘stlar o‘z do‘stlarining kamchiliklarini va xatolarini yashirmaydi, bu kamchiliklarni ko‘rsatib beradi, bu kamchiliklarga baho beradi, kishi o‘z do‘stining o‘sishiga yordam beradi, unda yaxshi, yangi sifatlar paydo bo‘lganligini ko‘rib quvonadi.

Dunyoqarashning birligi, ideallarning birligi, umumiy faoliyat, o‘zaro yordamlashish va bir-biriga bo‘layotgan munosabatlardagi samimiyat kuchli, mustahkam va barqaror o‘rtoqlik hamda do‘stlik hislarining negizidir.

O‘rtoqlik va do‘stlik hislarida faollik va amaliy natija berish xususiyati juda kuchli bo‘ladi. Bu hislar odamlarni birlashtiradi va ularni qahramonlik qilishga ruhlantiradi, odamning g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shadi, mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi.

O‘rtoqlik va do‘stlik turmushimizni sermazmun, yorqin va zavqli qiladi. Do‘stlik dunyoqarashimizning tashkil topishi va mustahkamlanishiga yordam beradi, hayotiy ideallarimizni amalga oshirishni yengillashtiradi, kishilarning eng yaxshi xislatlarini — insof, rostgo‘ylik hislarini, ish uchun umumiy javobgarlik hissini, har qanday yolg‘onga, munofiqlikka, ikki yuzlamalikka mutlaqo murosasiz bo‘lish hissini o‘stirishga yordam beradi.

Odamning mehnatga munosabatini ifodalovchi hislar

Mehnat yuksak ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat turidir. Bizning xalqimiz o‘z faoliyatini ijtimoiy burchini bajarilishini, o‘z vijdoniy burchini bajarish deb biladi. Shu sababli u har qanday ishni bajarishga o‘zining ma’naviy javobgarligini his qilib kirishadi.

Ma’lumki, mehnat — shaxs va jamiyatning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy mahsulotlarni yetishtirishga qaratilgan faoliyatdir. Mehnat qilish orqali inson ongi har tomonlama shakllanadi. Mehnat orqali voqelik o‘zgartiriladi, yangilik yaratiladi, ijod qilinadi. Tevarak-atrofdagi voqelik o‘zgartirib yuboradigan mehnat jarayonining o‘zi kishilarda ma’naviy mamnuniyat, xursandlik hissini paydo qiladi. Bu hislar esa kishining kuchiga-kuch, g‘ayratiga-g‘ayrat baxsh etadi.

O‘z burchini anglagan, o‘z Vatani, xalqi uchun jon kuydirib mehnat qiladigan kishilar odatda o‘z ishlarini bajarganlarida biror g‘arazli, xudbinlik maqsadlarini ko‘zlamaydilar. Jamiyat foydasiga bo‘ladigan ishlarni

bajarayotganlarida yuksak ma'naviy hislarga to'lib-toshadilar va shu tariqa turmush gashtini suradilar, buni o'zlari uchun baxt deb biladilar. Shu ma'naviy burch hissi pedagogik mehnat jarayonida ko'proq va xilma-xil namoyon bo'ladi. Shu narsa yaxshi ma'lumki, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash jarayonida muallimlar va tarbiyachilar hamisha ma'naviy mas'uliyat, tashvish, xursandlik va mamnuniyat his qiladilar. Ko'pchilik muallimlarimiz yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash borasidagi o'z ishlarini zo'r zavq-shavq va mamnuniyat bilan, o'zlarining ma'naviy burchlarini yaxshi anglab bajaradilar.

Maktabda o'qiyotgan har bir bola ham, har bir talaba ham o'z ma'naviy burchini va o'zining ijtimoiy vazifasini bajarayotganligini his qilib, mamnun bo'ladi.

Bajarilayotgan va bajarilgan ma'naviy burchni anglashning o'zi tetiklik va xursandlik hissini, o'z kuchlariga ishonch hissini, yuksak optimizm hissini tug'diradi. Kishilardagi optimizm real go'zal kelajak uchun xursandlik hissidir. Ma'naviy his mustaqil jamiyat ko'rayotgan, butun dunyoda tinchlik uchun kurashchi bo'lgan va bu bilan yuksak vazifani bajarayotgan fuqaroning shon va sharaf hissidir. Barcha ma'naviy hislar kabi, mehnat faoliyatida namoyon bo'layotgan hislar ham iroda bilan chambarchas bog'langan bo'lib, kishining ma'naviy xislatlarini belgilab beradi.

Ma'naviy burch hissi kishining boshqa odamlarga munosabatini ifodalaydigan boshqa emotsional hislarning ham doimiy tarkibiy qismidir, bu munosabat insonparvarlik hissida, o'rtoqlik va do'stlik hissida ifodalanadi.

Uyalish va vijdon hissi. Axloq normalarining buzilishi, axloqiy burchning, jamiyat oldidagi vazifalarning bajarilmay qolishi, berilgan biror va'daning ustidan chiqmaslik yoki jindak yolg'on gapirib qo'yish kishida, odatda, uyalish va vijdon azobi singari hislar tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Kishida uyalish hissi paydo bo'lganida u o'zida alohida o'ng'aysizlik, bezovtalik va yuzi shuvutlik sezadi. Uyalib xijolat tortayotgan kishi boshqa odamlar bilan uchrashganida (ba'zan yakka o'zi qolganida ham) uning axloqiy qoidalarni buzganligidan xabardor bo'lgan odamlarning ko'ziga tikilib qaray olmaydi, qizaradi.

Muayyan ijtimoiy muhitda yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblangan harakatlar va qiliqlarni qilib qo'ygan kishida uyalish, xijolat hissi paydo bo'ladi. Masalan, jamiyatda qaror topgan qoidalarni, turmushdagi odatlarni buzadigan xatti-harakatlar va qiliqlar kishini mana shunday uyaltiradi.

Kishi biron nojo'ya xatti-harakat va qiliqlarni qilmasdan oldin ham uyalishi mumkin, kishi biron nojo'ya ish qilishga qaror bergan zamonoq

va axloqqa xilof qilib qo‘yishi mumkinligini hatto xayoliga keltirganida ham uyalib, qizarishi mumkin. Bunda, albatta xayolning katta ahamiyati bor, chunki kishi o‘zi qilmoqchi bo‘lgan xatti-harakat va qiliqni hamda uning oqibatlarini, jumladan, tevarak-atrofdagi kishilarning bu qiliqni yomon ko‘z bilan qarab ta’na qilishlarini o‘z xayolida yorqin tasavvur qiladi. Bunday bolalarda uyalish hissi kishining ma’naviy sezgirligini kuchaytirishi va uni shunday axloqqa xilof ishlar qilishdan tiyishi mumkin.

Odamning ma’naviy sezgirligi vijdon hissida, ayniqsa, yorqin namoyon bo‘ladi. Vijdon hissi, vijdon «azobi» uyatning, kishi o‘zining nohaq ekanligini anglaganligining, o‘z niyati va qilayotgan nojo‘ya harakati uchun ayrim kishilar oldidagi, jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglaganligining eng kuchli ko‘rinishidir.

Kishi axloqiy qoidalarni buzganini boshqalar ko‘rmagan bo‘lsa ham, boshqa kishilar shu kishining axloqqa xilof biror nojo‘ya harakat qilgani haqida, hatto shubhalanmagan bo‘lsa ham, lekin shunday hollarda ham kishi vijdonan siqilib, hayajonlanib turadi.

Vijdon hissining barqarorligi, uzoq davom qilishi bu hisning o‘ziga xos xususiyatidir.

Odatda, kishi o‘zining axloqqa xilof ravishda qilib qo‘ygan nojo‘ya harakati keltirgan oqibatlarni tuzatmaguncha ko‘ngli sira tinchimaydi.

Vijdon azobi kishining yuragida chuqur ichki kurash hissini tug‘diradi. Kishining yomon bir ish qilib qo‘yganini, bu qilmishning unga munosib emasligini anglashi, bir tomondan, «vijdonini qiynaydi», «vijdon azobiga soladi», kishi «afsus yeb», pushaymon qiladi, ikkinchi tomondan, u axloq talablariga xilof ish qilish bilan odamlardan malomatga qolishini, ularda o‘ziga nisbatan salbiy hislar tug‘ilishini ham anglaydi.

Kishining o‘z qilmishlarining axloqiy tamoyillarga zid emasligini, balki haq va to‘g‘riligini anglashi, ya’ni «vijdoni pokligini» anglashi unda o‘zidan xursandlik hissini tug‘diradi.

Kishi axloqiy tamoyillar sig‘diradigan xatti-harakat qilayotganida o‘z irodasining kuchi bilan va shu irodani ishga solib, o‘zini axloqqa xilof ish qilishdan tiyadi, ko‘nglida tug‘ilgan yomonlik mayllarini bostiradi. Ana shunday hollarda kishining o‘zini bu tariqa tiyishi vijdoniga ham «ma’qul tushadi», kishida vijdoniy «tinchlanish» hissi, o‘z-o‘zidan mamnun bo‘lish hissi tug‘iladi.

Kishining biron yomon ish qilib qo‘yib vijdon azobiga tushishi va vijdon azobi kishiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatuvchi bir misol keltiramiz. IX sinf o‘quvchisi Holiqnazarova Fotima degan qiz «Tong yulduzi» gazetasiga o‘zi haqida quyidagilarni yozgan: «Men oltinchi sinfda

o‘qiyotgan vaqtimda algebradan juda qiynaldim. Nazorat ishi berilgan vaqtda bitta ham misolni yecha olmas edim, shu sababli ikki baho olmaslik uchun daftarimni o‘qituvchiga topshirmadim.

Men, o‘qituvchi bu daftarni o‘zim yo‘qotib qo‘ygandirman, deb o‘ylasa kerak, degan xayolda edim. Uyga qaytgandan keyin bu qilmishimni juda ko‘p o‘yladim. Boshimga og‘ir o‘ylar keldi. Dardimni birovga ayta olmasligim qilgan ishimning alamini tag‘in ham kuchaytirib yubordi, chunki mening bu ishimni hech kim ma’qullamasligini bilar edim. O‘qituvchini aldaganim uchun o‘zimdan-o‘zim uyaldim va o‘qituvchiga bu voqeani boshdan-oxir aytib bermagunimcha bu azobdan qutulmasligimni tushundim. O‘zimga har qancha og‘ir bo‘lsa ham, aybimga iqror bo‘ldim. O‘qituvchi garchi men bilan qattiq gaplashgan bo‘lsa ham, lekin, har holda, men yengil tortdim. Keyinchalik, algebra mening eng sevimli fanlarimdan biri bo‘lib qoldi.

Men shu narsani yaxshi tushunib oldimki, burch hissi, vijdoning nimani aytsa, turmushda hamisha shunday qilish kerak».

Vijdon – nima narsaning yaxshi va nima narsaning yomon ekanligini aytib, baho berib turadigan ichki «ovozdir». Shu «ovozning» mavjudligi kishi ijtimoiy-axloqiy normalarni o‘z talablari tariqasida, shaxsiy xatti-harakat normalari tariqasida his qilayotganligini ko‘rsatadi. Odamda uyalish va vijdon hissi bo‘lmasligi yoki susayib ketishi uni pastkash qilib qo‘yadi. Shu sababli, biron kishiga «sen vijdonsiz», «uyating ham yo‘q», «vijdoning ham yo‘q» deb aytish uning odamlik qadr-qimmatini yerga urish bo‘ladi, bu gap unga haqorat bo‘lib tushadi.

Agar kishi o‘z xatti-harakatida axloq tamoyillariga amal qilmasa, agar uning uyati ham, vijdoni ham yo‘q bo‘lsa, bunday kishi haqiqatan ham odamgarchiligi qolmagan kishi bo‘ladi.

8. Estetik hislar

Odamlar chiroyli narsani ko‘rganlarida, shu narsalarni tasavvur qilganlarida va ular to‘g‘risida fikr yuritganlarida ularda paydo bo‘ladigan ijobiy hislarni biz estetik hislar deb ataymiz.

Bizni qurshab olgan dunyo va undagi turmush xilma-xil namoyon bo‘ladi. Shu sababli, odamning estetik hislari mazmunining boyligi bilan farq qiladi.

Atrofimizdagi tabiat estetik hislarning birinchi va asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. Quyosh chiqishini va botishini kuzatayotgan, kechqurun, kechasi va tong saharda yulduzlar charaqlab turgan osmon go‘zalligini tomosha qilayotgan odamda estetik hislar paydo bo‘lib, u shularning hammasidan zavqlanadi. Odam o‘rmonlardagi yo‘llardan yoki shu o‘rmon

chekkasidan o‘tganda, uning ko‘z oldida bug‘doyzor va paxtazor dalalar, ko‘m-ko‘k maysazor o‘tloqlar va chamanzorlar jilva qilib turganida, atrofi daraxtzorlar va tepachalar bilan qurshalgan soylar, jarlar, ko‘llar va irmoqlarni ko‘rganida g‘oyat huzur qiladi (ya’ni unda haqiqatan estetik hislar paydo bo‘ladi). Qushlarning sayrashini va jonli tabiatning boshqa tovushlarini eshitganimizda zavqlanamiz. Bahor, yoz, kuz va qish fasllarida tabiat manzaralarining o‘zgarib, jilva qilib turishi estetik hislar tug‘diruvchi manbadir.

San’at, musiqa, rassomlik, poeziya va shu kabilar ham estetik hislar manbaidir. Odamning san’at asarlari yaratishdagi ijodiy faoliyatini, asosan, estetik ehtiyojlar rag‘batlantiradi. Bu faoliyat vaqtida ijodkor kishi chuqur estetik zavq oladi va o‘zi yaratgan san’at asarini maroq bilan huzur qilib, tomosha qiladi. San’at asarlari odamlarning ongiga, asosan, estetik hislar orqali ta’sir qiladi.

San’at asari ko‘rsatayotgan mana shu ta’sirning xususiyati shundaki, san’at asarlari idrok qilinayotganida voqelik odamlarning ongida shu voqelikni bevosita idrok qilingan vaqtdagiga qaraganda to‘liqroq va chuqurroq aks etadi.

Estetik hislar manbai bo‘lgan san’at asarlarini idrok qilishdagi yana bir xususiyat shuki, kishi bu asarlarni ko‘rib, huzur qilibgina qolmasdan, shu bilan birga, asarni mazmuniga qarab kishida ijtimoiy-ma’naviy va intellektual hislar ham tug‘iladi. Badiiy asarlar voqelikni haqqoniy va to‘g‘ri aks ettirgan taqdirdagina ularning badiiy estetik ta’sir ko‘rsatishi samarali bo‘ladi.

San’at asarlari o‘zining shunchaki shakli bilan, so‘zlar, tovushlar, bo‘yoqlar va shu kabilarni shunchaki majmui bilangina bizda estetik hislar vujudga keltira va o‘stiravermaydi. San’at asaridagi so‘zlar, tovushlar, bo‘yoqlarni o‘ziga xos (ya’ni badiiy) majmuidagi turmush va undagi kurash, olg‘a bo‘layotgan harakatlar, yaxshi kelajakka intilish aks etganligi tufayli bu asarlar odamlarda estetik hislar tug‘diradi. San’atda shaklni mazmunidan ajratib qo‘yish, san’atdagi formalizm, «san’at — san’at uchun» degan shior chinakam - estetik hislar tug‘dira olmaydi va bu narsa san’atning o‘zini inqirozga olib boradi.

Chinakam san’at turmushni to‘g‘ri bildiradi, zamonning eng o‘tkir va to‘lqinlantiruvchi savollariga javob beradi. Bunday san’at ilg‘or ideallarni xalq orasiga yoyadi, xalqqa xizmat qiladi, olg‘a borishga yordam beradi. San’at asari voqelikni nechog‘li chuqur va to‘la haqqoniy aks ettirsa, u odamlarda shu qadar ko‘p estetik zavq qo‘zg‘atadi, bu asar estetik hislarni manbai va estetik tarbiya vositalari sifatida shu qadar ko‘p qadrlanadi.

Estetik hislarning o‘ziga xos xususiyati shuki, bu hislar beg‘araz

hislardir. Bu xususiyat shundan iboratki, biror go‘zallikni, masalan, tabiat manzarasini, badiiy suratni, musiqa, konsertni bir vaqtning o‘zida nechog‘li ko‘p odam birga ko‘rsa (yoki suhbat chog‘ida eslasa) shu odam ularning har biri va birgalikda hammasi kuchliroq estetik zavq oladi. Mana shunday estetik kechinmalar chog‘ida ko‘pchilik odamlar o‘rtasida do‘stona suhbatlar boshlanib ketadi. Shu sababli estetik hislar ma’naviy hislar bilan chambarchas bog‘langandir.

O‘zbek xalqining san’ati – jahonda eng ilg‘or san’atlardan biridir. Jahondagi barcha mamlakatlarning ilg‘or kishilari uchun chinakam faol emotsional kechinmalar manbaidir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkentdagi me’morchilik san’atiga, binolardagi turli-tuman naqshlar, rangi ketmas chizmalarga, har bir binoning takrorlanmas san’atiga qoyil qolmagan kishilar bo‘lmasa kerak. Bizdagi kulolchilik, kashtachilik, zardo‘zlik, kishilarni hayratda qoldiradigan so‘zanalar, misgarlik buyumlari san’ati va ularni yuksak mahorat va did bilan, mehr kuchi bilan bajarilganligi – O‘zbekiston san’atini dunyoga tanitish manbai hisoblanadi. O‘zbek maqomchilik san’ati, milliy xalq qo‘shiqlari, bir-biridan go‘zal nozik ohang taratuvchi milliy musiqa asboblari kishilarimizni tinchlik, mustaqillik uchun kurashga ruhlantirmoqda.

Jahon madaniyatiga buyuk hissa qo‘shgan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug‘bek kabilarning ilmiy-falsafiy meroslari original mazmun va shaklga ega bo‘lgan Nizomiy, Umar Hayyom, Navoiy, Sa’diy, Bedil, Furqatlarning ijodlari jahondagi mamlakatlarga namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. Bular biz uchun, butun ilg‘or insoniyat uchun badiiy-estetik va ma’naviy taraqqiyot bosqichlari namunasidir.

Vatanparvarlikning o‘ziga xos xususiyatlari

Vatanparvarlik hissi – yuksak va murakkab hisdir. Bu his murakkab va xilma-xil hislarning: ma’naviy, intellektual, estetik hislarning sintezi (birlashmasi) dir. Bu hislar bir-biriga qo‘shilib, bitta hisga – Vatanga muhabbat, o‘z yurtiga muhabbat hissiga aylanadi.

Vatanparvarlik – umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikning asosiy tamoyillaridandir. Vatan – arabcha so‘z bo‘lib o‘zbek tilida «Ona yurt» degan ma’noni anglatadi. Vatanga muhabbat, yurtga muhabbat har bir millat kishisiga xos bo‘lgan muqaddas qadriyatdir. Vatanparvarlik har bir kishida o‘z uyiga, tug‘ilib o‘sgan yurtiga, ota-ona va opa-ukalariga bo‘lgan munosabatida aks etadi. Vatanparvarlik bu umuminsoniy qadriyatlarga xos bo‘lib, u sadoqat bilan xizmat qilish, uning sarhadlarini tashqi dushmanlardan, terrorizmdan himoya

qilish, uning mustaqilligi, tinchligi, osoyishtaligini saqlashda faol ishtirok etmoqdir.

Vatanparvarlik Vatanni his qilishda, Vatanga bo‘lgan tuyg‘usida ifodalanadi. Vatan tuyg‘usini o‘zida mujassam etgan kishigina jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashadi. Vatanparvarlik umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan sadoqatning negizi sifatida hayotimizni farovon, erkin qilish yo‘lida, yurtimiz uchun, xalqimiz uchun jon fido qilishga tayyor bo‘lgan yoshlarni voyaga yetkazishni talab qiladi.

Qadimgi yunon adiblaridan biri «Vatan sha’niga» asarida «mening bu gaplarim g‘oyat eski gaplar, lekin haqiqat shunday o‘z otasini hurmat qilmagan farzand o‘zganing otasini ham hurmat qila olmaydi, o‘z Vatanini sevmagan kishi o‘zga Vatanini qadrlay olmaydi», – deb yozgan edi.

Vatanparvarlik hissi yuksak hisdir, u ijtimoiy hisdir u odamlarni ahil, bir oila qilib birlashtiradi.

Vatanparvarlik manbaalari

Vatanparvarlik hislarining manbai xilma-xildir. Vatanparvarlik tuyg‘usi biz tug‘ilib o‘sgan yerga, biz «turmush lazzatini dastlab totigan», o‘sib ungan, o‘qib kamolga yetgan, ota-onalarimiz, yori-birodarlarimiz, qarindosh-urug‘larimiz, o‘rtoqlarimiz yashagan va ishlab turgan, xalqimiz yashab turgan yerlarning o‘ziyoq, ya’ni, mahalla, qishlog‘imiz, tuman, shahar, viloyat, vatanparvarlik hislarining manbalaridir.

Kishilar o‘z Vataniga nazar solib, uning bepoyon yerlarini, boyliklarini, go‘zalligini saxovatli xalqini tasavvur etganida, unda o‘z Vataniga qoyil qolish va unga mehr-muhabbat bilan qarash hislari, o‘z mamlakati uchun faxrlanish va uning ulug‘vorligidan xursand bo‘lish hislari beixtiyor paydo bo‘ladi.

Mamlakatimizning shonli o‘tmishi, uning tarixi, erkinlik va mustaqillik uchun olib borgan kurash tarixi vatanparvarlik manbaidir.

Shuningdek, jahon madaniyatiga buyuk hissa qo‘shgan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug‘beklarning jasorati-chi? Ibn Sino jahon tabobat ilmining muvaffaqiyatlariga osonlikcha erishmadi. U o‘sha zamonlarda din kuchli bo‘lgani uchun kasallik sirlarini yashirincha o‘rgandi, ya’ni yangi murdalarni kechasi qabrdan kovlab olib, sham yorig‘ida ularni tekshirib ko‘rdi. Ulug‘bek esa koinot sirlarini o‘rganishda ham kuchli qarshiliklarga duch keldi. Yoki A. Navoiy, Nizomiy, Umar Hayyom, Bobur, Furqatlar ham buyuk qahramonlik evaziga original mazmun va shaklga ega bo‘lgan asarlarni meros qoldirdilar. Bu tarixdagi qahramonlik, vatanparvarlik uchun manba rolini o‘ynaydi.

Vatanparvarlikning eng muhim belgilaridan biri qat'iylikdir. Bu inson xulqidagi o'z qarashlarini ongli va izchil himoya qilishdir. U insonni o'tkinchi narsalarga, tasodifiy ta'sirlarga, salbiy xislatlarga, qaysarlikka berilmaslikda, balki o'zining e'tiqodiga qat'iy amal qilishda namoyon bo'ladi. Qat'iylik, mardlik va rostgo'ylikka juda yaqin turadi. Faqat o'z ishining haqligiga ishongan kishigina qat'iyatlidir va u har qanday holatda ham o'zligicha qoladi, pastkashlik, razillik qilmaydi, sotqinlikka yuz tutmaydi.

Alisher Navoiyning fikricha, kishi qat'iyatli bo'lishi hamda maqsadga erishish imkoniyati oldida ikkilanmasligi, haqiqat uchun xormay kurashishi va uni dadil izlashi lozim. Navoiyning bosh qahramonlaridan biri Farhod xuddi mana shunday axloqiy fazilatlar sohibi edi. U faqatgina dono kishi sifatidagina dong taratib qolmasdan, balki yengib bo'lmas pahlavon bo'lib, qat'iy xarakterga ega edi va u haqiqat uchun sabot-matonat bilan kurashadi. Hisrav bilan Farhod o'rtasida bo'lib o'tgan savol-javobni eslash kifoyadir. Farhod Hisravning asiri bo'la turib, o'zining izzat-nafsini mardonavor himoya qilibgina qolmay, balki podshohning axloqiy qashshoqligini dadillik bilan fosh etdi. Insonni ko'p jafolarga duchor qiluvchi, uning kamolotiga to'sqinlik qiladigan salbiy xislatlar kishilarda vatanparvarlik hislarining shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Odamlarimizdagi yuksak ma'naviy xislatlar vatanparvarlikning manbaidir. Mamlakatimizda mustaqillik uchun kurash bizning eng yaqin istiqbolimizdir. Shu ideallarni tasavvur qilish va har birimiz mana shu burilishning qatnashchisi ekanligimizni anglash zo'r xursandlik hislarini tug'diradi. Vatanparvarlikdagi faollik uning eng muhim xususiyatidir. Vatanparvarlik passiv va ishda ko'rilmaydigan his emas, balki bu his amalda sinaladi.

Ba'zi bir kishilar Vatanimiz ravnaqi yo'lida uchraydigan qiyinchiliklar va kamchiliklar haqida gap borganda o'zlarini bilimdon qilib ko'rsatib «buni bunday qilish kerak, uni bu yo'l bilan emas, balki bu yo'l bilan hal qilish lozim, bunday qilsa bo'lmaydi» – deb turli yo'llarni ko'rsatadilar-u, ammo o'zlari uni sidqidildan bajarishga kirishmaydilar, bu ishlardan o'zlarini doimo chetga tortib yuradilar. Go'yo ular bilimdon-u, ulkan yumushlarni bajarishga kirishgan shaxslar, faol harakat qilayotgan kishilar bilimsiz, uquvsizdek bo'lib qoladi. Yo'q, bunday iztirobdan sira foyda yo'q. Hamma Vatan istiqboli yo'lida qo'ldan kelganicha harakat qilmog'i kerak.

Xalqimiz vatanparvarlik hissi qudratli, hayotbaxsh kuchga egadir. Bu his kishilarga hamma qiyinchiliklarni va to'siqlarni o'z yo'llaridan olib tashlab, muttasil olg'a borish uchun kuch va g'ayrat bag'ishlaydi.

Vatanparvarlikdagi faollik kishilarni ma'naviy jihatdan boyitadi va oliyjanob tuyg'ularga to'ldiradi, undagi butun ijodiy kuchlarni safarbar qiladi.

9. Hislarning individual xususiyatlari

Emotsional kechinmalar va holatlarning hamma turlari har bir kishiga xosdir. Lekin ayni vaqtda har bir kishining emotsional hayoti o'ziga xos xususiyatga ega.

Avvalo, turli kishilarda hissiyotlar o'zining tezligi, kuchli bo'lishi va barqarorligi jihatidan bir xilda o'tmaydi. Shunday odamlar borki, ularda hislar sekinlik bilan tug'iladi, o'rtacha kuch bilan o'tadi va barqaror bo'ladi. Bular «bir maromdagi», «osoyishta odamlar». Shunday odamlar borki, ularda hislar tez paydo bo'ladi, kuchli ravishda o'tadi va barqaror bo'lmaydi. Bular «serharakat», «qizg'in», «jizzaki» odamlardir. Ba'zi odamlarda faqat biror favqulodda voqealar natijasidagina, ochiq ifodalangan hislar tug'ilishi, aksincha, ba'zi odamlarda arzimagan bir narsa kuchli emotsiyalar vujudga keltirishi mumkin. Bunday kishilarda shok va affektlar holati tez paydo bo'ladi.

Emotsional jihatdan odamlar yana shu narsa bilan farq qiladilarki, ular mazmuni turlicha bo'lgan har xil hissiyotlarga bir xilda berilavermaydilar. Organik emotsiyalarga ko'proq beriladigan odamlar ham bo'ladi. Bunday odamlarning hayotida ovqatlanish bilan, o'zlarining sihat-salomatliklari, dam olishlari va shu kabilar bilan bog'langan va kechinmalar eng ko'p o'rinni oladi. Ular o'z xislatlarini qondirib, huzur qilishni hayotning zavqi deb biladilar. Shunday kishilar borki, ularning hayotida intellektual (aqliy) hissiyotlar eng ko'p o'rinni oladi. Ular hayot zavqini tadqiqotlar bilan shug'ullanishdan, yangilikni bilishdan, ilm-fan bilan shug'ullanishdan iborat deb biladilar va shunday ishlar bilan shug'ullanib huzur qiladilar. Shunday kishilar borki, ularning hayotida ijtimoiy, estetik emotsiyalar, o'zlarini saqlashga intilish, o'zlariga baho berish hislari birinchi o'rinda turadi.

Odamlar emotsional jihatdan yana shu bilan ham farq qiladilarki, ba'zi bir kishilar ijobiy emotsiyalarga – xursandlikka, o'yin-kulgiga ko'proq moyil bo'ladilar, oq ko'ngil bo'ladilar, ba'zi kishilar salbiy emotsiyalarga – g'azablanish, qo'rqish, vahima, ma'yuslik, g'amginlik hislariga ko'proq moyil bo'ladilar.

Har bir kishida o'ziga xos u yoki bu xil kayfiyat bo'ladi. Biz odamlarni quvnoq kayfiyatli kishilar deb, g'amgin kishilar deb, jahldor kishilar deb yoki ma'yus kishilar deb farq qilamiz va hokazo.

Emotsiyalar sohasidagi mana shu individual xususiyatlarning hammasi qisman organik sabablarga (asosan, nerv sistemasining holati va faoliyatidagi xususiyatlarga) bog'liq bo'ladi, lekin ko'p jihatdan odam

yashab, o‘sayotgan muhitga va qay holda tarbiyalanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Kishilarimiz quvnoq mehnat sharoitida yashaydilar.

Shuning uchun ham quvnoqlikka, ruhlanishga, ulfatchilikka, o‘rtoqlikka, do‘stlikka hamda boshqa yuksak ijtimoiy va ma’naviy emotsiyalarga moyillik vujudga keladi. Mamlakatimizning hayoti va ijtimoiy mehnatda faol qatnashish, Vatanga cheksiz mehr, Vatanni dushmanlardan himoya qilishda fidokorlik hislarini vujudga keltirdi.

Emotsiyalar va hissiyotlar sohasidagi mana shu individual xususiyatlarning hammasi odam mijozining, xarakterining belgilaridir va odamning nimalarga qiziqayotganligini ko‘rsatuvchi belgilardir.

II BOB. IRODA PSIXOLOGIYASI

1. IRODA HAQIDA TUSHUNCHA

Iroda – kishi ongining shunday bir sohasidirki, bu orqali u o‘z ishiga faol kirishadi va uni amalga oshiradi. Iroda tufayli kishi o‘z shaxsiy tashabbusi bilan ongli zaruriyatdan kelib chiqqan holda, oldindan rejaga solingan yo‘nalishda va oldindan nazarda tutilgan kuch-g‘ayrat bilan tegishli ish-harakatni bajarishi mumkin. Shuningdek, odam o‘z psixik faoliyatini maqsadga muvofiq uyushtirishi hamda uni muayyan bir mazmunga yo‘naltirishi mumkin. Iroda odam xatti-harakatiga bir tomondan yo‘nalishga solsa, ikkinchi tomondan mavjud vazifa va talablardan kelib chiqqan holda kishining psixik faoliyatini uyushtiradi. U shaxs faoliyati mazmuniga ta’sir qiladi.

Psixik jarayonlarning va shaxsning eng muhim tomoni ularning faolligidir. Bu faollik ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo‘lishi mumkin.

Ixtiyorsiz harakatlar u yoki bu hollarda kishida oldindan belgilanmagan biron maqsadsiz voqea bo‘ladi; bunday harakatlar biron-bir tashqi sabablar tufayli paydo bo‘ladi. Ixtiyorsiz harakatda ongli ravishda zo‘r berish bo‘lmaydi.

Ixtiyoriy yoki irodaviy harakat oldindan qo‘yilgan maqsad asosida, bizning xohishimiz bilan bo‘ladigan faollikdir. Bu harakat bizning «o‘zimiz» bilan bog‘liqdir va u ongli ravishda zo‘r berishimiz natijasida sodir bo‘ladi.

Psixikaning faolligi ish-harakatlarda juda yaqqol sodir bo‘ladi. Ish-harakatlar ham ixtiyorsiz va ixtiyoriy (irodaviy) bo‘ladi. Biz iroda haqida gapirar ekanmiz, faoliyatimizda sodir bo‘ladigan ongli harakatni ko‘zda tutamiz.

Irodaviy harakatlar deganda faqat jismoniy (ya’ni muskullar bilan bog‘liq bo‘lgan) harakatlarnigina emas, balki shuning bilan birga axloqiy

harakatlarni ham tushunish lozim. Aqliy ishlar jarayonida odam ko‘pincha qiyinchiliklarga duch kelib qoladi. Bunday hollarda irodaviy zo‘r berishga to‘g‘ri keladi. Lekin shunga qaramay, iroda haqida gapirganimizda, asosan odamning tashqi harakatlarida namoyon bo‘ladigan ongli faolligini nazarda tutamiz.

Shunday qilib, *iroda, kishining shunday faolligidirki, bunday faollik oldindan biror maqsad qo‘yib va shu maqsadga erishish vositalarini oldindan belgilab, ongli ravishda zo‘r berish natijasida voqe bo‘ladi.*

Irodaviy harakatlar deyarli hamma vaqt ixtiyorsiz faollik bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘ladi.

Reflektor harakatlar, masalan, yo‘talish, chuchkurish, ko‘z pirpiratish, qo‘lga bexosdan nina qadalganda yoki qo‘l sinib qolganda qo‘lni siltab tortib olish ixtiyorsiz harakatlar jumlasidandir. Bunday harakatlarning nerv-fiziologik asosi shartsiz reflekslardir.

Impulsiv harakatlar ham reflektor harakatlar jumlasiga kiradi. Bunday harakatlar organizmda yig‘ilib qolgan nerv quvvatining bo‘shalib ketishi tufayli yuzaga keladi. Impulsiv harakatlar go‘yo portlashga o‘xshagan harakatlardir. Sof holda uchraydigan impulsiv harakatlar bolalarga xos bo‘ladi.

Instinktiv harakatlar murakkab ixtiyorsiz harakatlardandir. Bunday harakatlarning nerv-fiziologik asosi bir-biri bilan ulanib ketgan qator shartsiz reflekslardir.

Ixtiyorsiz harakatlarning maxsus turi *avtomatlashgan* harakatlar, ya’ni malaka va odatlardir. Bunday avtomatlashgan harakatlar odamning amaliy hayoti davomida hosil qiladi. Malaka va odatlarning nerv-fiziologik asosida shartli reflekslar yotadi.

Ixtiyorsiz harakatlarga kishining hissiy (emotsional) kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlar ham kiradi.

Kishining hissiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan (emotsional) harakatlari turli (instinktiv) va odatlanib qolgan harakatlarida namoyon bo‘ladi. Emotsional harakatlarning nerv-fiziologik mexanizmlari shartsiz va shartli reflekslardir.

Ixtiyorsiz harakatlarning xususiyati shundan iboratki, odatda bunday harakatlar ongsiz ravishda voqe bo‘ladi. Ammo ixtiyorsiz harakatlarning ko‘pchiligini kishi ma’lum darajada o‘sha ish-harakatlar voqe bo‘lgan paytda va ayniqsa ular bo‘lib o‘tgandan keyin *bilib-anglab* oladi. Bunday anglash ixtiyorsiz qilingan harakatlarning zarurligi, foydaliligi va axloqiyligi jihatidan baho berish tufayli qanoat hosil qilish yoki norozi bo‘lishda ifodalanadi. Aqliy va axloqiy taraqqiyot darajasiga qarab, kishi xuddi ixtiyoriy harakatlar singari bu harakatlarni ham o‘zi ma’qullaydi yoki qoralaydi.

2. Irodaviy harakatlarning nerv-fiziologik asoslari

Odamning turli xildagi faoliyatlarida namoyon bo‘ladigan u yoki bu irodaviy faollik dastavval nerv sistemasining holatiga va irodaviy harakatlarni amalga oshiradigan nerv-fiziologik mexanizmlarining ishiga bog‘liqdir.

«Odatda, ixtiyoriy deb ataladigan barcha ongli harakatlar, – deydi Sechenov, – o‘z mohiyati jihatidan aks ettirilgan harakatlardir». Bu degan so‘z «barcha insoniy harakatlarning dastlabki sababi odamdan tashqarida, ya’ni tashqi muhitga bog‘liqdir» (Избранные философские и психологические произведения. Госполиздат, 1947, стр 148, 174).

Irodaviy harakatlarning nerv-fiziologik asosida shartli reflekslar yotadi. I. P. Pavlov ta’limotiga ko‘ra, irodaviy harakatlarning hamma mexanizmi yuksak nerv faoliyatining butun qonunlariga bo‘ysunuvchi shartli bog‘lanishlardan, ya’ni assotsiativ jarayonlardan iboratdir. Irodaviy harakatlar mexanizmlarida, asosiy rolni kinestezik qo‘zg‘atuvchilar tufayli, ya’ni muskullar harakati tufayli yuzaga keladigan maxsus shartli reflekslar o‘ynaydi. Kinestezik hujayra va harakat analizatori turli-tuman qo‘zg‘atuvchilar bilan muvaqqat aloqa bog‘lay olishligi I. P. Pavlov hamda uning hamkorlari tomonidan o‘tkazilgan maxsus tajribalarda isbotlab berilgan.

Irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida optimal qo‘zg‘alish manbaining faoliyati bilan bog‘liqdirlar: «... Mening tasavvurimcha, ong, – deydi I. P. Pavlov, – ayni shu chog‘da, xuddi shu sharoitning o‘zida ma’lum darajada optimal (har holda, o‘rtacha bo‘lsa kerak) qo‘zg‘alishga ega bo‘lgan katta miya yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat. Ana shu momentda katta miya yarim sharlarining qolgan hamma qismlari birmuncha bo‘shroq qo‘zg‘alish holatida bo‘ladi» (O‘sha kitob, 247-b.).

Irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signal sistemasining faoliyati bilan bog‘liqdirlar. Xususan, ichki nutqqa tegishli so‘zlar kerakli harakatlarni yuzaga keltiruvchi va boshqaruvchi signal hisoblanadilar. I. P. Pavlov fikricha, ikkinchi signal sistemasi odam xulqi va xatti-harakatlarining oliy regulatori, ya’ni boshqaruvchisidir.

Ikkinchi signal sistemasining mexanizmlari birinchi signal sistemasining signallariga va ixtiyorsiz harakatlarning miya po‘sti ostki markazlariga bularning ishlarini tartibga solish yuzasidan ta’sir etib turadi.

Nerv sistemasining kuchsizlanishi irodaning zaiflanishi va inson faol faoliyatining susayishiga asos bo‘ladi. Bunday sustlik holati xususan toliqish paytida yorqin namoyon bo‘ladi.

Har qanday faoliyatning o‘ziga tegishli ravishda va asosan mehnat faoliyatida quvvat sarflanadi. Odam qanchalik o‘ziga zo‘r bersa, quvvatning sarflanishi ham shunchalik tezlashadi. Bunda quvvat sarflanishi bilan ayni bir vaqtda u tiklanib ham boriladi. Biroq, ma’lum bo‘lishicha, quvvatning tiklanishi sarflanishiga qaraganda, sekinroq borar ekan.

Shuning uchun odam ishning u yoki bu bosqichida kuchi yetmayotganligini, toliqishni yoki, boshqacha qilib aytganda, charchaganligini seza boshlaydi. Mehnatning ikki asosiy (jismoniy va aqliy) turiga muvofiq ravishda ikki xil toliqish, ya’ni jismoniy va psixik toliqish farqlanadi.

Jismoniy toliqishning asosiy belgisi muskullar ishchanligining susayishidir. Masalan, jismoniy toliqish, jumladan, muskul kuchlarining zaiflanishi, harakatlarning sekinlashishi, harakatlar miqdorining kamayishi, ishdagi jadallikning sekinlashuvi, harakatlardagi aniqlikni, moslikni, tekislikni va bularni boshqarishning buzilishi bilan harakatlanadi. Jismoniy toliqish odam butun organizmining madorsizlanish holati bilan xarakterlanadi.

Psixik jihatdan toliqish aqliy faoliyat unumdorligining pasayishi, ya’ni diqqat va xotiraning kuchsizlanishi, biron narsaga e’tibor berishning qiyinlashuvi hamda tafakkur va nutq faoliyatining sekinlashuvi bilan xarakterlanadi.

Toliqishning ana shu yuqorida ko‘rsatilgan psixik alomatlari ko‘p jihatdan jismoniy toliqishda ham namoyon bo‘ladilar: jismoniy toliqishda ham diqqat va xotira kuchsizlanadi, tafakkur va nutq faoliyati sekinlashadi, boshqa tomondan olganda, psixik jihatdan toliqish ham xuddi jismoniy toliqishdagi kabi, odam butun organizmining madorsizlanish holati bilan xarakterlanadi.

Bu ikki turli toliqish o‘rtasidagi umumiylikni shuning bilan tushuntirish mumkinki, jismoniy toliqishning ham, psixik toliqishning ham asosida bir xil nerv-fiziologik mexanizm yotadi. I. P. Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta’limotiga muvofiq, toliqishning yuzaga kelishi bosh miyaning po‘sti qismida mudofaa qiluvchi (saqlovchi) tormozlanishning paydo bo‘lishidir. Tormozlanishning bu turi nerv markazlarining ishlash faoliyatidan to‘xtashi va bosh miya po‘sti qismidagi nerv hujayralarining tamomila darmonsizlanishlaridan saqlab qolish bilan ifodalanadi.

Nerv sistemasining kasalligi irodani haddan tashqari susaytirib yuboradi. Bunday holatni **abuliya** deb ataladi. Abuliya holatidagi kishi juda chanqab turgan bo‘lsa ham, o‘z oldida turgan stakandagi suvni olib ichishga o‘zini majbur qilolmaydi.

Ayrim harakat nerv hujayralari falaj bo‘lgan taqdirda shu hujayralar

bilan bog‘liq bo‘lgan organlarni hech qanday iroda kuchi bilan ishga solib bo‘lmaydi.

Shuning uchun nerv va muskul sistemasini mustahkamlaydigan hamma narsa ayni chog‘da kishi irodasini mustahkamlashga ham yordam beradi. Shu sababli, jismoniy tarbiya irodani mustahkamlashda ijobiy ahamiyatga ega. Katta qarshiliklarni yengish hamda qiyinchiliklar bilan kurashish uchun faqat xohish va qarorga kelishgina ahamiyatli bo‘lib qolmay, balki sog‘lomlik, mustahkam nerv va mustahkam muskullar ham katta ahamiyatga ega.

3. Irodaviy harakatlarning asosiy bosqichlari (yoki fazalari)

Irodaviy harakatlar, ixtiyorsiz ish-harakatlardan farqliroq ongli ravishda qilinadi. Bu holda ongning faoliyati harakat maqsadini belgilashda, bu maqsadga erishish vositalari va yo‘l-yo‘riqlarini oldindan belgilashda, ma’lum bir qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo‘ladi.

Harakat maqsadini belgilash

Irodaviy jarayon va irodaviy harakatning dastlabki momenti maqsad qo‘yishdan iboratdir. Maqsad deganda biz odam nima qilishi kerakligini, nimaga erishishi kerakligi va qanday qiyinchiliklarni yengishi lozimligini anglashni tushunamiz.

Nima qilish kerakligini anglash va maqsad qilib qo‘yish bajariladigan ish-harakatlaridan kelib chiqadigan natijalarni o‘ylash va tasavvur qilish bilan muayyan darajada bog‘liq bo‘ladi. Qilinadigan harakatning aniq maqsadi hamma vaqt shu maqsadga erishtiruvchi vositalar va yo‘l-yo‘riqlarni tasavvur etish bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Biror narsani maqsad qilib qo‘yish ma’lum sabablar, muayyan faktorlar va inson ayni shu chog‘da idrok qilayotgan sharoitning o‘zi bilan belgilanadi. Masalan, odam ba’zan qiyin ahvolga tushib qoladi va u bu ahvoldan qandaydir yo‘l bilan chiqib ketishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. U xalaqit qilayotgan narsalarni yo‘qotib, sharoitni o‘zgartiradi va yangi sharoit yaratadi.

Maqsad qilib qo‘yish shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlar nuqtayi nazaridan muayyan bir harakatlarni bajarish zaruriyati bilan belgilanadi. Masalan, davlat chegaralarini qo‘riqlashda qo‘yiladigan maqsadlar.

Maqsad qilib qo‘yish va shu maqsad asosida harakat qilish odamning mehnati, kasbi bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalari bilan belgilanadi. Odamning jamiyatda va jamoada tutgan o‘rni uning o‘z oldiga muay-

yan bir narsani maqsad qilib qo‘yishini belgilaydigan muhim faktorlardandir.

Ayrim odamlar tomonidan qilinadigan harakatlarning maqsadi, ko‘pincha boshqa odamlarning biror maslahati, iltimosi, buyrug‘i va shuning kabilar ta’siri bilan belgilanadi. Xuddi shuning singari, maqsadga erishtiruvchi vosita va yo‘riqlar ham, ko‘pincha, tashqaridan (maslahat, iltimos buyruq tariqasida) ko‘rsatiladi.

Nima qilish kerakligini anglash va maqsad qilib qo‘yish ko‘pchilik hollarda, odamning biologik va ruhiy ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Ehtiyojlarning faol tomoni intilishlarda ko‘rinadi. Intilish ehtiyojni qondira oladigan narsaga, shu ehtiyojni qondirish uchun qidirib topish yoki yangidan yaratish, o‘zgartirish va hokazo lozim bo‘lgan narsaga qaratilgan bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, intilishlar hissiyotlarning muhim elementlaridandir.

Intilishlar turli darajada anglanishi mumkin. Intilishlarni anglash darajasi kishi ehtiyojining kuchiga, hayotiy tajribasi va bilimlariga hamda uning tafakkuri va xayolining taraqqiyotiga bog‘liqdir. Anglash darajasiga ko‘ra, odatda, intilishlarning quyidagi turlari yoki fazalari bo‘ladi: istak, tilak va xohish.

Istak – intilishning shunday bir turidirki, bunda kishi faqatgina o‘zining hozirgi holatidan norozi ekanini his qilib tursa ham, lekin qanday maqsadga intilayotganini binobarin, bu maqsadga erishishning yo‘l-yo‘riqlarini aniq bilmaydi. Istak shunday bir holatdirki, bunda kishi o‘ziga allanima kerakligini, allanima yetishmayotganini his qilib turadi-yu, ammo bu narsaning nima ekanligini aniqlab ololmaydi, ya’ni tasavvur qila olmaydi, fahmiga yetmaydi. Bunday hollarda «U nima istayotganini o‘zi ham bilmaydi» deyishadi.

Istak paytida kishi qanday maqsadga intilayotganini, bu maqsadni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini anglab yetmas ekan, demak, istakni bevosita amalga oshirib yuborish mumkin emas.

Tilak-havas intilishning shunday bir turidirki, bunda kishi faqatgina qanday maqsadga intilayotganligini biladi, lekin bu maqsadga erishish yo‘llarini aniq bilmaydi. Bunday tilak ba’zan zo‘r xayol surish bilan, ba’zan esa «cheksiz» orzu bilan bog‘liq bo‘ladi.

Xohish – to‘la anglangan intilishdir. Bunda faqat intilishning maqsadi va bu maqsadni amalga oshirish vositalarigina emas, balki maqsadni amalga oshirish imkoniyati, ma’lum bir maqsadda harakat qilishga tayyor va qilinadigan harakatlardan kelib chiqadigan natijalar ham anglashiladi.

Agar odam o‘z oldiga yangi maqsad va yangi vazifalar qo‘ysa-yu, lekin bu maqsad va vazifalarni amalga oshirish vositalari hali tajribada

sinab ko‘rilmagan bo‘lsa, asosan, ana shunday hollarda irodaviy jarayonlar murakkablashadi. Shuning uchun oddiy harakatlarga qaraganda, murakkab irodaviy harakatlar vaqt jihatidan davomliroq bo‘ladi.

Maqsad va vositalarni belgilash

Kishida ayni bir vaqtning o‘zida bir necha tilak va istaklar tug‘ilishi mumkin, chunki kishining ehtiyojlari juda ham xilma-xildir. Masalan, kishi kechqurun bo‘sh bo‘lgan paytida teatrga yoki biror do‘stining oldiga borishni xohlashi mumkin. Bundan tashqari, ayni bir istak, ayni bir maqsadga erishish yo‘li va erishish vositasi turlicha bo‘la olishini tasavvur etish istak va maqsadga erishmoq uchun qilingan ish-harakatlardan chiqadigan turli xil natijalarni oldindan tasavvur etish mumkin.

Bir necha maqsad yoki ularga olib boruvchi bir necha yo‘l bo‘lgan taqdirda, bulardan muayyan bir maqsadni hamda shu maqsadga olib boradigan ma’lum bir yo‘lni tanlab olish lozim bo‘ladi.

Biron maqsad va unga erishish yo‘llarini tanlaganda har bir kishi ma’lum darajada o‘z dunyoqarashiga, axloqiy prinsiplariga, estetik didlariga, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlariga asoslanadi.

Biron maqsad va uni amalga oshirish yo‘llarini tanlash ba’zi paytda har xil kuch va har xil jozibaga ega bo‘lgan bir qancha motivlar qatnashishi tufayli ichki kurash xarakterini kasb qiladi. Mana shuning uchun ham bu jarayon **motivlar kurashi** nomi bilan yuritiladi.

Motivlar kurashi jarayonida motivlardan ba’zi birlarining anchagina asosliligi, boshqalarning esa bir qadar asossizligi ma’lum bo‘ladi ba’zi bir motivlar kuchliroq tuyg‘ular bilan, boshqalari esa kuchsizroq tuyg‘ular bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ko‘pincha motivlar kurashi tafakkur (aql) bilan hissiyotning o‘rtasidagi kurashdan iborat bo‘ladi; odam ba’zan go‘yo ikkiga bo‘linib ketadi; «Aql uni deydi, hissiyot (ko‘ngil) buni deydi».

Biron maqsad yoki biron maqsadga olib boruvchi yo‘llar aqlga muvofiq kelsa-yu, lekin kishida noxush hissiyotlar tug‘dirsa va, aksincha, biron maqsad yoqimli hislar tug‘dirsa-yu, lekin aqlga muvofiq kelmasa, ana shunday bo‘ladi.

Motivlar kurashi ba’zan turli hissiyotlar o‘rtasidagi kurash tarzida, masalan, burch hissi bilan qandaydir uning qarama-qarshisi bo‘lgan boshqa shaxsiy hissiyot tarzida sodir bo‘ladi.

Bu motivlar, ko‘pincha, bir-birlariga teskari ta’sir etishlari tufayli biron qarorga kelish va bu qarorni bajarishga to‘sqinlik qilib, irodaviy jarayonini sekinlashtiradilar. Motivlar o‘rtasidagi ana shunday kurash odamda *ichki* ***ixtilof*** holatini yuzaga keltiradi.

Albatta, shunday holat odamda g‘oyat ko‘ngilsiz, og‘ir tuyg‘u sifatida o‘tadi. Agarda odamning dunyoga hamda turmushga bo‘lgan qarashlari aniq bo‘lsa, shuning bilan birga u o‘zining xatti-harakatlarida axloq tamoyillariga asoslansa va uning shaxsiy motivlari ijtimoiy manfaatlar bilan qo‘shilib ketsa, ana shunday ko‘ngilsiz, og‘ir holatning oldini olishi yoki batamom qutulishi (yo‘qotib yuborishi) mumkin.

Qarorga kelish

Motivlar kurashi bilan bog‘liq bo‘lgan biron maqsadni amalga oshirish yo‘llarini tanlash jarayoni qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish – ma’lum bir maqsad va bu maqsadni amalga oshirishning biron usuli yoki ma’lum yo‘llari haqida to‘xtash demakdir. Bu esa motivlardan biri hal qiluvchi rol o‘ynaydi, demakdir. Masalan, kechqurun qayerga borish kerak: teatrgami yoki do‘stimning oldigami degan fikrdagi motivlar kurashi natijasida kishi do‘stining oldiga borishga qaror qiladi. Kasb tanlash tufayli paydo bo‘lgan motivlar kurash natijasida bir o‘smir traktorchi bo‘lishga qaror qilsa, boshqasi pedagogika institutiga kirishga qaror qiladi.

Ba’zi hollarda kishi qabul qilinadigan qarorning amalga oshirish imkoniyatlariga ishongan holda juda tez ma’lum bir qarorga keladi. Buni biz ***qat’iyat*** deb ataymiz.

Boshqa bir hollarda esa, motivlar kurashi uzoq vaqtga «cho‘zilib ketadi» va qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu – ***qat’iyatsizlikdir.***

Qabul qilingan qaror keskin va mustahkam yoki bo‘sh, sabotsiz – o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin. Bir marta qabul qilinib, keyinchalik o‘zgarmaydigan va ma’lum vaqt davomida albatta bajariladigan qaror **qat’iy** va **mustahkam qaror** deb ataladi. Qaror o‘ylab qabul qilingan ijtimoiy vazifalar va shuning bilan birga, kishining hayotiy manfaatlariga, uning dunyoqarashi va ishonchlariga moslashtirilgan bo‘lsa, bunday qaror ko‘pincha mustahkam bo‘ladi. Qat’iy va mustahkam qarorga kelish – irodaning yuksak sifatidir.

Bir marta qabul qilingan qarorni keyinchalik o‘zgartirish yoki boshqa yangi qaror bilan almashtirish, yoki bo‘lmasa, batamom bekor qilib yuborish **subutsizlik** deyiladi.

Qat’iy qaror qila olmaslik – kishi irodasi bo‘shligining alomatidir.

Shunday qilib, irodaviy harakatlar ixtiyorsiz harakatlardan farq qilib, ular ilgaridan qabul qilingan qaror va ilgaridan tuzilgan reja asosida amalga oshiriladi.

Qarorni ijro etish

Biron qaror shu qarorga muvofiq keladigan choralar ko‘rish va ish-harakatlar qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o‘tishni ijro qilish, bajarish deyiladi. Irodaviy jarayonlarda eng muhim narsa qabul qilingan qarorni bajarishdir. Kishining irodasi xuddi mana shu qarorni bajarishda namoyon bo‘ladi deyish mumkin.

Odatda, ikki turli irodaviy harakat farqlanadi: jismoniy va aqliy. Jismoniy harakatlarga har turli mehnat operatsiyalari, o‘yin hamda sport mashg‘ulotlari va boshqalar kiradi. Aqliy harakatlarga bo‘lsa – hisob ishlari, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va shuning kabilar kiradi. Ko‘p vaqt takrorlab, o‘zlashtirilib ketgan, ko‘nikma va odat bo‘lib ketgan harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlardandir. Iroda, yana ayni chog‘da keraksiz harakatlarni to‘xtatish, tugatish yoki o‘zgartirishda ham namoyon bo‘ladi.

Qarorni ijro etish, odatda, ma’lum vaqt va ma’lum muddat bilan bog‘liq bo‘ladi. Qarorning hech kechikmay, belgilangan vaqtida ijro etilishi irodaning ijobiy sifatidan dalolat beradi. Bu esa ishchanlik va puxtalikni bildiradi.

Biroq, qabul qilingan qaror hamma vaqt bajarilavermaydi va ayrim hollarda esa o‘z vaqtida bajarilmaydi. Masalan, irodasi kuchsiz bo‘lgan kishilar ko‘pincha juda ko‘p yaxshi qarorlarga kelishlariga qaramay, bu qarorlarning ijro etilishini sustlashtirib, cho‘zib yuboradilar va boshqa muddatlarga qoldiradilar. Bajarilishi galdan-galga qoldiriladigan yoki batamom bajarilmaydigan qarorlarni ***niyat*** deb ataladi. Shuning bilan birga, ancha vaqtdan so‘ng bo‘lsa ham, lekin ma’lum vaqt davomida bajarilishi shart bo‘lgan qarorlarni ham **niyat** deb ataladi. Masalan, talaba o‘qish yilining boshida qishki va yozgi sessiyadagi imtihonlarni faqat «a’lo» bahoga topshirishni niyat qilishi mumkin.

Ba’zan odam sharoitning o‘zgarishiga qarab qabul qilingan qarorni bekor qilib yangi qaror qabul qilishiga to‘g‘ri keladi. Undan so‘ng o‘zgargan sharoitga mos holda yangi qarorni bajarishga kirishadi.

Qabul qilingan qaror to‘g‘ridan to‘g‘ri, avtomatik ravishda amalga oshirilavermaydi. Qabul qilingan qarorni bajarish uchun, yana, ongli ravishda irodani ishga solib zo‘r berish kerak. Irodaviy zo‘r berishni kishi ongli jiddiylik tarzida his qiladi. Bunday jiddiylik irodaviy harakatga o‘tish bilan tarqalishi mumkin.

Irodaviy zo‘r berish butun nerv va muskullarni alohida tarang holga keltiradi va bu sirtqi alomatlarida ko‘rinadi. Irodaviy zo‘r berishning ana shunday sirtqi alomatlari irodasini ishga solgan kishilarni tasvirlovchi badiiy asarlarda yaqqol tasvirlanadi.

Qabul qilingan qarorni zo‘r berish bilan ijro etish irodaning muhim belgisini tashkil etadi, deyish mumkin.

Irodaviy zo‘r berish va irodaviy harakat maqsadga erishish yo‘lida uchraydigan to‘siqlarni yengishda namoyon bo‘ladi. Kishining irodasi juda katta qarshiliklarni yengishga to‘g‘ri kelgan paytda, ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi. Bunday qarshiliklar ikki turli bo‘lishi mumkin: ichki va tashqi qarshiliklar.

Ichki qarshiliklarni yengish

Ichki qarshiliklar kishining o‘ziga xos bo‘lgan ma’lum holatidir. Kishi tinch, harakatsiz va hech qanday faoliyatsiz holatda bo‘lishi mumkin. Masalan, bunday holat dam olayotganda, uxlayotganda, toliqqan paytda va kasal paytda bo‘ladi. Biron ish bilan shug‘ullanmay harakatsiz o‘tirishga, ya’ni yalqovlikka undovchi mayl ham shunday holatdandir.

Irodaviy zo‘r berish vositasi bilan, avvalo, organizmning passiv holatini o‘zgartirib, uni faol holatga keltirish lozim bo‘ladi. Masalan, o‘rinda yotgan kishi, tursammikan yoki turmasammikan, deb biroz o‘ylagandan so‘ng (motivlar kurashi), turishga qaror qiladi hamda o‘zini majbur qilib o‘rnidan turadi. Yalqovlikni yengish uchun ba’zan juda ko‘p zo‘r berishga to‘g‘ri keladi.

Irodaviy zo‘r berish vositasi bilan kishining aqliy faoliyati ham faol holatga keltiriladi. Masalan: ma’ruza boshlanishi bilanoq talaba iroda kuchini ishga solib, diqqatini bir yerga to‘playdi, irodaning barqarorligini saqlab turadi, tafakkur va esda olib qolish jarayonlarini kuchaytiradi.

Ko‘pincha, kishining o‘zida bo‘ladigan ixtiyorsiz harakatning paydo bo‘lishini irodaviy zo‘r berish bilan yengishi, susaytirishi va yo‘q qilib yuborilishi lozim bo‘ladi. Ayni shu chog‘da keraksiz harakatlarni o‘zgartirish yoki to‘xtashiga to‘g‘ri keladi. Juda qattiq singib ketgan, lekin salbiy, zararli odatlarga qarshi irodaviy zo‘r berish bilan kurash olib borish va tashkil topgan stereotiplarni, ya’ni bir qolipga tushib qolgan salbiy harakatlarni buzish lozim bo‘ladi.

Paydo bo‘layotgan ixtiyorsiz harakat, ko‘pincha, qabul qilingan irodaviy qarorga nisbatan boshqacha (ba’zan qarama-qarshi) yo‘nalishga moyil bo‘ladi. Masalan, kishining hissiyotini aks ettiradigan ba’zi ish-harakatlari shular jumlasidandir. Ixtiyorsiz harakatning paydo bo‘lishi kerakli irodaviy harakatni susaytirib yoki batamom to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun qabul qilingan qarorni bajarishda paydo bo‘ladigan ixtiyorsiz harakatni irodaviy zo‘r berish bilan yengishga to‘g‘ri keladi. Masalan, parashutchilar birinchi marta o‘zlarini samolyotdan

tashlaganlarida (irodaviy harakatlarida) tabiiy ravishda paydo bo‘ladigan qo‘rqish hissini yengib borishlari lozim bo‘ladi.

Kishi irodaviy zo‘r berganida, ixtiyorsiz harakatni batamom yo‘qotib yubormaydi, balki uni biroz o‘zgartiradi yoki bunday harakatning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ixtiyorsiz harakatni bosishga vazminlik deb ataladi. Vazminlikning nerv-fiziologik asosi ikkinchi signal sistemasining birinchi signal sistemasi orqali miya po‘stining ostki qismiga tormozlantiruvchi ta’sir o‘tkazishdan iboratdir.

Iroda, avvalo, kishining o‘z-o‘zini, o‘z intilishlari, hissiyotlari va ehtiroslarini qo‘lida tuta bilishi demakdir. Iroda – kishining o‘z-o‘zini iroda qila bilishi, o‘z xulqi va faoliyatini ongli ravishda tartibga solish hamda boshqara olish qobiliyatidir.

Odamning ichki to‘lqinlarini yenga olish, o‘zini boshqarish va o‘z ustidan hukmronlik qila bilish qobiliyatini odatda ***ichki iroda*** deb yuritiladi.

Tashqi qarshiliklarni yengish

Kishi irodaviy zo‘r berishi bilan yengishi lozim bo‘ladigan tashqi qarshiliklarni **tevarak-atrofdagi voqelikda** uchratadi.

Kishi o‘z oldiga qo‘yiladigan maqsadni amalga oshirishga qarshilik qilayotganda to‘sqinliklarni yengadi, voqelikni o‘z maqsadiga muvofiq ravishda o‘zgartiradi va uni o‘z ehtiyojlariga moslaydi.

Kishi tabiatni o‘zgartiradi. Bunda u tabiatning qarshiligini yengadi, uning stixiyalariga, ya’ni suv, sovuq bo‘ron, olov kabi tartibsiz, halokatli harakatlariga qarshi kurashib, uni o‘zgartiradi, qayta ko‘radi. Kishi masofani yengib bir joydan ikkinchi joyga ko‘chadi, og‘ir narsalarni ko‘tarib, ularni bir joydan ikkinchi joyga olib boradi. Kishi irodaviy zo‘r berish va irodaviy harakat yordami bilan ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan yangi narsalar: uylar, fabrikalar, zavodlar, yo‘llar, mashinalar, san’at asarlari va shuning kabilarni yaratadi. Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan irodaviy zo‘r berishni talab qiladi. Inson mehnati undagi irodaning namoyon bo‘lishidir. Odamning irodasi mehnatda paydo bo‘lgan, u mehnatda o‘sgan va o‘sib boradi.

Odamning tashqi to‘sqinliklarni tashqi qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatini *tashqi iroda* deb yuritiladi. Biroq, faqat shartli ravishda irodani ana shunday tashqi va ichki deb bo‘lish mumkin. Inson irodasi yolg‘iz birginadir, lekin u tashqi olamdagi hodisalarni o‘zgartirish va boshqarishga yo‘naltirilishi hamda shuning bilan birga o‘zining shaxsiy, ya’ni subyektiv holatini va jarayonlarini boshqarishga yo‘naltirilishi

mumkin. Shuning uchun irodaviy faoliyatda tashqi qarshiliklarni yengish ichki qarshiliklarni yengish bilan uzviy bog‘liqdir.

Obyektiv voqelikka ta’sir qilishda kishi iroda kuchining yordami bilan dastavval o‘z organizmini harakatga solishi lozim va shu bilan birga, har qanday ixtiyorsiz harakatni doimo bosib va o‘zgartirib turishi kerak. Shuning uchun kishining tashqi qarshiliklarni yengishga qaratilgan irodaviy zo‘r berishlari va irodaviy harakatlari ayni vaqtning o‘zida kishining ichki holatini ham o‘zgartiradi. Kishi tashqi muhitni o‘zgartirishi bilan birga, u o‘z-o‘zini ham o‘zgartiradi.

Bajarilgan ishga baho berish

Odatda, qaror bajarilgandan so‘ng va ba’zan esa bajarish jarayonidayoq qilingan ishlarga baho beriladi. Qarorni bajarish yuzasidan qilingan ishlarga baho berish bu qaror va ishni ma’qullash yoki qabul qilingan qarorni hamda qilinadigan ish-harakatni qoralashdan iborat bo‘ladi. Bu baho qabul qilingan qaror va bajarilgan harakatlardan mamnun yoki mamnun emaslik tufayli hosil bo‘lgan alohida hissiy kechinmalarda ifodalanadi.

Salbiy baho, ko‘pincha, qilingan ishlarga achinish, uyalish va afsuslanish kabi hissiyotlar tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

Qilinayotgan yoki qilingan ishlarga baho, asosan, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy estetik nuqtayi nazaridan beriladi. Mana shunday baho berishdan hosil bo‘ladigan his va hukmlarda kishining dunyoqarashi, uning axloqiy sifatlari va tamoyillari hamda, shuning bilan birga, uning xarakteri va qiziqishlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qarorni bajarish yuzasidan qilingan ishlarga faqat kishi o‘zi baho berib qolmaydi, balki qilingan ish-harakatlarga jamiyat tomonidan ham baho beriladi. Jamiyat tomonidan kishilarning harakatlariga berilgan baho tanqid va o‘z-o‘zini tanqidda juda yaqqol ifodalanadi.

Qilingan ish-harakatga jamiyat tomonidan berilgan baho kishining faoliyati uchun juda katta amaliy ahamiyatga egadir. Bu baho kishining keyingi faoliyati uchun rag‘batlanish va motiv bo‘lib qoladi. Salbiy baho, odatda, ayni faoliyatni to‘xtatish yoki o‘zgartirish uchun sabab bo‘ladi. Ijobiy baho faoliyatni davom ettirish, kuchaytirish va yanada yaxshilash, jumladan, mehnat unumini oshirishga rag‘batlantiradi.

4. Irodaviy harakatlarning sifatlari

Kishining irodasi o‘z sifatlari, ya’ni kuchi, axloqiyligi, mustaqilligi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo‘ladi.

Iroda kuchi

Iroda ma'lum kuchga ega bo'ladi; ba'zi hollarda kishining irodasi kuchli sur'atda namoyon bo'lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo'ladi.

Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi butun irodaviy jarayonlarda ko'rinadi. Iroda kuchi, avvalo, intilishlarda ko'rina boshlaydi; biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli va kuchsiz xohishlarni farq qilamiz. Iroda kuchi yana tezlik bilan qarorga kela olishda va qarorning mustahkamligida ko'rinadi.

Yuksak g'oyaviy tamoyillarga asoslangan ongli qat'iyat va sabotlilik kuchli iroda belgilaridandir; qat'iyatsizlik, ikkilanish, qabul qilingan qarorning bajara olishiga shubha bilan qarashlik va sabotsizlik kuchsiz iroda belgilaridandir. Iroda kuchi qat'iyatlikda ifodalanadi. Qat'iyat qarorning bajarilishiga to'la ishonish va qarshilik hamda qiyinchiliklar qanchalik katta bo'lmasin (yoki katta bo'lib ko'rinmasin) uni albatta amalga oshirishga otlanishdir.

Jazm o'z-o'ziga buyruq berishdir. Vijdoniy burch talabi yoki yuksak maqsadni amalga oshirish tufayli odamning kerak bo'lib qolgan paytda o'lim bilan hayot o'rtasidan birontasini darhol tanlab ola bilishida ko'rinadigan jazm, kuchli iroda dalilidir. Bunday jazmning misoli sifatida Usmon Nosir, Cho'lpon, Abdulla Qodiriylarning mardona jasoratini ko'rsatishimiz mumkin.

Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o'z vaqtida bajarishda ko'rinadi. Shuning uchun qarorni bajarmaslik yoki uning bajarilish muddatini doim «galdan-galga» qoldiraverish va boshlangan ishni oxirigacha yetkaza olmaslik kuchsiz irodaning alomatidir. Ammo berilgan qarorni bajarishning, qilingan ish-harakatning hammasi ham irodaning kuchli ekanidan darak beravermaydi. Iroda kuchi, asosan, irodaviy harakatlar yordami bilan qanday to'siqlar yengilgani va buning bilan qanday natijalarga erishilganligi ila aniqlanadi. Biz irodaviy zo'r berishlar vositasi bilan yengadigan qarshilik va qiyinchiliklar darajasi va xarakteri iroda kuchining obyektiv ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Agar kishi katta to'sqinlik va qiyinchiliklarni, qarshi harakatlarni irodaviy zo'r berish va irodaviy harakatlar yordami bilan yengib, katta muvaffaqiyatlarga erishar ekan, bunday holda biz shu kishining kuchli irodaga ega ekanligi va kuchli iroda ko'rsatgani haqida gapira olamiz.

Kishi irodasining kuchsizligi uning juda arzimas qarshiliklarni ham yenga olmasligida ko'rinadi. Masalan, ba'zan kishi biron kerakli xatni yozishga yoki biron zarur ishni boshlashga o'zini majbur eta olmaydi.

Irodaning kuchsizligi, odatda, irodasizlik deb ataladi.

Iroda kuchi, ayniqsa, o‘zini tuta bilishda, jasurlikda, qat’iyatda, matonatda va chidamlilikda namoyon bo‘ladi.

O‘zini tuta bilish. Mana shu so‘zning o‘zidan ko‘rinib turibdiki, o‘zini tuta bilish – kishining o‘z-o‘zini qo‘lga ola bilishidir. O‘zini tuta bilish – kishining oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishga qarshilik ko‘rsatuvchi ichki holatini yengishda ko‘rinadigan kuchli irodadir. O‘zini tuta bilish – toliqish hissini, og‘riqni, qo‘rqinchni, shuning kabilarni yengishda ko‘rinadi, o‘zini tuta **bilish** ayni paytda keraksiz bo‘lgan reflekslarga, odatlarga, mayllarga yo‘l qo‘ymaslikdir. Yu. A. Gagaringa murojaat qilib: «Uchish paytingizdagi ba’zi vaqtlarda qo‘rqish hissi paydo bo‘lganmi?» deb savol berilganda, kosmonavt shunday deb javob bergan: «Albatta, hamma tirik odamlardagi kabi menda ham bo‘lgan. Biroq, men qo‘rqinch hissini tezda yengib tashladim».

O‘zini tuta bilish va qo‘rqmaslik odamning qo‘rqinch hissini kechirmasligida emas, balki ongni yo‘qotib qo‘ymay, o‘z irodasining kuchi bilan bunday hissiyotlarni bosishi va batamom yo‘qotib yuborishidadir. Bu degan so‘z – o‘zini idora qila bilish degan ma’noni bildiradi. O‘zini tuta bilish – vazminlikka oid yuksak fazilatdir. Kishi o‘zini biron narsadan tiyish uchun ba’zan anchagina irodaviy zo‘r berishga, ya’ni iroda kuchini ishga solishga majbur bo‘ladi.

Irodasi kuchli kishilar deganda, biz o‘zini mahkam tuta biladigan bosiq kishilarni tushunamiz.

O‘zini tuta bilishning aksi deganda, biz ixtiyorsiz harakatlar tomonidan yengilib, ya’ni yo‘q qilib yuboriladigan irodani tushunamiz. Odamning bunday xususiyatini o‘ziga kuchi yetmaslik, o‘zini tiya olmaslik deb ataladi. O‘ziga kuchi yetmaslikning eng keskin ko‘rinishi beboshlik, pastkashlikdir. Bunday odam o‘zida beixtiyor tug‘iladigan salbiy tuyg‘ularga, instinktlarga berilib, o‘z nafsini tiya olmaydi. Bu hayvonlik holatiga tushib qolish demakdir.

Dadillik – kishining hayot va omonligi uchun xavfli bo‘lgan qarshiliklarni yengishda ko‘rinadigan iroda kuchidir. Masalan, parashutchi har gal samolyotdan o‘zini tashlaganida dadillik qiladi. Dushmanning orqa tomoniga o‘tib olgan razvedkachilar ham dadillik namunasini ko‘rsatadilar. Dadillik o‘zini tuta bilish bilan mahkam bog‘liqdir. Dadil harakat qilish uchun, avvalo, o‘zini tuta bilish kerak. Dadillik bor joyda o‘zini bilish ham bor.

Biron maqsadni amalga oshirishda hamisha dadillik ko‘rsatish **mardlik** va **jasorat** deb ataladi.

Har qanday faoliyatning, jumladan o‘qishning ham muvaffaqiyati qat’iyatga bog‘liqdir. Bilim egallash uchun qat’iyat kerak bo‘lganidek, malakalar orttirish (masalan, musiqa malakalari) uchun ham qat’iyat kerak.

Chidam va toqat. Maqsadlarni amalga oshirishda yengishga to‘g‘ri keladigan qarshilik va qiyinchiliklar kishidan kuch hamda vaqt sarf qilishni talab qilibgina qolmay, balki unga, ko‘pincha, jismoniy va ruhiy azob beradi.

Kishi o‘z faoliyati davomida, ba’zan sovuq va issiqdan, yomg‘ir va qordan, qattiq toliqish va och qolishlikdan hamda turli kasalliklardan azob chekadigan hollari bo‘ladi. Agar, mana shunday qarshiliklarga qaramay, kishi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga sodiq bo‘lib, uni amalga oshirishga urinaversa, bunday harakatlarda ko‘rinadigan irodani chidam va toqat deb ataladi.

Kosmonavtlarning jasoratlari g‘oyat zo‘r chidam va toqatliligi bilan xarakterlidir. Irodaning bunday sifati ulardan taxminiy mashqlar o‘tkazish davridayoq talab qilingan edi. Lekin irodaning bu sifati, xususan, o‘qish paytida, ya’ni ular g‘oyat zo‘r jismoniy va asabiy o‘zgarishlarni toqat bilan kechirishlariga to‘g‘ri kelgan paytda kuchli namoyon bo‘ladi. Shuning bilan bir vaqtda bu qahramonlar jiddiy keskinliklarga chidab o‘qish davomida turli yo‘l tutmoq va harakat qilmoq uchun onglarini juda ravshanlikda saqlab qolishlari lozim edi. Tibbiyot va psixologik tekshirishlarning ko‘rsatishicha, shu qadar jiddiy vazifani ado etishga faqat mustahkam sog‘liq hamda kuchli irodaga ega bo‘lgan kishilargina chiday olishlari mumkin edi.

Odamdagi qat’iyat va chidamlilik aniq maqsad va o‘zining anchagina barqarorligi bilan ajralib turadigan kuchli motivlarning mavjudligiga bog‘liq.

O‘zini tuta bilish, dadillik, qat’iylik, chidam va toqat paytlarida namoyon bo‘ladigan kuchli irodaga ***mardlik*** deb ataladi.

Irodaning axloqiyligi

Irodaning axloqiyligi deganda, biz, odatda, kishi oldiga qanday maqsadlar qo‘yganligini, bu maqsadlarga qanday vositalar yordami bilan erishilishini, irodaviy intilishlar (xohishlar) qanday mayllar tufayli tug‘ilishini, ma’lum bir qarorga kelishda kishi qanday tamoyillarga tayanishini nazarda tutamiz.

Irodaviy harakatlarda kishining axloqiy sifatlari namoyon bo‘lishi tufayli iroda kuchi ijobiy sifat hisoblanadi. Boshqa bir tomondan olganda, odamlarning axloqiy sifatlari haqida quruq gaplarga qarab

emas, balki shu odamlarning axloqiy qiyofalari namoyon bo‘ladigan irodaviy harakatlariga qarab hukm chiqaramiz. Shuning uchun kuchli irodaning – mardlik, o‘zini tuta bilish, qat’iyatlik, chidamlilik va botirlik kabi xususiyatlari bizda inson axloqiy sifatlarining namoyon bo‘lishi hisoblanadi.

Odam u yoki bu qarorga kelishida o‘zining qarori va xatti-harakatlari uchun axloqiy jihatdan javobgar ekanligini sezsa hamda anglay olsa, iroda axloqiy bo‘ladi.

Axloqiylikning darajasi irodaviy jarayonning fazalarida, ya’ni motivlar kurashida ham, ma’lum qarorga kelishda ham, qarorni amalga oshirishda ham va qilingan ishlarga keyin baho berishda ham ko‘rinadi.

Motivlar kurashi va qarorga kelishda axloqiylik ma’lum bir motivni asoslashda ko‘rinadi. Shuning uchun qabul qilingan qarorlar axloqiy tomondan asoslangan yoki asoslanmagan bo‘lishi mumkin. Motivlar kurashidagi hissiy mayllar ham axloqiy yoki axloqqa xilof bo‘lishi mumkin, chunki kishining axloqiy holati kechirgan hissiyotlarida va intilishlarida ham ifodalanadi. Axloqiy tamoyillarga muvofiq sur’atda qabul qilingan qarorlar va amalga oshirilgan harakatlar axloqiy qarorlar deb ataladi.

Kishining axloqiy qiyofasi qabul qilingan qaror va amalga oshirilgan harakatlarga keyinchalik baho berishda ham ko‘rinadi. Agar kishi yuksak ma’naviy fazilatlar egasi bo‘lsa, u yaramas qaror qabul qilishdan va nojo‘ya xatti-harakatdan o‘zini tiyadi, buning oqibatini oldindan o‘ylaydi. Shu tariqa, kishi o‘z harakatlarining natijalarini oldindan ko‘rib qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qaror va harakatlarni noma’qul topishi yoki ma’qullashi mumkin.

Axloq dunyoqarash bilan uzviy bog‘liqdir.

Kishining irodaviy harakatlarida muhim rol o‘ynaydigan hayotiy maqsadlari va tamoyillari xuddi ana shu dunyoqarashdan kelib chiqadi.

Shuning uchun dunyoqarash va axloq tamoyillariga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan maqsadlar, qarorlar va harakatlar yuksak iroda ko‘rsatishdir. Axloq nuqtayi nazaridan, iroda kishining o‘z shaxsiy, individual intilishlarini jamiyat manfaatiga bo‘ysundira olishiga qarab baholanadi.

Mana shuning uchun biz o‘z intilishlarida, qaror va harakatlarida mehnatkashlarning manfaatlariga sodiq bo‘lgan, vatanga muhabbat qo‘ygan va unga sodiq bo‘lgan, mehnatni sevuvchi, qat’iy barqaror, dadil, sabotli, chidamli va o‘zini tuta biladigan kishilarni yuksak qadrlaymiz.

Mustaqillik

Kishilarning irodaviy harakatlariga ularning mustaqillilik darajasi jihatidan ham baho beriladi. Biz, odatda, mustaqil va mustaqil bo‘lmagan harakatlar haqida gapiramiz.

Irodaviy harakatlarning mustaqilliligi, avvalo, kishining tashabbuskorligida ko‘rinadi. Tashabbuskorlik biron-bir ishni shaxsan boshlab yuborishdir. Tashabbus ko‘rsatish ma’lum ko‘rsatma bo‘lishini kutib o‘tirmay, biron maqsadni ilgari surish, uni amalga oshirish yo‘l va vositalarini tanlash hamda belgilangan maqsadga mustaqil sur’atda erishish demakdir. Tashabbuskorlik, odatda, atrof-tevarakdagi sharoit hamda ijtimoiy hayot talabini epchillik va mohirlik bilan hisobga olish va ko‘pincha, yangilikni oldindan ko‘ra bilish qobiliyati bilan bir vaqtda ko‘rinadi.

Tashabbuskorlik hayotimizning hamma sohasi uchun zarur bo‘lgan juda ham qimmatli sifatdir.

Tashabbuskor kishilar hamma vaqt ishda va o‘qishda faollik ko‘rsatadilar. Ular jamiyat, jamoa va guruhlarda tashkilotchilik qilishga qobiliyatli bo‘ladilar va har qanday qiyin muammolarni ham osonlikcha amalga oshira oladilar, yo‘l-yo‘riqlarini topa oladilar va muvaffaqiyat qozona oladilar.

Mustaqillik amalga oshirilayotgan va amalga oshirilgan xatti-harakatlar uchun ***javobgarlikni*** sezishda ko‘rinadi.

Javobgarlikni sezish deganda, biz, ayni shu harakatlarning to‘g‘riligiga, maqsadga muvofiq ekanligiga va zarurligiga ishonch hosil qilishni tushunamiz. Qandaydir xato va yanglishga yo‘l qo‘yib yuborilgan vaqtda javobgarlikni sezish – o‘z xatolariga samimiy, beg‘arazlik bilan va ochiq tan berishda hamda haqqoniy tanqidga diqqat bilan quloq solishda ko‘rinadi. Javobgarlikni sezish – o‘z xatolarini tuzatishga tayyor turish va haqiqatan ham uni tuzatish demakdir.

Irodaning mustaqilligi yana boshqa kishilarning fikrlarini, maslahatlarini va takliflarini tanqidiy mulohaza qilib qarashda ham ko‘rinadi. Kishi boshqa odamlar bergan maslahat va takliflarining to‘g‘riligiga ishonib harakat qilar hamda bu maslahat va takliflarning jamiyat manfaatiga va axloq tamoyillariga mos ekanliklarini tushunar ekan, buning bilan u o‘z mustaqilligini namoyon qilgan bo‘ladi.

Mustaqillilikni irodaning negativizm va qaysarlik kabi salbiy ko‘rinishlaridan ajrata bilish lozim.

Negativizm boshqa kishilarning hamma taklifiga, ya’ni buyruqlarga, qoidalarga, maslahatlarga va boshqa yo‘l bilan o‘tkaziladigan qanday bo‘lmasin ta’sirga asossiz qarshilik qilish demakdir. Negativizm ikki

turli bo‘ladi: passiv va faol negativizm. Passiv negativizm shundan iboratki, bunda kishi taklif qilingan ishni qilmay, o‘z holatida qolaveradi. Faol negativizm esa boshqalar xohlagan va taklif qilgan ishni qilmay, uning aksini qilishdan iborat bo‘lgan terslikdir.

Negativizm hodisasini uch yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarda, ayniqsa, kattalar tomonidan suyultirib yuborilgan va barcha ishlarini boshqa kishilar qilib beradigan bolalarda uchratish mumkin. Bunday o‘jarlik bolalarda, ko‘pincha qandaydir mustaqil faoliyat sohasida o‘z faolliklarini ko‘rsatish imkoniyati berilmagan taqdirda paydo bo‘ladi.

Negativizmning xarakterli xususiyati harakatlarning asossizligidan iboratdir. Odatda, negativizm holatida kishi sen nega bunday qilyapsan, nima uchun boshqalarning taklifini bajarmayapsan, degan savolga hech qanday javob qaytarmaydi; u indamay, aytilgan narsaning aksini qilaveradi.

Qaysarlik – boshqa kishilarning aytgan hamma gapiga, ya’ni buyruq va takliflarga atayin qarshilik qilishdir. Qaysarlik qilayotgan odam o‘zi deganini qilaveradi va nima sababdan shunday qilayotganini obyektiv ravishda asoslab bermaydi: «Bu mening ishim», «O‘zim bilaman» deb subyektiv dalil keltiradi, xolos.

Qaysarlik, asosan, mana bunday hollarda, masalan, kishi biron narsadan xafa bo‘lgan yoki g‘azablangan, jahli chiqqan yoki bo‘lmasa manmanligi oshib ketgan paytda ko‘rinadi. Bunday hollarda kuchli hissiyot ta’siri tufayli kishining ongi o‘tmaslashib ketadi. Qaysarlik tutgan paytda kishi obyektiv nuqtayi nazardan qaray olmaydi va boshqacha emas, balki aynan shunday harakat qilish shart ekanligiga obyektiv asoslar keltira olmaydi. Qaysar odamni juda yaqqol dalillar yordami bilan har narsaga ko‘ndirish yoki undan qaytarish qiyin. Qaysarlik ko‘rsatishda biron narsaga intilish va kuchli hissiyot bo‘ladi, lekin yetarli tafakkur unda ishtirok etmaydi.

Mustaqilsizlik shunday hollarda ko‘rinadiki, bunda kishi ma’lum bir xatti-harakatlarni faqat boshqa odamlarning bevosita ta’siri ostida (ularning maslahatlari, takliflari bilan) qiladi va o‘zining qarorlari hamda harakatlarida faqat boshqa odamlar fikriga tayanadi.

Kishi mustaqillik ko‘rsata olmasa, boshqa odamlar irodasini amalga oshiruvchi bo‘lib qoladi, xolos.

Mustaqilsizlik tashabbuskorlikning yo‘qligi, har bir ishni yuzada bo‘lgan sharoit va boshqa odamlarning ta’siriga berilib, bajarishlik va qilinayotgan ish-harakatining sababini kishi o‘zi bilmasligida ifodalanadi. Bunday holda, odatda asossiz motivlar yoki hech qanday

motivlarsiz qarorga kelinadi. Mustaqilsizlik ko‘pincha, kishining prinsipsizligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mustaqilsizlikning xarakterli belgisi o‘zining qabul qilgan qarori va harakatlariga nisbatan javobgarlik hissining yo‘qligidan iboratdir.

Mustaqilsizlik va irodasizlikning yaqqol ifodasi boshqalarning ta’siriga berilib, **laqmalik bilan harakat** qilishdan iboratdir. Laqmalik paytida harakatlar boshqa odamlarning qarorlari asosida amalga oshiriladi. Biroq boshqa odamlarning qarorlarini laqma odam go‘yo o‘zining qarori va o‘z irodasining namoyon bo‘lishi deb bilaveradi.

Laqmalik bilan qilinadigan harakatlarda boshqa odamlarning maslahatlari va takliflariga nisbatan tanqidiy munosabat bo‘lmaydi. Ana shunday paytda odam boshqa odamlarning ta’siriga yoki yot unsurlarning ta’siriga osonlik bilan berilib ketishi mumkin. Laqmalik bilan qilinadigan harakatlarni negativizm va qaysarlikka qarama-qarshi xususiyat desa bo‘ladi.

Odam boshqa kishilar ta’siri bilan harakat qilish xususiyatiga **laqmalik** deyiladi. Laqmalik qilish ma’lum darajada har bir kishiga xosdir. U iroda va umuman faollik zaiflashgan paytda hamda tanqidiy fikr qilish yo‘qolib, fikr yuritish qobiliyati cheklangan va sustlashgan paytda sodir bo‘ladi. Aql-idrokning ishlamay qolishiga faqat affektiv holat sababchi bo‘lmay, balki psixik faoliyatning umumiy susayishi ham sabab bo‘ladi.

Bunday holat har bir odamning toliqqan paytida va endi uxlay boshlagan paytida bo‘lishi mumkin. Uzoq vaqt davom etgan xavotirlik hissi va zo‘r xursandchilik tufayli ham kishi laqmalik qilib qo‘yishi mumkin. Kishi gipnoz holatida haddan tashqari laqmalik qiladi.

Mustaqilsizlik orqasida qilinadigan ana shunday harakatlar, albatta irodaga taalluqli salbiy xususiyatlardandir. Lekin shuni nazarda tutish kerakki, boshqa odamlar buyrug‘i va maslahatlari bilan qilinadigan har qanday harakatlarni ham mustaqilsizlik deb hisoblayverish yaramaydi. Bizga boshqa odamlar tomonidan beriladigan buyruqlar, taklif va maslahatlar o‘zimizning asoslangan shaxsiy qarorlarimizga mos kelishi mumkin. Bunday holda boshqa odamning buyrug‘i bilan qilingan harakat mustaqil harakat bo‘ladi. Tashqi ko‘rinishi jihatidan bir xil bo‘lgan ikkita harakatdan biri mustaqil bo‘lmasligi, ikkinchisi esa mustaqil bo‘lishi mumkin. Masalan, ayrim bir o‘quvchi buyruq tarzida bildirilgan maktab intizomi qoidalarini qo‘rqqanidan bajaradi. Bunda bu o‘quvchi majburiyat ostida o‘z xohishiga qarshi harakat qiladi. Boshqa bir o‘quvchi bu qoidalarni ongli ravishda bajaradi. Chunki u bu qoidalarning zarur ekanligiga tushunib, qanoat hosil qiladi. Ongli intizom mustaqil irodaning ifodasidir. Kishi biron buyruq

yoki intizomga shuning uchun so‘zsiz itoat qiladiki, u bunday itoat qilishning axloqiy jihatdan zarur va maqsadga muvofiq ekanini tushunadi, anglay oladi.

Har bir kishi o‘zining ko‘pchilik harakatlarida «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati jamoa qarorlariga asoslanishi kerak. Ammo jamoa ruhida rahbarlik qilish — har bir jamoa a’zosini mustaqillikdan mahrum qilingan egasizlik demak emas. Kishi o‘z mustaqilligining hamma alomatlarini, ya’ni tashabbuskorligini, topshirilgan ishning bajarilishiga javobgarlik hissini va o‘z-o‘zini tanqidni faqat jamoadagina ko‘rsata olishi mumkin.

Kishining o‘z vijdoniy burchini bajarishga qaratilgan harakatlarida uning mustaqilligi namoyon bo‘ladi. Kishining mustaqilligi va irodasining erkinligi o‘z qaror va harakatlarini axloqning yuksak tamoyillarga ongli ravishda bo‘ysundirishning uddasidan chiqa olishda va o‘z harakatlarini shu tamoyillarga asoslanib baholashida ko‘rinadi.

Mustaqillilik ayni vaqtning o‘zida iroda kuchining belgisi hamdir. Iroda kuchi faqat katta to‘siqlarni yenga olish qobiliyati bilangina belgilanib qolmay, balki tashabbuskorlik, o‘z mustaqilligini anglash, o‘z qat’iyati va qabul qilingan qaror hamda o‘z harakatlari uchun javobgarlikni sezish bilan ham belgilanadi.

5. Iroda va boshqa psixik jarayonlar

Ana shu yuqoridagi aytilganlardan ko‘rinib turibdiki, iroda boshqa psixik jarayonlar bilan mahkam bog‘liqdir.

Irodaviy harakatlar biz idrok qilib turgan u yoki bu sharoitda yuzaga keladilar. Qarorga kelishda, harakatlarni rejalashtirishda (mo‘ljallashda) va amalga oshirishda odam ayni shu sharoitni tushuna olishi kerak. Bu tushunish va binobarin, qilinadigan harakatlarning muvaffaqiyati juda ko‘p jihatdan sharoitni idrok qilishning tezligi, to‘laligi, aniqligi va to‘g‘riligiga bog‘liq. Idrok ana shunday sifatlarga ega bo‘lmagan paytda irodaviy harakatlar kechikishi, batamom amalga oshirilmasligi, o‘zgarishi, xato bo‘lishi mumkin.

Irodaviy jarayonlarda xotira katta rol o‘ynaydi. Kundalik hayotimizda juda ko‘p irodaviy harakatlarimiz taxminan bir xil qiyofada takrorlanadilar. Biron maqsad qo‘yishda, harakat usullarini tanlashda, qarorga kelishda va qilingan harakatlarga baho berishda kishi dastavval o‘zining turmush tajribasi hamda bilimlariga asoslanadi.

Kishining kuchli iroda ko‘rsatishida uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishga mo‘ljallangan va amalga oshiradigan yo‘l va vositalarni tasavvur qila olishi ham katta ahamiyatga ega. Bu

yo‘l va vositalarni kishi qanchalik aniq tasavvur qilsa, bu vositalardan birini shunchalik tez tanlab olib, ma’lum qarorga keladi va shunchalik zo‘r ishonch bilan harakat qiladi.

Harakatlar qaratilgan maqsadlarni hamda ularni amalga oshirish yo‘l va vositalarini, irodaviy harakatlardan kelib chiqadigan natijalarni yaqqol tasavvur qilish va shuning bilan birga, iroda kuchi kishining tajribasi va bilimlariga hamda uning xayoli, tafakkuri va nutqining taraqqiyot darajasiga bog‘liq.

Maqsad va bu maqsadga erishtiruvchi vosita va yo‘llarni tasavvur qilishning aniqligi turmush tajribasi hamda bilimlarga asoslangan xayolning kengligi va kuchiga bog‘liq.

Irodaviy jarayonlarning va irodaviy harakatlarning barcha momentlarida nutq bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tafakkur, ayniqsa, katta rol o‘ynaydi. Irodaviy harakatlar aql bilan qilinadigan harakatlardir.

Kishi bor tajribasi va bilimlariga asoslangan holda o‘ylab biron maqsadni qo‘yadi va harakat qiladi, o‘ylab ma’lum qarorga keladi, o‘ylab maqsadni amalga oshirish yo‘li va vositalarini tanlab oladi, o‘z harakatlaridan kelib chiqadigan natijalarni oldin o‘ylab **ko‘radi** va **o‘ylab harakatga** kirishadi. Kishi o‘zining harakatlarini oldindan rejalashtiradi.

Rejalashtirish, o‘ylash, fikr qilganda ham puxta fikr qilish demakdir. Tafakkur va nutq faoliyati tufayli biz o‘z intilishlarimizni juda yaxshi anglab olamiz, harakatlarda ko‘zda tutgan maqsadlarimiz juda ham aniqlashadi, qabul qilingan qarorlarimiz yanada mahkamroq asoslanadi va u asosli qaror bo‘ladi, qiladigan harakatlarimiz esa rejalashgan, rejali va tartibli bo‘ladi. Tafakkur faoliyati vazminlik va o‘zini tuta bilish, qat’iyat va chidamlik kabi kuchli iroda sifatlarini belgilaydi.

Iroda kuchiga hissiyotlar juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Hissiyotlar iroda jarayonining dastlabki fazasi bo‘lmish intilishlar bilan mustahkam bog‘liqdir. Hissiyotlar intilishning kuchiga ta’sir qiladi, maqsad va uni amalga oshirish yo‘li va vositalari haqidagi tasavvurlarni oydinlashtiradi hamda jonlantiradi. Motivlar kurashida hissiyotlarning roli kattadir. Hissiyotlar bizni muayyan bir qarorga kelishga undaydi. Bunda hissiyotning iroda jarayonlaridagi roli ikki turli bo‘lishi mumkin: ijobiy-faollashtiruvchi va salbiy-tormozlashtiruvchi rol o‘ynashi mumkin.

Agar biron maqsadni tasavvur qilish kishining kuchli hissiyotlarini yo‘qotsa va bunday hissiyot ta’siri bilan kishi asoslangan qarorga

kelsa, bunday paytda hissiyotlar irodamizni faollashtiradi hamda uni mustahkamlaydi. Bunday hollarda hissiyotlar maqsadga erishishda bizning qat'iyatimizni, kuchimizni, dadilligimizni, barqarorligimizni va sabotimizni ta'minlaydi. Qilinadigan katta ishlarda yo'nalish, ishonch, g'ayrat va ijobiy ehtiroslarning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi hammamizga ma'lum. Yuksak siyosiy-ijtimoiy va axloqiy hissiyotlar, vijdoniy burch hissi va xususan vatanparvarlik hissi irodamizni mustahkamlaydi, uni kuchli va sabotli qilib, qo'yilgan maqsadni amalga oshirishimizga ishonch bag'ishlaydi.

Hissiyotlarimiz, agar irodamiz qaratilgan maqsadga mos kelmasa, u holda hissiyotlar irodaga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bunday hollarda hissiyotlarning ta'siri irodani tormozlaydi. Ko'pincha qat'iyatsizlik, beqarorlik va irodaning ojizligi shunday hissiyotlar ta'siri ostida voqe bo'ladi. Ba'zan iroda kuchini ishga solib, ortiqcha ixtiyorsiz harakatlarni quvvatlovchi hissiyotlarni cheklashga, ularni kuchsizlantirishga yoki batamom yo'qotib yuborishga to'g'ri keladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, mana shunday hollarda iroda kuchining alohida turi bo'lgan vazminlik va o'zini tuta bilish sifatlari ko'rinadi.

Kishining dunyoqarashi irodaga va iroda kuchining namoyon bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Dunyoqarash kishilarning mehnat va ijodiy faoliyatlaridagi har qanday qiyinchiliklarni yengishlarida ularning irodalarini harakatga keltiruvchi buyuk kuchdir. Ishonch-e'tiqodlar kishining intilishlari va harakatlarini ongli intilish va harakatlar bo'lishiga yordam beradi. Intilishlarimiz va harakatlarimiz, ongli intilish hamda harakatlar bo'lsa va harakatlarimiz qaratilgan maqsad muhim bo'lsa, bu harakatlar ham juda aniq, qat'iy va barqaror bo'ladi. Ulug' maqsadlar ulug' g'ayrat (energiya) tug'diradi.

Kishi o'z harakatlarida asoslanadigan axloqiy tamoyillar va bu harakatlarni amalga oshirishda dilidan kechiradigan axloqiy hissiyotlar kuchli iroda ko'rsatishda katta ahamiyatga egadirlar.

BESHINCHI QISM.
SHAXSNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

TEMPERAMENT VA XARAKTER

Temperament va xarakter odamning ijtimoiy munosabatlarida yaqqol namoyon bo‘ladigan individual xususiyatlardir. Kishining temperament va xarakter xususiyatlari bir-biriga shunday yaqindan bog‘lanib (to‘g‘rirog‘i qo‘shilishib) ketgandirki, ularning qaysi biri xarakter xususiyatlariga taalluqli ekanligini, odatda, hayot sharoitida ajratish qiyin bo‘ladi.

I BOB. TEMPERAMENT

Temperament lotincha «temperamentum» degan so‘zdan olingan bo‘lib, uning ma’nosi «aralashma» demakdir.

1. Temperament va temperament tiplari haqida umumiy tushuncha

Temperament deganda biz, odatda, kishining tabiiy tug‘ma xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan individual xususiyatlarini tushunamiz.

I. P. Pavlov temperamentni quyidagicha ta’riflaydi: «Har bir ayrim kishining va shuningdek, har bir ayrim hayvonning ham eng umumiy xarakteristikasidir, har bir individning butun faoliyatlariga muayyan qiyofa beradigan nerv sistemasining asosiy xarakteristikasidir» (Полное собрание сочинений, III tom, 2-kitob, 103-bet).

Temperament, psixologik jihatdan olganda, kishidagi hissiyotning qo‘zg‘alishlarida va kishidagi umumiy harakatchanlikda ko‘rinadigan individual xususiyatdir.

Har qaysi kishidagi hissiyotning qo‘zg‘alish tezligi, kuchi va barqarorligi har xil bo‘ladi. Bir xil odamlarning hissiyoti tez, kuchli qo‘zg‘aladi va barqaror bo‘ladi. Ba’zi kishilarda esa bunday qo‘zg‘alish sust, zaif bo‘lib, uzoqqa bormaydi. Temperamentning bunday xususiyatlari kishidagi hissiyotning qo‘zg‘alishlari bilan birga, organizmning atrofdagi muhit ta’siriga javoban ko‘rsatadigan ixtiyorsiz reaksiyalarida, ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi. Bu xususiyatlar tashqi tomondan kishining mimikalarida, pantomimikalarida, har xil beixtiyor ish-harakat va imo-ishoralarida ko‘rinib turadi. Kishi hissiyotining bunday qo‘zg‘aluvchanlik xususiyatlari diqqatning kuchi va barqarorligida, iroda sifatlarida, aqliy jarayonlar, jumladan, nutq tezligida aks etadi. Mana shunday ixtiyorsiz faollikning qanday yuz berishiga qarab, bir xil odamlarni «tez», «betoqat», «serg‘ayrat», «jo‘shqin» deymiz. Ba’zilarini esa «sustkash», «lapashang» va hokazolar deb yuritamiz. Bu xildagi individual xususiyatlardan kishining temperamenti (mijozi) tarkib topadi.

Ayrim temperamentlarning alomatlari kishining bolalik chog‘larida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Har bir kishining o‘z temperamenti bo‘ladi. Lekin har qaysi odamning temperamentlarida mana shunday individual tafovutlar bo‘lishi bilan birga, bu temperamentlarning umumiy, o‘xshash belgi va alomatlari ham bo‘ladi. Hamma xilma-xil temperamentlarni mana shunday umumiy belgilariga qarab ajratish, ya’ni klassifikatsiya qilish mumkin.

Barcha temperamentlarni qadimdan to‘rt tipga: 1) xolerik, 2) sangvinik, 3) melanxolik va 4) flegmatik temperamentga ajratish rasm bo‘lgan.

Xolerik temperament – hissiyotning tez va kuchli qo‘zg‘aluvchanligi, barqaror bo‘lishi bilan farq qiladi. Xolerik temperamentli kishilarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarida, harakatlari va nutqlarida yaqqol ko‘rinib turadi. Xoleriklar qizg‘inlik va tajanglikka moyil bo‘ladilar. Bunday temperamentli kishilar chaqqon, umuman harakatchan, serg‘ayrat va har doim urinuvchan bo‘ladilar.

Bu xil temperamentli bolalar serg‘ayrat bo‘ladilar. Ular bir ishga tez kirishadigan va boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan bo‘ladilar. Ular ko‘pchilik bilan jamoa o‘yinlar o‘tkazishni sevadilar va bunday o‘yinlarni ko‘pincha o‘zlari boshlab, oxirigacha faol qatnashadilar. Xolerik temperamentli bolalar arazchan, serjahl va tajang bo‘ladilar. Bir narsadan xafa bo‘lsalar, bu xafalik ularda uzoq saqlanadi. Ulardagi kayfiyat ancha barqaror va davomli bo‘ladi.

Sangvinik temperament – hissiyotning tez, kuchli qo‘zg‘aluvchanligi, lekin beqaror bo‘lishi bilan farq qiladi. Sangvinik temperamentli kishilarning kayfiyati tez-tez o‘zgarib, bir kayfiyat o‘ziga teskari bo‘lgan ikkinchi bir kayfiyat bilan tez almashib turmog‘i mumkin. Sangviniklardagi psixik jarayonlar, xoleriklardagi singari, tez o‘tadi. Bu xil temperamentli kishilar ildam, chaqqon, serharakat va jo‘shqin bo‘ladilar. Sangvinik temperamentli kishilar tevarak-atrofdagi voqealardan tez ta’sirlanadilar va muvaffaqiyatsizliklar hamda ko‘ngilsiz hodisalar uncha qattiq xafa qilmaydi. Ular ko‘p ishga tez va g‘ayrat bilan kirishadigan bo‘ladilar, lekin ishdan tez soviydilar. Bir zayldagi ishlarni uzoq davomli sur’atda bajarishga moyil bo‘lmaydilar.

Sangvinik temperamentli bolalar juda serharakat, ildam va chaqqon bo‘ladilar. Ular har qanday ishga qatnashish uchun doim tayyor bo‘ladilar. Ko‘pincha, bir qancha vazifalarni birdaniga bo‘yinlariga oladilar. Lekin, har bir ishga ishtiyoq bilan tez kirishganliklari singari, boshlagan ishdan tez qaytishlari ham mumkin. Sangviniklar chin ko‘ngildan va’dalar berishlari, lekin, ko‘pincha, va’dani unutib, uni bajarmasliklari ham mumkin. Bu xil temperamentli bolalar o‘yinlarga tez va zavq bilan kirishadilar, lekin o‘yin davomida, o‘z rollarini tez-tez o‘zgartirib turishga moyil bo‘ladilar. Ular darrov xafa bo‘lishlari va yig‘lashlari mumkin, lekin

ular xafalikni tez unutadigan bo‘ladilar. Ularning yig‘isi kulgi bilan tez almashadi.

Melanxolik temperament – hissiyotning sekin, lekin kuchli qo‘zg‘aluvchanligi va barqaror bo‘lishi bilan farq qiladi. Melanxoliklar barqaror, davomli bir kayfiyatga moyil bo‘ladilar, lekin hissiyotlarining tashqi ifodasi juda zaif bo‘ladi. Melanxolik temperamentli odamlar sust-kash bo‘ladilar. Melanxolik temperamentli odam ishga birdan kirish-masligi mumkin, lekin bir kirishsa, boshlagan ishni oxiriga yetkazmay qo‘ymaydi.

Bunday temperamentli bolalar mo‘min-qobil, yuvosh bo‘ladilar, ko‘pincha, birov savol bilan murojaat qilsa, uyalib, tortinib javob be-radilar. Ularni darrov xafa yoki xursand qilish yengil emas, lekin bir narsadan xafa bo‘lsalar, bu xafalik uzoq davom etadi, barqaror bo‘ladi. Ular bir ishga yoki o‘yinga tez yopishib kirishmaydilar, lekin qandaydir ish yoki bir o‘yin boshlasalar, bunda chidam va matonat ko‘rsatadilar.

Flegmatik temperament – hissiyotning juda sekin, kuchsiz qo‘zg‘alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi. Flegmatik temperamentli kishilar hissiyotlarining tashqi ifodasi kuchsiz bo‘ladi. Bu xil temperamentli odamlarni xursand qilish, xafa qilish yoki g‘azablantirish ancha qiyin.

Flegmatiklarning psixik jarayonlari sust bo‘ladi. Bu xil temperamentli odamlar nihoyat og‘ir, yuvosh, bosiq, harakatlari salmoqli bo‘ladi. Agar bir faoliyatga kirishsalar, uni qat’iyat bilan davom ettiradilar.

Flegmatik temperamentli bolalar yuvosh, mo‘min qobil bo‘ladi. Ular ko‘pchilikka aralashmaydigan, tortinchoq va hech kimga tegmaydigan, birovni ranjitmaydigan bo‘ladilar. Agar birov ular bilan urish chiqarmoq-chi bo‘lsa, o‘zlarini chetga olishga harakat qiladilar. Ular shovqin-suronli, harakatli o‘yinlarga moyil bo‘lmaydilar. Bu xil temperamentli bolalar jizzaki bo‘lmaydilar va odatda ular o‘yin-kulgilarga moyil emaslar.

Flegmatik temperamentli kishilar (bolalar) tashabbus ko‘rsatishga moyil bo‘lmaydilar, lekin ular faoliyati yo‘lga qo‘yilsa, ancha qunt bilan ish ko‘radilar, yaxshi o‘qib ketishlari mumkin.

Har qaysi odam temperamentini batamom bir tip doirasigagina «sig‘dirib» bo‘lmaydi, albatta. Tip tushunchasining o‘zi faqat bir-birlariga o‘xshash bir guruh odamlarnigina o‘z ichiga olishini nazarda tutadi. Har qaysi odam temperamentida o‘ziga xos individual xususiyatlari bo‘ladi, bu xususiyatlarni batamom muayyan bir temperament tipiga kiritib bo‘lmaydi. Bu xususiyatlar ayni individual xususiyatlardir, ya’ni shu shaxsning o‘zigagina xos xususiyatdir. Ko‘pchilik odamlarda bir tip temperament alomatlari ikkinchi bir tip temperament alomatlari bilan qo‘shilgan bo‘lishini ko‘ramiz; chunonchi, xolerik temperamentli kishida melanxolik yoki flegmatik temperament alomatlari bo‘lishi, sangvinik

temperamentli kishida xolerik va flegmatik temperament alomatlari bo‘lishi mumkin va hokazo.

Odamlarni faqat ularda qaysi temperament belgilari ustun bo‘lsa, shunga qarab, ma’lum bir temperament tipiga kiritish mumkin.

2. Temperamentning klassik nazariyalari va uning fiziologik asoslari

Temperament haqidagi ta’limot dastlab qadimgi (bizning eramizdan oldingi 460–356-yillarda yashagan) grek olimi Gippokrat tomonidan yaratilgan. Uning ta’limotiga muvofiq sur’atda, keyinchalik «temperament» termini ham ishlatiladigan bo‘ldi, shuningdek, hamma to‘rt tip temperament nomlari o‘rnashib qoldi.

Gippokrat ta’limotiga muvofiq, odamlarning temperament jihatidan turlicha bo‘lishi, ularning organizmidagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Gippokrat fikricha, odam tanasida to‘rt xil suyuqlik (xilt) bordir. Chunonchi, o‘t yoki safro (grekcha – shole), qon (lotincha – sandus), (qora o‘t – grekcha melanhole) va balg‘am (grekcha – rhlegma) bordir. Bu suyuqliklarning har biri o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, ularning o‘z vazifasi, ishi bordir. Chunonchi, o‘tning xususiyati – quruqlikdir. Uning ishi – organizmdagi quruqlikni saqlab turish, ya’ni badanni quruq tutishdir. Qonning xususiyati – issiqlikdir. Uning ishi – organizmni isitib turishdir. Qora o‘tning xususiyati – namlikdir. Uning ishi badan namligini saqlab turish, uning namligini tutib turishdir. Balg‘am (shilimshiq modda)ning xususiyati sovuqlikdir. Uning ishi – badanni sovitib turishdir. Gippokrat fikriga muvofiq, har qaysi odamda shu to‘rt xildagi suyuqlikdan biri ko‘proq bo‘lib, ustun turadi. Bu aralashma (lotincha – temperamentum) lardan qaysi biri ustun bo‘lishiga qarab, odamlar temperament jihatdan har xil bo‘ladilar. Xoleriklarda sariq o‘t ustun; sangviniklarda – qon; melanxoliklarda – qora o‘t; flegmatiklarda esa balg‘am (shilimshiq modda) ustun bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Gippokratning mana shu to‘rt xil moddalar aralashmasi to‘g‘risidagi ta’limotidan kelib chiqqan *temperament* so‘zi qadimgi zamonlardan beri hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Jahon madaniyatiga ulkan xissa qo‘shgan buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino ham o‘zining ruhiy jarayonlar haqidagi izlanishlarida «mijoz» masalasiga alohida e’tibor berdi. U buyuk grek olimi Gippokratning temperament haqidagi ta’limotini chuqur o‘rgandi «mijoz» haqidagi ta’limotini ishlab chiqdi. Ibn Sino «mijoz» organizmning ruhiy va jismoniy barqarorligini ko‘rsatadigan ta’sirlarga javobidir deb ko‘rsatdi. U organizmni tashqi ta’sirlarni qabul qilishi va unga javob reaksiyasini berishida mijozni turlicha

ya'ni issiq, sovuq, quruq, nam, kuchli va kuchsiz paydo bo'lishini aniqladi.

Mijoz odamda tabiiy ravishda paydo bo'lishini va ular orqali odam ovqatlarni, havo haroratini, yoqimli va yoqimsiz narsalarni bir-biridan farq qiladi deb «issiqlik» va «sovuqlik» tushunchasini ajratib «issiq mijoz, sovuq mijoz» deb kishilarni ajratadi. Issiq mijozli kishilar koloriyasi kuchli mahsulotlarni ya'ni yog'li ovqat, qo'y go'shti, tuxum, qant, yong'oq, mag'iz, qora choy kabilarni iste'mol qiladilar, bular qonni oshiradi, kuchni, haroratni oshiradi; sut, mastava, ko'k choy, baliq, o'simlik va boshqalar sovuqlikni oshiradi va ular mijozga ta'sir etadi deydi. Shunga binoan issiqlikni ko'p iste'mol qiluvchilar issiq mijoz, sovuqlik mahsulotlarini iste'mol qiluvchilar sovuq mijoz bo'ladi deb ko'rsatadi. Ibn Sino qadimgi grek ta'limotiga binoan mijozning fiziologik asosi haqidagi to'rt moda ya'ni olov, havo («yengil» element), suv, yer («og'ir» element) va uning xususiyatlarini tahlil qilib, olov-issiq, yengil; xavr-issiq va nam, suv-sovuq va nam, yer-quruq va sovuqligiga asoslanib mijozni issiq, o'rtacha, sovuq bo'lishini aniqlab berdi.

Mutafakkir olim mijozni odam organizmining xususiyatini ifodalashini va u tashqi muhit faktorlarini jismoniy va ruhiy idrok qilinishidir degan fikrni ilgari surdi.

XX asrning 30–40 yillariga kelib temperament va uning nerv-fiziologik asoslari haqidagi ta'limot rus fiziologi I. P. Pavlov tomonidan ishlab chiqildi.

Temperament xususiyatlarining ilmiy sabablari I. P. Pavlovning yuksak nerv faoliyat tiplari haqidagi ta'limotida ochib berildi. I. P. Pavlov yuksak nerv faoliyat turlari deganda hayvon bilan odam nerv sistemasining faoliyatidagi eng muhim xususiyatlarning chatishuvini tushunar edi.

I. P. Pavlov itlar ustida ko'p tajribalar o'tkazib, reflekslarni tekshirishi natijasida, hayvonlar nerv sistemasining a) qo'zg'alish va tormozlanishning kuchiga, b) bu jarayonlarning muvozanatiga va d) ularning ildamlik darajasiga qarab bir-biridan farq qilishini aniqladi.

I. P. Pavlov ajratishicha, nerv sistemasining kuchi hujayralardagi fiziologik moddalarning zapas miqdori bilan belgilanadi.

Kuchli tipdagi nerv sistemasida bunday zapas ko'p miqdorda bo'lib, kuchsiz tipda ozdir.

Nerv sistemasining kuchi qo'zg'alish jarayoniga ham, shuningdek, tormozlanish jarayoniga ham tegishlidir. Nerv sistemasining kuchi, avvalo, kuchli qo'zg'ovchilarga «bardosh» bera olish qobiliyatida ko'rinadi.

«Nerv jarayonlari kuchining ahamiyati shundan ravshan ko'rinib turadiki», – deydi I. P. Pavlov, – atrofdagi muhitda odatdan tashqari, favqulodda hodisalar, zo'r kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchilar ma'lum

darajada tez-tez voqe bo‘lib turadi, shu bilan birga, tabiiy ravishda, ko‘pincha, bu qo‘zg‘ovchilarning ta’sirini boshqalarning talabiga va shuningdek, undan ham qudratli bo‘lgan tashqi sharoitning talabiga muvofiq bosmoq, to‘xtatib turmoq zaruriyati tug‘iladi. Nerv hujayralari esa o‘z faoliyatining bunday haddan tashqari zo‘riqishiga bardosh berishi kerak» (I. P. Pavlov, Полное собрание сочинений, III tom, 2-kitob, 268-bet).

Nerv sistemasidagi muvozanat, I. P. Pavlov ta’limotiga muvofiq, nerv sistemasining qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining kuch darajasini teng baravar holda tutib tura bilish qobiliyatida ko‘rinadi. Qo‘zg‘alish va tormozlanish baravar darajada kuchli yoki kuchsiz bo‘lganda, nerv sistemasida muvozanat bo‘ladi. Shu jarayonlardan biri kuchliroq yoki kuchsizroq bo‘lsa, nerv sistemasida muvozanat bo‘lmaydi.

Nerv sistemasining ildamligi (labilligi) miya po‘stining biron qismidagi qo‘zg‘alishning tormozlanishi bilan yoki, aksincha, tormozlanishning qo‘zg‘alish bilan naqadar yengil almashinishidan iborat. I. P. Pavlov nerv sistemasining bu xususiyatiga, ayniqsa, katta ahamiyat bergan edi. «Ravshanki, eng muhimi ildamlikdir, — deydi u, — hayot o‘zi deganicha qilaveradi, hamma sharoitni o‘zgartirib yuboradi, u juda ham o‘zgaruvchan, kimki sergaklik bilan bu o‘zgarishlarni darrov payqab ola bilsa, ya’ni ildam esga ola biladigan nerv sistemasi bo‘lsa, o‘sha yutadi» («Павловские среды», II tom, 244-bet).

Yuqorida ko‘rsatilgan belgilariga qarab, nerv sistemasining quyidagi to‘rt asosiy tiplarini ajratiladiki, bular I. P. Pavlov fikricha, Gippokratning to‘rtta temperament tipiga to‘g‘ri keladi:

a) kuchli muvozanatli va epchil tip. Serharakat tip. Bu tip sangvinik temperament asosini tashkil etadi;

b) kuchli, muvozanatli inert (sustkash) tip og‘ir vazmin tip. Flegmatik temperamentning asosini tashkil etadi;

d) kuchli, lekin muvozanatsiz, ya’ni qo‘zg‘alish tormozlanishdan ustun chiqadigan, qizg‘in, jo‘shqin, tip. Bu — xolerik temperamentning asosini tashkil etadi;

e) kuchsiz tip. Melanxolik temperamentning asosini tashkil etadi.

I. P. Pavlov nerv faoliyatining bunday tiplari odamlarga ham xos deb hisoblaydi. «Hayvonlar nerv sistema tiplarini klassifikatsiyalashning elementar fiziologik asoslariga suyanib turib, — deydi I. P. Pavlov, — ana shu tiplarni ko‘pchilik odamlarga nisbatan ham qabul qilish lozim».

Shunday qilib, temperament, I. P. Pavlov ta’limotiga muvofiq, yuksak nerv faoliyat tiplarining kishi xulqida namoyon bo‘lishidan iboratdir.

3. Temperamentning o‘zgarishi

Ammo temperament haqida bayon qilingan bu fikrlardan odam tem-

peramentining barcha xususiyatlari albatta nerv sistemasining tuzilish xususiyatlari bilan qat'iy ravishda belgilanadi va o'zgarmaydi, degan xulosa chiqarish yaramaydi. Nerv sistemasining ma'lum bir tipi faqat shaxsda ma'lum sifatlarga moyillik vujudga keltiradi, unga zamin hozirlaydi, xolos. Temperamentga xos bo'lgan xususiyatlarni kishi o'z irodasi, istagi bilan o'zi o'stira oladi, birmuncha yo'qota yoki o'zgartira oladi. Kishi temperamenti xususiyatlaridagi bunday o'zgarishlar kishining shaxsiy istagi bilangina vujudga kelib qolmay, balki, kishining hayot tajribasi jarayonida, tevarak-atrofdagi muhit ta'siri, asosan tarbiya ta'siri ostida ham vujudga keladi.

Nerv faoliyatining o'zi qandaydir o'zgarmaydigan bir narsa emasligini I. P. Pavlov takror-takror uqtirib o'tgan. U nerv sistemasining faoliyati «turmush beradigan tarbiya ta'siri bilan» o'zgarishi mumkin va bir shaklga kirgan nerv faoliyati faqat tug'ma nerv sistema tipi bilangina belgilanmasdan, balki organizm hayotining butun tarixi bilan ham belgilanadi, deb hisobladi.

«Odam bilan hayvonning xatti-harakati, – deydi I. P. Pavlov, – faqat nerv sistemasining tug'ma xususiyatlarigagina bog'liq bo'lib qolmay, balki organizmning individual hayotida unga doim ko'rsatilgan va ko'rsatilayotgan ta'sirlarga ham bog'liqdir, ya'ni, keng ma'noda olganda, doimiy tarbiya yoki o'rgatishga bog'liqdir. Buning sababi shuki, nerv sistemasining yuqorida ko'rsatilgan xossalari bilan bir qatorda, uning eng muhim xossasi bo'lgan eng yuksak plastikligi ham to'xtovsiz kor qilib turadi. Demak, agar gap nerv sistemasining tabiiy tipi to'g'risida borar ekan, u vaqtda tug'ilgan kunidan boshlab mana shu organizmga ta'sir etgan va hozirgi vaqtda ham ta'sir etib turgan hamma ta'sirlarni hisobga olmoq kerak» (Полное собрание сочинений, III том, 2-kitob, 269-bet).

Kishining temperamenti o'zicha ayrim ravishda namoyon bo'lmaydi, u kishining xarakteri tarkibiga kiradi.

II BOB. XARAKTER

1. Xarakter to‘g‘risida umumiy tushuncha

«Xarakter» yunoncha «xaraktir» degan so‘zdan olingan bo‘lib, «qalqiq chiziq» ma’nosini anglatadi. Bu yerda tanga, chaqa yuziga tushirilgan bo‘rtma tamg‘a ko‘zda tutiladi.

Xarakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta’siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak-atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga), o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz.

Shaxsning xarakteriga tegishli bo‘lgan xususiyatlarni **xarakter xislatlari** deyiladi. Xarakter xislatlari kishida tasodifiy uchraydigan xususiyat bo‘lmay, balki kishining xulqidagi **doimiy, barqaror xususiyatlar** bo‘lib, bu xususiyatlar shaxsning o‘zigagina xos bo‘ladi.

Har bir odam ayrim paytlarda mardlik, salobatlilik, rostgo‘ylik, sofdillik ko‘rsatishi mumkin. Lekin kishining hayoti va faoliyatida ayrim paytlardagina yuz beradigan bunday xususiyatlar hali uning barqaror xarakter xususiyatlari bo‘la olmaydi. Biz kishi xarakterini ta’riflamoqchi bo‘lganimizda, bu odam mardlik qildi yoki rostgo‘ylik, sofdillik ko‘rsatdi demasdan, balki bu odam mard, rostgo‘y, sofdil deb gapiramiz. Bu degan so‘z, mardlik, to‘g‘rilik, sofdillik shu odamga xos fazilat, uning xarakter xislati degan so‘zdirki, tegishli paytda mardlik, rostgo‘ylik, sofdillik ko‘rsatishni biz muqarrar ravishda bu odamdan kuta olamiz. Agar biz bir kishining xarakter xususiyatini bilsak, bu odamning tegishli paytda qanday xatti-harakat ko‘rsatishni oldindan to‘g‘ri taxmin qila yoki ayta olamiz.

Kishi xarakteri tarkibiga kiradigan ayrim xislatlari ijtimoiy munosabatlarning taraqqiyotiga bog‘liq holda, tarixiy ravishda vujudga kelgan va o‘zgargan. Har bir jamiyatning, har bir xalqning o‘ziga xos xarakteri bo‘ladi. Halqlarning ijtimoiy yashash sharoiti, unda ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi shu jamiyatda yashayotgan kishilar xarakteriga ta’sir qiladi. Masalan: o‘zbek xalqi mustaqillikka erishgandan keyin uning ruxiy qiyofasi, milliy tuyg‘usi, xulq-atvori ham o‘zgara boshladi. Xalqimizning tarixiy an’analari, urf-odatlari, turmush tarzi, madaniy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlari bizning hayotiy, ma’naviy, ilmiy e’tiqodlarimiz uchun asos bo‘lib qoldi. Milliy o‘z-o‘zini anglash odamning ijtimoiy etnik umumiylikka mansubligida, ijtimoiy sohalardagi munosabatlarda, o‘z millatining egallagan mavqeyini yaqqol tasavvur qilganligida, milliy manfaatdorligida yorqin ifodasini topadi. Milliy (g‘urur, iftixor) tuyg‘u shaxslararo munosabat jarayonida hissiy ta’sirlanishda, yuksak ichki tuyg‘ularda (nafosat, lazzatlanish, rohatlanish, qoniqish), ijodiy g‘oyalar tug‘ilishida, milliy zavq va shavqda, kayfiyat, shijoat, xush ko‘rish, yoqtirmaslik kabi tuyg‘ularda aks etadi.

Ota-bobolarimizdan bizga meros qolgan saxiylik, mehmondo‘stlik, rostgo‘ylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik, fazilatlari milliy xarakterning eng muhim jihatlaridir. Axloq, odobli bo‘lish, ota-onalar, kattalarga hurmat, samimiylik, inoqlik, qadr-qiymat, vijdonlilik, iffatlilik, o‘zaro yordam, hashar kabi insoniy xislatlar o‘zbek halqi ma’naviyatining ramzi bo‘lib qoldi.

2. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, kishi temperamenti uning xarakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xarakterning fiziologik asosi nerv sistemasining tipidan iborat.

Ijtimoiy muhitning ta’siri, tarbiya va mehnat faoliyati jarayonida kishi xarakterining tarkib topishida, shubhasiz uning nerv sistemasida ham o‘zgarishlar yuz beradi. Bunday o‘zgarishlar nerv sistemasining plastiklik deb ataluvchi xususiyatiga ko‘ra yuzaga keladi.

Xarakter xislatlari shaxsning keyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo‘lganligi tufayli, xarakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida nerv sistemasining o‘zgargan xususiyatlaridan iborat.

Hayvon nerv faoliyati tiplarini analiz qilib, I. P. Pavlov bunday deb yozadi: «Tip hayvon nerv faoliyatining tug‘ma konstitutsion turi – genotipdir. Lekin hayvon tug‘ilganidan boshlab tashqi sharoitning g‘oyat xilma-xil ta’sirlariga duch keladi va bunga muayyan faoliyatlari orqali u muqarrar javob berishi lozim bo‘ladiki, ko‘pincha, bu faoliyatlar mustahkamlanib, nihoyat butun hayotining oxirigacha saqlanib qoladi, shu sababli hayvonning batamom tarkib topgan nerv faoliyati tipga oid belgilar bilan tashqi muhit ta’siri ostida hosil bo‘lgan o‘zgarishlarning qotishmasidir – fenotip, xarakterdir».

I. P. Pavlov o‘zgaruvchan nerv sistemasi tipini katta miya yarim sharlari po‘stining sistemalilik ishi bilan va nerv jarayonlarining tarkib topgan, muvozanatli sistemasidan iborat bo‘lgan dinamik stereotip bilan bog‘laydi.

Stereotip shaxsdagi mustahkam odat bo‘lib qolgan xususiyatlarning, jumladan, xarakter xislatlarining ham nerv-fiziologik asosidir.

Xarakterning nerv-fiziologik asosini tushunish uchun I. P. Pavlovning ikkinchi signal sistemasidagi ta’limoti katta ahamiyatga egadir. Ikkinchi signal sistemasi nutq va tafakkurning fiziologik asosi bo‘lishi bilan birga kishi xulqini ham idora qiladi.

«Normal o‘sgan odamda, – deb yozadi I. P. Pavlov, – ikkinchi signal sistemasi odam xulqining oliy boshqaruvchisidir». Xarakterning fiziologik asosi to‘g‘risida gapirganda barcha xarakter xislatlari go‘yo faqat nerv sistema tipi xususiyatlari bilangina belgilanadi deb tushunish yaramaydi, albatta.

Xarakterning fiziologik asosi xarakterning mazmunini tashkil qiladigan sifatlarni, chunonchi, ijtimoiy maslak, mardlik, o‘z burchiga sadoqatli bo‘lishlarni o‘z ichiga olmaydi va ololmaydi ham, albatta. Xarakter psixologiyasining mazmuni o‘zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy kategoriyadir; psixologiya xarakterning mazmunini tashkil qilgan tomonlarini yoritishligi tufayli, u ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi.

3. Xarakterning ayrim xislatlari

Dunyoda ikkita bir xil xarakterga ega bo‘lgan kishilarni uchratish mumkin emas. Chunki har kimning yashash muhiti,olgan ta’lim-tarbiyasi, uni qabul qilishi, asab tizimi xususiyatlari va tiplari turlicha bo‘ladi. Shuningdek, xarakterning ayrim xislatlari kishi psixikasining bir sohasida ayniqsa ravshan namoyon bo‘ladi. Shunga binoan biz xarakter xislatlarini iroda bilan bog‘liq bo‘lgan, hissiyot va aql-farosat bilan bog‘liq bo‘lgan xislatlar deb ajratamiz.

Iroda bilan bog‘liq xarakter xislatlari

Kishidagi mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatlari xarakterning iroda bilan bog‘liq bo‘lgan xislatlaridir. Shu sababli, xarakter haqidagi ta’limotda ham o‘zini tuta bilish, dadillik, qat’iyat singari iroda sifatlari ustida yana to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Lekin bu yerda biz ularning kishida ahyon-ahyonda ko‘rinishi ustida emas, balki bunday sifatlar kishining shaxsiy fazilatlariga aylanib ketishi to‘g‘risida, ularning ayrim kishi xarakteri xislatlari tariqasida namoyon bo‘lishi haqida gapiramiz.

Kishining iroda bilan bog‘liq bo‘lgan xarakter xislatlari, odatda, undagi emotsional xususiyatlar bilan muayyan nisbatda namoyon bo‘ladi. Ba’zi odamlarning irodasi tuyg‘u-hissiyotlaridan ustun turadi. Bunday odamlar o‘z maqsadiga yetishiga xalal berishi mumkin bo‘lgan har qanday his-tuyg‘ularini darhol bostira oladi. Odatda, bunday odamlarni **irodasi kuchli, mustahkam irodali odam deyiladi.**

Shunday odamlar ham bo‘ladiki, ularning xatti-harakatida hissiyot ko‘proq o‘rin oladi; bunday odamlar o‘z xatti-harakatlarida ko‘pincha tasodifan tug‘iladigan his-tuyg‘ulari ta’siri ostida ish ko‘radilar. Bunday odamlarning hissiyoti kuchli bo‘lib, tasodifiy kayfiyat va tuyg‘u-hissiyotga tez beriluvchan bo‘ladilar, shu sababli ularning xarakteri **hissiy xarakter** deb ta’riflanadi. Ba’zi odamlarda esa irodaviy faollik undagi tuyg‘u-hissiyotlar bilan birlikda «monand ravishda» namoyon bo‘ladi. Masalan, mehnatsevarlik mana shunday xarakter xislatiga ega bo‘lishdir. Mehnat faoliyati kishidan chidam va irodaviy zo‘r berishni talab qiladi, buni esa unda mehnatga bo‘lgan muhabbat hissi yengillashtiradi, mehnatni serunum

qiladi. Iroda bilan tuyg‘u-hissiyotlarning mana shunday nisbati bequsur, uyg‘un xarakter alomatidir.

Xarakter kuchi va mustahkamligi

Odamlarning o‘zaro, kundalik munosabatlarida ham, ish sharoitida ham kishi xarakteri to‘g‘risida gapirilganda, odatda, uning xarakteri kuchi va mustahkamligi qay daraja namoyon bo‘lishiga qarab hukm chiqariladi. Kishi xarakteridagi bunday xislat, avvalo, uning o‘z mehnat faoliyatlari va xatti-harakatlarida ko‘zlaydigan maqsadning aniqlik darajasidan iborat bo‘ladi.

Kishidagi irodaviy faollik intilishdan boshlanishi, intilishlar esa qanchalik anglab olinganligiga qarab bir-biridan farq qilishi sababli, odamlar xarakteri ham, ularda qanday intilish ustun bo‘lishiga qarab, bir-birlaridan farq qiladilar.

Ba’zi odamlarning qiladigan harakatlarida hali yaxshi anglab olinmagan intilish, ya’ni moyillik ustunlikni egallaydi. Bunday kishilarning intilishi, ko‘pincha, noaniq, mazmunsiz bo‘ladi. Bunday kishilar hamma vaqt nimanidir qidiradilar, nimanidir qo‘msaydilar, doimo ularga nimadir yetishmaydi, nimadir istaydilar, ammo uning nima ekanligini o‘zlari ham bilmaydilar. Ularni hech narsa qanoatlantirmaydi. Ularda hamma vaqt zerikish, xomushlik, «nolish», «tajribasizlik»ni ko‘ramiz. Bunday odamlarda, ko‘pincha, ko‘ngli notinchlik, bezovtalik va hovliqish bo‘ladi, xatti-harakatlarida rejasizlik, tanglik ko‘p bo‘ladi.

Ba’zi odamlar nimaga intilayotganliklarini anglaydilar, lekin uni amalga oshirish uchun faoliyat ko‘rsatmaydilar. Ular hamisha nimanidir qo‘msaydilar, noliydilar, o‘zlarini va atrofdagi kishilarni tanqid qiladilar. Bunday odamlar orzu-xayollar (ko‘pincha, «yaxshi» niyatlar) ga beriladilar, goho-goho g‘ayratlari jo‘sh uradi, ammo aslida ular faoliyatsiz, sustkash bo‘ladilar.

Bunday xislatlar, asosan, tarixiy o‘tmish kishilari xarakteri alomatlari bo‘lib, zamonamiz kishilari xarakteridan uzoqlashib bormoqda.

Kishi xarakterining muhim ijobiy xislati maqsadga intilishdir, kishida muayyan xohish tariqasidagi batamom **anglab olingan intilishning** ustun turishidir. Bunday kishilar istaklari nima ekanligini, maqsadlari nimadaligini va unga erishish uchun nimalar qilmoqligi va qanday qilmoq lozimligini hamisha biladilar. Ular aniq maqsadga ega bo‘lib, shu maqsadga muvofiq harakat qiladilar. Iroda bilan bog‘liq bo‘lgan xarakter xislati ayni vaqtda aql-farosat bilan bog‘liq iroda xislati hamdir.

Xarakterning iroda bilan bog‘liq bo‘lgan xislati qat’iyatlilik va barqarorlikdir. Ba’zi odamlarni biz qat’iyatli, barqaror deymiz, ba’zilarini esa qat’iyatsiz, mujmal, beqaror deb ataymiz.

Qat’iyatli, barqaror odam deb, ortiqcha ikkilanmasdan, tez bir qaror-

ga keladigan kishilarni aytamiz. Qat'iyat kishining shu o'rinda qay darajada aql-farosat bilan ish ko'rishiga qarab turli tus oladi.

Qat'iyatning o'zi, albatta, kishi yuksak g'oyaviy va axloqiy tamoyillarga asoslangandagina ijobiy xislat bo'la oladi. Har doim muhokama qilib, asosli ravishda, kerak bo'lib qolganda shoshilmasdan, donolik bilan ish ko'radigan odamni aqlli, dono, vazmin odam deb aytamiz.

Lekin xarakteri e'tibori bilan qat'iyatli bo'lgan kishilar ichida ayrim tuyg'ularga berilib, kayfiyatiga qarab tez, shoshqaloqlik bilan qarorga keluvchi kishilar ham bo'ladi. Bunday odamlar emotsional, impulsiv tabiatli bo'lib, ular odatda, o'zlarining shoshma-shosharliklari, yengiltakliklari va betayin bo'lishliklari bilan ajralib turadilar.

Qat'iyat ortiqcha ikkilanmasdan o'ylab, to'g'ri qaror chiqara olganda va ularni dadillik bilan amalga oshira bilgandagina kishi xarakterining ijobiy xislati bo'la oladi.

Kishi xarakteridagi bu xislat bir qancha narsa yoki imkoniyatlardan bittasini darrov, tezlik bilan ajratib olib hal etishni talab etadigan va ba'zan tavakkal bilan jur'at qilishni talab etadigan murakkab bir vaziyatda, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi.

Qat'iyatsizlik, jur'atsizlik salbiy xarakter xislatlaridandir.

Qat'iyatsiz, jur'atsiz kishi juda sekinlik bilan qaror chiqaradi, o'zining chiqargan bunday qarorlarini ham, ko'pincha, vaqtida bajarmaydi. Bunday odam har xil imkoniyatli, ehtimolli va, ayniqsa, tavakkal bilan jur'at qilish talab etadigan ishlarni bajarishda o'z qarorining to'g'riligiga ishonmay, shubhalanadigan bo'ladi.

Barqarorlik qat'iyat bilan yaqindan bog'langan bo'lib, ijobiy xarakter xislatidir. Bunday xarakter xislatiga ega bo'lgan odamlar, odatda, bergan qarorlarini o'zgartirmaydilar, bekor qilmaydilar va bajarmay qo'ymaydilar. Bunday odamlar o'z so'zida, va'dasida turadigan, saxovatli bo'ladilar; ularning so'zi bilan ishi bir-biriga mos bo'ladi. Bunday odamlar o'z so'zida mustahkam, ularga ishonsa, suyansa bo'ladi.

Beqaror odamlar deb, o'z qarorlarini tez-tez o'zgartirib turadigan yoki aynib turadigan odamlarni aytamiz. Bunday odamlar o'z so'zida, va'dasida turmaydilar, subutsiz bo'ladilar Bunday odamlarning so'ziga ishonib va umid qilib bo'lmaydi.

Xarakterning iroda bilan bog'liq bo'lgan eng yaqqol xislati kishi irodasining **kuchi va mustahkamligida** ifodalanadi. Bunday xislatlar har kimning xarakterida ham ma'lum darajada namoyon bo'laveradi. Xuddi shunday kuchli iroda va mustahkam xarakterga ega bo'lgan kishilar bizda yuksak qadrlanadi.

Xarakterning kuchi va mustahkamligi o'zini tuta bilishlik, dadillik, chidam va matonatda ko'rinadi.

O‘zini tuta bilish tariqasida namoyon bo‘ladigan xarakter xislati kishining o‘z xatti-harakatini nazorat qila bilishda, o‘zini tuta bilishida, tasodifiy yuz beradigan ixtiyorsiz harakatlarini idora qila olishda, tilini tiya bilishda, muayyan sharoitda nojo‘ya yoki zararli deb isbotlangan harakatlardan o‘zini tiya bilishda ko‘rinadi. Bunday kishilar vazmin, o‘zini tuta biladigan, saranjom-sarishta bo‘ladilar.

Xarakter kuchi **dadillikda** ham ko‘rinadi. Dadil odamlar har qanday mashaqqat va to‘siqlarga qaramay, ko‘zlangan maqsadiga erishadigan bo‘ladilar. Bunday kishilar boshlagan bir ishni o‘z tinchligining buzilishiga, hatto o‘zining hayoti uchun xavfli bo‘lishiga qaramay, oxiriga yetkazadigan, sabotli, jur’atli, botir va jasur bo‘ladilar.

Matonat shunday xarakter xislatidirki, bu xislatlarga ega bo‘lgan odam sobitqadam, chidamli, ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishda duch kelgan hamma qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan va ularni yenga oladigan bo‘ladi.

Xarakter xislati tariqasida namoyon bo‘ladigan matonat, sabotlilik ba’zi odamlarning barcha faoliyatlarida yuz bersa, ba’zilari esa o‘zlari qiziqadigan ayrim faoliyatlari sohasidagina yuz beradi.

Matonatli kishilar boshlagan ishlarini hamma vaqt oxiriga yetkaza oladigan bo‘ladilar.

Matonatli odam muvaffaqiyatsizlikka duch kelib qolganda ruhi tushmaydi, aksincha, ko‘zlagan maqsadga yetish yo‘lida yanada qat’iyat bilan kirishib, yangi yo‘l va vositalar izlaydi va maqsadiga erishadi.

Matonatli odamlar o‘ziga va boshqalarga nisbatan **talabchan** bo‘lish bilan ajralib turadilar. Bunday kishilar o‘z kuchiga **ishonadigan** bo‘ladilar. Bular mo‘ljallangan narsani amalga oshirishda duch kelgan har qanday to‘siqlarga qarshilik ko‘rsata oladigan, sabotli bo‘ladilar.

Bunday kishilar chidamli, o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida uchragan to‘siqlarga qarshi kurashlarda jismoniy va ruhiy azob hamda musibatlarga bardosh beradigan bo‘ladilar. Bular sabr-toqatli, har qanday sharoitda ham o‘zini tuta oladigan, dadillik, jasorat, matonat ko‘rsatishga qodir odamlardir. Xarakter xislati bunday odamlar zo‘r qahramonliklar ko‘rsatishga qodir bo‘ladilar. Ular o‘z hayotini bir asosiy maqsadga bo‘ysundiradi va har qanday mashaqqat hamda to‘siqlardan qaytmay, asosiy maqsadi yo‘lida kurashadi.

Bunday xarakterli odamlarga **optimistik** kayfiyat xos bo‘lib, hayotga doimo zavq-shavq bilan qaraydilar, porloq istiqbolga zo‘r umid bog‘laydilar. Ular odamlarga, ulardagi bo‘lgan imkoniyatlarga va o‘z kuchlariga, mehnat imkoniyatlariga ishonadigan bo‘ladilar.

Xarakterning salbiy xislatlaridan biri kishi irodasining bo‘shligidir.

Irodasi bo‘sh yoki xarakteri zaif deb, hatto arzimaydigan to‘siq va qiyinchiliklarni ham yenga olmaydigan odamlarni aytiladi. Bunday odamlar qo‘rqoq, jur’atsiz bo‘lib, ozgina qiyinchilik yoki muvaffaqiyatsizlikka duch kelsalar, o‘zlarining qilayotgan ishlarini to‘xtatishlari, o‘z qarorlarini o‘zgartirishlari, ko‘zlangan maqsaddan voz kechishlari mumkin. Ular sharoit talab qilgan darajada sabot, sabr-toqat, matonat va chidam ko‘rsata olmaydilar. Bunday odamlar yuraksiz, landovur, dangasa, ko‘ngli bo‘sh bo‘ladilar. Bunday odamlarning xatti-harakatlarini, odatda, o‘zlaridan ko‘ra ko‘proq tashqi sharoit idora qiladi.

Bunday xarakterli odamlar umidsizlikka moyil bo‘lib, hayotga, turmushga noshukurlik bilan qaraydilar. Ular hamma vaqt hamma yerda, hamma odamlarda faqat salbiy, yomon tomoninigina ko‘radilar. Ularning fikricha, o‘zlaridagi barcha shaxsiy kamchilik va yetishmovchiliklarga boshqalar aybdor. Bunday tipdagi ba’zi odamlar beparvo, ko‘ngilchanlikka moyil bo‘ladilar.

Bunday xarakter xislatlari bizdan yo‘qolib bormoqda.

Xarakterning mustaqilligi

Kishida muayyan darajada namoyon bo‘ladigan mustaqillik shaxsning iroda bilan bog‘liq bo‘lgan individual xususiyatlariga kiradi.

Bunday xarakter xislatlari: tashabbuskorlik, tanqidiy qarash va mas’uliyat his qilishdan iboratdir.

Tashabbuskorlik – xarakterning qimmatli xislati bo‘lib, bu xislat ko‘pchilik kishilarda ommaviy tus olgandir.

Tashabbuskor odam o‘zining shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy faoliyatlarida ham sharoitni, qo‘yilgan talablarni ustalik bilan hisobga olib, o‘rtaga yangi vazifalar qo‘yadi, qo‘yilgan vazifalarni hal etish yo‘llarini, vositalarini topadi va bu vazifalarni bajarishda o‘zi ham faol ishtirok etadi. Tashabbuskor odam jamoa mehnatda davlat reja va topshiriqlarini amalga oshirishning eng samarali vosita va yo‘llarini qidirib topadi, musobaqalar tashkil etadi, orqada qoluvchilarga yordam beradi. Tashabbuskor kishilar – faol kishilardir, ular novatorlardir.

Kishidagi tanqidiy ko‘z bilan qarash xislati boshqalarning aytgan fikr va mulohazalarini diqqat-e’tibor bilan tekshirib ko‘ra bilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shunday xislatga ega bo‘lgan odam boshqa kishilarning fikrlariga, qarashlariga, bergan maslahatlariga e’tibor bilan quloq solib ularning hammasini u, muayyan tamoyillar nuqtayi nazaridan, yaxshilab o‘ylab ko‘radi, ijobiylarini qabul qiladi va foydalanadi, noma’qul, salbiy, foydasi bo‘lmaganlarini asosli ravishda rad qiladi.

Shunday xislatga ega bo‘lgan kishi boshqa odamlar aytadigan fikr va mulohazalarning hammasini dunyoqarash va axloq tamoyillariga tayanib tekshirib chiqadi va ma’qullarini tanlab oladi.

Mas’uliyat his qilish shu odamning mustaqilligini ko‘rsatuvchi tipik xarakter xislatidir. Mustaqil odam topshiriq yoki o‘z tashabbusi bilan qilinayotgan ish uchun mas’uliyatni dadillik bilan zimmasiga oladi va boshlagan ishni oxiriga yetkazadi. U hamma vaqt adolatli tanqidni qabul qilishga, o‘z xatosini bo‘yniga olishga va uni tuzatishga tayyor turadi.

O‘z-o‘ziga tanqidiy qaraydigan kishi doimo o‘zida mas’uliyatni his qiladi va unga beparvolik yotdir. U erishgan narsasi to‘g‘risida emas, balki erishmagan narsasi haqida ko‘proq o‘ylaydi, u uchun muvaffaqiyat kelgusidagi ishga rag‘bat stimuliginadir.

Tashabbuskorlikning, tanqidiy qarashning bo‘lmasligi, o‘z xatti-harakatlarida mas’uliyat sezmaslik kishidagi mustaqilsizlikning alomati, undagi xarakterning bo‘shligini ko‘rsatadi.

Mustaqil bo‘lmagan odam hamisha sustkash bo‘lib, hammadan orqada qolib yuradi, o‘zining to‘mtoqligi bilan ajralib turadi. Bunday odamlar, odatda, o‘z ishidagi muvaffaqiyatsizlikning sababini o‘zidan qidirmay, obyektiv sharoitga to‘nkaydilar. Ular boshqalar tomonidan qilinadigan tanqidni qabul qilmaydilar va o‘z xato hamda muvaffaqiyatsizliklarining gunohkori deb boshqalarni hisoblaydilar.

Kishining **intizomlilik** tariqasida namoyon bo‘ladigan xarakter xislati jamiyat talablariga ongli va ixtiyoriy ravishda bo‘ysunishda ifodalanadi. Jumladan, intizomlilik belgilangan tartib-intizomlarga aniq rioya qilishda, o‘z burchiga sadoqatli bo‘lish bilan birga bergan va’dalarini vijdonan bajarishda ifodalanadi.

Intizomli odamga mustaqillik, tashabbuskorlik, ishchanlik va shu bilan bir vaqtda jamiyat manfaatiga va axloq tamoyillariga bo‘ysuna bilishlik xosdir. Belgilangan qoida va axloqiy tamoyillarga bo‘ysunmaydigan mustaqillik esa shaxsning o‘zboshimchalik, o‘zbilarmonlik, adabsizlik va ba’zan axloqiy jihatdan chetga chiqib ketish singari salbiy sifatlarida namoyon bo‘ladi.

4. Xarakterning axloqiy xislatlari

Xarakter kuchi va mustahkamligini ifodalaydigan barcha xislatlar ularda shaxsning axloqiy maslagi, ma’naviy qiyofasi namoyon bo‘lgani uchun ijobiy qimmatga ega bo‘ladi.

Axloqiy yoki ma’naviy xarakter xislatlari deb kishining axloqiy e’tiqodlarini aks ettiradigan xislatlariga aytiladi. Ma’naviy xarakter xis-

latlari, jumladan, kishini boshqa odamlarga, jamiyatga, mehnatga va shuningdek, o‘z-o‘ziga munosabatida namoyon bo‘ladi.

Kishining e’tiqodlarini ifodalaydigan xarakter xislatlari

Kishining ma’naviy qiyofasi haqida, avvalo, uning xatti-harakati va xulqiga qarab hukm qilamiz. Kishining ma’naviy qiyofasi, avvalo, uning xatti-harakatlari va xulqida namoyon bo‘ladi.

Axloqli odam deb, o‘zlarining intilishlarida, qarorlarida va harakatlarida har doim gumanistik axloq prinsiplariga amal qiluvchi kishilarni aytamiz.

Qat’iyat, sabot, dadillik, matonat, tashabbuskorlik, mas’uliyat hissi, intizomlilik va shu kabi iroda xislatlari kishining axloqiy qiyofasini, uning mustahkam e’tiqod va barqaror axloqiy hissini ifodalaganligi sababli, biz bu xislatlarni yuksak sifatlar deb taqdirlaymiz.

Ular qaysi kishi xarakterining ma’naviy darajasi, avvalo, o‘z faoliyatlarida yoki o‘zining ayrim xatti-harakatlarida, tamoyillarida asoslanadigan motivlarida namoyon bo‘ladiki, kishi o‘z intilish, qarorlarini va o‘z harakatlarini, shuningdek, boshqalar tomonidan chiqariladigan qaror va harakatlarini shu nuqtayi nazaridan baholaydi. Xalqimizning azal-azaldan, masalan, To‘maris, Shiroq, Farhod va bugungi kunning boshqa ko‘pgina qahramon yigit va qizlari xarakterining mustahkam matonatli bo‘lganligi ulardagi e’tiqod, ularning vatanparvarlik, o‘z xalqiga, davlatiga fidokorona sadoqat ruhida tarbiyalanganliklari samarasidir. Kishilarning ma’naviy fazilati – rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, xalq manfaatlariga, Vatan manfaatlariga sadoqatliliklaridadir. Axloqli kishilar davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan yuqori qo‘yadigan kishilardir.

Milliy xarakterning oliyjanob axloqiy fazilati – Vatan va o‘z xalqining baxt-u saodati uchun, jamiyat ideallarini amalga oshirish uchun kurashlarda o‘z hayotini qurbon qilishga tayyor turishdir.

Kishining boshqa odamlarga va mehnatga bo‘lgan munosabatlarida ifodalanadigan xarakter xislatlari

Kishining boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatlarida ifodalanadigan xarakter xislatlari odamning xatti-harakatlari va nutqida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kishining boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatlarida ifodalanadigan ijobiy xarakter xislatlari, avvalo, kishining boshqa odamlar bilan nechog‘li el bo‘lib ketishidadir. Bu xarakter xislati kishining hamisha boshqa odamlar bilan birgalikda bo‘lishga, jamoaning umumiy manfaatlari bilan nafas olishga, birgalikda qilinadigan ishlarda qatnashishga intiluvida namoyon

bo‘ladi. Kishilarga el bo‘lib ketadigan odamlar, hatto biroz muddatga bo‘lsa ham yakka qolgan paytlarida ich-ichlaridan eziladilar.

Xarakter xislati bo‘lgan el bo‘lib ketishning, o‘z navbatida, har bir kishida ba’zi bir xususiyatlari ham bo‘ladi. Chunonchi, kishi naqadar el bo‘lib ketaveradigan bo‘lmasin, shunga qaramay har bir kishining boshqa odamlarga ijobiy munosabati bir xil bo‘lavermaydi, har bir odamning boshqalarga qaraganda o‘ziga eng yaqin ko‘rgan, ko‘ngliga yoqqan oshna-og‘aynisi bo‘ladi. Har bir odamning o‘z o‘rtoqlari, do‘stlari bo‘ladi. Buni boshqacha qilib aytganda, kimgadir mehr-muhabbat qo‘yishi (sadoqat) deyiladi.

Odamlar bilan munosabat, el bo‘lib ketish doirasi har bir kishida turlicha namoyon bo‘ladi. Bir xil odamlarning o‘rtoqlari, do‘stlari ko‘p bo‘ladi, boshqa birovlarining oshno-og‘aynilari, do‘stlari kamroq bo‘ladi. Odamlar do‘stlik munosabatlari va mehr-muhabbatlarining barqarorligi yoki beqarorligi jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Bir xil odamlar o‘z do‘stlik munosabatlarida sobitqadam, vafodor, mehr-muhabbatlaridan hech qachon aynimaydigan bo‘ladilar. Bu — xarakterning ijobiy xislatidir, albatta.

Ammo odamlar bilan munosabatida yoki birodarligida beqaror, subutsiz, aynama kishilar ham bo‘ladi, bunday kishilarning do‘stlik va mehr-muhabbatida tuturiq bo‘lmaydi. Ulardagi yor-birodarlik hissi ba’zan juda ham jo‘sh urib ketishi, shuningdek, darrov so‘nib, yo‘qolib ketmog‘i ham mumkin. Bunday odamlar boshqa bir kishi bilan do‘stlashib ketaveradi, bunisidan aynib, unisi bilan do‘stlashadi.

Odamlar bilan munosabatdagi bunday tuturiqsizlik ham xarakter xislatidir, lekin u salbiy xislat.

Kishining xatti-harakatlari va so‘zlarida uning boshqa odamlarga bo‘lgan sifatlari, chunonchi, samimiylik, haqqoniylik kabi sifatlari namoyon bo‘ladi.

Samimiy va haqqoniy odam deb xatti-harakati va nutqida har doim to‘ppa-to‘g‘risini, haqiqatni aytuvchi kishilarni aytamiz. Bunday odamlar qalbi pok, hamma vaqt to‘ppa-to‘g‘risini odamning betiga dangal aytuvchi kishi bo‘ladilar.

O‘z so‘zi va xatti-harakatlarida samimiy bo‘lmagan odamlarni, boshqacha «ikkiyuzlamachi», «munofiq» deb aytadilar. So‘z boshqa-yu, ishi boshqa bo‘lib qolsa, bu juda ham yomon bir holdir. Bu hol munofiqlikka olib boradi.

Kishi xarakterining bunday salbiy xislatlari uning ko‘zbo‘yamachilik, aldamchilik, qalloblik, firibgarlik singari xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Hayot shuni ko‘rsatdiki, bunday xatti-harakatlarni faqat ayrim

kishilarga nisbatangina qo‘llanib qolmaydi, hattoki o‘z jamoasiga va o‘z davlatiga nisbatan ham qo‘llaydigan odamlar uchraydi.

Samimiyat va haqqoniylik kishi xarakterining eng muhim xislatlaridan biridir. Bu xislatlarni o‘stirish tarbiyaning muhim vazifasidir.

Kishi xarakterining yana bir ijobiy xislati gumanizm «insonparvarlik»dir, ya’ni har bir mehnatkash kishi bilan munosabatda uning qadr-qimmatini zo‘r e’tibor va sergaklik bilan saqlashdir. Xarakterning bu xislati kishilar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik ko‘rsatishda, har bir kishida uning yaxshi, ijobiy, qimmatli tomonini topa bilishda ifodalanadi. Gumanizm mehribonlikda, ziyraklikda, kishilarning ruhiy holatini, dilidagi tuyg‘ularini tushuna bilishda, ularning ehtiyojlarini avaylay bilish va yordam ko‘rsatishga tayyor tura bilishda ifodalanadi. Mehribon bo‘lish – xushmuomala bo‘lish demakdir.

Kishiga e’tibor, mehribonlik va hushmuomalalik ham har bir kishining xatti-harakatida va so‘zida namoyon bo‘ladi. Kishining so‘zi naqadar kuchli ta’sir ko‘rsatishini biz bundan oldin ham so‘zlab o‘tgan edik. Kishilarga mehribon, e’tibor bilan qaraydigan odamning shirin so‘zi ularning ruhini ko‘taradi, ularga madad beradi, g‘am-g‘ussalarini yengillashtiradi, ularga umid bag‘ishlaydi, dillarini shod qiladi.

Insonparvarlik bilan birga qo‘shilgan haqqoniylik yuksak ijobiy xarakter xislatidir.

Afsuski, xarakterida salbiy xislatga, ya’ni insonparvarlikka zid bo‘lgan dag‘allik ancha o‘rin olgan kishilar hali ham uchrab turadi. Bunday salbiy xarakter xislati ham shunday odamlarning xudbinligi natijasidirki, u odamlar faqat o‘zingni bil, o‘zgani qo‘y «misolida» ish ko‘radilar va boshqa kishilarga, hatto o‘z yaqin odamlariga ham har qadamda faqat yomonlik sog‘inishga tayyor turadilar. Bunday odamlarning xatti-harakatida ham, gap so‘zida, odatda, har doim zaharxandalik, mensimaslik, dag‘allik va beparvolik sezilib turadi, ularning boshqa odamlar bilan munosabatdagi xatti-harakati kishining dilini vayron qiladi, kayfiyatini buzadi, kishida o‘z kuchiga ishonmaslik, ma’yuslik, umidsizlik tuyg‘ularini uyg‘otadi. Xudbin, to‘ng odam boshqa kishilar bilan munosabatlarida ko‘pincha so‘zda ham, ishda ham berahm va adolatsiz bo‘ladi. Bunday odamlar o‘zlarining salbiy xususiyatlarini, odatda, boshqalarga to‘nkaydilar. Har qanday, hatto ozgina muvaffaqiyatsizliklari sababini o‘zlaridan emas, balki boshqa kishilardan ko‘radilar.

Bunday salbiy xarakter xislatlari o‘tmish qoldig‘i bo‘lib hozirgi vaqtda barham topib bormoqda. Xarakterning bunday salbiy xislatlari batamom barham topib ketmog‘i uchun bizda hamma sharoitlar yaratilgandir.

Xudbin, to‘ng kishining har qanday noloyiq xatti-harakati har bir jamoada darhol amaliy zarbaga uchraydi, keng jamoatchilik bunday noloyiq xatti-harakatni qattiq tanqid ostiga oladi. Ma’lumki, jamoatchilik tanqidiy tarbiyalash va qayta tarbiyalashning eng samarali vositasidir.

Kishi xarakterining mehnatga bo‘lgan munosabatida ifodalanadigan xislat ayni vaqtda uning iroda kuchini ko‘rsatadigan, shuningdek, kishining boshqa odamlarga, eng avvalo, o‘z jamoasiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan xislat hamdir. Axir, har bir kishi boshqa odamlar bilan, o‘z jamoasi bilan faqat kimlargadir ijobiy va kimlargadir salbiy munosabatda bo‘lishi orqaligina bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki, asosan, mehnat faoliyatidagi real ishtiroki orqali bog‘liqdir.

Kishi xarakterining ijobiy xislati mehnatni sevish, ya’ni **mehnatsevarlikdir**. Bunday xarakter xislati kishining biror ishni shunchaki bajarish ehtiyoji bilan bog‘liq bo‘lmay, balki uni yaxshilab bajarish ehtiyoji bilan bog‘liqdir. Bunday xislat kishining mehnat faoliyatidagi halolligi, saranjom-sarishtaligi va intizomliligi bilan bog‘liqdir. Kishida bunday xarakter xislatining mavjudligi, mehnatning bu kishida ehtiyojga aylanib qolganligidan dalolat beradi. Mehnatni sevish, tejash, ehtiyot qilish xislati bilan yaqindan bog‘liqdir.

Tejab, ehtiyot qilib xo‘jalik yuritadigan davr kishisi jamiyatning muqaddas va daxlsiz asosi bo‘lgan mulkni mustahkam saqlaydi va qo‘riqlaydi. Ehtiyotkor odam mol-mulkning buzilib, yorilib ketmasligi uchun, shuningdek, o‘z buyumlarining butunligi uchun ham qayg‘uradi. Bu uning o‘z zarur ehtiyojlarini buzish hisobiga dunyo orttirish emas, albatta.

Kishi xarakterining salbiy xislati dangasalik, ehtiyot qilmaslik mehnatga beparvolik bilan qarash, topshiriqlarni yuzaki bajarishlikdir. Bunga ayrim kishilar ongida bo‘ladigan mehnatga boyvachchalarcha mensimay munosabatda bo‘lish singari eskilik qoldiqlari ham kiradi.

Kishi xarakterining bunday salbiy xislatlari ko‘pincha ma’naviy javobgarlikni sezmaslik bilan bog‘liq bo‘ladi. Halol mehnat qilish, jamiyat baxti-saodati, uchun kurashish bizning asosiy tamoyillarimizdan biridir.

Kishining o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarida ifodalanadigan fe’l-atvor xislatlari

Kishining boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatlarida va xatti-harakatlarida uning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini ifodalovchi xarakter xislatlari ham namoyon bo‘ladi. Bu **o‘z-o‘ziga baho berish** deb ataladigan xarakter xislatidir.

Jamiyat o‘rtasidagi xilma-xil munosabatlarida odam ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda o‘zini boshqalar bilan taqqoslaydi va o‘zida boshqalarga

o‘xshash yoki farq qiladigan xislatlar topadi. Odamda o‘zi haqida, uning o‘zligi haqida ma’lum bir fikr paydo bo‘ladi.

O‘z-o‘ziga yuksak baho berish odamning o‘zligini anglashning muhim bir tomonini tashkil etadi. Kishining o‘z-o‘ziga beradigan bahosi uning haqiqiy sifatlariga mos bo‘lishi yoki mos bo‘lmasligi ham mumkin. Odam o‘zidagi sifatlarga ortiqcha baho berib yuborishi yoki ularga yetarli baho bermasligi ham mumkin. Shunday odamlar ham bo‘ladiki, ular ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan ma’lum bir fazilatlarga ega bo‘lib, bu fazilatlariga o‘zi ham yuksak baho beradi. O‘z-o‘ziga baho berish kishining o‘z **qadr-qimmatini, o‘z sharafini bilish,** yuksak singari xarakter xislatlarida ifodalanadi.

O‘z-o‘ziga yuksak baho berish ba’zi odamlarda iftixor tariqasida ifodalanadi, bunday odamlar o‘zidagi mavjud bir fazilatni doim qayd qilibgina qolmay, balki o‘zini boshqalardan afzal tomonlari borligini ham qayd etadi. O‘z qadr-qimmatini, izzat-nafsini bilish, faxr salbiy xislat emas, albatta. Bu yerda ayrim kishida bo‘ladigan guruhlanish ko‘zda tutilmay, balki bu odamning **nima bilan faxrlanishini,** o‘zi uchun faxr deb nimani tushunishini ko‘zda tutishga to‘g‘ri keladi.

Faxr, izzat-nafs, o‘z qadr va martabasini bilish, faqat xudbinlikdan, egoistlikdan iborat bo‘lib qolsa, u vaqtda bunday xarakter xislati salbiy deb hisoblanadi. Bunday xususiyat, ko‘pincha, **takabburlik, manmanlik, dimog‘dorlik, kibrlanish, g‘ururlanish** tariqasida ifodalanadi.

Shunday odamlar borki, oliyjanob xislatlarga ega bo‘ladi, ammo hech vaqt bu xislatini odamlarga pesh qilmaydi, hech bir holda bu xislati bilan kerilmaydi. Bunday odamlar kamtar, oddiy kishilar bo‘ladilar; bunday odamlarning xatti-harakatida, gap so‘zida takabburlik, dimog‘dorlik, manmanlik bo‘lmaydi. **Kamtarlik va soddadillik** kishi xarakterining ijobiy sifatidir.

Kamtar odam umum orasidan o‘zini ajratib ko‘rsatishga, haqiqatdagi yoki ayniqsa, o‘rni-tagi yo‘q xizmatlarini bo‘rttirib pesh qilishga urinmaydi. U o‘zining boshqalardan afzallik tomonlarini, agar shunday tomonlari bo‘lsa, ko‘z-ko‘z qilishga intilmaydi, hammaning diqqatini o‘ziga qaratishga harakat qilmaydi.

Kamtar kishi odamlarga o‘zini savlat qilmaydi, uning odamlarga bo‘lgan muomalasi, kiyimi, yurish-turishi, nutqi, o‘zini tutishi va odatlari har doim tabiiy va samimiy bo‘ladi.

Ijtimoiy va shaxsiy hayotda oddiylik hamda kamtarlik alohida ahamiyatga egadir.

Kamtarlik o‘z-o‘zini tanqid va o‘ziga nisbatan qat’iy talabchanlik bilan o‘z ishiga to‘g‘ri baho bera bilish, ishidagi kamchiliklarni ko‘ra

bilish, o‘z xatti-harakati va faoliyatini tahlil qila bilish ham baho berish bilan o‘z kamchiliklarini dadil ochib tashlash va ularga iqror etish hamda ularga halollik hamda vijdonan bartaraf qilish choralarini ko‘rish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kishidagi kamtarlik ba’zan **tortinchoqlik, uyatchanlik** tarzida namoyon bo‘ladi. Yana shunday odamlar ham uchrab qoladiki, biron g‘arazni, o‘z shaxsiy manfaatini ko‘zlab va bunga yetishmoq uchun boshqa odamlar oldida o‘z insonlik qadr-qimmatini **yerga urishga** tayyor turadi. Bunday odamlarning xatti-harakatlarida xushomadgo‘ylik, tilyog‘lamalik, laganbardorlik singari nihoyat past qiliqlari ko‘rinib turadi. Odamlardagi laganbardorlik, tilyog‘lamalik, xushomadgo‘ylik salbiy xarakter xislatidir.

Ba’zi odamlar borki, ular haqiqatda o‘zlarida bo‘lmagan fazilatlarni o‘zlarida bor deb ko‘rsatmoqchi bo‘ladilar. Bunday odamlar o‘ziga bino qo‘ygan maqtanchoq, manman ko‘zbo‘yamachi bo‘ladi, o‘zini katta tutib, gerdayib yuradi. Bunday kishilar, ko‘pincha, juda katta ketib gapiraveradilar-u, lekin amalda, haqiqatdan tuturiqsiz, noshud, puch odam bo‘ladilar.

Kishining o‘zida yo‘q sifatni bor degani bilan bu gap hali uning xarakteridagi haqiqiy ijobiy xislat bo‘la olmaydi. Balki, aksincha, kishining o‘zida yo‘q sifatni bor deb ko‘rsatishga urinishi, kishining o‘zini ma’lum bir fazilat egasi deb o‘ylab yurishi uning xarakteridagi xislat bo‘lib qoladi. Shunday qilib, kishining chinakam oliyjanob xislatlari uning o‘zida bor deb hisoblangan, lekin aslida yo‘q xislatlar bo‘lmay, balki shu kishi to‘g‘risida uning ishiga qarab jamoatchilik o‘rtasida tug‘ilgan fikr tasdiqlagan xislatdir. Ta’lim-tarbiya jarayonida salbiy xislatlarning oldini olish bizning asosiy vazifamizdir.

5. Xarakter klassifikatsiyasi va tiplari to‘g‘risida

Biz kishida xilma-xil ko‘rinishda va turlicha namoyon bo‘ladigan bir qancha xarakter xislatlari bilan tanishib chiqdik.

Har qaysi xarakter xislati bir-biridan ajralgan bo‘lmay, balki ular bir-birlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladilar. Shuning uchun bir xarakter xislatining o‘zi ham turlicha odamlarda turlicha namoyon bo‘lmog‘i mumkin. Chunonchi, dadillik bilan qilinadigan bir xatti-harakatning o‘zi ma’qul yoki noma’qul, axloqda muvofiq yoki nomuvofiq bo‘lmog‘i mumkin. Kishidagi mardlik singari xarakter xislati faqatgina undagi iroda bilan bog‘liq bo‘lmay, balki aql-idrok va tuyg‘u-hissiyotlar bilan bog‘liqdir. Mardlik ayni vaqtda axloqiy xislat hamdir. Har bir kishining xarakteri kishi shaxsida mujassamlanadigan turlicha xislatlarning alohida bir tarzda birlashuvidir.

Kishilar xarakterini klassifikatsiya qilishga yoki xarakter tiplarini aniqlashga urinish hollari psixologiya tarixida ko‘p martaba uchragan. Shunga qaramay, hanuzgacha bir xarakter klassifikatsiyasi va tipologiyasi yaratilgani yo‘q.

Shu sababli ayrim kishilarni xarakterlashda, odatda, shu kishiga xarakterli bo‘lgan bir-ikkita muhim belgisi ko‘rsatiladi. Chunonchi, ba’zi kishilarni mustahkam, kuchli xarakterli desak, ba’zilarini kamtar, mehnatsevar, yana boshqalarini esa xushmuomala, dilkash va hokazolar deb ataymiz.

Kishining o‘z faoliyatlarida, tuyg‘u-hissiyot va nutqlarida, uning boshqalarga va o‘z-o‘ziga munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xarakter xislatlari bu kishining o‘z hayotida qanday maqsadlarga amal qilishga qarab, o‘z hayotini va qiladigan ishlarini qanday tushunishga qarab, ijobiy yoki salbiy bo‘lmog‘i mumkin.

Shuning uchun ham uning barcha xarakter xislatlari yuqori axloqiy sifat kasb etadi. Ekspluatator sinflar sharoitida qat’iyat, matonat, mustaqillik singari xarakter xislatlari, ekspluatatorlik maqsadiga qaratilganligi tufayli axloqqa zid, yaramas xarakter xislatlari deb hisoblanadi.

Shunday kishilar ham uchraydiki, ularning xarakterini aniqlash qiyin bo‘ladi. Bunday odamlar haqida xalqimiz juda o‘rinli ravishda: «na rahmonga chiroq va na shaytonga kasov, shunchaki bir odam» deb ataydilar.

Xarakterning taraqqiysi

Kishi xarakteri tabiiy, tug‘ma bo‘lmay, balki keyin hosil bo‘ladi va tarbiyalanib yetishadi. «Xarakter tarkib topadi, xarakter hosil bo‘ladi» degan iboralar shuni ko‘rsatadiki, odamlar kishi xarakterining tarbiya ta’siri bilan o‘zgarishi xususiyatiga ega ekanligini o‘zlarining kundalik oddiy kuzatib borishlaridan bilib olganlar.

Kishining xarakteri tug‘ma, doimiy va o‘zgarmaydigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo‘y yoki munofiq, botir yoki qo‘rqoq, intizomli yoki intizomsiz bo‘lib tug‘ilmaydi.

Har bir odamning xarakteri temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta’siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishi o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan taraqqiy qilib, o‘zgarib boradi.

Xarakterning taraqqiysi kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlarining taraqqiy qilib borishi bilan mustahkam bog‘liqdir. Shu sababli, kishining irodasi, aql-idroki va tuyg‘u-hissiyotlarining taraqqiy qilib borishi va ularning tarbiyalanishi haqida aytilgan fikrlarning hammasi kishi xarakterining taraqqiysiga ham tegishlidir.

Xarakterning o‘sishida tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash asosiy rol o‘ynaydi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri, avvalo, oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta mas’uliyatli vazifa ota-onalar, o‘qituvchilar, bolalar bog‘chalari, kasb-hunar kollejlari va internat-maktablar tarbiyachilari zimmasiga tushadi.

Xarakterni tarbiyalash shundan iboratki, tarbiyachi maktab o‘quvchisiga namuna bo‘lishi mumkin bo‘lgan kishilarni bolaga, o‘quvchiga ataylab ibrat qilib ko‘rsatadi; shu kishining qilayotgan ishlari, xatti-harakatlariga tarbiyalanuvchi e’tiborini jalb etadi va bu ish xatti-harakatlarning qaysi biri yaxshi, ijobiy, qaysi biri salbiy, yomon ekanligini aytadi. Tarbiyachi bolaning xatti-harakatlaridagi yaramas qiliqlarni yo‘qotish va yaxshi, foydali odatlarni mustahkamlashga yordam beradigan vositalarni izlab topadi va ularni tatbiq etadi. Tarbiyaviy ish yana shundan iboratki, pedagog tarbiyalanuvchida muayyan ijobiy sifatlarni o‘z xarakterida o‘z-o‘zi paydo qilish zaruriyati ongini uyg‘otishi va bu ongni o‘stirishi lozim.

Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyaviy roli nihoyat kattadir. Inson yakka, bir-biridan ajralgan tanho hayot kechirmaydi, muayyan bir jamoada, chunonchi, muayyan oilada, maktabda, sexda, dalada hayot kechiradi. Jamoa shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi bog‘lovchi zvenodir. Odamning faoliyati o‘yin, o‘qish va mehnati xuddi mana shu jamoada voqe bo‘ladi. Jamoa shaxsning eng yaqin aniq muhiti bo‘libgina qolmay, balki shaxsni tarbiyalaydi ham. Kishi xarakterining kerakli ijobiy xislatlari faqat jamoadagina tarbiyalanmog‘i mumkin va haqiqatan ham jamoada tarbiyalanadi.

Har bir o‘qituvchi va tarbiyachi bola xarakterining ayrim xislatlarini tarbiyalashda faqat jamoa orqali ta’sir etgandagina, ijobiy natijalarga erishmog‘i mumkin.

Xarakterning tashabbuskorlik, qat’iylik, dadillik, sabotlilik singari ijobiy xislatlari bolalar bog‘chasidayoq bola o‘yinlarida tarkib topa boshlaydi.

Jamoa sur’atda bajariladigan ma’lum bir mehnat faoliyati kishida ijobiy xarakter xislatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Har bir kasb o‘zining spetsifikasiga ko‘ra, kishidan alohida xarakter xislatlari bo‘lishini talab etadi va bu xislatlarning o‘sishiga yordam qiladi.

Kishi jamoa a’zosi sifatida boshqa odamlarga, mehnatga va o‘z-o‘ziga munosabatida o‘z xarakterining har xil xususiyatlarini namoyon qiladi. Kishi jamoada muomala qilish jarayonida boshqalarning va o‘zining xarakter xususiyatlarini bilib oladi. Xarakterning bir xili ijobiy, boshqa bir xili salbiy ekanligini ajratib oladi. Bunday sharoit kishini o‘z xarakterni o‘zi tarbiyalash, jumladan, o‘z xarakterini qaytadan tarbiyalash yo‘liga soladi.

Kishi xarakteri faqat pedagoglar tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir etishning samarasi bo'libgina qolmay, balki o'z-o'zini tarbiyalashining ham mahsulidir. Shu sababli har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xarakteri va uning ayrim sifatlari uchun o'zi javobgardir. O'z xarakterini tarbiyalashda u kishi, avvalo, yaxshi fazilatlarni, shaxs idealini o'zida tarbiyalab yetkazishni ko'zda tutmog'i lozim. Shu bilan bir vaqtda kishi o'z xarakteridagi salbiy tomonlarni o'zi tan olishi, kamchiliklariga o'zi iqror bo'lishi kerak.

O'z kamchiliklariga o'zi iqror bo'lish kishi xarakterining ijobiy, progressiv xislatidir. O'z kamchiliklariga iqror bo'lish kishini o'z-o'zini tarbiyalash yo'liga boshlaydi. O'z kamchiliklariga iqror bo'lmaslik, ularni ko'rmaslik kishi xarakterining eng yomon xususiyatidir. O'z kamchiliklarini ko'ra bilmagan odam oldinga qarab harakat qilishga, o'sish va kamolotga yetishga layoqatsiz odamdir.

Yomon xislatlarni yo'qotishga faollik bilan kirishmasdan, o'zida ularning borligiga iqror bo'lishning o'zigina kifoya qilmaydi. Iqror bo'lish zaif iroda va xarakterning mavjudligidan dalolat beradi, xolos. Bunda tashabbuskorlik va iroda kuchini ham ishga solish kerak.

Maktab o'quvchisi xarakterining tarkib topishida o'z-o'zini tarbiyalash katta o'rin egallaydi. O'z-o'zini tarbiyalashga harakat qilish ko'p jihatdan atrofdagi odamlarning ta'siri va avvalo pedagogning ta'siri ostida tug'iladi va taraqqiy etadi. Tarbiyaviy ish o'sib kelayotgan yosh avlodda, jumladan o'z xarakterida muayyan ijobiy xislatlarni o'zi tarbiyalash zaruriyatini paydo qilish va o'stirish hamdir.

Ota-onalar, o'qituvchi va tarbiyachilar boshqa tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda bolalarga o'z kamchiliklarini bilib olish va bu kamchiliklarni yo'qotish uchun harakat qilish hamda o'zlarida ijobiy iroda va axloqiy sifatlarni paydo qilish ustida mashq qilish zarurligini uqtirishlari lozim.

O'z-o'zini tarbiyalashga intilishni paydo qilishda jamoaning roli katta. Ta'lim-tarbiya ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirda o'rta yoshdagi maktab davrining birinchi yillaridayoq o'quvchilarda o'z xarakterini o'zi tarbiyalashga intilish istagi sezilarli ravishda ko'rina boshlaydi.

Yuksak irodaviy va axloqiy sifatlari bilan hammaga manzur bo'lgan kishilar namunasi o'z-o'zida xarakter tarbiyalashning (umuman o'z-o'zini tarbiyalashning) juda muhim vositasidir. Odamlar o'z intilishlari va xatti-harakatlarida o'sha hammaga manzur bo'lgan kishilarga taqlid qilishlari kerak.

III BOB. QOBILIYAT

1. Qobiliyat haqida umumiy tushuncha

Qobiliyat deb, shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo‘lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlar yig‘indisiga aytiladi. Qobiliyatlar bilim, ko‘nikma, malaka orttirish xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Lekin bilim, ko‘nikma va malaka orttirish qobiliyat emas, balki u ularni o‘zlashtirishdagi layoqati, mahoratida namoyon bo‘ladi, ular asosida bilim, ko‘nikma, malakalar osonlik bilan egallab olinadi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo‘ladi. Voqelikdagi narsa va hodisalarni idrok etishda, masalan, ranglarni tovlanishidagi nozik farqlarni ajratishda, narsalarni aniq ko‘rishda, absolyut eshitish (musiqani farqlashda), kuzatuvchanlikda, xotirada, fikrlash (tez, mustaqil) jarayonida ixtirochilik va ijodda yaqqol ko‘rinadi. Qobiliyat kishining muayyan faoliyatga bo‘lgan layoqatidir.

Kishilar turli sohalardagi faoliyatlarida – mehnat, o‘yin, o‘qish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ba’zi bir odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, bir kishi tezlik bilan bajaradi. Ayrim kishilarning faoliyatlari samarali, serunum bo‘lsa, boshqalarniki esa kam unum bo‘ladi. Ba’zi odamlar o‘z ishlarida ijodiy, original usullarni ko‘proq qo‘llasa, ba’zi bir kishilarning ishlarida esa bunday usullar kamroq ko‘rinadi. Kishilar faoliyatining mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobiliyatlari qandayligini aniqlab olamiz.

Qobiliyat – kishining muayyan faoliyatiga bo‘lgan layoqatidir

Kishilar qobiliyati nihoyatda xilma-xil bo‘ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o‘qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi. Kishi faoliyatining har xil turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobiliyatlarni, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, pedagogika, xo‘jalik, tashkilotchilik va boshqa sohalarga oid qobiliyat turlari bo‘ladi.

Inson qobiliyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir – har qaysi odam ma’lum darajada kishi faoliyatini barcha turlariga layoqatli bo‘ladi, lekin, shu bilan bir qatorda, ko‘pchilik faoliyatning bir necha sohasidan yoki hatto bir sohasida salohiyat ortiqroq bo‘ladi.

Biror sohada qobiliyati sezilarliroq bo‘lib ko‘rinadigan ayrim kishilarni qobiliyatli kishi (umuman) qobiliyatli matematik, qobiliyatli musiqachi, konstruktor, rassom va hokazo deydilar.

Faoliyatning biror turi sohasida qobiliyatning paydo bo‘lish darajasi muayyan kishining individual xususiyati bilan xarakterlanadi.

Qobiliyatning bunday xususiyatlari maktab bolalarida ham ko‘rinadi. Ba’zi bir o‘quvchilar o‘zlarining zehni o‘tkirliklari bilan, boshqalari poetik asarlarni aniq idrok qilishliklari bilan, uchinchisi esa, texnik ijodkorligi bilan, to‘rtinchisi esa, o‘zining laboratoriya mashg‘ulotlariga usta bo‘lish va hokazolar bilan ajralib turadi.

Ayrim kishilarning qobiliyati birgina sohada emas, balki bir necha sohalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday kishilar har tomonlama qobiliyatli kishilardir.

Odamning qobiliyatlarida tug‘ma xususiyatlar ham namoyon bo‘ladi.

Shaxsning rivoj topib, qobiliyatlarida namoyon bo‘ladigan tug‘ma xususiyatlari iste’dod deyiladi.

Har bir kishida tug‘ma layoqat nishonalari, ya’ni miyaning oliy asab faoliyatini analizatorlarining o‘ziga xos xususiyatlari bor bo‘ladi, binobarin, kelgusida biror qobiliyatni rivojlantirishga bo‘lgan muayyan moyillik ana shunga bog‘liqdir.

Demak, layoqat-qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo‘ladigan miya tuzilishining, sezgi a’zolari va harakatning morfologik hamda funksional xususiyatidir va u qobiliyatning fiziologik asosidir. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui kishining iste’dodidir. Iste’dod inson qobiliyati taraqqiyotining eng yuksak darajasini ta’minlovchi tug‘ma tabiiy imkoniyatlar yig‘indisidir. Iste’dodning rivojlanishi shaxsning yashash sharoitiga, ijtimoiy ta’lim-tarbiyaga, uni faoliyatdagi faolligiga bog‘liqdir. Kishining «mudrab yotgan» imkoniyatlari faoliyatga kishi faollik ko‘rsatmasa u imkoniyatlarni «uyg‘onishi» mumkin emas. Buning uchun ijtimoiy shart-sharoit, qulay muhit, qulay ta’lim-tarbiyaviy sharoit, o‘qish, o‘z ustida tinmay ishlash zarur bo‘ladi.

Kishining iste’dod darajasini undagi muayyan qobiliyatlarning qanchalik tez o‘sishiga, bilim va malakalarni qanchalik egallashiga hamda o‘z ishini qanchalik muvaffaqiyat bilan va samarali bajarishiga qarab aniqlaymiz.

Geniallik va talantlilik haqida

Genial yoki geniy deb, biz shunday kishilarni aytamizki, ular nihoyatda katta masalalarni hal qiladilar, butun bir sinf yoki xalqlar uchun, barcha insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, misli ko‘rilmagan qimmatli narsalar yaratadilar. Bunda ular yaratgan narsalar tarixda go‘yo burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi, tarixni oldinga progressiv tomon harakatga keltiruvchi madad bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, biz Alisher Navoiyning genial shoir deb hisoblaymiz, chunki, u shunday asarlar yaratdiki, uning

asarlari dunyoga kelishi bilan o‘zbek adabiyotida o‘zbek tili taraqqiyotida yangi bir davr boshlandi.

Talantli deb shunday odamlarni aytiladiki, ular ma’lum sohada murakkab nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga, yangilik va progressiv ahamiyatga ega bo‘lgan qimmatli narsalar yaratishga qodir bo‘ladilar. Talantli odam, talantli yozuvchi va talantli shoir, talantli rassom, talantli konstruktor deganda biz buni ana shu ma’noda tushunamiz.

Talantli deb, shuningdek, bilimlarni tez, muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirib oladigan va shu bilimlarni turmushda, o‘z faoliyatlarida to‘g‘ri tatbiq qiladigan odamlarni ham aytiladi. Talantli o‘quvchi, talantli talaba, talantli skripkachi va talantli pianist, talantli muhandis deganda biz buni ana shu ma’noda tushunamiz.

Geniy – bu yangilik yaratuvchi va kashf qiluvchi odam, talantli odam esa, bu yangiliklarni tez o‘zlashtirib oladi va shu bilimlarni turmushda tatbiq qilib, ularni oldinga suradi. Har bir geniy talantli ham bo‘ladi, biroq har bir talantli odamni genial deb bo‘lmaydi.

Genial va talantli odamlarning aql-idroki nihoyat o‘sib, voyaga yetgan, zehni o‘tkir, xotirasi kuchli, xayol va tafakkuri barkamol kishilar bo‘ladi. Ammo geniallik va talantlilik faqat aqlning kuchli sur’atda o‘sganligidagina ko‘rinib qolmaydi. Kuchli, barqaror diqqat, zo‘r ehtiros, kuchli va mustahkam iroda ham yuksak qobiliyat va iste’dod belgisidir. Hamma genial odamlarning o‘z ishiga muhabbati va ehtirosi zo‘r bo‘lgandir. Genial odam o‘zini ham unutib, butun borlig‘ini ishga bag‘ishlaydi. Butun hayotini o‘z ishiga ehtiros bilan bag‘ishlagan genial kishilarning irodasi nihoyat kuchli va sabotli bo‘ladi. Ular kishini hayratda qoldiradigan darajada mehnatsevar va mehnat qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Bunday kishilar faoliyatining serunum bo‘lishi ulardagi butun bilish qobiliyatlarini, ijodiy, emotsional va iroda kuchlarini ma’lum narsaga to‘play bilish qobiliyatlariga bog‘liqdir.

Talantli va genial kishilarning juda ko‘pi har tomonlama qobiliyatli bo‘lganlar. Chunonchi, Aristotel, Leonardo da Vinchi, Lomonosovlar, Abu Ali ibn Sino, M. Ulug‘bek, Al-Forobiy, Navoiy, Qori Niyoziy, Usmon Nosir va boshqalar mana shunday bo‘lganlar.

Tarixda bunday kishilarni ko‘plab uchratish mumkin. Ular ulug‘ tashkilotchi va jamoat arbobi bo‘lganlar.

Qobiliyat turlari va uning xususiyatlari

Qobiliyatlar umumiy va mahsus bo‘ladi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo‘lganda kishi faoliyatining turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana oladi. Masalan: kuzatuvchanlik, konstruktiv hayol, tez fikrlay olish ka-

bilar ma'lum darajada barcha faoliyat turiga xosdir. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar odatda barcha fanlardan yaxshi va qiynalmay o'qiydilar.

Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish imkonini beradi. Masalan: musiqa, texnika, matematika, rassomchilik qobiliyatlari maxsus qobiliyatdir. Qobiliyatlar o'zining sifat va miqdor darajasi bilan xarakterlanadi.

Qobiliyatning sifat xarakteristikasi – shaxsning qobiliyatlari nimaga nisbatan namoyon bo'lishini, qanday individual psixologik xususiyatlar faoliyat jarayoni muvaffaqiyatining zaruriy sharti ekanligi bilan xarakterlanadi. Masalan: O'qituvchi tashabbuskorlik, talabchanlik, mehribonlikni his qilish, kuzatuvchanlik, kashfiyotchilik, javobgarlik kabi shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak.

Qobiliyatlarning miqdor xarakteristikasi shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarni qanchalik tez, yengil va mustahkam egallashi bilan xarakterlanadi.

Qobiliyat va iste'dodning o'sishi

Har bir odamning qobiliyat va iste'dodi taraqqiyot mahsulidir. Insonning qobiliyati uning tug'ma layoqati asosida, muhitga bog'liq ravishda olayotgan ta'lim-tarbiyasiga qarab, shuningdek, kishining o'z ustida ishlashi bilan bog'liq holda o'sib, kamol topib boradi. Inson o'z mohiyati bilan ijtimoiy tabiiy zotdir. Shuning uchun ham unga xos bo'lgan barcha ruhiy holat va jarayonlar tabiiy kuchga, hayotiy kuchga egadir. Bu tabiiy kuchlar har bir insonga ota-onadan bevosita o'tadi va ular instinktlar, tug'ma layoqatlar tariqasida ijtimoiy munosabat va faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi.

Tug'ma layoqat – tayyor, kamolotga yetgan qobiliyat emas, balki qobiliyatning o'sishi uchun faqat tabiiy zamindir, u kelgusida qobiliyatga aylanmog'i mumkin. Bunday imkoniyatlar faqat tegishli sharoit mavjud bo'lgandagina ro'yobga chiqa oladi.

Tug'ma layoqatni irsiyat bilan aynan bir narsa deb tushunish yaramaydi. Layoqat irsiyat natijasigina bo'lib qolmay, balki, shu bilan birga ona homilasida o'sish natijasi hamdir. Layoqat – kishidagi tug'ma imkoniyatdir.

Layoqat kishining butun umri davomida o'zicha o'sib, kamolotga yetmaydi. Layoqat hali kishida «mudrab yotgan» imkoniyatlardir. Bu layoqatning «uyg'onib» yuzaga chiqishi uchun tegishli ijtimoiy muhit ham bo'lmog'i lozim. Layoqatni xuddi uruqqa o'xshatish mumkin, urug'dan o'simlik ko'karib chiqishi, yetilib meva qilishi uchun qulay sharoit: tuproq, havo, quyoshning bo'lishi darkor. Kishidagi tug'ma

layoqatning o‘sib kamol topishi uchun zarur bo‘lgan sharoitning asosi ijtimoiy muhitdir.

Ijtimoiy muhit layoqatlarning o‘sib, kamol topishi uchun qulay yoki noqulay bo‘lmog‘i mumkin.

Qulay muhit kishidagi «mudrab yotgan» layoqatlarni uyg‘otadi. Layoqatning o‘smog‘i uchun qulay sharoit bo‘lishi kishining bolalik chog‘larida, ayniqsa, muhimdir. Bolalar o‘z o‘yinlarida, odatda, kattalarga taqlid qiladilar. Taqlid qilish jarayonida bolalarda ma’lum bir layoqatlar dastlab uyg‘ona boshlaydi. Musiqachilar, rassom yoki shoirlar, texnik xodimlar muhitida o‘sgan bolalarning ko‘pchiligida layoqatning juda barvaqt uyg‘onishi sababi ko‘proq mana shundadir.

Noqulay ijtimoiy muhit sharoitida kishidagi tug‘ma layoqatlarning «uyg‘onmay» qolib ketishi mumkin. Bunday noqulay muhit kishida tasodifiy ravishda ko‘rina boshlagan biron qobiliyat va iste’dod alomatlarini yo‘qotib yuborishi yoki ularning paydo bo‘lish vaqtini cho‘zib yuborishi ham mumkin.

Milliy an’analar urf-odatlarimizning tiklanishi, milliy, umumbashariy va umumma’naviy qadriyatlarimizni hayotimizga tatbiq etilishi xalqimizning turmush sharoitini o‘zgarishiga olib keldi. Jamiyatimiz uchun bilimdon, fidokor, iste’dodli yoshlarni tarbiyalash imkoniyati yaratildi. O‘zbek xalqi yuksak aql-zakovatga, dunyoni boshqarish qudrati, salohiyati, qobiliyatiga ega bo‘lgan sohibqiron Amir Temur kabi sarkardalar, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Xo‘ja Ahmad Yassaviy kabi ulug‘ muhandis majtahid ulamolari, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlari bilan birgalikda Ul-Umaviy, Hofiz Sheroziy kabi musiqashunos olimlari, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ulug‘bek kabi mutafakkirlari bilan faxrlanib qolmay, ularning ishlarini davom ettirishga, fan sohasida yangiliklar yaratishga ham qodirdirlar.

Shuningdek, mamlakatimizda nomlari jahon fani tarixiga kirgan olimlarimiz ko‘plab topiladi. Bizda madaniy saviyani oshirish, xalqimiz orasida ko‘plab bunyodga kelgan talant va salohiyatlarni kamol toptirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Iste’dodning o‘sib kamol topishi uchun faqat muhit ta’sirining bir o‘zi kifoya qilmaydi. Bunda eng muhim narsa ta’lim va maxsus tarbiyadir. Qobiliyat ta’lim jarayonida, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida, bilimlarning ijodiy qo‘llanishida, tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilish jarayonida inson faoliyatida kamol topadi. Masalan, musiqachi bo‘lish uchun tabiiy qobiliyat va qulay sharoit bo‘lishining o‘zi kifoya qilmaydi, balki o‘qish, musiqa nazariyasini o‘rganish, texnikani va maxsus fanlarni bilish kerak bo‘ladi. Yaxshi uchuvchi, muhandis, umuman qanday

bo‘lmasin har bir sohada mutaxassis bo‘lish uchun tegishli ma’lumot va tarbiya olish kerak.

Ta’lim jarayonida kishi maxsus ko‘nikmalar va faoliyat texnikasini egallaydiki, ularsiz uning na iste’dodi yuzaga chiqadi va na qobiliyati o‘sib yetiladi. «Men foydalangan texnikaning rivojlanganligi soyasidagina, – deb yozgan edi A. N. Rimskiy-Korsakov, – mening ijodiyotim yangi jonli kuchga ega bo‘ladi va mening bundan buyon ijodiy faoliyatim uchun yo‘l ochildi».

Ma’lumki, barcha yuksak iste’dodli kishilar ko‘p va tirishib o‘qiganlar. Iste’dod ayni ta’lim-tarbiya jarayonida, kishining tarkib topayotgan qobiliyatlarida ravshanroq ko‘rina boshlaydi. Chunonchi, kishining, masalan, musiqa, adabiyot, texnika, matematika va boshqa shu kabilarga bo‘lgan iste’dodi ta’lim-tarbiya jarayonida oshkor bo‘ladi.

Qulay sharoit, o‘qitish va tarbiya odamdagi layoqatning barvaqt uyg‘onishiga imkon beradi. Masalan, Rimskiy-Korsakov onasi kuylagan kuylarni ikki yoshdanoq, otasi pianinoda chalgan kuylarni to‘rt yoshida takrorlar, xirgoyi qilar edi va otasidan eshitgan kichik musiqa asarlarini tez kunda fortepianoda o‘zi chala boshlagan. Motsart uch yoshdan boshlab klavesinani (pianinoga o‘xshash musiqa asbobini) chala boshlagan, eshitgan musiqa asarlarini hayron qolarli darajada darrov esida qoldirgan. To‘rt yoshida o‘zi ham musiqa asarlari yarata boshlagan. Gaydida to‘rt yoshidayoq musiqaga bo‘lgan qobiliyat ko‘rina boshlagan. Prokofev sakkiz yoshida kompozitor bo‘lib tanila boshlagan.

Rassomlik sohasida Rafaelning ijodiy qobiliyati sakkiz yoshida, Mikelanjeloda o‘n uch yoshida, I. Ye. Repin bilan V. A. Serovda to‘rt yoshida, V. I. Surikovda olti yoshida ko‘rina boshlagan. Aleksandr Ivanov o‘n bir yoshidayoq tasviriy san’at Akademiyasiga kirgan. Igor Grabar o‘zi haqida: «Rassomlikka necha yoshda havas qo‘yganligimni eslay olmayman, ammo rasm solmagan vaqtimni xotirlay olmayman», deydi.

Poeziya sohasida Pushkin va Lermontovlarning ijodiy qobiliyatlari juda erta ko‘rina boshlagan. Pushkin to‘qqiz yoshida, Lermontov o‘n yoshida, A. Navoiy 5 yoshida ijod qila boshlagan. Ularning 7–13 yoshlaridayoq asarlari bosilib chiqa boshlagan. Bayron bilan Shiller o‘n olti yoshda yoza boshlagan.

Bizning maktablarimizdagi ta’lim-tarbiya ishlari bolalarga faqat bilim berish bilangina cheklanib qolmay, balki bolalarning barcha qobiliyatlarini o‘stirishni nazarda tutgan holda olib boriladi.

Kishilar o‘zidagi turli faoliyatlarga bo‘lgan tug‘ma layoqatlarini jamoada, o‘z ustida tinmay ishlash jarayonida ro‘yobga chiqaradilar. Maktablardagi sinf hamda jamoa, guruhlar, ilmiy to‘garaklar, fan olimpiadalariga ishtirok etish, ilmiy anjumanlarda ishtirok etish tug‘ma layoqatlarning

qulay imkoniyatlaridir. Shuningdek, o‘quv va mehnat faoliyatida odamning layoqatlari uyg‘onadi va qobiliyatlari o‘sadi, xalq talantlari shular jarayonida oshkor bo‘ladi.

Har bir shaxsning o‘zi faol harakat qilgandagina ijtimoiy muhit, o‘qish va tarbiya kishining layoqatini uyg‘otmog‘i va iste’dod hamda qobiliyatlarini o‘stirmog‘i mumkin. Kishining qobiliyatlari uning faoliyatini belgilabgina qolmay, balki kishining qobiliyatlari mana shu faoliyatda o‘sadi va tarkib topadi.

Kishining o‘z faoliyatiga qanday munosabatda bo‘lishi katta ahamiyatga egadir. Agar kishi o‘z ishini sevib, mehr bilan qilsa, u vaqtda kishining bu sohadagi salohiyatlari kuchliroq yuzaga chiqa boshlaydi, uning qobiliyat va mahorati tezroq o‘sib boradi. Ishga muhabbat qo‘yish — u ishga qiziqish, havas qo‘yish demakdir. Shu sababdan kishining qobiliyati uning qiziqish-havaslari bilan mustahkam bog‘liq va qiziqishning o‘sib borishiga qarab, kishi qobiliyati ham o‘sib boradi. Qiziqishlar esa hammadan ko‘ra ko‘proq, faoliyat jarayonida va o‘sib borayotgan qobiliyatlarga bog‘liq ravishda o‘sadi.

Yuksak va oliyjanob maqsadlar kishining barcha ruhiy kuch va qobiliyatlarining o‘sishiga katta stimul bo‘lib xizmat qiladi.

Durust, ayrim vaqtlarda kishining qobiliyati bilan havaslari bir-biriga mos bo‘lmasligi ham mumkin, masalan, kishi ma’lum bir sohada qobiliyat ko‘rsatadi, ayni vaqtda boshqa bir sohaga ham qiziqadi. Bunday hodisa ko‘proq kishining qobiliyatlari hali to‘liq tarkib topib yetmagan va oshkor bo‘lmagan davrlarda uchraydi.

Qobiliyatning o‘sishida muayyan faoliyatga qiziqish va muhabbat qo‘yish bilan bir qatorda, kishi o‘z ustida ishlashi, uning mehnat faoliyati hamda bilimlari, ko‘nikma va malakalarini ijodiy ravishda qo‘llay olishi ham katta ahamiyatga egadir.

Ayrim kishilar bolalik va o‘quvchilik chog‘larida, ular uchun qulay sharoit bo‘lishiga qaramay, hech qanday o‘z zehni va qobiliyatlarini ko‘rsata olmaganliklari ma’lumdir. Bunday kishilar keyinchalik sabot va chidam bilan o‘z ustlarida mustaqil ishlashlari natijasida o‘zlarining zo‘r qobiliyatga ega ekanliklarini ko‘rsatganlar.

Ma’lumki, maktabdagi o‘quvchilar orasida darslardan ulgurmaydigan bolalar ham uchraydi. Bunday o‘quvchilarning darslardan ulgurmasdan orqada qolish sababini sinchiklab tekshirish shuni ko‘rsatadiki, ularda o‘qishga moyillik bo‘lmaydi yoki ular dars tayyorlash yo‘llarini bilmaydilar. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ularda o‘qishga bo‘lgan qiziqish va istak tug‘dirish, shuningdek, ularda dars tayyorlash malakasini hosil qilish ularning darsdan ulgurib borishlariga imkoniyat beradi.

Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida har bir pedagog

o‘quvchilarga muayyan fanlardan bilimlar berish, malaka hosil qilish, ularning his va irodasiga ta’sir etish bilan bir qatorda, ularning har birini jamiyatning munosib quruvchilari bo‘lib yetishishlari uchun tinmay o‘z ustilarida ishlash lozim ekanligini ular ongiga singdirish kerak.

O‘quvchilarning kelajak mehnat faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlari faqat ularning maktabda oladigan bilim va malakalariga bog‘liq bo‘lmay, balki, asosan, o‘zlarining bundan keyingi o‘z ustilarida tinimsiz ishlashlari orqali yangi bilimlar hosil qilib borishlariga bog‘liq ekanligini ularga uqtirib o‘tish zarurdir.

Kishining qobiliyat va iste’dodi mehnatda namoyon bo‘ladi, shu bilan birga kishi qobiliyatining o‘zi ham faqat sabot bilan mehnat qilish, tirishib tegishli bilim va malaka hosil qilish orqali kamol topadi.

MUNDARIJA

So‘zboshi 3

I QISM
PSIXOLOGIYANING UMUMIY MASALALARI

I bob. Psixologiya nima haqida bahs yuritadi? Psixologiyaning ahamiyati va metodlari. 4
II bob. Miya va psixika 26
III bob. Psixikaning taraqqiyoti 37

II QISM
SHAXS VA FAOLIYAT. SHAXS PSIXOLOGIYASI

I bob. Shaxs psixologiyasi 54
II bob. Guruh va jamoalar 61
III bob. Faoliyatning psixologik tahlili 67

III QISM
BILISHNING PSIXIK JARAYONLARI

I bob. Sezgilar. 85
II bob. Idrok 105
III bob. Xotira 128
IV bob. Xayol (Fantaziya) 152
V bob. Tafakkur 166
VI bob. Nutq 192
VII bob. Diqqat ongli faoliyatning shart-sharoitidir 208

IV QISM
SHAXSNING HISSIYOTI VA IRODAVIY JARAYONI

I bob. Hissiyot 221
II bob. Iroda psixologiyasi 249

V QISM
SHAXSNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

I bob. Temperament 271
II bob. Xarakter 278
III bob. Qobiliyat 295

Musharraf Egamberdiyevna ZUFAROVA

UMUMIY PSIXOLOGIYA

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy.
Tel: 236-55-79; faks: 239-88-61.

Muharrir *M. Tursunova*
Musahhih *H. Zokirova*
Sahifalovchi *N. Mamanov*

Bosishga ruxsat etildi: 29. 07. 2010. «Tayms» garniturasi. Ofset usulida chop etildi.
Qog‘oz bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$. Shartli bosma tabog‘i 19, 9.
Nashr bosma tabog‘i 19, 0. Adadi 628 nusxa. Buyurtma № .

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.